

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

N.K.KOMILOVA, SH.Z.JUMAXANOV

**IQTISODIY VA IJTIMOIIY
GEOGRAFIYA METODOLOGIYASI**

Darslik

**Toshkent
«Universitet»
2021**

ISBN 978-9943-01-563-0

N.K.Komilova, Sh.Z.Jumaxanov. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya metodologiyasi [Darslik]. – T.: “Universitet”, 2021. – B. 444

Hammuallif

UO‘K 33.91 (100) (075)

Ushbu darslikda iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning hozirgi zamon mazmuni, tadqiqot obyekti va predmeti, shakllanishi hamda rivojlanish xususiyatlari, ichki tuzilishi, tadqiqot usullari ko‘rib chiqilgan. Darslik O‘zbekiston Respublikasi oliy o‘quv yurtlari A5140600-Geografiya mutaxassisligi magistrantlariga mo‘ljallangan. Shuningdek, undan tayanch doktorant, doktorant va boshqa iqtisodiy va ijtimoiy geografiya bilan qiziquvchilar ham foydalanishi mumkin.

Mas’ul muharrir: geografiya fanlari doktori, professor
Y.Ahmadaliyev

Taqrizchilar: geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
M.Fayzullayev

geografiya fanlari nomzodi, dotsent
A.Xolmirzayev

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining
2021-yil 31-maydagi 237-sonli buyrug‘i bilan nashrga ruxsat berilgan

ISBN 978-9943-01-563-0

©Komilova N.Q., Jumaxanov Sh.Z.
© «Universitet» nashriyoti,
© Toshkent, 2021

KIRISH

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy sohalardagi islohotlar ta'lim tizimida ham yangidan yangi izlanishlarni taqozo etmoqda. Xususan, respublikamizda xorijiy adabiyotlarni o'rganish va ularni respublika oliy ta'lim tizimida joriy qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada Geografiya fanida ham salmoqli o'zgarishlar, yangilanishlar ro'y berdi.

Aytish o'rinliki, geograf mutaxassislar tayyorlashda, ularning boshlang'ich bilim va malakalarini oshirishda "Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya" o'quv kursi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, so'nggi yillarda sotsial geografik tadqiqotlar ko'laming oshib borayotganligi hech kimga sir emas. Hozirgi vaqtda "Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya" mutaxassisligi doirasida himoya qilinayotgan ilmiy tadqiqot ishlarining aksariyat qismi ham, aynan, sotsial geografiya tarkibidagi ilmiy yo'nalishlar doirasida olib borilmoqda.

"Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya" fani geografiya notabiiy yo'nalishining nazariy va amaliy evolutsiya natijasi, ya'ni "Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya" fanining rivojlanishi uning turli davrlarda umumiy fan sifatida nomining o'zgarishiga sabab bo'lgan: Iqtisodiy geografiya – Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya – Ijtimoiy geografiya – Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya. Professor A.Soliev ta'biri bilan aytganda, u avval iqtisodiy, so'ngra iqtisodiy va ijtimoiy, hozirgi kunda esa keng ma'noda ijtimoiy geografiya deb ham nomlanadi. Biroq, ta'kidlash joizki, bugungi kunda ushbu fan sohasi rivojlangan ko'plab xorijiy (Angliya, Fransiya, AQSh, Xitoy va h.k.) mamlakatlarda Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya "Inson geografiyasi" (Human Geography) deb atalmoqda. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya – geografiya fanlari tizimida *inson bilan bog'liq barcha ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarning hududiy jihatlarini o'rganuvchi fan* hisoblanadi. Uning shakllanishi va rivojlanishidagi muhim jihatlardan biri ijtimoiy

geografik tadqiqotlarning bosh markazida, birinchi navbatda, inson omili yotishidir.

Aytish zarurki, iqtisodiy va ijtimoiy geografiyani mustaqil fan sifatida to'la nihoyasiga yetgan deb bo'lmaydi. Ayniqsa, uning tadqiqot obyekti va predmeti, tuzilishi, fanlar tizimida tutgan o'rni bilan bog'liq jihatlariga aniqlik kiritish lozim. Bugungi kungacha respublikamizda "Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya" deb nomlanuvchi fan talabalarga o'qitilmagan, aniqrog'i, u boshqa nom bilan "Iqtisodiy-ijtimoiy geografiya" yoki "Mutaxassislikka kirish" nomlari bilan ko'pchilikka tanish bo'lgan. Xorij mamlakatlarida esa u uzoq yillardan buyon "Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya" nomi bilan ko'pchilikka yaxshi tanish. Xususan, mazkur qo'llanma ham Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining ta'lim to'g'risidagi me'yoriy hujjatlari, ilg'or xorijiy tajribalar asosida yaratilgan.

Ushbu qo'llanmaning yaratilishida asosiy manbaa sifatida Piter Xagget tomonidan yozilgan kitobdan (Geographie: Eine Globale Synthese. Verlag Eugen Ulmer, Stuttgart, 2004. ISBN: 3825280012) keng foydalanilgan. Unda Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning nazariy masalalari, uning muhim mavzulari, ayniqsa, geografiyaning fan sifatida shakllanishi, resurslar va landshaftlar, aholi, shaharlar geografiyasi va urbanizatsiya; madaniyat geografiyasi, iqtisodiy, sotsial, siyosiy geografiya; geografik tuzilmalar va jarayonlar, hududiy tizimlarni o'rganishning elementlari; hududiy modellar, geografik mehnat taqsimoti va iqtisodiy rayonlarning shakllanishi; aholi kasalliklari geografiyasi va boshqa mavzular atroflicha yoritib berilgan, shuningdek, har bir mavzu yuzasidan nazorat savollari va topshiriqlar keltirilgan.

1 – MAVZU

FANLAR TIZIMIDA IJTIMOIIY (IQTISODIY VA IJTIMOIIY) GEOGRAFIYA

Maqsad: Talabalarga iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning mustaqil fan sifatidagi ahamiyati, uning obyekti, predmeti va tuzilishi haqida tushuntirish.

Tayanch soʻz va iboralar: Iqtisodiy geografiya, sotsial-iqtisodiy geografiya, olimlarning «Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya»ni bergan taʼrifi, S.Solievning «Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya» tushunchasiga bergan taʼrifi, ijtimoiy-geografik tadqiqotlar, geoiqtisod, Oʻzbekistonda shakllangan iqtisodiy-geografik ilmiy maktablarning geografiyaning rivojlanishidagi oʻrni



REJA:

1. “Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya” fanining asosiy maqsadi va vazifalari;
2. Iqtisodiy geografiya fanining rivojlanib borishi va uning nomini oʻzgarishi.
3. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining taʼrifi.
4. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining taʼrifida eng asosiy tushunchalari
5. Iqtisodiy geografiyaybyu iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaga aylanishi
6. Oʻzbekistonda iqtisodiy va sotsial geografiyada shakllangan ilmiy maktablar.



Jamiyat rivoji bilan uni oʻrganuvchi fanlarning tadqiqot obyekti ham murakkablashib va takomillashib boradi. Bu tabiiy va oʻz-oʻzicha qonuniy holdir. Jumladan, iqtisodiy geografiyaning obyekti avvallari maʼlum bir mamlakat yoki rayonning xoʻjalik va aholisi, ishlab chiqarish kuchlarining joylanishidan iborat boʻlgan boʻlsa, keyinchalik u xoʻjalik va aholining hududiy tarkibi yoki tizimi, hududiy ijtimoiy-iqtisodiy majmualar (komplekslar) shaklini oldi. Shunga muvofiq

ushbu fanning vazifasi ham o'zgarib bordi. Chunonchi, ilgari asosiy e'tibor qaerda nima borligini o'rganishga qaratilgan bo'lsa, hozirgi kunda esa nima uchun u yoki bu voqelik aynan shu joyda vujudga kelganligini ilmiy asosda izohlab va baholab berilishi talab qilinadi. Bunday qonuniyatlarni chuqur anglash fanning amaliy (*konstruktiv*) ahamiyatini yanada oshiradi. Chunki, u endi turli yiriklikdagi hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning tahlilidan ularning tashhisiga, undan esa bashorat va boshqarish darajasiga ko'tarilmoqda.

Demak, jamiyat taraqqiyoti, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va joylanishidagi jarayonlar iqtisodiy geografiya obyektning o'zgarishiga sabab bo'ladi. Shunga mos ravishda bu fanning tadqiqot predmeti va vazifalari ham takomillashib boradi. Ayni paytda bunday evolyutsion jarayonlar fan nomini zamon talabiga muvofiqlashuviga olib keldi. Binobarin, an'anaiy iqtisodiy geografiya asta-sekin iqtisodiy va sotsial geografiyaga, u esa o'z navbatida murakkabroq va mujassamroq shaklga-ijtimoiy geografiyaga aylanmoqda.

Aytish joizki, mazkur fanning muayyan bir barqaror, barchani qanoatlantiruvchi ta'rifi mavjud emas. Bunga sabab-geografiya fanning keng qamrovligi, obyekt va nomining davr mobaynida o'zgarib turishi bo'lishi mumkin. Shu bilan birga iqtisodiy geografiya ta'riflarining ko'pchiligida ishlab chiqarish kuchlari, ularning joylashish xususiyatlari ta'kidlanadi. Bular ushbu fanning o'zak tushunchasiga, aksiomasiga aylanib qolgan. Albatta, bu bejiz emas, zero iqtisodiyotning asosini ishlab chiqarish kuchlari, iqtisodiy geografiyaning mohiyatini esa ularning joylashuv xususiyatlari belgilab beradi. qolaversa, rivojlanish faqat aniq bir joyda, makonda amalga oshadi, shu bois joylanish rivojlanishining hududiy in'ikosidir.

Masalaga bunday yondashuv nazarimizda iqtisodiy geografiyaning tarixiy rivojlanishi bilan bog'liq. Ma'lumki, ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirish muammolari dastavval Yevropada, xususan Germaniyada nemis olimlari I.Tyunen,


A.Veber, A.Lyosh, V.Kristaller va boshqalar tomonidan amaliyotda ko'rib chiqilgan. Biroq ular o'zlarining joylashtirish (shtandort) g'oyalarining natijasini «iqtisodiy geografiya» deb ta'riflashmagan. Aksincha, bu masalalar ko'proq hududiy iqtisod yoki geoiqtisod doirasida, iqtisodiyot fanining bir qismi sifatida qaralgan.

O'ylaymizki, hozirgi kunda ham fanning ta'rifida «ishlab chiqarish kuchlarining joylashuvi» iborasini qoldirish kerak, zero har qanday joylashtirish muayyan bir hududda amalga oshiriladi. Ammo fanimizning bugungi predmeti uchun bu kifoya qilmaydi. Sabab u endi iqtisodiygina emas, balki iqtisodiy va sotsial-ijtimoiy geografiya maqomini olmoqda. Shu vajdan, bunday ta'rif fanning nomi bilan mazmuni, shakl va mohiyatini muvofiqlashtirmaydi.

To'g'ri, «ishlab chiqarish kuchlari» eng avvalo uning subyekti, egasi – aholini ham o'z ichiga oladi. Lekin bu yerda aholi asosan ish kuchi mazmunida, ya'ni iqtisodiy kategoriya shaklida nazarda tutiladi. Inson, uning ijtimoiy hayoti, sotsial munosabatlari esa bu ibora qamrovidan chetda qoladi. Busiz fan ilgariydek iqtisodiy, ishlab chiqarish geografiyasi bo'lib qolaveradi. Shunga muvofiq ushbu fanning vazifasi ham o'zgarib bordi. **Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining asosiy vazifalari:**

- ❖ ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirish qonuniyatlari hamda omillarini o'rganish;
- ❖ tabiiy sharoit va tabiiy resurslarning mamlakatlar iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishidagi roli va o'rni;
- ❖ aholi geografiyasi, mehnat resurslari, turli mamlakatlarda mehnat resurslarining sifati va malaka tarkibi, migratsiya va urbanizatsiya masalalarini tadqiq qilish;
- ❖ iqtisodiy geografiyaning tarkibi va hududiy rivojlanish xususiyatlarini, xalqaro iqtisodiy-ijtimoiy tizimlar faoliyatini o'rganish;

❖ siyosiy va madaniy geografik tadqiqotlar, ularning rivojlanish xususiyatlarini o'rganish; insoniyat oldida turgan umuminsoniy hamda mintaqaviy muammolarni o'rganish.



1-rasm. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya bilan aloqador fanlar

Inson, uning ijtimoiy hayoti, sotsial muhitdagi o'zaro munosabatlari esa bu ibora qamrovidan chetda qoladi. Busiz fan ilgari dagidek iqtisodiy, ishlab chiqarish geografiyasi bo'lib qolaveradi. Yuqoridagi fikr va mulohazalaridan kelib chiqqan holda, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya ta'rifini, taxminan, shunday berish mumkin: *Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya mustaqil fan sifatida turli mamlakat va rayonlarda ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish va joylanish xususiyatlarini hamda inson hayot-faoliyati va yashash tarzining hududiy jihatlarini o'rganadi.* Qisqacha qilib esa ijtimoiy geografiyani jamiyat hayoti va faoliyatini hududiy tashkil etish to'g'risidagi fan, deb ta'riflash to'g'ri bo'ladi.

Geografiya fanining fanlar tizimida tutgan o'rni qanday? (1-rasm) Geografiyani yagona fan deyish mumkinmi? Faylasuf olim B.M Kedrov fanlar tizimini ikki guruhga ajratgan edi. Bular:

IQTISODIY VA IJTIMOIIY GEOGRAFIYA METODOLOGIYASI

✚ bilish haqidagi umumiy fanlar (falsafa, mantiq);


✚ tabiiy, aniq va texnik fanlar (geologiya, biologiya, kimyo, fizika, matematika va boshqalar);

Xo'sh, zamonaviy fanlar tizimida geografik fanlar qanday o'rin tutadi? Geografiya yagona fanmi? Yoki bir necha alohida fanlardan tashkil topganmi?

Piter Xagget o'zining «Geografiya: global sintez» (“Geographie: Eine Globale Synthese”) kitobida geografiya fanining to'rt asosiy tarmog'ini ajratadi (2-rasm):

1. Geografiya falsafasi;
2. Tarmoqlar geografiyasi;
3. Mintaqaviy geografiya;
4. Tadqiqot metodlari.

Bu haqida bir qancha qarashlar mavjud. Chunonchi, rus olimi B.B.Rodoman (1999), “Geografiya – umumiy ekologik qarashlar va hududiy tadqiqot usullarining birlashuvidan vujudga kelgan yagona fan” deb hisoblaydi.



2-rasm. Piter Xagget bo'cha geografik fanlarni tasnifi

Britaniyalik olim R.D.Djonstonning (1997) fikri bu boradagi qarashlardan birmuncha boshqacharoq. Jumladan, olim, – “Ijtimoiy geografiya tabiiy geografik fanlarga nisbatan boshqa ijtimoiy fanlar bilan ko'proq uzviy aloqadordir, ya'ni tabiiy va ijtimoiy (inson geografiyasi) geografiya – bu ikki boshqa-boshqa

fanlardir”, – deya ta’rif beradi. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya jahonning turli mamlakat va mintaqalarida turlicha nom bilan ataladi. Chunonchi:

- ingliz tilida so‘zlashuvchi davlatlarda “Human geography”, ya’ni inson geografiyasi, insoniy geografiya, ijtimoiy geografiya;

- nemis tilida so‘zlashuvchi davlatlarda “die Humangeographie” (ijtimoiy) yoki “Anthropogeographie” (anthropo – grek tilida inson ma’nosini anglatadi), “Kulturgeographie” (ma’daniy geografiya);

- fransuz tilida so‘zlashuvchi mamlakatlarda “Geographie humaine”, ya’ni inson geografiyasi;

- Rossiya va Qozog‘istonda 1990-yillar boshlarida iqtisodiy va ijtimoiy geografiya ko‘proq iqtisodiy, sotsial va siyosiy geografiya nomi bilan, 2007-yildan boshlab iqtisodiy, sotsial, siyosiy va rekreatsiya geografiyasi nomi bilan atala boshladi.

Rus olimi V.S. Jekulin (1989) geografik fanlarni quyidagi to‘rt blokka ajratgan:

- ❖ **Tabiiy fanlar:** tabiiy geografiya (*landshaftshunoslik, poliogeografiya*);
- ❖ **Ijtimoiy fanlar:** sotsial-iqtisodiy geografiya, aholi geografiyasi, siyosiy geografiya, tarmoqlar geografiyasi (*sanoat geografiyasi, qishloq xo‘jaligi geografiyasi, transport geografiyasi va boshqalar*);
- ❖ **Tabiiy-sotsial fanlar:** majmuaviy geografiya (*tibbiyot geografiyasi, sotsial ekologiya, geoekologiya, rekreatsiya geografiyasi*);
- ❖ **Tarixiy geografiya, toponimika, metageografiya, kartografiya singari muhim sohalar.**

Yuqoridagi fikr va mulohazalardan kelib chiqqan holda iqtisodiy va sotsial geografiya ta’rifini, taxminan, shunday berish mumkin: **iqtisodiy va sotsial geografiya** mustaqil fan sifatida *turli mamlakat va rayonlarda ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish va joylanish xususiyatlari hamda inson hayot faoliyati va*

yashash tarzining hududiy jihatlarini o'rganadi. Qisqacha qilib, ijtimoiy geografiyani jamiyat hayoti va faoliyatini hududiy tashkil etish to'g'risidagi fan deb ta'riflash to'g'ri bo'ladi. Shubhasiz, keltirilgan ta'rif ham mutloq aniqlikka da'vogar emas. Ammo, shu bilan birga aminmizki, u iqtisodiy va ijtimoiy jabhalarni o'z doirasiga olgan holda fanning tub mohiyatini o'zida aks ettiradi va uni to'la ifodalab beradi.

Berilgan ta'rifning ega va kesimi, aniqlovchisi va to'ldiruvchisi, ya'ni birinchi va ikkinchi darajali qismlari mavjud. Chunonchi, agar ushbu ifodalardan gapning egasi «turli mamlakat yoki rayon», «hudud» tushunchalari olib tashlansa, u holda geografiyaga o'rin qolmaydi. Demak, aynan ana shu iboralar ushbu ta'rifning geografiyaga taalluqliligidan dalolat beradi.

Huddi shunday, «xususiyat» (kesim) so'zi ham geografiya uchun o'ta muhimdir. Chunki, fanning asosiy, pirovard maqsadi ishlab chiqarish kuchlarining joylashuvi, inson hayot tarzining turli rayonlardagi o'ziga xos va betakror xususiyatini ochib berishidan iboratdir (tarixda ham aynan shunday: jamiyat taraqqiyotidagi turli davrlar xususiyati aniqlanmasa, ushbu fan o'z mohiyatini yo'qotadi). Zero, hamma joyda bor narsa geografiyada mutlaqo bo'lmasligi kerak. Agar hamma joy bir rangda tekis, bir xil darajada bo'lganda edi, geografiyaning ham, qolaversa jamiyat rivojlanishining ham o'zi bo'lmas edi.

Bizning ta'rifimiz qo'pol bo'lmasligi va kengayib ketmasligi uchun unga majmualar yoki komplekslar (tizimlar) g'oyasi kiritilmadi. Aslida esa iqtisodiy va sotsial geografiya o'zi o'rganayotgan voqelikni muayyan hududda va faqat alohida-alohida emas, balki o'zaro aloqadorlikda, ya'ni ma'lum bir hududiy tizimlar doirasida ko'radi.

Shu bois yuqoridagi berilgan ta'rifni yanada mukammallashtirsa bo'ladi, ya'ni: **«iqtisodiy va sotsial geografiya** ishlab chiqarish kuchlarini turli mamlakat yoki rayonlarda rivojlanish va joylanish xususiyatlari hamda inson faoliyati va

yashash tarzini hududiy ijtimoiy- iqtisodiy tizimlar doirasida o'rganadi», deb ifodalash mumkin.

Satrlar ostida iqtisodiy va sotsial geografiyani ijtimoiy geografiya deb atashga moyilligimiz sezilib turibdi. Bu, birinchidan, fanning o'zini ichki rivojlanish qonuniyatlari, undagi differentsiatsiya va integratsiya jarayonlari bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, ushbu fan nomini rivojlangan mamlakatlardagi shakliga muvofiqlashtirish bilan asoslanadi. Darvoqe, ko'pgina xorijiy mamlakatlarda fanimiz aynan shunday: ijtimoiy, gumanitar yoki inson geografiyasi sifatida rasman qabul qilingan.

Bundan tashqari, yana bir masalaga e'tibor beraylik. Ma'lumki, geografiyaning bosh falsafiy masalasi tabiat bilan inson(jamiyat) o'rtasidagi munosabat va aloqadorlikni o'rganishdan iboratdir. Bu ikkilikning biri-tabiatni o'rganuvchi fanlar turkumini «tabiiy geografiya» deb yuritilishi hech kimda shubha qoldirmaydi. Ammo uning ikkinchi bo'lagi, ya'ni inson yoki jamiyat masalalarini tadqiq etuvchi fanni bir so'z bilan qanday ifodalash mumkin? Aniqki, bu yerda «iqtisod» so'zi hech to'g'ri kelmaydi va u tabiatga muqobil tura olmaydi. Iqtisod va hayot, iqtisod va siyosat bo'lishi mumkin, biroq tabiat va iqtisod birligi, juftligi aslo mos emas. Binobarin, ana shu mantiqiy mulohaza nuqtai nazaridan ham notabiiy geografik fanlar majmuini inson, jamiyat geografiyasi yoki yanada to'g'rirog'i ijtimoiy geografiya deb yuritishga asos bo'lsa kerak.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, iqtisodiy va sotsial geografiyani ijtimoiy geografiya shaklida ifodalash faqat biz kiritgan yangilik emas, aslo. Hatto sobiq Ittifoqda ham ushbu tushuncha ko'pchilik olimlar (Y.G.Saushkin, V.M.Goxman, S.Y.Nimmik, M.D.Sharigin va boshqalar) tomondan ancha yillar muqaddam ishlatilgan edi. Professor A.Soliyev fikriga ko'ra, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining ichki tuzilishi to'rt asosiy qismdan yoki blokdan iborat bo'lib, ular quyidagilar:

1. **Iqtisodiy geografiya** – sanoat geografiyasi, qishloq xo‘jaligi geografiyasi, transport geografiyasi, qurilish geografiyasi, tabiiy resurslar va ulardan foydalanish geografiyasi va h.k.
2. **Sotsial-iqtisodiy geografiya** – aholi va aholi punktlari geografiyasi, shaharlar geografiyasi (geourbanistika), qishloqlar geografiyasi, aholiga xizmat ko‘rsatish sohalari (*savdo, madaniy, maishiy, maorif va boshq.*) geografiyasi, tijorat geografiyasi va h.k.
3. **Sotsial geografiya** – tibbiyot geografiyasi, rekreatsiya geografiyasi, din geografiyasi, jinoyat geografiyasi, geopsixologiya, turmush tarzi geografiyasi va boshq.
4. **Siyosiy geografiya** – geosiyosat, limologiya, geokonfliktologiya, harbiy geografiya va boshqalar.

Har qanday fan alohida fan sifatida faoliyat olib borishi uchun avvalo u o‘z tadqiqot obyektiga, o‘zining predmetiga ega bo‘lishi kerak. Bu yerda obyekt serqirrali borliq, hodisa yoki voqealar bo‘lib, u birgina fan uchun emas, balki ko‘p fanlar birikmasi uchun xizmat qiladi. Vaholanki har bir fan hodisa yoki voqealarni o‘zining xususiyati va mohiyatiga ko‘ra faqat bir tomonini o‘rganadi. Ana shu bir tomoni yoki aspektini o‘rganish har qaysi fanning predmeti hisoblanadi va u aniq bir narsani o‘rganishini bildiradi.

Demak, obyekt keng qamrovli tushuncha, predmet esa nisbatan tor manoda bo‘lib, u shu obyektning qaysi tomonini o‘rganishini bildiradi. Masalan: aholi ayni paytda, iqtisodchilar, demograflar, etnograflar, sotsial geograflar va boshqa fan vakillarini qiziqtiradi.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning tadqiqot objekti va predmeti haqida turli xil fikrlar mavjud. A.Y.Skopinning fikriga ko‘ra, iqtisodiy geografiyaning objekti antroposfera (ekosfera) bo‘lib, bu yerda xo‘jalik faoliyati rivojlanadi, tadqiqot

predmeti esa, tizimli yondashuvlar asosida geoiqtisodiy muammolar yechimini izlash va antroposferaning transformatsiyasini o'rganishdir.

Y.G. Saushkin fikriga (1973, 5-b) ko'ra, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya - hududiy ijtimoiy iqtisodiy tizimlarning shakllanishi, faoliyati va rivojlanish jarayonlari va ushbu tizimlarni boshqarish haqidagi fandır. A.I. Chistobayev, M.D. Sharigin, V.V. Voronin va boshqalar iqtisodiy va ijtimoiy geografiya hududiy ijtimoiy tizimlarni o'rganadi deb hisoblashadi.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaga tegishli ayrim **ilmiy muammolar** quyidagi olimlari va turli maktablar tomonidan ham o'z yechimini topgan:

- ❖ ingliz G.G.Chizxolng - *tijorat geografiyasi*;
- ❖ niderland X.Bos, shvetsariyalik G.Besh - *jahon xo'jalik geografiyasi*;
- ❖ amerikalik olimlar U.Izard hamda V.Leontyev - *hududiy iqtisod*;
- ❖ fransuz F.Perru - *qutblar va hududiy tengsizlik nazariyasi*;
- ❖ P.Xagget - *iqtisodiy geografiyada hududiy tahlil*;
- ❖ AQSh olimi D.Harvey - *geografiya fanining umumnazariy masalalari*;
- ❖ AQSh olimi G.Uayt - *tabiiy resurslar va tabiiy ofatlarga bag'ishlangan asarlari shular jumlasidandir*.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada **obyekt bo'lib** ishlab chiqarish kuchlari, ularni hududiy tashkil etish, hududiy sotsial-iqtisodiy tizimlar xizmat qiladi.

Yuqoridagi fikr va muloxazalardan kelib chiqqan holda iqtisodiy va ijtimoiy geografiya tarifini quyidagicha keltirish mumkin. *Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya ijtimoiy fan sifatida turli mamlakat va rayonlarda ishlab chiqarish kuchlarini joylanish va rivojlanish xususiyatlarini hamda inson hayot faoliyati va yashash tarzining hududiy jihatlarini o'rganadi.*

Iqtisodiy geografiyaning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaga aylanishi. Yangi sharoitdagi o'zgarishlar iqtisodiy geografiyaning rivojlanishiga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Chunki, ushbu fan bevosita iqtisodiy munosabatlarni, ishlab

chiqarish kuchlarining hududiy jihatlarini tahlil va tashhis etadi. Binobarin, bozor iqtisodiyoti tarmoq doirasidan tashqari hudud tizimida ham sodir bo'ladi, korxonalarining erkin munosabati yoki tarmoqlar raqobati ayni paytda sog'lom raqobat, sog'lom raqobat muhitini nazarda tutadi. Zero, har qanday raqobat zaminida tengsizlik, nomuvofiqlik yotadiki, bu xususiyatlar ayni chog'da hududlar tarkibida ham namoyon bo'ladi. Hududiy mehnat taqsimotidagi bunday o'zgarishlar, turdosh va turli tarmoqlarga ixtisoslashgan rayonlarning o'zaro raqobatda («*musobaqada*») rivojlanishi o'zining mohiyati va mazmuniga ko'ra iqtisodiy geografik jarayonni anglatadi. Shuningdek, yagona iqtisodiy makon, erkin iqtisodiy mintaqalar, o'sish qutb va markazlari, sanoat parklari va texnopolislar bevosita iqtisodiy ma'noga ega.


Alohida ta'kidlash lozimki, bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiy geografiya o'zining tub mohiyatiga erishadi. Sababi- bunday sharoit hamma vaqt iqtisodiy fikrlashni, samaradorlikni taqozo etadi va ishlab chiqarishni hududiy tashkil etish ham huddi shunday maqsadni ko'zlaydi. Demak, bozor iqtisodiyoti-hudud iqtisodiyoti, ma'lum makon doirasida erishiladigan iqtisodiyot hamdir.

Shu mazmunda qaraganda, «iqtisodiy» geografiya iqtisod geografiyasi (masalan, sanoat yoki qishloq xo'jaligi geografiyasi) yoxud geoiqtisodiyot ham emas. Iqtisod geografiyasi bu eng avvalo korxonalar yoki tarmoqlarning hududiy tarqalishidagi iqtisod bo'lsa, iqtisodiy geografiya unga ko'ra ancha murakkabroq tushuncha hisoblanadi.

Iqtisod geografiyasi uchun nimaning qayerda joylashishi muhim bo'lsa, iqtisodiy geografiyada nimaning qaerda va qanday hududiy tashkil etilganligi, ya'ni sifat ko'rsatkichlari ustuvor ahamiyatga egadir. Bu o'rinda aytish lozimki, ushbu fan yaqin vaqtga qadar asosan birinchi mazmunda talqin qilindi va o'rganildi, ikkinchi yo'nalishning rivojlanishi esa hozirgi kundagi dolzarb masaladir.

Iqtisodiy geografiya ikki karra ikkining to'rt emas, besh bo'lishini ko'zlaydi va bunday iqtisodga ishlab chiqarish korxonalarini to'g'ri hududiy tashkil etish natijasida erishiladi. Shuning uchun u, eng avvalo, hududiy majmua yoki tizimlar doirasida yuzaga kelishi mumkin. Chunki, bunday sharoitda turli xo'jalik korxonalarining o'zaro uyg'unlashuvi, hududiy muvofiqligi vujudga keladi va bu «qo'shimcha» iqtisodning shakllanishiga olib keladi.

«Shtandort» yoki ishlab chiqarishni joylashtirish g'oyasining yaratuvchisi nemis olimi A.Veber (1868-1958) ham avvalambor ana shunday iqtisodiylikni nazarda tutgan edi. «Aglomeratsion omil» va samaradorlik, transport harajatlarini



3-rasm. Shtandort nazariyasi asoschisi A.Veber

mumkin qadar kamaytirish, yagona infrastruktura tizimi asosida iqtisodiy tejamkorlik va foydani orttirish ishlab chiqarishni hududiy tashkil etish tufayli amalga oshiriladi (3-rasm). Buning uchun turli ko'lamdagi hududiy ishlab chiqarish majmualari shakllantiriladi va rivojlantiriladi. Bunday majmualar esa eng avvalo haqiqiy iqtisodiy geografiyaning tadqiqot obyektiga kiradi.

Geoiqtisod, ya'ni geografik iqtisod masalasiga kelsak, u hozirgi aytilgan ma'noga biroz yaqinroq turadi. Bundan tashqari, uni regional yoki hudud, aniqrog'i mintaqa iqtisodiyoti mazmunida ham e'tirof qilish mumkin. U holda bu ma'lum bir region yoki mintaqadagi xo'jalik majmuasining iqtisodiyoti shaklida qabul qilinadi. Umuman olganda esa geoiqtisod xuddi siyosiy iqtisod yoki tarmoq iqtisodiyoti – «iqtisodiy iqtisod» tushunchalariga o'xshash iboradir.

Yana shuni e'tiborga olish lozimki, mustaqil mamlakatimizning bozor munosabatlariga o'tishi ayni paytda an'anaviy iqtisodiy va sotsial geografiya fanining jahon andozalariga mos ravishda ijtimoiy geografiya maqomini olishiga

to'g'ri kelmoqda. Albatta, bu yerda ham ijtimoiy geografiya jamiyat geografiyasi bo'lmay, u mazmun va maqsadiga ko'ra murakkabroq va mukammalroq tushunchadir. Ijtimoiy geografiya avvalambor jamiyatni yoki kishilar hayot faoliyatini hududiy tashkil etish muammolari bilan shug'ullanadi. Tashkil etish esa hamma vaqt yetuk va mukammal tizimlar g'oyasiga muvofiq boshqarishni nazarda tutadi va bu masala ham bozor iqtisodiyoti sharoitida o'zgacha amalga oshiriladi. Sababi-mulkchilikning turli shakllarini mavjudligi, uning davlat tasarrufidan chiqarilishi, o'z navbatida, bu sohadagi davlatning an'anaviy funksiyasini o'zgartiradi. Endigi sharoitda davlat ishlab chiqarishni rivojlantirish va hududiy tashkil etish muammolarini bevosita emas bilvosita, ya'ni soliq, narx-navo, moliya-kredit va mintaqaviy siyosati doirasida amalga oshirib yoki tartibga solib boradi.


Iqtisodiy geografiyaning ana shunga o'xshash nazariy va amaliy muammolarini tadqiq qilish hozirgi kundagi muhim masalalardan hisoblanadi. Bu bosh maqsadga erishish uchun tadqiqotchi ma'lum ilmiy o'rganish vosita yoki usullarni yaxshi bilishi va ulardan amalda foydalana olish kerak.

O'quv va ilmiy-tadqiqot metodlari turlicha. Biroq, ularning samaradorligi, muvaffaqiyati eng avvalo alohida usullarni o'z o'rnida va bir-biri bilan aloqadorlikda qo'llashdir. Iqtisodiy geografiyada ayniqsa, statistika va kartografiya metodlaridan foydalanish katta ahamiyatga ega.


O'zbekistonda iqtisodiy va sotsial geografiyada shakllangan ilmiy maktablar. Tarixning tarixi borligidek, geografiya fanining ham o'ziga xos geografiyasi bor. Shu bilan birga, tarixning geografiyasi, geografiyaning tarixi ham mavjud. Binobarin, bu fanlar doimo birgalikda rivojlanib, davr va makon darajasida o'zaro aloqadorlikda rivojlangan; tarixiy nuqtai nazardan, turli voqea va hodisalar aniq bir hududda – zaminda sodir bo'lib o'tgan, yer yuzi geografiyasi esa davrlar o'tishi bilan o'zgarib borgan. Shu bois, geografiyani tarix orqali bilish,

o'rganish mumkin. Besabab emaski, buyuk olimlar, allomalar (*Gerodot, Strabon, V.Bartoldt, H.Hasanov va b.*) tarixiy va geografik yondashuvlardan uyg'unlashtirgan holda foydalanishgan.


Hozirgi O'zbekiston hududida dastlabki geografik dunyoqarashlar, geografik ilmning ilk negizlari qadimda sug'orma dehqonchilik madaniyatining rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan. Bu davrda u obyektiv zaruriyat, ijtimoiy ehtiyoj ta'sirida turli xil "geo" tizimidagi fanlar, shuningdek, astronomiya, matematika, tarix kabilar bilan birga va bir vaqtda shakllanib brogan hamda fanga xos "Geografiya jamiyati axboroti (oldingi «Известия Туркестанского отдела Русского географического общества»)» nomli ilmiy to'plam tashkil etildi. Bu orqali geografiyaga oid eng sara ilmiy ishlar chop etilib bordi (4-rasm).




“Imperatorlik Rus geografiya jamiyati Turkiston bo‘limining axboroti”, 1-jild, 2-qism, 1899-y.



“O‘zbekiston geografiya jamiyati axboroti”, 9-jild, 1966-y.



“O‘zbekiston geografiya jamiyati axboroti”, 15-jild, 1989-y.



“O‘zbekiston geografiya jamiyati axboroti”, 57-jild, 2020-y.

4-rasm. O‘zbekiston Geografiya jamiyati ilmiy to‘plamlarining turli yillardagi nashrlari

Bugungi kun nuqtai nazaridan qaraganda, har qanday ilmning, jumladan, geografiya fanining vujudga kelishi va rivojlanib borishi, eng avvalo, buyuk kashfiyotlar, fundamental tadqiqotlar, yirik monografiyalar, ilmiy markaz va

maktablarning shakllanishi bilan tavsiflanadi. Bu borada geografiya yo'nalishidagi ilmiy tadqiqot institutlari, fakultet va kafedra, geografiya jamiyatining mavjudligi ham katta ahamiyatga ega.

O'zbekistonda hozirgi zamon geografiya ilmining shakllanishi asosan o'tgan asrning 30-40 yillaridan boshlangan va keyingi davrlarda rivojlanib borgan. Bu davrda V.M.Chetirkin, N.L.Korjenevskiy, V.L.Shuls, L.N.Babushkin, Y.A.Skvortsov, A.M.Ryabchikov, O.P.Sheglova, Poslavskaya, N.A.Kogay, I.N.Stepanov, N.V.Smirnov kabi olimlar muhim tadqiqotlar olib borishgan. XX asrning ikkinchi yarmida mahalliy olimlar ham yetishib chiqqan va ular respublikamizda geografiya ilmi va ta'limi rivojlanishiga katta hissa qo'shishgan. Xususan, H.Hasanov, Z.Akramov, M.Qoriyev, M.Qoraxonov, F.Mo'minov, X.Salimov va boshqalar o'zlarining muhim tadqiqotlari bilan ajralib turadi. Keyinchalik respublikamiz geograf olimlarining saflari kengaygan, A.Abdulqosimov, L.Alibekov, M.Mamatqulov, A.Rafiqov, T.Mirzaliev, R.Raximbekov, O.Ata-Mirzayev, T.Raimov, A.Soliyev, A.Nigmatov, A.Maqsudov, A.Ro'ziyev, B.Kamolov, T.Djumayev, A. Qayumov, Y.Umarov, S.Abbosov, B. Baxritdinov, A.Abdullayev, S.Qorayev, X.Vaxobov, A.O'razboyev, N.Sabitova, P.Baratov, I.Nazarov, G.E.Glazirin, G.N.Trofimov, F.H.Hikmatov, Y.Sultonov, M.Yusupov, R.Qurbonniyozov, E.Safarov, N.Komilova, G'.Pardayev, Y.Ahmadaliyev, T.Mallaboev, M.Yangiboyev, A.Mamatov singari fan va geografiya ilmi fidoiylari samarali izlanishlar olib borishgan.

Mustaqillikgacha bo'lgan davrda geografiya ilmi rivojlanishining muhim xususiyati, ibratli jihatlari ko'zga tashlanadi. Ularning *birinchisi* bevosita dala kuzatuvlari, mintaqaviy tadqiqotlar, ekspeditsiyalar bilan bog'liq bo'lgan. Ustyurt, Farg'ona, Surxon-Sherobod, Zarafshon vodiylari, Mirzacho'l, Qarshi cho'llari, Angren-Olmaliq tog'-kon sanoat rayoni, Janubiy-g'arbiy O'zbekiston, Quyi

Amudaryo mintaqalari, Toshkent, Samarqand shaharlari miqyosida fundamental tadqiqotlar amalga oshirilgan va shu asosda yirik monografik asarlar yaratilgan.

O'tgan davr geografiya fani rivojlanishining *ikkinchi* xususiyati uning boshqa turdosh yoki "qo'shni" fanlar bilan aloqadorligida, integratsion salohiyatida namoyon bo'ladi. Zero fanimizning geografik "o'rni" shuni taqozo etadi. Chunonchi, tabiiy geografiya biologiya, tuproqshunoslik, meteorologiya va iqlimshunoslik, iqtisodiy (ijtimoiy) geografiya esa iqtisodiyot, shaharsozlik, sotsiologiya, siyosatshunoslik, demografiya kabi yo'nalishlar bilan hamkorlikda rivojlanib borgan. Shu o'rinda geografiya fani rivojlanishining o'tgan davrdagi yana bir muhim xususiyatini e'tirof etish zarur. Bu ham bo'lsa tadqiqotlarning kompleksligi, tabiiy va iqtisodiy geograflarning hamjihatlikda ilmiy izlanishlar olib borishganligidir.

Umuman olganda, sobiq Ittifoq davrida tabiiy geografiyada landshaftshunoslik, agroiqlimshunoslik, iqtisodiy geografiyada esa qishloq xo'jaligi - agrogeografiya hamda aholishunoslik va shaharlar geografiyasi – geourbanistika aniq shakllangan ilmiy yo'nalishlar sifatida rivojlanib borgan. SHuningdek, gidrologiya sohasida umumiy gidrologiya, gidrometeorologiya, muzshunoslik, kartografiyada sotsial-iqtisodiy kartografiya ustuvorroq bo'lgan. Ushbu yo'nalishlarning asosiy markazlari Toshkent va Samarqand shaharlari, ularda faoliyat ko'rsatgan oliygohlar universitetlar hisoblangan. Demak, bu davrda respublika geografiya ilmining geografiyasi, hududiy tashkil etilishi torroq va ko'proq monotsentrik ko'rinishga ega bo'lgan.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishuvi geografiya fani rivojida ham alohida davrni boshlab berdi. Bu davrda fanning ko'proq fundamental emas, frontal rivojlanishi ko'zga tashlanadi. Siyosiy mustaqillik, milliy iqtisodiyotning bozor munosabatlariga o'tishi, ijtimoiy sohalardagi tub o'zgarishlar, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va boshqalar geografiya ilmi

va yangi yo'nalishlarini belgilab berdi. Ular, avvalambor tabiiy geografiyada geoekologiya, iqtisodiy geografiyada ijtimoiy (sotsial) tadqiqotlar, gidrologiya sohasida suv resurslaridan samarali foydalanish, transchegaraviy daryolar muammolari, kartografiya, geodeziya va kadastrda milliy kartografiya, mavzuli devoriy xarita va atlaslar, viloyatlar o'lkashunoslik atlaslarini yaratish, kadastr masalalari va boshqalardan iborat.

Ko'rinib turibdiki, so'nggi yillarda tadqiqot mavzulari torroq, chuqur ixtisoslashgan va, ayni vaqtda, aniqroq sifatlarni kasb etgan, mayda masshtabli tadqiqotlar o'rnini yirik masshtabli tadqiqotlar, kichik hududlar muammolari dolzarb bo'lib qolmoqda. Tabiiyki, bunday ilmiy yo'nalishlarning amaliy (konstruktiv) ahamiyati kattaroq, biroq fundamental, fanning nazariy – metodologik masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar ancha zaiflashdi, afsuski, dala ekspeditsiyalari deyarli unitildi, ilmiy ishlar asosan kameral mazmun kasb etdi, ular tabiiy geografiyada ilgari yaratilgan muhim asarlarga, iqtisodiy-ijtimoiy geografiyada – aniqlik darajasi to'liq bo'lmagan statistik ma'lumotlar tahliliga, ba'zan sotsiologik tadqiqotlarga asoslanmoqda, xolos.

Shu bilan birga alohida qayd etish zarurki, mamlakatimizda geografiya ilmining geografiyasi biroz bo'lsa-da kengayib bormoqda. U avvalroq shakllangan Toshkent va Samarqand viloyatlaridan tashqari Farg'ona, Nukus, Namangan shaharlarida ham o'ziga xos mintaqaviy markazlar sifatida rivojlanmoqda. Albatta, alohida hududlar – mintaqalar miqyosida respublikamiz ilm-fan, madaniyat markazi – **poytaxt Toshkent** yetakchi mavqega ega. Bu yerda (asosan, O'zMU va qisman TDPU da) fan doktorlari va nomzodlarning ko'pchiligi mujassamlashgan. Shuningdek, geograf olimlar Toshkent iqtisodiyot universiteti va moliya institutida ham faoliyat ko'rsatishmoqda.

Poytaxt mintaqasida geografiya fanining turlanishi (diversifikatsiyasi), har xil yo'nalishlarga ixtisoslashuvi, boshqacha qilib aytganda, ko'p funksiyaligi

ko'zga tashlanadi. Xususan, tabiiy va iqtisodiy (ijtimoiy) geografiyaning umumiy masalalari, geomorfologiya, geoekologiya, aholi va shaharlar geografiyasi, urbanizatsiya, aholiga xizmat ko'rsatish (servis) geografiyasi, sof sotsial geografik tadqiqotlar – nozogeografiya, jinoyatchilikning hududiy jihatlarini o'rganish keng yo'lga qo'yilgan.

Quruqlik gidrologiyasi, gidrometeorologiya, sotsial-iqtisodiy kartografiya, geodeziya va kadastr, agroiqlimshunoslik, terminshunoslik va toponimika muammolari ham tahlil va tadqiq qilinmoqda. Yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, yirik monografik asarlar yaratish, turli mavzularga bag'ishlangan ilmiy-amaliy konferentsiyalar aynan shu mintaqaga to'g'ri keladi. Geografiya jamiyati prezidiumi va uning – “O'zbekiston Geografiya jamiyati axboroti” ham Toshkent mintaqasida, aniqrog'i Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida o'z faoliyatini olib bormoqda.

So'nggi yillarda mintaqa olimlari: O.Ata-Mirzayev, A.Soliyev, A.Qayumov, T. Mirzaliyev, H.Muborakov, E.Safarov, P.G'ulomov, M.Mirakmalov, Sh.Zokirov, I.Xasanov, N.Komilova, M.Nazarov, Z.Tojjeva, Z.Abdalova, F.Hikmatov, G'.Yunusov, D.Aytboyev, A.Egamberdiyev, S.Qoriev, Sh.Sharipov, Sh.Qurbonov, A.Abdullayev, A.Nizomov, V.Fedorko va boshqalar tomonidan nashr ettirilgan darslik hamda monografiyalar respublikamiz geografiya ilmi va ta'limining rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Farg'ona mintaqasi O'zbekistonda geografiya ilmi rivojlanishida o'ziga xos hudud hisoblanadi. Bu rayonda an'anaviy holda qishloq xo'jaligi geografiyasi, landshaftshunoslik, o'simliklar geografiyasi, gidrometeorologiya va yer-suv resurslaridan foydalanish, aholi va shaharlar geografiyasi, transport va ijtimoiy geografiya, toponimika, sanoat, jumladan, qo'shma korxonalar geografiyasi kabi yo'nalishlar mintaqaning bu boradigi “ixtisoslashuvini” belgilab beradi. Vodiy geograflari M.Yusupov, A.Valixonov, A.Maqsudov, Y.Sultonov, A.Jalilov,

R.Usmonov, I. Abdug'aniev, A.Xatamov singari marhum olimlarning ishlari ularga munosib ravishda davom ettirilib kelinmoqda. T.Mallaboyev, B.Kamalov, Y.Ahmadaliyev, K.Boymirzayev, M. Mamajonov, O.Abdug'aniyev, R.Qodirov, Sh.Jumaxonov, X.Mirzaahmedov, A.Qozoqov, A.Nazarov, M.Mahmudova, U.Obidov, A.Baratov, R.Pirnazarov, O.Qo'ziboyeva, A.Isayev va boshqalar samarali ilmiy-pedagogik faoliyat olib borishmoqda. Ayniqsa, yetakchi olimlar tashabbusi bilan tashkil etilgan Farg'ona vodiysi geograflarining mintaqaviy uyushmasi (VGMU) va u tomonidan muntazam ravishda ko'chma yig'ilishlarning amalga oshirilishi ibratli va har qanday tahsinga sazovordir.

Vodiyda 2 nafar fan doktorlari mavjud (*B.Kamolov va Y.Ahmadaliyev*), ilmiy-pedagogik salohiyat eng yuqori, deyarli 100 foiz Namangan universitetida, eng past – Qo'qon pedagogika institutida (*2 nafar fan nomzodi bor*). Ilmiy monografiyalar Y.Ahmadaliyev, Sh.Jumaxonov, X. Mirzaaxmedov va I.Soliyevlar mallifligida nashr ettirilgan, ilmiy anjumanlar vodiyning barcha viloyatlarida navbatma-navbat o'tkazilib kelinmoqda.

Farg'ona mintaqasining umumgeografik vaziyati vazmin, tabiati nozik, unga atropogen bosimning ta'siri kuchli, geosiyosiy o'rni ham o'ziga xos. Bunday holatda yer-suv va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish, geoekologiya, ijtimoiy geografik tadqiqotlar, jumladan aholiga xizmat ko'rsatish, uning bandligini ta'minlash, transport va boshqa infratuzilmani rivojlantirishning hududiy jihatlari mintaqaviy geografik tadqiqotlarining ustivor yo'nalishlari bo'lishi mumkin.

Mirzacho'l mintaqasida geografiya ilmi uning umumgeografik, iqtisodiy va demografik salohiyatiga mos holda rivojlanib bormoqda. Umuman olganda esa, ushbu mintaqa Zarafshon hamda Poytaxt mintaqalari o'rtasida bo'shroq geomakonni tashkil qiladi (*iqtisodiyotda, geografiyada ham xuddi shunday vaziyat ko'zga tashlanadi*). Bu yerda, ya'ni Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida

landshaftshunoslik, qishloq xo'jaligi va sanoat geografiyasi, agrosanoat majmuasi va meliorativ geografiya, toponimika yo'nalishlarida tadqiqot olib boriladi. Asosiy markazlari Guliston Davlat universiteti va Jizzax pedagogika instituti hisoblanadi.

Ilmiy-pedagogik salohiyat uncha yuqori emas; geografiya fanlari doktori, professor M.Nurnazarovning vafotidan so'ng mintaqada yetakchi geograf olim alohida ko'zga tashlanmaydi. Fan nomzodlari N.Ismatov, K.Qurbonov, Q.Hakimov, L.Qarshiboyeva, K.Xidiraliyev va A.Yuldoshevlar turli yo'nalishlarda baholi qudrat izlanishlar olib borishmoqda. Ular orasida JDPI geografiya kafedrasining mudiri Q.Hakimov ancha faolroq. Domla toponimika muammolari bo'yicha qator risola va monografiyalar chop ettirib kelmoqda.

Biroq, Mirzacho'l ilmiy makonining yuksakroq darajada rivojlanishi talab etiladi. Bu borada mavjud yo'nalishlar qatorida meliorativ geografiya, agroekologiya, qishloq xo'jaligi geografiyasiga oid tadqiqotlarni olib borish yaxshi ilmiy va amaliy natijalar beradi. Xususan, "Jizzax maxsus industrial zonasi" ning shakllanishi bilan bog'liq (*u qisman Sirdaryo viloyatini ham o'z tarkibiga oladi*) geografik muammolarni o'rganish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, mintaqada geograf olimlar – fan doktorlari saflarini ham yaratish nihoyatda zarurdir.

Zarafshon mintaqasi Farg'ona vodiysi singari geografik jihatdan mukammal o'rganilgan. Bu hududda o'tgan asrning ikkinchi yarmida aholi va aholi punktlari qishloq xo'jaligi nuqtai nazaridan Moskva Davlat universiteti olimlari bilan hamkorlikda majmuali tadqiqotlar olib borilgan. Shuningdek, Zarafshon vodiysi tabiati va tabiiy resurslari Janubiy-G'arbiy O'zbekiston tarkibida ham ko'rib chiqilgan.

Hozirgi vaqtda mintaqa (*Buxoro, Navoiy va Samarqand viloyatlari*) geograflari O'rta va Quyi Zarafshon landshaftlari, tog' va tekislik geojuftligi, aholisi va shaharlari, turistik resurslari, qishloq xo'jalik geografiyasi masalalarini

o'rganib borishmoqda. Ayni vaqtda, rayonning katta qismini egallagan cho'l hududlari ham atroflicha tahlil va tadqiq qilingan.

Zarafshon vodiysida qator, o'z ilmiy ishlari bilan jamoatchilik orasida e'tirof etilgan katta olimlar bor. Ular jumlasiga, eng avvalo, geografiya fanlari doktorlari, professorlar A.Abdulqosimov, L.Alibekov, S.Abbosov, A.Raxmatullayev, dotsentlar I.Nazarov, N.Mamatqulov va boshqalarni kiritish mumkin. Aytish joizki, mintaqa, ayniqsa Samarqand viloyati geografiyasini o'rganishda marhum ustozlar M.Umarov, S.Nishonov, A.Abdujabborov singari olimlarning xizmatlari ham katta bo'lgan.

Ko'rilayotgan hududda o'zining ilmiy-pedagogik salohiyati bilan Samarqand universiteti ajralib turadi. Bu oliygohda 3 nafar fan doktorlari, qator fan nomzodlari, dotsentlar faoliyat ko'rsatishmoqda. Biroq, Buxoro universiteti hamda Navoiy pedagogika institutining bu boradagi ko'rsatkichlari uncha katta emas. Buxoroda respublikamizda cho'l tabiatini obdon biladigan va chuqur his qiladigan olim I.Nazarov va 2 nafar (*X.Toshev, A.Mavlonov*) yosh fan nomzodlari bor. Navoiy pedagogika institutida B.Kalonov, Y.Rahmatov va S.Shodiyevlar ishlab turishibdi. Ammo ular tomonidan olib borilayotgan ilmiy ishlar ko'lami va darajasi yanada kuchaytirilishi zarur. Buning uchun "cho'l iqtisodiyoti" va tabiati, transport va shaharlar geografiyasi, urboekologiya, shuningdek, Navoiy erkin iqtisodiy-industrial zonasi bilan bog'liq tadqiqotlarni amalga oshirish ham maqsadga muvofiq.

Janubiy O'zbekiston – Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari tabiati, aholisi, xo'jaligi va ularning ichki tafovutlari ham geografik jihatdan o'rganish qiziqarli tadqiqot obyekti hisoblanadi. Bu daryolar nomi bilan tashkil topgan hududda ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari sobiq ToshDU (hozirgi O'zMU) geograflari tomonidan yaxshi o'rganilgan, Surxon-Sherobod hamda Qarshi cho'llarida kompleks tadqiqotlar

amalga oshirilgan. Ta'kidlash joizki, mintaqa iqtisodiy geografik jihatdan ko'proq tahlil qilingan. Xususan, marhum professor A.Ro'ziyev va uning shogirdlari qishloq xo'jaligi geografiyasi va agrosanoat majmuasi shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari hududiy ishlab chiqarish tizimlar doirasida ancha yaxshi o'rganilgan. Dotsent M.Yangiboev ham Qashqadaryo viloyati aholisi va mehnat resurslari bo'yicha ko'plab ilmiy izlanishlar olib borgan. Hozirgi vaqtda iqtisodiy (ijtimoiy) geografik tadqiqotlar L.Erdonov, Q.Allanov, X.Abdunazarov, A.Sattorov, P.Qurbonov va boshqalar tomonidan bajarilmoqda. Dotsent R.Usmonovning ilmiy ishlari esa tabiiy va iqtisodiy geografiya qirrasida olib borilmoqda (rekreatsiya geografiyasi).

Janubiy O'zbekistonning tabiati nihoyatda rangbarang, landshafti turli xil bo'lishiga qaramasdan u mahalliy olimlar tomonidan nisbatan kamroq o'rganilgan. Ushbu ilmiy yo'nalishda ko'proq yaqinda vafot etgan taniqli olim A.Mamatov xizmat qilgan.

Demak, kelajakda mazkur mintaqada tabiiy geografik tadqiqotlarni, shuningdek, qishloq xo'jaligi, rekreatsiya va turizm, sanoat va transport geografiyasi bilan bog'liq ilmiy ishlarni olib borish zarur. Janubiy O'zbekiston geografija jamoasi professor A.Ro'ziyev vafotidan so'ng o'zining yetakchi - sardorisiz qoldi. Bu jiddiy masala ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak.

Quy *Amudaryo mintaqasi* mamlakati-mizda hududi bo'yicha eng katta sanalgan Qoraqalpog'iston Respublikasi va undan deyarli 25 marta kichik bo'lgan Xorazm viloyatini o'z tarkibiga oladi. Shu bilan birga, bu hudud ekologik nuqtai nazardan olamshumul mazmun kasb etgan Orol dengiziga tutash hisoblanadi. Bunday geografik vaziyat ob'ktiv ravishda har tomonlama ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun qulay imkoniyatlar yaratadi. Bejiz emaski, respublikamizda bajarilgan dastlabki mintaqaviy geografik tadqiqot ham o'tgan asrning 40-yillarida, aynan shu hududda, aniqrog'i Ustyurt platosida olib borilgan. Keyinchalik esa

Quyi Amudaryo mintaqasi Orol dengizi muammosi bilan bog'liq holda atroflicha o'rganilgan (masalan, O'zFA Geografiya bo'limi olimlari tomonidan).

Mintaqa geografiyasini o'rganishda marhum ustozlar T.Tojimonov, J.Matmurodov, A.Ishchonov, R. Qurbonniyozov kabi olimlarning xizmatlari katta bo'lgan. Hozirgi vaqtda bu yerda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish muammolari, qishloq xo'jaligi, sanoat, aholi, mehnat resurslari va shaharlar geografiyasi, tibbiyot geografiyasi, agrolandshaftshunoslik, sotsial-iqtisodiy kartografiya, geoekologiya kabi ilmiy yo'nalishlar bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Ularni amalga oshirishda g.f.d., professorlar Y.Umarov, I.Turdimambetov, fan nomzodlari, dotsentlar P.Reymov, G.Xodjaeva, K.Allanazarov, N.Emberganov, I.Atajonov, M.Hamroyev, D.Ro'zmetov, S.Avezov, Sh.Do'sanova, M.Matchonov va boshqa yosh, iqtidorli olimlar faol ishtirok etishmoqda.

Quyi Amudaryo mamlakatimiz markaziy hududlaridan ancha uzoq, olisda joylashgan, tabiati, ekologik va nozogeografik, demografik vaziyati o'ziga xos. Bunday geoxususiyatlar turli yo'nalishlarda majmuali ilmiy tadqiqotlarni olib borishni taqozo etadi. Xususan, "Orol muammosi" bilan bog'liq ilmiy izlanishlar, tabiiy va mehnat resurslaridan foydalanish, landshaftshunoslik, transport va ijtimoiy infratuzilma tizimini yaratish, nozoekologiya kabi mavzularda ilmiy ishlar olib borish zarur. Shu bilan birga, bunday katta hududda mintaqaviy geograflar uyushmasini (*Farg'ona vodiysidagi uyushmasiga o'xshash*) tashkil etish, fan doktorlari saflarini kengaytirish ham ahamiyatdan holi emas.

Shunday qilib, respublikamizda geografiya ilmi o'zining uzoq tari-xiga ega bo'lib, uning hozirgi hududiy tizimi, mamlakatimizning tabiiy va iqtisodiy jihatdan ichki tafovutlarga boyligiga muvofiq holda, tashkil topgan. Boshqacha qilib aytganda, geografiya ilmining geografiyasi ham o'ziga xos; u qaysi bir joylarda yaxshi rivojlangan, yuqori mujassamlashuv va ixtisoslashuv darajasiga erishgan,

qaysi bir hududlarda esa ancha zaif va tor yo'nalishlarga moslashgan. Ilmiy salohiyat turlicha, yoziladigan maqo-lalarning dolzarbligi, ilmiy-tahliliy, nazariy jihatdan chuqurligi ham mintaqaviy xususiyatlarga ega.

Shu o'rinda qayd etish joizki, respublikamizda geografiya ilmining fundamental yo'nalishlari, jumladan, landshaftshunoslik va geomorfologiya, iqtisodiy geografiyada tabiiy resurslarga baho berish va rayonlashtirish, agrogeografiya orqada qolib ketmoqda. Ayni vaqtda respublika geografiya ilmi ko'proq milliy xususiyat kasb etib, uning xalqaro ahamiyati, tashqi aloqalari rivojlanib bormoqda.

Ma'lumki, geografiya fani hududiy rangbarangliklarni, tengsizlik, ichki tafovutlar bilan qiziqadi. Ilmiy tadqiqotlar maqsadi esa, bu tengsizliklarni mumkin qadar tenglashtirish (*mutlaq holda bu aslo mumkin emas!*), muvofiqlashtirishga qaratilgan. Respublikamiz geografiya ilmining geografiyasi ham xuddi shunga o'xshash maqsadlarni, yagona, umumiy geomakon shakllanishi, hududlar o'rtasida innovatsion integratsiya, xamkorlikni rivojlantirishni ko'zlaydi. Bu makon ham o'zining o'sish qutb va markazlariga ega bo'lishi kerak. Binobarin, poytaxt mintaqasining yetakchiligini saqlagan holda, qolgan mintaqalar (*Buxoro, Navoiy, Jizzax viloyatlari*) ilmiy salohiyatini ham kuchaytirish milliy geografiya maktabini shakllantirish va uning xalqaro miqyosda nufuzini oshirishga asos bo'ldi.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining ta'rifida eng asosiy tushunchalar qaysilar?
2. Nimaga iqtisodiy geografiya iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaga aylandi?
3. Tarix geografiya uchun qanday xizmat qiladi?
4. Hududiylik tamoyilini tushuntirib bering.
5. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fani qanday asosiy bloklardan iborat?

MAVZUGA DOIR ASOSIY TUSHUNCHALAR

Iqtisodiyot - cheklangan iqtisodiy resurslardan unumli foydalanib, insonlar uchun zarur bo'lgan hayotiy vositalarni ishlab chiqarish va yetkazib berishga qaratilgan va chambarchas bog'liqlikda amal qiladigan faoliyatlar birligidir.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya - Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya mustaqil fan sifatida turli mamlakat va rayonlarda ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish va joylanish xususiyatlari hamda inson hayot faoliyati va yashash tarzining hududiy jihatlarini o'rganadi.

Ishlab chiqaruvchi kuchlar - ishchi kuchi yoki boshqacha aytganda, ma'lum malakaga, tajribaga ega bo'lgan kishilar hamda ishlab chiqarish vositalaridan tashkil topgan.

Ishlab chiqarish munosabatlari - hayotiy ne'matlarning ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonida kishilar o'rtasida paydo bo'ladigan iqtisodiy munosabatlardir.

Ishlab chiqarish jarayoni - jamiyat ixtiyorida barcha resurslardan foydalanib, jamiyat a'zolari uchun zarur bo'lgan tovar va xizmatlarni yaratish.

Ishlab chiqarish xarajatlari - tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va iste'molchilarga yetkazib berishda qilinadigan barcha sarflardan iborat.

Hududiy tashkil etish - Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada an'anaviy tarzda «hududiy tashkil etish» iborasi qo'llanilib, u odatda mazmun va shakllari bo'yicha ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishga yaqinroq turadi. SHu bilan birga oddiy joylashtirishdan farq qilib, ishlab chiqarishni, aholi yoki xo'jalik tarmoqlarini hududiy tashkil etish ayni paytda uni muayyan maqsadga yo'naltirilishi va eng muhimi-boshqarilishini ham o'z ichiga oladiki, bu ushbu tushunchaning ilmiyroq va amaliyroqligidan darak beradi. Bu yerda tizim (sistema) qoidasiga muvofiq

ma'lum bir voqelikni tashkil etish avvalambor uni boshqarish niyatida amalga oshiriladi.

Mehnat taqsimoti - ijtimoiy mehnatni mustaqil vazifalarni bajaruvchi mehnat turlariga ajralishi jarayonidan iboratdir. Mehnat taqsimoti, mehnat turlarini ko'paytirib, ularni ayrim kishilarga kasb sifatida birkirib qo'yadi. Ishlab chiqarishda har xil mehnatni bajaruvchi kishilar qatnashadiki, ularni ingliz iqtisodchisi Adam Smit "Iqtisodiy individlar" deb atagan. Mehnat taqsimoti ana shu kishilarning o'zaro munosabatda bo'lishini taqazo etadi.

Hududiy mehnat taqsimoti - Hududiy mehnat taqsimoti iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omilidir, U ijtimoiy mehnat taqsimotining muhim bir qismi yoki tomoni sifatida jamiyat, ijtimoiy-siyosiy rivojlanishga katta ta'sir ko'rsatadi. Maxsus ilmiy adabiyotlarda hududiy mehnat taqsimoti tushunchasiga o'xshash yana boshqa iboralar ham mavjud: geografik mehnat taqsimoti, regional mehnat taqsimoti, akvatorial mehnat taqsimoti va h.k. Ularning orasida jiddiy farq yo'q, binobarin, mazkur tushunchalarni ma'nodosh sifatida qabul qilish mumkin. Ularning ko'pchiligi bevosita yer, hudud, maydon, ya'ni "geo"ga taalluqli bo'lib, faqat akvatorial mehnat taqsimoti dunyo okeani qismlarining xo'jalik ahamiyatini aks ettiradi.

2 – MAVZU

FANNING TADQIQOT OBYEKTI VA PREDMETI MUAMMOSI

Maqsad: Talabalarga Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning fanining obyektini va predmetining asosiy muammosi haqida tushuncha berish.

Tayanch soʻz va iboralar: Muammo, obyekt, predmet, hududiylik, majmualilik, tarixiylik, ekologik, demotsentrik, ishlab chiqarishni tashkil etishning hududiy shakli, rayon planirovkasi, ijtimoiylashuv (sotsiallasuv).



REJA:

1. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning fanining obyektini va predmetining asosiy muammosi
2. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning asosiy tamoyillari.
3. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning ichki tuzilishi va bu boradagi qarashlar;
4. Piter Xaggetning iqtisodiy va ijtimoiy geografiya nazariyasining rivojiga qoʻshgan hissasi



Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning fanining obyektini va predmetining asosiy muammosi. Har qanday fan oʻzining oʻrganish obyektiga ega boʻladi. Shunday obyektning boʻlishi u yoki bu fanning dunyoga kelishi, shakllanishi va raqiblanishining muhim shartidir.

Obyekt (lot. obectum – narsa) – subyektga qarama-qarshi boʻlgan hamda insonning amaliy va bilish faoliyati qaratilgan obyektiv reallik. Obyekt 2 turga: nazariy va empirik obyektga boʻlinadi.

Har qanday fan alohida fan sifatida faoliyat olib borishi uchun, avvalo, u oʻz tadqiqot obyektiga, oʻzining predmetiga ega boʻlishi kerak. Bu yerda obyekt serqirrali borliq, hodisa yoki voqealar boʻlib, u birgina fan uchun emas, balki koʻp

fanlar birikmasi uchun xizmat qiladi. Vaholanki har bir fan hodisa yoki voqealarni o'zining xususiyati va mohiyatiga ko'ra faqat bir tomonini o'rganadi. Ana shu bir tomoni yoki aspektini o'rganish har qaysi fanning predmeti hisoblanadi va u aniq bir narsani o'rganishini bildiradi.

Demak, obyekt keng qamrovli tushuncha, predmet esa nisbatan tor manoda bo'lib, u shu obyektning qaysi tomonini o'rganishini bildiradi. Masalan: aholi ayni paytda, iqtisodchilar, demograflar, etnograflar, sotsial geograflar va boshqa fan vakillarini qiziqtiradi.

Shu bilan birgalikda, har qanday rivojlanish ostida muammolar yechimi turadi. Bu dialektika, ya'ni qarama-qarshilik qonunining bir ko'rinishidir. Muammolar ko'p va xilma-xil; bunday sharoitda muammolarning darajasi, dolzarbligi, ustuvorligi to'g'risida gap borishi kerak.

Muammo – eng avvalo imkoniyat va voqelik, talab (ehtiyoj) bilan taklif orasidagi nomuvofiqliklardan kelib chiqadi. Shuningdek, u o'rganilayotgan yoki ko'rilayotgan sohadagi tushunmovchiliklar, noaniqliklar bilan ham bog'liq. Chunonchi, geografiyaning, shu jumladan iqtisodiy va sotsial geografiyaning asosiy muammosi bu, eng avvalo, uning nomi, atalishi va ta'rifidir.

Ma'lumki, hozirgi kunda an'anaviy iqtisodiy geografiya bilan bir qatorda iqtisodiy va sotsial geografiya, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, sotsial-iqtisodiy geografiya, ijtimoiy-iqtisodiy geografiya, ijtimoiy geografiya kabi atamalar ishlatilmoqda. Demak, bu yerda ham aniqlik mavjud emas. Binobarin, aytish mumkinki, yuzaga kelgan holat ham o'ziga xos «o'tish davri»-ni ifodalamoqda.

Yana bir tushunmovchilik: iqtisodiy geografiya bilan uning tarkibiy qismlari (sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, aholi geografiyasi va h.k.) o'rtasida lug'aviy g'alizlik yoki tushunmovchilik sezilib turibdi. Sababi –tarkibiy fanlar atalishi oddiy, ya'ni nimaning geografiyasi (sanoatning, transportning va b.) ekanligini

bildiradi, iqtisodiy geografiya esa mutlaqo boshqacha bo'lib, u geografiyaning sifatini anglatadi.

Bu yerda, agar tizim-tarkib qoidasiga rioya qilsak, sanoat, qishloq xo'jaligi, transport geografiyasining oddiy arifmetik yig'indisi iqtisod geografiyasi bo'lishi kerak edi. Aslida esa, u iqtisod emas, balki iqtisodiy geografiya bo'ldi, ya'ni miqdor o'zgarishlar sifat ko'rsatkichlarga o'tdi, yetuk, murakkab va mukammal tizim (sistema) shaklini oldi.

Umuman olganda, geografiya fanining muammolari juda ko'p va serqirra. Ammo, geograflar o'z muammolari bilan ba'zan boshqalardan keyin, ya'ni kechroq shug'ullanadilar. Masalan, geografik determinizm, geosiyosat, mintaqaviy iqtisodiyot kabi masalalarni dastavval geograflar emas, balki boshqa fan vakillari (sotsiologlar, faylasuflar, iqtisodchilar) ko'targanlar.


Shu bilan birga geograflar ayni paytda o'zlari uchun eng muhim bo'lgan yutuqlarni, fundamental tushuncha va qonuniyatlarni o'zgalarga osonlikcha berib qo'yishlari ham mumkin. Biz bu yerda landshaft, rayonlashtirish, hududiy ijtimoiy-iqtisodiy yoki tabiiy majmualar, geografik muhitga o'xshashlarni nazarda tutmoqdamiz.

Yana bir muhim muammo: ba'zi bir fanlarda bo'lgani singari geografiya, jumladan iqtisodiy geografiyada ham differentsiya jarayoni kechmoqda. Bu fanda ijtimoiylashuv (sotsiallasuv), siyosatlashuv, tarixiylik va ekologiyaga katta e'tibor berilmoqda. Bu ham obyektiv holatdir. Lekin iqtisodiy geografiyaning haddan tashqari «o'ngga» ketishi, chetlashuvi, uning yaqin «qondoshi» tabiiy geografiyadan shuncha uzoqlashtiradiki, bu ham xavflidir. Binobarin, iqtisodiy geograf bir qo'li bilan qo'shni, qirraviy yo'nalishlarga intilsa, ikkinchisi bilan albatta tabiiy geografiyani mahkam ushlab turishi kerak.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning asosiy tamoyillari. Albatta, har qanday fanning predmeti, ta'rifi uning asosiy tamoyillarini o'zida aks ettirishi

shart. Chunki o'zining metodologiyasi va metodi, maktabi va yo'nalishi, tadqiqot predmeti va prinsiplariga ega bo'lmagan fan mustaqil fan hisoblana olmaydi (5-rasm).

Xo'sh, geografiya va shu jumladan, ijtimoiy geografiyaning bosh tamoyillari nimalardan iborat? Fikrimizcha, bu yerda turli darajadagi asoslar mavjud, ularning ayrimlari faqat shu fanga tegishli bo'lsa, qolganlari umumilmiy, falsafiy ahamiyatga ega.



5-rasm. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning asosiy tamoyillari

Shubhasiz, geografiya fanining eng birinchi tamoyili uning **hududiyligidir**. Zero, geografiyani hududiy munosabatlarsiz, makon tushunchasisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ammo, shu bilan birga, hududga o'ziga xos borliq sifatida turlicha yondashiladi. Masalan, muhandislik (*ersozlik*) hamda rayon planirovkasida ko'proq hududni tashkil etishga e'tibor beriladi. Bunda yer maydonining o'zi ma'lum maqsadlar uchun tayyorlanadi. Jumladan, uni barcha infrastruktura shaxobchalari bilan jihozlangan holda sanoatchilar uchun ijaraga berish yoki sotish mumkin.

Ijtimoiy geografiyada an'anaviy tarzda «hududiy tashkil etish» iborasi qo'llanilib, u odatda mazmun va shakllari bo'yia ishlab chiqarish kuchlarini

joylashtirishga yaqinroq turadi. Shu bilan birga oddiy joylashtirishdan farq qilib, ishlab chiqarishni, aholi yoki xo'jalik tarmoqlarini hududiy tashkil etish ayni paytda uni muayyan maqsadga yo'naltirilishi va eng muhimi- boshqarilishini ham o'z ichiga oladi-ki, bu ushbu tushunchaning ilmiyroq va amaliyroqligidan darak beradi. Bu yerda tizim (*sistema*) qoidasiga muvofiq ma'lum bir voqelikni tashkil etish avalambor uni boshqarish niyatida amalga oshiriladi.

Ma'lumki, geograflar nigohida hudud qiyofasi o'zining barcha mavjudoti bilan gavdalanadi va bir qarashda u to'la qamrab olinadi. Biroq, ko'rib turilgan hududda undagi bor elementlar (*yo'l, daraxt, o'y, kishilar, transport va hokazo*) yakka-yakka yoki aksariyat holda muayyan hududiy birlikda bo'ladi. Shu jihatdan qaraganda ijtimoiy geografiyaning tadqiqot obyektiga kiruvchi barcha predmetlar turli hududiy majmua shaklini tashkil etadi. Chunonchi, qishloq xo'jaligi tarmoqlari - ekinzorlar va chorvachilik yaylovlari, rekreatsiya manzilgohlari, o'rmonzorlar va boshqalar areal (*maydon*) ko'rinishiga ega. Sanoat markazlari va aholi punktlar nuqta yoki tugun, transport yo'llari, gidrografik shaxobchalar esa tasmasimon (*chiziqsimon*) shaklida ko'zga tashlanadi va huddi shu tarzda xaritada tasvirlanadi. Bu o'rinda bir so'z bilan aytish mumkinki, ijtimoiy geografiya ana shu maydon, chiziq va nuqtalarning joylashuvi, ularning o'zaro va tashqi muhit bilan hududiy munosabatlarini o'rganadi.

Bundan tashqari, ishlab chiqarishni tashkil etishning hududiy shakli sifatida hududiy ishlab chiqarish majmualari (*komplekslari, sanoat tugunlari va rayonlarni*), aholining bunday tashkil etish shakllariga esa turli tip yoki yiriklikdagi qishloq va katta-kichik shaharlar, shahar aglomeratsiyalari, konurbatsiya va megalopolislarni ko'rsatish o'rinli. Transportda transport tugunlari, aholiga xizmat ko'rsatish geografiyasida-maishiy kombinatlar yoki fan geografiyasidagi hududiy ilmiy tadqiqot majmualari ham ushbu sohalarning hududiy tashkil etish shakllariga kiradi.

Hudud miqyosida har xil kattalik va yo'nalishdagi muhit vujudga keladi. Jumladan, ancha keng bo'lgan iqtisodiy va mulkchilikning turli shakllari mavjud bo'lgan raqobat muhiti, sotsial-iqtisodiy va nisbatan torroq doiradagi sotsial muhitni ajratish mumkin. Muhitlarning ushbu ko'rinishlari bilan shunga mos ravishda ijtimoiy geografiyaning asosiy qismlari: iqtisodiy, sotsial-iqtisodiy hamda sotsial geografiya shug'ullanadi (Soliyev, 1995).

Geografiya fanining ikkinchi bir muhim tamoyili **kompleksdir**. Biroq, bu yerda kompleks ishlab chiqarishning ijtimoiy yoki hududiy tashkil etish shaklini emas, balki masalaga, fan obyektiga va predmetiga yondashuv ma'nosini anglatadi. Ayni paytda komplekslik geografiya fani uchun alohida usul (*metod*) ham emas, aksincha, u fanning prinsiplaridan biri bo'lib, uning o'ziga xos va tub mohiyatini ifodalaydi.

Shu bilan birga, ba'zan «kompleks geografik (yoki iqtisodiy geografik) tadqiqot» iborasi ishlatiladi-ki, nazarimizda, bu ham ortiqcha yoki xatolikdir. Chunki, geografik tadqiqot hamma vaqt kompleks bo'ladi, busiz u o'z mohiyatidan ajralib qoladi. Ekologik yondashuv asosida ham komplekslik yotadi va bu uni geografik dunyoqarashga juda yoqinlashtiradi. Ayrim hollarda «majmualiy geografik tadqiqot» ham deyishadi. Bu ham uncha to'g'ri bo'lmasa kerak.

Komplekslik o'rganilayotgan obyektga atroflicha yondashuv, uni aloqadorlikda ko'rishni taqozo etadi. Shu ma'noda u tizimli (sistemali) qarashga ham yoqinlashadi. Ammo bu tamoyildan to'g'ri va oqilona foydalana olish lozim. Aks holda tadqiqot natijasi «har sohadan bir shingil», sayoz, yuzaki va quruq bo'lib, ba'zan o'zi nimani o'rganilishi kerakligi ham sezilmay qolinadi. Binobarin, ushbu tamoyil mohiyatini misli daraxt shaklida tasavvur qilmoq zarur: daraxt tanasi o'rganilayotgan asosiy hodisa bo'lsa, uning shox va shoxchalari shu muammo bilan bevosita aloqador masalalar majmuasidir. Bunda daraxt tanasi o'ta yo'g'onlashib, shox-shabbasiz va, aksincha, shoxlar kattalashib, uning tanasi

ko'rinmay qolmasligi kerak. Birinchi holda komplekslikning o'zi bo'lmaydi, ikkinchisida esa haddan tashqari masaladan chetga chiqib ketish ayondir. Masalan, bog'dorchilik geografiyasida temir yo'l transporti yoki aholining tug'ilishini chuqur o'rganish aslo talab qilinmaydi.

Huddi shunday *hududiylik* tamoyilining ham nozik jihatlari mavjud. Bu yerda biz tadqiqot obyekti-hududni juda kattalashib ketmasligini nazarda tutmoqdamiz. Chunki, bunday holda ham tadqiqot natijasi yuzaki, umurtqasiz bo'lib qoladi.

Biz shu paytgacha katta hududni «kichraytirib» o'rgandik. Endi esa buning aksi, kichik joyni kattalashtirib, yirik masshtabli tadqiqotlarni o'tkazish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Darvoqe, rivojlangan xorijiy mamlakatlar (*AQSh, Yaponiya, Germaniya va boshqalar*) tajribasi aynan shundan dalolat beradi.

Bu mamlakatlarda, bizdan farqli o'laroq, asosan mikroiqtisodiy, mikrogeografik yondashuv ustuvor turadi. Ehtimol, shuning uchun bo'lsa kerak-tadqiqotlar aniq, puxta va amaliy jihatdan yuqori bo'ladi. To'g'ri, tadqiqot obyekti sifatida kattaroq hududni ham olish mumkin. Lekin bunday holda hududning barcha qismini emas, aksincha, muhim muammolarini uning ayrim va turli nuqtalari misolida chuqurroq tahlil qilish va shunegizda o'rganilayotgan obyekt va unga o'xshash joylarga xos bo'lgan umumiy qonuniyatlarni asoslab berish talabga muvofiqdir.

Shunday qilib, hududiylik va komplekslik geografiya fani uchun o'ta zarur. Biroq ular o'z me'yorida bo'lishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, ushbu yondashuvlar hamma vaqt aniqlik bilan birga olib borilishi to'g'riroq bo'ladi. Professor E.B.Alayev aniqlikni (konkretlikni) geografiyaning alohida tamoyili sifatida ko'rsatadi. Biz esa uni yuqoridagi ikki asosiy tamoyilning umumiy maxraji, mezoni yoki «ikki plyus bir» shaklida ko'rishni istar edik. Sababi,

muammo qancha keng va chuqur, ma'lum bir maqsad doirasida atroflicha, har taraflama va ayni paytda aniq tahlil etilsa, uning xulosalari hamma vaqt yuqori bo'ladi.

Komplekslilik sistema g'oyasiga o'xshash. Ammo o'xshashlik aynan bir xillik emas. Komplekslikda asosiy urg'u muammoni atroflicha o'rganish tilab etilsa, sistemali yondashuvda u ichki va tashqi jihatdan, o'zaro aloqadorlikda pog'onasimon shaklda tahlil etiladi. Komplekslikda obyekt «eniga», sistemada «bo'yiga» ko'riladiki, birinchisida asosiy mezon kenglik bo'lsa, ikkinchisida chuqurlikdir.

Albatta, geografiya fani uchun sistemadan ko'ra kompleks yaqinroq va an'anaviyroqdir. Chunki, geografiyaning o'zi kompleks va komplekslar haqidagi fandır. Binobarin, kompleksga kompleks yondoshuv shart va zarur. Ammo, yuqorida ta'kidlaganimizdek, komplekslikning chegarasi bo'lishi talab etiladi. Gap shundaki, geografiya hududlar, chegaralar to'g'risidagi fan bo'lsada, ba'zan uning o'zini had-hududi, chegarasi yo'q; ayrim hollarda ular razmersiz fanga aylanib qoladi-ki, bu albatta ijobiy emas. Shu bois, geografiyaning asosiy kasbiy kasalliklaridan biri bo'lmish aniqsizlikka qarshi kurashish kerak. Binobarin, sistemada amaliylik yanada yuqoriroq, zero, har qanday sistema boshqaruv bilan bog'liq, boshqaruv esa ko'rilayotgan obyektning tashkil qilinishini, tik (*vertikal*) va gorizontal, ichki va tashqi aloqalarni nazarda tutadi.

Komplekslikda eng muhimi masalani (*muammoni*) to'g'ri va aniq chegaralash, va tadqiqot doirasini belgilash bo'lsa, sistemada –birlamchi elementni aniqlashdir. Chunki, kompleks g'oyasida tarkib uncha ahamiyatli emas, sistema esa hamma vaqt o'zining ichki tuzilishiga, tarkibiga, turli bosqichdagi «sistemalarga» bo'linadi va faqat birlamchi element bunday xususiyatga ega bo'lmaydi.

Shunday qilib, iqtisodiy va sotsial geografiyada, hududiylik, kompleks va tizim (*sistema*) prinsip yoki umummetodologik asoslarga to'g'ri rioya qilish ham muhim nazariy-amaliy muammolar sirasiga kiradi.

Geografiyaning ikki asosiy tamoyili-hududiylik va majmualilikdan so'ng *tarixiylik* turadi. Bu prinsip makon va zamon, zaminu zamon birligidan kelib chiqadi. Zero, har qanday hodisa ma'lum bir vaqtda va muayyan bir joyda sodir bo'ladi. Shuning uchun geografiyaga tarix kerak. Sababi-hozirgi mavjud voqelik o'z-o'zicha, birdaniga vujudga kelmagan. Binobarin, bu voqelik qachon va qanday sharoitda paydo bo'lgan va u qanday rivojlanish bosqichlarini bosib o'tgan-bularning hammasini hozirgi borliqdan kelib chiqqan holda aniqlab olmasdan turib asosiy masalani hal etib bo'lmaydi. Faqat o'tmishni tahlil etish orqali hozirgini baholab bo'ladi, bu esa o'z navbatida kelajakni, istiqbolni ilmiy bashorat etishga yo'l ochadi.

Tarixiylik tamoyilining muhimligini N.N.Baranskiy ham ta'kidlagan. Bu olim: «*Mamlakat va rayonlar iqtisodiy ta'rifini shunday beringki, u oyog'i bilan yerga–geologiya, geomorfologiya va tuproq-shunoslikka, tanasi bilan tarix orqali o'tishi, boshi bilan esa siyosat va mafkuraga tayanishi, taqalishi kerak*», deb uqtirgan edi. Ko'rinib turibdiki, tarixiylik iqtisodiy geografik ta'rif va tavsifning asosiy qismini tashkil etadi.

Aytish lozimki, geografiyaga qanchalik tarix kerak bo'lsa, tarix uchun ham geografiya shunchalik zarur. Biroq geografiya tarixga, tarix esa geografiga aylanmasin. Shu bois geografiyada tarixiy yondashuv o'tmishning barcha maydachuydasini emas, balki hozirgi holatning yuzaga kelishida aynan qaysi tarixiy voqea va bosqichlar sabab bo'lganini aniqlashi yetarlidir. Masalan, agar respublikamiz poytaxti Toshkent shahrini iqtisodiy geografik ta'riflamochi bo'lsak, uning ilk bor vujudga kelganidan keyin, so'nggi muhim tarixiy voqealar inobatga olinsa kifoya. Ular: o'tgan asrning ikkinchi yarmida (1865-y.)

Turkistonning Rossiya tomonidan bosib olinishi va Toshkentning Turkiston general gubernatorligining poytaxti vazifasini bajarishi, 1917-yil «Sotsialistik inqilob» yili, 1924-yil O'rta Osiyo respublikalarining tashkil etilishi, 1930-yil O'zbekiston Respublikasi poytaxtining Samarqanddan Toshkentga ko'chirilishi, ikkinchi jahon urushi yillari, 1966-yil Toshkentda yer qimirlashi va nihoyat, 1991-yil O'zbekistonning mustaqillikka erishgan yili. Ana shu burilish yoki tarixiy voqealar bugungi Toshkentga, uning hududi, xo'jaligi va aholisi, shahar qurilishiga ozmi-ko'pmi o'z ta'sirini o'tkazgan, iz qoldirgan. qolgan oraliq voqealar esa bizga ayni paytda uncha zarur emas. Binobarin, ularni tarix fani uchun qoldirish kerak.

Geografiyada tarixiylik tamoyili tarixiy geografiyaning o'rnini olmasligi lozim. Bu yerda tarixiy yondashuv o'rganilayotgan hodisaning o'tmishiga qisqacha safar qilinishini anglatadi, tarixiy geografiya esa o'tmishning alohida pog'onalarida tabiat va, xususan, xo'jalik tarmoqlari, aholi va boshqalar qay darajada rivojlangan va qanday joylashgan kabi masalalarni tahlil etadi yoki ko'z o'ngimizda gavdalantiradi. Shu bilan birga, tarixiylik geografiyaning tarixi ham emas. Chunki geografiyaning tarixi deganda so'z ko'proq geografik kashfiyotlar to'g'risida boradi. Shunday qilib, tarixiylik tamoyili, tarixiy geografiya va geografiya tarixidan farq qiladi, u bu yerda qo'yilgan maqsadga to'laroq qanday erishish asoslaridan birini ifodalaydi, o'tmishga bugungi kun nuqtai nazaridan emas, balki unga o'sha davr va muhitdan kelib chiqib baho berish, mavjud voqelikka tarixiy qarashni talab etadi.

Aslini olganda, tarixsiz geografiya (*geografiyasiz tarix*) bo'lmaydi. Demak, ular bir-birlarini to'ldiradi. Ammo ularni alohida-alohida qarash ham noto'g'ridir. Chunonchi, nemis olimi A. Gettner geografiyada tarixiylikni inkor etgan, u xronologiyani rad etib, xorologiyani tan olgan. Bu jihatdan u nemis olimi, faylasuf I. Kant g'oyalariga asoslangan. Albatta, bunday bir tomonlamalik nojoizdir. Hatto an'ana bo'lib qolgan «ishlab chiqarish kuchlarning rivojlanishi va joylanishi»

iborasi ham bu ikkilikning chambarchas bog'liqligini bildiradi. Bu yerda agar rivojlanish tarix bo'lsa, joylanish geografiya demakdir. Har qanday rivojlanish ma'lum bir hudud doirasida amalga oshadi, joylashuv esa rivojlanishning hududdagi aksidan boshqa narsa emas.

Geografiya fanining tamoyillaridan yana biri *ekologik yondashuvdir*. Ekologiya o'zining tub mohiyatiga ko'ra organizmlarning ichki, o'zaro va tashqi



6-rasm. Ekologiya – iqtisodiy-ijtimoiy va tabiiy geografik jarayonlar kesishmasi

muhit bilan aloqadorligini anglatadi (6-rasm).

U bu jihatdan geografik dunyoqarashning mazmuniga ham ancha mos keladi. Sababi geografiyada barcha voqea va hodisalar o'zaro hamda tashqi muhit bilan hududiy munosabatda ko'riladi. Shu bois, ekologiya ma'lum ma'noda geografiyaga juda yaqindir. Shuning uchun bo'lsa kerak, ba'zi olimlar bu ikki tushunchani ma'nodosh sifatida ishlatganlar. Masalan, chikagolik X.Berrouz

«Inson ekologiyasi yoxud geografiya» nomli maqolasini (1923-y.) yozgan edi.

Darhaqiqat, geografiyadagi *komplekslik tamoyili* ekologik dunyoqarashga o'xshab ketadi. Ammo geografik dunyoqarash ekologik yondoshuvga ko'ra keksaroq va mazmunan boyroqdir. Sababi, atrof-muhit masalalari, uning musaffoligi va aholi salomatligiga ta'siri geografiyada hali ekologiya vujudga kelmagan vaqtda ham mavjud edi.

Ma'lumki, geografiyaning bosh falsafiy masalasi tabiat va inson (jamiyat) munasabatlaridir. Tabiatning jamiyat rivojlanishiga ta'siri klassik bo'lsa, jamiyat, ishlab chiqarishning tabiatga, atrof-muhitga ta'siri hozirgi zamon ekologiyasidir. Demak, har ikkisida ham o'zaro uyg'unlikda qarash, mushohada yuritish talab etiladi. Biroq, ekologik prinsip ayni paytda faqat aloqadorlikni emas, balki pastdan

yuqoriga tomon, zanjirsimon bog'liqlikni, asosan inson atrofidagi munosabatlarni nazarda tutadi. Chunonchi, iqtisodiy va sotsial geografiyada ishlab chiqarishni va rivojlantirish, xom ashyoni qazib olish, uni qayta ishlash, tayyor mahsulot yaratishga qadar bo'lgan jarayonga ekologiya hamroh bo'ladi; u ayniqsa ushbu jarayonning bosh va so'nggi va (oxirgi) nuqtalari, ya'ni tabiatdan xom ashyoni olish va tayyor mahsulotni yaratishda ko'proq e'tiborga molikdir.

Aynan shu mazmunda qaraganda, ekologik tamoyilga N.N. Kolosovskiyning *energiya ishlab chiqarish sikllari* va I.V.Komarning resurs tsikllari to'g'risidagi g'oyalari juda qo'l keladi. Chunki, bu g'oyalar zaminida ishlab chiqarish jarayonining avvalgi va oxirgi nuqtasigacha «boshdan oyoq» ekologik yondashuv yotadi.

Ekologik tamoyil, ayniqsa ishlab chiqarishni ijtimoiy va hududiy tashkil etish shakllari, xususan, mujassamlashuv bilan uyg'unlashib ketadi. Masalan, qancha ishlab chiqarish mujassamlashuvi yuqori bo'lsa (*korxonalar yirik yoki korxonalar majmui bir joyda ko'p bo'lsa*), ekologik vaziyat, odatda, buning aksi bo'ladi. Demak, bu yerda «rivojlangan» tushunchasi ko'p hollarda ekologik nosog'lom ma'nosi bilan yonma-yon turadi. Bir necha misollar keltiraylik: Boshqirdiston poytaxti Ufa shahrining o'zida 3 ta yirik neftni qayta ishlash zavodlari mavjud; Ukrainaning Mariupol (*sobiq Жданов*) shahrida yoki Rossiyaning Novokuznetsk shahrida ham 3 tadan metallurgiya korxonalari ishlab turibdi. Bu jihatdan aytish mumkinki, ushbu shaharlar rivojlangan yirik sanoat markazlari hisoblanadi. Lekin, ayni paytda bu shaharlarning bir necha minglab aholisi ekologik nochor ahvolda bo'lishi ham ayondir.


Xuddi shunday, o'zimizning Chirchiq shaharini olaylik. U o'lkamizdagi dastlabki «sotsialistik shahar», chinakam sanoat markaziga aylangan edi. O'ttizinchi yillardan boshlab bu yerda turli yirik sanoat korxonalari birin-ketin qurilgan edi. Ayniqsa, bu yerda kimyo zavodlari ko'proq joy oldi. Ustiga-ustak

Chirchiqdan, sobiq SSSRda «eng yirik» kaprolaktam korxonasi ham joy oldi. Shunday qilib, bu shahar respublikaning yirik industrial markaziga, rivojlangan rayoniga aylantirildi. Ammo, shu bilan birga, bu yerda yashaydigan 150 minglik aholi uchun ekologik muhit ham buzildi.

Afsuski, yuzaga kelgan nochor ekologik vaziyati faqatgina Chirchiqnigina emas, balki u bilan deyarli tutashib ketgan qariyb 2,5 millionli azim shahar – Toshkent ahvoliga ham salbiy ta’sir ko’rsatadi. Agar biz Chirchiq sanoat markazining geografik joylashganligini, poytaxt Toshkent va uning aglomeratsiyasiga suvning ham, havoning ham Chirchiq tomonidan (*tog’ mintaqasidan*) kelishini e’tiborga olsak, u holda geografik ko’rlikning, hududiy savodsizlik yoki madaniyatsizlikning guvohi bo’lamiz. Demak, ekologik tamoyil ham geografiya uchun o’ta muhimdir. Biroq u aslo ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishga qarshi turmaydi. Aksincha, bu yerda joylashtirish masalalarini ko’proq barcha omil va sharoitlarni atroflicha inobatga olgan holda «etti o’lchab bir kes» manosida, geografik ekspertiza asosida amalga oshirish hamda zamonaviy, chiqindisiz, ekologiya nuqtai nazaridan maqbul va toza texnologiyani joriy qilishni hisobga olib hal etish lozim. SHubhasiz, mustaqil mamlakat, uning mustahkam milliy iqtisodiyoti uchun barcha sanoat tarmoqlari, shu jumladan, kimyo, metallurgiya va boshqa korxonalar ham zarur. Ammo ular mumkin qadar to’g’ri va hozirgi zamon texnologiyasi bilan joylashtirilishi lozim.

Shu bilan birga ekologik masalalar faqat sanoat geografiyasidagina emas, balki ular qishloq xo’jalik, aholi va shaharlar, transport, rekreatsiya, tibbiyot geografiyasi kabi yo’nalishlarni o’rganishda ham asosiy o’rinda turishi kerak. Boshqacha qilib aqtganda, geografik dunyoqarash ekologik fikrlashi bilan singdirilmog’i shart. Binobarin, hududiylik, komplekslik va ekologik tamoyillar aslo bir-biriga zid bo’lmay, aksincha, yonma-yon turishlari talab etiladi (*ruslar bu o’rinda «ne vmesto, a vmeste» deyishadi.*)

Ijtimoiy geografiyaning yana bir prinsipi *demosentrizm* yoki *antroposentrizmdir*. Chunki, barcha hududiy iqtisodiy munosabatlar asosida eng avvalo, inson-moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratuvchisi va, ayni paytda, ularning iste'molchisi joy oladi. Qolaversa, tarix, jamiyat tarixi ham insonsiz



7-rasm. Antroposentrizm – barcha narsa inson manfaatlari uchun, inson markazda

bo'lmaydi. Bundan tashqari, dastavval, sof tabiiy ma'noga ega bo'lgan ekologiya tushunchasi ham industiriyalashtirish va urbanizatsiya tufayli sotsial yoki inson ekologiyasiga aylanmoqda.

N. N. Baranskiy insonsiz geografiyaga bor vujudi bilan qarshi va «Insonni unutibsiz!» deb xitob qilar edi. Chindan ham ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonining markazida inson turadi (7-rasm). Biroq, inson avvalgidek, faqat ishlab chiqarish kuchi, uning subyekti, ishchi kuchi bo'lmay,

balki u o'z nomi bilan Buyuk Insondir. Shuning uchun inson tabiati, biogeografiyasi, yashash tarzi, urf-odati kabi sof ijtimoiy masalalarning hududiy jihatlari ham o'rganilishi lozim.

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda, ilmiy-texnika tarqqiyoti va boshqalarda inson omili, uning talab va ehtiyoji, dunyoqarashi muhim o'rin tutadi. Shunuqta nazardan demotsentrik tamoyil ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishda e'tiborga olinishi bilan bir qatorda insonning o'zi ham o'rganilishi ahamiyatdan xoli emas. Chunonchi, uning o'qishi, dam olishi, davolanishiga o'xshash bevosita ishlab chiqarish jarayonidan tashqarida yotgan va kishi yashashi bilan bog'liq barcha masalalar sotsiologiya, etnografiya, psixologiya fanlari qirrasida tadqiq etilishi kerak.

Shunday qilib, hududiylik, komplekslik, tarixiylik, ekologiya hamda demotsentrik yondashuvlar ijtimoiy geografiyaning mustaqilligi va mustahkamligini, barqaror va qat'iyiligini ta'minlaydi. Shu bilan birga bu asosiy prinsiplar alohida-alohida emas, balki birgalikda kuchli, ta'sirchan bo'ladi. Ular ushbu fanni ijtimoiylashtirish, siyosiyashtirish, iqtisodiyashtirish va mahaliylashtirish kabi yo'nalishlar yordamida amaliyotga tatbiq etilsa, u yanada samaraliroq natija beradi.

Barcha fanlarda bo'lganidek, geografiya,shu jumladan, ijtimoiy geografiyada differentsiatsiya (turlanish) jarayoni ketmoqda. Shu bois, mamlakatimizda jahonning ilg'or davlatlaridagi boy tajribalar, yangi ilmiy yo'nalishlar ham joriy etilsa, bo'lajak yosh mutaxassislar zamon talabi darajasida tayyorlangan bo'ladi.

Geografiya fanining yana bir ajoyib va betakror imtiyozi bor. Bu ham bo'lsa uning integratsion salohiyatining kuchliligidir. qamrovi keng bo'lgan geografiya juda ko'p fanlar bilan «qo'shnihilik» qiladi va tutash mavqega ega. Ular jumlasiga tarix, biologiya, geologiya, sotsiologiya, demografiya, iqtisodiyot, ekologiya, psixologiya, huquqshunoslik, shaharsozlik, tibbiyot va boshqalar kiradi.

Demak, geografiya bu fanlar bilan aloqada va uning kuchi ham ana shunda. Boshqacha qilib aytganda, geografiya uchun turli fanlar qirrasida yangi-yangi yo'nalishlar va yutuqlarga erishish imkoniyati mavjud. Chunki geografiya fani barcha fanlar tizimida qulay «geografik o'ringa» ega, u markazda (maxrajda) va shuning uchun qolgan fanlarning ko'pchiligi istasa-istamasa geografiyaga to'qnashadi.

Piter Xaggetning iqtisodiy va ijtimoiy geografiya nazariyasining rivojiga qo'shgan hissasi. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning asoschilaridan biri Piter Xagget 1933-yil 24-yanvarda Angliyaning Somerset shahri yaqinidagi Poulet shaharchasida tug'ilgan. Kembridj universitetini tugatgan, dastavval maktabda,

soʻngra kollejda, 1966-yildan eʻtiboran Bristol universitetida faoliyat olib borgan. 1966-1988-yillarda universitetning “Shaharlar va mintaqalar geografiyasi” kafedrasini mudiri, Britaniya akademiyasi vitse-prezidenti boʻlgan. U Yevropa Fanlar akademiyasi asoschilaridan biridir (*Piter Xagget hamda Torsten Xagerstrandlar akademiyaning dastlabki aʼzolari qatoriga kiradi*). Hozirgi vaqtda Somersset shahrida oilasi bilan hayot kechirmoqda (8-rasm).

Piter Xagget hududiy tahlil maktabining asoschilaridan biri. 1972-yilda oʻzining “Geografiya: zamonaviy bilimlar sintezi” asarini nashr etdi. 1960-1970-yillarda Xagget tibbiyot geografiyasining nazariy masalalari, yuqumli kasalliklarning tarqalishi muammolari bilan shugʻullangan. 1991-yilda “Votren Lyud” mukofoti bilan taqdirlangan (**asosiy ishlari:** *Locational Analysis in Human Geography, 1965; Models in geography, 1967; Network Analysis in Geography, 1969; Geography: a modern synthesis, 1972; The Geographical Structure of Epidemics, 2000; World Atlas of Epidemic Diseases, 2004; Geography: a global synthesis, 2005*).



8-rasm. Piter Xagget

Hurmatli kitobxon! Biz quyida geografiya fani tarixi bilan qiziquvchilar uchun Piter Xagget (*Geographie: Eine Globale Synthese*) asaridan olingan ushbu epilogni taqdim qilishni lozim topdik.

“Epilog: Maʼlum bir fanni oʻrganishda kamdan-kam uchraydigan mantiqqa ega boʻlmagan narsalar hali fanda juda koʻp bilimlar mavjudligini anglatadi. Yarim asr ilgari geografiya sohasi boʻyicha Kembridj universitetida taʼlim olishni boshladim va hozir janob Isaak Nyuton nimani oʻylaganligini aniq bilaman.

Chunki biz hammamiz kichkina bolalar kabi planetaning mushtday qismi go'zalligi va rang-barangligini tushunishga harakat qilamiz.

Ko'pchilik geografiyani maktabda o'rgangan va kelajakda musiqa, fizika, falsafa bo'yicha tahsil olishni rejalashtirgan. Ulardan ba'zilari geografiya ilmiga ham qiziqib qolgandir, ehtimolki, geografiyani asosiy fan (*yo'nalish*) sifatida tanlashni o'ylab qo'ygandir?

Yoshlar geografiyani maktabda dars predmeti sifatida o'rganishlariga qaramasdan, ushbu yo'nalish bo'yicha universitetda tahsil oluvchilar soni ko'pchilikni tashkil qilmaydi. Birlashgan Qirollikda atigi har o'ninchi o'quvchi geografiyani o'quv fani sifatida o'rganadi. Uning oliygohlarida bakalavr bosqichi tugatuvchilari orasidan faqatgina har 150 talabadan bittasi geografiyani asosiy yo'nalish sifatida o'rganadi. Falsafa yoki iqtisodiyot bo'yicha ta'lim oluvchilar soni bilan geografiya sohasi bo'yicha o'qiydiganlar sonini taqqoslaydigan bo'lsak, geografiyani asosiy yo'nalish sifatida o'rganuvchilar soni kamchilikni tashkil qilishiga guvoh bo'lamiz. So'nggi yillarda bir yilda o'rtacha geografiya bo'yicha bitta, fizikada 10 ta, kimyo va mashinasozlikda 20 ga yaqin, pedagogika bo'yicha 25 nafar tadqiqotchi ilmiy daraja olishga erishmoqda.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining ob'yekti va predmetini tushuntirib bering.
2. Nima sababdan iqtisodiy geografiya iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaga aylandi?
3. Ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etishning qanday shakllari mavjud ?
4. Mujassamlashuv jarayonining mohiyatini tushuntiring ?
5. Ixtisoslashuvni aniqlash uchun qanday shart-sharoitlar zarur ?
6. Koperatsiya va kombinatsiyani qanday o'xshashli va farqli tomonlari mavjud?
7. Hududiy mehnat taqsimoti asosida nima etadi va qaysi omillar sabablariga ko'ra bir joy xo'jaligi muayyan sohaga ixtisoslashadi?
8. Tabiiy sharoit hududiy mehnat taqsimotiga qanday tasir ko'rsatadi?

MAVZUGA DOIR ASOSIY TUSHUNCHALAR

Obyektivlik - doimo ilmiy bilim ideali va uning asosiy mezoni sifatida amal qilgan: birinchidan, bilimning o'z obykti bilan mos kelishini qayd etuvchi taomil: ikkinchidan, subyekt va uning bilish faoliyati vositalari bilan bog'liq barcha narsalarni bilimdan chiqarib tashlash taomili

Inson geografiyasi - (Fransiya inson geografiyasi maktabi) Fransiyada XIX asr oxiri XX asrning birinchi yarmida vujudga kelgan geografiya fani bo'yicha ilmiy maktab «geographic humaine» sifatida tanilgan va tan olingan. Maktabning shakllanishi va rivojlanishi fransuz geografi Videldo de Blash va uning ko'plab shogirdlari faoliyati bilan bog'liq: jumladan J. Bryun, A. Demanjon, R. Blanshar, L.Gallua, E.Martonn, A.Boli va boshqalar. Ilmiy maktab ichidagi geografiya pozitivitik nuqtai nazardan fanga emas, balki san'atga ham tegishli.

Tabiat va inson o'rtasidagi uyg'unlikni o'rganish va rayon tahlili pirovard natijada asosiy maqsad sifatida qaraladi. Hududning tashqi landshaft xususiyatlariga katta e'tibor qaratiladi.

Sanoat geografiyasi- Ijtimoiy-iqtisodiy geografianing mustaqil tarmog'i bo'lib, industrial ishlab chiqarishni hududiy tashkil etish: sanoatning va sanoat korxonalarining dunyoda, mamlakatlar va mintaqalarda, iqtisodiyotning boshqa sohalari, fan, jamiyat va tabiat aloqalari, sanoatning joylashuv omillari, shart-sharoitlari va o'zaro ta'sirini o'rganadi.

Muammo - eng avvalo imkoniyat va voqelik, talab (ehtiyoj) bilan taklif orasidagi nomuvofiqliklardan kelib chiqadi. Shuningdek, u o'rganilayotgan yoki ko'rilayotgan sohadagi tushunmovchiliklar, noaniqliklar bilan ham bog'liq. Chunonchi, geografianing, shu jumladan iqtisodiy va sotsial geografianing asosiy muammosi - bu, eng avvalo, uning *nomi, atalishi va ta'rifidir*.

Rezonans – Ichki va tashqi omillar ta’sirida mamlakat yoki iqtisodiy rayonlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining follashuvi yoki iqtisodiy o’sishning keskin va nisbatan uzoq muddatli jadallashuvi jarayonidir. Bunday iqtisodiy o’sish “Noyoob mo’jiza” deb nomlanadi: nemis Reyn (1948-1973), yapon (1955-1973), Braziliya (1968-1973) va boshqalar.

Geoiqtisodiyot- 1) Geosiyosiy loyihalash tarmog’i bo’lib, u har xil resurslarning oqimlari bilan ish ko’radi, davlatlar va boshqa siyosiy subyektlarni kuchaytirish yoki ularning qudratiga putur yetkazish maqsadida yuqorida zikr etilgan oqimlarni kuch ishlatmay, zarur holda esa – kuch ishlatish yo’li bilan tartibga solishga harakat qiladi. 2) XX asrning 90- yillarida iqtisodiyot va siyosatshunoslik tutashgan joyda shakllangan ijtimoiy fanlar yo’nalishi. Geoiqtisodiyot predmetida iqtisodiy tarix, iqtisodiy geografiya, hozirgi zamon jahon iqtisodiyoti va siyosatshunoslik, boshqaruv tizimlari nazariyasi masalalarini yagona majmuaga birlashtiruvchi bir necha jihatlar namoyon bo’ladi.

Geosiyosat -turli siyosiy jarayonlarning geografik sharoit (muhit) ga bog’liq holda rivojlanishini o’rganadigan fandır. Geopolitika (geosiyosat) - davlat va xalqlarning o’zlari joylashgan hududning geografik, tabiiy - iqlim sharoitlariga mos ravishda shakllanishini ifodalovchi fan. Ushbu fan negizida davlatning siyosiy tabiati ham u joylashgan hududning xususiyatlaridan kelib chiqishi asosiy o’rinni egallaydi. Bundan tashqari, geosiyosat davlatlarning boshqa hududlarni egallashga qaratilgan siyosatining ichki mexanizmlarini ochib beradi.

Ma’muriy – hududiy bo’linish - davlatni hududiy tashkil etish tizimi, uning asosida davlat hokimiyati, boshqaruvi organlari shakllantiriladi va ishlaydi.

Bazaviy tarmoqlar - kapital, energiya sig’imkorligi yuqori tarmoqlardir.

Davlat byudjeti – davlat daromadlari va xarajatlarining pul bilan ifodalangan yillik yig’indisi

3 – MAVZU

MANTIQ VA FANLAR METODOLOGIYASI

Maqsad: Talabalarga fan va ilmiy tadqiqot geografiyasi mustaqily fan ekanligi va uning ahamiyati hamda hududiy xususiyatlari haqida ma'lumot berish.

Tayanch so'z va iboralar: Bilim sifatida fan, faoliyat sifatida fan, ijtimoiy madaniy hodisa sifatidagi fan, prezentizm, antikvarizm, internalizm, ksternalizm, fanning vazifalari..



REJA:

1. "Fan" tushunchasining ta'rifi.
2. Fanning funksiyalari.
3. Fan rivojlanishining asosiy bosqichlari.
4. Fan va ilmiy tadqiqot geografiyasi.



Fan tushunchasining ma'nosi. Fan ijtimoiy taraqqiyot jarayonida insoniyatning kundalik ehtiyojlariga javob sifatida paydo bo'ldi. Ko'p sonli ta'riflarga ko'ra fan bilim faoliyat va ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Bilim sifatida fan atrof borliq narsalari va jarayonlarini amalda aniq, izchil va tadrijiy bilishga qaratilgan.

Faoliyat sifatida fan maqsadlarni belgilash, qarorlar qabul qilish, yo'l tanlash, o'z manfaatlarini ko'zlash, mas'uliyatni tan olish maydonida amal qiladi. V.I.Vernadskiy fanning aynan faoliyat sifatidagi talqinini alohida qayd etgan edi: «Fanning mazmuni ilmiy nazariyalar, gipotezalar, modellar bo'lib, u yaratuvchi dunyoning manzarasi bilan cheklanmaydi, uning negizi asosan ilmiy omillar va

ularning empirik xulosalaridan tashkil topadi, tirik odamlarning ilmiy ishi uning asosiy jonli mazmunini tashkil etadi»¹.

Faoliyat sifatidagi fan obyektivlik, aniqlik, haqiqiylik mezonlariga javob beruvchi bilimlar tizimi sifatida amal qiluvchi ilmiy bilim o'ziga erkinlik hududini ta'minlashga, mafkuraviy va siyosiy yo'nalishlarga nisbatan betaraf bo'lishga harakat qiladi. Olimlar o'z umrini baxshida etuvchi haqiqat yo'lidagi izlanishlar hamma narsadan ustun turadi, fanning bosh omili va asosiy boyligi hisoblanadi.

Fanning uchinchi – institutsional talqini uning ijtimoiy tabiatiga urg'u beradi va uning borlig'ini ijtimoiy ong shakli sifatida moddiylashtiradi. Umuman olganda, fanning institutsional ko'rinishi bilan ijtimoiy ongning boshqa shakllari: din, siyosat, huquq, mafkura, san'at va hokazolar ham bog'liq.

Ijtimoiy institut yoki ijtimoiy ong shakli sifatidagi fan ilmiy tashkilotlar, ilmiy hamjamiyat a'zolari o'rtasidagi o'zaro aloqalar tizimini, me'yorlar va qadriyatlar tizimini tashkil etadi. Biroq o'n minglab va hatto yuz minglab odamlar o'z kasbini topgan institut sifatidagi fan yaqin o'tmishdagi rivojlanish mahsulidir. Zotan, faqat XX asrga kelib olim kasbi o'z ahamiyatiga ko'ra ruhoniylar va qonunchi kasbi bilan tenglashdi.

Ijtimoiy madaniy hodisa sifatidagi fan *ikki yo'nalishda* davlat boshqaruv tizimi va jamoa sifatidagi fanda namoyon bo'ladi.

Davlat boshqaruvi tizimi sifatidagi fan bu universitetlar, ilmiy tadqiqot institutlari, laboratoriyalarida boshqaruvning davlat boshqaruvi darajasida amalga oshishini nazarda tutadi, jamoa sifatidagi fan esa bu kafedralar, bo'limlarda ishlayotgan olimlar, xodimlar bo'lib, ularga odamlarning tipik ko'rinishiga xos bo'lgan barcha fazilatlar va illatlar xosdir. Shu bois, jamoa sifatidagi fanda haqiqiy fan fidoiylari bilan bir qatorda munofiqlar, fikr o'g'rilari va amalparastlar ham faoliyat yuritadi.

¹ Вернадский В.И. Проблема биохимии. – М., 1988. – 252-б.

J. Bernal fan tushunchasiga amalda ta'rif berish mumkin emasligini qayd etib, fanning mohiyatiga yaqinlashish imkonini beruvchi yo'llarni belgilaydi. Uning fikricha fan:

- 1) institut;
- 2) metod;
- 3) ilmiy an'analarning shakllanishi;
- 4) ishlab chiqarishning rivojlanish omili;
- 5) e'tiqodlar va insonning dunyoga munosabatini shakllantiruvchi eng kuchli omil sifatida namoyon bo'ladi¹.

«Etimologik lug'at»da fanga «tabiiy hodisalarni kuzatish, tasniflash, tavsiflash, tajribada sinash va nazariy tushuntirish taomillarini ko'rsatish vositasi» deb ta'rif berilgan². Bu ta'rif asosan amaliy xususiyat kasb etadi.

E. Agatstsi fan *«obyektlar haqidagi fikr-mulohazalarning oddiy majmui sifatida emas, balki obyektarning muayyan sohasi haqidagi nazariya sifatida»* qaralishi lozimligini qayd etadi³. Bu ta'rifda ilmiy va oddiy bilimni farqlashga da'vo, fan obyektini o'rganishni uni nazariy tahlil qilish darajasiga yetkazgan taqdirdagina to'laqonli xususiyat kasb etishiga ishora mavjud.

Shunday qilib, fan bilan faqat dalillar majmuini qayd etish va ularni tavsiflashni bog'lash mumkin emas. Biz narsalar va hodisalarni tushuntirish va ularni taxmin qilish tamoyillarini aniqlashga muvaffaq bo'lgan taqdirdagina to'laqonli fanga ega bo'lamiz. Ko'pgina olimlar ma'lum tamoyillar, soddalik mavjud bo'lmasa, fan ham mavjud bo'lmaydi, deb hisoblaydilar. Bu bahsli fikr. Chunki fanning yetukligi nafaqat soddalik va aniqlik, balki teran nazariy, kontseptual daraja bilan ham belgilanadi. Agar inson mushohada yuritishni emas,

¹ Бернар Дж. Наука в истории общества. – М., 1956. – 18-б.

² Холтон Дж. Что такое антинаука // Вопросы философии. 1992. №2.

³ Агацци Э. Моральное измерение науки и техники. – М., 1998. – 12-б.

balki unga barcha dalillar taqdim etilishini xohlayotgan bo'lsa, u fanning dastlabki bosqichida emas, balki bu bosqichning nuqtai nazarida turgan bo'ladi.

Hozirgi vaqtda fan, avvalo, ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Bu fan jamiyatda amal qiluvchi rang-barang kuchlar va ta'sirlarga bog'liq ekanligi, ijtimoiy kontekstda o'z ustuvor vazifalarini belgilashi, murosai madoraga moyilligi va o'zi ham jamiyat hayotini sezilarli darajada belgilashini anglatadi. Shu tariqa ikki xil munosabat qayd etiladi: fan ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida insoniyatning dunyo haqida haqiqiy, aniq bilim olish va yaratishga bo'lgan muayyan ehtiyojiga javob tariqasida yuzaga kelgan va o'z mavjudlik jarayonida jamiyat hayotining barcha jabhalari rivojlanishiga ancha kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Fanga ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida qaralishi shu bilan izohlanadiki, uning asoslarini o'rganish to'g'risida so'z yuritilgan taqdirda bugungi kunda biz fan deb ataydigan hodisaning chegarasi «madaniyat» chegarasigacha kengayadi. Boshqa tomondan, fan o'zining dastlabki – faoliyat va texnologiya sifatidagi talqinida madaniyatning birdan-bir barqaror va «haqiqiy» poydevori rolga da'vogar bo'ladi.

Ijtimoiylik munosabatlarining o'zi odamlarning odamlar xususidagi munosabatlari va odamlarning narsalar xususidagi munosabatlari sifatida tushuniladi. Bundan fan ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida insoniy munosabatlarning barcha jabhalariga kirib boradi, u odamlar o'rtasidagi munosabatlarning asosiy negizlaridan ham, narsalarni ishlab chiqarish, ayirboshlash, taqsimlash va iste'mol qilish bilan bog'liq barcha faoliyat shakllaridan ham o'rin oladi, degan xulosa kelib chiqadi. Hozirgi texnokratik asr qonuni shunday yangraydi: «*Hamma narsa ilmiy, ilmiy asoslangan va ilmiy tekshirilgan bo'lishi lozim*». Fanning bunday yuksak maqomidan u inson hayotining barcha jabhalariga rasman faol kirib borishi kerak, degan xulosa kelib chiqadimi yoki, aksincha, bu fanga insoniyat hayotidagi barcha salbiy jarayonlar

uchun mas'uliyat yuklaydimi? Bu savol ochiq qolmoqda. Shu narsa aniqki, fan, ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida, doim jamiyatda shakllangan madaniy an'nalarga, qabul qilingan qadriyatlar va me'yorlarga tayanadi.

Ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida tushuniladigan fan jamiyat mulkiga aylangan va ijtimoiy xotirada saqlanayotgan bilimlarni o'zlashtirmasdan rivojlana olmaydi. Fanning madaniy mohiyati uning axloqiy tamoyillar va qadriyatlar bilan boyib borishiga sabab bo'ladi. Fan etosining yangi imkoniyatlari intellektual va ijtimoiy mas'uliyat muammosi, qarorlar qabul qilishning shaxsiy jihatlari, ilmiy hamjamiyat va jamoadagi ma'naviy muhit muammolarida namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy-madaniy hodisa sifatidagi fanni tushuntirishning mushkulligi shu bilan izohlanadiki, fan o'z erkinligidan voz kechmaydi va ijtimoiy munosabatlar kontekstiga butunlay singib ketmaydi. Fan, hech shubhasiz, *«kommunitar (kollektiv) korxon»*dir. Biron-bir olim o'z hamkasblarining yutuqlariga, odamzotning umumiy xotirasiga tayanmasligi mumkin emas. Fan juda ko'p odamlarning hamkorligini talab qiladi, u intersubyektivdir.

Ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida tushuniladigan fan sivilizatsion rivojlanish tipi bilan taqqoslashni nazarda tutadi. A.Toynbi taklif qilgan tasnifga ko'ra sivilizatsiyaning 21 tipi farqlanadi. Eng umumiy yondashuv sivilizatsiyalarning ikki xili: an'anaviy va texnogen sivilizatsiyalarni hisobga olib, umumiy sivilizatsion farqlashni taklif qiladi. Texnogen sivilizatsiyalar XV-XVII asrlarda Yevropa mintaqasida texnogen jamiyatlar paydo bo'lishi munosabati bilan yuzaga kelgan. Ayrim an'anaviy jamiyatlar texnogen jamiyatlarga qo'shilib ketgan, ayrimlari esa, texnogen va an'anaviy mo'ljallar o'rtasida rivojlanib, aralash xususiyat kasb etgan.

Texnogen rivojlanishning madaniy matritsasi uch bosqich: oldindustrial, industrial va postindustrial bosqichlardan o'tadi. Texnika va texnologiyaning rivojlanishi uning muhim ko'rsatkichiga aylanadi. Rivojlanishning texnogen tipi –

bu tabiiy muhitning jadal sur'atlarda o'zgarishi, uning odamlar ijtimoiy aloqalarining faol o'zgarishi bilan birikishidir. Texnogen sivilizatsiya yuzaga kelganiga 300 yildan sal ko'proq vaqt bo'lgan. U ancha agressiv bo'lib, ko'pgina eski madaniy an'analarning halokatiga sabab bo'ladi. Tashqi dunyo inson faoliyati maydoniga aylanadi. Inson o'zgartiruvchi va zabt etuvchi faoliyatga turtki beruvchi markaz sifatida amal qiladi. «Kuch» tushunchasi ishtirokidagi umumiy madaniy munosabatlar tavsifi shundan kelib chiqadi: ishlab chiqarish kuchlari, ilmiy kuchlar, intellektual kuchlar va h.k.

An'anaviy va texnogen jamiyatlarda shaxs erkinligi muammosiga nisbatan munosabat ham har xildir. An'anaviy jamiyatga shaxs erkinligi umuman xos emas, shaxs imkoniyatlarini faqat muayyan korporatsiyaga mansublik orqali, korporativ aloqalar elementi sifatida ro'yobga chiqarish mumkin.

Texnogen jamiyatda har xil ijtimoiy birliklar va madaniy an'analar bilan o'zaro munosabatlarga kirishish imkonini beruvchi shaxs erkinligi himoya qilinadi. Inson faol mavjudot sifatida tushuniladi. Uning faoliyati ekstensiv bo'lib, sirtga, tashqi dunyo va tabiatni bo'ysundirish va o'zgartirishga qaratiladi. Biroq tabiat har xil texnogen mashg'ulotlar uchun tubsiz rezervuar bo'lishi mumkin emas, chunki inson faoliyati azaldan biosfera dominantini emas, balki uning komponenti hisoblanadi.

Fanning funksiyalari. Fan funksiyalarining tasnifi muammosi hanuzgacha bahsli bo'lib qolmoqda. Bu holat qisman fan o'z zimmasiga yangi va yangi funksiyalarni olib rivojlangani, qisman u ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida amal qilib, obyektiv va shaxssiz qonuniyat haqida emas, balki fan-texnika taraqqiyotining barcha yutuqlarini amalga tatbiq etish haqida o'ylay boshlagani bilan izohlanadi. Fanning ijtimoiy funksiyalari haqidagi masala alohida va ustuvor ahamiyatga ega muammo sifatida qayd etiladi.

Fanning asosiy maqsadi doim obyektiv bilimlarni yaratish va tizimga solish bilan bog'liq bo'lgani tufayli, fanning zaruriy funksiyalari tarkibiga borliq jarayonlari va hodisalarini fanda kashf etilgan qonunlar asosida tavsiflash, tushuntirish va bashorat qilish kiritilgan. Fan, ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida, ko'p sonli munosabatlar, shu jumladan iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik, mafkuraviy, ijtimoiy-tashkiliy munosabatlarni o'z ichiga oladi. Bilish faoliyati madaniyat borlig'i bilan mushtarakdir.

Haqiqiy bilimni yaratish funksiyasi fan binosini quruvchi asosiy funktsiya hisoblanadi. U kichik funksiyalar: tavsiflash, tushuntirish, prognoz qilishga bo'linadi.

Fanning loyihalash-konstruktsiyalash funksiyasi borliqni amalda o'zgartirish bosqichidan oldin keladi va har qanday darajadagi intellektual izlanishning ajralmas qismi hisoblanadi. Loyihalash-konstruktsiyalash funksiyasi mutlaqo yangi texnologiyalarni yaratish bilan bog'liq bo'lib, bu bizning davrimizda o'ta muhim ahamiyat kasb etadi⁴.

Fanning madaniy-texnologik funksiyasi insonning bilish faoliyati subyekti sifatida materialga ishlov berish, uni o'zlashtirish va bilish jarayoniga jalb qilish bilan bog'liqdir.

Fanning madaniy funksiyasi faqat samarali natija, ya'ni ilmiy faoliyat natijalari madaniyatning umumiy salohiyatini ham tashkil etishi bilan bog'liq emas. Fanning madaniy funksiyasi o'zining protsessualligi bilan kuchli. U avvalo insonni faoliyat va bilish subyekti sifatida shakllantirishni nazarda tutadi. Individual bilishning o'zi faqat madaniyatda qabul qilingan va mavjud bo'lgan madaniylashtirilgan, ijtimoiy shakllarda amalga oshiriladi. Individga bilish vositalari va usullari tayyor holda taqdim etiladi. Individ ular bilan ijtimoiylashu v jarayonida tanishadi. Tarixan u yoki bu davrning kishilik jamiyati doimo borliqni

⁴ Швырев В.С. Научное познание как деятельность. – М., 1984. – 12-б.

o'rganishning umumiy leksik vositalariga ham, umumiy vositalarga ham, maxsus tushunchalar va taomillarga ham ega bo'lgan. Ilmiy bilim hayotga chuqur kirib, odamlar ongi va dunyoqarashini shakllantirishning muhim negizini tashkil etib, shaxsning shakllanishi yuz beruvchi ijtimoiy muhitning ajralmas tarkibiy qismiga aylandi.

Fan jamiyatdagi jarayonlarni ijtimoiy tartibga solish funksiyasini bajaradi. U jamiyat ehtiyojlariga ta'sir ko'rsatadi, oqilona boshqarishning zaruriy shartiga aylanadi. Har qanday yangilik dalillar bilan ilmiy asoslashni talab qiladi. Fanni madaniy-ijtimoiy tartibga solish mazkur jamiyatda shakllangan ta'lim va tarbiya tizimi orqali hamda tadqiqotchilik faoliyati va fan etosiga jamiyat a'zolarini jalb qilish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Fanni olimlar hamjamiyati rivojlantiradi. Shu sababli fan muayyan ijtimoiy va kasbiy tashkilotga, rivojlangan kommunikatsiyalar tizimiga ega bo'ladi. Frensis Bekon o'z davrida shunday deb qayd etgan edi: «Fanning takomillashu vini biron-bir odamning qobiliyati yoki uddaburonligidan emas, balki bir-birining o'rniga keluvchi ko'plab avlodlarning izchil faoliyatidan kutish lozim». Olim – doim u yoki bu ijtimoiy-madaniy muhit vakili. Mavjud ilmiy-ijodiy imkoniyatlarga butun ijtimoiy-madaniy maydonning ta'siri fan preparatining «soflik» darajasini ko'rsatadi.

Fanda haqiqatni izlash, tanqid, bahs, munozara ham qo'llab-quvvatlanadi. Olim o'zining kasbiy mahoratini maqolalar, asarlar e'lon qilish, ilmiy davralarda ma'ruzalar bilan chiqish, fanga doir malakaviy talablarga javob berish orqali muttasil tasdiqlaydi va ko'pincha o'z opponentlari-hamkasblari bilan ham, jamoatchilik fikri bilan ham murakkab munosabatlarga kirishadi. Olim faoliyatining e'tirof etilishi unga ilmiy daraja va unvonlar berilishi bilan bog'liq. Fanda eng nufuzli mukofot Nobel mukofoti hisoblanadi.

Albatta, shaxsning ijodiy imkoniyatlari ro'yobga chiqmasligi yoki ijtimoiy tizim bunga imkoniyat bermasligi ham mumkin. Biroq ixtiro qilish, biror yangi narsani kashf etishga jamiyat emas, balki faqat teran aql va zarur bilimlarga ega bo'lgan individgina qodirdir.

Fan va texnika taraqqiyoti davrida fanning o'rni va ahamiyati tinimsiz o'sib bordi. Natijada uni ichki differentsiatsiyalashning yangi shkalasiga ehtiyoj tug'ildi. Katta fanda ayrim olimlar evristik izlanish faoliyatiga – yangi g'oyalarni ilgari surishga, ayrim olimlar analitik va eksplikatsion faoliyatga – mavjud g'oyalarni asoslashga, ba'zim olimlar – ularni tekshirishga, yana bir toifa olimlar esa – olingan ilmiy bilimni amalga tatbiq etishga ko'proq moyil ekanligi ayon bo'lib qoldi.

Sotsiologlarning hisob-kitoblariga ko'ra, fan bilan aholining faqat 6-8% shug'ullanishga qodir (9-rasm).

Ba'zan tadqiqotchilik faoliyati va oliy ta'limni qo'shib olib borish fanning asosiy va empirik jihatdan aniq belgisi hisoblanadi. Bu fan kasbiy faoliyatga aylanib borayotgan sharoitda juda o'rinlidir. Ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati zarur va barqaror ijtimoiy-madaniy an'ana sifatida e'tirof etiladi. Bu faoliyatsiz



9-rasm. Ilm-fan – jamiyat taraqqiyotining asosi

jamiyat normal mavjud bo'lishi va rivojlanishi mumkin emas. Fan har qanday ma'rifatli davlat faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan birini tashkil etadi.

Fanning bunyodkor kuch funksiyasi jamiyatning iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish uchun o'z imkoniyatlarini bevosita ro'yobga chiqaradi. Bunda u odamlar

xo'jalik-madaniy rivojlanishining muhim omili sifatida amal qiladi. XVIII-XIX asrlardagi sanoat to'ntarishi natijasida yuzaga kelgan yirik mashinali ishlab chiqarish fanning bevosita bunyodkor kuchga aylanishi uchun moddiy negiz bo'lib xizmat qildi. Har bir yangi kashfiyot ixtiro uchun asosga aylanadi. Ishlab chiqarishning rang-barang tarmoqlari fanning turli tarmoqlari ma'lumotlarining bevosita texnologik qo'llanilishi sifatida rivojlana boshlamoqda. Bu tarmoqlarga tijorat keng kirib kelmoqda. Boshqa erkin kasblardan farqli o'laroq, fan bir lahzada iqtisodiy foyda keltirmaydi va bevosita naf ko'rish bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq emas, shu sababli tirikchilik uchun mablag'lar topish muammosi olim uchun har doim juda muhim bo'lgan. Hozirgi zamon fanining rivojlanishiga ko'p miqdorda mablag'lar kiritish va bunda ular o'zini tez oqlashiga umid qilmaslik talab etiladi.

Fanning siyosat vositasidagi funksiyasi jamiyatning mafkuraviy ehtiyojlariga javob berishda amal qiladi. Markscha mafkura fanni to'la va yalpi nazorat qilgani, kibernetika, genetika, matematik mantiq va kvant nazariyasiga qarshi kurash olib borgani XX asr fani tarixidan yaxshi ma'lum. Markscha fan rivojlanishining bu jihatiga baho berar ekan, E.Agatstsi shunday xulosa chiqaradi: «Mafkura fanni unga mafkuraviy fikrlashga nisbatan ustunlikni ta'minlagan obyektiv bilim imidjidan mahrum etishga harakat qildi... Markschilar fan, ayniqsa ilmiy faoliyat amaliy sohalarda va hokimiyat bilan munosabatlarda (pragmatik daraja) ijtimoiy jabhaga bog'liq ekanligini qayd etardilar, bundan tashqari, fanni texnologiya bilan tenglashtirishga moyil edilar»⁵.

Rasmiy fan jamiyatning asosiy mafkuraviy mo'ljallarini qo'llab-quvvatlash, mavjud hokimiyat va mafkura o'zining imtiyozli mavqeini saqlashiga yordam beruvchi intellektual dalillar va amaliy vositalar taqdim etishga doimo majburdir. Bu jihatdan fan mafkuradan «ruhlanishi», uni o'zida mujassamlashtirishi lozim. T.Kun ta'biri bilan aytganda, «olimlar boshqotirmalarni yechishni o'rganadilar va

⁵ Қаранг: Агацци Э. Моральное измерение науки и техники. – М., 1998. – 2-б.

buning orqasida katta mafkura turadi»⁶. Shu sababli fanning betarafligi haqidagi xulosa doimo qizg'in munozaraga sabab bo'ladi.

Mafkurani o'zlashtirish ongsiz darajada, birlamchi ijtimoiylashuv jarayonida yuz beradi, shu sababli fan, garchi u har qanday mafkuradan butunlay xoli bo'lishga harakat qilsa-da, mafkura ta'siridan hech qachon to'la xalos bo'la olmaydi. Mafkuraning xususiyatlari qatoriga mafkurachilar uning haqiqatni ataylab buzib ko'rsatishi, dogmatizm, murosasizlik, falsifikatsiyalanmaslikni kiritadilar. Fan mutlaqo qarama-qarshi tamoyillarga amal qiladi: u borliqni aniq va to'g'ri aks ettirishga harakat qiladi, raqobatdosh nazariyalar bilan ko'pincha murosaga keladi, hech qachon erishilgan natija bilan kifoyalanmaydi va falsifikatsiyalanishga moyildir.

Mafkuraning fanga munosabati quyidagi modellarda amal qiladi:

- 1) qoralash;
- 2) befarqlik (u yoki bu fan o'z holicha rivojlanishiga yo'l qo'yib beradi);
- 3) rahnamolik va ekspluatatsiya qilish. Bunda muayyan yo'nalishlarni rivojlantirish, rivojlanish jarayonini sekinlashtirish yoki to'xtatishga qaratilgan mexanizmlar ishga solinadi.

Fanning ijtimoiy funksiyasi fan metodlari va uning ma'lumotlaridan ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishning keng ko'lamli rejalarini tuzish uchun foydalanilishini nazarda tutadi. Fan o'zini ijtimoiy kuch funksiyasida davrimizning olamshu mul muammolarini (tabiiy resurslarning kamayishi, atmosferaning ifloslanishi, ekologik xavf miqyosini aniqlash) hal qilish chog'ida namoyon etadi. O'zining bu funksiyasida fan ijtimoiy boshqaruv bilan bog'lanadi.

Jamiyat muttasil ta'sirining sezilishi bugungi kunda fan «ijtimoiy buyurtma»ni bajarishga majburligi bilangina izohlanmaydi. Texnologik ishlovlarning qo'llanish oqibatlari uchun katta axloqiy mas'uliyat har doim olim

⁶ Американский философ Джованна Боррадори беседует с Куайном, Дэвидсоном, Патнэмом, Нозиком, Данто, Рорти, Кэйвллом. – М., 1998. – 200-б.

zimmasiga yuklanadi. Aniq fanlarga nisbatan maxfiylik xususiyati juda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu, xususan, harbiy sanoat sohasida maxsus buyurtmalarni bajarish bilan bog'liq. Darhaqiqat, shunday texnologiyalar va ishlovlar mavjudki, insoniyat uchun ulardan foydalanish o'ziga o'zi ziyon yetkazish yoki o'zini o'zi qirg'in qilish bilan barobar.

Fanni belgilovchi ijtimoiy-psixologik omillar ilmiy tadqiqot kontekstiga tarixiy va ijtimoiy ong haqidagi tasavvurlarni, olimning shaxsi va ma'naviy qiyofasi, bilishning kognitiv mexanizmlari va uning faoliyatini rag'batlantiruvchi omillar haqidagi mulohazalarni kiritishni taqozo etadi. Ular fanni sotsiologik o'rganish majburiyatini yuklaydi, chunki fan, ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida, o'z rivojlanishining nafaqat ijobiy, balki salbiy oqibatlari bilan ham tavsiflanadi. Faylasuflar fanning qo'llanilishi o'zining axloqiy va insoniy mazmunini yo'qotishidan ehtiyot bo'lishga chaqiradilar. Bu holda fan qattiq tanqid obyektiga aylanadi, olimlar faoliyati ustidan nazorat o'rnatish muammolari muhim ahamiyat kasb etadi.

Fan rivojlanishining asosiy bosqichlari. Fan bilimning mustaqil sohasi, dunyoqarashning alohida shakli sifatida faqat XVII-XVIII asrlarda to'la shakllandi. Muayyan darajada shartlilik bilan shuni aytish mumkinki, bu I.Nyuton klassik mexanikaning asosiy qonunlarini ta'riflab, shu tariqa tabiatshunoslikning bo'limi – asoslari asrlar mobaynida shakllangan, bosh tamoyillari esa bundan yuz yilcha muqaddam, avvalo Galileo Galiley tomonidan ta'riflangan klassik mexanikaning shakllanishiga yakun yasaganidan keyin yuz berdi.

Miloddan avvalgi I ming yillikdan XVI asrgacha bo'lgan davr ilk fan davridir. Bu davrda asrlar mobaynida avloddan-avlodga o'tib kelgan, hayot tajribasi va mehnat faoliyati jarayonida olingan amaliy bilimlar bilan bir qatorda juda umumiy va mavhum mushohadalarga asoslangan nazariyalar xususiyatiga ega bo'lgan tabiat haqidagi dastlabki falsafiy tasavvurlar (naturfalsafa) vujudga kela

boshlagan. Ilmiy bilim kurtaklari naturfalsafa doirasida uning elementlari sifatida shakllangan. Matematik, astronomik, tibbiy va boshqa masalalarni yechishda foydalaniladigan ma'lumotlar, usullar va metodlar jamlanishi bilan falsafada tegishli bo'limlar vujudga kelgan va keyinchalik asta-sekin shakllanayotgan ayrim fanlar: matematika, astronomiya, tibbiyot va hokazolarga ajralib chiqqan.

Jumladan, Aristotelning falsafiy asarlarida fizika, zoologiya, embriologiya, mineralogiya, geografiya kabi fanlarning kurtaklariga duch kelish mumkin. Miloddan avvalgi III-II asrlarda falsafiy bilim tarkibida statistik mexanika, gidrostatika, geometrik optika (xususan, ko'zgular haqidagi alohida fan – «kaptoptrika») farqlanadi va nisbatan mustaqil ahamiyat kasb etadi. Markaziy Osiyo mutafakkirlari al-Xorazmiy matematika, al-Farg'oniy astronomiya, al-Beruniy mineralogiya va geografiya, Ibn Sino tibbiyot, Mirzo Ulug'bek astronomiya, Alisher Navoiy adabiyot ilmi rivojiga munosib hissa qo'shdi va ular ijodi mahsullari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Biroq bu fanlarda ayrim tasodifiy



10-rasm. Antik davr. Qadimgi Yunoniston – ilm-fan beshigi


kuzatishlar va amaliyot ma'lumotlari umumlashtiriladi-yu, lekin eksperimental metodlar hali qo'llanilmaydi, aksariyat nazariy qoidalar esa asossiz va tekshirib bo'lmaydigan spekulyatsiyalar mahsuli hisoblanadi. Ammo ko'rib chiqilayotgan davrda vujudga kelgan ilmiy fanlar bu davr mobaynida falsafiy bilim qismlari sifatida talqin qilinishda davom etgan.

Shu narsa diqqatga sazovorki, hatto XVII asr oxirida Nyuton o'zining fizika asoslarini yaratgan «Natural falsafaning matematik asoslari» deb nomlangan asarini e'lon qilgan. Shunday qilib, falsafadan alohida faoliyat sohasi sifatidagi fan

hali mavjud bo'lmagan: u asosan falsafa doirasida, ilmiy bilimlarning boshqa manbai – hayot amaliyoti va hunarmandchilik san'ati bilan bir vaqtda va u bilan juda zaif aloqada rivojlangan.

Xullas, bu davrda Qadimgi Yunonistonda “Platon akademiyasi”(2013-yilda Platon akademiyasiga 2400 yil to'lishi bilan XXIII Jahon Falsafa Kongressi Gretsiyaning Afina shahrida o'tkazildi), Markaziy Osiyoda “Ma'mun akademiyasi” tashkil etilgan, ilmiy bilim rivojida muayyan yutuqlarga erishilgan bo'lsada, madaniyatning alohida shakli sifatida fan paydo bo'lishidan oldingi «embrional» davri hisoblanadi.

2. XVI-XVII asrlar – 1 ilmiy inqilob davri bo'lib, u “klassik fan davri” deb nomlanadi va XIX asrgacha davom etadi. U Kopernik va Galiley tadqiqotlaridan boshlanib, Nyuton va Leybnitsning fizika va matematika sohasidagi fundamental asarlari bilan o'z cho'qqisiga ko'tarilgan. Galiley vafoti (1642-yil 8-yanvar)dan so'ng oradan bir yil o'tgach Nyuton tug'ilgani (1643-yil 4-yanvar) o'ziga xos bo'lib, bu ilm-fanning umri hech tugamasligiga yana bir misoldir. Fanning bu buyuk ijodkorlari yashagan davr –kashfiyotlar hamda yangi ilmiy g'oyalarning mualliflari sxolastika va diniy dunyoqarash dogmatizmiga qarshi kurash olib borgan romantik davrdir (11-rasm).



N.Kopernik

J.Bruno

G.Galiley

I.Nyuton


11-rasm. Yevropa Renessansining ayrim buyuk olimlari

Bu davrda hozirgi vaqt tabiatshunosligining asoslari yaratilgan. Hunarmandlar, tabiblar, alximiklar tomonidan qo'lga kiritilgan ayrim dalillar tizimli tahlil qilinib, umumlashtirila boshlagan. Ilmiy bilim tuzishning tabiat qonunlarini matematik ta'riflash, nazariyalarni tajribada sinash, tajribada asoslanmagan diniy va naturfalsafiy dogmalarga tanqidiy qarash bilan bog'liq bo'lgan yangi me'yorlari va ideallari vujudga kelgan. Fan o'z metodologiyasini yaratgan va amaliy faoliyat ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lgan masalalarni yechishga tobora faolroq yo'naltirilgan.

Biroq fan o'zining yangi metodologiyasini yaratib, amaliyot ruhi bilan sug'orilgani sari u o'z tarixiy vatani – falsafa qirg'oqlaridan uzoqlasha boshlaydi. Ko'rib chiqilayotgan davr oxiriga kelib u falsafiy, diniy, teologik aqidalardan qat'iy nazar rivojlanishi mumkin bo'lgan bilimlar tizimi sifatida tushunila boshlaydi. Natijada fan faoliyatning alohida, mustaqil sohasiga aylanadi. Professional olimlar paydo bo'ladi, ularni tayyorlash amalga oshiriluvchi universitet ta'limi tizimi rivojlanadi. O'z faoliyati, muloqot va axborot ayirboshlashning alohida shakllari va qoidalariga ega bo'lgan ilmiy hamjamiyat vujud keladi.

XVII asrda dastlabki ilmiy akademiyalar: *London qirollik jamiyati (1660)*, *Parij Fanlar akademiyasi (1666) tashkil topadi. Keyinroq Berlinda (1700)*, *Sankt-Peterburgda (1724)*, *Stokgol'mda (1739) va Yevropaning boshqa poytaxt shaharlarida ilmiy akademiyalar ta'sis etiladi.* Bu akademiyalarning eng yirigi - London qirollik jamiyati bo'lib, u tashkil etilgan paytda 55 a'zodan iborat bo'lgan. Parij Fanlar akademiyasi 21 kishidan iborat tarkibda ish boshlagan. Sankt-Peterburg akademiyasining a'zolar shtatida dastlab 11 kishi belgilangan. Yevropa mamlakatlarida XVIII asr boshiga kelib olimlar soni bir necha ming kishiga yetgan bo'lsa kerak, chunki ilmiy jurnallarning (bu davrda bir necha o'n ilmiy jurnallar nashr etilgan) tirajlari ming nusxagacha borgan.

3. XIX asr oxiri XX asrning 70-yillar fani “noklassik fan davri” deb ataladi. Bu davrda ko’plab ayrim ilmiy fanlar vujudga keladi, ularda ulkan dalilik material to’planadi va tizimga solinadi. Matematika, fizika, kimyo, geologiya, biologiya, psixologiya va boshqa fanlarda fundamental nazariyalar yaratiladi. Texnika fanlari vujudga keladi va moddiy ishlab chiqarishda yanada sezilarliroq rol o’ynay boshlaydi. Fanning ijtimoiy roli ortadi, uning rivojlanishi o’sha davr mutafakkirlari tomonidan ijtimoiy taraqqiyotning muhim omili sifatida e’tirof etiladi (12-rasm).




Y.Libix



V.Dokuchayev



V.Vernadskiy



A.Eynshteyn


12-rasm. Noklassik fan davrining ayrim buyuk olimlari

XVIII asrning o’rtalarida jahonda fan bilan shug’ullanuvchi kishilar 10 ming kishidan oshmagan bo’lsa, XIX asr oxiriga kelib olimlar soni 100 ming kishiga yetadi. XVI asrda «olim odamlar»ning yarmidan ko’prog’i diniy ma’lumot olgan kliriklar edi. XIX asrda fan ijtimoiy mehnatning mustaqil tarmog’iga aylanadi va u bilan universitetlar va institutlarning maxsus fakultetlarini tamomlagan «dunyoviy» professional olimlar shug’ullanadi. 1850-yilda jahonda mingga yaqin ilmiy jurnallar nashr etiladi, 1950-yilga kelib esa ularning soni 10 mingdan oshadi. 1825-yilda nemis kimyogari Y.Libix ilmiy laboratoriya tashkil qiladi va u olimga ko’p miqdorda daromad keltira boshlaydi. XIX asr oxiriga kelib bunday laboratoriyalar soni ko’payadi. Fan tijoratchilar, tadbirkorlar e’tiborini o’ziga

tobora ko'proq torta boshlaydi. Ular olimlarning ishlab chiqarish, sanoat ahamiyatiga molik bo'lgan ishlarini mablag' bilan ta'minlay boshlaydilar.

4. XX asrning 70-yillarida fan rivojlanishida yangi bosqich boshlanadi. Bu davr fani "postnoklassik" deb ataladi, chunki mazkur asr bo'sag'asida fanda inqilob yuz beradi va buning natijasida u oldingi davrning klassik fanidan sezilarli darajada farq qila boshlaydi. XIX-XX asrlar chegarasida amalga oshirilgan inqilobiy kashfiyotlar bir qancha fanlarning asoslarini larzaga soladi. Matematikada to'plamlar nazariyasi va matematik tafakkurning mantiqiy asoslari

tanqidiy tahlil qilinadi, bir qancha yangi fanlar vujudga keladi. Fizikada klassik fizikaning falsafiy asoslarini qayta ko'rishga majbur qilgan fundamental nazariyalar – nisbiylik nazariyasi va kvant mexanikasi yaratiladi. Biologiyada genetika rivojlanadi. Tibbiyot, psixologiya hamda inson haqidagi boshqa fanlarda



13-rasm. Postnoklassik davr – fan-texnika inqilobi va amaliy ishlanmalar davri

yangi fundamental nazariyalar paydo bo'ladi. Ilmiy bilimning shakl-shamoyilida, fan metodologiyasida, ilmiy faoliyatning shakl va mazmunida, uning me'yorlari va ideallarida olamshumul o'zgarishlar yuz beradi (13-rasm).

XX asrning ikkinchi yarmi fanni yangi inqilobiy o'zgarishlarga olib keladi. Bu o'zgarishlar adabiyotlarda ko'pincha fan-texnika inqilobi sifatida tavsiflanadi. Bu o'zgarishlar shu bilan bog'liqki, Ikkinchi jahon urushidan keyin iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda fan yutuqlari ilgari misli ko'rilmagan miqyosda amaliyotga – sanoat, qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash, kundalik hayotga joriy

etiladi. Fan energetikada (atom elektrostantsiyalari), transportda (avtomobilsozlik, aviatsiya), elektronikada (televidenie, telefoniya, kompyuterlar) ayniqsa ulkan o'zgarishlar yasaydi. Fanning rivojlanishi eng yangi harbiy texnikani yaratishning asosiy omiliga aylanadi va «ikki lager»ning urushdan keyingi qarama-qarshiligi sharoitida avj olgan qurollanish poygasi yirik davlatlarni ilmiy-texnikaviy tadqiqotlarga ulkan mablag'larni sarflashga majbur qiladi.

XX asrning so'nggi o'n yilliklarida fan texnika taraqqiyoti axborot (kompyuter) inqilobi bosqichiga qadam qo'ydi. Bu bosqichning o'ziga xos xususiyati shundaki, axborot jamiyat rivojlanishining muhim resurslaridan biriga aylandi. Shu tariqa fan bilan bog'liq yuksak texnologiyalar, ular bilan mushtarak ta'lim endilikda har qanday jamiyatning sivilizatsion rivojlanish darajasini belgilamoqda. Ilmiy kashfiyotlar va ularning amalga tatbiq etilishi o'rtasidagi masofa mumkin qadar qisqaradi. Ilgari fan yutuqlaridan amalda foydalanish usullarini topish uchun 50-100 yil vaqt sarflangan bo'lsa, endilikda bunga 2-3 yilda yoki, hatto, bundan ham qisqaroq vaqt ichida muvaffaq bo'linmoqda.

Davlat ham, xususiy firmalar ham fan rivojlanishining istiqbolli yo'nalishlarini qo'llab-quvvatlashga katta xarajatlar qilishi tabiiy bir hol bo'lib qoldi. Natijada XX asrning oxirida fan jadal sur'atlarda o'sib, ijtimoiy mehnatning muhim tarmoqlaridan biriga aylandi. «Katta fan» davri boshlandi. Ko'p sonli ilmiy muassasalar ishiga son-sanoqsiz odamlar ommasi jalb qilindi. Olim kasbi kam uchraydigan kasb bo'lmay qoldi. Hozirgi vaqtda ilmiy faoliyat o'zlarini qiziqtirgan muammolarni yechishga buning butun xavf-xatarini o'z bo'yniga olib qo'l urgan ayrim mutafakkirlarning mashg'uloti emas, balki buyurtmaga, rejali topshiriqqa binoan ishlaydigan, uni belgilangan muddatda bajarish va o'z ishi haqida hisobot berishga majbur bo'lgan yirik jamoalarning ishi. Hozirda ilmiy mehnat – industrial mehnatning bir turi. Fan bilan shu g'ullanuvchi kishilar hozir «ilmiy xodimlar» deb atalishi bejiz emas.

5. Hozirgi zamon fani “Katta fan” deb ataladi. XX asr oxirida yer yuzidagi olimlar soni 5 mln. kishidan oshgan bo’lsa, XXI asrning birinchi o’n yilligida 6 milliondan oshib ketdi. Fanda 15 ming yo’nalish va bir necha yuz ming ilmiy jurnallar mavjud. Yangi energiya manbalari va axborot texnologiyalari – hozirgi zamon fanining istiqbolli yo’nalishlari. Fanning internatsionalizatsiyalashu vi tendensiyalari kuchayib bormoqda, fanning o’zi fanlararo kompleks tahlil predmetiga aylanmoqda. Uni o’rganishga nafaqat fanshunoslik, fan falsafasi, balki sotsiologiya, psixologiya va tarix ham kirishmoqda.

Shuni alohida qayd etish lozimki, mustaqillikning dastlabki kunlaridayoq O’zbekistonda fanning barcha sohalari rivojlanishiga alohida e’tibor qaratildi. Xususan, O’zbekiston respublikasi Fanlar akademiyasi (O’zFA) mamlakatimizning bosh ilmiy tashkiloti bo’lib, uning tarkibida 36 ta ilmiy tadqiqot muassasalari, 4 ta davlat muzeyi, 3 ta hududiy bo’lim: Xorazm Ma’mun akademiyasi, Qoraqalpog’iston va Samarqand bo’limi, 4 ta Buxoro, Farg’ona



vodiysi, Qashqadaryo va Surxondaryo ilmiy bo’limlari kiradi, bugungi kunda ularning moddiy texnika bazasi yangi texnologiyalar bilan ta’minlandi.

2007-yilning 2-oktabrida O’zFA “Astronomiya” institutining olimlari B.Xafizov hamda A.Sergeyevlar tomonidan Maydanak baland tog’

observatoriya, ya’ni rasadxonasida (Qashqadaryo vil.) kashf qilingan kichik sayyora 2010-yilda I Prezidentimiz Islom Karimovning taklifiga ko’ra fan, jumladan, astronomiya ilmida olim-u fuzalolarga doimo boy bo’lib kelgan qadimiy

shahar “Samarqand” nomi bilan ataldi va u AQShning “Garvard kichik sayyoralar” forumida “210271” raqami bilan ro’yxatga olindi, hamda O’zbekistoniya, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug’bek, Beruniy, al-Xorazmiy kabi kichik sayyoralar qatoridan o’rin oldi. 2013-yilda Yaponiya olimlari tomonidan kashf qilingan navbatdagi kichik sayyora Maydanak rasadxonasi (14-rasm) sharafiga “Maydanak” nomlanishi o’zbek ilmining jahonda e’tirof etilishining ifodasidir. Shuningdek, O’zbekistonda Quyosh energiyasidan foydalanish bo’yicha katta ilmiy tadqiqot ishlarining olib borilish bir tomondan kelgusidagi energiya tanqisligini oldini olishga yo’naltirilgan sa’y harakat bo’lsa, ikkinchi tomondan o’zbek olimlarining yuksak ilmiy salohiyatidan darak beradi.

Fanning obrazi. Fan obrazi ijtimoiy ongda qanday namoyon bo’ladi, degan savolga uzil-kesil javob berish mumkin emas. Fan obrazi juda serqirra. Tabiiyki, olimlar ko’z o’ngida fan madaniyatning muhim hodisalaridan biri sifatida, jamiyatning ijtimoiy taraqqiyotni ta’minlaydigan va har tomonlama qo’llab-quvvatlashga loyiq bo’lgan noyob boyligi sifatida namoyon bo’ladi. Ammo fan haqida undan uzoq bo’lgan odamlarning fikri qanday? Ommaviy ongda fan qanday shakl-shamoyil kasb etadi? O’z-o’zidan ravshanki, oddiy xalqning fan haqidagi tushunchasi olimlarning tasavvurlari bilan qay jihatdandir muvofiq kelishi, qay jihatdandir esa undan sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Ammo bu obraz madaniyat mentaliteti bilan muvofiq keladi va shu nuqtai nazardan ulkan rol o’ynaydi.

Qadim zamonlarda fan donishmand-faylasuflarning aqliy mashg’uloti («intellektual o’yini») sifatida keng ommaga begona bo’lgan. Jamiyat a’zolarining aksariyati bu «o’yin»ning mazmun va mohiyatini tushunish, boz ustiga unda ishtirok etish uchun yetarli savodga ega bo’lmagan. Olimlar o’rgangan muammolar xalqning bevosita amaliy ehtiyojlaridan ancha yiroq bo’lgan. Shuning uchun bo’lsa kerak, aholi quyi tabaqalarining madaniyatida «kitobiy» fan Yangi davrgacha

«oqsuyaklar ermagi» sifatida tushunilgan. Ammo o'rta asrlar jamiyatining ko'pgina vakillari hatto o'qishni ham bilmagan oliy aristokratiyasi davrasida ham fanga past nazar bilan qaralgan.

Ma'rifat davri fan obrazini yangi bo'yoqlar bilan boyitadi. Savodxonlikning keng tarqalishi bilan ilmiy muammolar haqidagi tasavvurlar ham kengayadi, fanning amaliyotga yaqinlashishi esa keng omma ko'z o'ngida uning obro'si oshishiga ko'maklashadi. Ma'rifatchilarning ma'naviy yo'l boshchilari XVIII-XIX asrlar Yevropa madaniyatida fan jamiyat hayotini yaxshilashga qodir bo'lgan kuch, taraqqiyot omili sifatida tushunila boshlashiga erishish yo'lida ko'p zahmat chekadilar. Fanning oliy vazifasi haqidagi g'oya kundalik muomaladan o'rin oladi. Fan yutuqlaridan hayratlanish, ilmiy kashfiyotlar bilan qiziqish rasm bo'ladi. «Ilmiylik» o'ziga xos sifat belgisiga aylanadi.

Fan muayyan odamlar – olimlar tomonidan amalga oshiriluvchi faoliyat turi sifatida namoyon bo'ladi. Ba'zan fan hatto olimlar bajaradigan ish sifatida ham ta'riflanadi. Olimlar asosan tarqoq holda faoliyat olib boradilar, ularning ayrimlari maxfiy laboratoriyalarda ishlasa, ayrimlari murakkab hisoblash va isbotlashlar bilan shu g'ullanadi. Ularning hammasi faqat o'z hamkasblari tushunadigan tildan foydalanadi. Ayni vaqtda kashfiyot muayyan olimning shaxsiy hissasidan qat'i nazar u yoki bu tarzda amalga oshirilgani haqidagi tasavvur o'rmini nazariya ortida muayyan olim, faylasuf yoki mutafakkir shaxsi turishini aniq tushunish egallamoqda.

Fan va ilmiy tadqiqot geografiyasi. Jamiyat taraqqiyotini fanning rivojisiz tasavvur kilib bo'lmaydi. Fan esa ijtimoiy ehtiyoj, buyurtmalar zaminida rivojlanadi. Tabiiyki, fan-texnika va jamiyat taraqqiyoti o'zaro aloqador. Shuning uchun fanning negizi bo'lgan ilmiy tadqiqot jarayoni ham ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot talabi va ehtiyoji asosida amalga oshiriladi.

Hozirgi davrda fanning qudratli ishlab chiqarish kuchiga aylanganligi hech kimga sir emas. Ayniqsa, radio va priborsozlik, nozik va aniq mashinasozlik, kimyo, elektroenergetika va boshqa zamonaviy «ilmtalab» tarmoqlar fan-texnika taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq. Ilm-fan kishilar faoliyatining eng murakkab va ayni bir paytda mushkul va mas'uliyatli shakllaridan biridir. U istagan paytda va hoxlagan sharoitda taraqqiy etmaydi. Shu sababli, fan o'zining ichki rivojlanish xususiyati va qonuniyatlariga egaki, bu muammo bilan maxsus fanshunoslik shu g'ullanadi. Fan ma'lum davrdagina emas, balki muayyan ijtimoiy va geografik muhitda, makonda rivojlanib boradi. Binobarin, har qanday jamiyatda ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, ta'lim tizimini rivojlantirish, sog'liqni saqlash va aholi bandligini yaxshilash bilan bog'liq muammolarni izchil hal qilib borish uning ijtimoiy-iqtisodiy barkamolligi va qudratini belgilaydi. Zero, yetuk, rivojlangan mamlakatlar (AQSh, Yaponiya) tajribasi shuni ko'rsatadiki, ularning iqtisodiyoti ko'proq xom ashyo zaxiralariga emas, balki mavjud intellektual salohiyatga bog'liq bo'lmoqda.

Shubhasiz, mustaqil O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotida ham fan va zamonaviy texnologiyaning roli katta. Bu haqda Sh.M.Mirziyoyev qo'yidagicha fikr bildirgan: *“Mamlakatni jadal rivojlantirish borasidagi dasturiy vazifalarni amalga oshirishda fanni va ilmiy infrastrukturani rivojlantirish g'oyat muhim ahamiyatga ega”*. Shundan kelib chiqqan holda ilm-u fanni taraqqiy ettirish ushbu sohani hududiy tashkil etish, ilmiy tadqiqot muassaslarini mamlakat viloyat va shaharlarida to'g'ri joylashtirish masalalarini ham o'z qamroviga oladi.

Fan va ilmiy tadqiqot jarayonining yana bir xususiyatini ta'kidlash, joiz. Fan ma'muriy chegaralar bilan aniqlanmaydi, u alohida millat yoki elatga ham mansub emas; milliy fanlar aslo yo'q, balki alohida fanlar yo'nalishining milliy maktab va markazlari bor.

Demak, yuqoridagi fikr bo'yicha fan baynalmilal, ijtimoiy, umumlashgan mazmunga ega. To'g'ri, u yoki bu fanlar alohida mamlakat yoki rayonlarda oldinroq shakllanib va rivojlanib borishi mumkin. Masalan, qadimgi Misr yoki Xorazmda aniq fanlar (*matematika, geometriya, astronomiya*), Buxoro yoki Xitoyda tibbiyot ildamroq rivojlanib borganligi ma'lum. Shuningdek, Germaniya yoki Rossiyada ko'proq iqtisod, statistika; G'arbiy Yevropa va AQShda gumanitar; Sharqda, shu jumladan, O'rta Osiyoda falsafa va tibbiyot yaxshi taraqqiy etgan. Bu misollar o'z navbatida fanning hududiy xususiyatlari, uning geografik jihatlaridan dalolat beradi.

Fanning barcha davlatlar uchun umumiylikini anglash lozim. Shu nuqtai nazardan har bir siyosiy va iqtisodiy jihatdan mustaqil davlat albatta o'zining qudratli ilmiy salohiyatiga va ilmiy-texnika siyosatiga ega bo'lishi kerak. Jumladan, mustaqil O'zbekiston Respublikasining ham rivojlangan zamonaviy fan va texnikasi bo'lishi shu kunning talabidir.

Ilmiy tadqiqot jarayoni umumiy o'rta va maxsus hamda oliy ta'lim tizimi bilan amaliyot orasida muhim bir halqa ko'rinishida rivojlanib boradi. Shu bois ta'lim sohasini isloh qilish, uning alohida bo'g'inlarini o'zaro uyg'unlashtirish, uzluksizligini ta'minlash va ayni paytda hozirga zamon fan-texnika yutuqlarini amaliyotga tadbiiq etish, mavjud ilmiy salohiyatdan to'g'ri va samarali foydalanish mamlakat iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotining muhim omillaridan hisoblanadi.

Xo'sh, fan geografiyasi nima, uning predmeti nimadan iborat va ijtimoiy geografiya tizimida qanday o'rin tutadi? Biz yuqorida fanning ijtimoiy jarayon ekanligini va shu bilan birga uning tashkil etilishida hududiy jihatlarining ahamiyatini ta'kidladik. Ayni vaqtda har xil fanlarning turli mamlakat va muayyan tarixiy-geografik muhitda shakllanib kelishi ham fan geografiyasiga taalluqlidir. Bizning fikrimizcha, fan geografiyasi ilmiy tadqiqot sohasining jahonning turli mamlakat va rayonlarida rivojlanish shart-sharoitlari, omil va xususiyatlari

hamda uning ishlab chiqarish va ta'lim tizimi bilan birgalikda murakkab hududiy majmualar tashkil etish qonuniyatlarini o'rganadi.

Ilmiy tadqiqot jarayonida hududiy tafovutlar yaqqol ko'zga tashlanadi. Uning muayyan tarmokdarini aniq bir geografik muhit-mamlakat yoki mintaqada vujudga kelishi ham ayon; fanning rivojlanishida hududiy jihatdan mutlaq o'xshashlik yo'q, bir joydan ikkinchi joy farq qiladi. Bu o'rinda fanning iqtisodiyot bilan chambarchas bog'likdigi alohida ta'kidlash joiz. U, provard natijada, har qanday mamlakat milliy iqtisodiyotining mustahkamlashu viga va shu asosda aholi turmush sharoitining yaxshilanib, yangilanib borishiga xizmat qilishi kerak. Fan bu ma'noda iqtisodiyotning tarmoq va hududiy tashkil etilishida o'ziga xos omil sifatida namoyon bo'ladi. Demak, fan o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy jarayon bo'lishiga qaramay, u iqtisodiyot bilan bog'liq: biri ikkinchisiga omil yoki natija shaklida xizmat qiladi. Ammo bunday aloqadorlikning, zanjirning poyoni, yakuniy natijasi yana ijtimoiy jabhaga kelib taqaladi. Chunki fan-texnika taraqqiyoti aholining yashash sharoiti va darajasini yuksaltirishga olib keladi. Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, oliy darajadagi mutaxassislarni tayyorlashga ketgan xarajat uning hayot faoliyati davomida o'zini to'la oqlaydi va, hatto, 10-15 baravar ziyod daromad keltiradi. Ko'rinib turibdiki, ilmu fanning rivojlanishi (*bu bebaho boylik, uni asrab avaylash kerak, – A.Soliev*) mamlakat milliy iqtisodiyotini mustahkamlashda muhim manba sifatida xizmat qiladi.

Fan tarmoqlari va ilmiy tadqiqot yo'nalishlarini hududiy tashkil kilishda qator omillar mavjud. Ular jumlasiga tabiiy muhit, geografik o'rin, milliy an'ana, tarixiy, iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlar kiradi. Tabiiy muhit va geografik o'rin fanning muayyan tarkibi, joylanishi va rivojlanishiga ta'sir qiladi (*buni tog', cho'l, o'rmon yoki voha misollarida ko'rish mumkin*). Tarixiy omilga kelsak, uning ta'sirini ham o'sha davrdagi ijtimoiy geografik muhit bilan birgalikda tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Chunonchi, yurtimizda tibbiyot fani ilk bor Buxoro

vohasida, matematika esa Xorazmda vujudga kelgani ma'lum tarixiy geografik sabablarga ega bo'lsa ajab emas. Shu ma'noda nima uchun Abu Ali ibn Sino Buxoroda yoki Muhammad al-Xorazmiy, Beruniy, aynan, Xorazmda faoliyat ko'rsatishgan. O'ylaymizki, bu yerda hech qanday tasodif yo'q, balki hali chuqur anglanmagan qonuniyat bordir.

Zarafshon daryosining kuyi qismida joylashgan Buxoro vohasida oqindi, sizot suvlarining yer sathiga yaqinligi, shu bois botqoqlik, qora ko'llar va qamishzorlarning vujudga kelganligi qadimdan bu diyorda bezgak kasalligining tarqalganligiga asosiy sabab bo'lganligini inkor etib bo'lmaydi. Xuddi shunday, ko'hna Xorazm vohasida sug'oriladigan dehqonchilikning yuqori darajada rivojlanishi uchun o'lchov, vaqt va hisob kitob bilan bog'liq fanlar zaruriyati tug'ilgan. Shunga o'xshash ilmu fan bilan aloqador tarixiy voqelikni qadimgi Misrda ham ko'rish mumkin.

O'rta dengiz sohilida joylashgan Yevropa mamlakatlarining avvaldan musiqa, arxitektura va boshqa san'at turlariga moyilligi ijtimoiy geografiyaning yana bir ko'rinishidir. Agar Italiya yoki Fransiyada *opera va kino san'ati, shaharsozlik va arxitektura* ko'proq rivojlangan bo'lsa, Germaniyada *aniq, fanlar – hududiy iqtisod, statistika* kengroq tarqalgan. Demak, fanning bunday hududiy tarqalishiga o'sha joyning geografik o'rni, tarixiy va iqtisodiy-ijtimoiy muhiti katta ta'sir qilar ekan.

Ilmiy tadqiqot sohasi murakkab jarayondir. Bu sohaning tub mohiyati fan va texnikada yangi bilimlar yaratish, ularni amaliyotga tadbiiq etishdan iboratdir. Shu bois fan, ilmiy faoliyat, asosan, biror bir yangilikni kashf etishga qaratilgan bo'ladi.

Ilmiy tadqiqotda fundamental yoki nazariy hamda amaliy, ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq izlanishlar olib boriladi. Fundamental yo'nalish ko'proq universitetlarda (*masalan, AQShda shunday*) va Fanlar Akademiyasi tizimidagi

maxsus ilmiy-tadqiqot institutlarida, ilmiy-amaliy ishlar esa, asosan, sohaviy va muammoli ilmiy laboratoriya, konstruktor byurolari va shunga o'xshash muassasalarda amalga oshiriladi. Ilmiy faoliyatni ijtimoiy tashkil etishda eng avvalo ilmiy tadqiqot muassasalari (ITM) hamda oliy o'quv yurtlarini (OO'Y) ko'rsatish mumkin. O'tgan asrning 20-yillaridan boshlab ITMning asosiy shakli sifatida ilmiy tekshirish institutlari va laboratoriyalar faoliyat ko'rsata boshlagan. Bu muassasalar universitet va boshqa oliy o'quv yurtlaridan alohida, mustaqil ravishda o'z ishlarini olib boradilar. Oliy o'quv yurtlari tizimida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda universitetlar alohida o'rin tutadi. Dastlabki ilmiy izlaniishar universitetlarda olib borilgan va bu o'quv muassasalari Fanlar Akademiyasining vujudga kelishi va rivojlanishida muhim rol o'ynagan. Keyinchalik universitetlar qoshida ixtisoslashgan ilmiy tadqiqot instituti va laboratoriyalar tashkil etilgan. Ta'lim tizimini bunday ilmiy tadqiqot bilan birlashtirish va shu negizda o'quv ilmiy markazlarining paydo bo'lishi dastavval ko'proq Germaniyada yuzaga kelgan.



Garvard



Oksford



Lomonosov nomli MDU

15-rasm. Jahondagi eng mashhur universitetlardan namunalar

Universitetlarning mamlakat va regionlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy rivojlanishidagi, milliy akademiyalarning shakllanishidagi ahamiyati katta. Ularning bunday tarixiy rolini fashunoslikning asoschilaridan biri Dj. Bernal ham ko'rsatib bergan edi. U o'rta asrlarda universitetlarning joylanishi va ilmiy markazlarning vujudga kelishini tahlil va tadqiq qilgan.


Chindan ham universitetlarning jahon ijtimoiy-iqtisodiy, fantexnika taraqqiyotida ahamiyati katta. Bu o'rinda, masalan, Oksford, Kembrij, Berlin, Garvard, Kolumbiya, Sorbona, Moskva, Tartu, Krakov, Qohira kabi olamga ma'lumu mashhur universitetlarni ko'rsatish mumkin (15-rasm). Birgina Kaliforniya universitetida 100 ming, Viskon, Minnesot, Illinoys, Pensilvaniya, Ogayo universitetlarining har birida 50 mingdan ortiq talaba tahsil oladi.

Ma'lumki, mamlakatimiz mustaqilikka erishganidan keyin universitetlar safi ortdi, viloyatlardagi qator pedagogika institutlari universitetlarga aylantirildi. Hozirgi kunda eng ko'hna O'zbekiston Milliy universitetidan tashqari, Nukus, Samarqand, Farg'ona, Namangan, Andijon, Buxoro, Qarshi, Urganch, Termiz va Guliston shaharlarida ham universitetlar mavjud. Xullas, viloyatlar orasida faqat Navoiy va Jizzaxda universitetlar yo'q, xolos. Shu bilan birga sohaviy va tarmoq universitetlari ham mavjud. Bular jumlasiga Toshkentdagi texnika, iqtisodiyot, agrar va boshqa universitetlar kiradi.

Sobiq Ittifoq sharoitida ilmiy tadqiqot jarayoni respublikamizda asosan bir markazda, ya'ni uning poytaxti Toshkentda mujassamlangan edi. Hozirgi kunda ham poytaxtimizning ilmiy texnik salohiyati kuchli va bu mamlakatimiz siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muhim omilidir. Qolaversa, har qanday mustaqil mamlakatning fan-texnika va iqtisodiy qudrati uning bosh shahri – poytaxtidagi imliy tekshirish muassasalari, universitet va boshqa oliy o'quv yurtlarining salohiyati bilan belgilanadi. Ular orasida, shubhasiz, milliy universitetlar yetakchilik qilishi lozim. Biroq fan geografiyasi nuqtai nazaridan, boshqa sohalarda bo'lganidek, universitetlarning hududiy tashkil etilishi, mujassamlashu v va ixtisoslashu viga, ishlab chiqarish va ta'lim tizimi bilan aloqadorlikda rivojlanishiga e'tibor berish maqsadga muvofiqdir. Binobarin, Toshkentning bu sohadagi “karvonboshiligini” saqlab qolgan holda, mamlakatimizning boshqa yetakchi universitetlari ilmiy-pedagogik salohiyatini mustahkamlash, ularni o'sha

joyning tarixiy, iqtisodiy, geografik sharoitlarini e'tiborga olib fanning ayrim sohalarini rivojlantirishga ustivor ahamiyat bermoq zarur. Zero, ular faqat ixtisoslashgan ilmiy yo'nalishlari bilan jahonga mashhur bo'lishlari mumkin. Shu jihatdan, masalan, Farg'ona va Andijon universitetlarida ko'proq o'zbek tili va adabiyoti,

Samarqandda astronomiya va arxeologiya, tarix, Urganchda matematika, Buxoroda tibbiyot va tarix, Termizda arxeologiya, Nukusda ijtimoiy ekologiya (16-rasm) bilan bog'liq yo'nalishlarni jadalroq rivojlantirish ma'qul hisoblanadi. Xuddi shunday,



16-rasm. Orol muammosi – asr muammosi

Namangan, Qarshi va boshqa universitetlarni ham ilmiy tadqiqot jarayonida o'ziga xos va mos o'ringa ega bo'lgan muayyan markaz sifatida shakllantirib borish zarur.

Hozirgi kunda universitetlar O'zFA tizimidagi ixtisoslashgan ilmiy tekshirish muassasalari bilan birgalikda katta tadqiqotlar olib bormoqda. Ushbu umumiy faoliyatni Respublika Davlat fan-texnika komiteti boshqarib boradi. Shu bilan birga, alohida akademiyalar vujudga kelmoqdaki, ularning ham ilmiy darajali mutaxassislarni tayyorlashdagi rollari sezilarlidir. Ayrim ilmiy tadqiqot tashkilotlari ishlab chiqarish bilan bevosita aloqada faoliyat ko'rsatmoqdalar. Buning natijasida ilmiy ishlab chiqarish birlashmalari shakllanmoqda.

Fan geografiyasi doirasida, ijtimoiy geografiyaning boshqa sohalarida bo'lganidek, *murakkab hududiy birliklar* - majmualar va markazlar ajratiladi. Ilmiy markazlar va hozirgi zamon talablariga javob beruvchi texnopolislarni aniqlash, fandagi geografik mehnat taqsimotini o'rganish asosida hududiy ilmiy-tadqiqot va

o'quv-ilmiy tizimlarini shakllantirish mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarning eng muhim vazifalaridandir.

Kelajakda yetakchi universitetlar negizida texnopolis yoki texnoparklarni yaratish, bu yerda o'quv va loyihaviy ilmiy tadqiqot markazlarni mujassamlashtirish, yuqori texnologiyani joriy kilish asosida fan va amaliyotni birgalikda rivojlantirish mumkin. Bunday sharoitda olimlarning ilmiy g'oyalarini bevosita ishlab chiqarish va ta'lim jarayoniga tatbiq etish imkoniyatlari tug'iladi. Xuddi shunday tajriba hozirgi kunda AQSh, Yaponiya kabi mamlakatlarda keng targ'ib qilinmoqda. O'ylaymizki, ilm-fan, zamonaviy texnologiyani shu tartibda hududiy tashkil etish fan va ilmiy tadqiqot geografiasining ham dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

ITMlarni joylashtirish, asosan, shaharlar geografiasini bilan bog'liq. Aksariyat hollarda barcha yirik shaharlar ayni paytda ilmiy markazlar shakliga ham ega. Shu bilan birga, markazlarning vujudga kelishi va rivojlanishida fanning ham roli bor. Masalan, Dvinogorsk, Dubna, Pushino, Ulug'bek kabi shaharlar ilmiy-tadqiqot muassasalari tufayli paydo bo'lgan.

Shaharlarda, ayniqsa, yirik shahar va shahar aglomeratsiyalarida hozirgi zamon fanining rivojlanishi uchun qulay imkoniyatlar (*mutaxassis kadrlar, ilmiy kutubxona va h.k.*) mavjud. Bu esa, o'z navbatida, yirik ilmiy texnika markazlarida sanoatning zamonaviy ("ilm-talab") tarmoqlarini rivojlantirishga imkoniyat beradi. Ilmiy tadqiqot va innovatsion infrastruktura tizimini takomillashtirish asosida respublikamizning bu sohadagi tarixiy boy ilmiy merosini saqlab, uni yanada rivojlantirishimiz, Abu Ali ibn Sino, Beruniy, Imom Buxoriy, al-Farg'oniy, at-Termiziy, Ulug'bek kabi buyuk allomalarni, ular yaratgan ilmiy yo'nalish va maktablarni jahonga mashhur qilishimiz mumkin. Chunki, kelajagi buyuk davlat shunga muvofiq ravishda o'zining ilmiy va ma'naviy boyligiga ega bo'lishi kerak.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. "Fan" tushunchasining tariflang.
2. V.I.Vernadskiy fanning aynan faoliyat sifatidagi talqinini izohlang?
3. J.Bernal fan tushunchasiga ta'rifini izohlang?
4. Fann hozirgi kundagi asosiy funksiyalarini tushuntiring?
5. Fan rivojlanishining asosiy bosqichlari izohlang?
6. Geografiya fani rivojlanishidagi paradigmalarni izohlang.
7. Fan geografiyasi o'rganish obyekti va predmetini tushuntiring?

MAVZUGA DOIR ASOSIY TUSHUNCHALAR

«**Ilm odamlari**» - olimlar butun dunyo bo'ylab tarqalgan va butun insoniyatga tegishli. Ular bir-birini qidiradi, bir-biri bilan aloqa qiladi. Olimlarning uchrashuvlari va muloqotini ta'minlash shakllari har xil nom bilan ataladi – bular seminarlar va konferentsiyalar, simpoziumlar va kongresslar. Biroq muloqotning eng qulay va keng tarqalgan yo'li – olimlarning ilmiy asarlarini e'lon qilish. Maxfiy ishlovlarni hisobga olmaganda, har bir olim muammoga nisbatan o'z yondashuvi, erishishga o'z hayotini bag'ishlagan natijalari bilan butun dunyoni tanishtirishga harakat qiladi.

Fan tushunchasi - Fan ijtimoiy taraqqiyot jarayonida insoniyatning kundalik ehtiyojlariga javob sifatida paydo bo'ldi. Ko'p sonli ta'riflarga ko'ra fan bilim faoliyat va ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Bilim sifatida fan atrof borliq narsalari va jarayonlarini amalda aniq, izchil va tadrijiy bilishga qaratilgan. Faoliyat sifatida fan maqsadlarni belgilash, qarorlar qabul qilish, yo'l tanlash, o'z manfaatlarini ko'zlash, mas'uliyatni tan olish maydonida amal qiladi.

Bilim sifatida fan -atrof borliq narsalari va jarayonlarini amalda aniq, izchil va tadrijiy bilishga qaratilgan.

Faoliyat sifatida fan -maqsadlarni belgilash, qarorlar qabul qilish, yo'l tanlash, o'z manfaatlarini ko'zlash, mas'uliyatni tan olish maydonida amal qiladi.

Ijtimoiy madaniy hodisa sifatidagi fan -ikki yo'nalishda davlat boshqaruv tizimi va jamoa sifatidagi fanda namoyon bo'ladi.

Prezentizm- o'tmishni hozirgi zamon tilida tushuntirilishi Antikvarizm- o'tmishning to'liq manzarasini hozirgi zamonga bog'lamasdan tiklash;

Eksternalizm tamoyiliga ko'ra - fanning rivojlanishi tashqi determinatsiya bilan tavsiflanadi, ya'ni tashqi, ijtimoiy-tarixiy omillar ta'siri bilan belgilanadi;

Internalizm tamoyiliga ko'ra- fanning rivojlanishi ichki determinatsiya bilan tavsiflanadi, ya'ni ilmiy bilishga ichdan xos bo'lgan qonuniyatlar bilan belgilanadi.

Ctsientizm fan texnika taraqqiyotining ijobiy jihatlarini mutlaqlashtiradi. Antistsientizm falsafiy bilishni ilmiy bilishdan ajratadi, uni ilmiy bilish bilan muvofiq emas, deb e'lon qiladi, u oqilonalikni kamsitadi va mistika, intuitsiya, iroda va shu kabilarni mutlaqlashtiradi.

Fanning mikrokonteksti u yoki bu davr sharoitida ishlayotgan ilmiy hamjamiyat xususiyatlariga fanning bog'liqligini anglatadi.

Fanning makrokonteksti fan rivojlanuvchi kengroq ijtimoiy-madaniy muhitdagi bog'liqliklar haqida bahs etadi; bu fan ijtimoiy mezonining ifodasidir.

Nazariya — muayyan ilmiy sohaga tegishli qonuniyatlar va mavjud o'zaro aloqadorliklar haqida to'liq tasavvur beruvchi ilmiy bilim shaklidir. U, odatda, tajriba yoki hisob - kitoblar bilan asoslanadi.

Konseptsiya - (lot. – tushinish, tizim va h.k.) - ma'lum jarayon yoki voqeylikning mohiyatini tushunishga xizmat qiluvchi bosh g'oya, nazariya yoki nazariyalarning asosiy elementlarini birlashtiruvchi tushuncha hisoblanadi.

Tushuncha - predmet va voqeylikning eng muhim xususiyatlari hamda aloqa va munosabatlarini ifodalovchi bilim kategoriyasidir; u ayni vaqtda ta'limot, nazariya va konseptsiyalarning ham elementi sifatida mavjud bo'ladi.

4 – MAVZU

GEOGRAFIYADA FALSAFIY MAKTABLAR

Maqsad: Talabalarga geografiya fanining ilmiy va falsafiy-ma'rifiy ahamiyati haqida ma'lumot berish.

Tayanch so'z va iboralar: Falsafa, Falsafiy oqimlari pozitivizmi, marksizm, empiriokrititsizm, neokantchilik, falsafa Nitsshening hayot falsafasi, pragmatizm, neopozitivizm, postpozitivizm, neotomizm, freydizm, ekzistensializm, germeneytika, strukturalizm, relyativizm, konstruktiv empirizm, fenomenalizm.



REJA:

1. Falsafa va geografiya.
2. Falsafiy oqimlar tasnifi va ularning geografiyasi.
3. Geografik tafakkur va geografik madaniyat
4. Geografiya fanining ilmiy va falsafiy-ma'rifiy ahamiyati



Falsafa (yunoncha φιλοσοφία - «donishlikni sevish», yunoncha φιλέω - «sevaman» va yunoncha σοφία - «donolik») - eng umumiy fan (nazariya), dunyoqarash shakllaridan biri, inson faoliyati sohalaridan biri. U kishi qanday yashashi, hayot kechirishi kerak (etika); qaysi narsalar mavjud va ularning tabiati qanday (metafizika); bilim nima (epistemologiya); hamda qanday fikrlash to'g'ri (mantiq) ekanligini hal qilishga urinadi.

Falsafa, filosiya - insonning dunyoda tutgan o'rni va dunyoqarashining yaxlit tizimini ifodalovchi ma'naviy faoliyatining bir shakli. Milodiy II-III-asrlarda o'tgan yunon faylasufi Diogen Layertskiyning shohidlik berishicha, yunon mutafakkiri Pifagor birinchi bo'lib o'zini "faylasuf" deb atagan. Bu so'z

Geraklitning falsafiy ta'limotida narsalarning tabiatini tadqiq etishga nisbatan qo'llanilgan, tadqiqotchining o'zi esa "filosof" deb atalgan. Keyinchalik *"filosof"* so'zi har taraflama, keng, tushunarli va haqqoniy fikr yuritishga intiluvchi kishiga nisbatan qo'llanilgan. Tarixiy ma'lumotlar yunoncha *"philosophia"* so'zi arabchaga *"falsafa"* bo'lib o'tganligi, arablar bu fanni "hikma" deb atashi, ruschaga *"filosofiya"* tarzida o'tganligini tasdiqlaydi, demak falsafa bilan filosofiya so'zlari bir xil ma'noga ega.

Falsafaga haqiqatga eltuvchi ta'limot sifatida yondashgan sokratchilar maktabi vakillari nuqtai nazaridan qarasa, *"haqiqatga muhabbat"*, *"haqiqatni sevish"* degan ma'no kelib chiqadi. falsafa haqida fan tarixida turlicha, hatto birbiriga qaramaqarshi qarashlar mavjud. falsafaga hamma fanlarning boshlanishi, olamning asl mohiyatini va universal qonunlarini ochuvchi fan deb yondashishdan tortib uni o'z tadqiqot ob'yekti va predmetiga ega bo'lmagan mavhum va o'ta umumlashgan, inson uchun foydasiz bilimlar majmui deb hisoblovchilar ham uchraydi. Insoniyat foydalanayotgan barcha bilimlar falsafadan boshlanib, falsafiy xulosa bilan yakunlanadi. Falsafani fan darajasiga olib chiqqan Platon uni *"mavjudlikni, mangulikni va doimiylikni bilish"*, Aristotel *"narsalarning sabablari va asosiy tamoyillarini tadqiq etuvchi fan"* deb bilgan. Forobiy falsafani *"hikmatni qadrlash"* yoki fikrlash san'ati deb bilgan. O'rta asrlar xristian falsafasida u *"tabiiy aql nuri vositasida erishiladigan dunyoviy donolik"* (teologiya esa ilohiylik nuri vositasida erishiladigan ilohiy donolik) deb ta'riflangan.

Falsafa Bekon va Dekart falsafani *"tushunchalar shakliga burkangan yaxlit, yagona fan"* deb hisoblashgan. X.Volf falsafani *"barcha mumkin narsalar va ularning qay ma'noda va nega mumkinligi haqidagi fan"* desa, Kant falsafaga *"dunyoni qanday tushunish haqidagi, butun bilishning inson aqlining tub maqsadlariga munosabati haqidagi fan"* sifatida yondashishni taklif etadi. Fixte falsafaga *"qalb ma'rifati, ma'naviy ma'rifat"* deb baho bergan bo'lsa, Shelling

voqelikning butun ko'lamini va teranligini o'z tajribasiga ko'ra bilib olishni falsafa deb hisoblagan. Gegel predmetlarni fikran qarab chiqishni falsafa deb atab, unga "o'z-o'ziga ergashuvchi aql haqidagi fan" sifatida ta'rif bergan. Shopengauer dunyoning butun mohiyatini abstrakt, yalpi umumiy va ravon shakldagi tushunchalarda ifodalash falsafaning asosiy vazifasi deb bildi.

Falsafaning tarkibiy qismlariga bilish nazariyasi (*gnoseologiya*), metafizika (*ontologiya, kosmologiya, falsafiy antropologiya, mavjudlik falsafasi, teologiya*), mantiq, etika, estetika, huquq falsafasi, naturfalsafa, fan falsafasi, tarix va madaniyat falsafasi, siyosat falsafasi, din falsafasi, psixologiya va boshqa kiradi. Bulardan tashqari, hozirgi zamon falsafasida tibbiyot, tilshunoslik, musika, kibernetika va boshqa anik, fanlarning umummetodologik jihatlarini o'rganuvchi falsafa yo'nalishlari vujudga kelmokda. falsafaning dunyoqarashlik, gnoseologik, metodologik, sotsiologik, aksiologik, antropologik, mantiqiy, psixologik va mafkuraviy funksiyasi bor.

Falsafa tarixi - inson tafakkuri tarakqiyoti tarixidir. falsafa tarixiga oid adabiyotlarda insoniyat tarixida xitoy falsafasi, hind falsafasi, Yevropa falsafasi ajratib ko'rsatiladi. Yirik diniy ta'limotlar sifatida hinduiylik falsafasi, xristianlik falsafasi, buddaviylik falsafasi, islom falsafasini ko'rsatish mumkin.

Ilk falsafiy ta'limotlar qadimgi Hindiston, Xitoy, Markaziy Osiyo va Yunonistonda paydo bo'lgan, keyin G'arb mamlakatlariga yoyilgan. Qadimgi Hindistondagi falsafiy



17-rasm. Hayotning shakllanishi borasida hind falsafasi

maktablar 2 turga bo'linib, biri vedalardan kelib chiqqan va ularga suyanuvchi

maktablar (*vedanta, yoga, vaysheshika, nyaya, sankhya*), ikkinchisi vedalarni rad etuvchi maktablar (*jaynizm, buddizm, lokoyata*) hisoblanadi. Hind falsafasida olam va odamning yaratilishi (17-rasm), komillikka erishish uchun sakinat usullariga alohida e'tibor qaratilgan. Qadimgi Xitoydagi dastlabki falsafiy ta'limotlar miloddan avvalgi VII asrda vujudga kelgan. U qadimgi Xitoy yozma manbalarida uchrab, bu manbalarga "*Qo'shiqlar kitobi*", "*Bahor va kuz*" kabi qadimgiyodgorliklar va Konfutsiynng "*Aforizm*"larini, daosizmni kiritish mumkin.

Markaziy Osiyodagi falsafiy qarashlar qadimgiturkiy yozuvlar, tangriga e'tiqod qilish tamoyillarida va zardushtiylikning muqaddas kitobi Avestodya o'z ifodasini topgan. Bundan tashqari, Sharq xalklarining tabiatning asosiy unsurlari yer, suv, havo va olovni e'zozlash haqidagi naturfalsafiy qarashlari va g'oyalari Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlariga keng yoyilib qadimgi Misr, Bobil, Lidiya mamlakatlari xalklarining tafakkur tarziga singib ketgan. Yunonistonning ilk falsafiy maktabi – Milet maktabi ham o'z g'oyalarini Sharqdan olganligi tadqiqotchilarga ma'lum. Miloddan avvalgi II-I-asrlarda Marv, Balx, Termiz, Sig'noq, Samarqand, Buxoro zaminini o'ziga qamrab olgan hududda kushonlar saltanati qaror topib, unda budda dini xukm suradi, uning falsafasi bu joyda yashovchi xalqning tafakkur tarziga o'z ta'sirini o'tkazadi. Ammo Avesto g'oyalari xalq ongidan butunlay chiqib ketmaydi. Milodiy III asrga kelib tenglik g'oyalarini ilgari suruvchi moniylik ta'limoti paydo bo'ldi. Bu ta'limot mazdakiylar harakatinnnt ma'naviy tayanchi bo'lgan.

Yunonistondagi falsafiy maktablar, asosan, miloddan avvalgi VI-V-asrlardan vujudga kela boshladi va uning taraqqiyot bosqichlari klassik ellinizm va rimellinizm davrlariga bo'linadi. *Ellinistik falsafa* davri soqratgacha davr (*Milet maktabi, Eleya maktabi*) va *klassik (attik) falsafani* (*Sokrat, Platon, Aristotel*) o'z ichiga oladi. Sokratgacha davr falsafasi kosmologik (*gilozoistik*) falsafa va

antropologik davrlarni o'ziga qamrab oladi. Dastlabki kosmologik falsafiy ta'limot Falesga tegishli. U Anaksimandr, Anaksimn, Ferekid, Diogen bilan birgalikda Ioniya naturfalsafa maktabiga mansub. Ulardan so'ng borliq haqidagi ta'limot bilan Ksenofan, Parmenid, Zenon (Eleyalik), Meliss shu g'ullanganlar. Ular bilan birga Pifagor maktabi (*Pifagor, Fillolay, Alkmeon, Arxit; miloddan avvalgi VI-IV-asrlar*) faoliyat ko'rsatgan. Bu davrda antropologik sofistika maktabi vakillari Protagor, Gorgiy, Gippiy, Prodik ijod qilishgan. Miloddan avvalgi III-II-asrlarda stoiklar (*Zenon Kitionlik*), epikurchilar (*Epikur, Lukretsiy*), neoplatonchilar (*Plotin*) yunon falsafasiga o'z hissalarini qo'shishgan. Ayniqsa, Sokrat, Platon, Aristotel falsafasi yunon falsafasining shu hratini oshiradi. Yunon falsafasidagi asosiy qarashlar Aleksandr Makedonskiy (Iskandar Maqduniy)ning Sharqqa istilochilik yurishlari davrida Markaziy Osiyoga ham kirib keldi.

Islom dini yoyilgan mamlakatlardagi falsafiy ta'limotlar quyidagicha o'rganiladi: ilk islom falsafasi (VI-VIII-asrlar), sharqiy islom falsafasi (*Movarounnahr va Xurosondagi falsafiy ta'limotlar*), g'arbiy islom falsafasi (*Shim. Afrika va Ispaniyadagi falsafiy ta'limotlar*).

Ilk islom falsafasi davri yunon falsafasining arab va suryoniy tillariga tarjima etilishi, bu tarjimalarda yahudiylik va xristianlik aqidalarining ustuvorlik qilishi bilan ajralib turadi. Bu davrda islomdagi jabariylar bilan qadariylar, mo'taziliylar bilan mutakallimlar o'rtasida falsafiy qaramaqarshiliklar bo'lgan. Sharqiy islom falsafasida dunyoviy va islomiy g'oyalarning, turli xalq va sivilizatsiyalarning tafakkur tarzi sintezlashgan. Shuningdek, tabiatshunoslik ilmlaridagi yirik kashfiyotlarni (*kimyo ilmining vujudga kelishi*) falsafiy asoslash, hisoblash madaniyatining tubdan o'zgarishi (*Xorazmiy sistemasi*) bilan bog'liq belgilar ko'zga tashlanadi. Sharqiy islom falsafasi (*Muso al-Xorazmiy, Farg'oniy, Kindiy, Abu Bakr Roziy, Abu Mansur Moturidiy, Ash'ariy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Nosir Xisrav, Yusuf Xos Xojib, Umar Xayyom, G'azoliy, Zamaxshariy,*

Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Faxriddin Roziy, Bahouddin Nakshband, Ibn Xaldun va boshqalar) va g'arbiy islom falsafasi (*Ibn Tufayl, Ibn Boja, Ibn Rushd*) faylasuflarining musulmon olimlari tomonidan qayta ishlangan, tarjima qilingan asarlarining Yevropaga qayta taqdim etilishi bu yerda Uyg'onish davrining boshlanishiga ta'sir ko'rsatgan.

Falsafaning keyingi ravnaq topishi Markaziy Osiyoda temuriylar davri bilan boshlanadi. Amir Temur falsafiy g'oyalarning mamlakat istiqboliga xizmat qilishini bilgan holda ilm-fan ravnaqiga rahnamolik qildi. Bu davrda Markaziy Osiyoda tasavvuf falsafasi, tabiatshunoslik falsafasi, mantiq falsafasi va axloqiy ta'limotlar rivojlandi (*Rudakiy, Firdavsiy, Nizomiy, Sa'diy, Jaloliddin Rumiy, Taftazoniy, Jurjoniy, Ulug'bek, Xoja Ahror, Fuzuliy, Nasimiy, Jomiy, Navoiy, Muhammad Qozi, Maxdumi A'zam, Bobur, Mashrab, Bedil va boshqalar*). Shuni qayd etish lozimki, islom falsafasi o'zidan ilgari o'tgan barcha dinlar bilan bog'liq ilmiy an'analarni qabul qilgan. Islom falsafasi rivojiga iudaizm, xristianlik, buddizm va boshqa diniy ta'limotlar ta'sir ko'rsatgan.

Yevropa falsafasi esa o'zidan oldingi barcha falsafiy fikrni ilmiy bilimlarni jamiyat taraqqiyotiga xizmat qildirish bilan bog'lagan. To'g'ri, Yevropadagi diniysxolastik falsafiy g'oyalar jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'sir qildi. Lekin, arab olimlarining tarjimalari tufayli antik davr fani va falsafasi, qadriyatlarini qo'lga kiritgan yevropalik olimlar jamiyatni bamisoli qayta uyg'otishdi. Yevropa falsafasi sxolastik davri, Uyg'onish davri, yangi davr va nemis klassik falsafasi davrlariga bo'linadi. *Sxolastika davri* sxolastika ravnaqi (*Buyuk Albert, Foma Akvinskiy, R. Bekon*) va *sxolastika inqirozi* (*Dune Skot, tomizm, U. Okkam*) davrlariga bo'linadi. Uyg'onish davrida italyan gumanizmi, reformatsiya, tabiatshunoslik falsafasi, ijtimoiy xayoliy nazariyalar ilgari surilgan. Yangi davrda falsafa Bekon, R.Dekart, T.Gobbs, J.Lokk, Spinoza, Leybnits, X.Volf, J.Berkli, D.Yum, GT.Beyl, Sh.Monteskye, Volter, Russo, D.Didro, D.Alamber, J.Lametri, P.Golbax va boshqa

faylasuflar ijod qilishgan. Nemis klassik falsafasi Gerder, Kant, Fixte, Shelling, Gegel, Feyerbax nomlari bilan bogʻlangan.

Falsafa tarixidagi falsafiy maktab va oqimlar oʻzlari ilgari surayotgan falsafiy gʻoyaning mazmuniga qarab quyidagi yoʻnalishlarga boʻlinadi: empirizm va ratsionalizm, nominalizm va realizm, materializm va idealizm, skeptitsizm va antiskeptitsizm, agnostitsizm va antiagnostitsizm, dogmatizm va relyativizm kabilar.

XIX-XX-asrlardagi falsafiy oqimlar: Shopengauer falsafasi, O.Kant pozitivizmi, marksizm, empiriokrititsizm, neokantchilik, falsafa Nitsshening hayot falsafasi, pragmatizm, neopozitivizm, postpozitivizm, neotomizm, freydizm, ekzistensializm, germenevtika, strukturalizm, relyativizm, konstruktiv empirizm, fenomenalizm va boshqa XXI-asrga kelib har bir mintaqa, davlat va millatning tafakkur tarzini oʻzida ifoda etuvchi falsafiy maktab va oqimlarning shakllanishidan tashqari jahondagi ijtimoiy jarayonlarning keskin va jadal oʻzgarib borishi, global miqyosga koʻtarilishi umumjahon miqyosidagi falsafiy muammolarni hal etish zaruriyatini tugʻdirmoqda. Bunday muammolar sirasiga ijtimoiy taraqqiyotning globallashu vi, tinchlik va urush muammosi, ekologik, energetik muammolar, xom ashyo, oziq-ovqat va chuchuk suv muammolari, demografiya, sogʻliqni saqlash, axborotlar muammosi, maʼrifat va maʼnaviyat tanqisligi muammosi va boshqa kiradi. Bu muammolarni yechish yoʻllarini koʻrsatish va tahlil etish XXI-asr falsafasining dolzarb vazifasidir. Oʻzbekiston falsafasi Sharq falsafasining tarkibiy qismi, oʻzbek xalqining oʻziga xos boʻlgan tafakkur tarzining namoyon boʻlishidir. Uning tarixiy ildizlariga qadimgi Turon va Turkistondagi xalq ogʻzaki ijodiga oid hikmatlar, dostonlar, maqol va rivoyatlar, mutafakkirlarning falsafiy asarlari, Avestodagi ezgulik gʻoyalari, tariximizda oʻtgan moniylik, mazdakiylik, buddaviylik, yahudiylik, xristianlik dinlaridan kirib kelgan hikmatlar, islom falsafasi, islomning muqaddas kitoblari, tasavvuf falsafasi,

moturidiylik ta'limoti, sunniylik oqimi, kubroviylik, yassaviylik, naqshbandiya tamoyillari, vatanparvarlik goyalari, ma'naviyaxloqiy qadriyatlar kiradi. Bu falsafa jahon falsafiy merosi durdonalaridan oziq oladi. O'zbekiston falsafasi o'zbek xalqining tafakkur tarzi sifatida XX-asrda shakllandi. Unda O'zbekistonda yashovchi turli millat va elat vakillari ishtirok etishgan. Uning namoyandalari Behbudiy, Fitrat, Abdulla Avloniy, Munavvarqori, Cho'lpon, Abdulla Kodiriy, Ishoqxon Ibrat, So'fizoda va boshqa sharq falsafasi an'alarini, milliyma'naviy, axloqiy ma'rifiy qadriyatlarni sho'rolar davrida ham saqlab qolish va rivojlantirishga intilyshdi, lekin bu intilishlar ularning kommunistik tuzum qurboniga aylanishiga sabab bo'ldi. Sovet tuzumini yoklagan ilm sohiblarigina qatag'onlardan omon qolishdi. S.Ayniy va Z.To'g'onlarning falsafa tarixiga oid bir qancha maqolalari bosilib chiqdi. Sovet davrida falsafa fani chuqur mafkuraviy inqirozga uchragan, kommunistik tuzumning xizmatkoriga aylantirilgan edi. Yozuvning arabcha grafikadan lotin grafikasiga, undan kirillcha grafikaga o'tkazilishi milliy fan va falsafa taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Naim Sayd, K.Yerzin, Hakim Ne'mat, R.Xolmurodov (Mallin) singari olimlar falsafa sohasida faoliyat ko'rsatdilar. Ikkinchi jahon urushi davrida O'zbekiston FA tashkil etilishi ijtimoiy fanlar, xususan, falsafa fani taraqqiyotiga turtki berdi. Bu davrda S.Valiyev, J.M.Boboyev, H.G'.Rasulov, A.L.Ayupov, S.Azimov, I.Mo'minov, V. Zohidovlar falsafa faniga sezilarli hissa qo'shishdi. O'zbekistonda falsafa tarixi (*V.Zohidov, M.M.Xayrullayev, M. Baratov, h.falsafaVohidov, A.Sharipov*), tabiatshunoslik falsafasi va bilish nazariyasi (*O.Fayzullayev, B.Ismoilov, J.Tulenov, K.Ivanova, M.Abdullayeva*), mantiq (*M.Xayrullayev, K.Haqberdiyev, M.X.Nurmatov, L.Y.Garber*), madaniyat falsafasi (*K. Sodshov, S.Shermuhamedov, N.G'oyibov*), din (*S.Azimov, A. Ortitov, M.A.Usmonov, J.Bozorboyev*), axloq (*Y. Jumaboyev, XAliqulov, X.Shayxova*), ijtimoiy falsafa va siyosatshunoslik

(E.Yusupov, R.Abdushukurov, K.Valiyev, H.Pulatov, S.Tursunmuhamedov, Q.Xonazarov) yoʻnalishlari boʻyicha tadqiqotlar olib borildi.

Oʻzbekiston mustaqillikka erishgach, falsafa fani oldida uni kommunistik mafkura asoratlaridan tozalash, jamiyat taraqqiyotining qonuniyatlarini falsafiy tahlil etish, milliy istiklol gʻoyasining ilmiynazariy asoslarini ishlab chiqish, respublikada shakllanayotgan huquqiy, demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining rivojlanish xususiyatlarini ochib berish kabi vazifalar paydo boʻldi. Oʻzbekiston Prezidenti I.A.Karimov 1998-yilda "Tafakkur" jur. bosh muharririning savollariga bergan javobda yangi jamiyatni bunyod qilishda milliy mafkura va u tayanadigan milliy falsafaning roliga katta baho berar ekan, gʻoyaga qarshi faqat gʻoya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat maʼrifat bilan bahsga kirishish kerakligini taʼkidladi.

Hozirgi davrda respublika faylasuflari oldida ijtimoiy voqelikning qonuniyatlarini tadqiq etish, mamlakatning istiqboli uchun xizmat qiluvchi gʻoyaviy zaminni yaratishdek muhim vazifalar turibdi.

Oʻzbekistonda falsafa boʻyicha ilmiy tadqiqotlar oliy oʻquv yurtlari falsafa kafedralarida, falsafa va huquq institutida olib boriladi. OʻzMUda falsafa fakulteta mavjud. Respublikada Oʻzbekiston faylasuflari milliy jamiyati faoliyat koʻrsatmoqda. Falsafaga oid ilmiy tadqiqotlar "Oʻzbekistonda ijtimoiy fanlar" (Oʻzbekiston FA nashri), "Falsafa va huquq" (*Oʻzbekiston FA falsafa va huquq instituti, Oʻzbekiston faylasuflari milliy jamiyatining nashri*), "Tafakkur" jurnallarida chop etiladi.

Geografik tafakkur va geografik madaniyat. Har qanday fan oʻziga xos dunyoqarash, yondashuv, metodologiya va metodika, asosiy tushuncha hamda qonuniyatlar, ilmiy maktab va markazlarga ega. Geografiya fani ham bundan mustasno emas. Chunonchi, bu fan uchun, eng avvalo, hududiylik va kompleks tamoyillar, barcha hududlarga bir xil (*yaʼni qaysi bir joyni kamsitmasdan, regional*

xudbinlikka yo'l qo'ymasdan) va ayni vaqtda, har xil qarash (*chunki, busiz, bir joyning ikkinchi joydan farqisiz geografiyaning o'zi ham bo'lmaydi*), tabiat va jamiyat munosabatida inson omilining markazda turishi katta mazmun kasb etadi.

Tarix fanida vaqt, zamon va davr qanchalik muhim bo'lsa, geografiya fanida ham hudud, makon va rayon (*tuman emas!*) shunchalik ahamiyatlidir. Binobarin, hududni to'g'ri tushunish, tahlil va tadqiq qilish, uning ijobiy, qulay va noqulaylik holatlarini aniqlash, har bir joyning xususiyatlaridan oqilona foydalanish bu fanning asosiy mohiyati, mazmuni va maqsadini tashkil qiladi. Qolaversa, *hududiylik tamoyili* va unga to'g'ri munosabatda bo'lish *geografik madaniyatning* asosiy ko'rsatkichi, mezoni hisoblanadi. Ayni vaqtda bunday munosabat *ekologik madaniyatning* ham negizini tashkil qiladi. Biroq, ta'kidlash joizki, geografiya fanining qator betakror xislat va fazilatlari bilan birga uning ayrim *«kasbiy kasalliklari» (dardlari)* ham mavjud. Asosiy vazifa, bosh maqsad esa aynan ana shunday ijobiy fazilatlaridan samarali foydalanish va kamchiliklarga mumkin qadar kamroq, yo'l qo'yishdan iboratdir.

Masalan, geografiya fanining eng muhim xususiyati uning bir qarashda barcha borliqni qamrab olish, turli hududiy ko'lamda fikr yuritishda o'z ifodasini topadi. Bu, albatta, mazkur fanning boshqa fanlardan farq etuvchi asosiy jihatidir. Ammo, keng va qamrovli qarash hamma vaqt ham mazmunli bo'lavermaydi, bu yerda oddiy tasvir, sayoz fikrlash xavfi bor. Shuning uchun keng dunyoqarash aniqlik, chuqur tahlil bilan uyg'unlashu vi juda katta ahamiyatga egadir. Aks holda geografiyaga fan sifatida emas, oddiy o'quv predmeti darajasida qarash, uni o'rinsiz kamsitish saqlanib qolaveradi. Afsuski, ayrimlar hozirgi kunda ham aynan ana shunday fikrdadirlar.

Bu xususda o'zimiz geograflarning ham aybimiz bor. Chunki, geografiyaning umumta'lim maktablarida o'qitish holati uncha ko'ngildagidek emas; bu fanga oid savollar hozircha oliy o'quv yurtlariga kiruvchilar uchun test

savollarida (*geografiya mutaxassisligidan tashqari yo'q edi- 2020 yilga qadar*) yo'q, dars berish faqat oddiy va cheksiz raqamlarni, nomenklatur geografik ma'lumotlarni (*dunyoning eng baland nuqtasi, eng chuqur cho'kmasi, eng uzun daryosi, eng katta ko'li yoki qaysi mamlakat ayrim mahsulotlarni ishlab chiqarish, aholi soni, maydoni bo'yicha qanday o'ringa ega ekanligi*) yodlab olish bilan cheklanib qoladi. Albatta, bu ma'lumotlar ham kerak, lekin butun fanning mohiyatini faqat shu lar bilan chegaralash ham insofdan emas.

Geografiyada karta muhim ahamiyatga ega; mazkur fan karta bilan boshlanadi va karta bilan tugaydi, karta geografiyaning "tili" va bosh mezo-nidir. Bu haq gap, biroq, kartadan u yoki bu obyektни topish, ko'rsatish faqat geograf uchun emas, balki o'zini savodxon, madaniyatli kishi hisoblagan barchaga ham kerakligini unutmaslik lozim. Geograf esa kartalarni tuzish va ularni jonli mushohoda qilish, uqish qobiliyatiga ega bulishi kerak. Geografning hududiy fikrlashi va ilmiy madaniyati oddiy karta oldida qanday turish, daryo yoki shahar, qishloq, xo'jaligi ekinlarini to'g'ri ko'rsatishdan boshlab hududni chuqur tahlil, tashxis va bashorat eta olishgacha, katta hududda kichikni, kichik joy orqali katta hududni tasavvur qila olishini nazarda tutadi. Hududni xamma vaqt turli rangda, uning ichki tafovutlarini aniqlagan xolda o'rganish zarur. Buning uchun hududiy birikmalar, majmua va tizimlar (*sistemalar*), bir joyning ikkinchi joydan farqi, xususiyatini aniqlash, landshaft turlarinng almashib turishi, ularning o'zaro aloqadorligini tadqiq etish muhim mazmun kasb etadi. O'rganish jarayonida geograf har joyning funksiyasi (*vazifasi, nimaga qodirligi, qulayligi*), salohiyati, demografik, ekologik va iqtisodiy sig'imini baholash, hududiy muvofiqlik va nomuvofiqlikni topish ham ahamiyatlidir. Masalan, maktab yoki bog'cha bilan asab yoki yuqumli kasalliklarni davolovchi muassasa, kurort rayonlarida qora metallurgiya va kimyo kombinatining, diniy, muqaddas qadamjoy yonida kafe yoki barning joylanishi (*shirin bilan achchiq, baliq bilan qatiq, to'g'ri*

kelmaganidek) kabi holatlar ham uchrab turadiki, bu geografik madaniyatning, geografik fikrlashning yo'qdigidan dalolat beradi. Xuddi shunga o'xshash yirik suv omborlari va to'g'onlaridan pastda aholi manzilgohlarini barpo etish, katta shaharga esuvchi shamol yo'nalishida ekologik xavfli korxonalarni qurish *ham geografik nodonlik demakdir*.

Geograflar o'ziga xos fazilatlaridan samarali foydalangan holda, ayni paytda boshqa fanlardan ham o'rnak olishlari kerak. Jumladan, ular matematikadan aniqlik, biologiyadan kuzatuvchanlikni o'rganishsa ayni muddao bo'lar edi. Darhaqiqat, geografiyaning tadqiqot obyekti keng qamrovli bo'lganligi sababli unga ba'zan aniqlik yetishmaydi; biologlar kichik narsani (*xujayrani*) katta qilib ko'rishsa, geograflar katta hududni, qolaversa, butun dunyoni bir parcha qog'ozga tushirib o'rganishadi. Shu sababli geografiyada generalizatsiya, *ya'ni umumlashtirish prinsipi* nihoyatda kuchli. Bu esa hamma vaqt xam ijobiy natijalar beravermaydi. O'z navbatida, boshqa fanlarning frontal rivojlanishida geografik fikrlash, hududiy yondashuv muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Aynan geografik fikrlashni qo'llash asosida tutash fanlarda "*geografiyalashtirish*" jarayoni yuz bergan, qator «qirraviy» fanlar, yangi ilmiy yo'nalishlar vujudga kelgan. Ular jumlasiga mintaqaviy iqtisodiyot (*geoiqtisodiyot*), geosiyosat, geoekologiya, geodemografiya (*demogeografiya, regional demografiya*), geosotsiologiya (*regional sotsiologiya*), geopsixologiya va boshqalarni kiritish mumkin. Garchi ushbu yo'nalishlarning qaysi "*ona fanga*" tegishli ekanligi munozarali bo'lsada, ular ayni vaqtda geografiya fanining integratsion salohiyatining kuchliligidan darak beradi. Shu sababdan yuqoridagi yo'nalishlarning shakllanishi ma'lum darajada geograflarning iqtisodiy-ijtimoiy va boshqa jarayonlarga o'z nuqtai nazaridan yondashuvlariga ham bog'liq bo'lgan. Har holda geograflardan boshqa fan olimlari yetishib chiqqan (*tarixchi, faylasuf, iqtisodchi, filolog, demograf va b.*), ammo aksincha emas.

Mashhur olimlar aytganlaridek, tarix va geografiyani qisqa gapirib bo'lmaydi, bu fanlarda ko'rgazmali qurollar, «ashyoviy dalillar» juda oz. Masalan, kimyo, fizika, biologiya fanlarida laboratoriya analizi bor, tuproqshunoslar tuproq, qatlamlarini bevosita ko'rishadi va o'rganishadi, sotsiologlar, demograflar, tibbiyot fani vakillari ham to'g'ridan-to'g'ri shaxs, kishilar va aholi bilan aloqada va h.k. Geografiya fanida esa kartadan o'zga qurol deyarli yo'q. Binobarin, geograf olim va o'qituvchi yuksak nutq, madaniyati va san'atiga ega bo'lishi, keng fikrlab aniq, lo'nda, asosli va qisqa gapirishi (yozishi) kerak. Uning yuqori mahoratga egaligi, o'z kasbining mohir ustasi ekanligi turli miqyosda fikr yuritishi, suxandonligi, tinglovchilarni goh kuldirib, goh o'ylantirish qobiliyatiga egaligida o'z aksini topadi. Geografiya fanining yana bir ajoyib fazilati uning kompleks yondashuvidir. Chunki, bu fanning tadqiqot obyektida barcha hodisa va voqeliklar alohida-alohida emas, balki o'zaro aloqadorlikda mavjud. Demak, obyektning murakkabligi shunga mos holda majmuali, tizim-tarkib usulida yondashuvni talab qiladi. Ammo kompleks yondashuv faqat ko'riladigan omillarning sanog'ida bo'lmay, ularning o'zaro uyg'unligida samaralidir. Bunday dunyoqarashni daraxt, uning tanasi va shoxlariga o'xshatish mumkin. Shu nuqtai nazardan, asosiy urg'u o'rganiladigan muammoga va u bilan bevosita bog'liq muammolarga berilishi kerak, “o'ninchi” darajali masalalar bu o'rinda e'tibordan chetda qolishi lozim (*ular alohida mavzu yoki boshqa daraxtning shoxlari bo'lishi mumkin*). Shunday qilib, komplekslik tamoyiliga to'g'ri amal qilmaslik ham geografiyaning bor-burdini yo'qotadi, uning mohiyat va mazmuniga putur yetkazadi. Ayni vaqtda kompleks yondashuv bilan hududiy komplekslarni (*majmualarni*) farq qila olish zarur. Birinchisi metodologik dunyoqarash bo'lsa, ikkinchisi bevosita obyektiv borliqdir; hududiy majmualar nafaqat ishlab chiqarishda (*hududiy ishlab chiqarish majmualari*), balki ijtimoiy va siyosiy geografiyaga xam taalluqlidir, Shu bois, o'rganilayotgan muammoga atroflicha, ya'ni kompleks yondashuv ham, turli xil hududiy majmualarni aniqlash,

baholash va prognoz qilish ham geografik fikrlash, geografik madaniyatning muhim ko'rsatkichidir. Qaysi bir ma'noda geografiya chegaralar haqidagi fan hisoblanadi. Biroq, ba'zan geografiyaning o'zini chegarasi bo'lmay qoladi va bu hududiylik hamda komplekslik tamoyillaridan to'g'ri foydalanmaslikdan kelib chiqadi. Aslida esa chegara, sarhad (*ya'ni*, "bosh chiziq") geografiya uchun o'ta muhimdir. Chunki, bu fan hududiy tafovutlar, bir joyning ikkinchi joydan farqi, hududlar xususiyati bilan mashg'ul. Bunday tafovutlar, farqlar o'rtasida esa qandaydir chegara, shartli chiziq, mavjud. Ta'kidlash lozimki, chegaralar tabiiy, iqtisodiy, siyosiy, etnik va boshqa turda bo'lishi mumkin. Shu sababdan ularni o'z o'rnida qarash talab etiladi. Masalan, tabiiy chegara bilan ma'muriy-siyosiy chegaralarni chalkashtirish katta xatoliklarga olib keladi.



18-rasm. O'rta Osiyo va Markaziy Osiyo – hudud nuqtai nazaridan, umuman, boshqa-boshqa tabiiy geografik o'lkalardir

Tabiiy geografiyada, jumladan, siyosiy chegaralar muammoni to'liq, va yaxlit o'rganishga halaqit beradi va binobarin, bunday yondashuv geografik fikrlashga zarar yetkazadi. Shu ma'noda "O'zbekiston Respublikasi tabiiy geografiyasi" tushunchasi uncha to'g'ri bo'lmasa kerak; aynan huddi shunday - Markaziy Osiyo, Janubiy-Sharqiy Osiyo, Afrika iqtisodiy va siyosiy geografiyasi kabilar ham noaniq, tushunchalardir. Birinchi holatda siyosiy chegaralar tabiat bilan bog'liq, emas, tabiatni ma'lum bir qolipga joylab bo'lmaydi. Ikkinchi holatda esa ko'proq, tabiiy geografik mazmunga ega bo'lgan tushuncha iqtisodiy (va siyosiy) nuqtai nazardan qaralmoqdaki, bu ham nodurustdir. Shuning uchun bo'lsa kerak, "Markaziy Osiyo" iborasi tabiiy va iqtisodiy hamda siyosiy geografiyada tushunmovchiliklarga sabab bo'lmoqda. Ko'pchilik adabiyotlarda tabiiy geografik o'lka sifatida Turon plitasi va Pomir-Tyanshan orogeni joylashgan hududga nisbatan "Markaziy Osiyo tabiiy geografik o'lkasi" atamasi qo'llaniladi. Ammo bu butunlay xato hisoblanadi. Chunki Markaziy Osiyo tabiiy geografik o'lkasi shimolda Oltoy, Sayan; shimoli-sharqda Katta Xingan; shimoli-g'arbda Saur, O'rkashar, Jung'oriya Olatovi; g'arbda Tyanshan, Pomir; sharqda Sinlin, Unshan; janubda Himolay tog'lari suvayarg'ichi orqali o'tadigan hududni o'z ichiga oladi. Turon plitasi va Pomir-Tyanshan orogeni joylashgan hudud esa O'rta Osiyo tabiiy geografik o'lkasidir (18-rasm). Biroq, siyosiy atama sifatida "Markaziy Osiyo" Qozog'iston, Turkmaniston, O'zbekiston, Qirg'iziston va Tojikistonga nisbatan qo'llaniladi.

Tabiiy chegaralar ma'lum bir landshaftning oxiri va, shu bilan birga, boshqa turdagi tabiiy geografik muhitning boshi, avvalidir; tabiatda chegara qat'iy, mutloq emas, bunday chegaraning aniq, cheki yo'q, chegara ko'p hollarda cheksiz va nisbiydir. Siyosiy chegaralar ikki xil funksiyani bajarishadi, ular qo'shni hududlarni bog'lashi ham ajratishi (*to'sqinlik qilishi*) ham mumkin. Chegaralar ijtimoiy hayotda esa yer yuzidan emas, balki inson qalbidan, taqdiridan o'tadi.

Geografiya fanining diniy, dunyoviy va siyosiy ahamiyati katta. Bu fanning tadqiqot obyekti olamning borligi va butligi, jamiyat xayotining negizini o'zida mujassamlantiradi. Quruqlik bilan suv, balandlik va tekislik kabi «geojuftlar» hududiy mehnat taqsimoti va umuman jamiyat taraqqiyotining asosida yotadi. Shu bois, geografiyaning yaxlitligi, bir butun fanligi muhimdir; *tabiiy geografiyani iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaga qarshi yoki birini ikkinchisidan ustun qo'yish o'ta xatarli va xavfli hisoblanadi*. Bu geograflarni parokandalikka olib keladi, inson jamiyatsiz tabiiy geografiya qanchalik maqsadsiz bo'lsa, tabiiy sharoit va tabiiy resurslarsiz iqtisodiy va ijtimoiy geografiya ham shunchalik muallaq va asossizdir.

Shu o'rinda, mazkur fanlarning nomlanishi hakida ham ayrim fikrlarni bildirish mumkin. Masalan, geografiyaning bosh *falsafiy masalasi tabiat va jamiyat (inson) munosabati*, uning hududiy xususiyatlarini aniqlashdan iboratdir. Bu juftlikda tabiatni tabiiy geografiya o'rganishi hech kimda shubha qoldirmaydi, ammo jamiyatni va uning hududiy tashkil etilishini negadir faqat iqtisodiy geografiya tadqiq qiladi. Vaholanki, ushbu muammolar bilan keng ma'nodagi ijtimoiy geografiya shu g'ullanishi kerak edi, zero jamiyat, ijtimoiy xayot faqat iqtisodiyotdan iborat bo'lmaydi. Ko'pgina MDH mamlakatlarida fan "*Iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy geografiya*" deb nomlanmoqda va aynan shu tahrirdagi ixtisoslikda nomzodlik hamda doktorlik dissertatsiyalari himoya qilinmoqda. Balkim, kelajakda yanada qandaydir "notabiiy" geografiya o'ylab topilar. Shuning uchun uni qisqa tarzda "*Ijtimoiy geografiya*" deb yuritish ma'qulroq emasmi? An'anaviy iqtisodiy geografiya esa keng ma'nodagi ijtimoiy geografiya tarkibida rivojlanib boraveradi. Ammo "*Ijtimoiy geografiya*" nomiga butunlay va birdaniga o'tish bizning sharoitimizga hozircha mos kelmaydi, u kelajakda amalga oshishi mumkin. Chunki, *birinchidan*, respublikamizda rivojlangan mamlakatlardagi kabi noan'anaviy, noiqtisodiy geografik tadqiqotlar ko'lami ozroq, *ikkinchidan* esa,

iqtisodiy geografiya nomi bozor munosabatlariga o'tish davriga ancha hamoxangdir. Geografiya fanida shunga o'xshash ko'pchilikga ma'lum noaniqliklar mavjud. Chunonchi, bu fanning aynan "Geografiya", ya'ni "erni yozaman" ma'nosi ham hozirgi kundagi uning mohiyati va maqsadini o'zida to'la aks ettirmaydi (*Yer yuzi allaqachon yozilib bo'lindi, ochilmagan yer qolmadi*). Balki, uni "erni o'rganish, tadqiq etish" deb ta'riflash ma'qulroq bo'lar edi. Biroq, aynan shu mazmunda va nomda «geologiya» fani mavjud. Shu sababdan geografiya o'z an'anaviy nomini shartli ravishda saqlab qolgan holda endigi sharoitda u harakatdagi yerni, olam sirlarini "yozishi" (*aniqrog'i tadqiq kilishi*) talab etiladi. "Sivilizatsiyalar keladi, ketadi, geografiya esa qolaveradi, abadiydir", degan ekan bir mutafakkir olim.

Umumta'lim maktablarda faqat uchta davlat «ahamiyatiga» molik fanlar o'qiladi, xolos. *Bular o'zbek tili va adabiyoti, O'zbekistan tarixi, O'zbekistan geografiyasi*. Binobarin, geograflar bu bilan haqli ravishda faxrlanishlari va uni doimo rivojlantirishga o'zlarining munosib hissalarini qo'shishlari lozim.

Geografiya fanining ilmiy va falsafiy-ma'rifiy ahamiyati Geografiya juda qadimiy, ko'xna fan bo'lishi bilan birga, u ayni paytda doimiy taraqqiyotda. Garchi Yer yuzida "ochilmagan" joylar qolmagan bo'lsa-da, geografiya bugungi kunda harakatdagi olamni, uning sirlarini hududiy jixatdan o'rganadi, tadqiq va tahlil qiladi.

Ta'kidlash joizki, kurrai Zaminning hozirgi holati avvalgidek, hatto 10-20 yil oddingidek emas. Uning iqtisodiy, demografik salohiyati o'zgargan, "yuki" og'irlashgan, ekologik vaziyati, qolaversa, dunyo siyosiy kartasi murakkablashgan. Binobarin, geografiya fanida, yuqoridagilarga mos ravishda, ijtimoiylashu v, siyosatlashu v, iqtisodiydashu v kabi jarayonlar kechmoqda, Barqaror rivojlanish konsepsiyasi hamda global va mintaqaviy demografik muammolarga hamohang

holda ekologik va aholi bilan bog'liq masalalarni o'rganish ham ustuvor yo'nalishlardan hisoblanadi.

Shu bilan birga, mazkur fanda dolzarb muammolar sirasiga kiradigan mojaroli yoki bahs-munozarali, notinch hududlar, tabiiy ofatlar, bir necha mamlakatlarni kesib o'tuvchi yoki ularni birlashtiruvchi (*“tranechegaraviy”*) tog' va daryolar, yo'l va boshqa infrastruktura shahobchalari, chegaraga tutash hududlar, saylovlar (*elektoral geografiya*), kishilar hayoti va yashash tarzining hududiy xususiyatlarini o'rganish ham katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Bevosita O'zbekistonda esa geografiyaning fundamental va frontal rivojlanishi, eng avvalo, respublikamizning siyosiy mustaqilligi, uning jahon hamjamiyatidagi mavqei va xalqaro aloqalari, geografik va geosiyosiy o'rnining tashqi iqtisodiy aloqalariga ta'siri, bozor munosabatlariga o'tish bilan bog'liq muammolar (*mulkchilik shakllari, investitsiya makoni, qo'shma korxonalar, kichik va o'rta tadbirkorlik va b.*), tabiiy resurslardan samarali foydalanish va atrof-muhit muhofazasi, aholi bandligi va ijtimoiy muammolarni hal qilish bo'yicha ilmiy - amaliy tavsiyalar ishlab chiqish kabilar bilan belgilanadi. Mamlakatimizda, jahon andozalariga muvofiq holda, noan'anaviy geografik muammolarga urg'u berish, zamonaviy tadqiqot usullaridan foydalanish lozim.

Geografiyaning barcha fanlar tizimidagi o'ziga munosib o'rnini tiklashida shu fanga fidoiylar, sadoqatlilar xizmati katta bo'lmog'i zarur. Shuningdek, bu borada bilib-bilmasdan turli obyektiv va subyektiv sabablar taqqozosi bilan boshqa fanlarga “o'tib ketganlar” yoki qayta ixtisoslashganlar (*iqtisodiyot, filologiya, falsafa, demografiya, tarix, huquqshunoslik va h.k.*) hamda no geografik ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan kasbdosh geograflarimizning “chetdan turib” yordamlari ham talab etiladi.

Shu o'rinda bir holatni muqoisa va mushohida qilgim keladi. Masalan, Xitoy Xalq Respublikasi iqtisodiyotining ko'pchilikni hayratda qoldiradigan

darajada tez yuksalishi, boshqa omillar bilan bir qatorda, qisman xorij mamlakatlarda yashayotgan xitoyliklar (*xuatsyao*) ko'magi, qo'llab – quvvatlashiga ham bog'liq. Shunga mos holda istardimki, geografiya fanining rivojlanishida iqtisod, agrar, islom, universitetlarida, moliya institutidagi kafedralar, oliy ma'lumotini geografiya ixtisosi bo'yicha olgan yuqori tashkilotlarda xizmat qiluvchilarning amaliy yordam ko'rsatishlari qarz, ham farzdir. Geografiya fanining qadru-qiyamati, qadriyatlarini marhum domlalarimiz, murabbiy-ustozlarimizga ehtirom va e'tiqodda bo'lishni talab qiladi. Shu bois, H.H.Hasanov, N.D. Dolimov, Z.M.Akramov, M.Q.Qoraxonov, A.A.Rafiqov, A.N.Ro'ziev, S.Nishonov, M.U.Umarov, O.Mo'minov, A.Maqsudov, M.Yangiboev, A.Rasulov, T.Egamberdiev, A.Jalilov, R.Qurbonniyozov, M.Nosirov, X.Murodov va boshqa siymolarni eslash va ularning so'nmas xotiralarini yodda tutishning savobi ham, tarbiyaviy, ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati ham katta.

Respublikamiz hududida geografiya fanining asoschilaridan biri Mahmudxo'ja Behbudiy: *“Jo'g'rofiyani o'qimoq musulmonlarga lozimdur”*, deb aytgan (19-rasm). Darhaqiqat, fanimizning diniy va dunyoviy mazmuni bor. Axir



19-rasm. Mahmudxo'ja Behbudiy (1875-1919)

o'ylab ko'raylik: agar Yer sharining barcha qismi bir xil, ya'ni faqat tekislik yoki tog'lik, quruqlik yoki suv, cho'l yoki voha, botqoqlik yoki o'rmonzorlardan iborat bo'lganda rivojlanish ham, geografiya ham bo'lmas edi. Ma'lumki, iqtisodiyotning

asosini yer va uning boyliklari (*tuproq, suv, harorat*) tashkil qiladi, ularni

o'zlashtirish esa inson va uning mehnati orqali amalga oshadi. Binobarin, Zaminni ham, Insonni ham ulug'lash, ularni muqaddas bilish, eъzozlash, qadrlash kerak. Shu bilan birga, bozor va mozorlarni, qadamjolarini vaqti-vaqti bilan ziyorat qilab turish ham foydalidir. Chunki, har manzilning tarixi, ishi mozordan boshlanadi, uning geografiyasi, bugungi kuni, boyligi va butligi esa bozorda o'z aksini topadi (A.Soliyev). Shu o'rinda geografiya fanining mazmun-mohiyati, uning qadr-qiyamatini quyidagi professor A.Soliyev tomonidan yozilgan 2 misra "she'rda" bayon qilishimiz mumkin.

*Bag'ring keng, qamroving keng, Geografiya,
Tabiatdek nafissan, ammo noilojsan, Geografiya,
Bilmadim, shu sabab senga otarlar tosh,
o'ngu-so'l "hujumga" berarsan bardosh.
Geograflarcha fikrlab, undan or qilganlardan dod,
Bu fanni avaylang-asrang, deb qilaman faryod.
Axir sensiz Bilimlar uyi bo'lardi barbod,
Ey, janob Geografiya, taqdiring na bo'lg'ay, hayhot!*

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Falsafa va geografiya fanlarning o'zaro bog'liqli tomonlari nimlardan iborat?
2. Falsafa tarixida Islom dini yoyilgan mamlakatlardagi falsafiy ta'limotlar: ilk islom falsafasining mohiyati va mazmunini izohlang?
3. Geografik tafakkur va geografik madaniyat tushunchalarini tushuntiring?
4. Geografiya fanining ilmiy va falsafiy-ma'rifiy ahamiyatini tushuntiring?

MAVZUGA DOIR ASOSIY TUSHUNCHALAR

Gender geografiyasi (Gendernaya geografiya)- iqtisodiy va sotsial geografianing mustaqil yo'nalishi bo'lib, aholining ijtimoiy, demografik, mehnat resurslarining mintaqaviy gender tarkibini shuningdek, erkaklar va ayollarning jamiyatdagi o'rni, hayot sifatining namoyon bo'lishi va ijtimoiy muvofiqligini o'rganuvchi yo'nalish hisoblanadi. Gender geografiyasi "Feministik geografiya" –

deb ham ataladi. Chunonchi, ayollarni jamiyatda o'z mavqei va haq-huquqlari uchun kurashishlarini ham ifodalaydi.

Genotsid (yunoncha "genos" - nasl, qabila va lotincha "Caedo" – men o'ldiraman) – aholining ayrim guruhlarini irqiy, milliy yoki diniy sabablarga ko'ra yo'q qilish; insoniyatga qarshi eng og'ir jinoyatlardan biri. Holbuki, genotsidning paydo bo'lishi jinoyatlar uchun shaxsiy mas'uliyat bo'lmagan balki, umumiy qabilaga tegishli bo'lgan butun jamoa urug'-aymog'i bilan jazolangan.

Siyosiy geografiya - ijtimoiy geografiya bo'limi bo'lib, hududiy-siyosiy tizimlarni bir-biri bilan o'zaro munosabatini o'rganadi. Hududiy – siyosiy tizimlarga siyosiy- ma'muriy chegaralar, boshqaruv markazlari, davlat xokimiyat organlari, siyosiy partiyalar, jamoat harakatlari obyektiv o'zaro bog'liq sohalarni kiritish mumkin.

Noosfera – biosferaning yangi holati, bunda insonning aqliy faoliyati uning rivojlanishini asosiy hal qiluvchi omiliga aylanadi. Noosfera to'risidagi ta'limotni V.I. Vernadskiy tomonidan ishlab chiqilgan. "Noosfera " atamasini 1927 yilda fransuz olimlari E. Lerua va P. Teyyar de Shardenom tomonidan taklif qilingan. Olimlar Noosfera biosfera va jamiyatning o'zaro ta'siri natijasida vujudga eladigan sifat jihatdan yangi tashkil etish shakli, biosferaning yangi evolyutsion holati, insoniyatning tafakkuri va manfaatlariga yo'naltirilgan yangi qobiq sifatida talqin qilishadi.

Geografik yondashuv – tabiiy qonuniyatlarni bilish maqsadida hodisalarning fazoviy munosabatlarini o'rganuvchi ilmiy yo'nalish.

Geografik omillar – muayyan joy uchun xos bo'lgan omillar. Atama qayerda ro'y berayotganligidan kelib chiqqan holda inson faoliyatining atrof-muhitga ta'sirini baholashda qo'llaniladi.

Etnos - ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotning har xil bosqichlarida turuvchi xalqlar. Uning eng past darajasi urug' bo'lsa, yuqori darajasi millat hisoblanadi.

Konsolidatsiya – turli millat vakillarining bir umumiy hududda ijtimoiy hamkorlik asosida jipslashib, totuvlikda yashashi.

Assimilatsiya – geografik jihatdan, turli guruhga mansub aholining qo'shilishi va chatishish jarayoni.

Irq - avloddan avlodga o'tuvchi o'xshash tashqi (teri, gavda) belgilarga ega bo'lgan, tarixan shakllangan kishilar guruhidir.

5 – MAVZU

“FAN METODOLOGIYASI” VA “ILMIY TADQIQOTLAR METODIKASI” TUSHUNCHALARI O‘RTASIDAGI FARQ

Maqsad: Talabalarda iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada qo‘llaniladigan metodlar haqida tushunchalar xosil qilish.

Tayanch so‘z va iboralar: *Ilmiy maktablar, metod, metodologiya, metodika tushunchalari, empirik tadqiqot metodlari, sistemali yondashuv, eksperimentning asosiy xususiyatlari, so‘rovlar o‘tkazish, sotsiometriya metodi, vaziyatli tadqiqotlarning ikki tipi, evristika, sistemali yondashuv.*



REJA:

1. Metodologiya nima?
2. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi tarifi.
3. "Metod" va "metodologiya" tushunchalari.
4. Xozirgi zamon fanida taraqqiyotida qo‘llanilayotgan metodlari.
5. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada qo‘llaniladigan metodlar.



Har qanday ilmiy faoliyat ilmiy maktablarda shakllanadi va muayyan metod, metodologiya va metodikaga tayanadi. Ular bir biri bilan o‘zaro aloqada bo‘lsada, vazifalariga ko‘ra bir-biridan farq qiladi.

Ilmiy maktablar, metod, metodologiya, metodika tushunchalari. *Ilmiy maktablar o‘zida muayyan shaxs, olimning ilmiy faoliyati yo‘nalishini o‘rganish natijasida shakllangan kasb egalari, olimlar kogortasi bo‘lib, unda muayyan ilmiy g‘oya, nazariya doirasida hamjihatlikda faoliyat olib boriladi. Ilmiy maktab tushunchasi metod tushunchasidan kengroqdir.*

Ilmiy maktablar fan taraqqiyotida vorisiylikni ta‘minlaydi, ya‘ni fandagi tizimli rivojlanishni o‘zida namoyon qiladi. Ilmiy maktablarning paradigmal va

lokal darajalari farqlanadi. *I.Nyuton, A.Eynshteyn, N.Bor, I.Prigojin* ilmiy maktablari paradigmalar darajani namoyon qilsa, mamlakat, alohida oliy ta'lim muassasalari yoki ilmiy tadqiqot institutlarida faoliyat olib boradigan ilmiy maktablar lokal darajani aks ettiradi. Ilmiy maktabning paradigmalar darajasi o'z navbatida o'z yetakchilariga ega bo'lgan lokal darajadagi ilmiy maktablarning majmuini tashkil qiladi. Ilmiy maktablarda bir yoki undan ortiq yetakchilar bo'lishi mumkin. Ilmiy maktabda o'ziga xos ilmiy innovatsion mexanizmlar amal qiladi, ularning paydo bo'lishi doimo yangi g'oyalarni amaliyotga joriy qilishda shu g'oyaga aks g'oyani ilgari suruvchi opponentlar bilan kurashida shakllanadi. Ba'zi olimlarning fikriga ko'ra yangi g'oyalar ilgaridan qotib qolgan eski g'oyalardan amaliy ahamiyati bilan ustivorlik qiladi, ilmiy maktab vakillarining shu g'oyani himoya qilishi uning amaliyotga joriy qilinishining garovidir. Ilmiy maktabda ustozning rahbarlik mahorati va ilmiy salohiyati, olimlik mas'uliyati muhim ahamiyatga ega. Ilmiy maktablar nazariy konsepsiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan ilmiy g'oyalar majmui shaklida namoyon bo'ladi. Ilmiy maktablar ilgari surilgan g'oyalarning masshtabi, ularning ahamiyatiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Ilmiy maktablarning o'ziga xos xususiyati g'oyalarni umumlashtirish xossasiga egaligidir. Ilmiy maktablarda individual ilmiy tadqiqot olib borish metodi shakllanadi.



20-rasm. To'g'ri tanlangan metodgina samarali natija kaliti bo'la oladi

Metod (yunon. *methods* — *usul*) keng ma'noda yo'l, ijodiy faoliyatning har qanday shakli kabi ma'nolarni anglatadi. Metod u yoki bu shaklda ma'lum qoida, tartib, usul, harakat va bilim mezonlarining yig'indisi hamdir. U tamoyillar,

talablar tizimi bo'lib, subyektni aniq vazifani bajarishga, faoliyatning shu sohasida ma'lum natijalarga erishish sari yo'naltiradi (20-rasm). U haqiqatni izlashda vaqt, kuchni tejaydi, maqsadga eng yaqin va oson yo'l bilan yetishishga yordam beradi.

Metodning asosiy vazifasi faoliyatning bilish va boshqa shakllarini boshqaruvdan iborat. Biroq:

-birinchidan, metod va metodologik muammolarning rolini inkor qilish yoki to'g'ri baholamaslik ("metodologik negavizm");

-ikkinchidan, metodning ahamiyatini bo'rttirish, mutlaqlashtirish, uni barcha masalalarning kaliti, ilmiy yangiliklarni yaratishning eng qulay vositasi (metodologik eyforiya), deb tushunish noto'g'ridir.

Har qanday metod muayyan nazariya asosida yaratiladi va tadqiqotning zaruriy sharti sifatida namoyon bo'ladi. Har bir metodning samaradorligi uning chuqur mazmun va mohiyatga egaligi, nazariyaning fundamentalligi bilan asoslanadi. O'z navbatida, metod mazmuni kengayib boradi, ya'ni bilimning chuqurlashishi va kengayishi, tajribaga tatbiq etilishi bilan metodning ko'lami ham o'zgaradi.

Ilmiy bilishda nafaqat ilmiy natija (bilimlar majmui) va predmetning mohiyatini anglash, balki unga eltuvchi yo'l, ya'ni metod ham haqiqiy bo'lmog'i lozim. Shunga ko'ra, predmet va metodni bir-biridan ayri holda tushunish mumkin emas. Har qanday metod u yoki bu darajada real hayotiy jarayonlarda shakllanadi va yana unga qaytadi. Metod har qanday tadqiqot boshlanishida to'la holda namoyon bo'lmasa-da, ma'lum darajada predmetning sifat o'zgarishi bilan har safar yangidan shakllanadi.

Metod bilish predmeti va harakatni sun'iy ravishda bog'lamaydi, balki ularning xususiyatlari o'zgarishi bilan o'zgarib boradi. Ilmiy tadqiqot predmetga daxldor dalil va boshqa belgilarni jiddiy bilishni talab qiladi. U ma'lum materialning harakati, uning xususiyatlari, rivojlanish shakllari va h.k.larda

namoyon bo'ladi. Demak, metodning haqiqiyliigi, eng avvalo, tadqiqot (obyekt) predmetining mazmuni bilan bog'liq.

Metod subyekt bilan chambarchas bog'liqdir. Boshqacha qilib aytganda, "inson umum metodologiyaning markazidir" (Feyerbax). Ikkinchidan, har qanday metod yoki bu darajada boshqaruv quroli vazifasini bajaradi.

Metod subyekt va obyektning murakkab dialektikasi asosida rivojlanadi va bunda oxirgisi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Shu ma'noda, har qanday metod, eng avvalo, obyektiv, mazmunli va konkret bo'lsada, ayni paytda, subyektiv hamdir. Biroq u faqat mavjud qoidalar tizimi emas, balki obyektiv ilmiylikning davomi sifatida namoyon bo'ladi.

Metod metodikada konkretlashadi. Metodika daliliy materiallarni yig'ish va saralash vositasi, aniq faoliyat turidir. U metodologik tamoyillardan farq qilsada, ularga asoslanadi.

Metodlar xilma-xilligiga qarab, turli mezonlar asosida klassifikatsiya qilinadi. Eng avvalo, ma'naviy, g'oyaviy (shuningdek, ilmiy) moddiy va amaliy faoliyat metodlarini ajratmoq lozim.

Fan tarixida metodlar yangi nazariyalarni yaratish jarayonida shakllanadi. Yangilik yaratish san'ati yangiliklar jarayonida kamol topadi. Dastlabki tadqiqot tajribada shakllanar ekan, metod tadqiqotning boshlang'ich nuqtasi, amaliyot bilan nazariyani bog'lovchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Metod va nazariyaning uzviy aloqasi ilmiy qonunlarning metodologik rolida o'z aksini topadi. Har qanday fanga oid qonun insonni voqeliqdagi narsa va hodisalarni shu fanga mansub sohaga mos fikrlashga undaydi. Masalan, energiyaning saqlanish qonuni bir vaqtning o'zida metodologik tamoyil bo'lib, y oliy nerv faoliyatining reflektorlik nazariyasi, hayvonlar va inson axloqini tadqiq qilishning metodlaridan biri hamdir.

Ilmiy tadqiqot jarayoni tarixan ishlab chiqilgan metodlar asosida amalga oshiriladi. Hech kim hech qachon haqiqatni yo'qdan bor qila olgan emas. Albatta,

olim izlanishlar, xatolar qurshovida harakat qiladi. Ba'zi hollarda bir narsani izlash jarayonida butunlay boshqa narsa yaratiladi.

Metod o'z-o'zidan tadqiqotning muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlay olmaydi, chunki nafaqat yaxshi metod, balki uni qo'llash mahorati ham muhimdir. Ilmiy bilish jarayonida turli metodlardan foydalaniladi. Umumiy darajasiga ko'ra, ular keng yoki tor ko'lamda qo'llaniladi. Har qanday fan o'z predmetini o'rganishda yoki bu obyektning mohiyatidan kelib chiquvchi turli xususiy metodlardan foydalanadi. Masalan, ijtimoiy jarayonlarni o'rganish metodi olamning ijtimoiy shakli, uning qonuniyatlari, mohiyatining xususiyatlari bilan belgilanadi.

Metodologiya - faoliyatda qo'llaniladigan ma'lum usullar tizimi (fanda, siyosatda, san'atda va h.k). va tizim haqidagi ta'limot yoki metod nazariyasi sifatida amal qiladi (21-rasm).

Hozirgi davrda metodologiya faqat ilmiy bilish sohasi bilan cheklanishi mumkin emasligi ayon bo'ldi va albatta, bilish chegarasidan chiqishi va o'z sohasida



21-rasm. Metodologiya – tizimli faoliyat zanjiri

amaliyotda ham qo'llanishi zarur. Bunda bilish va amaliyotning uzviy aloqadorligiga e'tibor qaratmoq kerak.

Metodologiya faqat metodlarni emas, balki tadqiqotni ta'minlovchi boshqa vositalarni ham o'rganadi. Tamoyil, qoida va ko'rsatmalar, shuningdek, kategoriya hamda tushunchalar mana shunday vositalar jumlasiga kiradi. Nomuvoziy, beqaror dunyo sharoitlarida voqelikni metodologik o'zlashtirishning

o'ziga xos vositalarini ajratish fan rivojlanishining «postnoklassik», deb nomlangan hozirgi bosqichida ancha dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Fan metodologiyasi uning strukturasi, taraqqiyoti, ilmiy tadqiqot vositalari va usullari, uning natijalarini asoslash yo'llari, bilimni tajribaga tatbiq qilish mexanizmlari va shakllarini o'rganadi. Xullas, metodologiya metodlar yig'indisi va faoliyat turi haqidagi ta'limotdir.

Metodlarning tasnifi. Metodlar umumiylik darajasi va amal qilish doirasiga ko'ra bir necha guruhga bo'linadi. Ular: *fan metodlari, xususiy ilmiy metodlar, umumilmiy tadqiqot metodlari, empirik tadqiqot metodlari, nazariy tadqiqot metodlari, umummantiqiy metodlar, fanlararo tadqiqot metodlari, falsafa metodlari, ijtimoiy-gumanitar fanlar metodlari kabilardir.* Quyida ularning mazmunini tahlil qilamiz.

Fan metodlari – *ma'lum fan tarmog'iga kiruvchi yoki fanlar tutashgan joyda vujudga kelgan muayyan fan sohasida qo'llaniladigan usullar tizimi.* Har bir fundamental fan, mohiyat-e'tibori bilan, o'z predmetiga va o'ziga xos tadqiqot usullariga ega bo'lgan sohalar majmuidir. Fanda, ko'p hollarda tanlangan metod tadqiqotning taqdirini hal qiladi. Aynan bir daliliy materialni turli metodlar asosida o'rganish ziddiyatli xulosalarga olib kelishi mumkin. Ilmiy bilishdagi to'g'ri metodni xarakterlar ekan, F.Bekon uni yo'lovchining yo'lini yorituvchi chiroq bilan qiyoslaydi. Noto'g'ri yo'ldan bora turib, y yoki bu masalani hal qilishda muvaffaqiyatga erishishga umid qilish mumkin emas. Zero, nafaqat natija, balki unga eltuvchi yo'l ham to'g'ri bo'lmog'i lozim.

Fan metodlarining guruhlarga bo'linishi bir nechta asoslarga ega. Bilish jarayonida uning roli va o'rni nuqtai nazaridan: formal, empirik, nazariy tadqiqot, izohlash, shuningdek, boshqa metodlarga ajratish mumkin. O'z navbatida, bilishning sifat va son, bilvosita va bevosita original hamda faoliyatli metodlari

ham mavjud. Metodlarni tanlash va turli metodik tadqiqot faoliyatida qo'llash o'rganilayotgan hodisa tabiati va qo'yilgan vazifalar bilan xarakterlanadi.

Fanlararo tadqiqot metodlari – *asosan fan sohalari tutashgan joyda amal qiladigan (metodologiyaning turli darajasi elementlarini birlashtirish natijasida yuzaga kelgan) bir qancha sintetik va integrativ usullar majmui.* Mazkur metodlar kompleks ilmiy dasturlarni amalga oshirishda keng qo'llaniladi.

Xususiy ilmiy metodlar – *materiya harakatining asosiy shakliga mos bo'lgan muayyan fanda qo'llaniladigan bilish usullari, tamoyillari, tadqiqot usullari va tartib-taomillari majmui.* Mexanika, fizika, kimyo, biologiya, geografiya va ijtimoiy-gumanitar fanlarning metodlari shular jumlasidandir. Xususiy fanlar metodlarining o'ziga xos xususiyatlari moddiy ifodasini topgan bilish vositalari: mikrofizikada zarralarni tezlatgichlar, tibbiyotda a'zolar faoliyatini qayd etuvchi turli o'lchagichlar va shu kabilar hozirgi zamon metodologik tadqiqotining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Empirik tadqiqot metodlari. *O'rganilayotgan har qanday obyekt haqida egallanadigan bilvosita bilim empirik bilish deb ataladi.* Kuzatish empirik bilishning asosiy metodidir. *Kuzatish–narsa va hodisalarni izchil passiv kuzatish bo'lib, unda asosan, sezgi a'zolarining ma'lumotlariga tayanadi.* Kuzatish jarayonida biz bilish obyektining nafaqat tashqi tomonlari haqida, balki, pirovard maqsad sifatida uning muhim xossa va munosabatlari haqida ham bilim olamiz. Kuzatish bevosita yoki turli asboblardan va boshqa texnik uskunalardan yordamida bilvosita amalga oshirilishi mumkin. Fan rivojlanishi bilan kuzatish tobora murakkablashib, uning vositalari ko'payib bormoqda. *Ilmiy kuzatishga qo'yiladigan asosiy talablar: maqsad (kuzatish obyekti)ning aniqligi; qayta kuzatish orqali yoki boshqa metodlar (masalan, eksperiment) yordamida nazorat qilish mumkinligi.* Kuzatish natijalarini talqin qilish, asboblarning ko'rsatkichlarini o'qish va shu kabilar muhim ahamiyatga ega. Kuzatuv ilmiy bilish uchun o'ta

zarur, chunki u bo'lmasa, fan boshlang'ich axborot ololmas, ilmiy dalillar va empirik ma'lumotlarga ega bo'lmas, o'z-o'zidan ma'lumki, nazariy bilimni ham qurib bo'lmas edi. Kuzatuv ilmiy bilish uchun o'ta zarur, chunki u bo'lmasa, fan boshlang'ich axborot ololmas, ilmiy dalillar va empirik ma'lumotlarga ega bo'lmas, o'z-o'zidan ma'lumki, nazariy bilimni ham qurib bo'lmas edi.

Shuningdek, *kuzatuvning tashkil etilishiga bog'liq holda u ochiq va yashirin, dala va laboratoriya kuzatuvlari, qayd etish turiga ko'ra – qayd etuvchi, baholovchi va aralash bo'ladi. Axborot olish turiga ko'ra kuzatuvlar bevosita va instrumental turlarga bo'linadi. O'rganilayotgan obyektlarni qamrab olish hajmiga ko'ra esa yalpi va tanlab kuzatish farqlanadi; takrorlanishiga ko'ra – doimiy, davriy va bir martalik kuzatuvlar bo'ladi. Kuzatuvning tez-tez uchrab turadigan xili – o'z-o'zini kuzatuv bo'lib, u, masalan, psixologiyada keng tarqalgan.*

Biroq kuzatuv bilish uslubi sifatida qator jiddiy kamchiliklarga ham ega. Tadqiqotchining shaxsiy xususiyatlari, uning manfaatlari, nihoyat, uning psixologik holati kuzatuv natijalariga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Tadqiqotchi muayyan natijaga ega bo'lish, o'zida mavjud farazlarni tasdiqlashga qaratilganida kuzatuvning obyektiv natijalarini buzilishiga yanada ko'proq moyil bo'ladi.

Kuzatuvning obyektiv natijalarini olish uchun *intersub'yektivlik talablariga rioya qilish lozim, ya'ni kuzatuv ma'lumotlari, imkon qadar, boshqa kuzatuvchilar tomonidan ham olinishi va qayd etilishi shart (va/yoki mumkin).*

Bevosita kuzatishni asbob-uskunalar bilan almashtirish kuzatuv imkoniyatlarini cheksiz tarzda kengaytirib yuboradi, ammo u ham sub'yektivlikni istisno etmaydi; bu kabi bilvosita kuzatuvni baholash va tushuntirish sub'yekt tomonidan amalga oshiriladi va shuning uchun tadqiqotchining ta'siri baribir ro'y beradi.

***Ekspiriment** – o'rganilayotgan jarayonga faol va izchil aralashish, eksperimentning maqsadlariga muvofiq maxsus yaratilgan hamda nazorat ostiga*

olingan sharoitlarda tadqiq qilinayotgan obyektning tegishli tarzda o'zgartirish yoki uni aks ettirish. Eksperiment jarayonida o'rganilayotgan obyekt uning mohiyatini buzib ko'rsatishi mumkin bo'lgan nojo'ya ta'sirlardan ajratiladi va «sof shakl»da ifoda etiladi.

Eksperimentning asosiy xususiyatlari:

a) tadqiqot obyektiga (kuzatishdagiga qaraganda) yanada faolroq munosabat, shu jumladan, uni o'zgartirish va qayta tuzish;

b) obyektning xulq-atvorini nazorat qilish va natijalarni tekshirish imkoniyatining mavjudligi;

v) tadqiqotchining xohishiga ko'ra, o'rganilayotgan obyektning bir necha marta aks ettirish imkonligi;

g) hodisalarning tabiiy sharoitlarda kuzatilmaydigan xossalarni topish imkoniyatining mavjudligi.

Eksperimentlarning turlari juda xilma-xildir. Vazifalariga qarab tadqiqot (qidirish), tekshirish (nazorat) va aks ettirish eksperimentlari farqlanadi. Obyektlarning xususiyatiga qarab fizik, kimyoviy, biologik, ijtimoiy va h.k. eksperimentlar farqlanadi. Sifat va son eksperimentlari ham mavjud. Fikriy eksperiment–ideallashtirilgan obyektlar haqida fikr yuritish protseduralari tizimi hozirgi zamon fanida keng tarqalgan.

Taqqoslash – *obyektlar (yoki ayni bir obyektning rivojlanish bosqichlari)ning o'xshash yoki farqli jihatlarini, ya'ni ularning ayniyligi va tafovutlarini aniqlovchi bilish operatsiyasi.* U faqat turkum hosil qiluvchi turdosh predmetlar majmuidagina ma'no kasb etadi. Predmetlarni turkumda taqqoslash ayni tadqiqot uchun muhim belgilarga qarab amalga oshiriladi. Bunda bitta belgiga qarab taqqoslanayotgan predmetlarni boshqa belgiga qarab taqqoslash bo'lmasligi ham mumkin. Taqqoslash mantiqiy usul–analogiyaning (quyida qarang) negizi hisoblanadi va qiyosiy-tarixiy metodning asosi bo'lib xizmat qiladi. Uning

maqsadi—ayni bir hodisa yoki birgalikda mavjud har xil hodisalar rivojlanishining turli bosqichlari (davrlari, darajalari)ni bilishda umumiy va xususiy holatlarni aniqlash.

Tavsiflash—tajriba (kuzatish yoki eksperiment) natijalarini fanda qabul qilingan ma'lum belgilash tizimlari yordamida qayd etishdan iborat bilish operatsiyasi.

O'lchash—qabul qilingan o'lchov birliklarida o'lchanayotgan kattalikning son miqdorini topish maqsadida ma'lum vositalar yordamida bajariluvchi amallar majmui. O'lchashning tuzilmasi quyidagi elementlardan tashkil topadi:

- ❖ bilish subyektini, muayyan bilish maqsadlarida o'lchashni amalga oshiradi;-o'lchash vositalari,tabiyy va inson tomonidan yaratilgan;
- ❖ o'lchash obyekti, ya'ni o'lchanadigan kattalik yoki qiyoslash amaliyotini qo'llash mumkin bo'lgan xossa;
- ❖ o'lchash usuli ya'ni, o'lchash asboblari yordamida bajariladigan amaliy harakatlar, operatsiyalar yig'indisidan iborat bo'lib, o'z ichiga muayyan mantiqiy va hisoblash amaliyotlarini ham oladi;
- ❖ o'lchash natijasi, nomlangan kattalikdan iborat bo'lib, tegishli nomlar yoki belgilar yordamida ifodalanadi.
- ❖ o'lchash aniqligi muammosi ham empirik bilish uslubi sifatida shu kabi o'lchashning gnoseologik asoslariga oid hisoblanadi. O'lchash aniqligi o'lchash jarayonidagi quyidagi *obyektiv va subyektiv omillarga bog'liq.*
- ❖ o'rganilayotgan obyektida u yoki bu turg'un miqdor ta'riflarini ajratib olish imkoniyati murakkab, ba'zan esa buning umuman iloji bo'lmaydi;
- ❖ o'lchash vositalari imkoniyatlari (ularning mukammallik darajasi) va o'lchash jarayoni kechayotgan sharoitlar. Qator hollarda kattalikning aniq qiymatini topishning umuman imkoni yo'q. Masalan, elektronning atom atrofidagi traektoriyasini aniqlash mumkin emas va h.k.

O'lchashning subyektiv omillari qatoriga o'lchash usulini tanlash, ushbu jarayonni tashkil qilish va subyektning bilish imkoniyatlari – eksperiment o'tkazuvchi malakasi, uning olingan natijalarini to'g'ri va savodli izohlab berish mahorati kiradi.

Bevosita o'lchash bilan birga ilmiy eksperiment o'tkazish jarayonida bilvosita o'lchash uslubi keng qo'llanadi. Bilvosita o'lchashda izlanayotgan kattalik dastlabki funktsional bog'liqlik bilan bog'liq boshqa kattaliklarni bevosita o'lchash asosida aniqlanadi. Jism massasi va hajmining o'lchangan qiymatlariga ko'ra uning zichligi aniqlanadi; o'tkazgichning solishtirma qarshiligi qarshilikning o'lchangan kattaliklari, o'tkazgichning ko'ndalang kesimi uzunligi va maydoniga ko'ra topilishi mumkin va h.k. Ayniqsa obyektiv reallik sharoitida bevosita o'lchash mumkin bo'lmaganida bilvosita o'lchash uslubining roli katta. Masalan, har qanday kosmik obyekt (tabiiy)ning massasi boshqa fizik kattaliklarni o'lchash ma'lumotlarini qo'llashga asoslangan matematik hisob-kitoblar yordamida aniqlanadi.

Nazariy tadqiqot metodlari. *Nazariy asoslangan va isbotlangan bilimlar majmui nazariy tadqiqot metodlari orqali egallanadi. Quyidagilar nazariy tadqiqot metodlaridir:*

Aksiomatik metod-ilmiy nazariya tuzish usuli. Bunda uning asosiga ayrim dastlabki qoidalar-aksiomalar qo'yiladi va nazariyaning qolgan barcha g'oyalari mana shu aksiomalardan sof mantiqiy yo'l bilan isbotlash orqali keltirib chiqariladi. Aksiomalardan teoremlarni (umuman, bir formuladan boshqa formulalarni) keltirib chiqarish uchun maxsus qoidalar ta'riflanadi. Binobarin, aksiomatik metodda isbotlash–har biri yo aksioma bo'lgan, yo oldingi formulalardan ma'lum qoidaga binoan keltirib chiqariladigan formulalarning ma'lum ketma-ketligi. Aksiomatik metod–olingan ilmiy bilimni tizimga solish usullaridan biri. Uning amalda qo'llanishi cheklangan, chunki uni faqat

aksiomalashtirilgan mazmun nazariyasining rivojlanish darajasi juda katta bo'lgan holdagina qo'llash mumkin. Mashhur fransuz fizigi Lui de Broylning ta'biri bilan aytganda, «aksiomatik metod tasniflash yoki ta'lim berishning yaxshi metodi bo'lishi mumkin, ammo u kashf etish metodi bo'la olmaydi».

Gipotetik-deduktiv metod - bir-biri bilan deduktiv bog'liq bo'lgan gipotezalar tizimini yaratishni nazarda tutadi. Mazkur gipotezalardan pirovard natijada empirik dalillar to'g'risida xulosalar chiqariladi. Ushbu metod gipotezalardan va haqiqiy ma'nosi ma'lum bo'lmagan boshqa farazlardan xulosalar chiqarishga (deduksiyaga) asoslanadi. Binobarin, mazkur metod yordamida chiqarilgan xulosa muqarrar tarzda ehtimoliy xususiyatga ega bo'ladi.

Gipotetik-deduktiv metodning umumiy tuzilishi:

- nazariy tushuntirishni taqozo etuvchi material bilan tanishish va mavjud nazariyalar, qonunlar yordamida nazariy tushuntirishga harakat qilish. Agar buning iloji bo'lmasa:

- turli-tuman mantiqiy usullar yordamida mazkur hodisalarning sabab va qonuniyatlari to'g'risida faraz (*gipoteza, taxmin*)lar qilish;

- farazlarning asosliligi va jiddiyligiga baho berish va ularning orasidan haqiqatga eng yaqinini tanlab olish;

- gipotezadan oqibatlarni (*odatda, deduksiya yo'li bilan*) keltirib chiqarish va uning mazmuniga aniqlik kiritish;

- gipotezadan keltirib chiqarilgan oqibatlarni tajribada tekshirish. Bu yerda gipoteza yo tajribada isbotlanadi, yo inkor etiladi. Ammo ayrim oqibatlarning isbotlanganligi gipotezaning haqiqiyliyini (*yoki soxtaligini*) kafolatlamaydi. Tekshiruv natijalariga ko'ra, eng yaxshi gipoteza nazariyaga aylanadi.

Matematik gipotezani gipotetik-deduktiv metodning turi deb hisoblash mumkin. Bu yerda ilgari ma'lum bo'lgan va tekshirilgan holatlarning takomillashtirilgan ko'rinishlarini ifoda etuvchi ma'lum tenglamalar gipoteza

vazifasini bajaradi. Ilgari ma'lum bo'lgan va tekshirilgan holatlar o'zgartirilib, yangi hodisalarga taalluqli bo'lgan gipotezani ifodalovchi yangi tenglama tuziladi. Gipotetik-deduktiv metod (*aksiomatik metod singari*) kashf etish metodidan ham ko'ra ko'proq ilmiy bilimni tuzish va asoslash metodi hisoblanadi, chunki u yangi gipotezaga qanday yo'l bilan kelish mumkinligini ko'rsatadi.

Mavhumdan konkretlikka yuksalish metodi - ilmiy fikrning dastlabki mavhumlikdan bilishni chuqurlashtirish va kengaytirish izchil bosqichlari orqali natijaga - tadqiq qilinayotgan predmetni nazariyada yaxlit aks ettirishga tomon harakatidan iborat. Muayyan hissiylikdan mavhumlikka yuksalish, tafakkurda predmetning alohida jihatlarini ajratish va ularni tegishli mavhum ta'riflarda «mustahkamlash» mazkur metodning shartlaridir. Bilishning muayyan hissiylikdan mavhumga tomon harakati xususiydan umumiyga tomon harakat demakdir. Bu yerda tahlil va induksiya singari mantiqiy usullar yetakchilik qiladi. Mavhumdan muayyan hissiylikka yuksalish–ayrim umumiy mavhumliklardan ularning yagonaligiga, muayyan umumiyga tomon harakat jarayonidir. Bu yerda sintez va deduksiya usullari yetakchilik qiladi. Bilishning bunday harakati formal, texnik protsedura emas, balki predmetning rivojlanishidagi qarama-qarshilikni, ichki qarama-qarshiliklarga muvofiq uning bir darajadan boshqa darajaga o'tishini aks ettiruvchi dialektik ziddiyatli harakatdir.

Umumilmiy tadqiqot metodlari - falsafa bilan maxsus fanlarning *fundamental nazariy-metodologik qoidalari o'rtasida o'ziga xos «oraliq metodologiya» bo'lib xizmat qiladi.* Umumilmiy tushunchalar qatoriga ko'pincha «axborot», «model», «tuzilma», «funksiya», «tizim», «element», «oqilonalik», «ehtimollik» singari tushunchalar kiritiladi.

Birinchidan, bir qancha xususiy fanlar hamda falsafiy kategoriyalarning alohida xossa, belgi va tushunchalari umumilmiy tushunchalarning mazmuniga «singdirib» yuborilganligi, ikkinchidan, (falsafiy kategoriyalardan farqli o'laroq)

matematik nazariya va simvolik mantiq vositalari bilan ularni formallashtirish, ularga aniqlik kiritish mumkinligi umumilmiy tushunchalarning o'ziga xos jihatlaridir.

Agar falsafiy kategoriyalar umumiylikning mumkin bo'lgan eng yuqori darajasi – muayyan umumiy darajani o'zida mujassamlashtirgan bo'lsa, umumilmiy tushunchalarga ko'proq umumiy mavxum (bir xil) daraja xoski, bu ularni mavxum-formal vositalar yordamida ifoda etish imkonini beradi. Falsafaning asosiy masalasini (to'la hajmda) yechishda «ishtirok etish» sharti muayyan «tafakkur shaklini yaratish»ning «falsafiyligi», «dialektikligi» darajasini aniqlashning muhim mezonidir.

Umumilmiy tushuncha va konseptsiyalar asosida bilishning tegishli metodlari, tamoyillari ta'riflanadi, ular esa, o'z navbatida, falsafaning maxsus ilmiy bilim va uning metodlari bilan oqilona o'zaro aloqasini ta'minlaydi.

Strukturaviy-funksional (strukturaviy) metod yaxlit tizimlarda ularning strukturasi, strukturaning tarkibiy qismlari o'rtasidagi barqaror munosabatlar va o'zaro aloqalarni hamda ularning bir-biriga nisbatan rollari (funktsiyalari)ni ajratish asosiga quriladi.

Struktura–tizimning tuzilishi va ichki shakli, mazkur tizimning tarkibiy qismlari o'rtasidagi barqaror o'zaro aloqalarning birligini ifodalovchi falsafiy tushuncha. Funksiya esa mazkur tizim har bir tarkibiy qismining «vazifasi» deb tushuniladi (ma'lum biologik a'zo funksiyalari, davlat funksiyalari, nazariyaning funksiyalari va h.k.).

Strukturaviy-funksional (strukturaviy) metodning (unga ba'zan sistemali yondashuvning turi deb ham qaraladi) asosiy talab (jarayon)lari:

- a) tizimli obyektning tuzilishi, strukturasi o'rganish;
- b) uning tarkibiy qismlarini va ularning funksional xususiyatlarini tadqiq qilish;

v) mazkur tarkibiy qismlardagi va ularning funksiyalaridagi o'zgarishlarni tahlil qilish;

g) butun tizimli obyektning rivojlanishi (tarixi)ni ko'rib chiqish;

d) barqaror faoliyat ko'rsatayotgan obyektning barcha tarkibiy qismlariga shu barqarorlikni saqlashga xizmat qilayotgan tizim sifatida qarash.

Formallashtirish—*ma'lum mazmuni muayyan shakl-belgilar holiga keltirish*. Bu har xil talqin qilish imkoniyatini istisno etish maqsadida fikrni aniq ifodalashga xizmat qiladi. Formallashtirishda obyektlar haqidagi mulohazalar belgilar (*formula*) sohasiga o'tkaziladiki, bu sun'iy tillar (*matematika, mantiq, kimyo tili va sh.k.*)ni yaratish bilan bog'liq.

Maxsus shakl-belgilardan foydalanish oddiy, tabiiy tilning ko'p ma'noliligini bartaraf etish imkonini beradi. Formallashtirilgan fikrlarda turli belgi qat'iy ma'noni bildiradi. Formallashtirish algoritmlashtirish va hisoblash moslamalarini dasturlashtirish jarayonlariga, bu bilan esa bilimning nafaqat ilmiy-texnikaviy, balki boshqa shakllarini ham kompyuterlashtirishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Formallashtirish jarayonining eng muhim xususiyati shundaki, sun'iy tillarning formulalari ustida amallarni bajarish, ulardan yangi formula va nisbatlarni keltirib chiqarish mumkin. Aytilgan fikr mantiqiy xulosa asosida chiqariladi. Amaliyotda turli timsollar asosida xulosalar chiqariladi. Bu timsollar aksiomalarni ifodalaydi. Formallashtirish keng ma'noda mantiqiy xulosa chiqarish haqidagi ta'limotdir. Mantiqiy xulosa natijani izohlab tushuntirib beradi. Xulosa chiqarish timsollar tizimi va unga asoslanish demakdir. Ammo, XX asrda ijod qilgan avstriyalik mantiqchi va matematik K. Gedelb mazmun nazariyasida har doim aniqlanmagan, formallashtirilmagan qoldiq qolishini ko'rsatadi. Tobora chuqurlashib borayotgan bilim mazmunini formallashtirish hech qachon mutlaq to'liqlikka erishmaydi, chunki bilish predmeti va u haqdagi bilimlarning

rivojlanishi (o'zgarishi) hech qachon to'xtamaydi. Bu formallashtirishning ichki imkoniyatlari cheklanganligidan dalolat beradi. Zotan, har qanday fikrni hisoblash bilan almashtirish imkonini beruvchi umumiy metodning yo'qligi isbotlangan. Gedelning teoremlari ilmiy fikrni va, umuman, ilmiy bilimni to'liq formallashtirish mumkin emasligini mukammal isbotlab bergan.

Modellashtirish–*borliqni bilvosita o'rganish usuli. Biron obyektning xususiyatlarini ularni o'rganish uchun maxsus tuzilgan boshqa obyektga qayta hosil qilishdir.* Modellashtirish asosida tadqiq qilinayotgan obyekt bilan uning modeli o'rtasidagi o'xshashlik, muvofiqlik yotadi. Mazkur usul ilmiy tadqiqot jarayonini yengillashtiradi, obyektning o'rnini bevosita tadqiq etish mumkin bo'lmagan, qimmat bo'lgan, juda uzoq vaqt talab qiladigan va holatlarda modelga ehtiyoj paydo bo'ladi.

Modellashtirish shakllari xilma-xil bo'lib, foydalanilayotgan modellarga va modellashtirish qo'llanayotgan sohaga bog'liq. Modellarning xususiyatiga qarab moddiy (predmetli) modellashtirish va ideal modellashtirish farqlanadi. Moddiy modellar tabiiy obyektlar hisoblanadi. Ular o'z faoliyatida tabiiy qonunlar–fizika, mexanika qonunlariga bo'ysunadi. Ideal modellar tegishli belgilar shaklida ifodalanadi.

Muayyan obyektни moddiy (predmetli) modellashtirishda uni o'rganish original bilan bir xil fizik tabiatga ega bo'lgan ma'lum modelni tadqiq qilish bilan almashtiriladi (samolyot, kema va kosmik apparatlarning modellari).

Ideal (belgili) modellashtirishda modellar grafiklar, chizmalar, formulalar, tenglamalar sistemalari, tabiiy va sun'iy til gaplari (timsollar) shaklida bo'ladi. Hozirgi vaqtda matematik modellashtirish (kompyuterda modellashtirish) keng tarqalgan.

Ehtimoliy-statistik metodlar barqaror takroriylik bilan tavsiflanadigan ko'plab tasodifiy omillarning ta'sirini e'tiborga olishga asoslanadi. Bu ko'plab

tasodiflarning umumiy ta'siri orqali o'ziga yo'l ochadigan zarurat (qonun)ni ochish imkonini beradi. Mazkur metodlar ko'pincha tasodiflar haqidagi fan deb ataladigan ehtimollik nazariyasiga tayanadi.

Ehtimollik-haqiqatga da'vogarlik qiluvchi va bunga yetarli asosi bo'lmagan ilmiy hayotiy tushuncha. Ehtimollikning diapazoni-noldan (mumkin emaslikdan) birgacha (*voqelikkacha*). Mazkur metodlar dinamik va statistik qonunlarni farqlashga asoslanadi. Bunda ular mazkur qonunlardan kelib chiqadigan bashoratlarning xususiyatiga tayanadi. Dinamik qonunlarda bashoratlar aniq belgilangan bir ma'noli xususiyatga ega bo'ladi (masalan, klassik mexanikada).

Statistik qonunlarda bashoratlar haqiqiy emas, balki ehtimoliy xususiyatga ega bo'ladi. Bu xususiyat ko'plab tasodifiy omillarning ta'siri bilan belgilanadi. Ilmiy bilish tarixi ko'rsatganidek, «biz zarurat va tasodif bilan bog'liq barcha muammolarning ahamiyatiga endi-endi munosib baho bera boshlayapmiz».

Ehtimoliy-statistik metodlar tasodifiy xususiyatga ega bo'lgan ayrim hodisalarni emas, balki ommaviy hodisalarni o'rganish (kvant mexanikasi, statistik fizika, sinergetika, sotsiologiya va boshqa fanlar)da keng qo'llaniladi. Bugungi kunda fanga ehtimoliy fikr yuritish tarzi kirib kelayotganligi to'g'risida ko'p gapirilmoqda.

Umumilmiy yondashuvlarning muhim roli shundan iboratki, o'zining «oraliq xususiyati»ga ko'ra, ular falsafiy va alohida ilmiy bilim (shuningdek, tegishli metod)larning o'zaro o'tishida vositachilik qiladi. Mazkur metodlar barcha fanlarda qo'llanilganligi uchun ham ular umumilmiy metodlar deb ataladi. Ammo ularni fanlarda qo'llashda har bir fan yoki fan sohasining xususiyatlari, tabiiy, ijtimoiy va ma'naviy hodisalarni bilish xususiyatlari e'tiborga olinadi.

Tadqiqotning umumiy mantiqiy metodlari - *mantiqiy mushohada yuritish orqali egallangan bilimlar majmui bo'lib ular quyidagilar: analiz–obyektни amalda yoki fikran tarkibiy qismlarga ajratish;*

sintez – qismlardan butunni, xuddi shunday tarzda, qayta birlashtirish. Sintez natijasida mutlaqo yangi obyekt hosil bo'ladi.

Analiz (tahlil qilish faoliyati) jarayonida fikr murakkablikdan oddiylikka, tasodifdan zaruratga qarab, xilma-xillikdan ayniyatga va birlikka qarab harakat qiladi. Analiz qilishning maqsadi qismlarni, murakkab butunning unsurlari sifatida bilish va ular o'rtasidagi aloqa va qonuniyatlarni aniqlashdan iboratdir. Biroq, analiz mohiyatni ajratib qarashga olib keladiki, mavhum holda qolayotgan birlik, xilma-xillikdagi birlik sifatida hali ochilmagan bo'ladi. Sintez, aksincha, analiz vositasi bilan ajratilgan qismlar, xossalar, munosabatlarni yagona bir butunga birlashtirish jarayonidan iborat. Sintez birlikdan tafovutga va xilma-xillikka qarab yo'naltirilgan bo'lib, umumiylik va ayrimlikni, birlik va xilma-xillikni muayyan jonli butunga birlashtiradi. Analiz va sintez chambarchas bog'liq holda amal qiladi.

Mavhumlashtirish-o'rganilayotgan hodisaning bir qancha xossalari va nisbatlaridan fikran uzoqlashish, ayni paytda tadqiqotchini qiziqtirgan xossalarni (eng avvalo, muhim, umumiy xossalarni) ajratish jarayoni. Mazkur jarayon natijasida har xil «mavhum predmetlar» olinadi. Bunda «mavhum predmetlar» deganda alohida tushunchalar va kategoriyalar («rivojlanish», «qarama-qarshilik», «fikrlash» va b.) hamda ularning tizimlari tushuniladi. Matematika, mantiq, dialektika va falsafa eng rivojlangan tizimlardir.

Ko'rib chiqilayotgan xossalarning qay biri muhim, qaysinisi ikkinchi darajali ekanligini aniqlash mavhumlashtirishning bosh masalasidir. Mazkur masala har bir muayyan holatda, eng avvalo, o'rganilayotgan predmetning tabiatiga, shuningdek, tadqiqotning muayyan vazifalariga qarab hal qilinadi.

Umumlashtirish-predmetning umumiy xossa va belgilarini aniqlash jarayoni bo'lib, mavhumlashtirish bilan chambarchas bog'liq. Bunda har qanday umumiy (abstrakt-umumiy) yoki muhim (muayyan umumiy, qonun) belgilar ajratilishi mumkin.

Ideallashtirish-voqelikning tajribada prinsipial amalga oshirib bo'lmaydigan, lekin real olamda ularning timsoli bo'lgan obyektlarning tushunchalarini fikran shakllantirishni ifodalaydigan («nuqta», «ideal gaz», «mutlaqo qora jism» va sh.k.) tushuncha.

Ideallashtirilgan obyektlar, pirovard natijada, obyektiv ashyolar, real jarayon va hodisalarning in'ikosi sifatida maydonga keladi. Ideallashtirish yordamida shakllangan tushunchalardan keyinchalik real obyektning in'ikosi sifatida izlanishlar olib borishda, mulohazalar yuritishda, real jarayonlarning mavhum sxemalarini tuzishda foydalanish mumkin.

Ideallashtirish ilmiy yoki g'ayriilmiy, real yoxud mavhum bo'ladi. Ilmiy, real ideallashtirishni mavhum ideallashtirishdan farqlaydigan belgi shundan iboratki, unda hosil etilgan ideallashtirish obyektlari, shaxslar muayyan sharoitlarda ideallashtirilgan, ya'ni real obyektlar atamalarini ishlatib, talqin etish mumkin.

Induksiya-ayrimlik (tajriba, dalil)dan umumiyga (ularni umumlashtirib xulosa chiqarishga) fikran harakat qilish; *deduksiya*–bilish jarayonining umumiydan ayrimlikka yuksalishi. Induksiya va deduksiya o'zaro bog'lanadi hamda bir-birini to'ldiradi. Tajriba hamisha cheksiz va nomukammal bo'lganligi uchun induktiv xulosalar doim muammoli (ehtimoliy) xususiyatga egadir. Induktiv umumlashtirishlarga, odatda, tajribada bilingan haqiqatlar (empirik qonunlar), deb qaraladi.

Induktiv umumlashtirish turlaridan ommaviy induksiya, to'liqsiz induksiya, to'liq induksiya, ilmiy induksiya va matematik induksiya ajratiladi. Mantiqda sababiy aloqalarni aniqlashning induktiv metodlari–induksiya qonunlari (Bekon-Mill induktiv tadqiqot qoidalari) farqlanadi. Yagona o'xshashlik, yagona tafovut, o'xshashlik va tafovut, bog'liq o'zgarishlar metodlari va qoldiqlar metodi shular jumlasidandir.

Deduktsiyaning o'ziga xos xususiyati shundaki, tadqiqotchi deduktsiya vositasida bir sinf, bir jins, bir guruh narsa yoki hodisa to'g'risidagi umumiy bilimlardan ularning har biri haqida alohida bilimlarni hosil qiladi. Insonning bilish tajribasidan shunarsa ma'lumki, agar biron xususiyat bir toifa yoki bir jinsdagi hamma narsa yoki hodisalarga xos bo'lsa, bu xususiyat shu toifa yoki jinsga oid har bir narsa yoki hodisaga ham xos bo'ladi.

Analogiya (moslik, o'xshashlik)-o'xshash bo'lmagan obyektlarning ayrim jihatlari, xossalari va munosabatlaridagi o'xshashliklarni aniqlash. Aniqlangan o'xshashlik asosida tegishli analogiya bo'yicha xulosa chiqariladi. Uning umumiy sxemasi: B obyekt a, b, c, d belgilarga ega; C obyekt b, c, d belgilarga ega; binobarin, C obyekt a belgiga ega bo'lishi mumkin. Analogiya haqiqiy emas, balki ehtimoliy bilim beradi. Analogiya bo'yicha xulosa chiqarishda muayyan obyekt («model»)ni ko'rib chiqish natijasida olingan bilim boshqa nisbatan kam o'rganilgan obyektga ko'chiriladi.

Sistemali yondashuv-fanda turli obyektlarni sistemalar sifatida tadqiq etishni nazarda tutadigan metodologik tamoyil (talab)lar majmui. Mazkur talablarga quyidagilar kiradi:

a) har bir elementning tizimdagi o'rni va funksiyalariga bog'liqligini aniqlash, bunda butunning xossalari uning tarkibiy qismlari xossalarining yig'indisiga bog'liq bo'lmasligini e'tiborga olish;

b) tizimning xulq-atvori uning alohida tarkibiy qismlari xususiyatlari hamda uning tuzilishi xossalariga qay darajada bog'liqligini tahlil qilish;

v) tizim bilan muhitning o'zaro aloqalari mexanizmini tadqiq qilish;

g) mazkur tizimga xos bo'lgan darajalilikning xususiyatini o'rganish;

d) tizimni har tomonlama, ko'p jihatli tavsiflashni ta'minlash;

e) tizimga dinamik rivojlanayotgan yaxlitlik deb qarash.

Sistemali yondashuv o'z-o'zidan rivojlanuvchi murakkab obyektlarni (ko'pdarajali, ierarxik, o'z-o'zini tashkil etuvchi biologik, psixologik, sotsial va h.k. sistemalarni) tadqiq etishda keng qo'llaniladi. Sistemali yondashuvning muhim xususiyati shundaki, faqat tadqiqot obyektigina emas, balki tadqiqot jarayonining o'zi ham murakkab sistema sifatida namoyon bo'ladi. Uning asosiy vazifasi obyekt turli modellarini yaxlit qilib birlashtirishdir.

«O'z-o'zini tashkil etish» tushunchasi sistemali yondashuvning muhim tushunchasidir. Mazkur tushuncha tarkibiy qismlari o'rtasidagi aloqalar qat'iy emas, balki ehtimoliy xususiyatga ega bo'lgan murakkab, ochiq, o'z-o'zini rivojlantiruvchi tizim (tirik hujayra, organizm, biologik populyatsiya, odamlar jamoasi va sh.k.)ni yaratish, rivojlantirish yoki takomillashtirish jarayonini tavsiflaydi.

Hozirgi zamon fanida o'z-o'zini tashkil etuvchi tizimlar o'z-o'zini tashkil etish umumilmiy nazariyasi–sinergetikaning tadqiqot predmetini tashkil qiladi.

Falsafa metodlari. *Falsafa metodlarining asoslari bevosita amaliy faoliyat bilan bog'liq.* Turli konkret vazifalarni hal qilishning zaruriy shartlaridan biri universal xususiyatga ega bo'lgan umumiy falsafiy metodlarga murojaat qilishdir. Bu metodlar haqiqatni anglashda umumiy yo'lni ko'rsatadi. Mazkur metodlarga falsafaning qonun va kategoriyalari, kuzatish va tajriba, taqqoslash, analiz, sintez, induksiya, deduksiya va h.k.lar taalluqli. Agar maxsus metodlar obyektning qonuniyatlarini o'rganishning xususiy usullari sifatida namoyon bo'lsa, falsafiy metodlar shu obyektlarda namoyon bo'ladigan, alohida xususiyatlardagi harakat, taraqqiyotning eng umumiy qonuniyatlarini o'rganadi. Aynan shu o'rinda tajriba hal qiluvchi ahamiyatga ega. Har bir metod obyektning alohida tomonini bilishga imkoniyat yaratadi. Falsafaning eng qadimgi keng tarqalgan metodlardan biri dialektika bo'lsa, ikkinchisi metafizikadir. Biroq falsafa metodlari bular bilan cheklanmaydi. Bugungi kunda uning sofistika, eklektika, analitik, (hozirgi zamon

analitik falsafasi), intuitiv, fenomenologik, sinergetik, germenevtik (tushunish) va boshqa turlari ham mavjud. Endilikda turli metodlarni birlashtirish jarayoni ham ro'y bermoqda (masalan, Gadamer germenevtikani ratsional dialektika bilan birlashtirishga harakat qiladi).

Ijtimoiy-gumanitar fanlar metodlari. *Ijtimoiy-gumanitar fanlarda kuzatish natijalari ko'p jihatdan kuzatuvchining shaxsiga, uning hayotiy qarashlariga va boshqa subyektiv omillarga bog'liq bo'ladi.* Mazkur fanlarda oddiy (dalillar va hodisalar chetdan turib qayd etiladi) kuzatish va ishtirokchilikka asoslangan ichdan turib (bunda tadqiqotchi ma'lum ijtimoiy muhitga qo'shiladi, unga moslashadi va hodisalarni «ichdan» tahlil qiladi) kuzatish farqlanadi. Psixologiyada kuzatishning o'z-o'zini kuzatish (introspektsiya) va empatiya (boshqa odamlarning ruhiy kechinmalariga kirib borish, ularning ichki dunyosi–sezgilari, fikrlari, xohish-istaklarini tushunishga intilish va h.k.) farqlanadi.

Etnometodologiya ichdan turib kuzatishning turlaridan biri bo'lib, u ijtimoiy hodisa va voqealarni tavsiflash hamda kuzatish natijalarini ularni tushunish g'oyalari bilan to'ldirishni nazarda tutadi. Mazkur yondashuv hozirda etnografiya, ijtimoiy antropologiya, sotsiologiya va kulturologiyada tobora keng qo'llanilmoqda.

Ijtimoiy eksperimentlar ular ijtimoiy tashkil etish va jamiyatni boshqarishni oqionalashtirishning yangi shakllarini amalga tatbiq etishga ko'maklashmoqda. Ijtimoiy eksperiment obykti odamlarning ma'lum guruhi eksperimentning bevosita ishtirokchilaridan biri bo'lib, ularning manfaatlari bilan hisoblashishga to'g'ri keladi, tadqiqotchi esa o'zi o'rganayotgan vaziyatga bevosita qo'shiladi. Ijtimoiy eksperimentlar tadqiqotchidan axloqiy va yuridik norma va tamoyillarga qat'iy rioya etishni talab qiladi. Bu yerda (tibbiyotda bo'lgani singari) «ziyon yetkazma!» tamoyili muhim ahamiyatga ega. Insonning intim dunyosiga kirish quroli bo'lib xizmat qilish - ijtimoiy eksperimentlarning asosiy xususiyati.

Shakllantiruvchi eksperimentda muayyan ruhiy faoliyat qanday shakllanishini aniqlash uchun tajriba o'tkazilayotgan shaxs turli eksperimental sharoitlarga qo'yiladi va unga ma'lum masalalarni hal qilish taklif etiladi. Bunda murakkab ruhiy jarayonlarni shakllantirish va ularning tuzilishini yanada chuqurroq tadqiq qilish mumkin. Mazkur yondashuv pedagogik psixologiyada qo'llaniladi. Ijtimoiy-gumanitar fanlarda falsafiy va umumilmiy vositalar, metod va amallardan tashqari, mazkur fanlarning predmeti bilan bog'liq maxsus vositalar, metod va amallardan ham foydalaniladi. Ularning jumlasiga quyidagilar kiradi:

Ideografik metod–alohida tarixiy dalillar va hodisalarning o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflash.

Dialog «savol-javob metodi» ikki va undan ortiq kishilr orasidagi muloqot.

Tushunish va oqilona (intentsional) tushuntirish (bu haqda ushbu bobning keyingi paragrafida batafsil so'z yuritiladi).

Hujjatlarni tahlil qilish – son va sifat jihatidan tahlil qilish (kontent-analiz).

So'rovnoma usuli – maxsus tayyorlangan savollar yordamida u yoki bu masalaga oid ijtimoiy fikrni aniqlashdir (22-rasm). «Yuzma-yuz» so'rov (intervyu) yoki sirdan (so'rovnoma yordamida, pochta, telefon orqali va sh.k.) so'rov o'tkazish, ommaviy va maxsus so'rovlar farqlanadi. Maxsus so'rovlarda professional ekspertlar axborot olishning bosh manbai hisoblanadi. So'rovnomada tadqiqot



22-rasm. So'rovnoma – samarali amaliy usul

maqsadlari va faraziga muvofiq ma'lumot olish uchun zarur savollar turkumini o'z ichiga olgan anketani ishlab chiqishga alohida e'tibor beriladi.

So'rovnoma:

- a) maqsad asosli bo'lishi;*
- b) savollar tushunarli va ziddiyatli tuzilmagan bo'lishi;*
- c) respondentga (javob beruvchida) salbiy ta'sir ko'rsatmasligi lozim.*

Savollar *yopiq* yoki *ochiq* shaklda berilishi mumkin. Anketada javob variantlarining *to'liq to'plami berilgan savol yopiq savol deb ataladi*. So'rovdan o'tayotgan shaxs uning fikriga mos variantni belgilab qo'yadi, xolos. Bu holda ochiq savollardan foydalaniladi. *Ochiq savolga javob bera turib, javob berayotgan odam faqat o'z tasavvuriga tayanadi*, bunday javob nisbatan ko'proq individuallashtirilgan hisoblanadi.

Tadqiq etilayotgan hodisa, jarayon to'g'risida ishonchli ma'lumot olish uchun barcha kontingentni so'rovga jalb etish shart emas, chunki tadqiqot obyekti miqdor jihatidan juda katta bo'lishi mumkin. *Tadqiqot obyekti bir necha yuz kishidan ko'p bo'lganida tanlab so'rovnoma o'tkaziladi*. *Yozma so'rov – anketalashtirish*. Uning asosida avvaldan ishlab chiqilgan savolnoma (anketa) yotadi, respondentlarning (so'rovdan o'tayotganlar) barcha savollarga javoblari izlanayotgan empirik axborotni tashkil etishi kerak.

Proyektiv metodlar (psixologiyaga xos)–*insonning produktiv faoliyati natijalariga qarab, uning shaxsiy xususiyatlarini bilvosita o'rganish usuli*.

Testlash (psixologiya va pedagogikada)–standartlashtirilgan topshiriqlar bo'lib, ularni bajarish natijalari ayrim shaxsiy xususiyatlar (bilim, ko'nikma, xotira, zehn va sh.k.)ni o'lchash imkonini beradi. Testlarning ikki asosiy guruhi farqlanadi–intellekt testlari (mashhur Q koeffitsiyenti) va erishilgan (kasbda, sportda va h.k.) natijalar testlari. Shuningdek, testlarning *blankali, uskunali* (masalan, kompyuterda) va *amaliy* turlari farqlanadi; shuningdek *individual* va *guruhli* uslublari qo'llanadi. Testlar bilan ishlashda axloqiy jihat muhim ahamiyat

kasb etadi. Zotan, layoqatsiz yoki g'irrom tadqiqotchining qo'lida testlar jiddiy zarar keltirishi mumkin.

Biografik va avtobiografik metodlar yordamida u yoki bu kishining hayot yo'li o'rganiladi.

Sotsiometriya metodi–ijtimoiy hodisalarni o'rganishda matematika vositalaridan foydalanishdir. Undan ko'pincha «kichik guruhlar»ni va ulardagi shaxslararo munosabatlarni o'rganishda foydalaniladi.

O'yin metodlari–boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishda qo'llaniladi. Imitatsion o'yinlar (ishbilarmonlik o'yinlari) va ochiq o'yinlar (ayniqsa, nostandart) vaziyatlarni tahlil qilishda farqlanadi. O'yin metodlari orasida psixodrama va sotsiodrama alohida o'rin tutadi. Ularda ishtirokchilar muayyan individual va gruppaviy vaziyatlarni ko'rib chiqadilar.

Hozirgi zamon metodologiyasi. «Kumatoid», «case studies», «abduktsiya» tushunchalari an'anaviy metodologik tushunchalar ruhida tarbiyalangan odamga erish tuyulishi mumkin. Ammo, aynan ular metodologiyaning hozirgi rivojlanish bosqichining o'ziga xos xususiyati ilmiy muomalaga mutlaqo yangi tushunchalarni kiritish bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Mazkur tushunchalarning aksariyati muayyan (xususiy) fanlar sohasi bilan bog'liq. Bunday tushunchalar qatoriga hozirda ancha mashhur bo'lgan bifurkatsiya, «fluktuatsiya», «dissipatsiya», «attraktor» tushunchalarini, shuningdek, «kumatoid» (yunoncha–to'lqin) degan innovatsion tushunchani kiritish mumkin.

Kumatoid - *suzayotgan obyekt*ni anglatadi va *obyektlarning tizimli xususiyatini aks ettiradi. U vujudga kelishi, hosil bo'lishi, shuningdek yo'qolishi, parchalanishi mumkin. U o'zining barcha elementlarini birvarakay emas, balki o'ziga xos «hissiy-o'ta hissiy» tarzda namoyon etadi. Masalan, tizimli obyekt–o'zbek xalqini ma'lum vaqt, makon bo'lagida ifoda etish va mahalliyashtirish mumkin emas. Boshqacha qilib aytganda, obyekt*ni yaxlit ifoda etish uchun o'zbek

xalqining barcha vakillarini yig'ish mumkin emas. SHu bilan birga, mazkur obyekt soxta emas, realdir. Uni kuzatish, o'rganish mumkin. U butun sivilizatsion-tarixiy jarayonning yo'nalishini ko'p jihatdan belgilab beradi. Yana bir misol–talabalar guruhi. U dam paydo bo'ladigan, dam ko'zdan yo'qoladigan suzuvchi obyekt sifatida o'zaro aloqalarning deyarli barcha tizimlarida namoyon bo'ladi. Masalan, o'quv mashg'ulotlari tugaganidan keyin guruh yaxlit obyekt sifatida mavjud bo'lmaydi, ammo institutsiyaviy belgilangan ma'lum vaziyatlar (guruh raqami, talabalar soni, guruh tuzilishi, umumiy xususiyatlari)da u obyekt sifatida namoyon bo'ladi va o'z-o'zini identifikatsiya qiladi. Bundan tashqari, mazkur kumatoid guruh a'zolari o'rtasidagi do'stlik, raqobat va boshqa munosabatlar bilan ham qo'llab-quvvatlanadi.

Kumatoidning o'ziga xos xususiyati shundaki, u vaqt va makonda mahalliylashishga befarq bo'libgina qolmay, substrat–o'zini tashkil etuvchi materialga ham qattiq bog'lanmagan. U tizimli xususiyatlarga ega emas. Binobarin, mazkur xususiyatlar uning tarkibiy qismlariga mavjud yoki mavjud emasligiga, ayniqsa, ularning rivojlanish yo'nalishi yoxud xulq-atvor tarziga bog'liq. Kumatoidni moddiy tarzda mustahkamlangan ma'lum bir xususiyat yoki bunday xususiyatlar to'plami bilan aniq identifikatsiya qilish mumkin emas. Butun ijtimoiy hayot suzuvchi obyektlar–kumatoidlar bilan to'lib-toshgan.

«**Case studies**», ya'ni vaziyatli tadqiqotlar o'tkazish hozirgi zamon metodologiyasidagi muhim yangilikdir. Mazkur tadqiqotlarni o'tkazishda fanlararo tadqiqotlar o'tkazish metodologiyasiga tayaniladi, ammo individual subyektlarni, mahalliy gruppaviy dunyoqarashlar va vaziyatlarni o'rganish nazarda tutiladi. «*Case studies*» atamasi *pretsedentning*, ya'ni kuzatish ostida bo'lgan va tushuntirishning mavjud qonunlari doirasiga sig'maydigan individuallashtirilgan obyektning mavjudligini aks ettiradi. Vaziyatli tadqiqot metodologiyasi neokantiantlar Baden maktabining idiografik metodi bilan bog'liq.

Vaziyatli tadqiqotlarning ikki tipi: matnli va maydondagi tadqiqotlar farqlanadi. Ularning ikkalasida ham Mahalliy determinatsiya (sababiy aloqadorlik) birinchi darajali ahamiyatga ega. Mahalliy determinatsiya «ichki ijtimoiylik» tushunchasi bilan muayyanlashadi va ayni guruh yoki vaziyatga xos bo'lgan faoliyat, muloqot shakllari ta'sirida shakllanadigan bilimning noaniq shartlarining tutash tizimi deb, alohida so'zlar va harakatlarning ma'no-mazmunini belgilaydigan ijtimoiy-madaniy kontekst deb tushuniladi. Vaziyatli tadqiqotlarning ustunligi shundaki, ularda bilim tizimining mazmuni shartlarning pirovard to'plami, hayotiy vaziyatlarning muayyan va alohida shakllari nuqtai nazaridan ochib beriladi.

Hozirgi zamon metodologiyasi o'z an'anaviy metodlarining universalligi cheklanganligini tushunadi. Masalan, gipotetik-deduktiv metod ishni tayyor gipotezalardan boshlab, «dalillarni eng yaxshi tushuntirish» bosqichidan sakrab o'tganligi uchun tanqid qilinadi.

Abduksiya fikr yuritish orqali empirik dalillardan ularni tushuntiruvchi gipotezaga yuksalishni nazarda tutadi. Bunday fikr yuritish turmushda va amaliyotda ko'p uchraydi. Har bir inson tushuntirish yo'llarini izlashda beixtiyor abduksiyaga murojaat etadi. Masalan, vrach kasallik alomatlariga qarab, uning sababini, detektiv esa jinoyat izlariga qarab jinoyatchini qidiradi. Xuddi shuningdek, olim ham sodir bo'layotgan hodisani tushuntirishda abduksiya metodidan foydalanadi. Mazkur atama induksiya va deduksiya singari mashhur, keng e'tirof etilgan bo'lmasa ham, u yangi hamda samarali metodologik strategiyani ishlab chiqishda muhim rol o'ynaydi.

Evrastika. Evrastika yunoncha heurisko–topaman, kashf etaman, degan so'zdan kelib chiqqan. «Evrastika» atamasining qo'llanilishi qadimgi yunon olimi aleksandriyalik Papp (miloddan avvalgi III asr) nomi bilan bog'lanadi. Bu nuqtai nazardan evrastika matematika masalalarini yechishni o'rganishni istaganlarga

mo'ljallangan qoidalarining maxsus to'plami sifatida namoyon bo'ladi. «Mahorat sirlari» hamisha qat'iy sir tutilgan va tavsiflanmagan. Evristikani kashfiyotlar to'g'risidagi fan sifatida tavsiflash barcha zamonlarda ham juda murakkab vazifa hisoblangan. G. Leybnitsning «Kashfiyot san'ati» g'oyasi amalga oshmadi. B. Spinoza to'g'ri metod oqilona tanlashni ta'minlashi, noma'lumni bilish qoidalariga ega bo'lishi, foydasiz imkoniyatlarni chetlatish tartibini belgilashi lozimligini qayd etgan bo'lsa-da, buni asoslovchi nazariyani yaratmadi.

Muayyan ilmiy bilimdagi barcha ikkilamchi, noaniq metodologik qoidalar evristika sohasini to'ldiradi. Shuning uchun ham evristika ba'zan qayg'urish, ilhomlanish, insayt bilan bog'lanadi. Metodologik tafakkurning izchil tizimida evristikaga ko'pincha yetarli darajada anglab bo'lmaydigan, ammo izlash va topish salohiyati katta bo'lgan soha deb qaraladi. Formal mantiqiy metodlar evristik metodlarga qarama-qarshi qo'yiladi. Barcha mumkin bo'lgan hollarda evristikadan bilim mazmunini kengaytirish, ilgari ma'lum bo'lmagan yangilikni yaratish kutiladi.

Ko'pincha «evristika» tushunchasini tafakkurga bog'lab, «evristik tafakkur» tarzida qo'llaniladi. Aytish mumkinki, bunday hollarning barchasida tafakkurning yaratuvchi funksiyasi to'g'risida so'z yuritiladi. G'arb falsafasida evristik tafakkurni tushuntirishga harakat qiluvchi nazariyalarning uch turkumi farqlanadi: «tinch oqar suv» yoki o'rtacha hisobga keltirilgan mehnat nazariyasi; blitskrig yoki insayt nazariyasi; yaxshi qopqon yoki oqilona metodologik qoida nazariyasi.

Evrastika metodologiyaning bo'limi sifatida hali rasman e'tirof etilgani yo'q. Ammo, o'z-o'zidan ayonki, ilmiy bilimning har bir sohasida u eng tez, samarali va o'ziga xos yechim topishning strategiyasi hisoblanadi, evristik usul va qoidalar noan'anaviy yo'llarni izlash, ulardan foydalanishga turtki beradi. Evristika fanlararo xususiyatga egaligi mazkur sohaning o'ziga xos belgisidir. Ammo evristik xususiyat fan ichidagi bilimda ham mavjud. Evristik sezgi ilmiy

izlanishning deyarli har bir qadamiga hamroh bo'ladi. Reduktsiya, metodlarini o'zlashtirish, gumanitar va texnika fanlarining usullarini birlashtirish, muayyan ilmiy ishlovlarni amalga tatbiq etishni tanlash, hal qiluvchi eksperimentning o'zi ma'lum darajada evristik farazlarga asoslanadi. Evristika ilmiy va noilmiy bilim, oqilonalik va nooqilonalik o'rtasida bog'lovchi bo'g'in bo'lib xizmat qiladi. U xulq-atvor taktikasini tanlashga va rivojlanish jarayonida to'g'ri yo'l topishga ko'maklashadi. Ilmiy tavakkalchilik mezoni sifatida evristika ilmiy bilimni rivojlantirishning tarkibiy qismi sifatida hamisha olqishlangan, dunyoning postnoklassik manzarasida esa nazariyaning evristik xususiyati bilim berish jarayonini o'zgartirish, uni ijodiy, muammoli, o'yin tarzida o'tkazish imkonini beradigan ilmiy bilim mezoni darajasiga ko'tarildi.

Evrastika sirlariga yaqinlashishga bo'lgan eng so'nggi urinishlardan A.F.Osbornning «miyaga hujumi»ni qayd etish mumkin. Unda kashfiyotchilikning o'rindoshlik, o'tkazish, birlashtirish va ajratish bilan bog'liq an'anaviy usullari bilan bir qatorda, xayolni rag'batlantiruvchi usullar: tig'iz muddatlar tizimi, muammoni tanqidsiz vaziyatda erkin muhokama qilish, tortishuvlik muhitini yaratish, shuningdek hazil taxminlar qilish qayd etiladi. Ammo, evristika yo'nalishining vakili D. Poyya ilgari surgan ijodning (yoki muammolarni samarali hal qilishning) muqarrar tarzda amal qiladigan qoidalarini ishlab chiqish amalga oshirib bo'lmaydigan vazifa, degan g'oyasi yanada an'anaviyroq hisoblanadi.

Darhaqiqat, evristika o'ziga xos metodologiya, ya'ni ijodiy faoliyat metodlarining majmui sifatida ma'lum talablar qo'yadi:

- u oddiy tanlash usullariga emas, balki muammoni hal qilish vaqtini qisqartirish imkonini beradigan usullarga tayanadi;
- qo'llaniluvchi usullar an'anaviy qabul qilingan va eskirgan usullardan jiddiy farq qilishi mumkin;

- usullardan foydalanishga tadqiqot ko'rsatkichlariga qo'yiladigan tashqi cheklashlar qarshilik ko'rsatadi;
- izlanish modellari jiddiy darajada individuallashtirilgan bo'lib, bilish subyekting ruhiy faoliyati bilan chambarchas bog'liq.

Metodologik tamoyillar. Metodologik tamoyillar yangini bilishga aniq yo'l ko'rsatib bera olmaydi. Bu nuqtai nazardan ular ancha mavhumdir. Ammo, evristik ta'limotlardan farqli o'laroq, metodologik tamoyillarni aniq, izchil shaklda ta'riflab berish mumkin. Bilishning mazkur yondashuvlari tamoyillar tarzida ta'riflangunga qadar ham qadim-qadimlardan qo'llanilib kelingan, ammo ularni refleksiya qilish, muayyanlashtirish, ularning amal qilish sohalarini mufassal tahlil qilish asosan XX asr metodologiyasida amalga oshirildi.

Har bir tamoyil yuzasidan shu qadar ko'p adabiyotlar borki, ularni bir yerga to'plasa, tog' hosil bo'ladi. Ammo ularni o'qish mazkur tamoyillarning muxtasar tavsifiga taqqoslaganda tadqiqotchiga juda kam metodologik ma'lumotni beradi. Mufassal tadqiqotlar professional metodologlarga o'z qarashlarini muayyanlashtirish va himoya qilishlari uchun foydalidir.

***Muvofiqlik tamoyili.** Ilmiy bilishning mazkur sohasidagi bilimlarni yangi tamoyillar (g'oyalar, konsepsiyalar, nazariyalar) asosida tizimga solish bu sohadagi «eski» bilimni ushbu tizimning unsuri sifatida (xususiy hodisa, eng so'nggi hodisa sifatida va sh.k.) o'z ichiga olishi lozim. Masalan, relyativistik mexanika jismlar past tezlikda harakatlanganida Nyutonning klassik mexanikasiga o'tadi.*

Ilmiy bilish metodologiyasida muvofiqlik tamoyilining shakllanishi odatda N. Bor nomi bilan bog'lanadi. Vaholanki, muvofiqlik tamoyili g'oyalari turli shakllarda undan oldin ham ilgari surilgan. Adabiyotlarda, jumladan, shunday deb ko'rsatiladi: «Nilʼs Bor 1913 yilda mashhur «muvofiqlik tamoyili»ni ta'riflab berdi. Mazkur tamoyil nurlanishning klassik nazariyasi bilan kvant nazariyasi

o'rtasida qonuniy munosabat o'rnatdi. U atom nazariyasining rivojlanishida shu qadar muhim rol o'ynadiki, A. Zommerfeld N. Borning «muvofiqlik tamoyili»ni «sehrli tayoqcha» deb ta'rifladi»⁷. Ammo o'tgan asrga nazar tashlaydigan bo'lsak, shunga o'xshash g'oyalarni Butlerovda ham uchratishimiz mumkin. U, jumladan, shunday deb yozadi: «Kimyoviy energiya va atomlar harakatining tabiatini tushunib yetsak, mexanika qonunlari bu yerda ham amal qila boshlasa, kimyoviy tuzilish haqidagi ta'limot kimyoning eski nazariyalari singari o'z ahamiyatini yo'qotadi. Ammo u faqat yo'qolish uchun emas, balki o'zgargan shaklda yangi, yanada keng qarashlardan o'rin olish uchun o'z ahamiyatini yo'qotadi»⁸.

Mazkur tamoyil aksariyat hollarda ilmiy va noilmiy bilimni farqlashga ko'maklashadi.

To'ldiruvchanlik tamoyili. Tadqiqotning ko'pgina obyektlari (mikrodunyoning elementar zarralarga o'xshash eng oddiy obyektlaridan tortib to inson va jamiyat singari murakkab obyektlargacha) har xil, hatto qarama-qarshi bilimlar (nazariyalar, konsepsiyalar, yondashuvlar)ni birlashtirish asosida nisbatan to'la tavsiflanadi. Fizikadagi korpuskulyar-to'lqinli dualizm yoki ruh va tana haqidagi ta'limot (din), haqiqatning ikkiyoqlamaliligi haqidagi ta'limot (Ibn Rushd), insonni tavsiflashda moddiy va ruhiy substantsiyalar (Dekart), lingvistika va kulturologiyada sinxronik va diaxronik yondashuvlar, fan metodologiyasi va tarixida internalistik va eksternalistik yondashuvlar shular jumlasidandir. Ko'rinib turganidek, ayni bir obyekt to'g'risidagi turli bilimlarning to'ldiruvchanligi g'oyasi qadimdan ma'lum. «To'ldiruvchanlik tamoyili»ni aniq shaklda ta'riflash esa yana N. Bor nomi bilan bog'lanadi: «Klassik fizikaning juftdosh tushunchalarini yanada yaxshiroq tushunish uchun Nil's Bor «to'ldiruvchanlik» tushunchasini ilmiy muomalaga kiritdi. U zarra manzarasiga va to'lqin manzarasiga ayni bir

⁷ Антонов А.Н. Преемственность и возникновение нового знания в науке. М., Изд-во МГУ. 1985. -С 171.

⁸ Бултеров А.М. Сочинения. М., 1953. Т.1.-С 640.

voqelikning bir-birini to'ldiruvchi tavsiflari deb qaradi. Ularning har biri faqat qisman haqiqiy bo'lib, qo'llanilishi cheklangandir»⁹.

Ilmiy nazariyalarni profileratsiya qilish tamoyili (yoki P. Feyerabendning ilmiy bilishning anarxistik nazariyasi). Nazariy g'oyalarning soni va rang-barangligi bilan obyektни mukammal bilish imkoniyati ortib borishini nazarda tutadigan mazkur tamoyilni «kvadratga ko'paytirilgan to'ldiruvchanlik tamoyili» deb nomlash mumkin. Mazkur tamoyil absurd darajasiga yetkazilgan to'ldiruvchanlik tamoyilga o'xshab ketsa-da, murakkab obyektlarni bilishda (masalan, «Inson va barcha mavjud yondashuvlar, nazariyalar, yo'nalishlar, maktablar, ta'limotlar» muammosini oladigan bo'lsak) o'zining layoqatliligini ko'rsatadi.

Verifikatsiya tamoyili – mohiyat-e'tibori bilan formal mantiqni yetarli asoslash tamoyilining o'xshashi. Uning asosiy mazmuni juda sodda–ilmiy bilim tizimiga kiritiladigan qoidalar asoslangan bo'lishi kerak. Ammo haqiqiy yoki asoslangan ilmiy bilimning umum e'tirof etilgan mezonlarini tanlash muammosi haqida bunday deyish mushkul. Afsuski, bu yerda olimlar o'rtasida yakdillik yo'q. Mantiqiy pozitivizm da har qanday bilimni eng sodda atomar empirik mulohazalar, qaydlarga bog'lash orqali empirik asoslash imkoniyati mana shunday mezon bo'lib xizmat qiladi.

Falsifikatsiya tamoyili–mazkur tamoyilga binoan, faqat inkor etish orqali tekshirib ko'rish imkoniyati mavjud bo'lgan bilim gina ilmiy bilim bo'lishi mumkin. An'anaviy ilmiy bilimni soxta, mistik, ezoterik va boshqa shunga o'xshagan ta'limotlardan ajratishda falsifikatsiya tamoyili ayniqsa katta samara beradi. Masalan, kimdir osmonda illyuminatorlaridan o'zga sayyoraliklar qarab ketayotgan uchar likopni ko'rdim deb aytsa, mazkur bilimni ilmiy nuqtai nazardan

⁹ Капра Ф. Дао физики. СПб. «Орис», -С 304.

ko'rib chiqish uchun uning yolg'onligi yoki haqiqiylikini tanqidiy tekshirish imkoniyati (guvohlar, fotosurat, qayd etilgan radiosignallar va sh.k.) bo'lishi kerak.

Mazkur tamoyilni K. Popper ta'riflab bergan. Ammo uning asosiy g'oyasi ozmi, ko'pmi aniq darajada ilgari ham tadqiq qilingan edi. Masalan, F. Nitshe «Yaxshilik va yomonlikning narigi tomonida» asarida: «Nazariyani inkor etish mumkin emasligi uning eng muhim jihatlaridan biridir. Aynan mana shu jihati bilan u eng nafis aql egalarini o'ziga tortadi»¹⁰, deb yozadi.

Reduktsiya tamoyili—ma'lum yaxlitlik, tizim, «murakkablik»ni uning nisbatan sodda tarkibiy qismlari, unsurlari orqali bilishdir. Boshqacha qilib aytganda, reduktsiya tamoyili—tadqiq qilinayotgan obyektlar (yaxlitliklar, tizimlar)ning ma'lum integral xossalarini mazkur obyektlarning tarkibiy qismlari orqali bilish. Bu tamoyil jonli va jonsiz tabiatning ma'lum obyektlarini, ijtimoiy tizimlarni, ijtimoiy-tabiiy tizimlarni ilmiy bilishga ko'proq xos. Masalan, atomning ba'zi bir xossalarini uning yadrosi va elektronlarining xossalaridan, tirik hujayraning xossalarini uning tarkibidagi organoidlardan, jamiyatning xossalarini uni tashkil etgan ijtimoiy tabaqalar, iqtisodiyot, jug'rofiy-siyosiy holatning xossalaridan keltirib chiqarish mumkin va h.k.

Yaxlitlik tamoyili — tadqiq qilinayotgan obyektlarning alohida yaxlit xossalarini boshqa obyektlar (yaxlitliklar va sh.k.) bilan o'zaro aloqada bilish. Sodda qilib aytganda, butun narsa uning tarkibiy qismlari yig'indisidan katta. Aniqrog'i, har qanday tizim, yaxlitlikda tarkibiy qismlar, unsurlarning jami xossalariga bog'lab (reduktsiyalab) bo'lmaydigan xossalar bo'ladi. Masalan, molekulalarning xossalari ularning tarkibidagi atomlarning xossalari bilangina cheklanmaydi; tirik hujayralarning xossalari ularning tarkibidagi molekulalar va organoidlarning xossalari bilangina cheklanmaydi; populyatsiyalarning xossalari o'z tarkibiga kiruvchi mavjudotlarning xossalari bilangina cheklanmaydi; til

¹⁰ Ницше Ф. По ту сторону добра и зла // Ницше Ф. Сочинение в 2-т. М.: Мысль. 1990. -С 58.

xossalari uni tashkil etuvchi leksik birliklar, grammatika qoidalari, semiotik tafsilotlarning xossalari bilangina cheklanmaydi.

Kontrreduksiya tamoyilida oliy immanent «metayaxlit» xossalarning mavjudligi va mazkur tizim yaxlitligini yanada yuksak darajada uyushgan tizimning tarkibiy qismi, unsuri sifatida gnoseologik nuqtai nazardan tadqiq qilish mumkinligini e'tirof etiladi. Bu yerda aynan immanent, ya'ni mazkur yaxlitlikka avvaldan xos bo'lgan xossalar to'g'risida so'z yuritilayotganligi maxsus qayd etiladi. Kontrreduksiya tamoyili elementar zarralardan tortib to ijtimoiy-tabiiy tizimlargacha bo'lgan barcha tabiiy obyektlarga, shu jumladan, tabiiy tilga nisbatan amal qiladi.

Xullas, kontrreduksiya tamoyili deganda obyekt (yaxlitlik, tizim)larni nisbatan yuksak darajada uyushgan tizimlarning tarkibiy qismlari sifatida, shu jumladan, tadrijiy rivojlanayotgan tabiiy tizimlarning tarkibiy qismlari sifatida tadqiq qilish jarayonida mazkur obyektlarning «metayaxlit» xossalarini bilish tushuniladi. Tadqiq qilinayotgan obyektlarga nisbatan kontrreduksiya tamoyilini qo'llash natijasida aniqlangan immanent «metayaxlit» xossalarni oliy narsalar va kelajak haqidagi immanent «xotira» deb nomlash ham mumkin.

Kontrreduksiya tamoyili «butunning xossalari uning tarkibiy qismlari xossalarining yig'indisidan katta», degan ma'lum qoidaga asoslanibgina qolmasdan, tabiiy tuzilmalar (yaxlitliklar)ning oliy (metayaxlit) xossalarini ajratadi. Muayyan obyektning aniqlangan yaxlit xossalari, agar ular tarkibiy qismlarning xossalariga bog'liq bo'lmasa, «metayaxlit xossalar» bo'lmasligi mumkin.

Sistemali yondashuv – umumilmiy bilimning tarmoqlangan sohasi bo'lib, uning predmetiga reduksiya, yaxlitlik va kontrreduksiyaning metodologik muammolari ham kiradi. Bu o'rinda shuni qayd etib o'tish kerakki, reduksiya, yaxlitlik va kontrreduksiya tamoyillari ayni bir obyektни har xil darajada ko'rish

imkonini beradi. Bunda aniqlangan xossalarga, agar obyekt rivojlanayotgan Olamning yagona tizimiga qo'shilgan yaxlitlik sifatida to'liq tavsiflangan bo'lsa, to'ldiruvchanlik tamoyili nuqtai nazaridan qarash lozim.

Modellashtirish tamoyili va o'xshatish metodi – obyektlarning ba'zi bir xossalari ularga o'xshagan moddiy yoki nomoddiy (kontseptual tushunchaga asoslangan, mantiqiy-matematik) konstruksiyalarni tadqiq qilish orqali bilish mumkinligiga asoslanadi. Mohiyat-e'tibori bilan bu qiyosiy bilish yo'lidir. «Qiyoslash», «o'xshatish», «model» tushunchalari metodologik nuqtai nazardan ko'p jihatdan o'xshashdir. Shu munosabat bilan modellashtirish (qiyosiy bilish) tamoyilini tushunishni yengillashtirish uchun I.Kantning quyidagi so'zlarini keltirish o'rinli bo'ladi: «Qiyosiy bilish ikki narsaning nomukammal o'xshashligini emas, balki ikki mutlaqo o'xshash bo'lmagan narsalar o'rtasidagi ikki munosabatning mutlaq o'xshashligini anglatadi»¹¹.

Mantiqdan ma'lumki, qiyosiy dalillar eng kuchsiz dalillardan biridir. Shuningdek muvofiq modelni yoki tadqiq qilinayotgan obyektga muvofiq keladigan o'xshash obyektning tanlash muammolari ham mavjud. Bunday muammolarni, jumladan, yangi ilmiy bilimning shakllanish tarixidagi quyidagi epizodlar bilan tushuntirish mumkin: «Kimyoviy birikmalarning tarkibi yuzasidan Prust bilan Bertolle o'rtasidagi bahs fan tarixida noto'g'ri qiyosiy xulosalar chiqarish zaminida tug'ilgan munozaralarga yorqin misol bo'ladi. Prust karrali og'irlik nisbatlarining aniq namoyon bo'lishi holatlarini umumlashtirib, kimyoviy birikmalar tarkibining ma'lumligi to'g'risida xulosa chiqardi. Bunda u tarkibining ma'lumligi deyarli sezilmaydigan nisbatan murakkab kimyoviy birikmalarga tayandi. Bertolle esa tarkibning noma'lumligi g'oyasini himoya qildi. Ularning har biri o'z sohasida o'zicha haq edi. Ammo bahs ikki olim bir-birining sohasiga aralashishi natijasida tug'ildi. Prust o'sha davrda (XIX asrning dastlabki o'n

¹¹ Кант И. Пролегомены ко всякой будущей метафизики, могущей возникнуть в смысле науки. М.: 1993. -С 210.

yilliklarida) kuchayib borayotgan nisbatan umumiy atomistik ta'limotga tayanganligi uchun mazkur bahsda yutib chiqdi. XX asrning boshida, issiqlik nurlanishi nazariyasidagi to'liq va korpuskulyar manzaralarning qarama-qarshiligi esa mutlaqo teskari xotima topdi. Bunga ham nisbatan umumiy konseptsiya–materiyaning korpuskulyar-to'liq dualizmi konseptsiyasi mavjudligi sabab bo'ldi»¹².

Paradigmalarni yengish qoidasi - ilmiy hamjamiyatda yuzaga kelgan paradigmalar (namunalar, andozalar, stereotip, sxema, dogma, talqin va fikrlash uslublari)ni yengish qoidasi–ilmiy bilish faoliyatini mutlaqo yangini kashf etish yo'liga solishning hamda shakllangan konseptsiyalar negizida yaratilgan yangi g'oyani qabul qilishning muhim omili.

Tafakkurning turg'unligi hamda ilmiy hamjamiyatda yuzaga kelgan «paradigmalar» munosabati bilan barcha yangi g'oyalarni inkor etish muammolari T. Kunning «Ilmiy inqiloblar tuzilishi» asarida mufassal ko'rib chiqilgan.

***Tarixiylik tamoyili** – obyektни kelib chiqishi va rivojlanishiga bog'lab, uni mufassal o'rganish mumkin.*

***Mavhumlashtirish, ideallashtirish va formallashtirish metodlari** –ilmiy tadqiqot jarayonida real obyektlarni eng muhim xossalari cheklangan obyektlar shaklida (mavhumlashtirish) ifoda etish, shuningdek ularning aniq belgilangan xossalari («ideal gaz», «moddiy nuqta», «mutlaqo qora jism»)ga tayanib, xayoliy obrazlarini yaratish qulaydir. Mazkur obyektlarning xossalarini va ularni o'z ramz, belgilari shaklida ifodalash, ya'ni formallashtirish juda oson. Bu ularning xayoliy obrazlari va matematik timsollarini boshqarish (matematik formalizmdan foydalanish)ni ancha yengillashtiradi.*

Metodologik tamoyillar va yondashuvlarning tabiati har xildir. Masalan, reduksiya, yaxlitlik, kontrreduksiya tamoyillari tadqiqotning tabiiy obyektlari

¹² Вьяльцев А.Н. Открытие элементарных частиц. М.: 1984. -С 272.

tabiatini: verifikatsiya, falsifikatsiya tamoyili, mantiq qonunlari esa bilish va fikrlash faoliyatining shakllarini: to'ldiruvchanlik, tarixiylik tamoyillari va sistemali yondashuv esa tadqiqot obyektlari hamda bilish va fikrlash faoliyatining xossalari ifoda etadi.

Metodologik tamoyillar ro'yxati ochiq xususiyatga ega bo'lib, ko'payishda davom etmoqda. So'nggi davrda tez-tez tilga olinayotgan «antrop tamoyili»da tabiatni ilmiy bilish metodologiyasi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan narsani ko'rmadik. Uni maxsus ajratish, balki, qadimiyatga borib taqaluvchi turli antropotsentrik ta'limotlarni birlashtirish uchun foydali bo'lishi mumkin. Antrop tamoyilning asosiy g'oyasi, mohiyat-e'tibori bilan, Olamda mavjud bo'lgan barcha obyektlar o'z mavjudligi bilan ana shu Olamda mavjud bo'lgan boshqa obyektlarga zid kelmasligi kerak, degan siyqasi chiqqan qarashga asoslanadi. Bu nuqtai nazardan *antrop tamoyili o'rniga, aytaylik, «elektron tamoyili» yoki «timsoh tamoyili» to'g'risida ham so'z yuritish mumkin.*

Normativ metodologiya, aniq ta'riflangan tamoyillardan tashqari, «yarim normativ» shaklda, ayni paytda «yarim deskriptiv» shaklda ilmiy bilishning ideallari va normalari, fanlarning o'zaro ta'siri, ilmiy nazariyalarning shakllanishi va asoslanishi haqidagi ta'limotlarda, eksperimental faoliyat tamoyillarida, bilimlarni birlashtirish va sintez qilish muammolarida, ilmiy bilishning imkoniyatlari va chegaralari, ilmiy bilishning tilida ham bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, maxsus metodologiyaning o'ziga xos xususiyatlari alohida fan sohalari: matematika, fizika, kimyo, biologiya, texnika va texnologiya, evolyutsiya jarayonlari, ekologiya va hokazolarning muayyan tarzda ishlab chiqilgan metodologiyalarida o'z aksini topadi.

Ilmiy bilish tizimida metodologiyaning tutgan o'rni, vazifalari haqida bildirilgan fikrlarga shuni qo'shimcha qilish kerakki, metodologiyaning operatsional-amaliy ahamiyatidan tashqari, uning inson aqliy va bilish

faoliyatining ayrim mexanizmlarini ochib beruvchi bilim tizimi sifatidagi ahamiyati to'g'risida so'z yuritish mumkin. Zotan, bu inson o'z-o'zini anglashi uchun ham, «sun'iy intellekt» tizimlarini yaratish uchun ham muhimdir. Bundan tashqari, har qanday ilmiy bilish faoliyati doimo muayyan metodga va u haqdagi qarashlarga (ya'ni ma'lum protometodologiyaga yoki aniq bo'lmagan metodologiyaga) asoslanishini ham tushunish kerak. Ammo barcha tadqiqotchilar ham metodologiya muammolarini maxsus o'rganavermaydi va ishlab chiqavermaydi. Bu metodologiya har qanday ilmiy bilish faoliyatining ajralmas qismi ekanligini tushunib yetish uchun muhimdir.

Tabiiy obyektlar xossalari to'rt turi – barcha tabiiy obyektlarga xos bo'lgan xossalarning turlarini aniqlash fan metodologiyasining muhim vazifasidir. Tabiiy obyektlar, deganda kelib chiqishi insonning ongli ijodi bilan bog'liq bo'lmagan har qanday yaxlit obyektlar: atomlar, molekulalar, tirik organizmlar, tabiiy til, jamiyat va shu kabilar tushuniladi. Turli sohadagi ilmiy bilimlarning katta hajmini va muayyan fanlardagi shaxsiy ish tajribasini anglab yetish natijasida har qanday tabiiy obyektga xos bo'lgan turli-tuman xossalarning to'rt turini ajratdik.

***Subyektiv yaxlit xossalar** - ontologik maqomi immanent, noemerjentdir. Epistemologik maqomi–tarkibiy qismlarining xossalari nisbatan reduktsiyalanadi, boshqacha qilib aytganda, butunning xossalari belgilashi mumkin bo'lgan qismlarning xossalari.*

Subyektiv yaxlit xossalarga misollar: og'irlik, jismlarning elektr zaryadi, gapning so'z (birikma)lar ma'nosi bilan bevosita bog'liq bo'lgan qisman ma'nosi. Bilish usuli: reduktsiya tamoyili.

***Yaxlit xossalar** – ontologik maqomi immanent, emerjentdir.*

Epistemologik maqomi tarkibiy qismlarining xossalari nisbatan reduktsiyalanmaydi, ya'ni qismlarining xossalari bog'lash mumkin emas.

Mazkur xossalarga butunning tabiatdagi boshqa obyektlar–yaxlitliklar bilan o'zaro munosabatlarida individ sifatidagi maqomini belgilaydi.

Yaxlit xossalarga misollar: boshqa organizmlar bilan o'zaro munosabatlarda va atrof muhit bilan nomuvoziy holatda tirik organizmlarning yaxlit mavjud bo'lish qobiliyati, tabiiy tilda gaplarning aynan yaxlit ma'nosi, xalq, millat, etnos psixikasi.

Bilish usuli: yaxlitlik tamoyili (xolistik yondashuv).

Metayaxlit xossalarga – ontologik maqomi immanent, emerjentdir.

Epistemologik maqomi–tarkibiy qismlarining xossalari nisbatan reduksiyanmaydi, boshqacha qilib aytganda, mazkur butun nisbatan yuqori darajada uyushgan tizimda faoliyat ko'rsatganida tabiiy tuzilmalar (tizimlar, yaxlitliklar)ning ierarxik bog'langanligida namoyon bo'ladigan butunning oliy immanent potentsial xossalari.

Metayaxlit xossalarga misollar: molekulalarning o'z-o'zini tashkil etishi, DNKning axborot-tartibga solish xossalari, idiomatik iboralar, maqollar va matallarning alohida ma'nosi.

Bilish usuli: kontrreduksiya tamoyili.

Ad-hoc yaxlit xossalarga – ontologik maqomi noimmanent, emerjentdir.

Epistemologik maqomi–o'z tarkibiga kiruvchi yaxlitliklarning xossalari nisbatan reduksiyanadi (murakkabga nisbatan reduksiyanadi).

Misollar: tirik hujayraning murakkab tizimlaridagi sodda noorganik moddalarning biokimyoviy (alohida holda mazkur moddalarga xos bo'lmagan) funksiyalari; so'zlar, gaplarning mazkur semantik birliklarga o'z holicha, kontekstdan tashqarida xos bo'lmagan katta kontekstdagi ma'nosi.

Bilish usuli: Ad-hoc yaxlit yondashuv (ba'zan mazkur yondashuv «yaxlit yondashuv» tushunchasiga kiritiladi).

Yuqorida zikr etilgan xossalar to'rt turining xususiyatlarini moddiy va ideal tabiatning yaxlit obyektlari misolida tushuntirib o'tamiz.

Ad-hoc yaxlit xossalar masalasi misollar bilan maxsus tushuntirish va asoslashga muhtoj emas, chunki mazkur xossalar bilish obyektining mohiyatini tashkil etmaydi—ular unga noimmanent. Mazkur xossalar ayni obyektga kattaroq yaxlitlik (tizim)ning ta'sir ko'rsatishi natijasi. Aytish mumkinki, bu xossalar kattaroq yaxlitlikning «kuchi»ga nisbatan obyektning «murosaga kelgan»ligi ifodasidir.

Oliy darajada uyushgan molekulyar tuzilmalar—fermentlar, DNK, RNK singari biopolimerlarning jami xossalarini tadqiq qilish bilan bog'liq fizik-kimyoviy, biologiya sohasi yuqorida zikr etilgan xossalarning o'ziga xos xususiyatlarini yaqqol namoyon etadi. Misol uchun, DNK molekulasi xos bo'lgan jami xossalarni bilish muammolarini olaylik. DNK molekulasi uning tarkibidagi alohida atomlarning xossalari, alohida kimyoviy va kuchsiz (bu yerda fizik) aloqalarning, funktsional guruhlarning, elektr zaryadlarning, alohida fragmentlarning va hokazolarning tabiati orqali, ya'ni reduksiya metodi yordamida tadqiq qilish mumkin.

Shu bilan bir qatorda, DNK molekulasi yaxlit tuzilma sifatidagi xossalarini, uning tarkibiy qismlari xossalariga to'la bog'liq bo'lmagan xossalarini, ma'lum turkumga mansub moddalar bilan o'zaro kimyoviy ta'sirga kirishish, tegishli muhitlarda ma'lum sedimentatsion va reologik xususiyatlarga ega bo'lish qobiliyatini ham tadqiq qilish mumkin. Ammo, reduksiya metodi va yaxlit yondashuv asosida, ya'ni DNK molekulasi yaxlit molekula hamda elementlar to'plamidan iborat molekula deb qarab, unga xos bo'lgan barcha xossalarni bilish mumkin emasligini aniqlash qiyin emas. DNK molekulasi element sifatida tadqiq qilib, nisbatan yuqori darajada uyushgan tizimga kirgan taqdirimizdagina unga xos bo'lgan oliy «metayaxlit xossalar»ni ochib berishimiz mumkin. DNK molekulasi

uchun bunday yuqori darajada uyushgan tizim bo'lib, tirik hujayra metabolizmining o'zaro bog'langan va tartibga solinuvchi jarayonlari tizimi xizmat qiladi.

Shuni qayd etib o'tish kerakki, bu yerda DNKning immanent oliy, ya'ni «metayaxlit» xossalari to'g'risida so'z yuritilmoqda. Bu tirik organizmlarning molekulyar tarkibiy unsurlari haqidagi ilmiy bilimlarning rivojlanish tarixidan yaxshi ma'lum.

Darhaqiqat, XIX asrda tirik organizmlardan nuklein kislotalar va oqsilli jismlar ajratib olinib, turli-tuman kimyoviy eksperimental vaziyatlarda kimyoviy obyektlar sifatida tadqiq qilindi. Natijada, XX asrning o'rtalariga kelib ularning makromolekulalar sifatidagi tuzilishi va asosiy fizik-kimyoviy xossalari kashf etildi, ammo ularning oliy axborot va tartibga solish xossalari mazkur molekulyar (kimyoviy) obyektlarning tirik hujayradagi faoliyatini tadqiq qilish natijasidagina ochib berildi. Boshqacha qilib aytganda, faqat yuqorida zikr etilgan holatdagina biz genetik axborot tashuvchisi bo'lgan DNK molekulasida zohir xossalarni topish va nukleoidlarning ketma-ketligi ma'lum tabiatga ega guruhlar (azotli asoslar)ning tasodifiy to'plami emas, balki genetik kod ekanligini aniqlash imkoniyatiga ega bo'lamiz. Aynan shu yerda biz «kontrreduksiya tamoyili» deb nomlangan o'ziga xos bilish usuli yordamida DNKning oliy, «metayaxlit» xossalarini bilish imkoniyatini qo'lga kiritamiz. (Mazkur xossalar faqat tizimdagi muayyan ta'sirlar natijasida yuzaga kelmaydi, ular mazkur obyektga xosdir.)

Bu yerda kontrreduksiya tamoyili obyekt muqarrar tarzda o'zgarishi, takomillashishi va shu kabilar natijasida muayyan tizim tarkibiga kirganida qo'shimcha tarzda paydo bo'ladigan xossalarnigina emas, balki obyektga immanent bo'lgan bir qancha muhim xossalarni ham bilish imkonini beradi. Masalan, DNKning aminokislota ketma-ketligi qayd etilgan matritsa sifatidagi xossalarini aniqlab, shundan so'ng alohida ajratilgan DNK bilan ishlash va genetik

kodga qarab muayyan oqsillarning tegishli aminokislota ketma-ketliklarini aniqlashimiz yoki aksincha, alohida ajratilgan oqsillarning aminokislota ketma-ketliklariga qarab DNKdagi nukleoidlarning ketma-ketligini aniqlashimiz mumkin. Buning ustiga, DNK, RNK molekulalarining axborot va tartibga solish xossalari, tirik hujayra tizimlaridagi metokontreduksiyaga asosan aniqlangan fermentlarning biokatalitik hamda tartibga solish xossalari moddiy tarkibiga ko'ra ham, tashkil etilishiga ko'ra ham nativ («jonli») tizimlardan farq qiladigan sun'iy tizimlarda ro'yobga chiqarilishi mumkin.

Kontreduksiya tamoyilini tabiatshunoslik sohasida amalda qo'llash obyektlarning oliy xossalarini faqat statistik moddiy tizimlar yoki aktsiyalashtirish vaqti cheklangan tizimlar (masalan, sun'iy tashkil etilgan kimyoviy jarayonlar yoki alohida muayyan organizmlardagi jarayonlar)dagi obyektlarning oliy xossalarini tadqiq qilish bilangina cheklanmaydi. Metodning imkoniyatlari ancha keng, chunki kontreduksiya metodiga nisbatan uning yuqori darajada uyushgan tizimi, deganda zamon va makondagi har qanday, shu jumladan tadrijiy rivojlanayotgan tabiiy tizimni tushunish lozim. Zamon va makondagi tizim (yoki xususiy holatda makondagi temporal tizim)ni deganda biz zamonda ma'lum darajada o'zgaruvchi (noorganik, organik, ijtimoiy) tushunamiz. Biz uni ma'lum invariant belgilariga qarab, yaxlitlik hamda tadqiqotning ma'lum obyekti sifatida ajratamiz. SHunga o'xshash har qaysi tizim uchun elementar vaqt bo'lagi, ya'ni tizimida ko'rilayotgan o'zgarishlar ahamiyatsiz bo'lgan eng katta vaqt oralig'i tushunchasini muomalaga kiritish lozim. Mazkur vaqt bo'laklarining miqdori kosmologiya uchun ming va undan ortiq yillar, geologiya uchun o'nlab va yuzlab yillar, mikrobiologiya uchun bir-ikki generatsiya davri (taxminan minutlar) bilan, kimyoviy genetika uchun sekundning ulushlaridan soatlargacha, jamiyat va madaniyat tarixi uchun esa o'nlab va yuzlab yillar bilan o'lchanadi.

Zamon va makondagi tizimlarda tadqiq qilinayotgan obyektning noma'lum oliy xossalari tizimda, nafaqat dolzarb moddiy, balki muvaqqat, tarixiy sabab va oqibat aloqalarining mavjudligi tufayli ham namoyon bo'ladi. Kimyoviy evolyutsiya haqidagi ta'limot, molekulyar tuzilmalarning o'z-o'zini tashkil etish, tabiiy-tarixiy sharoitlarda tuzilish va sifat jihatidan murakkablashish qobiliyati haqidagi ta'limot yuqorida aytilgan tizimlarda kontrreduksiya metodining obyektiv asoslari va imkoniyatlarini ochib beruvchi o'ziga xos misol bo'lib xizmat qiladi.

Molekulalarning muhim xossasi o'z-o'zini tashkil etish qobiliyati va kimyoviy evolyutsiyani faqat kontrdeduksiya yordamida aniqlash mumkin bo'ldi. Darhaqiqat, biologiyada XIX asrda vujudga kelgan evolyutsion ta'limot tirik organizmlarning tadrijiy rivojlanishini retrospektiv tarzda ko'rib chiqishda faqat eng sodda bir hujayralilar va ularning molekulyar (subyektiv hujayrali) tarkibiy qismlaridan kelib chiqishi mumkin edi. Mazkur holat kosmologiyada rivojlanayotgan noorganik materiya darajasida tabiatning dastlabki evolyutsiyasi g'oyasi bilan birga ilk biologik, ya'ni kimyoviy evolyutsiya muammosining qo'yilishiga olib kelardi. Muhimi shundaki, ilmiy bilimning tarixiy-mantiqiy rivojlanishida dastlab kimyoviy evolyutsiya muammosi qo'yildi, faqat shundan keyin o'z-o'zini tashkil etuvchi kimyoviy tizimlarni muayyan model asosida tadqiq qilishga kirishildi. Xullas, molekulalarning oliy xossasi o'z-o'zini tashkil etish qobiliyatini aniqlash kontrreduksiya–molekulalarni tadrijiy rivojlanuvchi tabiiy-tarixiy tizimda ko'rib chiqish natijasi bo'ldi.

Shunday qilib, ilmiy bilishda turli darajalarda, faoliyat sohalarida va yo'nalishlarda turli-tuman metodlarning murakkab, dinamik va muvofiqlashtirilgan tizimi faoliyat ko'rsatadi. Mazkur metodlar har doim tadqiqotning muayyan shartlari va predmetidan kelib chiqib amalga oshiriladi.

Xulosalar. Metodologiya muayyan bir, hatto, «eng muhim metod»ga ham bog'liq bo'lmaydi. «Olim hech qachon faqat bitta ta'limotga tayanib qolmasligi, hech qachon o'z tafakkur metodlarini faqat bitta falsafa bilan cheklab qo'ymasligi kerak»¹³.

Metodologiya alohida metodlarning oddiy yig'indisi, ularning «mexanik birligi» ham emas. Metodologiya – turli darajadagi usul va tamoyillarning faoliyat sohalari, yo'nalishlari, evristik imkoniyatlar, mazmunlar, tuzilmalar va hokazolarning murakkab, yaxlit hamda muvofiqlashtirilgan tizimi.

Ilmiy bilishda turli darajalarda, faoliyat sohalarida va yo'nalishlarda turli-tuman metodlarning murakkab, dinamik va muvofiqlashtirilgan tizimi faoliyat ko'rsatadi. Mazkur metodlar har doim tadqiqotning muayyan shartlari va predmetidan kelib chiqib amalga oshiriladi.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi tarifi.
2. "Metod" va "metodologiya" tushunchalarini izohlang?
3. Xozirgi zamon fanida qo'llanilayotgan metodlarni tariflang?
4. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada qo'llaniladigan metodlarga misol keltiring.

MAVZUGA DOIR ASOSIY TUSHUNCHALAR

Metod (yunon. *metods* - usul)- keng ma'noda yo'l, ijodiy faoliyatning har qanday shakli kabi ma'nolarni anglatadi. Metod u yoki bu shaklda ma'lum qoida, tartib, usul, harakat va bilim mezonlarining yig'indisi hamdir.

Metodologiya - faoliyatda qo'llaniladigan ma'lum usullar tizimi (fanda, siyosatda, san'atda va h.k). va tizim haqidagi ta'limot yoki metod nazariyasi sifatida amal qiladi.

¹³ Гейзенберг В. Физика и философия. Часть и целое. -М.: 1989.-С.85

Fan metodologiyasi - Fan metodologiyasi uning strukturasi, taraqqiyoti, ilmiy tadqiqot vositalari va usullari, uning natijalarini asoslash yo'llari, bilimni tajribaga tatbiq qilish mexanizmlari va shakllarini o'rganadi.

Fan metodlari – ma'lum fan tarmog'iga kiruvchi yoki fanlar tutashgan joyda vujudga kelgan muayyan fan sohasida qo'llaniladigan usullar tizimi.

Fanlararo tadqiqot metodlari–asosan fan sohalari tutashgan joyda amal qiladigan (metodologiyaning turli darajasi elementlarini birlashtirish natijasida yuzaga kelgan) bir qancha sintetik va integrativ usullar majmui.

Empirik tadqiqot metodlari. O'rganilayotgan har qanday obyekt haqida egallanadigan bilvosita bilim empirik bilish deb ataladi. Kuzatish empirik bilishning asosiy metodidir.

Ilmiy kuzatishga qo'yiladigan asosiy talablar: maqsad (kuzatish obyekti)ning aniqligi; qayta kuzatish orqali yoki boshqa metodlar (masalan, eksperiment) yordamida nazorat qilish mumkinligi.

Eksperiment–o'rganilayotgan jarayonga faol va izchil aralashish, eksperimentning maqsadlariga muvofiq maxsus yaratilgan hamda nazorat ostiga olingan sharoitlarda tadqiq qilinayotgan obyektни tegishli tarzda o'zgartirish yoki uni aks ettirish.

Gipotetik-deduktiv metod - bir-biri bilan deduktiv bog'liq bo'lgan gipotezalar tizimini yaratishni nazarda tutadi. Mazkur gipotezalardan pirovard natijada empirik dalillar to'g'risida xulosalar chiqariladi. Ushbu metod gipotezalardan va haqiqiy ma'nosi ma'lum bo'lmagan boshqa farazlardan xulosalar chiqarishga (deduksiyaga) asoslanadi. Binobarin, mazkur metod yordamida chiqarilgan xulosa muqarrar tarzda ehtimoliy xususiyatga ega bo'ladi.

6 – MAVZU

ILMIY TUSHUNTIRISHNING INDUKTIV VA DEDUKTIV YO'LI

Maqsad: Talabalarga ilmiy tushuntirishning induktiv va deduktiv yo'li haqida tushuntirish.

Tayanch so'z va iboralar: Induksiya, deduksiya, kartografiya metod, geografik taqqoslash (qiyoslash), rayonlashtirish, kuzatuv metodi, statistika, modellashtirish, energiya ishlab chiqarish sikllari, iqtisodiy geografik o'rin.



REJA:

1. Induksiya va deduksiya ilmiy tafakkur (bilish) ning usuli sifatida.
2. Umumgeografik metodlar
3. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaga xizmat qiluvchi metodlar
4. Tadqiqotning umumiy mantiqiy metodlari



Ma'lumki, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, qolaversa, butun geografiya fanining birlamchi tushunchasi rayondir. U turli darajada va yo'nalishdagi iqtisodiy va ijtimoiy rayonlardan yoki majmualardan iborat. Biroq, iqtisodiy rayon va unga mos keladigan hududiy ishlab chiqarish majmualari, kichik miqyosga ega bo'lgan sotsial rayonlardan ancha kengroq bo'ladi. Chunki, iqtisodiy aloqalar kishilarning muntazam ijtimoiy munosabatlariga nisbatan kattaroq hududda amalga oshadi. Bu o'rinda sotsial rayon yoki muhit, hududiy majmua sifatida mahalla, turli xil kishilariing jamoasi, muayyan kasb yoki yoshga mansub aholining hududiy birligi (sotsium) va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Garchi "rayon" geografiyaning bosh tushunchasi bo'lsada, u, o'z navbatida, hududiy mehnat taqsimotining natijasi hisoblanadi. Ijtimoiy mehnat taqsimotining hududiy jihatini aks ettiruvchi bu tushuncha fundamental ahamiyatga egadir. Zero,

hududiy mehnat taqsimoti xo'jalik tarmoqlarining turlicha tarqalishi (*taqsimlanishi*), joylarning ma'lum sohaga va yo'nalishga ixtisoslashuvi, bir joyning boshqa joydan iqtisodiy tarmog'iga ko'ra farqlanishiga olib keladiki, busiz iqtisodiy geografiyaning o'zi ham bo'lmaydi. Hududiy mehnat taqsimoti, ayni paytda, sotsial-iqtisodiy ma'noga ham ega. Sababi, ishlab chiqarishning subyekti, uni amalga oshiruvchisi, "egasi" avvalambor aholi, kishilardir. Aholi esa, tom ma'noda, sotsial-iqtisodiy kategoriya hisoblanadi.

Shuningdek, keng ma'nodagi ijtimoiy geografiyada iqtisodiy geografik o'rin, ishlab chiqarishning hududiy tarkibi va tizimi kabi tushunchalar borki, ular ham ushbu fanning mazmun va mohiyatini to'laroq ifodalab beradi. Biroq aytish o'rinliki, ijtimoiy geografiyaning mavjud asosiy ilmiy g'oyalari ko'proq uning an'anaviy va yetakchi qismi iqtisodiy yoki ishlab chikarish geografiyasi dairasida



23-rasm. Torsten Xegerstrand
(1916-2004)

yaratilgan. Sotsial-iqtisodiy geografiyaga esa qisman hududiy mehnat taqsimoti, shaharlarning iqtisodiy geografik o'rni daxldordir, xolos. Shu bilan birga, sotsial geografiyaning bevosita o'ziga xizmat qiluvchi ilmiy g'oya yoki qonuniyatlari hozircha kamroq. Ular sotsiologiya, psixologiya, demografiya, etnografiya kabi fanlar bilan aloqadorlikda yaratiladi. Misol tariqasida bunga shved olimi T.Xegerstrandning (Lund

maktabining) vaqt, davriy yoki joriy geografiyasini keltirish mumkin (23-rasm).

Albatta, boshqa fanlar katori ijtimoiy geografiyaning rivojlanishi, eng avvalo, tegishli qonun va kategoriyalari bilan bog'liq. Bu o'rinda qarama-qarshiliklar birligi, miqdor o'zgarishlarning sifat o'zgarishlarga o'tishi, inkorning inkor qonuni, makon va zamon kategoriyasi va boshqalar, shubhasiz, katta

ahamiyatga ega. Ammo barcha fanlarga xizmat qiluvchi bunday qonuniyatlar geografiyada o'zlarining hududiy jihati bilan namoyon bo'ladi.

Geografiyada ayniqsa ikki va undan ortiq obyektlarni, hodisa va voqelikni dialektik birlik, o'zaro aloqadorlikda tahlil etish juda muhimdir. Bu yo'sinda geojuftlar (geoparalar) to'g'risida so'z yuritish to'g'riroq bo'ladi. Tog' va tekislik, quruqlik bilan suv, pastlik va balandlik, shahar va qishloq kabilar bunday ikkiliklarga, geojuftliklarga kiradi. Binobarin, ularni alohida-alohida o'rganish ma'lum ma'noda muqobil tomondan yondashuvni taqozo etadi. Chunonchi, tog' nimaligini tekislikda "turib" anglash mumkin va, aksincha, shaharning fazilatlarini, uning o'ziga xos ijobiy va salbiy tomonlarini chuqur va to'g'ri anglash uchun qisqa vaqtda bo'lsada, "qishloqlik" bo'lib yashash ham kerak. Xuddi shunday, qishloqning hosiyatini, uning betakror jihatlari, tabiati, soddaligini qishloqdan chiqqan shaharlik yaxshi biladi va sezadi.


Qonun va kategoriya, asosiy ilmiy g'oya va tushunchalar har bir fan uchun zarurdir. Ularni aniqlash, o'rganish, qo'yilgan tub maqsadlarga erishish, eng avvalo, ma'lum vosita yoki yo'llarni, turli xil metodlarni talab etadi. Bu xususda agar tamoyillarga amal qilinsa, metodlar qo'llaniladi, ulardan foydalaniladi; tamoyil va usul birgalikda ko'zlagan maqsadga erishishga ko'mak beradi, fanning ichki rivojlanish qonuniyatlarini, uning taktika va strategiyasini ta'minlaydi, ifodalaydi¹⁴. Mashhur ingliz olimi F. Bekon ta'biricha, metodni yaxshi egallagan kishi, garchi u cho'loq bo'lsada, yugurib ketayotgan sog'lom kishidan manzilga (maqsadga) oldinroq yetib boradi.

Metodlar bevosita shu fanga xizmat qiluvchi yoki barcha fanlarga tegishli bo'ladi. Masalan, geografiya fanining maxsus metodlari sifatida kartografik, geografik taqqoslash, rayonlashtirish va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Ayni paytda statistik, tsikllar usuli, iqtisodiy geografik o'rin kabilar ko'proq iqtisodiy

¹⁴ Metodni o'zbek tilida usul, metodologiyani – uslubiyot deb atash mumkin. Shu bilan birga, ularni o'z holda qo'llash ham hato bo'lmaydi, chunki, bu tushunchalar xalqaro, baynalminal maqomga ega.

geografiyaning o'ziga xizmat qilsa, qolganlari esa nafaqat geografiyaga, balki boshqa fanlarga ham qisman tegishli.

Induksiya - *ayrimlik (tajriba, dalil)dan umumiyga (ularni umumlashtirib xulosa chiqarishga) fikran harakat qilish; deduksiya* – *bilish jarayonining umumiydan ayrimlikka yuksalishi*. Induksiya va deduksiya o'zaro bog'lanadi hamda bir-birini to'ldiradi (24-rasm). Tajriba hamisha cheksiz



24-rasm. Induksiya va deduksiya

va nomukammal bo'lganligi uchun induktiv xulosalar doim muammoli (ehtimoliy) xususiyatga egadir. Induktiv umumlashtirishlarga, odatda, tajribada bilingan haqiqatlar (empirik qonunlar), deb qaraladi.

Induktiv umumlashtirish turlaridan ommaviy induksiya, to'liqsiz induksiya, to'liq induksiya, ilmiy induksiya va matematik induksiya ajratiladi. Mantiqda sababiy aloqalarni aniqlashning induktiv metodlari–induksiya qonunlari (Bekon-Mill induktiv tadqiqot qoidalari) farqlanadi. Yagona o'xshashlik, yagona tafovut, o'xshashlik va tafovut, bog'liq o'zgarishlar metodlari va qoldiqlar metodi shular jumlasidandir.

Deduksiyaning o'ziga xos xususiyati shundaki, tadqiqotchi deduksiya vositasida bir sinf, bir jins, bir guruh narsa yoki hodisa to'g'risidagi umumiy bilimlardan ularning har biri haqida alohida bilimlarni hosil qiladi. Insonning bilish tajribasidan shunarsa ma'lumki, agar biron xususiyat bir toifa yoki bir jinsdagi hamma narsa yoki hodisalarga xos bo'lsa, bu xususiyat shu toifa yoki jinsga oid har bir narsa yoki hodisaga ham xos bo'ladi.

Umumgeografik metodlar. Ushbu mavzuga doir fikrlarimizni *kartografiya* metodidan boshlaganimiz ma'qul, Chunki geografiya fanining muqaddimasi ham, xotimasi ham xarita bilan chambarchas bog'liq. Bu yerda o'rganilayotgan hodisa yoki voqelik xaritalar asosida tahlil etiladi va tadqiqotning o'zi ham ko'rilayotgan muammolarga taalluqli xaritalar yaratadi. Ilmiy ishning xaritadan boshlanib, xarita bilan tugashi ana shundan iboratdir.

To'g'ri, barchaning ham yuqori darajadagi xarita chizaolmasligi tabiiy. Ammo har qanday geograf kartografik bilim va savodxonlikka ega bo'lishi, kartografiya asoslarini egallashi va turli xaritalarni o'qiy olishi shart. Geograf o'zining maqsad va vazifasidan kelib chiqqan xolda xaritalar mazmuni ("eskizi"), ularga tegishli statistik ishlanmalarni tayyorlab bermog'i lozim, kartograf esa o'zining bu sohadagi mahoratini ishga solib, yaxshi xaritalarni tuzib beradi. Bu o'rinda kartografiya yoki aniqrog'i — kartografiyalashtirish geografiya uchun metod bo'lsa, geografiya kartografiya uchun nazariy asos - metodologiya bo'lib xizmat qiladi. Binobarin, sotsial-iqtisodiy va tabiiy geografik kartografiya mustaqil va muhim kartografiya fanining alohida-alohida qismlari yoki yo'nalishlaridir. Agar ularning birinchisini iqtisodiy va sotsial geografiyaga, ikkinchisini esa tabiiy geografiyaga kiritilsa, u holda noto'g'ri bo'ladi va kartografiya fanining salohiyati kamaytiriladi, kamsitiladi. Yaxshisi ularni ijtimoiy va tabiiy geografiyaga qo'yilgan o'ziga xos "ko'prik" deb tasavvur qilish ma'qulroq.

Xaritalar ko'proq yirik miqyosli (masshtabli) va tematik, ma'lum sohaga yo'naltirilgan bo'ladi. Bunday xaritalar ayniqsa ilmiy tadqiqot ishlari uchun asqotadi. Umumiy axboriy mazmunga ega bo'lgan xaritalar esa, eng avvalo, o'quv jarayonida ishlatiladi. Demak, xaritalarga vosita va natija sifatida, o'quv va tadqiqot qo'llanmasi shaklida qaramoq talab etiladi. Birinchisi tayyor xaritalar bo'lsa, ikkinchisi esa muallifning o'zi tomonidan tayyorlanmog'i talab etiladi.

Barcha voqeliklar generallashtirilish yoki umumlashtirilish orqali xaritalarga tushiriladi. Bu esa geografiya fanining o'ziga xos mezonini ham hisoblanadi. Chunki, hudud obyekt sifatida ko'rilmasa va uni xarita yoki xarita-sxemalarda aks ettirish imkoni bo'lmasa, u holda bunday tadqiqotning o'zi ham geografiyaga tegishli emas. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy geografiya doirasida xaritalar asosan iqtisodiy yoki sotsial-iqtisodiy mazmunga ega. Masalan, sanoat, qishloq xo'jalik tarmoqlari, transport, aholi, uning milliy va hududiy tarkibi, shaharlar va qishloqlar to'ri va tizimi kabi xaritalar ko'p tuzilgan. Ammo sotsial geografiyaga mansub yirik miqyosli va tematik xaritalar ancha oz. Bu yerda ham xaritalar soni, turi va mazmuni ijtimoiy geografiya fanining tarkibiy 3 qismlariga tegishli real holatni aks etib turibdi.

Xarita mazmunining boyligi, turli tumanligi, ko'rsatkichlar orqali hududni to'liq qamrab olishi joyning geografiyiligini ko'rsatadi. Shunuqta nazardan cho'l hududlari (*masalan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro yoki Navoiy viloyatlari*) sotsial – iqtisodiy, aholi xaritalari sodda bo'ladi va bu joylarning shu jihatdan kam geografiyiligidan dalolat beradi.

Shunday qilib, xaritalar tadqiqot usullari qatorida birinchi o'rinda turadi¹⁵. Bu esa geografiya fanining bosh tamoyili hududiylikka mos keladi, ammo shu bilan birga ***geografik taqqoslash (qiyoslash)*** usuli ham bu xususda katta ahamiyatga ega. Qaysi bir holatda uni geografiya fanining dastlabki, birinchi metodi sifatida ham ko'rish mumkin. Sababi, kishilar karta tuzish va undan foydalanishdan oldin ham bir joyni ikkinchi joyga taqqoslashgan.

Umuman, ikki xil taqqoslash mumkin: *tarixiy va geografik*; birinchisida o'tmishning turli davrlari "tik" qiyoslansa, ikkinchisida hududning turli qismlari taqqoslanadi va bu hamma vaqt gorizontali yo'nalishda bo'ladi. Eng muhimi — taqqoslash tarixda ham, geografiyada ham asosiy rolni bajaradi, Chunki uning

¹⁵ "Geografiya" terminini ishlatgan birinchi olim – Eratosfen ham, aslida, kartograf bo'lgan

yordamida o'tmishning (tarixning) va hozirgi kunning (geografiyaning), zamon va makonning, zamin va zamonning betakror, o'ziga xos *xususiyati* ochib beriladi. Xususiyatsiz esa ushbu fanlarning o'zi bo'lmaydi. Geografiyada bir joy ikkinchi joydan farq qilmasa, ular orasida hududiy tafovutlar ko'rinmasa, har bir joyning o'ziga xos xususiyati ("basharasi") aniqlanmasa, u holda bu yerda geografiyaga ham o'rin yo'q. Balkim shu ma'noda, ya'ni joyning tasviri, tashqi ko'rinishini ifodalashda fransuzlar peyzaj, nemislar esa landshaft atamalarini qo'llagan bo'lsalar ajab emas. V. P. Semyonov - Tyanshanskiy shunga yaqin "joyning obrazi" (shakli, tasviri) tushunchasini ishlatgan.

Geografik taqqoslash hamma vaqt hududiy va ikki ko'rinishda bo'ladi: *o'xshash va noo'xshash* taqqoslashlar. Odatda, birinchisi an'anaviyroq, ya'ni bu yerda umumiy holatlari, ko'lami, vazifa va mohiyati monand bo'lgan obyektlar solishtiriladi. Ikkinchi holda esa taqqoslanuvchi obyektlar o'zlarining katta-kichikligi, vazifasi, mohiyati va boshqa jihatlariga ko'ra bir-birining teskarisi (kontrasti) bo'ladi. Shuningdek, mutlaqo muqobil bo'lgan obyektlar, masalan, tog' bilan shahar, botqoqlik bilan sanoat tugunini iqtisodiy geografik qiyoslab bo'lmaydi. Bundan tashqari, tabiiy, siyosiy, iqtisodiy geografik obyektlar ham o'zaro solishtirilishi noto'g'ri. Aytaylik, Afrika va AQSh, Farg'ona iqtisodiy rayoni va Afg'oniston, Qizilqum cho'li va Angren-Olmaliq sanoat rayoni kabi "juftliklar" aslo taqqoslashga to'g'ri kelmaydi. Albatta, taqqoslanuvchi hodisa va voqeliklar turlicha yoki noo'xshash bo'lishi mumkin. Biroq, ilmiy nuqtai nazardan ularning umumiy holatlari bir-biriga yaqin bo'lgani maqsadga muvofiq. Chunonchi, ikkita yirik shahar, ikkita qishloq, ikkita viloyat va hokazolarni taqqoslash o'rinli. Lekin Toshkent bilan Denov yoki Chustni, O'zbekiston bilan AQSHni solishtirish geografik jihatdan uncha maqbul emas. Masalan, Toshkent bilan Boku solishtirilsa bo'ladi, Chunki bu shaharlar ma'lum o'xshashliklarga ega: ikkalasi ham "millioner" shahar, sobiq Sovet respublikalari - hozirgi mustaqil,

suveren davlatlar poytaxti. Taqqoslash, bu shaharlarning umumiy jihatlari aytilganidan so'ng, ularning geografik o'rni, vazifasi (funktsiyasi), xo'jaligining tarkibi va ixtisoslashuvi, ichki tuzilishi, muammolari yuzasidai olib boriladi. Bu yerda qiyoslash qancha "ichkariga" kirib borilsa, taqqoslanuvchi obyektlar - Toshkent va Boku shuncha bir-biridan "qochadi", uzoqlashadi, ya'ni farqlanadi, ular o'rtasidagi oraliq masofa - tafovut shuncha kengayadi va har biriga xos individual (xususiy) jihatlar ko'proq va aniqroq namoyon bo'lib boraveradi.

Taqqoslash ko'rilayotgan obyektlarning iqtisodiy geografik o'rnidan boshlanishi bejiz emas. Xuddi ana shu joylanish o'rni tahlilga kalit sifatida xizmat qiladi va u orqali nima uchun bu shaharlar aynan shu joyda vujudga kelgan, yiriklashgan va nima sababdan ular xo'jalikning shu sohasiga ixtisoslashgan kabi geografiya uchun muhim va o'ta zarur bo'lgan savollarga javob topib berishga imkon yaratadi. Bizning misolimizda, Bakuning Kaspiy dengizi bo'yida joylashganligi, Toshkentning Tangri tog' (Tyanshan) etaklarida, Chirchiq vohasida o'rinishganligi ularning qolgan barcha xususiyatlarini oydinlashtiradi. Agar Boku shahriga *tarixiy geografik asos* sifatida Kaspiy dengizi xizmat qilsa, Toshkent uchun esa Chirchiq daryosi uning o'tmishi-yu hozirgi kunida katta ahamiyatga ega.

Geografik taqqoslashning yana bir muhim sharti obyektlarning *bosqichma-bosqich kiyosiy tavsifi ayni paytda bir yo'la ("sinxron")* olib borilishidan iboratdir. Agar bizning misolimizda avval Boku, so'ng Toshkent shaharlarining iqtisodiy geografik ta'rifi mavjud tartibga muvofiq ko'rib chiqilsa, u holda haqiqiy taqqoslash bo'lmaydi. Bu yerda biz ikki shaharning alohida-alohida ta'rifining guvohi bo'lamiz, xolos. Binobarin, taqqoslanuvchi obyektlar birdaniga, yo'l-yo'lakay ko'rib borilishi kerak. Shundagina ularning har biriga xos belgilarini aniqlash mumkin bo'ladi.

Demak, hudud eng avvalo xarita yordamida, uning boshka hududdan farqlanuvchi tomonlari esa asosan taqqoslash usuli orqali aniqlanadi. Ammo,

taqqoslash ham xarita yordamida amalga oshirilishi ma'qul, Chunki ko'rilayotgan obyektlar faqat xaritada o'z in'ikosini topadi. Shu bilan birga, ta'kidlash lozimki, ilmiy tadqiqot hamma vaqt o'xshashlikdan noo'xshashlikni (individuallikni, xususiylikni), noo'xshashlikdan o'xshashlikni, umumiylikdan aniqlikni talab qiladi.

Xapita va taqqoslash uslublaridan keyin o'z ahamiyatiga ko'ra **rayonlashtirish** turadi. Geografik rayon ham ma'lum ma'noda umumlashtirish, hududiy guruhlashni bildiradi. *Rayon hududning muayyan bir kesimi bo'lib, u o'zining umumiy, o'xshash belgilari bilan qo'shni yoki tutash joylardan ajralib turadi.* Xuddi shu ma'noda geografik rayon ma'muriy-boshqaruv rayonlardan (nohiya, tuman va h. k.) tubdan farq qiladi va ularni aslo chalkashtirib bo'lmaydi. Shuning uchun ham iqtisodiy geografik rayonlashtirishni "iqtisodiy nohiyalashtirish" yoki "tumanlashtirish" shaklida o'zbek tiliga to'g'ridan-to'g'ri o'girish kulgili ko'rinadi. Ayni chog'da, "umuman", barcha sohalarga tegishli bo'lgan rayon yo'q, aksincha, ma'lum maqsadga qaratilgan aniq rayon mavjud. Chunonchi, sanoat yoki sanoat tarmoqlari, qishloq xo'jaligi, aholi joylashuvi, dam olish (rekreatsiya) kabi rayonlar real voqealikda bor, ammo ularning hammasi uchun yagona rayon yo'q.

"Rayon" tushunchasiga tegishli yana bir chalkashlik masala bu uning yuqoridagilaridan keyingi uchinchi xususiyatidir. Gap shundaki, rayon ko'p bosqichli, pog'onasimon bo'ladi. Binobarin, hamma vaqt qaysi darajadagi va qaysi yo'nalishdagi rayon aniq aytilishi zarur. Chunki, Farg'ona vodiysi ham rayon, uning ichidagi viloyatlar, Sirdaryoning o'ng va so'l sohillari, tog', tog'oldi, tekislik qismlari, quyi ma'muriy birliklar, ularning ichki hududiy tarkibi va hokazolar ham rayondir. Biroq ular turli darajadagi va yo'nalishdagi geografik rayonlar hisoblanadi. *Geografiya fanining betakror va jozibali xususiyati ham shundaki, u har xil miqyosda fikr yuritish imkoniyatiga ega. Bu fan vakillari katta ichida*

kichikni, kichik orqali kattani tasavvur qila oladilar. Rayon sirtidan o'z atrofidan ajralib tursada, u ichki jihatdan mutloq bir xillikni anglatmaydi va tafovutlarga boy bo'ladi. Bunday chigal va mushqul masalalarni o'rganishda tizim - tarkib usuli ancha qo'l keladi. Shu bois, geografiyada rayon hududiy tarkib, tizim-tarkib va tizim tushunchalariga yaqin turadi. Zero, har qanday tarkib undan kattaroq hududiy tizimning bir qismi va, ayni paytda, shu hududiy tarkibning ("tizimchaning") ham ichki tuzilmasi, rayon va "rayonchalari", qismchalari bor.

Rayon - rayonlashtirishning natijasi, rayonlashtirish esa ilmiy tadqiqot jarayoni, bilish vositasi, usulidir. Rayonlashtirish geografik o'rganishningina emas, balki ko'proq ilmiy tadqiqot metodidir. Bu yerda o'rganilayotgan mavzu mohiyatidan kelib chiqqan holda hudud bir-biriga o'xshash bo'laklarga (rayonlarga) ajratiladi va ularga iqtisodiy geografik tavsif beriladi. Bu geografiyaning analitik xususiyati yoki salohiyatidir. Uning sintez qudrati esa olingan bilimlarni umumlashtirish asosida tegishli qonuniyatlarni, boshqa, turdosh (qo'shni) fanlar yutuqlaridan foydalangan holda aniqlashda o'z aksini topadi.

Rayonlashtirishning prinsip va omillari ham har xil bo'ladi. Masalan, iqtisodiy rayonlashtirishda, eng avvalo, ixtisoslashuv (*sanoatda-sanoat tarmoqlari, qishloq xo'jaligida ayrim tarmoqlarga ixtisoslashuv*), sotsial-iqtisodiy rayonlashtirishda, jumladan, aholi. geografiyasida aholi zichligi, alohida joylarning demografik sig'imi, aholi punktlarining hududiy birligi rayon sifatida ajratiladi. Sotsial geografiyada esa bunday rayonlar hududiy ko'lami bo'yicha yanada kichikroq va ixchamroq bo'ladi. Sotsial rayonlar sifatida alohida mahalla, mikrorayon, mavze va dahalarni ko'rsatish mumkin.

Rayon yoki rayonlashtirishning navbatdagi to'rtinchi xususiyati ularning hududiy shakllarida o'z ifodasini topadi. Bu yo'sinda hududni rayonlashtirish yoki uni turli xil yiriklikdagi qismlarga ajratish bilan hudud doirasidagi real rayonlarni aniqlash bir xil mazmunga ega emas. Birinchisida mamlakat yoki viloyat hududi

to'la-tekis bo'laklarga (rayonlarga) ajratiladi. Chunonchi, alohida iqtisodiy rayon sifatida Quyi Amudaryo – Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasi rayoni mavjud. Ammo bu o'lkadagi hududning (*unga chekinayotgan va qurib borayotgan Orol dengizi akvatoriyasi ham kiradi*) barcha qismi ham iqtisodiy ahamiyatga ega emas. Boshqacha qilib aytganda, bu yerdagi hozircha xo'jalik tuzilmasiga ega bo'lmagan joylar ham rayon doirasiga “yoppasiga” kiritilaveradi.

Ikkinchi turdagi rayonlar butun mamlakat hududini qoplab olmaydi. Ularga sanoat rayonlari — sanoat tugun va majmualari, aholi rayonlari - shahar aglomeratsiyalari kabi yaxlit shakldagi hududiy birliklarni misol tariqasida keltirish mumkin. Xuddi shunday, transport rayonlari ham “azonal” xususiyatga ega bo'ladi va butun muhitni qamrab olmaydi.

Ajratilgan u yoki bu tipdagi rayonlar shu sohaga tegishli hududiy majmularga ko'pincha mos keladi. Bu ma'noda Mirzacho'l yoki Angren-Olmaliq iqtisodiy rayonlari xuddi shunomli hududiy ishlab chiqarish majmualari shaklida aytilsa bo'ladi, lekin hududiy majmualar uchun kompleks hosil qiluvchi, rayonlar uchun esa rayon shakllantiruvchi markaz, omil yoki tarmoklar mavjud. Ana shu tarmoqlar joylashgan yoxud ularning ta'sir doirasidagi maydon, makon (*A.Lyosh bo'yicha – iqtisodiy landshaft*) alohida rayon yoki majmua sifatida namoyon bo'ladi. Ayni vaqtda geografiyadagi rayonlashtirishni qishloq xo'jaligi, mevachilik yoki urug'chilikdagi rayonlashtirish bilan ham chalkashtirish nodurust. B u yerda dehqonchilik va mevachilikdagi urug' hamda meva navlarini tabiiy - iqlim sharoiti mos keladigan joylarda ekish yoki o'stirish nazarda tutiladi.

Shunday qilib, geografiyada va, shu jumladan, ijtimoiy geografiyada rayonlashtirish usuli ham yetakchi ahamiyatga ega. Zero, rayonsiz geografiyani tasavvur qilib bo'lmaydi, geografiya fanining tarixi, sirasini aytganda, rayonlar tarixi demakdir. Rayonlashtirish tahlil etilayotgan hududni chuqur o'rganish, uning ichki xususiyatlarini aniqlash asl ma'noda geografik bilimning

shakllanishida bosh mezondir. SHu bilan birga, uning konstruktiv (amaliy) ahamiyati ham yo'q emas; rayonlashtirish mamlakatning ilmiy asoslangan mintakaviy siyosatini olib borish va uni boshqarish uchun zarur vosita bo'lib xizmat qiladi.

Kuzatuv metodi ham geografiya uchun an'anaviy ahamiyatga ega. Chunki, geografiyani asosan bevosita ko'rish, kuzatish, jonli mushohada yuritish, tasavvur qilish orqali o'rganilsa, tarix esa ko'pincha eshitish bilan o'zlashtiriladi. SHuning uchun geografiya fakul'tetining o'quv jarayonida dala amaliy mashg'ulotlariga katta o'rin ajratiladi. Bu borada, ayniqsa, regional va xalqaro miqyosdagi amaliyotlar samarali natija beradi.

Turli xil kuzatish va ekspeditsiyalar vositasi bilan obyekt — qishloq xo'jaligi, shahar, sanoat korxonasi va qishloq joylar yaqindan o'rganiladi. Masalan, biror shaharga safar etilsa, uni atroflicha, har tomondan, turli chekkalariga chiqib ko'rish, tanishish kerak. Agar sayohat qiluvchi shahar markazidagi mehmonxonada uzoq muddatda to'xtab qolsa ham uni geografik jihatdan o'rgandi, deb bo'lmaydi. Buning uchun shahar to'g'risida, uning hududi, ichki tafovutlari, tashqi qiyofasi bo'yicha to'la tasavvur hosil qilish talab etiladi.

Aslini olganda geograf yo'lda ham, uyda ham, ishda ham geograf bo'lmog'i kerak. U har qanday sharoitda va har qanday miqyosda hududiy birikmalar, turli xil obyektlar - yo'llar, qishloq xo'jalik ekinlari, aholi manzilgohlarining o'zaro joylashuv xususiyatini bevosita kuzatishi lozim. Ba'zan geograf ajoyib hududiy nomuvofiqliklar guvohi bo'lishi mumkin. Ularga dam olish muzofotlari va ekologik jihatdan nomaqbul bo'lgan metallurgiya yoki kimyo korxonasining bir joyda borligini, maktab qarshisida chorva fermasi yoki asab kasalliklarini davolovchi shifoxona mavjudligi va shunga o'xshash antiqa geografik ajoyibotlarni misol tariqasida keltirsa bo'ladi. Bunday geografik holatlar va hududiy nomuvofiqliklar esa faqat jonli kuzatuv yordamida aniqlanadi. Ammo

buning uchun oddiy ko'rishning o'zi kifoya qilmaydi, aksincha, ko'rish faol mushohada va tahlil bilan uyg'unlashgan holda olib borilishi kerak. SHu jihatdan qaraganda, Samarqandga borganda, albatta Ulug'bekni ko'rish kerak, lekin "Samarqandda o't yog'sa Farg'onada tutuni" kabi savodsiz iboralar ham geografiyani bilmaslik natijasidir.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaga xizmat qiluvchi metodlar

Bu turkumdagi usullarga *statistika, modellashtirish, energiya ishlab chiqarish sikllari, iqtisodiy geografik o'rin* va boshqalarni kiritish mumkin. Ularning orasida ijtimoiy geografiya uchun (*iqtisod va aholi, kishilar uyushmasi uchun*) eng avvalo **statistika** metodi muhimdir. Chunki, bu fan o'z mohiyatiga ko'ra hamma vaqt statistik raqamlar bilan ish tutadi. Qolaversa, bir vaqtlar iqtisodiy geografiya statistika tarkibida ko'rilgan.

Statistika usuli ko'p uchrashib turadigan ko'rsatkichlar: *o'sish, ko'payish, protsent (foiz), promille, indeks, koeffitsiyent, guruhlash* va boshqalar to'g'risida malaka hosil qilishga yordam beradi. Shuningdek, bu usul turli xil jadvallar, grafik yoki chizmalar, aholi zichligi, demografik sig'im, o'rtacha masofa kabi ko'rsatkichlarni aniqlashda qo'l keladi. Bu borada statistika matematika fani bilan birgalikda qo'llaniladi, binobarin, ushbu usulni ba'zan statistika-matematika metodi ham deyishadi.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, talabalar va hatto ayrim hollarda magistrantlar ham jadval tuzish qoidalarini yaxshi bilishmaydi, o'sish bilan ko'payishning, "o'rtacha" bilan "moda"ning farqiga borishmaydi. Masalan, aytaylik, aholi soni yoki sanoat mahsuloti so'nggi o'n yil davomida 156 foizga o'zgardi. Savol tug'iladi: statistika tili bilan bu raqam qanday ifodalanadi: o'sishmi yoki ko'payishmi?¹⁶ Ushbu savol javobini kitobxonlarga qoldiramiz.

¹⁶ Demografiyada ayrim hollarda tabiiy ko'payishni (o'lim bilan tug'ilish o'rtasidagi farqni) tabiiy o'sish deb yuritiladiki, bu, albatta, to'g'ri emas.

Yana ikki turdosh nisbiy ko'rsatkich bor — *protsent va promille*. Qaysi hollarda protsent va qanday paytda promille qo'llaniladi? Bu masalani ham bilish va ularni o'z o'rnida qo'llash kerak. Ma'lumki, protsent (*sent, sentner—yuz*) yuzlikning ma'lum bir qismini, promille esa mingdan bir bo'lagini anglatadi. Ikkala statistik ko'rsatkich, odatda, ko'plik bilan ish tutganda qo'llanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Albatta, ulardan protsent (foiz) ko'proq ishlatiladi, promille esa kamroq uchraydi. U asosan dengiz va okeanlar suvining sho'rligi, aholining tabiiy harakati — tug'ilish, o'lim, tabiiy ko'payishni aniqlashda qo'llaniladi. Promilleni ushbu holatlarda ishlatish, eng avvalo, qulay va yaxlitroq, yirikroq raqam hosil qilishni ko'zda tutadi. Faraz qilaylik, bir mamlakat yoki shaharda yillik o'lim koeffitsiyenti 6,5 promilleni tashkil etadi. Agar bu raqamni protsentga aylantirsak, 0,65 ga teng bo'ladi. Birinchi holda u har ming kishidan 6,5 kishini (statistikada shunga o'xshash “yarim va choraklar” ham mavjud), ikkinchisida esa har yuz aholidan 0,65 kishining vafot etishini bildiradi. Ko'rinib turibdiki, birinchi ko'rsatkich ikkinchisiga nisbatan ishlatishga qulayroq; aynan shu maqsadda ba'zi hodisalar, masalan, oliy ma'lumotli mutaxassislar yoki vrachlar, shaharlar va qishloq aholi manzilgohlarining zichligi 10 ming va 100 ming birliklarga nisbatan ham olinadi.

Mutloq va nisbiy raqamlar ham o'z mavridida qo'llanishi lozim. Ko'rilyotgan obyekt miqdoran kam bo'lsa mutloq, agar u ko'p bo'lsa, nisbiy ko'rsatkich ishlatilishi ma'qul. Masalan, tashkilot a'zolari atigi 9 kishi, shundan majlisda 6 kishi qatnashdi. Bu holda vaziyatni yuqoridagi raqamlarning o'zi qulay ifodalaydi. Agar ularning o'rniga “majlisga tashkilot a'zolaridan 66,7 foiz kishi kelishdi”, deb aytish o'rinsiz bo'lsa kerak. Bu misolimizda vaziyatni mutloq raqamda yoki bo'lmasa ulush (hissa) ko'rinishida izohlagan ham qulayroq, ya'ni “majlisda xodimlarning 2/3 qismi qatnashdi” deyilsa, tushunarliroq bo'ladi. Biroq bunday qism shaklidagi ma'lumotlar ham asosan raqam miqdori ko'p va sanoqsiz,

tahlil etilayotgan hodisa murakkab va tartibsiz bo'lgan holatlarda ishlatilsa, yanada to'g'riroq bo'ladi. Boshqa bir misol: 1989-yil Butunittifoq aholi ro'yxati ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda 19 850 077 kishi qayd etilgan. Shundan 14 142 475 kishi o'zbeklardan iborat. O'ylaymizki, bunday qo'pol, eslab qolish uchun noqulay bo'lgan yirik raqamlar yaxlitlansa yoki ular o'rniga ushbu holat nisbiy ko'rsatkichda ifodalansa, maqsadga muvofik bo'ladi. Jumladan, respublika jami aholisining 71,4 foizi o'zbeklardan iborat, deyilsa vaziyat oson va aniq qabul qilinadi.

Huddi shunday, umumiy yer maydonining tarkibi, chorva mollarining turi, aholining yosh tuzilishi, sanoat yoki qishloq xo'jalik mahsulotlarining qiymati bo'yicha taqsimlanishi kabi juda ko'p uchraydigan holatlarda nisbiy ko'rsatkichlarni qo'llash kerak. Shunga o'xshash "o'rin" masalalarini ham to'g'ri ishlatish lozim. Agar talabalar olimpiadasida hammasi bo'lib 3 komanda qatnashgan bo'lsa, "faxriy uchinchi o'rinni oldi", deb aytish kulguli tuyuladi. Binobarin, u yoki bu o'rinni egallash, odatda, ko'pchilik bo'lgan sharoitda ko'rsatilishi to'g'riroq bo'ladi.

Statistik usul tadqiqot doirasidagi barcha ma'lumotlarni turli manbalardan to'plash, ularni umumlashtirish, qayta ishlash va tahlil etish kabi murakkab va mas'uliyatli jarayonlarni o'z qamroviga oladi. Ayniqsa, bu yerda ixcham va boy mazmunli, o'qib bo'ladigan darajadagi statistik jadvallarni tuzish katta ahamiyatga ega. Jadvallarni tuzish, ularni o'qish va tahlil etish yuksak san'at va mahoratni talab etadi. Eng avvalo, jadval tuzish o'ziga xos mezonlarga asoslanish kerak. Chunonchi, uning nomi mazmuniga muvofiq kelishi, juda murakkab va qo'pol bo'lmasligi lozim. Jadval oldindan ko'zlangan dalil yoki isbot talab qiladigan ma'lum maqsadni nazarda tutib yaratiladi. Shuning uchun uni to'g'ri kelgan, "pala-partish", tartibsiz raqamlar bilan to'ldirish, o'ta murakkablashtirish yaxshi emas.

Bunday holda, xuddi xarita axborotini (yukini) haddan tashqari og'irlashtirgandek, jadvallarni o'qib, ularda kutilgan xulosalarni chikarib bo'lmaydi.

Statistik jadvallar oddiy va murakkab, turli shakl va mazmunda, sonli va so'zli bo'ladi. Ammo qisqa axborot uchun ham atigi bir yoki ikki qatordan iborat jadval tuzib, uni mazmunidan ko'ra qo'polroq nom bilan atash maqsadga muvofiq emas. Yaxshisi bunday sharoitda fikrni matn tarzida bayon qilgan ma'qul. Jadval tuzishdan asosiy maqsad - ma'lum bir qonuniyat yoki xulosani isbotlash hamda buning uchun to'plagan ko'p sonli raqamlarni tartibga tushirish, ularni ixcham holda tasvirlash v.a fikr-mulohazalarni dalillar bilan asoslashdan iborat. Ana shundagina so'zsiz va jonsiz raqamlar tilga kiradi, ular qat'iylik va haqqoniylik xususiyatini oladi (bunday fiqr va raqamlar "o'jar", qaysar bo'ladi va ularni inkor etib ham yoki istagan tomonga o'zgartirib ham bo'lmaydi).

Shu bilan birga, yuqorida ta'kidlaganimizdek, qo'pol, ko'p sonli raqam va ma'lumotlardan tashkil topgan jadvallar tuzishni ham tavsiya etmaymiz. Bu muallifning bilimdonligi emas, aksincha, unning statistikadan bexabarligiga ishoradir. Matn muayyan miqdordagi statistik jadval va raqamlar bilan, uni isbotlash, daliliylikni oshirish uchun qo'llaniladi, cheksiz raqam va jadvallar esa oddiy statistik to'plam bo'lib qoladi.

Iqtisodiy va sotsial geografiyada statistik jadvallar mazmuniga ko'ra ko'pincha tarkib va tadrijiy o'zgarishlar, dinamik qatorlarni ifodalovchi bo'ladi. O'z navbatida, tarkib mazmuniga ega bo'lgan jadvallar, tizim qoidasiga muvofiq, tarmoq va hududiy tarkib to'g'risida, ma'lumot beruvchi jadvallarga bo'linadi. Masalan, sanoat va qishloq xo'jalik mahsulotlari, transport turlari, maishiy xizmat ko'rsatish sohalari, jinoyat yoki kasallik turlari, aholining milliy yoki yoshi bo'yicha taqsimlanishi, yer fondi va undan foydalanish kabi ma'lumotlardan tashkil topgan jadvallar shular jumlasidandir.

Ikkinchi turdagi jadvallar esa u yoki bu voqelikning hududlar bo'yicha bo'linishini ifodalaydi. Chunonchi, xalq xo'jalik mahsuloti yoki aholi sonining mamlakat iqtisodiy rayonlari, viloyat va ma'muriy tumanlar bo'yicha taqsimlanishi, jahon xalqlarining turli qit'a yoki mintaqalar doirasida joylashishiga o'xshash ma'lumotlar ana shunday jadvallarda beriladi. Bu o'rinda shuni aytish joizki, tarmoq va hududiy tarkibni aks ettiruvchi jadvallarda, ayni paytda, yonmayon kelayotgan ustunlarda yoki kasrning surat-maxraji shaklida mutloq va nisbiy raqamlar keltirilsa, ular yanada boy mazmunli va tahlilga qulay bo'ladi. Chunki, tarkib hamma vaqt u yoki bu hodisaning o'rni, ulushini anglatmog'i lozim. Murakkab jadvallarda esa bunday maqsadga darhol erishib bo'lmaydi va buning uchun nisbiy raqamlar iihoyatda qo'l keladi. Shu bilan birga, tarkib jadvallarini tahlil etishda ularning ichki qismidagi raqamlar yakuniy yig'indi (summa) ko'rsatkichlariga barobar bo'lishi shart. Agar ular nisbiy sonlarda berilgan bo'lsa, satrlar yoki ustun ko'rsatkichdagi raqamlar yig'indisi 100,0 foizni tashkil etmog'i lozim.

Dinamik qatorlar yoki tadrijiy o'zgarishlarni bildiruvchi jadvallar ham boy mazmunga ega. Bunday jadvallarda turli xil sanoat, qishloq xo'jalik mahsulotlari, aholi soni, uning milliy va yosh tarkibi, xalq xo'jaligida bandligi, jinoyatchilar yoki kasalliklar miqdorining vaqt davomida o'zgarib borishi va shunga o'xshash juda ko'p voqeliklar keltirilishi mumkin. Ushbu ko'rinishdagi jadvallar hodisaning rivojlanishini tasvirlasa, tarkib jadvallari ularning joylanishini ifodalaydi. SHunday qilib, biz bu ikki turdagi va mazmundagi jadvallar yordamida iqtisodiy va ijtimoiy geografiya uchun muhim bo'lgan u yoki bu voqelikning rivojlanishi va joylanishi, uning ma'lum vaqt va zamonda sodir bo'lishi haqida to'la tasavvurga ega bo'lamiz.

Jadvallarning murakkab turlari tarkib va tadrijiy o'zgarishlarni uyg'unlashgan, umumlashtirilgan holda ko'rsatadi. Masalan, respublika va uning

viloyatlari bo'yicha paxta va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish yoki ana shu hududiy birliklarda aholi milliy tarkibini yilma-yil o'zgarib borishinn aks ettiruvchi jadvallar shular jumlasidandir.

Statistik jadvallarning tur va shakllari juda ko'p. Biz bu o'rinda asosan iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada an'anaviy bo'lgan jadvallar turiga to'xtaldik, xolos. Jadvallarning tashqi ko'rinishi yoki shakliga kelsak, ular muayyan sharoit va maqsad doirasida turlichadir. Chunonchi, jadvallarni gorizontal yoki vertikal (tik) tuzish mumkin. Ularning qaysi shaklda keltirilishi ma'lumotlar to'plami, majmui va qo'yilgan vazifadan kelib chiqqan tarzda belgilanadi. Ammo har qanday holatda ham jadvallar ko'rinishli bo'lmog'i lozim. Shu mazmunda, tik shakldagi jadvallarda asosiy maqsadni ifodalovchi keng (katta) ustun yonida atigi yana bir yoki ikki tor ustunni keltirish va, aksincha, gorizontal jadvallarda bir yoki ikki satr ma'lumotlari bilan qanoatlanish yaxshi emas. Qolaversa, bunday jadvallardan voz kechish ma'qul; kam mazmun, zaif jadvallar muallifning bu masalani chuqur o'rganmaganligi yoki unga tegishli fakt va raqamlarni to'play olmaganligidan nishonadir. Bunday jadvallar shunchaki tuzilgan yoki keltirilgan bo'lishi ham ehtimoldan holi emas

Jadvallarni tuzish bilan birga ularni atroflicha tahlil eta olish kerak. Bu yerda jadval ostidagi matnda barcha keltirilgan raqamlarni yana o'z-o'zicha takrorlash yoki jadvalga umuman e'tibor qaratmaslik nodurustdir. Ikkala holda ham jadval ortikcha, uning keragi yo'q. Jadvalni tahlil qilishdan, uni "o'qishdan" asosiy maqsad - qonun va qoidalar, tadrijiy jarayonlar, ularning sabab va oqibatlarini aniqlamoq, asoslamoqdir. Matnning cheksiz raqamlar bilan to'g'ridan-to'g'ri to'ldirilishi taomdan tez-tez tosh chiqib, kishi tishi va asabiga teguvchi noxush holatni eslatadi. Ammo mutlaqo raqamsiz matn quruq dalil va isbotsiz gap, "safсата" bo'lib qoladi. Shuning uchun har qanday statistik jadval turli tomondan, yuqoridan pastga, eniga va bo'yiga, tik va gorizontal tahlil etilishi kerak; u go'yoki

rentgen nuri vositasida ko'rib, ko'zda tutilgan hodisa yoki voqelik aniq va ravshan aniqlanishi lozim.

Ba'zan kurs yoki bitiruv malakaviy ishlarda, magistrlik va doktorlik dissertatsiyalarda bir necha jadvallar qator, uzluksiz, birin-ketin keltiriladiki, bu ham o'z navbatida nomaqbuldir. Zero, har qanday ilmiy ish oddiy statistik to'plamdan farq qilgan holda, eng avvalo, fikrning mantiqli bayon etilishi, to'g'ri, ravon, to'la va mukammal bo'lgan matnda izohlanishi va tavsiflanishi bilan baholanadi. Shu bilan birga, qator varaqlarni band etuvchi katta jadvallar ham ishning ichki kismida keltirilishi shart emas (*ularni ilova shaklida joylashtirish yaxshiroq*). Bu xususda jadvallarning ishlanganlik darajasiga ko'ra bir necha turga bo'lish mumkin. Bevosita statistik tashkilotlardan ko'chirib olingan jadvallar qayta ishlanishi, umumlashtirilishi va ixchamlashtirilishi kerak. Qayta ishlangan jadvallar qo'yilgan maqsadga qay darajada xizmat qilishiga qarab matn orasida yoki ilovada joylashtiriladi.

Jadvallar tuzish va ularni tahlil etish bilan bir qatorda turli xil guruhlashlar ham ahamiyatga ega. Chunki cheksiz, son-sanoqsiz raqamlar, avvalambor, ma'lum bir tartibga tushirilishi kerak. Statistik guruhlash ham turlicha; ba'zan keltirilgan statistik raqamlar ma'lum andozadagi yoki intervaldagi guruhlarga ajratiladi va bu guruhlar doimiy, o'zgarmas harakterga ega bo'ladi. Chunonchi, aholi sonini demografiyada qabul qilingan yosh guruhlarga ajratish (0—4, 5—9, 10—14, 15—19..... va h. k.) yoki mehnatga layoqatli va layoqatsiz yoshdagilarni aniqlash shu tartibdagi jadvallarga mansubdir. Shahar va qishloqlar turini turli klasslarga, bosqichlarga ajratish ham shu yo'sindagi jadvallardan hisoblanadi. Bu borada ko'proq tadqiqot bilan bevosita aloqador bo'lgan, fikr va mulohaza, tahlil talab etadigan guruhlarni ajratish, aniqrog'i ularni muallifning o'zi tomonidan yaratilishi ahamiyatliroq bo'ladi.

Tadqiqot guruhlari turlicha ajratiladi. Bunday holda chekka (maksimum va minimum, eng past va eng yuqori) darajadagi raqamlarni aniqlash va ular orasidagi farq, umumiy intervalni topish va bu oraliq sonni istagan miqdordagi guruhlar soniga bo'lish kerak. Odatda, voqea va hodisalar 3 guruhga bo'linadi: kichik, o'rta va katta; past, o'rta va yuqori. Agar shundan kelib chiqsak, umumiy oraliq raqami 3 ga bo'linadi.


Yaxshisi, buni misol tariqasida izohlaylik. Aytaylik, respublika tumanlarida tug'ilish har ming kishiga 6,6 dan 38,9 promillegacha. Maqsad - turli darajadagi tug'ilishga ega bo'lgan tumanlar guruhini ajratishdir. Buning uchun oraliq raqamni topish talab etiladi (u $38,9 - 6,6 = 32,3$ ga barobar) va bu son 3 ga bo'linishi lozim ($32,3:3$, ya'ni 10,8 ni tashkil etadi). SHunday qilib, har bir guruh intervali taxminan 10,8 soniga teng. Bizning misolimizda birinchi guruh - aholi tug'ilishi darajasi nisbatan past bo'lgan tumanlarining ko'rsatkichi 17,4 promillegacha ($6,6+10,8 = 17,4$) bo'lishi kerak. Ikkinchi, o'rta darajadagi guruh 17,4—28,2 va, uchinchi — tug'ilish yuqori darajadagi guruh 28,2 promille va undan katta raqamli tumanlardan tashkil topadi.

Agar guruhlar sonini ko'paytirish talab etilsa, umumiy oraliq raqam shu miqdorga bo'linadi, Unday holda ajratilgan guruhlar, odatda, sifat darajasi emas, balki oddiy raqam miqdor ko'rsatkichli guruhlar mazmuniga ega bo'ladi. Guruhlar ochiq va yopiq shaklda tuziladi: birinchi guruh “gacha” oxirgi guruh “va undan ortiq” deb yozilsa ochiq, guruhlar chekka raqamlar bilan belgilansa, yopiq hisoblanadi.

Statistika usulida “o'rtacha” so'zi yoki darajasi ko'p qo'llaniladi: aholining o'rtacha zichligi, oiladagi farzandlarning o'rtacha soni, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha milliy daromad, yerlarning o'rtacha sho'rlanganlik darajasi, bir yil yoki bir oyda o'rtacha ishlab chiqariladigan yengil avtomobillar soni, qo'ylarning o'rtacha tirik vazni va h. k. Xullas, “o'rtacha” iborasi hamma vaqt va

hamma joyda ishlatiladi va u vaziyat yoki hodisaning statistik, turg'un holatini ifodalaydi, tavsiflaydi va baholaydi.

Ammo geografiyada faqat o'rtacha ko'rsatkich bilan kifoyalanish noto'g'ri, Chunki u hududiy tafovutlarni o'zida aks ettarmaydi, aksincha, ularni niqoblaydi, tekislaydi. Shuning uchun har qanday o'rtacha raqam, aslini olganda, bu geografiya emas. Masalan, O'zbekiston Respublikasida aholining o'rtacha zichligi har 1 kv. km. maydonga 74 kishiga teng; bu albatta, miqdoriy jihatdan to'g'ri xulosa beruvchi yaxshi axboriy raqamdir.



25-rasm. O'zbekiston aholisining tumanlar bo'yicha zichlik xaritasi (2020)

Biroq u hech kim yashamaydigan Orol dengizi akvatoriyasi, aholisi o'ta siyrak tog'li rayonlar, Ustyurt platosi, Qizilqum cho'liga va, ayni paytda, aholi juda tig'iz o'rnashgan voha va vodiylarga. shahar va kishloq joylarga ham tegishli bo'lib qoladi. Vaholanki, mazkur ko'rsatkich Navoiy viloyatida atigi 7 va Qoraqalpog'iston Respublikasida 9 kishiga, Andijon viloyatida esa 650 kishidan ko'pga barobar. Ba'zi yirik shahar atrofidagi tumanlarda - Zangiota, Samarqand va Farg'ona vodiysi katta shaharlariga tutash rayonlarda bu raqam yanada katta va u

700-900 kishini tashkil qiladi (25-rasm). Ko'rinib turibdiki, yuqorida keltirilgan o'rtacha raqam (74) hudud bo'yicha naqadar keng farqlanadi, qanchalik uning chekka "qanotlari" bir-biridan uzoq. Demak, o'rtacha ko'rsatkich bu ma'noda geografiyaga zid va unga xizmat qilmaydi (xuddi shunday kasalxonadagi bemorlarning sutkali o'rtacha haroratini belgilash ham o'ta kulgili holdir).

O'rtacha ko'rsatkich bilan birga statistik qatorda ko'p uchraydigan ("moda") raqamlari ham mavjud. Ular garchi o'rtacha ko'rsatkichga yaqin tursa va ularning shakllanishiga katta ta'sir qilsada, biroq uning aniq o'zi emas. "Moda" ko'rsatkichlarini, ya'ni tez-tez takrorlanib turadigan raqamlarni belgilash ko'proq statistik qator nihoyatda differentsiatsiyalashgan, tabaqalangan, chekka raqamlar nisbatan kam uchraydigan va bir-biridan uzoq joylashgan holatlarda qo'llaniladi.

Xuddi kartografiyada bo'lganidek, statistika usulida ham generalizatsiya, umumlashtirish talab etiladi yoki raqamlar yaxlitlanadi. Odatda, yarimdan (0,5 dan) orttan raqam navbatdagi songa, undan pasti esa oldingi son foydasiga hal etiladi. Masalan, 6,6 ni 7 soniga, 6,4 ni 6 soniga yaxlitlasa bo'ladi. Bu yerda o'nlik darajasida umumlashtirildi. Xalqaro statistik ma'lumotlarda ko'pincha raqamlar yuzlik darajasida keltiriladi: 6,67; 6,44; 6,81 va h. k. Ularni o'nlik holatiga keltirish qo'yidagicha bo'ladi: 6,7; 6,4; 6,8.

Shunday qilib, yuqorida statistik usul ta'rif-tavsifiga nisbatan ko'proq ahamiyat berildi. Bu bejiz emas, albatta, Chunki, birinchidan, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya uchun statistik usul o'ta muhim; ikkinchidan esa tayyorlanayotgan mutaxassislarning bu boradagi bilim va malakalari sayoz, yetarli emas. Binobarin, statistik bilimlarni chuqurlashtirishga jiddiy e'tibor berish shu kunning dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada demografiya, iqtisodiyot, tibbiyot va boshqa sohalarga doir statistik ma'lumotlar qo'llaniladi. Ulardan to'g'ri va samarali foydalanish uchun esa statistik jihatdan savodxon bo'lmoq, bu fanga oid

nazariy va ilmiy adabiyotlarni chuqur bilish zamon talabidir. Statistik usulda nafaqat jadval, balki turli shakl va mazmundagi diagramma va grafiklar qo'llaniladi. Ularning turlari ham hozirgi kunda ko'p va buning uchun kompyuter imkoniyatlari katta. Umuman olganda, statistik jadvallar, grafik va diagrammalar eng avvalo *harakat (dinamika) va holatni*, ya'ni ikkita "h" – ni aks ettiradi. Ularning o'zaro aloqadorlikda ishlatilishi tadqiqot natijalarini boyitadi.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada yaratilgan asosiy ilmiy g'oya va tushunchalar ham ayni paytda tadqiqot metodlari shaklida ishlatiladi. *Bu xususda rayoilashtirish, turli xil tsikl nazariyalari (energiya ishlab chiqarish sikllari, resurs tsikllar, geografik tsikl yoki konveyerlar), iqtisodiy geografik o'rin va boshqalar e'tiborda tutilmoqda.*

Rayonlashtirish haqida yuqorida qisman aytilgai edi, SHuni yana bir karra ta'kidlash joizki, rayon-geografiyaning bosh, birlamchi tushunchasi - obyektiv va hududiy birlik, voqelik, uni ilmiy jihatdan ajratish va asoslash jarayoni esa tadqiqot yoki o'rganish usuli, yo'llari hisoblanadi. Demak, rayonlashtirish ham guruhlashtirishning bir ko'rinishidir, ammo bu guruh yaxlitlik va, albatta, hududiy umumiylikka ega bo'lishi shart.

Geografiyada rayonlashtirishning yukoridan pastga va, aksincha, pastdan yuqoriga tomon amalga oshirish yoki klassifikatsiyalash mumkin. Masalan, O'zbekistan Respublikasi iqtisodiy jihatdan rayonlashtirilsa, bir butun, geografik yaxlit milliy iqtisod makonidan boshlab, uni yirik iqtisodiy mintaqalar (zonalar), ulardan asosiy iqtisodiy rayonlar, viloyatlar, viloyatlar tarkibidagi rayonlar va boshqa bundan ham kichik xududiy birliklar ajratiladi. Eng birlamchi bu yerda xo'jalik korxonasidir; u rayonlar to'ri — tizimining dastlabki elementi, bosqichi ("O" tsikli) bo'lib, shu maqsad doirasida boshqa bo'linmaydi, parchalanmaydi.

Pastdan yuqori tomon borilsa, u holda ana shu xo'jalik korxonasidan boshlab, undan hududiy birlik sifatida murakkablashib, kengayib borayotgan

bosqichlar belgilanadi, Savol tug'ilishi mumkin: qaysi yondashuv ma'qulroq? O'ylaymizki, har ikkisi ham yomon emas, biroq ularni uyg'unlashtirilgan holda, taksonomik birliklar qo'llash yanada yaxshiroq. Agar yuqoridan pastga qarab ajratilgan rayonlar (bu yo'nalish ko'proq qo'llaniladi) to'ri-tizimi teskari tartibda, ya'ni pastdan yuqori tomon sinab ko'rilsa, baholansa, albatta, bunday taksonomik birliklarning haqqoniyligi, obyektiv mavjudligi, binobarin, ularning ilmiy asoslanganligi hech shubha qoldirmaydi, Xuddi shu yo'sinda pastdan yuqoriga tomon ajratilgan rayonlar aks yo'nalishda tekshirilib ko'rilishi maqsadga muvofiqdir.

Rayonlartirishga qo'yilgan asosiy maqsad - o'quv jarayonida hududiy tafovutlarni, turli-tumanlikni chuqur o'rganish, amaliyotda esa har xil ko'lamdagi xo'jalik-hududiy birliklarni (*iqtisodiy va ijtimoiy geografik tizimlarni*) to'g'ri shakllantirish, ularning rivojlanishini boshqarish, mamlakatning mintaqaviy siyosatini ishlab chiqishdan iboratdir. Shu bilan birga, rayonlarni klassifikatsiyalashdan tashqari ularni alohida tiplarga (tipologiya qilish) ajratish ham katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy rayonlar tarkibini tahlil qilishda *energiya ishlab chiqarish sikllari* nihoyatda qo'l keladi. Energiya ishlab chiqarish sikllari nazariyasi - metodi taniqli rus olimi N. N. Kolosovskiy (1947-y.) tomonidan yaratilgan. Uning asl mohiyati ishlab chiqarishni texnologik jarayon bilan birgalikda ko'rishdadir. Shu bois, ushbu g'oyaning iqtisodiy geografiyaga to'g'ridan-to'g'ri aloqasi yo'q; Chunki u hududiy borliq emas, balki texnologik jarayon birligidir va uni geografik xaritada, xuddi iqtisodiy rayon yoki hududiy ishlab chiqarish majmuasidek ko'rsatib bo'lmaydi. Biroq, energiya ishlab chiqarish sikllar mazmunini chuqur anglash iqtisodiy rayonlar, hududiy ishlab chiqarish majmualari ichki tuzilishini bilish va ularni prognoz qilishda samarali vosita sanaladi.

Chindan ham hatto bir viloyat doirasida barcha xo'jalik birliklarining soni va joylanishini, buning sababini anglab olish nihoyatda qiyin mashg'ulot. Qolaversa, ularni yod olish, an'anaviy nomenklatur bilimlarga ega bo'lish geografiyaning tub maqsadi, mohiyatiga ziddir. Energiya ishlab chiqarish sikllari u yoki bu shaharda, tuman yoki viloyatda nima uchun aynan shu korxonaga, sanoat va qishloq xo'jalik tarmoqlari rivojlangan va joylashgan degan savolga aniq javob beradi. Demak, bu yerda fakt-raqam yodlab olinmaydi, bu muhim emas; aksincha, hodisa yoki voqelikning sababi, ularning rivojlanish va hududiy tashkil etilishidagi qonuniyatlar o'rganiladi va asoslab beriladi.

Energiya ishlab chiqarish sikllari bu ma'lum bir xom ashyo va energiya negizida shakllangan va asosiy ishlab chiqarish jarayoni atrofida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining texnologik jihatdan turg'un aloqadorlikda bo'lgan mushtarakligidir. Bu g'oyani anglash uchun, albatta, texnologiya, ishlab chiqarishning kooperatsiyalash va kombinatlash kabi xususiyatlarini yaxshi bilish zarur.

Mazkur g'oya (usul)ning yana bir muhim ahamiyati shundaki, u ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligiga, chiqindisizligiga tayanadi. Bu esa atrof-muhitning tozaligini saqlash, ekologik muammolarning oldini olish va xom ashyo resurslaridan to'g'ri, samarali foydalanishga olib keladi. N. N. Kolosovskiy energiya ishlab chiqarish siklini rayonlar xo'jaligini tahlil va tashhis etishda muhim va qulay metod sifatida tavsiya qilgan edi. Darhaqiqat, ushbu metod hudud xo'jalik tuzilmasining ("zanjirining") naqadar to'liqligi, mukammalligini ko'rsatadi. Xuddi shu mazmunda I. V. Komarning resurs sikllari ham ma'lum ahamiyatga ega. Ushbu g'oya qazib olingan mineral yoki boshqa xom ashyoni to'la va uzluksiz ishlov berish zanjiri va jarayonining yana tabiatga qay holda qaytarilishini anglatadi.

Agrogeografiya sohasida rus olimi K. I. Ivanovning geografik konveyr yoki sikllar g'oyasini ham chetlab o'tib bo'lmaydi. Bunda qishloq xo'jalik mahsuloti (*ayniqsa, sabzavot, karam, pomidor, bodring, ko'katlar*)ning yil bo'yi mamlakatning turli rayonlarida navbatma-navbat yetishtirilishi va shu asosda aholi ehtiyojini muntazam, doimo qondirilib borilishi ham nazarda tutiladi. Masalan, ayrim tez pishar mahsulotlar eng avval mamlakatimizning janubiy rayonlarida, so'ngra uning boshqa qismlarida konveyr shaklida yetishtirib beriladi. Ayni paytda kech kuzda ham yana o'sha mahsulotlarni janubiy viloyatlardan sanoat markazlari va yirik shaharlarga keltirish mumkin. Geografik konveyr g'oyasi mamlakat yoki rayonlar xo'jaligini davriy, mavsumiy tashkil etilganligi va qishloq xo'jaligini agroiqlimiy sharoit bilan bog'liq ekanligini o'rganish, tadqiq etishda qo'l keladi. Uning asl mohiyati esa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va uni iste'molchilarga yetkazishning hududiy jihatlarini "zanjirsimon" tashkil etilganligini bildiradi.

Shahar, rayon, mamlakat va boshqa xududiy birliklar xo'jaligining tarkibi va joylanishini, rivojlanish darajasini o'rganishda ularning *iqtisodiy geografik o'rnini* bilish, tahlil etish ham juda katta mazmunga ega. Avval ta'kidlanganidek, iqtisodiy geografik o'rinni alohida usul sifatida qo'llashda, eng avvalo, uning turli darajali, qismli hamda tarixiylikini, vaqt davomida o'zgaruvchanligini unutmaslik lozim. Shu bilan birga, bu tushunchani avvalambor obyektning tashqi, o'zidan sirtida yotgan boshqa geografik obyektlarga nisbatan o'rnashganligini va ular bilan o'rganilayotgan obyektning hududiy - iqtisodiy aloqa va munosabatlarining muhimligini yana bir bor uqtirmoqchimiz. Har qanday katta-kichik xududiy birlikning iqtisodiy geografik o'rnini atroflicha tahlil etish uning o'tmishi, hozirgi holatini o'rganish va baholashga, istiqbolini belgilashda asos bo'lib xizmat qiladi. Iqtisodiy geografik o'rinni o'ziga xos o'rganish va tadqiqot usuli sifatida qarashning asl, tub mohiyati ham ana shundadir.

Biz ilgari ishlarimizda iqtisodiy geografik o'rin tushunchasiga batafsil to'xtab o'tgan edik (*Soliyev, Mallaboyev, 1988; Soliyev, Mahamadaliyev, 1996*). Binobarin, u to'g'risidagi fikrlarimizni ayrim misollar orqali tushuntirish bilan qanoatlanamiz. Masalan, Sohibqiron Amir Temurning Buxoroi Sharifni emas, Samarqandni o'zining buyuk imperiyasining dorulsaltanati (poytaxti) sifatida tanlab olishi, navqiron Navoiy shahrining tez rivojlanib, qisqa muddatda yirik sanoat va ma'muriy markazga aylanishi, juda katta tarixiy o'tmishga ega bo'lgan Xiva, Shahrisabz, Nurota, Romitan, Chust, G'ijduvon, Denov kabi shaharlarimizni hamon nisbatan kichik darajada qolishi ham, eng avvalo, ularning iqtisodiy geografik o'rni bilan bog'liq.

Bekobodda O'zbekiston va O'rta Osiyoda yagona qora metallurgiya korxonasi joylashtirilishi, Qarshi yoki Yangiyerda qurilish sanoatining yaxshi yo'lga qo'yilganligi va, aksincha, Termiz va Guliston shaharlari - viloyat markazlarining sustroq rivojlanganligi, Qoravulbozorda Fransiya bilan hamkorlikda ulkan neftni qayta ishlash zavodining barpo etilishi va boshqa juda ko'p misollar ham bu xususdagi tasavvurimizni yanada boyitadi va unga yorqin dalil bo'lib xizmat qiladi.

Xullas, iqtisodiy geografik obyekt bor joyda uning, albatta, iqtisodiy geografik o'rni ham mavjuddir. Chunki, uning uzoq va yaqin atrofida boshqa geografik obyektlar (*tog', daryo, yo'l, kon, chegara, shahar va h. k.*) joylashgan bo'lib, ular o'rganilayotgan borliqning iqtisodiy rivojlanganligiga o'z ta'sirini o'tkazib turadi. Faqat davlat miqyosida so'z yuritganda iqtisodiy geografik o'rin undan kengroq siyosiy geografik mazmunga ega bo'ladi va u o'rganilayotgan mamlakatning uning atrofidagi davlatlarga nisbatan joylashganligi, ular bilan chegara va siyosiy munosabatlari, jahon hamjamiyatida tutgan o'rnini anglatadi. Siyosiy geografik o'rin tahlilini metod sifatida qo'llash, asosan, jahon

mamlakatlari iqtisodiy va siyosiy geografiyasini o'rganishda yaxshi natijalar beradi.

Tadqiqotning umumiy mantiqiy metodlari. Ko'pgina fanlarda bo'lganidek, geografiyada ham *modellashtirish* usuli keng ishlatiladi. Modellashtirishda hodisa yoki voqelik umumlashtirilib, ma'lum bir ko'rinishda aks ettiriladi. Geografik modellarda voqelik aynan o'zining qiyofasini kichraytirilgan holda, ba'zan uni shartli belgilari orqali ifoda etadi. Shunuqta nazardan qaraganda, turli masshtab va mazmundagi kartalar geografik modellarning eng an'anaviy shaklidir. Shuningdek, matematik formulalar, grafik va jadvallarda ham fikr, hodisa yoki jarayon "miniatyura" ko'rinishida o'z aksini topadi.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada qo'llaniladigan grafiklarning turi ham har xil; ular tik to'g'ri burchak (yoki ochiq shakldagi grafik), ustunsimon, voronkasimon, piramidasimon, konus, xalqa, aylana, uchburchak, to'rtburchak (kvadrat), kubik kabi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Tadqiqotchiniig vazifasi ana shu har xil bo'lgan grafiklardan to'g'ri va o'rinli foydalanishdan iboratdir. Odatda, faqat bir ko'rinishdagi chizmalar bilan ishni to'ldirish muallifning bu xususdagi bilimsizligini anglatadi.


Muammoning mohiyat-maqсадiga qarab turli xil grafiklarni tanlab olish va ularni o'qib bo'ladigan darajada ixcham, chiroyli chizish lozim (*bu o'rinda geometriyadan olingan bilimlar ham kerak bo'ladi*). Masalan, agar u yoki bu jarayon, aytaylik, aholi soni, uning migratsiyasi, tabiiy harakati tug'ilish va o'lim hodisalari, xalq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishning vaqt davomida o'zgarib borishini ochiq grafik usuli yoki ustunsimon ko'rinishda tasvirlash ma'qulroq. Bunday dinamik grafiklarda mutloq va nisbiy sonlardan foydalaniladi.

Agar biror hodisa yoki voqelikning tarkibiy xususiyatlarini ko'rsatish talab etilsa, u holda aylana va kvadrat shakllarni qo'llash maqsadga muvofiq (*masalan, yer fondining tuzilishi, aholining milliy tarkibi va h. k.*). Bu yerda aylana

sektorlarga, kvadrat yuz katakchadan iborat bo'lgan to'g'ri to'rtburchaklarga ajratiladi, aylanada bir foiz 3,6 gradusga teng qilib olinadi va ular har bir sohaga mos ravishda turli rangda bo'yaladi.

Piramidasimon grafiklar (modellar) ko'proq demografiya va aholi geografiyasida (26-rasm)

aholining yosh tarkibini tasvirlashda ishlatilsada, ularni boshqa paytlarda ham qo'llash mumkin. Buning uchun ko'rilyotgan hodisa tabaqalanish, ierarxiyalik xususiyatga ega bo'lsa kifoya. Chunonchi, shahar yoki qishloqlar sonini ularning katta-kichikligiga qarab



26-rasm. O'zbekiston aholisining yosh-jins piramidasi (2019)

pog'onasimon shaklda aks ettirilsa, u holda tadqiq etilayotgan hududda qaysi guruhdagi aholi punktlari ko'p yoki kam rivojlanganligi, ishlab chiqarishni hududiy tashkil etish xususiyatlari yaqqol namoyon bo'ladi.

Grafiklarning yuqoridagilardan tashqari yana juda ko'p oddiy va murakkab shakllari mavjud. Ulardai foydalanish ham katta ahamiyatga ega bo'lib, buning uchun avvalambor tegishli statistik materiallarni to'plash va ularni qo'yilgan maqsadga muvofiq qayta ishlash talab etiladi. Demak, bu o'rinda grafik usuli statistik metodning davomi, uning amaliyotda yanada aiiqroq aks ettiruvchi vositasi bo'lib xizmat kiladi.

Bundan tashqari, boshqa fanlarda bo'lganidek, nktisodiy va ijtimoiy geografiyada ham *klassifikatsiya va tipologiya* usullaridan keng foydalaniladi.

Ular guruhlashtirishning rayonlashtirishga o'xshash alohida shakllaridir. SHu bilan birga, klass (bosqich) va tiplar bir-biridan sezilarli darajada farq kiladi. Masalan, klassifikatsiyada (*bu tushuncha dastavval biologiya fanida shved olimi Karl Linney tomonidan qo'llanilgan, keyinchalik u boshqa fanlarda, jumladan, geologiya va geografiyada ham ishlatilib kelingan*), eng avvalo, tadqiq etilayotgan hodisa yoki voqelikning miqdor ko'rsatkichlari e'tiborga olinadi. Klassifikatsiya obyektlarning pog'onasimonligi ko'rsatib beradi. Obyektlarning alohida tiplariga ajratilishi esa asosan ularning mohiyati, bajaradigan vazifasi (funktsiyasi), ixtisoslashuvi va yo'nalishini anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, tip — bu obyektning tashqi ko'rinishi, “basharasi” va uning ijtimoiy hamda hududiy mehnat taqsimoti natijasida shakllangan yo'nalishini aks ettiradi.

Fikrimiz ravshanroq bo'lishi uchun yana misollarga murojaat qilamiz. Shahar va qishloqlar katta, o'rta va kichik klasslarga bo'linadi, maxsus tadqiqotlarda esa shaharlar to'ri 8 ta klass yoki bosqichga ajratiladi. Shaharlarning ixtisoslashuvi, bajaradigan vazifasi ularning funktsional tiplarini bildiradi: poytaxt shahar, viloyat markazi, tuman markazi va h. k. ma'muriy - siyosiy funksiya; sanoat, transport, dam olish, fan markazlari va boshqalar shaharlarning ishlab chiqarish jarayonidagi funktsional tiplaridir.

Qolaversa, shahar va qishloqlar ham aholi punktlarining, aholini hududiy tashkil etishning asosiy shakli yoki tiplaridir. Rayonlashtirishda sanoat, qishloq xo'jalik, rekreatsiya, tog'-kon sanoati kabi rayonlar tipi mavjud. SHunday qilib aytish mumkinki, obyektlarning daraja bo'yicha tabaqalanishi vertikal, ularning tiplari gorizontal xususiyatga ega, ya'ni bu yerda klassifikatsiya ma'lum bir tizimdagi obyektlarning pastdan yuqoriga yoki, aksincha, qator tartibda joylanishini anglatadi, tipologiya esa turli yiriklikdagi obyektlarning umumiy o'xshashligiga karab ajratilgan guruhlarni bildiradi.

O'rganilayotgan hodisa miqdor jihatdan ko'p bo'lsa (aytaylik, shahar yoki qishloqlar, sanoat tarmoklari yoki korxonalar), ularni dastavval ayrim guruhlariga bo'lish talab etiladi. Chunonchi, bunday obyektlarni katta-kichikligi va tashqi shakli, vazifasiga ko'ra ajratish lozim bo'ladi. Ana shu holda tahlil etiladi va so'ngra umumiy xulosalar chiqariladi. Bunday yondashuv esa mantiqan gnesologik qonuniyatlarga mos keladi.

Murakkab obyektlarni - tarmoq yoki hududiy birliklarni tahlil etishda, ularni prognoz qilishda *tizim-tarkib usuli* samarali natija beradi. Bu usul barcha fan va dunyoqarashga tegishli bo'lib, u umumiylik bilan hususiylik, birlik bilan ko'plik o'rtasidagi munosabatni ifodalaydi. Eng muhimi shundaki, tadqiq etilayotgan obyekt tizim va, ayni paytda, boshqa bir tizimning tarkibiy qismi shaklida namoyon bo'ladi. Bu esa uning "ochiq" yoki "yopiq" ekanligidan kelib chiqadi. Masalan, yengil sanoat geografiyasi o'rganilganda uni tizim sifatida ham, tarkib shaklida ham tahlil etsa bo'ladi. Agar ushbu sanoat tarmog'iga "yopiq" tizim ko'rinishida yondoshilsa (*aslida, bu yerda uni aynan shunday qarash talab etiladi*), u alohida tizim darajasiga ega bo'ladi. Ammo mazkur sanoat tarmog'ini faqat shu darajada o'rganish qoniqarli natija bermaydi. Binobarin, uni alohida qismlardan (*to'qimachilik, poyafzal, trikotaj va h.k.*) tashkil topganini va ularning, o'z navbatida, turli korxonalardan - fabrikalardan iborat ekanligini inobatga olish va tahlil etish lozim. Shu bilan birga, yengil sanoatni "ochiq" tizim ko'rinishida ham tasavvur qilmoq kerak. Bu holda yengil sanoat mamlakat sanoatining, qolaversa, milliy iqtisodiyotning tarkibiy qismi ekanligini guvohi bo'lamiz.

Ma'lumki, har qanday tizim-tarkib, eng avvalo, ikki holda, ya'ni tarmoq va hududiy ko'rinishda bo'ladi. Hududiy tizim-tarkibga misol: maqsad Farg'ona iqtisodiy rayon. Demak, u yopiq tizim, uining birinchi darajadagi tarkibiy qismlari Andijon, Farg'ona, Namangan viloyatlari, ikkinchi darajadagilari esa viloyat ichidagi ma'muriy qishloq tumanlari va shaharlar, uchinchi darajadagi qismlari -

tuman ichidagi xo'jaliklar va h. k. Biroq, bu yo'sinda tadqiqot obyektining faqat ichki tuzilishiga "kirib" boriladi, vaholanki, u "Xitoy devori" bilan chegaralanmagan va o'zidan kattaroq bo'lgan hududiy iqtisodiy birlikning tarkibiy qismidir. Shu bois, yuqoriga nisbatan qarashni ham unutmash kerak. Tadqiqot obyektiga yuqoridan qaralsa, u boshqa bir tizimning tarkibiy qismi, "pastdan" esa u yaxlit tizimdir. Ammo har qanday tadqiqot objekti unga, eng avvalo, alohida tizim sifatida yondashuvni taqozo etadi, uning boshqa bir tizimning qismi ekanligi esa qo'yilgan maqsad nuqtai nazardan ikkinchi darajali masala hisoblanadi.

Tizimlar, tarkibiy qism yoki komponentlar (*quyi darajadagi tizimchalar, podsistemalar*), o'z navbatida, elementlardan tashkil topadi. Elementlar birlamchi bo'lib, ular tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda boshqa bo'linmaydi, parchalanmaydi. Agar yanada qismchalarga taqsimlansa, u holda boshqa mazmundagi tizimga o'tib ketiladi. Yuqoridagi misolimizning har ikkisida ham element sifatida sanoat yoki xo'jalik korxonalarini xizmat qiladi. Albatta, ular ham ichki, tarkibiy tuzilishga ega (*sex, brigada va h. k.*). Ammo bunday tarzda iqtisodiy geografik tizim ishlab chikarishning tashkiliy - boshqaruv tizimiga aylanib qoladi. Shunday qilib, tizim-tarkib usuli o'ta murakkab, lekin shunga muvofiq undan foydalanish juda samaralidir. Binobarin, tizim (sistema) konsepsiyasini qat'iylik va sobitqadamlik bilan o'rganish hamda uni ko'rqmay amaliyotda qo'llash kerak. Zero, har qanday yaxshi, sermahsul yo'l hech vaqt oddiy va oson bo'lmaydi.

Shuningdek, tizimlarning ichki va tashqi, vertikal va gorizontal aloqalari birligini, ularning mustaqilligi va boshqaruvchanligi, barqarorlik va boshqa xususiyatlarini unutmash kerak. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada ushbu metoddan (aslida u metodlar metodidir) foydalanishda turli darajada tarmoq tizim - tarkibdan hudud tizim - tarkibiga va, aksincha, hududiy tahlilni tarmoq tarkibi bilan mushtarak uyg'unlashtirilgan holda tadbiq etish nihoyatda muhimdir. Bu esa

tadqiqotchidan keng va qamrovli fikrlashni, turli miqyosda mushohada yuritishni va katta mahoratni talab qiladi.

Tizim-tarkib tahlili xo'jalik va uning tarmoqlarini hududiy tashkil etilishi bilan chambarchas bog'liq. Shu bois, u mamlakatning mintaqaviy siyosatini ishlab chiqarishda ham zarur. Ammo tizim tushunchasi shunchaki oddiy so'z emas, uni hamma vaqt va istagan joyda ishlatish to'g'ri bo'lavermaydi, Chunki uning, yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'ziga xos mezon va me'yorlari bor.

Rayon hududiy guruhlashtirishning tipik va murakkab shakli deb tavsiflandi. U hududiy tarkib va tizim shaklida geografiya fanining asl mohiyatini o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, har qanday guruh tizim bo'lavermaydi, bu o'rinda guruh, agar uni aholi misolida qaraydigan bo'lsak, u kishilarning hududiy birligi yoki sotsiumini, turli yosh, jins, millat, kasb va e'tiqodga ega bo'lgan aholining bir joyda to'planganligi, mujassamlanganligini ifodalaydi. Kishilarning hududiy birligi "jamoat" deb ataladi. Biroq jamoat jamiyat emas; jamiyat murakkab, uyushtirilgan tizim shaklida bo'lib, u o'zining bazis va ustqurmasiga, boshqaruv tashkilotlariga ega. Jamoat esa kishilarning ba'zan tasodifan, faqat ma'lum maqsad bo'yicha bir joyda yig'ilganligidir. Masalan, bekatda yoki bozorda, maschitda to'planganlarni ham jamoat deb atash mumkin. Ular, ya'ni bir-birlariga notanish shaxslar, transport vositasini kutish, sotish yoki xarid qilish, nomoz o'qish maqsadida to'planishgan, xolos.

Ayrim hollarda, sof demografik jarayonlarni ham hududiy tizim sifatida talqin etiladiki, bu nazarimizda xatodir. Jumladan, tug'ilish yoki o'limning hududiy tizimini ajratish, umuman, tizim tushunchasini chuqur anglamaslikka ishora hisoblanadi. Tug'ilishning hududiy birligi faqat tug'ruqxonada bo'lishi mumkin, vafot etganlarning hududiy umumiyliги esa hammaga ma'lum. Shuningdek, aholi migratsiyasini hududiy tizim shaklida ko'rsatish ham

o'rinsizdir, Chunki bu jarayonning o'zi bir joyda emas, balki hududlararo miqyosda sodir bo'ladi.

Tizim-tarkib usuliga *maqsadga dasturli yondashuv* yoki dastur - maqsad ("*programmno-tselevoy podxod*") yondashuv mohiyatan yaqin turadi. Ilmiy tadqiqotlarda qo'yilgan bosh maqsad va uni turli daraja hamda murakkablikdagi vazifalarining tarkib - tizimi ushbu usulga asoslanadi. Bunda eng past, quyi bosqichda o'rin olgan vazifani hal etish uchun katta mablag', kuch va vaqt sarflanmaydi, ammo uni yechmasdan turib navbatdasisiga o'tib bo'lmaydi ("*kichik kalit katta uyga yo'l ochadi*"). Bunda, vazifalar majmuini birin-ketin, ularning ustuvorligiga qarab paydar-pay hal etish talab etiladi, birinchisining yechimi ikkinchisiga, ikkinchisining uchinchi darajadagi vazifani bajarishga yo'l beradi va h. k.

Vazifalar va ular mazmunining muhimligi, dolzarbligi turli darajada bo'lgan muammolarni aks ettiradi va ularning ustuvorligi har xil bo'ladi. Binobarin, mazkur usul ayrim hollarda *maqsadga muammoli yondashuv*, deb yuritiladi. Bu yerda bosh maqsad - strategiya, faoliyat natijasi, vazifalar esa taktika, pirovard maqsadga erishish vositasi, jarayonidir. Shu bilan birga bosh maqsad ham turli pog'onadagi maqsad va maqsadchalarga bo'linadi va ularni shu tartibda daraxt shakliga, uning bo'yi, tanasi va shohlariga o'xshatish mumkin.

Albatta, har qanday vazifani ijobiy hal etish va tub maqsadlarga erishish o'z-o'zicha bo'lmaydi. Buning uchun moddiy va moliyaviy imkoniyatlar va eng muhimi ma'lum muddatdagi vaqt talab etiladi (*vaqt katta va bebaho boylik, resursdir*). Qo'yilgan maqsad va vazifalarni yechish ushbu masalani moliyaviy, ashyoviy, tashkiliy va boshqa tomondan uyushtirilishini taqozo etadi. Bu tadbirlar majmui esa dasturni tashkil qiladi. Shu bois, mazkur usul maqsadga dasturli yondashuv deb nomlanadi; uni ayni vaqtda, hozirgi zamon tili bilan aytganda, *klaster* usuli, deb ham belgilash mumkin.

Amaliyotda ilmiy asoslangan dasturlarni tuzish, ayniqsa, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, dolzarb muammoli masalalarni yechish uchun juda muhimdir. Chunonchi, O'zbekistan Respublikasi iqtisodiyotini bosqichma-bosqich bozor munosabatlariga o'tkazish va moslashtirish, yoqilg'i-energetika, yo'l va don mustaqilligiga erishish, qishloq infratuzilma shakllantirish va bu joylarga sanoatni olib kirish, mehnat resurslarndan samarali foydalanish, Orol muammosi kabi juda ko'p va mushkul masalalarni hal qilishda oldindan ishlab chiqilgan dasturlar lozim bo'ladi.

Xuddi shunday, ilmiy tadqiqotlarni bajarish - kurs va bitiruv malakaviy ishlarni, magistrlik va doktorlik dissertatsiyalarini yozish maqsadga dasturli yondashuv yordamida amalga oshiriladi. Buning uchun ishning maqsadi va vazifasi, mundarija - rejasi tuzilib, uning barcha bandlari ko'zda tutilayotgan mohiyati dastur shaklida keltirilishi kerak. Puxta tayyorlangan dastur ilmiy ishning o'z vaqtida va qiyomida bajarilishining garovidir. Qolaversa, inson ham o'zining kundalik faoliyatini muayyan maqsad doirasida tashkil etadi va uni ma'lum tartibda olib boradi. Demak, maqsad-dastur metodi nafaqat ilmda, balki oddiy hayotda ham qo'llaniladi.

Fanimizda, hususan, aholining yashash sharoiti va turmush tarzi, unga turli xil xizmat ko'rsatishning real holati, sotsial va ekologik muammolarni tadqiq etish hamda haqqoniy baholashda *anketa, sotsiologik tadqiqot usulining* ahamiyati beqiyosdir. Buning uchun avval ishning maqsad va vazifalari aniq belgilanadi va so'ngra puxta o'ylangan savol varaqasi yoki savolnoma tuziladi. Savollar turkumi o'ta qisqa yoki juda murakkab ham bo'lmasligi, ularga javob beruvchilar (respondentlar) uchun tushunarli bo'lmog'i kerak. Ayni paytda respondentlarning berilgan savollarga munosabati mumkin qadar oson, lo'nda va aniq bo'lishi anketalarni qayta ishlashda muhimdir. Ayrim savollarga javob berishda o'ziga mos kelgan so'zlarning tagiga chizish qo'layroqdir.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada, jumladan, aholining demogeografik jihatdan tadqiq etishda tug'ilish, migratsiya, mehnat bozori faoliyati kabi masalalar o'rganilishi talab etiladi. Bunda statistik ma'lumotlarga ko'ra jonli so'rov, bevosita kishilarning o'zlari bilan bo'lgan muloqot nihoyatda samarali va to'g'ri natijalar beradi. Chunonchi, oilani “rejalashtirish” yoki oilada nechta farzand bo'lishini, aholining migratsiya (*ko'chib ketish, ko'chib kelish*)ga layoqati, moyilligini aniqlashda anketa usuli tadbiiq etiladi. Shuningdek, aholiga tibbiy, madaniy-maishiy, savdo va boshqa turdagi xizmat ko'rsatish darajasini o'rganish va baholashda sotsial-demografik tadqiqotlar so'rov vositasi bilan olib boriladi. Hozirgi paytda yuzaga kelgan ekologik vaziyatni tahlil va tashhis qilish ham ko'proq ushbu usul orqali bajariladi.

Tabiiyki, qo'yilgan muammoni o'rganishda barchani (*agar tadqiq etilayotgan obyekt ko'pchilikni tashkil qilsa*) so'rash va javob varaqasini to'ldirish imkoniyati yo'q. Binobarin, aholining ma'lum qismi: ikkidan biri, uchdan biri, to'rttdan biri, beshdan biri, o'ndan biri va nihoyat yigirmatadan biri so'ralishi kifoya. Bunda anketa — so'rov usuli yuqoridagilarga mos ravishda 50, 33, 25, 20,10 va 5 foizlik saralash darajalarida o'tkaziladi. Ammo, so'ralganlarning miqdor ulushi, ularning javoblari tadqiq etilayotgan hodisaning umumiy va “o'rtacha” holatini to'g'ri baholashga muvofiq bo'lishi shart. Buni fanda so'rovning taalluqlilik darajasi (reprezentativligi) deb ataladi. Mazkur ko'rsatkichning me'yorida bo'lishi uchun so'rovga har xil manzillarda yashovchi, turli yosh, millat, kasb egalari jalb etilmog'i maqsadga muvofikdir (*ularning familiyasi, ismi-sharifi bu o'rinda aslo shart emas*).

Anketa usulining yuqoridagi “jonli” shaklidan tashqari uning boshqa ko'rinishlari ham mavjud. Masalan, biror bir korxonada yoki oliy o'quv yurtining sotsial-demografik xususiyatlarini aniqlash, mehnat resurslari tarkibini tahlil etishda kadrlar bo'limidagi kartotekalar (ma'lumotnomalar) o'rganiladi, Bu yerda

ham kartotekalar tanlov usulida va “nomsiz” tahlil etiladi. Kartoteka anketalarni o'rganish va tahlil etish natijasida ishchi yoki talabalarning yoshi, millati, qaerda turishi, tug'ilgan joyi, ma'lumoti, qaerdan kelganligiga o'xshash savollarga javob olinadi. To'plangan ma'lumotlar alohida jadval va diagrammalarda aks ettirilsa, tadqiqotning daliliyligi yanada oshadi.

Qo'yilgan savollarga respondentlarning javoblari, real vaziyatni xolisona baholashlari o'ziga xos *ekspert usuliga* yaqin turadi. Bu usul muammoga mutaxassis va mutasaddi kishilarning, taqrizchi, ekspertlarning beg'araz munosabatlari, bahosini bildiradi. Shunuqta nazardan bajarilgan kurs va bitiruv malakaviy ishlarining, dissertatsiyalarning muhokama etilishi va himoya qilinishida rasmiy va norasmiy taqrizchilar (opponentlar) ham ekspert sifatida qatnashadilar.

Muallifning o'zi ham bajargan ishlariga ekspert darajasida baho berishi mumkin. Aytaylik, shahar yoki tumanlarning istiqboldagi rivojlanish imkoniyatlarini aniqlash uchun ularning xom ashyo va mehnat resurslari, transport va ijtimoiy infratuzilma, iqtisodiy geografik o'rni, ekologik holati va boshqa shart-sharoitlari tadqiqotchi tomonidan baholanadi. Bunday baholash besh yoki o'n ballik tizimda bajariladi va olingan natija boshqa joyda saqlanadi. Ma'lum vaqt o'tgandan so'ng, ya'ni qo'yilgan baholar muallifning xotirasidan chiqqandan keyin yuqoridagi shart va sharoitlar, omillar qaytadan (*oldingisiga aloqador bo'lmagan holda*) baholanadi. Shundan keyin turli vaqtlarda amalga oshirilgan bir masalaning ikki vaqtdagi baholanish natijalari taqqoslab ko'riladi, solishtiriladi. Agar qaysi shahar yoki tumanga u yoki bu omilga berilgan baho bir-biriga aynan mos kelsa, u xolda vaziyat qat'iy va to'g'ri baholangan bo'ladi.

Aslida ekspert usuli amaliyotda fan va texnika rivojlanishi, olamshumul va umumbashariy, muhim va dolzarb muammolarni o'rganishda keng qo'llaniladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotning bozor munosabatlariga

qachon to'la o'tishi, Orol dengizi sathini saqlab qolish mumkin yoki mumkin emasligi, urbanizatsiya jarayonining, nozogeografik vaziyatning istiqboldagi darajasi, ekologik muammolarni hal etish imkoniyat va yo'llarini aniqlashda ekspert baholash usulidan foydalanish qo'l keladi. Buning uchun ko'rilayotgan masalaga daxldor, mutasaddi kishilar - olim va mutaxassislar jalb etiladi (*ular bir-birini tanishlari shart emas*) va tarqatilgan anketaga javob olinadi. Javob natijalari umumlashtiriladi va "o'rtacha" vaziyat aniqlanadi. Shunga qarab masalani yanada chuqurroq, ravshanroq o'rganish va yakuniy xulosalar chiqarish uchun ekspertlarga yangidan, aniqlik darajasi yanada yuqoriroq bo'lgan navbatdagi anketa (savolnoma) tarqatiladi. Xuddi shu tarzda ekspert so'rovlari yakuniy xulosa chiqarilganga qadar bir necha bosqichda o'tkaziladi.

Fan va texnika taraqqiyoti tajribasida ekspert usulining juda ko'p shakllari ishlatiladi. "Delfi" metodi ham shular jumlasidandir. Bunda ekspert belgilangan muammoga o'z fikrlash va vaziyatni real baholash qobiliyati (intuitsiyasi) dan kelib chiqqan holda shaxsiy munosabatini, o'zgalarning obro' va mansabi, tazyiq va ta'siridan mutlaqo holi, erkin sharoitda aniq ifodalab beradi. Masalan, shu yo'sinda AQSHda oltmishinchi yillarda "Rend korporeyshn" uyushmasi tashkil etilgan bo'lib, u mamlakatdagi mavjud turli tabiiy zahiralarning miqdori va qancha muddatga yetishini baholab bergan. Ko'pchilikka ma'lum bo'lgan "Rim klubi" ham global muammolarni o'rganish va baholashdagi faoliyatida ekspert usulidan qo'llashning eng yuqori namunasini ko'rsatgan.

Hodisa va voqeliklarni prognoz etishda nisbatan oson va oddiyroq bo'lgan *ekstrapolyatsiya usuli* ishlatiladi. Bu usulda kelajak, istiqbol ("perspektiva") o'tmish (retrospektiva) va hozirgi vaziyatdan kelib chiqadi. Shu mazmunda u genetik, tarixiy usul deb ham yuritiladi. Ekstrapolyatsiya metodida kelajakda ham yaqin o'tmishdagi holat, jarayon saqlanib qolinishi faraz qilinadi. Bunda kelajak, ya'ni bashorat (prognoz) muddatining o'tmish davriga imkoni boricha mos kelishi

maqsadga muvofiqdir¹⁷. O'tmish va istiqbolning davriy ko'rsatkichlari esa tadqiq etilayotgan hodisaning mohiyatidan, uning qayta tiklanish tsiklidan kelib chiqadi. Chunonchi, demografik prognozlar ekstrapolyatsiya usulida 15—20 yil muddatga mo'ljallab bajarilsa, ularning realligi, haqiqiyliги ancha yuqori bo'ladi. Demak, buning uchun o'tmishdagi jarayon ham huddi shuncha (15-20 yil) muddatni qamrab olmog'i lozim; o'tmishni ko'p olib nisbatan qisqa davrga prognozlash mumkin, lekin, aksincha emas-qisqa o'tmishga asoslanib uzoq, muddatni bashorat qilish notug'ri va haqiqatdan yiroq bo'ladi. Chunki, bunday sharoitda baholangan hozirgi vaziyat turg'un, barqaror bo'lmasligi, “qon'yuktura” holida bo'lishi tabiiydir.

Ilmiy ishlarni bajarishda, jumladan, aholi sonining o'sishi, qishloq xo'jaligi yoki sanoat tarmoqlarining rivojlanishi kabi masalalar ekstrapolyatsiya usuli yordamida amalga oshiriladi. Bunda o'tgan yillardagi o'sish yoki ko'payish sur'ati asos qilib olinadi va ana shu miqdor ko'rsatkichi prognoz yillari uchun “tarqatiladi”. Prognoz yilma-yil bajariladi, biridan ikkinchisiga ko'chirilib, surib boriladi (*sababi - bu yildagi ma'lum nisbiy ko'rsatkichning mutloq miqdori oldingi yildan-farq qiladi*). Demografiyada aholi prognozi ko'proq ana shu usulning murakkab shaklida - “demografik surish yoki siljitish metodi” vositasida amalga oshiriladi va bunday prognozning natijasi, aniqlik darajasi ancha yuqori bo'ladi. Bu yerda prognozni nisbatan uzoqroq muddatga mo'ljallash (bir avlod umriga teng darajada) imkoniyati tug'iladi va shu yili tug'ilganlarning o'rtacha umr ko'rish davri ham ilmiy asosda aniqlanadi.

Biroq har qanday prognoz - bashorat ehtimollikdan holi emas va u mutloq aniqlikka aslo da'vogarlik qilmaydi (*unda xatolik $\pm 5\%$ gacha bo'lsa qoniqarli hisoblanadi*). Prognozning asosiy vazifasi - tadqiq etilayotgan voqelik yoki hodisaning yaqin, o'rta va uzoq kelajakdagi taxminiy holatini aniqlashdan

¹⁷ Bu yerda “prognoz” so'zi ma'qulroq va u kelajakni ilmiy asosda belgilashni anglatadi. Bashorat esa ayrim kishilarning (Nostrodamus, Vanga va b.), “baxshilarning” tasavvuri, oldinni aytib berishi demakdir.

iboratdir, Shu o'rinda ekstrapolyatsiya usulining muhim bir kamchiligini qayd etish lozim. Bu ham bo'lsa, uning faqat obyekt ichki imkoniyatlaridan kelib chiqishi va tashqi omillarni xisobga olmasligidir (*shuning uchun uni ayrimlar "ko'r" yoki inertsiya, genetik usul deyishadi*). Ammo, shunga qaramay, ekstrapolyatsiya metodining ahamiyati katta va uni qo'llash ancha qulay, oson. Qolaversa, prognoz qilishning boshqa usullarida ham ma'lum darajada ekstrapolyatsiya elementi mavjuddir. Shu bilan birga faqat kelajak emas, balki o'tmish ham hozirgi kun nuqtai nazardan ekstrapolyatsiya qilinadi. Bunday retrospektivani o'rganish ayniqsa tarix, arxeologiya (qadimshunoslik) fanlarida ko'p qo'llaniladi.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada turli xil *jonli muloqatlarni olib* borish ham foydalidir. Bunda beg'araz muzokora va muhokama jarayonida aniq, obyektiv xulosaga kelinadi. Biroq, bahs-munozara (diskussiya) to'g'ri, oqilona va odilona olib borilishi kerak. Ushbu usulning yana bir muhim mohiyati shundaki, unda qatnashchilarning bilim doirasi kengayadi. Agar ikki kishi bittadan olma almashishsa, ularning har birida bittadan olma bo'ladi, fikr almashishsa, ularning har birida 2 tadan fikr (yangilik) paydo bo'ladi.

So'nggi yillarda ilmiy tadqiqotlarda **SWOT**-tahlil usuli ham qo'llanilmoqda. U hududning kuchli, zaif, imkoniyat va tahdid tomonlarini belgilashni nazarda tutadi. Natijada, o'rganilayotgan obyektning raqobatbardoshligiga erishish yo'llari aniqlanadi. Mazkur usulni tahlil-tashhis usuli deb aytish ham mumkin. Eng muhimi bunda zaif va imkoniyatlarga ham e'tibor qaratiladi, tahdid hisobga olinadi va shu asosda istiqbol rivojlanishi yo'llari belgilanadi.

Shunday qilib, iqtisodiy va ijtimoiy geografik tadqiqotlarni bajarishda turli xil usul va vositalardan foydalaniladi. Tadqiqotchidan esa ana shu metodlarni, o'zining oldiga qo'ygan maqsad va vazifalari doirasida to'g'ri va samarali qo'llash

talab etiladi. Faqat birgina usuldan foydalanish kifoya qilmaydi, binobarin, ular birgalikda katta samara beradi.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Induksiya va deduksiya ilmiy tafakkur (bilish) ning usuli sifatidagi o'rni ahamiyatini tushuntiring?
2. Umumgeografik metodlarga qays metodlar kiradi?
3. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaga xizmat qiluvchi metodlarni tushuntiring?
4. Tadqiqotning umumiy mantiqiy metodlarini qolgan metodlardan farqli tomlari nimada?

MAVZUGA DOIR ASOSIY TUSHUNCHALAR

Individual ilmiy tadqiqot. Individual ilmiy tadqiqot - yakka tartibda amalga oshiriladigan va kashfiyot yoki innovatsion ixtiro natijalari uchun shaxsan o'zi javob berishi ko'zda tutilgan tadqiqotdir.

Ilmiy tadqiqot jarayonida erkin bo'lish – moneliksiz ijod qilish, birovning qolipiga tushmaslik, yangi ilmiy bilimlarni olish va qayta ishlashda obyektiv va xolis bo'lish muhimdir.

Texnikaviy tadqiqot. Texnikaviy tadqiqot voqelikni amaliy (texnologik) o'zgartirish bilan bog'liqdir. Texnikaviy ijod o'zining psixologik tavsifiga ko'ra ilmiy ijodga yaqin bo'lsa-da, farqli tomonlarga ham ega. Ular quyidagilarda ko'rinadi.

- Texnikaviy tadqiqot tafakkurning ko'rgazmali-obrazli va ko'rgazmali-ta'sirchan komponentlariga tayanadi.
- Texnik tadqiqot jarayoni ixtirochilik, loyihalashtirishda namoyon bo'lib, amaliyot talablariga javob beradigan mexanizmlar, konstruktsiyalar ixtirosi uning natijasi hisoblanadi. SHu ma'noda, texnikaviy tadqiqot ratsional va utilitar xususiyatga ega.

- Ixtiro qilingan narsa, u mavjud texnik bazis, texnik ravnaq erishgan darajaga tayansa-da, vujudga kelguniga qadar mavjud bo'lmaydi.

Badiiy ijod bilan bog'liq ilmiy tadqiqot. *Badiiy ijod voqelikni estetik o'zlashtirish va odamlarning estetik ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liqdir.*

Pedagogik tadqiqot – bu pedagogik jarayonda yangilikni izlash va topishdir. Bunday ijodning birinchi bosqichi – o'zi uchun yangilikni kashf etish, pedagogik vazifalarni hal etishning nostandart vositalarini bilib olishdan iborat. Bunday vositalar avvaldan ma'lum, biroq pedagog tomonidan qo'llanilmagan bo'ladi. Bu yerda gap innovatsiya kabi obyektiv yangilik haqida emas, balki subyektiv yangilik to'g'risida bormoqda. SHunday bo'lsa-da, eski usul va vositalardan yangicha sharoitlarda foydalanish ham mumkin. Ikkinchi bosqich – nafaqat o'zi uchun, balki boshqalar uchun ham yangilikni kashf etish, ya'ni novatorlikda namoyon bo'ladi. Masalan, pedagogik jarayon uchun samarali bo'lgan o'qitishning yangi metodini ishlab chiqish bunga misol bo'la oladi.

Gipoteza - Ilmiy tadqiqot va ijodiy faoliyat inson intellektual salohiyatini yuksaltiruvchi omillar bo'lib, bular orqali insonning biladigan haqiqati ham bilimdan iborat bo'ladi, aql esa ilmdan quvvat oladi va shuning bilan birga ilm ham egallanadi.

Nazariya - bu tabiat va jamiyat qonunlarining tushunishgagina emas, balki unga faol ta'sir etib aqliy asosda o'zgartirishlar kiritish haqidagi ilmiy g'oyalar to'plamidir.

Paradigma - Ilmiy-tadqiqot faoliyatida paradigma ham o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Paradigma, ilmiy muammolarni yechishga doir, ilmiy jamoa tomonidan tan olingan, aniqlangan qonuniyatlarni fikrlab olishga yordam beradigan va shuningdek, ushbu fan sohasining yanada rivojlanishini prognozlashga yordam beradigan idealdir.

7 – MAVZU

GEOGRAFIYA FANINING VUJUDGA KELISHI

Maqsad: Talabalarga ilmiy tadqiqotlar geografiya fanining vujudga kelishini asosi sifatida haqida tushuntirish.

Tayanch soʻz va iboralar: Dissertatsiya yozish, taʼlimot, nazariya, konsepsiya, tushuncha, minimum imtihonlari, statistik maʼlumotlar, avtoreferat, xulosani yozish.



REJA:

1. Ilmiy tadqiqot geografiya fanining vujudga kelishini asosi sifatida
2. Dissertatsiya yozishga tayyorgarlik davri
3. Ilmiy tadqiqot ishi mavzusini tanlash
4. Ilmiy tadqiqot ishining reja va dasturini tuzish
5. Minimum imtihonlarini topshirish va mavzuga doir maxsus adabiyotlarni oʻrganish
6. Statistik maʼlumotlar bilan ishlash va dissertatsiya matnini yozish
7. Avtoreferat ustida ishlash, dissertatsiya muhokamasi va himoyasiga tayyorgarlik



Ilmiy tadqiqot geografiya fanining vujudga kelishini asosi sifatida. Fan ijtimoiy hayotning oʻta murakkab, serqirrali va ayni vaqtda masʼuliyatli jabhasidir. Binobarin, u katta matonat, jasorat, shijoat va sabru toqatni talab etadi. Shuning

uchun boʻlsa kerak, fanga fidoiylilik, ilmga intilish hammaning ham qoʻlidan kelavermaydi.

Darhaqiqat, fan nihoyatda mashaqqatli, poyoni yoʻq, egri - bugri, baland - past, oʻnqir - choʻnqir, kutilmagan ichki va tashqi toʻsiqlarga boy yoʻl. Biroq, uzoq qorongʻida yiltirab turgan shamchiroq, mashʼal shu ʼlasi boʻlsa bas, olim hamma

vaqt barcha qiyinchiliklarga bardosh berib, tinmay, *tunlari bedor, kunlar chuqur xayolot (ilmiy fantaziya) olamida kelajak uchun sobitqadamlik bilan intilaveradi.*

Ilm bilan shu g'ullanish kishilar uchun buyuk ne'mat, katta iste'doddir, unga faqat shijoatli, chiniqqan, sadoqatli kishilargina erishadilar, xolos. Ilm qilish millat va chegarani bilmaydi, u bilai shu g'ullanish hech vaqt kech emas; ilmning vatani yo'q, ammo vatansiz olim bo'lmaydi. "Olim bo'lsang, olam seniki", deyishadi. Bu chindan ham haq gap. Lekin olamni bilgangina (o'z fani doirasida) olim bo'la oladi.

Olimlik vazifa, martaba emas, uni sotib ham, sotib olib ham bo'lmaydi. Bu - kishining barkamollik darajasi, odamiyligini belgilovchi bir kasbdir. Lekin olimlik bilan odamiylik hamma vaqt birga, bir shaxsning o'zida mujassam bo'lavermaydi. Qolaversa, fahmu farosat va aqlu zakovat albatta faqat ziyolilargagina emas, balki barcha oddiy kishilarga ham xos xususiyat, odat bo'lmog'i zarur. Ammo ular olim-u fuzalolar uchun nihoyatda kerak, zero olim bo'lish osonu, odam bo'lmoq qiyindir.

Fan bilan shu g'ullanish uchun katta iste'dod va iqtidor kerak. Ko'pgina hollarda bu ish qulay sharoitda emas, balki qiyinchilikda amalga oshiriladi. Shu bois, biror narsa yoki hodisa to'g'risida ilmiy ish yozish uni yozish mumkin bo'lgan sharoitda emas, aksincha, yozmaslikning iloji bo'lmagan vaziyatda bitiladi; ilmiy izlanishlarning ko'p vaqti natijasiz va faqat kichik bir qismi muvaffaqiyatli bo'ladi. Lekin ana shu bir foiz ham fan uchun o'ta ahamiyatlidir.

Olimga kamtarlik ravodir. Mansab va amal, obro', moddiy manfaatdorlik, boyluk orttirish uchun qilingan ilmiy ishning oqibati, xosiyati yaxshi bo'lmaydi. Nazarimda, boshqalarning, o'zgalarning olimligini ham tan olgan kishigina haqiqiy olim hisoblanadi, Shuning uchun olimga, fan fidoiysiga ilmiy xudbinlik, manmanlik, o'zini bilib o'zгани mensimaslik, sergaplik va mahmadonalik, bilmagan narsalarg'a ham da'vogarlik qilish yotdir va uyatdir.

Abu Shukur Balxiy yozadilar:

«Biliming osmonga yetgan bo'lsa ham,
Boshqalar ilmiga qulok, sol har dam».

Juda to'g'ri aytilgan bu pandnoma kamtar bo'lishga ishoradir. Bu borada, ya'ni olimning kamtar bo'lish timsolida hurmatli domlalarimiz H.A.Abdullayev, X.Sirojiddinov, I.M.Mo'minov, H.H.Hasanov va boshqalarni nazarda tutmoqdamiz. Darhaqiqat, bunday kishilar ilm fidoiysi, chin inson, buyuk siymolardir.

Fan bilan shu g'ullanish uzluksiz jarayon; kishining yoshi ulg'aygan sari dunyoviy bilim bilan birga diniy bilimlarga ham ehtiyoji, qiziqishi va ishtiyoqi ortib boradi. Ayni paytda, diniy va dunyoviy bilimlarning mushtarakligi, uyg'unlashu vi xaqiqiy inson, dono va bilimdon bo'lib yetishiga ko'mak beradi.

Fanda umidsizlikka yo'l yo'q. Zero, qiyinchiliklar, muammolarning o'zi ham vaqtinchadir; qolaversa, bu muammolar ularni bartaraf etish uchun yuzaga kelgan, xolos.

Shu bilan birga, ilmiy izlanishlarda quvonchli onlar, kutilmagan natijalar qam borki, ular kishiga yangi-yangi kuch va g'ayrat, shavqu zavq, xush ma'naviy kayfiyat bag'ishlaydi, navbatdagi ishlarga chorlaydi.



27-rasm. N.Dolimov

Qizig'i shundaki, ilmni ishni qat'iy rejalashtirish qiyin, qilinadigan ishning aniq muddati ham bo'lmaydi. Chunki, bu yerda fanning o'zini ichki rivojlanish qonuniyatlari mavjud. Ba'zan yozish ishtiyoqi paydo bo'lganda, afsuski, uning uchun vaqt yetishmaydi, sharoit bemalol bo'lganda, fikr (ilhom) yugurmaydi. Demak, ilm qilish uchun vaqt va ilhom qo'sh birligi zarurdir.

Marhum domlamiz N.D.Dolimov (27-rasm) “olim bo’lish uchun, avvalombor, o’tira bilishni o’rganish kerak”, degan edilar. Chindan ham kishining ilmiy ish qilishiga uning bemalol, bexavotir o’tirishi talab etiladi, har qanday narsalarni bahona qilib to’xtovsiz chiqib - kirishlar, betoqatlik va xayolparokandalik natija bermaydi, uzluksiz sigaret chekish esa kasallikni chaqiradi.

Shunday qilib, ilmiy ishga, eng avvalo, zukko, ziyrak va zehni o’tkir yoshlarni jalb etmoq lozim. Ular, ayni paytda, bilimga tashna, fanga ixlosmand, odobli, yuksak madaniyatli va ma’naviy dunyosi keng va boy, barkamol bo’lishlari kerak. Aminmizki, bunday yoshlar yurtimizda bisyor va ular kelajagi buyuk, mustaqil O’zbekiston davlatining milliy iqtisodiyotini ziyoda qilishadi, uning siyosiy-iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy rivojlanishida hamda zamonaviy ilmiy texnika salohiyatini mustahkamlashda tinmay xizmat qiladilar.

Ushbu risola muallifning ko’p yillik ilmiy - pedagogik va kadrlar tayyorlash tajribalari asosida yozilgan.

Dissertatsiya yozishga tayyorgarlik davri. Biz yuqorida ilmiy faoliyatning uzluksizligini ta’kidladik. Nomzodlik yoki doktorlik dissertatsiyani himoya qilish esa ushbu jarayonning ma’lum bir pallasi, bosqichi hisoblanadi, lekin u ilmiy izlanishning aslo oxiri emas. Binobarin, har qanday dissertatsiyaning himoyasi kishining ma’lum bir darajaga yetganligini, elu yurt, ilmiy jamoa va muhitda hisobotidir, xolos. Shu bois, ilmiy tadqiqot ishi keyinchalik ham davom etaveradi; ilmiy ish himoya uchun emas, himoya ilmiy ishni davom qildirish uchun bajariladi.

Ayni chog’da, dissertatsiya mukammal va mufassal ilmiy faoliyatning natijasi sifatida oddiy monografiya yoki ommabop kitobdan farq qiladi. Unda, keng avvalo, nazariy va amaliy ahamiyatga molik bo’lgan dolzarb muammolar, ushbu masalaga dahldor qonuniyatlar aniqlanadi. Chunki, fan – qonuniyatlarni, haqiqatni aniqlash demakdir. Qonuniyat va haqiqatlar esa, hodisa yoki voqeliklar

o'rtasidagi muntazam takrorlanib turuvchi aloqadorlik, sabab va oqibat birligini anglatadi. Sabab va oqibatni o'rganish, o'z navbatida, deterministik dunyoqarashga asoslangan bo'lib, uning zaminida turli xil omil va sharoitlar, aynan shu makon va zamon uchun xos va mos bo'lgan tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa dalillar yotadi.

Ma'lumki, tabiatda ham, jamiyatda ham hech narsa tasodifan sodir bo'lmaydi. Shunouqtai nazardan, har qanday tasodif chuqur o'rganilmagan qonuniyatdir. Qonuniy aloqadorlik, vorislikni aniqlash esa vaqti-vaqti bilan yuzaga keladigan hodisalarni, ularning sir-asrorlarini bilib olishni hamda istiqbolni bashorat etishga imkon beradi.

Shu o'rinda ilmiy bilimga oid ba'zi bir tushunchalarga to'xtab o'tish foydali bo'lsa kerak. Masalan, **ta'limot** - bu V.P.Maksakovskiy fikricha, ilmiy yo'nalishning qaysi bir sohasiga oid nazariy masalalar birligidir. U, o'z navbatida, qator nazariya hamda konsepsiyalarni o'z ichiga oladi.

Nazariya — muayyan ilmiy sohaga tegishli qonuniyatlar va mavjud o'zaro aloqadorliklar haqida to'liq tasavvur beruvchi ilmiy bilim shaklidir. U, odatda, tajriba yoki hisob - kitoblar bilan asoslanadi.

Konsepsiya - (lot. – tushinish, tizim va h.k.) - ma'lum jarayon yoki voqeylikning mohiyatini tushunishga xizmat qiluvchi bosh g'oya, nazariya yoki nazariyalarning asosiy elementlarini birlashtiruvchi tushuncha hisoblanadi.

Tushuncha - predmet va voqeylikning eng muhim xususiyatlari hamda aloqa va munosabatlarini ifodalovchi bilim kategoriyasidir; u ayni vaqtda ta'limot, nazariya va konsepsiyalarning ham elementi sifatida mavjud bo'ladi.

Albatta, ilmiy tadqiqot ishlarida, jumladan dissertatsiya yozishda izlanuvchi yuqoridagi ilmiy g'oya, nazariya, konsepsiya kabilarni yaxshi anglab olishi kerak.

Dissertatsiya yozish ilmiy ishning bir muhim turi yoki shaklidir. U ham juda murakkab jarayon bo'lib, o'z qamroviga mavzuni tanlash, uning reja va dasturini

tuzish, kerakli statistik va kartografik materiallarni to'plash va tahlil qilish, maxsus ilmiy adabiyotlarni o'rganish va, nihoyat, dissertatsiya matnini yozishni oladi.

Ilmiy tadqiqot ishi mavzusini tanlash

Bu muhim va mas'uliyatli masaladir; uning qanchalik to'g'ri, aniq, dolzarb, ilmiy va zamonaviyligi dissertatsiya ishining o'z muddatida bajarilishi va muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Mavzuni tanlashda (agar uni aspirantning o'zi aniqlamagan bo'lsa) ilmiy rahbar katta rol o'ynaydi, chunki u ilmiy yo'nalish va muammolarning naqadar o'rganilganligi, muhimligidan ko'proq xabardordir. Biroq, rahbar bo'lajak ilmiy xodim yoki aspirantga biror bir mavzuni qat'iy buyurmasligi, topshirmasligi kerak. Aksincha, dissertant e'tiboriga ma'lum muddat davomida chuqur va atroflicha mushohada qilish uchun bir necha mavzular yoki turdosh, yaxshi o'rganilmagan muammolar bankini tavsiya etgani ma'qul. Masalan, iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada ko'prok, sotsial geografik muammolar, aholiga xizmat ko'rsatish sohalari, fan, tibbiyot, turizm va din geografiyasini o'rganish katta ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, siyosiy va tarixiy geografiyaga oid masalalar, iqtisodiyotda esa geografiyaga oid masalalar, iqtisodiyotda esa hozirgi sharoitda ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va joylanishi, ularni davlat tomonidan boshqarib borish, iqtisodiy rayonlashtirish, mamlakatning mintaqaviy siyosati kabi mavzular ham dolzarbdir. Qolaversa, sanoat va transport, tashqi iqtisodiy aloqalar geografiyasi, kichik va qo'shma korxonalarni qurish muammolari, mulkchilikning turli shakllari vujudga kelayotgan bir paytda qishloq xo'jaligining rivojlanishi va hududiy tashkil etilishi masalalari, tadbirkorlikning geografik jihatlari ham o'rganishni talab etadi.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, agar ilmiy ishning ma'lum bir yo'nalishidagi mavzusi talabalik davrdan, avval kurs, so'ngra malakaviy bitiruv yoki magistr dissertatsiyasi shaklida uzluksiz davom ettirilsa, shubhasiz, u muvaffaqiyatli va

samarali bo'ladi. Bunday holda cheklangan aspirantlik muddatining qimmatli qismi mavzu va ilmiy rahbarni qidirishga ketmaydi, behuda sarf etilmaydi.

Tavsiya etilgan mavzularning biriga tadqiqotchi o'z moyilligini bildirishi kerak, bu muammoga uning haqiqiy qiziqishi, ishtiyoqi paydo bo'lganidagina u bajarilishi mumkin. *Agar izlanuvchi biror bir mavzu yoki muammoga o'zining qat'iy qarorini bildirmasa, barqaror fikrga ega bo'lmay, bugun bitta, ertasiga esa boshqa mavzuga "sakrab" yursa, bilingki, hali u "pishmagan" va ilmiy ish bajarishga tayyor emas.* Albatta, buning uchun aspirant ma'lum vaqt davomida kutubxonalarda tavsiya etilgan mavzuga doir ilmiy adabiyotlarni mutolaa qilishi, yetakchi mutaxassislardan maslahat olmog'i zarur.

Mavzuni tanlashda, shoshma - shosharlik ketmaydi. Biroq, uni alohida qaror bilan ham tadqiqodchiga yuklash mumkin emas. Mavzuni aniqlash va uni kafedrada muhokama qilish uchun, taxminan, 2 - 3 oy vaqt ketadi.

Geografik tadqiqotlar uchun mavzu tanlashda obyektning hududiy qamrovi katta ahamiyatga ega emas. Afsuski, ilgari dissertatsiya mavzusining dolzarbligi ko'proq o'rganilayotgan hududning ko'lami bilan belgilanar edi (bu borada butun bir respublika, hatto, O'rta Osiyo mintaqasi olinar edi). Tabiiyki, bunday holatda muammo chuqur o'rganilmay, yuzaki, asosan axboriy mazmun kasb etardi, xolos.

Binobarin, nisbatan kichikroq hududni chuqur va atroflicha o'rganish, katta joyni yuzaki ta'riflash va tavsiflashdan, suratga olishdan ko'ra yaxshiroq, afzalroqdir; shu paytgacha katta kichraytirib o'rganildi, endi esa aksincha - kichkina kattalashtirib tadqiq qilinishi kerak.

Donolar fikrlaricha, ikki xil bilim bo'lishi mumkin ekan: biri kuchli, ammo tor, ikkinchisi keng, biroq sayoz. Albatta, hozirgi davrda barcha narsani bilib bo'lmaydi va ayni vaqtda fikrlash doirasi o'ta tor kishi ham bir tomonlama bo'lib qoladi. Shu bilan birga, ilmda kattada kichikni, kichikda esa kattani, yangida eskini, eskida yangini ko'ra olish, noo'xshash narsalarda o'xshashlikni,

o'xshashlarida esa ular o'rtasidagi farqni aniqlay olish kerak. Ammo katta bilan kichik o'rtasida qat'iy chegara yo'q, chunki, ularning har ikkisi birgalikda butunlik uchun bir xil muhimdir (N.Bor). Shu bois, fanda barcha, ya'ni kattayu - kichik barobar va muhimdir.

Dissertatsiya mavzusining nomiga ham e'tibor bermoq lozim. Ba'zan biror bir muammo qaysi bir voqea yoki rayon "misolida" bajarilishi, tadqiq etilishi mumkin, Albatta, bunday ishlardan katta nazariy -uslubiy mahorat talab etiladi, chunki, yozilgan dissertatsiya faqat shu rayon uchun tegishli bo'lmay, undagi ilmiy - uslubiy yondashuvlar boshqa, shunga o'xshash mavzu va muammolarni o'rganishda ham foydali bo'lmog'i zarur. Bundan tashqari, ayrim hollarda dissertatsiya mavzusining matnida "tadqiqot", "xususiyat", "muammo", "o'rganish", "tahlil" kabi ortiqcha iboralar yoki shu mutaxassislikni anglatuvchi fanning nomi ishlatiladiki bu, nazarimizda, maqsadga muvofiq emas.

Yana shuni ta'kidlash joizki, aynan bir mavzu turli davrlarda har xil mintaqalar doirasida bajarilishi ham mumkin. Birinchi holat ma'lum vaqt o'tishi, ijtimoiy-siyosiy hayotda bo'lib o'tgan tub o'zgarishlar bilan izohlanadi (bir yunon faylasufi aytgan ekan: bir oqimning o'ziga ayni bir vaqtning o'zida ikki marta sho'ng'ish mumkin emas, chunki ikkinchi marta suvga tushganda suv ham, siz ham avvalgiday bo'lmaysiz). Ikkinchi holatda esa bajariladigan mavzu turli hududlarda o'ziga xos mintaqaviy jihatlarga, qonuniyatlarga ega bo'lmog'i zarurki, ular, o'z navbatida, shu joyning mahalliy xususiyatlaridan kelib chiqadi.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, mavzuni tanlashda, eng avvalo uning o'rganilganlik darajasi, statistik ma'lumotlar to'plash imkoniyatlari, ilmiy va amaliy ahamiyati katta rol o'ynaydi. Shuningdek, olingan mavzu fanning aniq bir yo'nalishiga, ixtisosligiga (shifriga) mos tushishi maqsadga muvofiqdir. Aks holda, keyinchalik bajarilgan dissertatsiyasini ko'tarib tadqiqotchi qaysi Ixtisoslashgan kengashga borishini aniqlay olmay ko'p qiyinchiliklarga uchraydi

(xristian dinining vakili cherkovga, musulmon machitga borishi kerak, aksincha emas).

Mavzuning nomi juda sodda yoki va o'ta murakkab, "uzun" ham bo'lmasin. Tabiiyki, belgilangan mavzu dastavval aspirantga ancha noaniq tuyulishi va uni "cho'chitib" qo'yishi mumkin. Bundan xavotirlanish kerak emas; agar muammo har tomondan ma'lumu - ravshan bo'lsa, demak uni o'rganishning hojati yo'q. Rassom Salvador Dali aytgan ekan: "Agar chizmoqchi bo'lgan rasmingiz (asaringiz) sizga to'la aniq, tushunarli bo'lsa, uni mutlaqo chizmasligingiz ham mumkin".

Geografiya, jumladan iqtisodiy va ijtimoiy geografiya bo'yicha dissertatsiya mavzulari juda ko'p, behisob. Ular qaysi bir sohaning (tarmoqning) hududiy jihatlari yoki ma'lum bir hududning ichki xususiyatlari (tarmoqlar tarkibi) bilan ham bog'liq bo'ladi. Ayni vaqtda geografiyaga oid turli hududiy tarkiblar o'rtasidagi aloqadorlikni o'rganish ham yuqori ilmiy natijalarni beradi.

Ilmiy tadqiqot ishining reja va dasturini tuzish. Mavzuning nomi aniqlangandan so'ng uning rejasi, ya'ni bob va bandlari (paragraflari) tuziladi. Albatta, dissertatsiya necha bob va qismlardan iborat ekanligi to'g'risida hamma uchun va hamma vaqt qo'l keladigan muayyan, qat'iy ma'lum bir andoza yo'q. Bu ishning maqsad va yo'nalishiga, xususiyatiga bog'liq.

Ammo shuni e'tiborga olish kerakki, har qanday ilmiy faoliyat uch asosiy bosqich yoki qismdan iborat bo'ladi: tahlil (analiz), tashhis (diagnoz) va bashorat (prognoz). Yoki, boshqacha qilib aytganda, har qanday ilmiy tadqiqot 3 bosqichdan tashkil topadi. Bular:

- ❖ gnesologik bosqich (faktlarni to'plash, tartibga tushirish, tahlil qilish va ularni o'rganish);
- ❖ diagnostik bosqich (vaziyatni aniqlash va baholash, u haqida to'la tasavvur hosil qilish);

❖ prognostik bosqich (muammolarni asoslash va kelajakni ilmiy bashorat etish).

Demak, aytish mumkinki, dissertatsiya ko'p hollarda ana shu uch asosiy bob yoki qismdan tashkil topmog'i kerak. Bunday tavsiya, eng avvalo, nomzodlik dissertatsiyalar uchun maqbul. Doktorlik dissertatsiyasida esa bularga qo'shimcha ravishda alohida nazariy (metodologik) qism ajratilishi shart. To'g'ri, har qanday dissertatsiya ilmiy tadqiqot ish bo'lganligi sababli nomzodlik dissertatsiyasida ham nazariy - uslubiy masalalar bo'lmog'i darkor. Ammo, buning uchun nomzodlik dissertatsiyalarida maxsus bob ajratish shart bo'lmasa kerak. Ular birinchi bobning dastlabki paragraflarida bayon etilsa ham bo'laveradi.

Har bir ajratilgan bob 2-3 tadan (ba'zan undan ortiq bo'lishi mumkin) band yoki paragraflarga bo'linadi. Bu bandlar bir-biri bilan mohiyat va mazmuni bo'yicha aloqador, biri ikkinchisidan kelib chiqadigan bo'lsa, u holda ishning mundarijasi mukammal, mantiqiy jihatdan to'g'ri va tizim - tarkib uslubiga mos kelgan bo'ladi.

Ammo, bob va paragraflar nomi va soni ham qat'iy emas, ular ish jarayonida o'zgarib boraveradi. Eng muhimi - dissertatsiya mavzusi, bob va bandlarining nomi puxta o'ylangan, sodda va ayni paytda aniq, qisqaroq, bo'lgani, uning shakli mazmuniga, surati siyratiga muvofiq kelmog'i kerak. Dabdabali, balandparvoz nom qo'yib, uning mazmunini to'ldira olmaslikdan ko'ra, aksincha, kamtarona, oddiyroq nomlab ishning mazmunini ko'targan, boyitgan ma'qul emasmi? Ba'zan shunday hollar bo'ladiki, ishning nomiga to'g'ri kelsa - kelmasa "mustaqillik", "bozor iqtisodiyoti" kabi iboralar kiritildi, uning ichida esa bu to'g'risida hech vaqo yo'q.

Ishning nomi, uning bob va paragraflari aspirant va ilmiy rahbar bilan kelishilgandan so'ng navbatdagi bosqichga, ya'ni dissertatsiyaning dasturini yaratishga o'tiladi. Dasturda har bir paragrafning ko'zda tutilgan taxminiy mazmun

va maqsadi, hajmi, unda lozim bo'lgan chizma va xaritalar, jadvallar “annotatsiya” shaklida erkin bayon etiladi. Bu yerda har bir paragrafning eng avvalo maqsadi, ya'ni qaysi ilmiy qonuniyat yoki masalaning yechilishi aniqlanib, uni qanday asoslash, isbotlash yo'llarini ko'rsatish talab qilinadi.

Umuman olganda, yuqorida bayon etilgan fikr va mulohazalarimiz ikki asosiy prinsip (tamoyilga) tayanishi kerak. Birinchisi - bu oddiylikdan murakkablikka, “voronkasimon”, ya'ni torlikdan kenglik tomon (avval mavzu nomi, so'ng uning boblari, keyinchalik paragraflar va nihoyat ularning dasturi) borishdir. Ikkinchisi esa har bir bosqichda ham ish ma'lum bir maqsadga qaratilishi, uning tarkibiy tuzilishi dastur – maqsad tamoyiliga asoslanishidir. Vazifa - ko'zda tutilgan ilmiy natija va xulosalar, dastur esa ularning' ilmiy jihatdan asoslash yo'llari, uslublar, vositalari demakdir.

Shunday qilib, dissertatsiya mavzusining tarkibiy tuzilishi, bob va bandlarini daraxtga, uning tanasini shox va shoxchalarga o'xshatish mumkin. Albatta, bu yerda daraxt mukammal, uning tanasi shoxlaridan ko'ra yo'g'onroq va mustahkamroq, shoxlari shoxchalariga qaraganda kattaroq, taralgan va tanlangan bo'lmog'i lozim., Aks holda, bu daraxt - daraxt emas, balki u oddiy buta yoki tartibsiz, qaralmagan va taralmagan shox - shabbalar to'plami bo'lib qoladi. Shu shaklda bajarilgan ishning mazmuni ham pala - partish, “umurtqasiz” bo'lib, himoya qilish predmeti, ilmiy yangiligi va maqsadi noaniq bo'ladi.

Minimum imtihonlarini topshirish va mavzuga doir maxsus adabiyotlarni o'rganish. Aspirantura muddatining birinchi yarmida mumkin qadar barcha imtihonlarni topshirish kerak. Mutaxassislik bo'yicha imtihonlari esa keyinroq, dissertatsiyaning kafedradagi dastlabki muhokamasi arafasida topshirilishi maqsadga muvofiqdir.

Shu bilan birga chet tili imtihoniga ham jiddiy e'tibor berish lozim. Til bilish shunchaki emas, balki kelajakda, ilmiy ish jarayonida foydalanish, tanlangan

mavzu bo'yicha xorijiy adabiyotlarni ham o'rganish uchun zarur. Binobarin, chet tilidan (shuningdek, boshqa fanlardan ham) yoziladigan referatlar dissertatsiya mavzusiga mos kelsa, bu ish ko'ngildagidek bo'ladi.

Til, falsafa fanlaridan bo'lgan imtihon aspirantning nazariy jihatdan tayyor ekanligini, mutaxassislik bo'yicha imtihon esa tanlangan soha bo'yicha mustaqil va mustahkam bilimga erishilganligini anglatadi. Shuning uchun mutaxassislikdan imtihon topshirishda ushbu fanga doir nazariy - uslubiy bilimlar, ilmiy qonuniyat va asosiy tushunchalar, mavzuga daxldor umumiy metodologik masalalar va bevosita tadqiqot obyektiga oid bilimlar sinab ko'riladi. Albatta, nomzodlik imtihonlari va xususan, mutaxassislik bo'yicha imtihon mumkin qadar "yaxshi" va "a'lo" baholarga topshirilishi kerak. Aks holda (masalan, "qoniqarli" baho olinsa) bo'lajak fan nomzodining saviyasi ham shunga muvofiq yetarli bo'lmaydi, u haqiqiy ilmiy muhitga kirmay, tom ma'noda "nomzod" bo'lib qolaveradi.

Aspirantda, eng avvalo, ilmiy adabiyotlarni topish, ularni mutolaa etish va mazmunini yozib olish (konspekt qilish) mahorati bo'lmog'i kerak. Buning uchun alohida konspekt daftari - katta hajmli qattiq muqovali daftar tutmoq maqsadga muvofiq. Tartibsiz varaqlarga yozilgan dastxatning samarasi kam bo'ladi (u yo'qolib ketishi ham mumkin).

Adabiyotlarni o'rganishda mavzuga tegishli boshqa mualliflar fikrini to'g'ridan-to'g'ri yozib olishda albatta kitobning betini ko'rsatish zarur. Keyinchalik, dissertatsiya yozishda bu fikrlardan foydalanib, ularga tegishli havola («ssilka») qoidalarini qo'llash kerak. Bilib qo'ying: o'zgalar fikrini, ularning nomlarini yashirib foydalanish, o'zgartirish, aniqrog'i - o'g'irlash, ilmiy faoliyatning eng katta xatosi, dushmani hisoblanadi. Boshqa mutaxassislar mehnatini suiste'mol qilish (plagiatlik) ilmiy nopoklikning eng mudhish va ayanch shaklidir, uni xech qanday yo'l bilan oqlab bo'lmaydi.

Binobarin, bu masalaga o'ta jiddiy qarash lozim. Agar o'zgarlar fikri to'g'ridan-to'g'ri keltirilsa, yoki ularning ishlarini to'la mazmuni bayon etilsa, foydalanilgan manbaning muallifi, kitobning (maqolaning) nomi, nashr etilgan yili va beti bibliografiya qoidalariga muvofiq aniq ko'rsatilishi talab etiladi. Agar ularning shu sohaga tegishli ilmiy ishlarining mavjudligi, umumiy jihatlari bayon etilsa, u holda manbaning beti ko'rsatilmasa ham bo'ladi. Chunki, bunday umumiy fikrlar kitob yoki maqolaning aynan bir betida emas, balki uning butun hajmida o'z ifodasini topgan bo'lishi mumkin. Biroq, har qanday sharoitda ham dissertant boshqa mutaxassislar ishlariga o'zining xolisona munosabatini bildirmog'i, ularning faoliyatiga hurmat bilan qaramog'i lozim.

Yana bir alohida daftarni bibliografiya uchun tutish kerak. Unga o'qigan kitob va maqolalarning nomlari, muallifi, nashr etilgan yili, nashriyoti va umumiy hajmi (beti) yozib qo'yiladi. Keyinchalik bu daftar dissertatsiyada foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini tuzishda juda asqotadi.

U yoki bu adabiyotni o'qishda unga har tomonlama qarash lozim. Chunonchi, kitobda qanday jadval yoki chizmalar, xaritalar mavjud, qanday ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilganligiga ham e'tibor berish ahamiyatdan xoli emas. Shu bilan birga, kitobni o'qib turib, boshqa adabiyotlarga, hali noma'lum bo'lgan manbalarga "chiqish" mumkin. Bunday ilmiy ishlar, mutaxassislar nomlari o'qilayotgan kitobda (satr ostida yoki kitobning oxirida) keltirilgan bo'ladi.

Ilmiy adabiyotlar bilan tanishu vga asosan aspiranturaning dastlabki yillarida ko'proq vaqt ajratiladi. Biroq, u keyin ham muntazam ravishda, "aqliy gimnastika" sifatida va fikrni uyg'otish va o'tkirlash maqsadida bu faoliyatni davom ettiraveradi.

Adabiyotlar bilan tanishu v o'z doirasiga tarixiy (arxiv) manbalar hamda kartografik materiallarni o'rganishni ham oladi. Bunday manbalar chuqur va atroflicha tahlil etilmog'i lozim.

Havola qilishning ham bir necha shakllari mavjud. Uning oddiy shakli keltirilgan yoki ko'chirilgan jumlagi havola belgisini qo'yib (u yulduzcha yoki raqam tartibida bo'ladi), manbaning nomini shu betning pastki qismida chiziq ostida berishdir. Bunday holda dissertatsiya varag'idagi o'zga fikrlarga qo'yilgan belgilar yoki raqamlar soni faqat shu betga tegishli yoki umuman ish matniga tegishli bo'lishi mumkin.

Havolaning ikkinchi shakli qavs ichida manbaning foydalangan adabiyotlar tartib raqami bilan belgilanadi. Bu juda qulay, ammo uni qo'llashda ba'zi bir kamchiliklar ham yo'q emas. Chunonchi, dissertatsiyani o'qish ishda har gal uning oxirgi qismiga qarash lozim bo'ladi. Ikkinchidan, ish davomida yangi manbalardan ham foydalanish va ularni adabiyotlar ro'yxatiga kiritish bilan mavjud barcha tartib raqamlar o'zgarib ketadi.

Fikrimizcha, havolaning quyidagi shakli ma'qulroq. Bunda manba (adabiyot nomi yoki uning muallifining familiyasi, nashr yili) qavsda keltiriladi. Agar bevosita ko'chirib olingan bo'lsa, u holda manbaning beti ham ko'rsatiladi. Havolaning ushbu shaklini qo'llash ba'zan satr ostidagi ko'rsatmalar bilan ham birgalikda amalga oshiriladi (siyosiy arboblarning asarlari, qonun yoki farmonlar, kundalik joriy matbuot xabarlari va h.k.).

Yana bir masalani ta'kidlamoqchimiz: albatta, har qanday tadqiqot ilmiy munozara va mavzuga oid mavjud manbalar bilan tanishishni talab qiladi. Biroq, "сылба"lar soni juda ko'p, ayniqsa uzluksiz, birin-ketin bo'lsa yoki ular mutlaqo bo'lmasa ham yomon. Birinchi holatda muallifning mustaqil fikri sezilmaydi, ikkinchisida esa u mavjud manbalarni bilmaydi, nazariy jihatdan bo'sh yoki ko'chirmakashlik bilan shu g'ullanganu, ammo manbaning nomini boshqalardan yashiradi, ko'rsatmaydi. Hurmatli yosh olimlar yuqoridagi har ikki holatdan ham qoching, havola "zichligining" me'yorida bo'lishiga e'tibor bering.

Statistik ma'lumotlar bilan ishlash va dissertatsiya matnini yozish. Har qanday ilmiy ishda uni asoslash, isbotlash uchun ma'lum fakt va raqamlar, dalillar talab etiladi. Bular, ayniqsa, iqtisodiy geografiya, iqtisodiyot sohalari uchun o'ta muhimdir.

Albatta, dissertant, eng avvalo, tegishli statistika tashkilotiga borishi uchun qanday ma'lumotlar va ular qaysi maqsadda ishlatilishini mukammal bilmog'i lozim. Shu bilan birga, kerakli materiallarni qaerdan olish, qaysi yillar va qanday obyektlar uchun olinishini aniqlash zarur. Qolaversa, dissertant statistika tashkilotiga borishdan oldin alohida, maxsus tayyorgarlik ko'rishi, tegishli materiallar ro'yxatini tuzishi va uni ilmiy rahbar bilan maslahat qilishi maqsadga muvofiqdir. Agar mavzuga oid barcha statistik materiallar to'g'ri, aniq va to'la olinsa, keyinchalik buning uchun dissertant ortiqcha vaqtini sarflamaydi.

Statistik ma'lumotlar bo'lajak ishning xom ashyosi, ozuqasi, qurilish materialidir. Dissertant esa ana shu xom ashyoni puxta o'rganib, qayta ishlab, to'la va to'g'ri "hazm" qila olishi kerak. Aristotel, eng avvalo, faktlarni to'plash va faqat shunday keyingina ularni fikr bilan bog'lashni ta'kidlagan edi. Fakt va raqamlar qonuniyatlarni ochish, sabab - oqibatlarni aniqlash va ularni isbotlashga imkon beradi.

Ko'chirib olingan statistik ma'lumotlar atroflicha o'rganilishi kerak. Ularning asosida turli shakldagi katta-kichik har xil mazmundagi jadvallar tuziladi. Buning uchun dissertantning statistikani chuqur bilishi, jadval tuzish, ularni tahlil etish mahoratiga ega bo'lishi talab etiladi. Jadvallarning ham ega va kesimi bo'ladi; ularni haddan tashqari katta va murakkab qilish ham yaxshi emas. U holda bunday jadvallar jonsiz va tilsiz raqamlarga liq to'la bo'lsada, ulardan ma'no olish, o'qish qiyin bo'ladi. Ayni paytda isbot qilinishi talab etilmaydigan hodisalar uchun qisqa mazmunli kichik jadvallar tuzish ham shart emas (bunday jadvallarning

ma'lumotiga ko'ra ularning nomi qo'pol, boshi tanasidan katta bo'lib qolgandek, xunuk ko'rinadi).

Jadvallarni tik yoki yotiq, kasr – mahrajli va boshqa shakllarda tuzish o'rinli. Ularni tahlil etishga ham turlicha yondoshmoq lozim: raqamlarni jonlantirish, tegishli “o'rtacha”, umumiy xususiyatni aniqlash va bu holatning pastu baland, chekka qirralarini ko'rsatish, izohlash, ularning sabablarini asoslash kabi mahorat talab qilinadi.

Jadval tuzish jarayonida ba'zi bir dastlabki xulosa, fikr va mulohazalar paydo bo'lishi mumkin. Garchi hali dissertatsiya matnini yozishga vaqt kelmagan bo'lsada, erinmasdan bu fikrlarni qog'ozga tushirib qo'yish tavsiya etiladi. Chunki, boshqa paytda bunday “ilhom” kelishiga hech kim kafolat bermaydi.

Jadvallarning yiriklari keyinchalik dissertatsiyaning ilova qismiga, bevosita qo'llaniladiganlari esa matnda keltiriladi. Biroq, dissertatsiya matniga ko'ra jadval, raqam ko'paymasin, u holda oshidan ko'ra toshi ko'p bo'lib, kishi jig'iga tegadigan holat yuz beradi (bu yerda matn varag'idagi statistik raqamlarning “zichligi”ni juda katta bo'lishiga yo'l qo'ymaslik lozim). Matnda jadvallar uzluksiz, birin - ketin kelmasin, bu statistik to'plam emas, bob yoki paragraflar mazmuni jadval bilan tugatilishi ham ma'qul bo'lmaydi.

Xullas, jadval tuzilishi, ularni mazmunli tahlil etish, har xil statistik ko'rsatkichlarning mutloq va nisbiy darajalarini, o'sish va ko'payish farqini, protsent (foiz), promille, indeks va koeffitsiyent kabilarning mohiyatini obdon bilib olish va ulardan o'z mavridida foydalanish kerak.

Turli shakl va mazmundagi jadvallar dissertatsiya matnini to'ldiradi, undagi fikrni asoslab beradi. Shu bilan birga, ba'zan jadval mohiyati har xil ko'rinishdagi grafik va chizmalarda ham o'z ifodasini topishi mumkin. Bunday chizmalar stolbasimon, uchburchak, kvadrat, aylana va boshqa ko'rinishlarda bo'ladi.

Ularning barcha turlarini tavsiya etamiz va buning uchun hozirgi zamon kompyuterida keng imkoniyatlar mavjud.

Geografik tadqiqotlarga xaritalar ayniqsa zarurdir. Ular ham turli maqsad va mazmunda, o'qilishi mumkin bo'lgan axborotlarga boy bo'lgan shaklda, yuksak mahorat bilan tuzilishi kerak. Kartalar jadval va chizmalar kabi dissertatsiya yozishdan oldin ham tayyorlansa bo'ladi.

So'nggi yillarda magistr va aspirantlarning (ayniqsa iqtisodiy va sotsial geografiya fani bo'yicha) kartashunoslik va statistikadan olgan bilimlari, afsuski, sayozlashib bormoqda. Vaholanki, bularning ikkalasi mazkur sohadan dissertatsiya yozishda muhim tayanch, uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, xususan geografik tadqiqotlar uchun o'rganilayotgan obyektни bevosita ko'rish, shu maqsadda dala ekspeditsiyalarini uyushtirish, maxsus anketa - so'rov usullaridan foydalanish ham ahamiyatlidir. Obyektни jonli kuzatish, yo'l-yo'lakay kundalik daftariga ko'rilgan voqealarni qayd etib borish adabiyotlardan olingan nazariy bilimlarni boyitadi, aniqlashtiradi va mahaliylashtiradi.

Demak, dissertatsiya yozishda ilmiy adabiyot va statistik ma'lumotlar juda zarur. Bu haqda professor A.S.Solievning (28-rasm) **“ilm qilish formulasi”** bor:

$$D_i = (I_a + S_m) \cdot T_u,$$

Bu yerda:

D_i - dissertatsiya ishi;

I_a - ilmiy adabiyot;

S_m - statistik ma'lumotlar;

T_u - tadqiqot usullari.



28-rasm. Professor A.S.Soliev

Dissertatsiya uchun yuqoridagi har uchchala shart bir xil va ularning qaysi biri bo'lmasa ilmiy tadqiqotni amalga oshirish mumkin emas. Masalan, aspirant juda ko'p ilmiy adabiyot o'qigan, ammo uni asoslash uchun statistik ma'lumot yo'q. Demak, bunday ish ko'pincha quruq gap bo'lib qolaveradi: ayni vaqtda statistik materiallar ko'p to'plaganu, biroq, ularni gapga kiritish qiyin, chunki buning uchun aspirant tegishli nazariy bilimga va vositaga - tadqiqot usuliga ega emas.

Uchinchi holat: izlanuvchi ilmiy adabiyotni ham yaxshi biladi, statistik ma'lumotlar ham yetarli. Ammo ularni ishga solib, qovushtirib bo'lmaydi, sababi - aspirant tadqiqot usullarini, harakatga keltiruvchi vositalarni, yo'llarni yoki "katalizatorlar"ni bilmaydi.

Umuman olganda, ilmiy tadqiqot uchun dastlabki taxminlar, g'oyalar, fantaziya, gipoteza bilan birgalikda ularni isbotlovchi, asoslovchi fakt va raqamlar, kuzatishlar, laboratoriya natijalarini chuqur mushohada qilish talab etiladi. Bunda ba'zi olimlar (R.Dekart, A.Gumbol'dt va h.k.) birinchisini oldinga surishsa, boshqalari (A. Eynshten) ikkinchisiga urg'u beradilar. Nazarimizda, ularni bir-biriga qarama-qarshi ko'rishdan ko'ra teng qo'yish ma'qulroq.

Ayni vaqtda usul, ya'ni metodlarning ham ahamiyati beqiyos. Ularga ayniqsa F.Bekon, G.Leybnits, I.P.Pavlov va boshqa olimlar katta e'tibor berishgan. Jumladan, G.Leybnits fikricha, dunyoda eng ajoyib kashfiyotlardan ham muhimroq narsalar bor, - bu usullarni (metodlarni) bilishdir, Zero, aynan ana shu metodlar yordamidagina kashfiyotlar yuzaga keladi.

Demak, dissertatsiya - ilmiy tadqiqot o'zining metod va metodologiyasiga ega bo'lishi lozim. Metod bu vosita, qo'yilgan maqsadga erishish yo'lidir. Metodologiya esa metodlarning metodi, ya'ni fanning eng asosiy prinsiplarini (tamoyillarini), tushuncha va qonuniyatlarini o'z ichiga oladi.

Dissertatsiyaning metodologik bazasi bo'lib, odatda, fanning ushbu yo'nalishida yaratilgan ilmiy g'oya va tushunchalar (masalan, iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada hududiy mehnat taqsimoti, iqtisodiy rayonlashtirish, xududiy ishlab chiqarish majmualari, "uzun to'lqinlar", o'sish qutb va markazlari va h.k.) xizmat qiladi. Shuningdek, hukumat qaror va ko'rsatmalari, davlat rahbarining asarlari ham ishning metodologik bazasi sifatida ko'rilishi mumkin.

Ayni vaqtda muhim ilmiy yondashuvlar ham metodologik nuqtai nazardan qaralsa bo'ladi. Jumladan, komplekslik, sistema-struktura (tizim-tarkib), dasturga maqsadli yondashuv oddiy tadqiqot metodlaridan yuqoriroq turadi va, binobarin, ular ham metodologik ahamiyat kasb etadi.

Sistema - struktura (struktura - tarkib yoki ichki tuzilish ma'nosini anglatadi) umumiy ahamiyatga ega bo'lib, u geografiyada ham qo'llaniladi. Chunonchi, turli xil geotizimlar, xalq xo'jaligining yoki ishlab chiqarishning hududiy tarkibi kabilar ushbu yondashuvga molik tushunchalardir. Ammo geografiyaga an'anaviy holda komplekslik yaqinroq. Chunki, kompleks yondashuvsiz geografiya o'z mohiyatini yo'qotadi, maqsadiga erishmaydi. Sababi, geografiyaning tadqiqot obyektini o'zi murakkab, majmua shaklida bo'ladi. Tabiiyki, murakkab obyektini oddiy tasvirlash, o'rganish mushkul; u hamma vaqt shunga mos (adekvat) holda kompleks yondashuvni talab qiladi.

Tizimli va kompleks yondashuvda ham elementlarning ko'pligi hamda ularning o'zaro aloqada ekanligi nazarda tutiladi. Biroq, tizim kompleksdan ham murakkabroq, mukammalroq tushuncha. Zero, har qanday tizim nafaqat "tizimchalar" va elementlarning o'zaro munosabati, balki ularning ichki tuzilishi, tartibi va tarkibi, ularning tashkil qilinganligi, mustaqil faoliyat ko'rsatish, boshqaruvchanligini ham ifodalaydi. Shu ma'noda kompleks ichki ierarxiyasiga ega emas, vaholanki tizim (sistema) hamma vaqt turli bosqichli element va tizimchalardan tashkil topadi. Demak, kompleks "gorizontal", sistema esa ham

gorizontal, ham vertikal tuzilishga ega. Komplekslikda eng qiyin masala uning chegarasini, doirasini belgilash bo'lsa, tizimda - birlamchi elementni aniqlashdir.

Geografiya fanining qamrovi nihoyatda keng. Bu, ayni chog'da, uning boshqa fanlarga tegishli obyektlarini ham o'z tadqiqot doirasiga olishi va integratsion salohiyatining yuqoriligidan dalolat beradi. Shuningdek, geografiyaning eng jozibali xususiyati uning turli miqyosda fikrlay olishidir. Yuksak geografik madaniyat va fikrlashga ega bo'lgan mutaxassislar hududni keng va turli bosqichda (holatda) ko'radilar, o'rganadilar. Biroq, kenglik, komplekslik ba'zan tadqiqotning yuzaki, quruq bo'lishiga olib keladi. Shu bois, geografiyaning asosiy kasali ana shunday aniqsizlikdan qutilishdir.

Masalan, bog'dorchilik yoki uzumchilik geografiyasini o'rganganda aholining tug'ilishi, o'limi, oila kabi sof demografik masalalar kerak emas. Xuddi shunday, demografik muammolar tadqiqotida og'ir yoki yengil sanoat tarmoqlarini maxsus tahlil qilish ham o'rinsizdir. Komplekslik bu bilan, ya'ni qaraladigan obyektning qamrovi bilan emas, balki ularning ma'lum bir maqsad nuqtai nazaridan o'zaro aloqadorligi, qonuniyat hamda xususiyatlarini aniqlash bilan tavsiflanadi,

Kompleks yondashuv hamma vaqt tadqiqot doirasini belgilab olishni talab qiladi. Afsuski, geografiya aslida turli xil chegaralar, xududlar to'g'risidagi fan bo'lsada, ba'zan o'zining chegarasi bo'lmay qoladi. Bu yerda uning fan sifatida ahamiyatini yo'qotishi, boshqa fanlarga singib ketish xavfi tug'iladi. Buning uchun biz ham matematika, fizika va kimyo kabi fanlardan aniqlikni, biologiyadan kichikni katta qilib ko'rishni, kuzatuvchanlikni, tarixdan hozirgi holatning o'tmish bilan bog'liqligi va uning kelajak poydevori bo'lib xizmat qilishini o'rganishimiz kerak. Geograf o'ngga ham, so'lga ham, oldiga ham, orqasiga ham qaray olish qobiliyatiga ega. Qolaversa, u hududning egasi, tabibi, davolovchisi va shu bilan birga uning "Sherlok Xolmsi", ya'ni detektivi bo'lmog'i darkor.

Buning uchun oldindan tayyorlanib boriladi - tegishli adabiyot va konspekt daftarlari yana bir bor ko'rib chiqiladi, muallif tomonidan tuzilgan jadval va chizmalar, ularning qisqacha xulosalari o'rganiladi. Yaratilgan va sinovlardan o'tgan, puxta va qiyomiga yetgan dasturga muvofiq matn yozishga kirishiladi.

Biroq, matnni istagan, xohlagan paytda yozib bo'lmaydi, buning uchun, yuqorida ta'kidlaganimizdek, vaqtning o'zi kifoya qilmaydi, chunki bu yerda ilhom, yozish ishtiyoqi ham talab etiladi hamda ilmiy-amaliy yangilik qilishni ko'zda tutish, albatta, lozim (29-rasm). Bunday holatni biz "fursati keldi", deb hisoblaymiz. Ana



29-rasm. Dissertatsiya yozish biror ilmiy mavhumlikka barham berish demakdir

shunday qulay lahzadan to'la va samarali foydalanishga chorlaning, fursatni boy bermaslikka odatlaning ("vaqtning ketdi, naqtning ketdi", deb bejiz aytilamagan).

Ba'zan dissertatsiya yozishga bevosita kirishish vahimali, qo'rqinchli va mavhum tuyuladi. Ana shunday vaziyatda Nopaleonning quyidagi so'zlari to'g'ri kelishi mumkin: "Avval jangga kiraylik, qolgani keyin bo'ladi (yoki ko'rinadi)". Darhaqiqat, har qanday tadbirning o'zidan uni boshlash mushkul, ishga kirishilgandan so'ng masala yechimi o'z-o'zidan kelib chiqaveradi.

Dissertatsiya matnini yozishni onalarimizning tandirdan non yopishiga o'xshatsa bo'ladi. Ma'lumki, nonni yopish uchun un va suv, xamirturush va sut, qolaversa, tandir uchun o'tin ham kerak (bularning hammasi ilmiy ish yozish uchun lozim bo'lgan statistik, kartografik, arxiv va boshqa "xom ashyoni" tayyorlashga mos keladi). Qilingan xamir ko'pishi kerak, demak, yozish uchun yig'ilgan ma'lumotlar tahlili va fikr yetilishi lozim.

Xuddi ana shu tarzda dissertatsiya matni yoziladi. Ammo bu non yopishdan ham murakkabroq va mashaqqatli mashg'ulotdir. Chunki, non bir marotaba yopilsa, ilmiy ish matni bir martada o'z maromiga va qiyomiga yetmaydi, uni erinmasdan qayta-qayta ishlash, "pardoz-andoz" (kosmetikasini to'g'rilash, tahrir qilish) talab etiladi. Masalan, geografiya fanlari doktori A.S.Soliyev 2 betdan iborat ilmiy maqolani (tezisni) aspirantlik davrida yetti marta qayta yozgan. Har gal yangi tuzatilgan nusxani olib borganda ilmiy rahbar hurmatli ustoz T.I.Raimov u yoki bu joyga savol belgisini qo'yib qaytarib yuborar edi. O'sha kezlarda ba'zan havsalasi pir bo'lib, umidsizlanib qolar edi, unda hatto ishni yig'ishtirib qo'yish kayfiyati ham paydo bo'lgandi. Biroq, ma'lum vaqt o'tgandan so'ng maqolani boshqacharoq yozish ishtiyoqi tug'ilardi va u yana ishga kirishar edi. To'g'ri, balkim o'sha onlarda aspirant biroz domladan ranjigan bo'lishi mumkin, endi esa ustozdan cheksiz minnatdor. Chunki, agar ular o'sha paytlarda shunday qilmaganlarida, ehtimol, u bu darajaga yetishmasdi. Binobarin, hurmatli aspirant yoshlar: o'zingiz yozishga o'rganing, yengil mehnatga, boqimandalik kayfiyatiga moslashmang.

Dissertatsiya matnini muntazam, uzluksiz, har kuni yozib bo'lmaydi. Bu tabiiy hol va undan xavotirlanmaslik, umidsiz bo'lmaslik kerak. Bu o'rinda tadqiqotchi o'zini yozishga majbur qilishidan ham naf yo'k,. Aksincha, yozishdan charchagan yoki yozish mumkin bo'lmagan, "ilhom kelmagan" holda yaxshisi boshqa ishlarni qilgan ma'qul. Masalan, fikrni charhlash, aqlni peshlash uchun vaqtincha yangi ilmiy adabiyotlarni o'qish, tegishli ilmiy tekshirish muassasalariga borib mutaxassislar bilan uchrashish, har xil ilmiy munozara va anjumanlarda, dissertatsiyalarning muhokama yoki himoyasida qatnashish kerak. Ana shundan so'ng biroz vaqt o'tgach yana yozish fursati keladi. Bu imkoniyatlardan erinmasdan foydalanish, uni qo'ldan boy bermaslik tadqiqotchining zimmasidadir.

Umuman olganda, ilmiy faoliyatda dam olish, oromlik bo'lmaydi, u tinimsiz, betoqatlik jarayondir. Olim uchun dam olish ish shaklini vaqtincha o'zgartirishdir. Shuning uchun dissertant faqat ish matnini yozishni emas, balki boshqa tadbirlarni ham o'ziga, har extimolga qarshi, rejalashtirib qo'yishi kerak. Biroq, L.Feyerbax aytganidek, olim ishlash va ijod qilishdan afzalroq rohatni bilmaydi, barcha qolganlari esa uning uchun faqat dam olish ahamiyatiga ega, xolos. Taniqli olim E.Murzaev o'zining ustozlari L.S.Berg to'g'risidagi kitobchasini "Hayot bu ishlash, ijod qilish demakdir", deb nomlashi ham bejiz emas. CHindan ham haqiqiy olim doimo izlanishda bo'lishi kerak.

Odatda matn yozilishidan oldin uning rejasi, qo'lyozmasi ("eskizi") tayyerlanadi, so'ngra matn yozishga kirishiladi. Yozilgan matn qayta-qayta ko'rilib takomillashtiriladi. Matnni aspirantning o'zi shaxsiy mashinkasida (hozirgi kunda kompyuterda) pechatlagani ma'qul. Chunki, bunda ortiqcha mablag' sarflashni tejashdan tashqari, eng muhimi, pechatlash yoki terish jarayonida muallifning o'zi tomonidan tuzatishlar kiritilish imkoniyati tug'iladi.

Dissertant yozgan ishini to'g'rilashida bu ishga ma'lum darajada tanqidiy qarashi, o'zi turgan qirg'oqning narigi, qarama-qarshi tomoniga o'tib kuzatishi, o'zida birdaniga ikki kishini, ya'ni zukko, ziyrak izlanuvchi bilan dahshatli opponenti (taqrizchini) mujassamlashtirishi lozim bo'ladi. Agar shunda qog'ozga bitgan voqelik hammaga ma'lum, oldi-qochdi gaplar yoki yozilgan hodisa barcha joylar uchun xosu mos bo'lsa, unday holda bunday matndan, g'oyasiz faktlardan voz kechish kerak. Sababi, hamma joyda bor narsa geografiyada mutlaqo bo'lmasligi lozim (N.N.Baranskiy).

Pechatdan chiqqan matnni aspirant yana bir karra ko'rib chiqadi, qo'lidan kelganicha uni ilmiy tahrir qiladi va tuzatilgan matn nusxasini o'zi yoki boshqa kishiga qayta pechatlash uchun topshiradi. Faqat shundan keyingina matnni ilmiy rahbarga ko'rsatish mumkin.

Agar ish xomroq holda shoshma-shosharlik bilan ustozga berilsa, unda domlaga nisbatan hurmatsizlik bo'ladi. Chunki, uning qimmatli vaqti bexuda, oddiy imloviy xatolarini, hatto tinish belgilarini to'g'rilab o'tirishga sarflanadi, vaholanki ustozdan bundan ko'ra muhim ilmiy g'oyalarni olish nachandon yaxshidir.

Rahbarga dissertatsiyaniing bandlarini alohida-alohida, turli vaqtda bermasdan, uni yaxlitlab butunlay yoki hech bo'lmaganda to'la boblar shaklida topshirgan ma'qul. Ammo ish jarayonida dissertant u yoki bu savollar bilan o'zining ilmiy rahbaridan maslahatlarni muntazam olib turadi. Zero, hazrat Alisher Navoiy aytganlaridek:

“Bilmaganni so'rab urgangan olim,
Orlanib so'ramagan o'ziga zolim”

Yoki, xalq maqolida:

“Nodon bilmaydiki, so'ramaydi
Dono biladiki, yana so'raydi”

deb aytilar ekan. Darhaqiqat shunday, hatto Makka-yu Madinaga ham qadimda piyoda, so'rab -so'rab borganlar.

Dissertatsiyada va, xususan, uning nazariy-uslubiy qismida ilmiy munozara olib borish talab etiladi. Biroq, bu munozara samimiy, adolatli, pok va ayni vaqda qat'iy hamda prinsipial bo'lmog'i darkor. Bu o'rinda muallif o'zining ishini o'zgalar ishidan ustun qo'ymasligi kerak, ya'ni ushbu muammoga bag'ishlangan, bungacha bajarilgan tadqiqotlarni albatta tanqidlashi, kamsitishi nojoyizdir. Aksincha, bunday ishlarga to'g'ri va adolatli baho berib, ulardan mazkur ishning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda farq qiluvchi jihatlarini aniqlab berish lozim.

Unutmaslik kerak: fanning umuman yomoni bo'lmaganidek, sidqidildan bajarilgan ilmiy ishlarning ham yomoni yo'q. Faqat bu yerda har bir fan yoki

mavzuning hususiyatini, oldiga qoʻygan maqsadini va uning bajarilgan davrini eʼtiborga olmoq kerak, xolos. Afsuski, baʼzan yaratilgan, avval qilingan ishlarga oʻsha davr nuqtai nazaridan emas, balki hozirgi kun darajasidan kelib chiqib, ularni nohak, va notoʻgʻri tanqidlash ham uchrab turadi. Albatta, bunday tarixiy yondashuv oʻrinsiz va xatodir.

Xuddi shunday, geografik tadqiqotlarda oʻrganilayotgan hududni boshqa rayonlarni “yomonlash” yoki kamsitish evaziga emas, balki uni barcha rayonlar qatorida koʻrish, ulardan farq qiluvchi xususiyatlarini aniqlash va asoslash lozim boʻladi. Geograf har doim barcha hududlarni bir xil va ayni vaqtda har xil koʻrishga odatlanishi kerak. Bu yerda “bir xil” - joylarning birini ikkinchisi ustidan ustun qoʻymaslikni, “har xil” - hududlarning oʻzaro farqlarini aniqlashni anglatadi (agar bu farq boʻlmasa, geografiya fanining oʻzi ham yoʻqoladi). Binobarin, tarixchining oʻtmishni hozirgi kun nuqtai nazaridan baholashi qanchalik xatolik boʻlsa, geografning oʻz joyini oʻzga joylaridan ustun qoʻyishi ham shuncha nodonlik va nopoklikdir.

Yana unutmang: tabiatda yer yuzida umuman yomon joy yoʻq, aksincha, nodon geograf boʻlishi mumkin. Hamma joyning ham oʻziga xos, betakror xususiyati, qulay yoki noqulay jihatlari mavjud. Shu bois, regional (hududiy) xudbinlikka yoʻl qoʻymang, buning uchun esa geografik taqqoslash usulidan unumli foydalanishga odatlaning.

Umuman olganda, odilona, begʻaraz munozara va muzokara juda muhimdir. Bu haqda Bernard Shou quyidagicha yozadi: “Agar sen menga bir olma bersangu, men senga bir olma bersam unda ikkimizda ham bittadan olma qoladi. Agar sen menga bir gʻoya bersangu, men senga bir gʻoya bersam, u holda har ikkalamizda ham ikkitadan gʻoya boʻladi”. Yoki: “Sanʼat - bu men, fan esa bizdir” deb yozgan ekan.

Dissertatsiyaning paragraf va boblari mazmunan bir - biridan kelib chiqqan, mantiqan aloqador holda yoziladi. Buning uchun har bir bandning oxirida kelgusi, navbatdagi band yoki bobga “ko’prik” yasaladi, ya’ni uning mazmuniga tegishli fikrga ishora qilinadi.

Paragraflarning hajmi ham qat’iy, ma’lum belgilangan miqdorda bo’lmaydi. Zero, bu ko’riladigan masalaning maqsadi, mazmun va mohiyatiga bog’liq Ammo uning haddan tashqari katta (masalan, 20-25 betdan ortiq) yoki juda qisqa (3-5 bet) bo’lishi ham ko’ngildagidek bo’lmaydi. Tajriba shuni ko’rsatadiki, agar mo’ljallagan 12 bet maqolangiz (dissertatsiya paragrafi) 15-16 bet chiqsa, unda xursand bo’ling. Ushbu hajmdan ko’p yoki aynan 12 bet, yoxud undan qisqa bo’lsa, baribir yaxshi emas. Birinchi hol masaladan uzoqlashganlik yoki mavzu maqsadini aniq belgilay olmaslikni, ikkinchisi oldi-qochdi, hammaga ma’lumu ravshan, umumiy fikrlar bilan matn hajmini “qulog’idan cho’zib” rejaga to’g’rilashni bildirsa, uchinchi holat esa masala to’la o’rganilmaganligi, unga tegishli fikr - mulohazalarning yetishmasligini anglatadi.

Paragraflarning ham o’zining kirish va xulosasi bo’ladi. Biroq, kirish qismi bo’lar bo’lmas gaplar bilan kengayib, bo’rtib ketsa va maxsus matnning o’zi unga nisbatan qisqa bo’lsa, yana biz gavgaga (tanaga) ko’ra boshning kattaligini shohidi bo’lamiz va, aksincha, ishning kirish qismida uning ilmiy va amaliy ahamiyati, dolzarbligini bayon etilmasa, xulosada o’rganilgan muammolardan kelib chiqqan fikr va mulohazalar, ilmiy-amaliy tavsiyalar keltirilmasa, u holda boshi yo’q, oyog’i yo’q mahluqning o’zginasi bo’ladi. Demak, har bir ishning me’yori, mezoni, shakli - shamoili bo’lmog’i lozim.

Qizig’i shundaki, dissertatsiyaning umumiy kirish qismi ishning avvalida emas, ko’proq uning pirovardida, oxirida yoziladi. Taajjub? “Kirish”, amalda ishdan “chiqishda” yozilar ekan. Ammo, bu tabiiy hol. Sababi - tadqiqotchi hali o’rganilmagan mavzuni o’rganmasdan turib unga qanday kirish yoza oladi, axir

ko'p narsa uning uchun hozircha qorong'i-ku! Shunga qaramasdan dissertatsiyaning umumiy kirish qismini "xomaki" ko'rinishda bo'lsada, avval yozish maqsadga muvofiqdir. Ish yozilib bitilgandan so'ng u matn mazmuni bilan muvofiqlashtiriladi, unga tuzatishlar kiritiladi. Shu tarzda kirish qismi me'yor va qiyomiga yetkazilib, sayqal topadi, ma'lum qoida va talablarga mos ravishda yoziladi.

Dissertatsiya xulosasi kirish qismi kabi o'ta muhimdir. Bu borada ham fikr qisqa, lo'nda va tushunarli holda, taxminan 4-6 bet hajmda bayon etilmog'i kerak. Ammo, xulosada dissertatsiyaning asosiy qismida zikr etilgan masalalar aynan qayta takrorlanmasin. Bularning evaziga unda tadqiqot mazmunidan kelib chiqqan muhim natija va qonuniyatlar xamda ilmiy va amaliy ahamiyatga molik bo'lgan tavsiyalar bandma - band ko'rsatilmog'i talab etiladi.

Bu yerda shuni alohida qayd etish joizki, garchi "kirish" ishning chinakam muqaddimasi bo'lsa-da, biroq xulosasi ilmiy faoliyatning aslo xotimasi emas. Binobarin, xulosada erishilgan natijalar, tavsiya va takliflar bilan birga kelajakda ushbu ilmiy muammoning yana qaysi qirralari batafsil, mukammal va maxsus o'rganilishi belgilab beriladi.

Shu o'rinda L.Eynshteyn juda to'g'ri aytgan: "Fan hech qachon tugallangan, oxiriga yetkazilgan kitob bo'lmagan va bo'lmaydi ham. Har qanday yangi muvaffaqiyat o'z navbatida yangi masalalarni, vazifalarni vujudga keltiradi". K.E. Siolkovskiy esa "Men hech qachon masalani uzil - kesil, to'la yechishga da'vo qilmaganman", deb yozadi. Darhaqiqat, bilim hamma vaqt mutloq haqiqat emas, balki nisbiydir. Shu bois, fan doimo izlanishni talab qiladi, u bir olim umri uchun tugallanishi mumkin, biroq o'zi esa doimiy, muntazam ravishda, takomillashib boraveradi. Yana shuni ta'kidlash lozimki, ehtimol, ana shu hali to'la yechimini topmagan muammolar muallifning bo'lajak doktorlik dissertatsiyasida yoki boshqa mutaxassis tomonidan tadqiq etilishi mumkin.

Ammo kezi kelganda aytish kerakki, doktorlik dissertatsiya kengaytirilgan nomzodlik dissertatsiyasi emas, balki uning chuqurlashtirilgan, yangi ilmiy yo'nalish va qonuniyatlar bilan asoslangan yuqori darajasidir.

Dissertatsiyaning umumiy hajmi turli turkumdagi fanlar uchun Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan belgilangan. Mumkin qadar mana shu talablarga rioya qilmoq lozim. Bunda siz o'z fikringizni aniq va tushunarli bayon etgan, rasmiy va norasmiy opponentlarning ham qimmatli vaqtlarini qadrlagan va ularni hurmatlagan bo'lasiz.

Ba'zilarining fikricha, 120-150 bet matn yozish hech gap emasdek tuyuladi. Yoki boshqa - bировlar esa ko'plab e'lon qilingan maqolalariga asoslanib (ularning yig'indi hajmidan kelib chiqib), "dissertatsiyam tayyor", deyishadi, xotirjam bo'lishadi. Aslida esa bunday emas yoki deyarli shunday emas. Masala bu yerda belgilangan matn hajmida bo'lmay, balki uning mazmunida, himoya uchun ko'rsatilgan muammolarni asoslab berishda, ilmiy yangilik yaratishdadir. Har hil maqsad va yo'nalishda, turli davrlarda yozilgan son-sanoqsiz maqolalar to'plami, ularning oddiy yig'indisi, "sochma o'qlar" hamma vaqt ham dissertatsiyani to'la qamrab olmaydi, mantiqan bir tizim - tarkibda bitilgan, tugallangan va muayyan maqsadga qaratilgan ilmiy ish bo'lolmaydi (chunki oddiy yig'indi yoki additiv tizim mukammal tizim yoki sistemadan farq qiladi).

Avtoreferat ustida ishlash, dissertatsiya muhokamasi va himoyasiga tayyorgarlik. Yaxshi yozilgan kirish va xulosa qismlar avtoreferatning asosini tashkil etadi. Avtoreferat (demak, bu yerda muallif o'zining ishini qisqacha bayon etadi) dissertatsiya mavzusini ifodalashi, unga mohiyatan va mazmunan mos kelmog'i darkor. U taxminan 1,0-1,3 bosma taboq hajmida, muayyan tartibda yoziladi. Avtoreferatning birinchi - umumiy bobi ko'proq dissertatsiyaning kirish qismiga, yakunlovchi betlari esa uning xulosasiga muvofiq keladi.

Avtoreferatning ikkinchi yoki asosiy qismida dissertatsiyaning mazmuni va undan kelib chiqadigan ilmiy xulosalar, aniqrog'i himoya etiladigan jihatlari o'z ifodasini topadi. Bu qism ham, o'z navbatida, turli maqomda yozilishi mumkin. Ulardan eng soddasi - dissertatsiyaning mundarijasiga asoslanib uning mazmunini bandma -band bayon etish yoki tavsiflashdir (buni oddiy "qaychi - kley" yordamida bajarsa bo'ladi). Eng yaxshisi esa, nazarimizda, ishning mohiyatidan kelib chiqqan holda alohida muammoli bandlarni, himoya predmetlarini, tadqiqot qirra va cho'kqilarini belgilash va ularni ilmiy jihatdan isbotlashdir. Bu borada avtoreferatda ma'lum miqdorda statistik dalillar, ba'zan jadvallar, chizma yoki xaritalar ham keltirilishi maqsadga muvofiq. Biroq, eslatib o'tamiz, avtoreferat dissertatsiya mazmunini aks ettirishi, u yuqori saviyada yaxshi va ravon, ayni paytda tushunarli ilmiy tilda yozilishi, sayqal topishi zarur. Shuning uchun ham avtoreferat nihoyatda ishqalanadi va misli "tuxumdek" silliq shaklni oladiki, unga hech qaysi tomondan "tegib" bo'lmaydi va matn mazmuniga keyinchalik rasmiy va norasmiy taqrizchilar (opponentlar) tomonidan e'tirozlar kam bo'ladi.

Ilmiy ish, shu jumladan dissertatsiya matni qaysi paytda yoziladi - kunduzimi yoki kechqurunmi, tong ertalabmi yoki kech tundami? Bu haqda aniq bir tavsiya berish mushkul. Chunki, baʼzilar kunduzi ijod qilishni yoqtirsalar, boshqalar kechasi samarali ishlaydilar. Lekin, fikrimizcha, kech tungacha ishlab ertasiga kech turgandan ko'ra, vaqtida tunab, orom olib, barvaqt turgan ma'qul bo'lsa kerak. Zero, "erta turgan kishini xudo o'ngarar ishini", deb bejiz aytishmagan. Tong oftobi, subhidam salomi loyqa xayollarni quvadi, kishi tafakkurini yoritadi, aqlni peshlaydi. Qolaversa, salomatlik uchun ham erta turish yaxshi odat va odobdandir. Shuning uchun ham barvaqt turish xosiyati, sahar saxovatini qadrlang.

Ijod qilish qamrovi faqat fikrni qog'ozda aks ettirish bilan belgilanmasada, u bunga nisbatan kengroq vaqtni o'z ichiga oladi. Sababi - kishi biror mavzuni

yozish uchun uzoq muddat davomida o'ylanib yuradi (hatto bekatda, yo'lda, ishda va tushida ham). Ilmiy hayotda shunday bo'ladiki, ba'zi bir kunlarda oylab o'ylab yurgan ish birdaniga, bir o'tirishdayoq yoziladi. Bunday kunlarning sadag'asi ketging keladi, chunki ular izlanuvchiga katta zavqu-shavq, ma'naviy ozuqa beradi. Ammo, shu bilan birga, aslida yozish uchun rejalashtirilgan kunlar ko'pincha zoya ketadi, ulardan aytarli na'f bo'lmaydi.

Ilmiy faoliyatning yana bir siri bor. Albatta, olim turli tilda yozishga o'rganishi kerak. Biroq, u qaysi tilda o'ylasa, fikr yuritsa, o'sha tilda yozgani ma'qul yoki yozadigan tilida o'ylab yurgani yaxshi. Aks holda, bunday faoliyat katta natija bermaydi; bir tilda o'ylab, uni boshqa tilga to'g'ridan to'g'ri o'girib yozish ham kulgili hollarga olib kelishi muqarrar.

Yana savol tug'ilishi o'rinli: bir kunda necha bet matn yozilishi mumkin? Bu savolga ham aniq javob berish qiyin. Masalan, ijodkor kunda 20 betgacha, ya'ni bir paragraf yoki bitta o'rtacha ilmiy maqola hajmida yoza oladi. Ammo bunday sermahsul kunlar, yuqorida ta'kidlaganimizdek, ko'p emas va tez - tez takrorlanib turmaydi.

Dissertatsiya va avtoreferat matnlari yozilib, bir necha bor qayta ko'rib chiqqandan so'ng tadqiqotchi shu joyda muvaqqat to'xtashi kerak. Agar uni yanada yaxshilayman deb ortiqcha urinsa, borini ham buzib qo'yadi, ish "ming bir kecha" afsonasiga aylanib qoladi, chunki "juda yaxshi" ba'zan yaxshining dushmani bo'lib qolishi mumkin (V.M.Goxman).

Dissertatsiya va avtoreferat ilmiy rahbar tomonidan ko'rilganidan so'ng uning tavsiyasi asosida kafedraga muhokama etish uchun qo'yiladi. Muhokamaga taqrizchilar hay'ati chetdan chaqiriladigan mutaxassislar kafedra tomonidan belgilanadi.

Kafedra qaroriga muvofiq dissertatsiya taxminan bir oy muddatida muhokama qilinishi belgilanadi. Ana shu davr mobaynida dissertant ko'rgazmali

materiallar hamda 15-20 minutga mo'ljallangan ma'ruza matnini yozishi kerak. Ma'ruzada asosan dissertatsiya ishidan kelib chiqqan ilmiy va amaliy xulosalar, ularga qaysi yo'l bilan erishilganligi to'g'risida qisqa, aniq, ishonchli va tushunarli tarzda bayon etiladi.

Ba'zan dissertant o'z ma'ruzasida bajarilgan ishning nomi, hajmi, mundarijasi, vazifalarini erinmay gapirib o'tadi. Fikrimizcha, bunday zerikarli hikoyaning keragi yo'q. Ular to'g'risida muallif emas, eng avvalo, rasmiy taqrizchilar aytishlari o'rinli. Esda tuting: ma'ruzaning ma'noligi va ma'niyligi, ilmiyligi va tadqiqot natijalari bilan asoslanganligi bajarilgan ishning eng muhim ko'rsatkichlaridir. Hayotda shunday bo'ladiki, yaxshi, sifatli ish ma'nisiz, quruq va zerikarli bayon etilishi yoki, aksincha, uncha chuqur yozilmagan dissertatsiya juda yuqori mahorat bilan tinglovchilar e'tiboriga yetkazilishi mumkin. Ko'rinib turibdiki, bu o'rinda ham o'ziga xos san'at va mahorat talab etiladi.

Muhokama (va himoya) uchun tayyorlanadigan ma'ruzaning turli usulda yozilishini tavsiya etamiz. Biz bu yerda, eng avvalo, umumiylikdan xususiylikka va xususiylikdan umumiylik tomon borishni nazarda tutmoqdamiz. Ma'lumki, ilmiy tadqiqotda ikki asosiy usul mavjud: birinchisi, induktiv, ya'ni kuzatish natijalaridan umumiy xulosa chikarish bo'lsa (uni F.Bekon usuli ham deyishadi), ikkinchisida, asosiy xulosa, ma'lum erishilgan g'oya va qonuniyatlar oldinga suriladi va ular o'tkazilgan tadqiqot natijalari bilan isbotlab beriladi. Demak, bir joyda ma'ruzachi o'zining bajargan ishlari va ulardan kelib chiqqan xulosani aytib o'tsa, boshqa o'rinda uning teskarisi - ma'lum bir ilmiy xulosa ta'kidlanib, g'oya oldinga chiqarilib, uning dissertatsiyada qaysi yo'l bilan aniqlanganligi to'g'risida dalilli so'zlab berish kerak bo'ladi. Ana shunda ma'ruza qiziqarli va jonli tus oladi.

Dissertatsiyaning dastlabki muhokamasi qanchalik keng, batafsil, munozara va bahsli o'tsa, uning kelajagi shuncha yaxshi bo'ladi. Zero mashqdagi mashaqqat, qiyinchilik keyinchalik himoyaning muvaffaqiyatli o'tishiga zamin yasaydi.

Ammo bu yerda ham muhokama va ilmiy munozara madaniyati yuksak darajada bo'lmog'i lozim. Ba'zan shunday taqrizchilar ham uchraydiki, ular qilingan ishga baho bermay, faqat qilinmaganini qidiradilar yoki dissertatsiyaning nomi va uning mundarijasiga asoslanibgina gapiradilar, xolos. Holbuki, bir dissertatsiya doirasida qamrab olib bo'lmaydigan narsalarni (masalalarni) qamrab olib bo'lmaydi; ishning shakli hamma vaqt ham uning mazmunini to'la aks ettirmaydi. Dissertatsiyaga yuzaki qarash esa mas'uliyatsizlik, tadqiqot muallifi va o'tirganlarga xurmatsizlik demakdir. Binobarin, tadqiqotchi, bunday kutilmagan vaziyatlarga ham shay bo'lib turishi kerak. Gap shundaki, agar kimda-kim kerak bo'lsa karra jadvali ham shubha ostiga olinishi, bahs-munozarali bo'lishi mumkin. Biroq, hamma vaqt qilingan, bajarilgan ishning mazmuni, uning nomzodlik darajasiga yetarli yoki yetarli emasligi, avvalgi ishlardan farqi, yangiligi baholanishi lozim. Qilinishi maqsadga muvofiq bo'lgan ko'rsatmalar esa tadqiqotchi uchun uning bo'lajak ilmiy ishiga tavsiya yoki taklif, maslahat bo'lib xizmat qiladi, xolos.

Yana bir maslahat: odatda qizg'in muhokamadan so'ng dissertantning kayfiyati uncha yaxshi bo'lmaydi. Bu tabiiy hol va undan aslo ruhan tushkunlikka uchramang. To'g'ri, muhokama jarayonida har qanday vaziyat bo'lishi mumkin: ba'zilar bu ishga havas bilan qarashsa, boshqa ayrimlari unga hasad qilishlari, bajarilgan ishga aloqasi yo'q gaplar bilan yoki dissertantga emas, uning ilmiy rahbariga bo'lgan shaxsiy munosabatlarini bildirishlari uchrab turadi. Bundan hech xavotir bo'lmang, ikkilanmang va o'zingizni shunga o'xshash tasodifiy holatga oldindan ruhiy jihatdan tayyorlang. Siz qattiq "jangdan" o'tdingiz, endi esa qiladigan ishingiz aniq, ma'lum va ravshan; dissertatsiya asosan bajarilgan, uning faqat "kosmetikasi" qoldi, xolos; ularni siz o'z ilmiy rahbaringiz maslahat va ko'rsatmalari yordamida tezlik bilan uddalay olasiz.

Aksariyat hollarda haqiqiy, beg'araz taqrizchilar va muhokamada qatnashganlarning o'zlari ishdagi mavjud kamchiliklarni ko'rsatibgina qolmay, balki

ularning bartaraf etish yo'llarini («retseptini») ham belgilab beradilar. Shubhasiz, bu tayyor dasturdir va u ishni yakunlovchi holatda himoyaga kechiktirmasdan olib chiqishga ko'mak beradi. Bunday mehnatkash taqrizchilarni qidiring, qadrlang. Yengil - yelpi, quruq, to'la maqtovdan iborat "martabali" taqrizchidan ba'zan ana shunday sidqidildan ishga yordam beruvchi oddiy zahmatkashlar foydaliroqdir.

Muhokamadan so'ng dissertant maxsus daftar tutib, taqrizchilar va munozarada chiqqanlar fikrini jadval tariqasida yozib oladi va ularning bajarilganligini qayd qilish uchun joy qoldiradi. Chunki, bu haqda muallif keyinchalik hisobot berishi lozim bo'ladi.

Dissertatsiyani qayta ishlash jarayonida, ayniqsa, 2 va undan ortiq kishilar tomonidan ko'rsatilgan aynan bir xil kamchilik yoki takliflar bajarilishi shart. Bunday takliflarning obyektivligi, xolisonaligi hech shubhaga o'rin qoldirmaydi. Boshqa kamchiliklarni ham iloji boricha bartaraf etishga harakat qilish lozim. Biroq, muhokamada aytilgan hamma kamchiliklar va tavsiyalarni to'g'rilash zarur emas. Sababi, ularning ayrimlari mazkur mavzuga bevosita aloqasi bo'lmasligi yoki ular ishda bayon etilgan bo'lishi mumkin (qolaversa, haqiqiy "himoya" uchun ham ba'zi masalalar munozarali bo'lib qolgani ma'qul).

Ish kafedrada bir yoki ikki marta ko'rib chiqilgandan so'ng, uni Ixtisoslashgan kengashga himoya uchun tavsiya etiladi. Ixtisoslashgan kengash ishni qabul qiladi, tegishli ilmiy seminar va ekspertiziyadan o'tkazib uning himoya kuni, soati, rasmiy taqrizchilar va yetakchi tashkilotlarni belgilaydi, avtoreferat chiqarish va uni kelishilgan ro'yxat bo'yicha tarqatishga ruxsat beradi.

Himoya 1,5-2 oydan so'ng bo'lishi mumkin. Ana shu davrda dissertant muqokama yakunlarini e'tiborga olib, o'zining ma'ruza matnini yanada yaxshilaydi, takomillashtiradi, jadval, chizma va xaritalar kamchiliklarini to'g'rilab, ularni himoyaga tayyorlaydi. Rasmiy taqrizchilar hamda yetakchi tashkilot taqrizi

bilan oldindan tanishadi va ularga o'z javobini yozib qo'yadi. Shuningdek, dissertatsiya avtoreferatiga tushgan taqrizlarga ham javob tayyorlaydi.

Himoyadan 2-3 kun oldin himoya bo'ladigan xonada magnitafon yordamida yoki yaqin do'stlari, hamkasblari ishtirokida o'zining ma'ruzasini mashq («repititsiya») qiladi, ma'ruzada chetdan sezilgan kamchilik va nuqsonlar to'g'ri- lanadi, shu bilan birga, kengash o'tadigan xona yaxshilab o'rganiladi. O'zining o'tirish joyini, tribunaga qaerdan chiqib borishini, tayyorlangan jadval yoki boshqa ko'rgazmali materiallarning qaysi biriga qachon va qanday borishini puxta o'zlashtirib oladi.

Bundan tashqari, dissertant ilmiy kengash a'zolari bilan yaqindan va g'oyibona tanishadi, ularning ismi sharifi, familiyasi va ilmiy yo'nalishlarini, yozgan asarlarining asosiy mohiyatini bilib oladi. Bularning hammasi aspirantga himoya paytida juda qo'l keladi.

Albatta, himoya kunida dissertant sog'lom, nutqi ravon va shirin, dimog'i chog', xotirjam, oilasida tinch-totuvlik, faqat himoya kayfiyati bo'lishi kerak. Himoyaga aspirant o'zining yaqin atroflarini, do'stlarini taklif etishi, uni magnitafon yoki videokameraga tushirishi, rasmga tushirish ham zarar qilmaydi. Zero, bunday unitilmas kunlar inson xayotida kamdan-kam (ikki yoki uch marta) bo'ladi va hammaga ham taqdiru nasib etmaydi.

Mana qachondan beri zoriqib kutgan himoya kuni ham keldi. Endi siz hech hayajonlanmang, qo'rqmang. Axir o'zingizning ishingizni, shuncha yillar davomida olib borgan mashaqqatli tadqiqotingizni boshqalardan ko'ra yaxshiroq, puxtaroq bilishingiz, ayonku! Ana shu fikrni o'zingizga singdiring, ixlos qiling, ishingizni muvaffaqiyatiga shubha qilmay ishonang, asabiylashmang.

Himoya uchun ajratilgan vaqtdan unumli foydalaning, umumiy, hammaga ma'lumu ravshan bo'lgan gaplar evaziga qilingan ish va uning xulosalari, ilmiy va amaliy tavsiyalari haqida aniq, lo'nda, asosli va ishonchli qilib, turli "notada"

so'zlab bering (bu yerda muhokamada qilingan ma'ruzaga tegishli kamchiliklar to'g'rilangan bo'lishi kerak). Yozuvingizga "yopishib" olib tribunadan qimirlamay, uni faqat o'qib bermang, lekin auditoriyada dars o'tgandek, ma'ruza matnidan ham to'la uzoqlashmang. Vaqti-vaqti bilan tayyorlagan chizma va xaritalaringiz yaqiniga boring, ular haqida qisqa izoh bering. Biroq, hamma chizmalar oldiga borish shart emas, chizma va boshqa ko'rgazmali jihozlar soni ham juda ko'p bo'lmasin (ularning eng ko'pi 10-12 bo'lgani ma'qul).

Ma'ruzangizda ortiqcha, ko'cha gaplarini ishlatmang, nutq madaniyatingizni namoyish qiling. Ayni paytda o'zingiz to'la ma'nosini bilmagan yoki chuqur anglamagan ilmnamo ibora va tushuncha yoki atamalarni qo'llamang. Chunki, ular keyinchalik o'zingizga "bumerang" bo'lib savol tariqasida qaytib kelishi va sizni uyaltirib qo'yishi mumkin ("hamma narsa tilingdadir" deyishadi, unutmang). Shu bilan birga, ma'ruzaning ilmiy saviyasi, savodxonligi yuqori bo'lishi kerak, lozim bo'lgan kezlarda fanda mavjud, ma'lum nazariy qonuniyatlar, ilmiy yo'nalishlar va maktablar, mugaxassis olimlarni ham tilga oling. Bu sizning ilmiy jihatdan naqadar tayyor ekanligingiz, yetishganligingizdan darak beradi. Lekin, ma'ruza faqat shu lar to'g'risida yoki auditoriyada talabalarga dars bergandek o'tmasin.

Dissertatsiya – bu tugallangan, katta nazariy va amaliy ahamiyatga molik, aspirantning shaxsan o'zi tomonidan bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishidir. Shu bois, ma'ruza aniq raqam va dalillar bilan o'z isbotini topmog'i lozim. Ammo bu yerda ham raqamlarni ko'p ishlatmang. Unda siz kengash a'zolarining ensasini qotirib qo'yasiz, ularning jig'iga tegasiz. Axir, himoya xo'jalik yoki korxonaning yillik hisoboti emas-ku!

Eng muhimi, yana bir karra ta'kidlaymiz, vaqtdan to'g'ri foydalaning. Zero, aytolmagan gaplaringiz, mashaqqat ila erishgan yutug'ingizni ko'rsatishga ulgura olmaganingiz yoki unutganingiz uchun keyinchalik qattiq iztirob chekasiz, o'z-o'zingizni koyiysiz, afsuslanasiz. Bunga yo'l qo'ymang, chunki ko'pgina hollarda

himoyadan so'ng hamma shodu xursand, ammo himoyachining o'zini kayfiyati noxush bo'lishli ham uchrab turadi. Garchi o'zingiz bajargan (aytgan, aytoigan) ishlaringizdan qoniqmaslik ma'lum darajada tabiiy bo'lsa-da, bunday holatni mumkin qadar kamaytirish kerak.

Himoya jarayonining eng qiziqarli va ayni paytda mas'uliyatli pallasi, nazarimizda, ma'ruzadan keyingi savol - javoblardir. Sababi rasmiy taqrizchilar, yetakchi tashkilot va avtoreferatlarga kelgan taqrizlar, ulardagi kamchiliklar bilan oldindan tanishish imkoniyati mavjud, ularga javoblar stsenariyasi ham tayyor. Bu yerda esa xaqiqiy kurash, tom ma'nodagi himoya bo'ladi, kutilmagan "peshona" savollariga zudlik bilan tezkor va ishonchli javob berish talab etiladi. Agar siz kengash a'zolarini oldindan yaxshi o'rgangan bo'lsangiz, ularning shaxsiy ilmiy yo'nalish va qiziqishlarini bilsangiz, bu qiyinchiliklar ancha yengil ko'chadi (bunday sharoitda kimda qanday savol tug'ilishi ehtimolini tasavvur qilish qiyin emas).

Savollarga javob berish vaqti odatda cheklanmagan. Binobarin, bu yerda ma'ruza davomida unutilib qoldirilgan ba'zi muhim xulosalarni ham mohirona kiritsa bo'ladi. Ammo, masaladan juda chetlashib, sergap bo'lmang. Shu bilan birga, nihoyat darajada qo'pol, o'ta qisqa ("ha" yoki "yo'k" iboralari bilan) javob bermang, bilimingiz ila odobingiz, tarbiyangizni ham namoyon qiling. Sizning javobingiz hech bo'lmaganda savol beruvchining jumlasiga teng yoki undan kengroq bo'lgani ma'qul. Savol ko'p tushsa, siz bundan faqat xursand bo'lishingiz kerak. Bilingki, sizning ishingiz, ma'ruzangiz ko'pchilikda katta qiziqish uyg'otgan va u dolzarb muammoga bag'ishlangan. Ba'zan bir kishi tomonidan ustma-ust, "qo'shaloq", kaskad savollar berilish holati ham uchrab turadi. Bunday sharoitda dissertant aslo parokandalikka yo'l qo'ymasdan va erinmasdan oldida turgan tayyor qog'ozga bu savollarni yozib olishi va o'ziga ma'qul bo'lgan tartibda javob berishi mumkin. Lekin hamma vaqt keng fikrlab (o'ylab), qisqa gapirishga,

javob berishga odatlaning; dono bo'ling, mahmadona bo'lmang, gapdon bo'ling - u, sergap bo'lmang.

Shu bilan birga, himoya paytida qayta-qayta, aynan birday o'xshash fikrni takrorlash maqsadga muvofiq emas. Chunonchi, ba'zilar barcha ko'rsatilgan kamchiliklarga (ehtimol, savol beruvchi, rasmiy taqrizchining obro' - e'tibori, amali dissertantni cho'chitib qo'yishi mumkin) to'g'ridan-to'g'ri qo'shilib ketadilar yoki ularning aksariyatini "bajarilgan mavzu yoki tadqiqot ishining maqsad va vazifalariga to'g'ri kelmaydi" iboralari bilan batamom supurib tashlaydilar. Aslida bu savollarga javob emas, balkim undan qochish demakdir. Ayrim aspirant yoki dissertantlar esa barcha ko'rsatilgan kamchiliklarni "kelajakda e'tiborga olaman" va "to'g'rilayman", deb an'anaviy quruq va'da beradilar. Qiziq, axir siz bajarib bo'lgan ishingizni himoya qilayapsiz-ku! Qani sizning bildirgan fikrlarga shaxsiy munosabatingiz? Qolaversa, dissertatsiya Oliy Attestatsiya Komissiyasiga aynan shu ko'rinishda jo'natiladigan bo'lsa, siz aytgan fikrlarni qanday va qachon to'g'rilaysiz? Shuning uchun ishingizni himoya qiling. Munozara, ilmiy bahs olib borish san'ati va madaniyatini yaxshi egallang.

Berilgan savollarga har qanday sharoitda ham puxta javob bering, muqobil (alternativ) fikrlashga, savolga savol bilan javob qaytarishga, vazminlik bilan savol beruvchi, taqrizchilarning izzat-nafsiga tegmasdan ishonchli, shubhaga o'rin qoddirmaydigan darajada o'z munosabatingizni biddiring. Yana bilib qo'ying: hozir nafaqat siz himoya qilayapsiz, balkim bu yerda ilmiy rahbaringiz, uning yaratgan ilmiy maktabi ham qattiq sinovdan o'tmoqda buni unutmang va mas'uliyatli bo'ling.

Muzokara va munozaralarda faol qatnashib, har qanday "hujumga" tezkorlik va vazminlik bilan kurashib, o'z ishingizni himoya qilmog'ingiz darkor. Bu chinakam unitilmas lahza, sizning ilmiy xodim sifatida shakllaganingizni,

chiniqqan va toblanganingizni aks ettiruvchi ondir. Binobarin, bu sharafli tadbirga atroflicha tayyorgarlik ko'rish kerak.

Xulosa. Shunday qilib dissertatsiyani nihoyasiga yetkazish murakkab jarayon bo'lib, u kishi umrining eng ijodkor qismini oladi. Binobarin, bajarilgan dissertatsiyaning haqiqiy ilmiy tadqiqot ishi bo'lishi va ko'p yillar yashashi, fan va amaliyotga xizmat qilishi talab etiladi. Buning uchun uning ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy nuqtai nazardan dolzarbligi, maqsad va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti, himoya jihatlari aniq o'z ifodasini topmog'i kerak.

Dissertatsiya maqsadi mumkin qadar qisqa va aniq belgilanadi va u maqsadga dasturli yondashuv tamoyiliga muvofiq holda qator, o'zaro aloqador vazifalarga bo'linadi. Ushbu vazifalar mazmunan dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi, himoya uchun oldinga surilgan jihatlari mos keladi.

Tadqiqot obyekti bo'lib geografiyada faqat qaysi bir hududning olinishi noto'g'ridir. Masalan, dissertatsiya mavzusi "Qashqadaryo viloyati sanoatining hududiy va tarmoqlar tarkibi" bo'lsa, uning tadqiqot obyekti sifatida Qashqadaryo viloyati emas, balki uning sanoat korxonalarini majmuasi xizmat qiladi. Dissertatsiyaning predmeti hamma vaqt "Nima ishda qaysi muammo o'rganiladi?" degan savolga javob berib, u olingan obyektning faqat aniq bir tomonini tadqiq qilinishini anglatadi. Zero, bir obyekt qolgan jihatlari nuqtai nazaridan boshqalar tomonidan ham o'rganilishi mumkin.

Dissertatsiya yozish va uning himoyasida eng muhim masala tadqiqotning ilmiy yangiligidir. Har qanday ishda faqat bitta bosh muammo hal qilinadi va shu bois uning ilmiy yangiligi ham asosan bitta. Qolgan "yangilikchalar" esa bu asosiy yangilikka xizmat qiladi, aniqlashtiradi yoki uni boyitadi.

Ilmiy yangilik aksariyat hollarda ma'muriy xududiy birliklarga bog'liq bo'lmay, u obyektiv birlikka tegishli qonuniyatlar bilan belgilanadi. Bu borada, albatta, hududning ichki xususiyatlari ham ma'lum ma'noga ega (aholisi zich

joylashgan, ekologik nosog'lom, tabiiy resurslarga boy, voha yoki vodiya xos ishlab chiqarish kuchlarining joylanishi va h.k.).

Ana shunday o'ziga xos betakror hududlarda bajarilgan ishning asosiy xulosalari ham uning ilmiy yangiligi bo'lishi mumkin. Biroq, aynan bir mavzuni - sanoat, aholi va mehnat resurslarini, aholiga xizmat ko'rsatish sohalar, kasalliklar yoki jinoyatchilik geografiyasi mavzulariga bag'ishlangan ishlarni O'zbekistonning 12 viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda Toshkent shahri uchun bir qolipda (shablonda, andozada) bajarilishi hech qachon ilmiy yangiliklarga olib kelmaydi. Aksincha, bunday (dublyor) ishlar fanning nufuzi, obro'sini tushiradi, ilmiylikini kamaytiradi.

Ilmiy yangilik qandaydir qonuniyatni ochish yoki ma'lum bo'lgan qonuniyatlarga yangicha yo'l bilan erishish, mavjud tushunchalarga aniqlik kiritish kabilar bilan belgilanadi. Ba'zan qaysi bir hududning kartasini qandaydir masshtabda yaratilishi ham tadqiqotning ilmiy yangiligi sifatida talqin qilinadi. Vaholanki, xuddi shunday mazmundagi kartani boshqa hududlarga yoki ularni boshqa masshtabda tuzilishi ham ilmiy yangilik bo'lavermaydi. Bunday yondashuv nodurust; ilmiy yangilik bu yerda shu mavzuga bag'ishlangan karta tuzishning metodikasiga, uslubiyotiga bog'liq bo'lishi mumkin, xolos.

Aspirantlarni eng qo'rqitadigan savollar ishning himoya jihatlari, uning ilmiy va amaliy ahamiyati nimadan iboratligidir. Himoya uchun belgilangan asosiy bandlar tadqiqot natijasidan kelib chiqib, ular ayni vaqtda dissertatsiyaning maqsad va vazifalari, ilmiy yangiligi bilan hamohang bo'lmog'i lozim. Shu va shunga o'xshash "dahshatli" savollarga tadqiqotchi tayyor bo'lishi va ularga asosli qilib javob berishi himoya muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Dissertatsiya himoyasi aspirantura muddatida qilinsa yoki shu davrda u muhokamadan o'tib, Ixtisoslashgan kengashga himoya uchun tavsiya etilsa, bu eng katta yutuq hisoblanadi. Buning uchun aspirantura davrini to'g'ri rejalashtirish

(yillar, chorak va hatto alohida oylar bo'yicha), undan samarali foydalanish talab etiladi, Qizig'i shundaki, avval 3 o'quv yili juda katta muddat tuyulishi mumkin. Biroq, bu davr tezlik bilan o'tib ketadi, keyinchalik esa aspirantga u, afsuski, qisqa bo'lib ko'rinadi, yetishmay qoladi.

Aspiranturaning birinchi yili, asosan, ishning reja va dasturini tuzish, maxsus ilmiy adabiyotlarni o'rganish, statistik va boshqa ma'lumotlarni yig'ish, nomzodlik imtihonlarini topshirishga safarbar etiladi. Ko'rinib turibdiki, dastlabki o'quv yilida qilinadigan ishlar turkumi, vaqt bo'yicha "zichligi" yoki hajmi ancha ko'p.

Ikkinchi o'quv yili aspiranturaning eng asosiy davri bo'lsa kerak. Chunki, xuddi shu yil davomida dissertatsiya matni (hech bo'lmaganda, birinchi ko'rinishda) muallif tomonidan yozib tugatilmasa, uning o'quv muddatida muvaffaqiyatli bajarilishiga ishonish qiyin.

Aspiranturaning yakunlovchiuchinchi yilida dissertatsiya matni ilmiy rahbar ko'rsatmalariga muvofiq to'g'rilanadi va kafedraga muhokamaga qo'yiladi. Undan so'ng muhokamada ko'rsatilgan kamchiliklar tuzatiladi va himoyaga tayyorgarlik ko'riladi. Ammo, bu davrda aspirantga bevosita bog'liq bo'lmagan sabablar bilan anchagina vaqt behuda ketib qolishi ham mumkin. Shuning uchun uchinchi yilga bu jihatdan umid katta emas.

Aspirant va uning ilmiy rahbari uchun dissertatsiyaning o'z vaqtida himoya qilinishi katta ahamiyatga ega. Binobarin, aspirant bo'lishga shoshmaslik kerak: tez aspirant bo'lib, ishni yozolmasdan, keyinchalik uni uzoq muddatga cho'zishdan yoki "yarim mahsulot" (polufabrikat) shaklida tahsilni tugatishdan ko'ra, yaxshi tayyorlanib (stajyor - tadqiqotchi bo'lib), so'ngra aspiranturaga kirish va uni o'z vaqtida yoqlash qanday yaxshi!

To'g'ri, agar ilmiy ish, ilgari ta'kidlaganimizdek, talabalik va magistrlik davrida boshlanilsa, ma'lum bir mavzu bosqichma-bosqich o'rganilib borilsa,

shunga tegishli ilmiy adabiyot bilan tanishib birorta ilmiy maqola e'lon qilinsa, unda nur ustiga a'lo nur bo'lar edi. Oliy o'quv yurtining Ilmiy kengashi bunday iqtidorli yoshlarni bevosita aspiranturaga tavsiya etishga haqli.

Mana dissertatsiya ham muvaffaqiyatli himoya qilindi. Sizni OAK ko'p vaqt o'tmay fan nomzodi bo'lganingizni rasmiy ravishda tasdiqladi. Ammo, bu ilmiy faoliyatning nihoyasi emas, balki uning muqaddimasidir. Chunki siz, sirasini aytganda, endi fanga, olimlikka nomzod bo'ldingiz, bu darajani nasiyaga oldingiz, xolos. Shuning uchun ilm yo'lida to'xtamasdan, hormay-tolmay davom ettirishingiz kerak. Ma'lum vaqt o'tgandan so'ng o'zingizning ilmiy salohiyatingiz, imkoniyatingizga ishonch hosil qilganingizdan keyin navbatdagi tadqiqot ishiga - doktorlik dissertatsiyasiga bel bog'lang. Ana o'shandagina siz haqiqiy usta va ustoz bo'lasiz, ko'plab shogird yetishtirasiz, tom ma'noda olimlik darajasiga yetasiz. Zero, shogird chikarmagan, o'zini takrorlamagan kishi hech qachon o'z kasbining sohibi yoki ustasi, aniqroq qilib aytganda - professori bo'lmaydi; bu misli yerni shu dgor qilishu , ammo unga urug' qadamaslik demakdir.

Shu o'rinda Hiloliyning aytganini keltirish joyiz:

“Ilm o'rganding, amal qil,

Shu dir qadring kaliti bil”

Yoki: “Harchand o'qibsan bilimdonsan,

Agar amal qilmading, nodonsan”

Sa'diy Sheroziy ham bu xususda quyidagicha fikr bildirgan: “Kim fanni o'rgangan bo'lsayu, uni amalga tadbiq etmasa, yer haydagan-u, ammo ekin ekmagan dehqonga o'xshaydi”.

Binobarin, siz ham o'z ilmiy maktabingizni yarating, tarixda o'zingizning munosib izingizni, nomingizni qoldiring. “O'lim bu dahshat, ammo u muhim emas. Agar boshqalar ham mendek fikrlashsa, ular men ochgan yo'lni topishadi,

men yaratgan ishni davom ettirishadi. Demak, men hayotman, borman”, deb yozgan edi F. Jolio - Kyuri.

Aspirant va ilmay rahbar munosabati. “Ustoz otangdan (otangdek) ulug’” deyishadi. Xalqimizning bu gapida hech qanday mubolag’a yo’q, albatta. Biroq, ustoz bo’lish ham qiyin va u barcha fan doktorlari yoki nomzodlarining qo’lidan kelavermaydi. Bu katta mahorat, tajriba va psixologik matonat va tashkilotchilikni talab qiladi.

Ustozning mas’uliyati va shogirdning majburiyatini nihoyatda uyg’unlashuvi, mushtarakligi kerak. Agar ustoz o’z vazifasini suiste’mol qilmasdan, shogirdiga chinakam otadek mehribon bo’lsa, shogirdning ilmiy rahbariga bir umr sadoqatli bo’lishi ham qarz, ham farzdir.

Haqiqiy ustoz bamisoli bog’bondek: u yetishtirgan bog’da turli xil mevalar bo’lgani kabi uning shogirdlari ham har xil va turlicha (ba’zan u yetishtirgan bog’da mevasiz yoki achchiq danaklisi, yovvoyisi ham bo’lishi mumkin). Eng muhimi, ular bir-birlari bilan ahil, bir ilmiy maktabning vakillari bo’lmoqlari zarur. Ularning barchalari o’zlarining ustoz-ilmiy rahbarlari bilan faxrlanishlari, uni har qanday sharoitda qo’llab-quvvatlashlari kerak. Shu bilan birga, ustoz ham o’zining bir vaqtlar shu shogirdi darajasida bo’lganligini unutmasin. Uning: “Men ham edim sendek, sen ham bo’larsan mendek”, niyatida ish tutishi nihoyatda katta savobdir. Bu albatta ustozning nomini ulug’laydi, abadiylashtiradi.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Ilmiy tadqiqot geografiya fanining vujudga kelishini asosi sifatida ahamiyatini tushuntiring.
2. Dissertatsiya yozishga tayyorgarlik davri qanday bosqichlardan iborat.
3. Ilmiy tadqiqot ishi mavzusini tanlashda e’tibor kerak bo’lgan jihatlari.
4. Ilmiy tadqiqot ishining reja va dasturini tuzishda nimaga e’tibor beriladi?
5. Minimum imtihonlarini topshirish va mavzuga doir maxsus adabiyotlarni o’rganishda nima ishlar bajarish lozim?

6. Statistik ma'lumotlar bilan ishlash va dissertatsiya matnini yozish usullari
7. Avtoreferat ustida ishlash, dissertatsiya muhokamasi va himoyasiga tayyorgarlik ko'rish bosqichini tushuntiring.

MAVZUGA DOIR ASOSIY TUSHUNCHALAR

Ilmiy tadqiqotlarning tiplari. Hozirgi zamon fanining amaliyotga qarab mo'ljal olishi mazkur fanga xos bo'lgan xususiyat va shu bilan bir vaqtda jamiyat fanga qo'yuvchi muhim talablardan biridir. O'z navbatida, amaliyot ham fanga tobora ko'proq tayanmoqda. Fanning amaliyot sari harakatining turli bosqichlariga ilmiy tadqiqotlarning bir-biri bilan bog'langan, lekin shunga qaramay turli tiplari muvofiq keladi:

- 1) fundamental tadqiqotlar;
- 2) amaliy tadqiqotlar;
- 3) tadqiqotchilik loyiha-konstruktorlik ishlanmalar;
- 4) innovatsion tadqiqotlar;
- 5) Yoshlarning amaliy va fundamental tadqiqotlari.

Fundamental tadqiqotlar. Fundamental tadqiqotlar voqelik hodisalari va qonunlari haqida yangi bilim olishga qaratiladi. Ular biron-bir amaliy maqsadlarga erishishni bevosita ko'zlamaydi. Bu yerda tadqiqotchini haqiqat o'z-o'zicha qiziqirmaydi, u mazkur haqiqatning tagiga yetish qanday foyda keltirishi mumkinligini bilmasdan uni izlaydi. Fundamental tadqiqotlar ikki xil: erkin va aniq maqsadga qaratilgan bo'ladi.

Erkin tadqiqot (izlanish) - odatda individual xususiyat kasb etadi yoki ish maqsadini mustaqil belgilash va unga zarur bo'lgan mablag'larni o'z ixtiyoriga ko'ra tasarruf etish imkoniyatiga ega bo'lgan olim tomonidan boshqariladi. Erkin izlanish rejimida ish olib borayotgan olim o'z faoliyati metodlari va yo'nalishlarini tanlashda erkin bo'ladi. Uning aqlida kutilmagan g'oyalarning paydo bo'lishi, agar ular olimga qiziqarli bo'lib tuyulsa yoki tabiat qonunlarini yanada teranroq tushunishni va'da qilsa yoinki tadqiqotning yangi sohalarini ochish imkoniyatini bersa, ilmiy izlanish yo'nalishini butunlay o'zgartirib yuborishi mumkin.

Aniq maqsadga qaratilgan fundamental tadqiqotda ilmiy izlanish yo'nalishi aniq belgilangan bo'ladi va tadqiqotchilardan qo'yilgan maqsadlarga erishish yo'lidan og'maslik talab etiladi. Odatda, bunday tadqiqot muayyan tashkilot tarkibida, jamoa bo'lib amalga oshiriladi. Unda jamoa ishiga ma'muriy rahbarlik qilish tizimi ulkan rol o'ynaydi. Ixtisoslashtirilgan ilmiy guruhlar, laboratoriyalar, bo'limlar tashkil etiladi, ularning faoliyati muvofiqlashtiriladi. Agar tadqiqot yo'li lozim darajada aniq bo'lsa, uni rejalashtirish, har bir bosqichda olinishi kerak bo'lgan natijalarni hamda buning uchun zarur texnika va moddiy vositalarni nazarda tutish imkoniyati paydo bo'ladi.

Amaliy tadqiqotlar. Amaliy tadqiqotlarning xususiyati shu bilan belgilanadiki, ular amaliy vazifalarni yechish uchun kerakli bo'lgan bilimni olishga qarab to'g'ridan-to'g'ri mo'ljal oladi. Ilmiy xodim boshqa imkoniyatlarni o'rganish uchun, hatto ular qiziqarli natijalarni va'da qilayotgan bo'lsa ham, mazkur tadqiqot chizig'idan chetga chiqishi mumkin emas.

Tadqiqotchilik loyiha-konstruktorlik ishlanmalari - amaliy tadqiqotlardan farqli o'laroq loyiha konstruktorlik ishlanmalari konkret texnik vazifani bajarish maqsadini ko'zlaydi. Tadqiqotchilik ishlanmalari odatda biron-bir prinsipial yangi ilmiy bilimlarni olish yo'lidagi izlanishlar bilan bog'liq bo'lmaydi, lekin konkret loyiha-konstruktorlik vazifalarini yechish uchun fundamental va amaliy fan natijalaridan foydalanishga qaratilgan tadqiqotlar o'tkazishni talab etadi.

Innovatsion tadqiqotlar-muayyan sohada mavjud bilimlarga tayanib ishlab chiqarish uchun foydali yangi ishlanmani ixtiro qilishni nazarda tutadi.

Fanning «o'sish nuqtalari» - O'z rivojlanish jarayonida fan o'zi to'plagan bilimlar hajmini o'stirish bilan bir vaqtda uning mazmunida ham sifat o'zgarishlari yasaydi, uni olish va asoslash usullarini takomillashtiradi, uni tashkillashtirish tizimini qayta quradi.

8 – MAVZU

XVIII – XIXASRLARDA GEOGRAFIK TADQIQOT METODLARI VA VAZIFALARINING O'ZGARISHI

Maqsad: Talabalarga XVIII – XIXasrlarda geografik tadqiqot metodlari va vazifalarining o'zgarishi haqida ma'lumot berish.

Tayanch so'z va iboralar: Kameral statistika, shtandort nazariyasi va tabiiy geografiya, “Rossiyaga tatbiqan qudratli hududiy egalik to'g'risida”, hududiylik (rayonlashtirish), kompleks va sistemali yondashuv.



REJA:

1. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fani shakllanishining uch asosiy manbai, uch tarkibiy qismi
2. Dmitriy Milyutinining Geostrategik taraqqiyot nazariyasi
3. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya faning predmetiga uch xil yondashuv
4. Iqtisodiy geografik tadqiqotlardagi ba'zi bir kamchiliklar




Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fani birdaniga vujudga kelmagan. Uning fan sifatida shakllanishi va rivojlanishi jamiyat taraqqiyotining hududiy tomonlariga bog'liq bo'lgan o'zgarishlar bilan belgilandi. Mavjud ilmiy manbalarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy geografiyaning vujudga kelishida, uning tarixiy zaminida 3 yo'nalish yoki omil asosiy sabab bo'lgan. Bu ham bo'lsa, eng avvalo, *kameral statistika, shtandort nazariyasi va tabiiy geografiya*.

Ushbu yo'nalishlar ko'proq G'arbiy Yevropa va Rossiyada paydo bo'ldi. Masalan, Rossiyada *kameral statistika* yoki “*siyosiy arifmetika*”, davlatshunoslik, davlatning boyligi - yeri, mablag'i va aholisini hisob-kitob qilish, uni boshqarish, soliq va askar to'plash kabi masalalar bilan shug'ullangan holda (*statist, ya'ni*

davlat xodimi, chinovnik ma'nosini ham anglatadi) V.N.Tatishev, ota-o'g'il P.P. va V.P.Semenov-Tyanshanskiylar faoliyati bilan bog'liq bo'ldi. O'sha paytlarda statistika o'z qamroviga etnografiya va harbiy geografiya masalalari hamda savdo-sotiq ishlari bilan shug'ullanuvchi tijorat geografiyasiga doir muammolarni ham olgan.

V.N.Tatishev (1686-1750 yy.) geografiya fanini “sifat” jihatidan 3 ga bo'lgan (30-rasm): *matematik geografiya (hozirgi geodeziya va kartografiya),*



30-rasm. V.N.Tatishev

tabiiy va siyosiy geografiya. Iqtisodiy geografiya masalalari siyosiy geografiya doirasiga kiritilgan edi. Ayni paytda Buyuk geografik kashfiyotlar natijasida, keyinchalik mustamlaka yoki qaram (koloniya) mamlakatlarning paydo bo'lishi, dengiz-suv transportining rivojlanishi va boshqa omillar davlatlararo savdo-sotiq ishlarini olib

borishga, tijorat geografiyasining vujudga kelishiga sababchi bo'ldi. Shubhasizki, bu yo'nalish dastavval eng ko'p mustamlaka mamlakatlariga, qulay transport-geografik mavqega va yuksak dengiz kemachiligiga ega bo'lgan Angliyada rivojlana boshladi.

Siyosiy va harbiy geografiya Rossiyada XIX asr o'rtasida keng tarqala boshladi. Shuni aytish kerakki, “siyosiy geografiya” va “harbiy geografiya” tushunchalarini ham birinchi marta M.V.Lomonosov (1711-1765 y.) qo'llagan. Bu yo'nalishlar o'z obykti va mohiyatiga ko'ra bir-birlariga juda yaqin, turdosh bo'lib, ular aloqadorlikda rivojlanib kelgan. Rossiyadagi Ulug' Vatan (1812-y.) va Qrim urushlari, boshqa siyosiy voqealar, Yevropa mamlakatlaridagi inqilobiy o'zgarishlar, yangi davlatlarning shakllanishi va yangi ishlab chiqarish munosabatlarining vujudga kelishi siyosiy va harbiy geografiyaning paydo bo'lishiga zamin yasadi. XIX-asrning birinchi yarmida rus harbiysi professor

P.A.Yazikov ikki qismdan iborat *“Harbiy geografiyaning nazariy tajribasi”* mavzuida asr yaratgan bo’lsa, shu asrning o’rtalariga kelib Harbiy Akademiya bosh shtabi qoshida professor D.A.Milyutin (1816-1912 yy.) harbiy geografiya kafedrasini tashkil etdi¹⁸.

Dmitriy Milyutinning **Geostrategik taraqqiyot nazariyasi**: Rus klassik geosiyosatida rus armiyasining general-feldmarshali, harbiy strateg **Dmitriy Milyutin** (1816-1912) asosiy geostrategik konseptsiyalar, xususan *“harbiy-strategik yondashuv”* nazariyasini yaratdi. U ko’pgina geosiyosiy va geostrategik asarlarning muallifidir. Biroq geosiyosat nuqtai nazaridan uning *“Harbiy geografiya va harbiy statistikaning ahamiyatini tanqidiy tadqiq qilish”* asari katta qiziqish uyg’otadi. Bu kitob uzoq vaqt davomida jahon siyosiy fanida qiziqish uyg’otgan. Milyutin bu asarida rus geosiyosatining harbiy-strategik masalalari bo’yicha nazariy va amaliy asoslarini yoritib bergan. Mazkur asar Rossiya harbiy geografiyasi masalasidagi bahslarga yakun ham yasagan. 40 yoshidayoq general unvonini olgan, keng ma’lumot va kuchli tahliliy aql-idrok sohibi bo’lgan Milyutin 1860-yilda harbiy vazir o’rinbosari bo’lgan, so’ng Rossiya harbiy vaziri darajasiga ko’tarilgan. Aleksandr II ning so’nggi yillarida u amalda mamlakat Tashqi ishlar vazirligini boshqargan.



31-rasm. D.Milyutin

Milyutin Rossiyaning kelajakdagi geosiyosiy ustun vazifalarini imperiya sifatida belgilab bergan (31-rasm). U *Britaniya imperiyasini asosiy raqib deb bilishiga qaramay*, unga qarshi faol harakat boshlashni erta deb hisoblagan. U Rossiya 1853-1856 yillardagi Qrim urushi yaralarini hali davolab bo’lgani yo’q, deb yozgan edi. Yevropa va Yaqin Sharqda muvozanatni saqlash uchun, uning

¹⁸ Саушкин Ю.Г “История и методология географической науки” – М.: МГУ, 1972.


fikricha, Rossiya bilan Germaniya harbiy-siyosiy ittifoq tuzishi lozim edi. Milyutin o'sha vaqtlari buyuk Turkiston o'lkasi deb atalgan O'rta Osiyoning ulkan hududini Rossiyaga qo'shib olish tashabbuskori va yo'l boshlovchisi bo'ldi. U ilk navbatda O'rta Osiyo shaharlarining yarim yovvoyi ko'chmanchi qabilalarga feodal qaramligiga barham berish lozim, deb yozdi. Turkistondagi strategik jihatdan muhim aholi punktlarini rus qo'shinlari tomonidan bosib olish uchun Milyutin maxsus harbiy dastur tayyorladi. Uning fikricha, Britaniya imperiyasi qudratining asosi hisoblangan Hindistonga kelajakda xavf solish uchun bu mintaqani bosib olish zarur edi.

Milyutin Rossiyaning Usmoniylar Turkiyasi bilan geosiyosiy munosabatlarini ham ko'zdan qochirmagan. U shu munosabat bilan Turkiya bilan muhim ziddiyatlarni bartaraf etish yo'llarini taklif qildi. Harbiy vazirning rejalariga ko'ra, turklar tezlikda butun Yevropadan quvib chiqarilishi va Rossiya nazorati ostida bo'lgan slavyan xalqlaridan iborat Bolqon konfederatsiyasi bunyod etilishi lozim edi. Bunda Qora dengiz bo'g'ozlari barcha davlatlarga ochiq bo'lishi va betaraf status olishi darkor edi. Milyutin Eron va Xitoyning ingliz aralashuviga qarshi Rossiya imperiyasidan kafolat olish istagini hisobga olib va bu mamlakatlarni Rossiyaning tabiiy ittifoqchilari deb bilib, ular bilan ittifoqchilik munosabatlarini avaylab-asrashga chaqirdi. Rossiya general-fel'dmarshali uzoqni ko'zlovchi geosiyosiy fikrlarining mevasini Rossiya turklar bilan 1877-1878 yillardagi urush vaqtidayoq totib ko'rdi. O'sha vaqtda rus qo'shinlari Bolqonda turklarga yurish qilarkan, ingliz eskadrasining yolg'iz holda faqat Dardanell bo'g'ozida cheklangan qadamlar tashlashga yuragi betladi xolos. Shunday qilib, Milyutin Yevrosiyo, Yevropa, O'rta Osiyo va Kavkazdagi geosiyosiy va geostrategik vaziyatni mutlaqo aniq-ravshan tasavvur qilgan, geosiyosatga harbiy-strategik yondashuv asosida hodisalarning uzoq muddatli jarayonini puxta rejalashtirgan. Sodir bo'layotgan hodisalarni u qator obyektiv va subyektiv omillar

asosida izohlagan, shunuchai nazardan kelib chiqqan holda Rossiyaning kelajakdagi strategik vazifalarini belgilab bergan. Ayni Milyutin rus geostrategiyasida *harbiy geografiyani* amalda tatbiq etgan, harbiy geografiyani nazariy fan, harbiy strategiyaning tarkibiy qismi sifatida aniqlab bergan birinchi olim va harbiy strateg bo'ldi.

Harbiy geografiya (32-rasm) va harbiy statistika predmetini tadqiq etgan Milyutin davlatlar amal qilishi va rivojining umumiy va xususiy belgilarini, siyosiy sistemasi, iqtisodiy va harbiy qudrati, hududi, geografik holatini, qo'shnilari bilan birgalikdagi umumiy topografik xususiyatlarini, chegaralarning ahvolini va boshqa geostrategik masalalarni ham shu yerga oid etish kerak, deb hisoblagan. Har xil mamlakatlarning harbiy geografiyasini tadqiq etar ekan, u ba'zi davlatlar yanada uzoq masofaga cho'zilgan va qismlari sochilib ketgan, boshqalari bo'lsa doiraga olingan va yagona makonni tashkil etadi; biri o'z vaziyatiga ko'ra tamomila qit'a davlati, boshqasi bo'lsa dengiz davlati; birovi mudofaa uchun boshqasiga qaraganda katta qo'shin saqlashga majbur, bittasi quruqlikdagi qo'shinlarga, ikkinchisi dengiz flotiga e'tibor beradi, deb yozgan edi.

Mana shulardan ko'rinib turibdiki, rus olimi hali 1846-yilda, ingliz-amerika geosiyosiy maktabining yaratuvchilaridan biri Makinder dunyoga kelishidan ancha oldin, AQShning yana bir geosiyosiy nazariyotchisi, "*dengiz kuchlari*" nazriyasining muallifi Mexen olti yashar bo'lgan vaqtdayoq geostrategik makon, qirg'oq chizig'i va chegaralarining, davlatni mudofaa etishda u yoki bu qo'shin turining roli haqidagi fikrlarni ilgari surgan.



32-rasm. Harbiy Geografiya.
J.Palka va A.Galgano

Harbiy strateglar **V.F.Glovachev** (“Tarix asosida Rossiya uchun flotning ahamiyati haqida” asarining muallifi), **S.A.Skregin** (“Dengizchilik va rus davlatining taraqqiyotiga uning ta’siri”), vitse-admiral, dengizchilik sohasida yirik nazariyotchi, etnograf, iqtisodchi va siyosatchi **V.M.Golovnin** (“Kapitan Glovning 1811, 1812, 1813-yillarda yapon asirligidagi mojarolari to’g’risidagi qaydlari”), flot katta leytenant, dengiz tarixchisi **Ye.N.Kvashnin-Samarin** (“Rus zaminida dengiz g’oyasi. Harbiy-dengiz nuqtai nazaridan Pyotrga qadar Rossiya tarixi”) va boshqa taniqli nazariyotchilar va strateglarining asarlarini rus harbiy-strategik geosiyosatining manbalari sifatida ko’rsatish mumkin.

E.N.Kvashnin-Samarin Milyutinning ba’zi geostrategik g’oyalarini rivojlantirdi va Rossiya tarixida flotning katta ahamiyati masalasini tadqiq qildi. U Rossiyaning asosiy manfaatlari dengiz orqali ro’yobga chiqishini hali ko’plar tushunmaydi, holbuki, flot bu manfaatlarni himoya etishning eng ishonchli vositasidir deb yozgan edi.

Kvashnin-Samarin o’sha davr dengiz tarixining ayrim geostrategik masalalari va geosiyosiy muammolarini batafsil tadqiq etdi. Uning Rossiya davlatchiligining VIII asrdan XVIII asrgacha shakllanishida flotning roli va ahamiyatiga bag’ishlangan asarini tadqiqotchilar haqli ravishda o’sha davr geosiyosatining qo’ldan tushmaydigan kitobi, deb ataganlar.

V.M.Golovninning geosiyosiy va geostrategik xarakterdagi asarlari o’sha vaqtda Rossiyadagina emas, balki butun Yevropada ham eng ko’p o’qiladigan kitoblar sirasidan edi. Uning 1861-yilda Sankt-Peterburgda nashr etilgan “*Rossiya flotining 1824-yildagi ahvoli haqida*” asarida bayon etilgan geosiyosiy g’oyalar hozirgacha tadqiqotchilar e’tiborini jalb etib kelmoqda.

Harbiy geografiya faqat urish-yurishlar bilan aloqador masalalar emas, balki mamlakatning iqtisodiy, demografik qudrati, qazilma boyliklari, ulardan foydalanish kabi masalalar bilan ham shug’ullangan. Shu bilan birga, harbiylar

juda ko'p geografik ekspeditsiyalarni tashkil etgan. Ularning xizmatlari Geografiya jamiyati shakllanishi va rivojlanishida ham katta bo'lgan. Jumladan, Rus geografik jamiyatining ta'sis etilishi va uning faoliyatida admiral V.P.Litke, kartografiya va geografiyani rivojlantirishda general-leytenant A.A.Tillo, geodeziyada general-leytenant V.V.Vitkovskiylarning xizmati samarali bo'lgan. Qozoq geografi va etnografi Ch.Ch.Valixonov, Markaziy Osiyoni o'rgangan V.M.Prjeval'skiy ham harbiy xizmatchi bo'lgan.

Iqtisodiy geografiyani yoki unga asos bo'lgan fan yo'nalishlarining vujudga kelishida boshqa olimlarning xizmati ham sezilarli bo'lgan. CHunonchi, nemis olimi geograf va sotsiolog Fridrix fon Rattsel o'zining Antropogeografiyasini yaratgan¹⁹, siyosiy geografiya va geografik determenizmga mansub ishlar olib borgan bo'lsa, undan keyinroq fransuz Pol Vidal de-la-Blash "*Inson geografiyasi*"ning asoschisi bo'lgan. Uning bu ilmiy maktabini Rattsel antropogeografiyasidan farqi shundan iboratki, u siyosiy masalalarni chiqarib tashlagan holda ko'proq inson va uning faoliyatini atrof geografik muhitga moslashuvi, muvofiqlashuviga (posibilizmga) e'tibor bergan va tabiiy geografik omillar, eng avvalo, iqlim sharoitlarining jamiyat rivojlanishidagi rolini biroz "yumshatgan".

Keyinchalik Rattsel g'oyalari asosida geografik determenizmning siyosiy g'oyalar bilan boyitilishi, singdirilishi natijasida o'ta reaksion geografik siyosat (geosiyosat) vujudga kelgan. Bunda shved R.Chellenning ham xizmatlari katta bo'lgan. Ammo, bu ma'nodagi an'anaviy geografik siyosatni regional yoki hududiy siyosat, hozirgi geografik siyosat bilan tenglashtirish noto'g'ri.

Shuningdek, iqtisodiy geografiyaga tegishli ilmiy muammolar boshqa davlat vakillari va turli milliy maktablar tomonidan ham o'z yechimini topgan. Bu borada shved, ingliz, amerika va boshqa olimlar ishlarini ko'rsatish o'rinli. Masalan, ingliz

¹⁹ Antropogeografiya ko'proq hozirgi aholi geografiyasiga yaqinroq bo'lib, u inson faoliyatini barcha geografik hodisalar doirasida tahlil etgan, jamiyat taraqqiyotida tabiiy omillarga yetakchi o'rin berilgan.

G.G.Chizxolmning o'tgan asr oxirlarida yozgan tijorat geografiyasi, undan keyinroq yashagan niderland X.Bos, shveysariyalik G.Byoshning jahon xo'jalik geografiyasi, amerikalik olimlar U.Izard hamda V.Leont'evning (kelib chiqishi Rossiyadan) mintaqaviy iqtisodiyot, fransuz F.Perruning ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda qutblar va hududiy tengsizlik nazariyasi, P.Xaggetning iqtisodiy geografiyada (aniqrog'i - inson geografiyasida) hududiy tahlil, amerikalik Ch.Garris va fransuzlar J.Boj'e Garne hamda Shabolalar, shved G.Aleksandersonning shaharlar geografiyasi, AQSH olimi (avval Buyukbritaniyada ishlagan) D.Xarveyning geografiya fanining umumnazariy masalalari, uning vatandoshi G.Uaytning tabiiy resurslar va tabiiy ofatlarga bag'ishlangan asarlari shular jumlasidandir. Mustaqil O'zbekistonning geograf olimlari bu va boshqa jahon faniga molik ilmiy ishlar bilan tanish bo'lishlari zamon talabidir.

Iqtisodiy geografiyaning shakllanishi va rivojlanishida Geografiya jamiyatlarining tashkil etilishi ham ma'lum ahamiyatga ega bo'lgan. Bunday jamiyat dastlab *Parijda (1821 y.)*, *so'ngra Berlin (1828 y.)* va *Londonda (1830 y.)* ta'sis etilgan, *Peterburgda esa u 1845 yilda* tashkil qilindi. Biroq bu ijtimoiy tashkilotlar doirasida sof iqtisodiy geografik masalalar kam edi. Masalan, Rossiya Geografiya jamiyatida 4 ta bo'lim mavjud bo'lgan: *tabiiy geografiya; matematik geografiya va kartografiya; etnografiya, antropologiya va tarixiy geografiya; statistika va siyosiy iqtisod*. Demak, Rossiyada ham, xorijiy mamlakatlarda ham o'tgan asrda (xatto sho'rolar davrigacha) iqtisodiy geografiya aynan shu ma'noda va hozirgi maqomda rasman vujudga kelmagan. Iqtisodiy geografik ma'lumotlar statistika, umumiy va siyosiy geografiyada berilib kelingan. Ammo shunga qaramay, mazkur fanning shakllanishiga tarixiy va nazariy asos yaratilgan.

Iqtisodiy geografiya fanining tarixiy rivojlanishi eng avvalo shu fan nomi bilan yuritiladigan kafedralarning ochilishida ham o'z aksini topadi. Jumladan,

bunday kafedra birinchi marta *Rossiyada, ya'ni Peterburg politexnika institutida. prof. V.E. Den tomonidan 1902 yilda ochilgan*. Keyinchalik bu kishi - Rossiya iqtisodiy geografiyasining birinchi professori - sho'rolar davrining dastlabki yillarida shunday kafedrani Sankt-Peterburg universitetida ham tashkil qilgan. Sovet iqtisodiy geografiyasining asoschisi N.N.Baranskiy iqtisodiy geografiya kafedrasini 1921 yilda Kommunistlar universitetida ochgan. Bu o'rinda eslatib o'tamiz, O'rta Osiyoda bunday kafedra ilk bor Toshkent davlat universitetida 1940 yilda tashkil etilgan.

Butun o'tmish davomida iqtisodiy geografiya tabiiy geografiya bilan birgalikda rivojlanib kelgan. Albatta, bunda tabiiy geografik masalalar natural falsafa doirasida avvalroq o'rganilib borilgan. Keyinchalik jamoa, jamiyat



33-rasm. XXI asr iqtisodiy va ijtimoiy geografik tadqiqotlarga ehtiyoj asri

taraqqiyoti bilan uning moddiy asosi xo'jalik – iqtisodiyot ham rivojlanib borgan va shu maqsadda tabiiy geografik komponentlarga, xususan iqlim (ob-havo), tuproq va issiqlik – haroratga katta e'tibor qaratilgan. Chunki tobora antropogen bosimning tabiatga kuchayishi iqtisodiy va ijtimoiy geografik

tadqiqotlarni ham talab eta boshlagan (33-rasm). *Hatto geosiyosatning asoschisi Fridrix fon Rattsel va buyuk fransuz olimi Vidal de la Blash ham dastlabki ilmiy tadqiqotlarini tuproqdan boshlagan*. Tuproq esa qadimdan dehqonchilik, qishloq xo'jaligining - boylikning asosi sifatida qaralib kelingan. Hozirgi kunda bu murakkab, barcha tabiiy hodisalarning hosilasi tuproqning boshqa xususiyatlari ham borki, ular to'liq o'rganilmagan, uning sirlari atroflicha aniqlanmagan. Aynan

tuproqni o'rganish tufayli V. V. Dokuchaev tabiiy geografiya fani, landshaftshunoslik, kompleks geografik tadqiqotlarning asoschilaridan biri sifatida tan olingan va e'tirof etilgan.

Demak, tabiiy geografiya fanini ham iqtisodiy geografiya fani shakllanishida asosiy manba sifatida hisobga olish zarur. Chunki, dastlabki iqtisodiy geografik mazmunga ega bo'lgan yo'nalishlar – qishloq xo'jaligi, o'rmonchilik, baliqchilik, tog'-kon sanoati kabilar aynan tabiiy sharoit va tabiiy resurslar bilan bog'liq bo'lgan.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya faning predmetiga uch xil yondashuv.

Avval ta'kidlaganimizdek, iqtisodiy geografiya fani shakllanishidagi 3 ta asosiy manbaning qolganlari nemis statistikasi va nemis shtandort nazariyasi hisoblanadi. Bu borada oz bo'lsada ingliz *tijorat* geografiyasi (siyosiy arifmetika) hamda siyosiy va uning alohida qismi bo'lgan harbiy geografiyaning ham ahamiyati yo'q emas. Geografiyaning bosh tushunchasi – rayon, rayonlashtirishda esa, albatta, fransuz va rus olimlarining xizmatlari katta.

Shtandort yoki *ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirish* g'oyalari eng avvalo nemis olimlari I.Tyunen, A.Veber, V.Kristaller va A.Lyosh kabilarga mansub. Ular avval shahar atrofida qishloq xo'jaligi tarmoqlarini halqasimon joylashtirish, sanoat korxonalarini va aholiga xizmat ko'rsatish sohalarini hududiy tashkil etish hamda umuman xo'jalik geografiyasiga doir muhim ishlanmalarni yaratishgan.

Ishlab chiqarishni joylashtirish omillari, hududiy iqtisodiyot, sanoat aglomeratsiyasi, markaziy joylar, iqtisodiy landshaft singari fanimizdan o'rin olgan tushunchalar aynan yuqorida tilga olingan olimlar faoliyatiga bog'liq.

Fanning frontal va fundamental rivojlanish jarayonida turli xil yondashuvlar uning predmetiga aniqlik kiritib boraveradi. Bu xususda *3 ta asosiy yondashuv* - metodologik tamoyilni ajratish mumkin: *hududiylik (rayonlashtirish), kompleks va*

sistemali yondashuv. Ularning har biri iqtisodiy yoki ijtimoiy geografiya fanining ta'rifiga, mazmun – mohiyati, maqsadida o'z ifadasini topadi. Masalan: 1) **rayonlashtirish** – umumgeografiyaning bosh, birlamchi tushunchasi asosida iqtisodiy geografiya faniga quyidagicha ta'rif beriladi: *ijtimoiy geografiya turli mamlakat va mintaqalarda ishlab chiqarish va noishlab chiqarish tarmoqlari hamda aholi (uning yashash sharoitini hisobga olgan holda) joylashuv xususiyatlari va ijtimoiy-iqtisodiy rayonlarning shakllanish qonuniyatlarini o'rganuvchi fandır.*

2) **Kompleks yoki majmuiali yondashuv** bo'yicha: ijtimoiy geografiya turli mamlakat va mintaqalarda xo'jalik tarmoqlari hamda aholini o'zaro aloqadorlikda joylashuv xususiyatlari va *hududiy-ijtimoiy majmualarning shakllanish qonuniyatlarini o'rganadi.*

3) **Tizim yoki tizim-tarkib** nuqtai nazaridan: ijtimoiy geografiya turli mamlakat va rayonlarda xo'jalik tarmoqlari hamda aholining hududiy tashkil etilish xususiyatlari va shu asosda *hududiy – ijtimoiy (ijtimoiy-iqtisodiy) tizimlarning shakllanish qonuniyatlarini o'rganuvchi fan hisoblanadi.*

Yuqorida 3 xil metodologik yondashuv nuqtai nazaridan fanning 3 xil ta'rifi berildi. Bu ta'riflar shaklan farqlanadi, mazmun va mohiyati bo'yicha esa bir – biriga ancha yaqin. Shu bilan birga, ularning barchasida 2 ta qismni ajratish mumkin: a) *joylashuv xususiyatlari* va b) *shakllanish qonuniyatlari*. Birinchisi analitik (tahliliy), ikkinchisi esa sintez-ilmiy, boshqaruv mazmunga ega. Birinchisida turli omillar ta'siri, sabab –oqibatlar asosida u yoki bu hodisaning joylashuv, hududiy tashkil etish xususiyatlari aniqlanadi, ikkinchisida – omil va sharoitlar, mintaqaviy va mahalliy xususiyatlarni aniqlash va baholash orqali qonuniyatga, undan boshqaruvga o'tiladi. Bu o'zaro aloqador qismlar nazariy va, ayni vaqtda, amaliy (konstruktiv) ijtimoiy geografiya fanining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy geografik tadqiqotlardagi ba'zi bir kamchiliklar. Iqtisodiy geografiya ham boshqa fanlar qatori yangicha sharoitda rivojlanib, mustaqil mamlakatimiz qudratini yanada mustahkamlashga hissasini qo'shib bormoqda. O'quv jarayonida u yosh avlodga O'zbekiston Respublikasining o'ziga xos tabiiy boyligi, aholisi va xo'jaligining hududiy jihatlarini, jahon siyosiy xaritasi va hamjamiyatidagi nufuzining toboro oshib borishini o'rganishga yordam beradi. Nazariy va amaliy yo'nalishda esa mazkur fan davlatimizning mintaqaviy siyosati, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish bilan bog'liq dolzarb muammolarni hamda bozor munosabatlariga o'tish davrida xalq xo'jaligining turli tarmoqlari - sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, aholiga xizmat ko'rsatish sohalari, infrastruktura tizimini shakllantirish, ijtimoiy ekologiya kabi muhim masalalarni ilmiy tadqiq qilishda katta ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, O'zbekistonda iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning rivojlanishida ma'lum kamchilik va yetishmovchiliklar mavjud. Ular quyidagilar:

1. O'tmishda mazkur fanning nazariy masalalariga ko'prok e'tibor berildi, uning amaliy (konstruktiv) tomonlari esa zaifroq bo'lib qolgan. Buning ustiga, hozirgi kunda jahon fanida allaqachon erishilgan yutuqlardan bexabar (balkim boxabar) holda iqtisodiy geografiyaning ayrim nazariy-uslubiy masalalari go'yoki "birinchi marta" ko'rilyotgan, ixtiro qilinyotganga o'xshaydiki, bu aslida oldinga emas, balki orqaga chekinishdir. Natijada yoshlar uzoq xorij mamlakatlari u yoqda tursin, hatto sobiq Ittifoqda qilingan ilmiy ishlarni tanqidiy o'rganishdan ham chetda qolmoqdalar.

Ilmiy-tadqiqotning ijtimoiy faoliyatning murakkab shakli sifatida eng muhim xususiyati shundaki, u milliylik tamoyiliga ega emas, fan ma'muriy chegara bilan ham hisoblashmaydi. Shuning uchun ham barcha millat va elat vakillari yaratgan buyuk va nodir kashfiyotlar tarix bo'sag'alari uzra, turli ijtimoiy

tuzumlardan o'tib hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Demak, bu sohada ham "yangisini qurmay turib, eskisini buzmaslik kerak".

2. Albatta, har qanday amaliyot kuchli nazariya, umumilmiy qonuniyatlarsiz bo'lmaydi. Chunki, fan va uning negizi hisoblanmish ilmiy tadqiqot jarayoni qonuniyatlarni, ular esa o'z navbatida, muayyan makon va zamonda barqaror takrorlanib turuvchi sabab-oqibat birligani chuqur tahlil qilish va tegishli xulosalar chiqarishni talab qiladi. Aynan shu bois ilmiy izlanishlar va xususan dissertatsiya ishlari g'oyaviy jihatdan mustahkam bo'lmog'i, tadqiqot yo'nalishi bo'yicha mavjud nazariy-uslubiy masalalarni to'la o'zlashtirib, ularni ishning maqsad va vazifasiga mos ravishda hamda hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatdan kelib chiqqan holda takomillashtirishi, rivojlantirishi shart. Zero, dissertatsiya - bu eng avvalo ilmiy ishdir va u albatta ilmiy yangilik yaratishi kerak. Aks holda bunday tadqiqotlar ilmiy saviyasi past oddiy kitob yoki risola, ba'zan esa statistik to'plam darajasida bo'lib qolaveradi.

3. Iqtisodiy geografiya va umuman geografik bilimning boshqa bir kamchiligi cheksiz fakt va raqamlarni yodlash, betakrorlik (fenomenallik va unikallik) xususiyatlar, nomenklatur geografiyaning ustivorligidir. Shuningdek, yer yuzi va uning rayonlarini "eng-eng" (*baland, katta, past, chuqur, uzun, keng, rivojlangan, qoloq va h.k.*) jihatlari muhim bo'lib, ayni paytda ilmiy qonuniyatlar, turli hodisalar o'rtasidagi aloqadorliklar deyarli o'rganilmagan. Buning natijasida haqiqiy geografik fikrlash, hudud borlig'ini to'la anglab olish va uning tarkibiy tuzilishi, rivojlanish jarayonlarini chuqur tahlil, tashhis va bashorat qilish orqada qolmoqda.

4. Yuqoridagi kamchilik bilan bog'liq holda geografiyaga ko'proq mustaqil va muhim, mukammal va mustahkam fan sifatida emas, balki unga oddiy o'quv predmeti maqomida qarash odat tusiga kirib qolgan. Bu hol ayniqsa maktab geografiyasiga taalluqlidir. Ajablanarlisi va ayanchlisi yana shuki, hanuzgacha

geografiyaga oid maxsus ilmiy tekshirish instituti yoki fanlar akademiyasi tizimida hatto birorta muxbir a'zo yo'q. Geografiya fanining oliy o'quv yurtlariga kirish imtihonlaridan (test sinovlaridan) olib tashlash ham unga bo'lgan "ikkinchi darajali" munosabatning dalilidir.

5. Real hududiy borliq murakkab, uni bilish esa vaqt va makon jihatidan cheklangandir. Qolaversa, bu obyekt turg'un vaziyatda emas u doimiy harakatda, dinamik o'zgarishda. Geografiya ana shu o'ziga xos jarayonni anglab olishi kerak, zero uning obyekti qamrovida qator tabiiy va ijtimoiy fanlar obyekti (biologiya, iqtisod, demografiya va b.) o'z o'rnini topgan. Binobarin, geografiya ayni paytda "qo'shni" fanlarning hududiy jihatlarini ham o'rganishi lozim.

Ammo, geografiyaning huddi ana shu ijobiy fazilati va ma'suliyati uning an'anaviy kamchiligini yuzaga kelishiga asosiy sababchidir. Chunki, keng obyekt keng qamrovli ko'riladi, biroq bunday tadqiqot chuqur tahlilli bo'lmasligiga ham muqarrar. Shuning uchun geografiyaga ko'proq yuzaki tasvirlovchi, ta'riflovchi, faqat "suratga tushiruvchi" fan sifatida nohaq qarash rasm bo'lib qolgan,

6. Ilmiy izlanishlar geografiyada asosan o'rta va kichik masshtablarda olib borilmoqda. Fan nomzodligi yoki doktorligi uchun dissertatsiyalar mavzusi ham xuddi shunday - keng va katta hududlarni o'rganishga bag'ishlangan. Vaholanki, rivojlangan mamlakatlarda maqroiqtisodiy emas, balki ko'proq miqroiqtisodiy masalalar tadqiq etilgan. Tabiiyki, bunday tadqiqotlarning aniqligi va amaliyligi ancha yuqoridir. Bir vaqtlar N.N.Baranskiy "*kontinentlar bo'yicha fikrlash kerak*" deb uqtirgan edi. Endi esa, global va regional fikrlab, lokal (mahalliy) masshtabda amal qilish maqsadga muvofiqdir.

To'g'ri yirik masshtabli tadqiqotlarning ham o'ziga xos kamchiliklari mavjud – ular hamma vaqt ham ilmiy qonuniyatlarni aniqlashga yordam bermaydi. Binobarin, bunday yo'nalishdagi izlanishlar geografik taqkoslash metodidan samarali foydalanishni nazarda tutadi. Ayni chog'da kichik masshtabli

tadqiqotlarda obyekt tanlama holda uning ayrim va turli joylari chuqur burg'alanishi "parmalanii" yordamida tahlil va tashxis etilishi zarur.

7. Ba'zi hollarda ilmiy ishlar, chunonchi dissertatsiyalar biror hudud "misolida" bajariladi. Bunday mavzudagi ishlar tadqiqotchiga katta majburiyat yuklaydi. Chunki, ularning ilmiy natija va xulosalari, nazariy-uslubiy ko'rsatma va tavsiyalar shunga o'xshash ko'p hududlarga ham taalluqli bo'lishini talab etiladi.

Dissertatsiya mavzulari nihoyatda puxta, lo'nda bo'lishi, ishning mazmun-mohiyatiga mos kelishi kerak. Ayni paytda ularning nomlarida "tadqiqot", "Geografik tadqiqot", "kompleks tadqiqot", "sotsial-iqtisodiy", "muammo" kabi iboralar ortiqcha. Zero, har qanday dissertatsiya qaysi bir ilmiy-amaliy muammoni hal etishga qaratilgan tadqiqotdir. Fanimizning mohiyatan ijtimoiy-iqtisodiyliigi, unga komplekslik tamoyilining xosligi ham bunday so'zlarning mavzuda qo'llanishini o'rinsiz qilib qo'yadi. Shuningdek, ilmiy ishlarning maqsad-vazifalari, himoya predmeti va ilmiy yangiliklari muayyan aloqadorlik bo'lishi shart.

8. Ijtimoiy (inson) geografiyasida eng avvalo uning iqtisodiy yoki ishlab chiqarish qismi faolroq rivojlangan. Sobiq sovet geografiyasining kuch-qudrati ham ana shunda. Ammo shu bilan birga, yuqori darajada taraqqiy etgan xorijiy mamlakatlarda bo'lganidek, mamlakatimizda tor ma'nodagi sotsial geografiya aytarlicha tarqalmagan va u endigina o'ziga tor yo'l ochmoqda. Shu bois rivojlangan mamlakatlarda bu asosan gumanitar yoki inson geografiyasi shaklida mashhur bo'lsa, bizda u ko'proq iqtisodiy, xolos.

Iqtisodiy va sotsial geografiyada hududiylik tamoyili turlicha ma'no va mazmunga ega: birinchisida hudud - bu resurs, ishlab chiqarishni joylashtirish bo'lsa, ikkinchisida u yashash muhitidir. Xuddi shuning uchun sotsial geografiyada xaritalashtirish usulini qo'llash biroz cheklangan. Sababi - bunday tadqiqotlarda

odatda katta masshtabda, ya'ni kichik hududda - mahalla, mavze va dahalarda ham olib boriladi.

9. Iqtisodiy geografiyaning o'zida ham sof va aniq iqtisodiy bilimlarga, statistikaga e'tibor biroz bo'shshgan. Bu hozirgi bozor munosabatlariga o'tish davrida iqtisodiy geografiyaning unga tayyor emasligidan darak beradi. Aslida esa iqtisodiy geograf ayni paytda ham iqtisodchi, ham geograf, ya'ni hudud iqtisodchisi bo'lmog'i darkor. Bu uning eng muhim jozibali va betakror xususiyati, asosiy mazmun, mohiyat va maqsadidir. Achinarlisi shuki, hatto tabiatdan foydalanish iqtisodiyoti, iqtisodiy rayonlashtirish kabi xususiy (o'zining "noni" bo'lgan) masalalar bilan iqtisodiy geograflar emas, ko'proq iqtisodchilar shug'ullanmoqdalar.

10. Ilgarigi o'ta markazlashgan jamiyatni rivojlantirish va boshqarish siyosati davrida regionlarga, mamlakat ichkarisiga bo'lgan e'tibor zaiflashgan edi. Buning oqibatida regional yoki mintaqaviy siyosat ilmiy va amaliy jihatdan amalga oshirilmasdi. Qizig'i shundaki, sobiq Ittifoqning turli respublikalarida yashovchilar o'z yurtlariga ko'ra o'zgalarni yaxshiroq bilar edilar. Bundan O'zbekiston ham istisno emas, albatta. Shuning uchun hozirgi mustaqillik sharoitida geografik tahlil tuman va hatto yirik qishloqlar darajasiga "tushishi" kerak. Ana shundagina o'z yurtimizning bepoyonligi, uning salohiyati va rang-barangligini chuqur his qila olamiz. Binobarin, Vatanimiz dunyo (global) nuqtai nazaridagina emas, balki jahonning O'zbekiston nuqtai nazaridan o'rganilishi ham biz uchun foydadan holi emas.

11. Iqtisodiy geografiya har holda geografik fanlar tizimiga kiradi. Ammo yuzaga kelgan vaziyatda u xatto tabiiy geografiyadan ham uzoqlashib qolgan. Buning oqibati bo'lsa kerak iqtisodiy geografiyada ekologik tadqiqotlar, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish, rekreatsiya, tibbiyot, meliorativ geografiya kabi iqtisodiy va tabiiy geografiya qirrasidagi fan va ilmiy yo'nalishlar nisbatan sust

rivojlangan. Vaholanki, bu ikki fan oralig'ida juda ko'p samarali va zamonaviy tadqiqotlarni olib borish mumkin. Bundan tashqari, umumiy geografik mazmunga ega bo'lgan qonuniyat va kategoriyalar: zonallik, komplekslik, regionallik, geotizim, rayonlashtirish va boshqalar tabiiy va "notabiiy", ya'ni ijtimoiy geografiyani nazariy-uslubiy jihatdan bir-biriga mustahkam bog'laydi,

12. Geografiya o'zining tub mohiyat-mazmuniga ko'ra, tom ma'nodagi hududiy tengsizlik, turli-tumanlikdir. Bu geografik jarayon va umuman iqtisodiy geografik taraqqiyotning dialektik asosi, bosh omili hisoblanadi. Zero, hamma joy aynan bir xil bo'lsa taraqqiyot ham, geografiya fanining o'zi ham bo'lmaydi. Biroq, xanuzgacha ba'zan tenglashtirib bo'lmaydigan narsalarni tenglashtirishga, qorong'i uyda yo'q qora mushukni behuda qidirishga harakat qilamiz. Haqiqatda esa bunday urinishlar amalda natijasizdir. Chunki, hududiy tengsizlikni mutlaqo bartaraf etib bo'lmaydi. Qolaversa, bozor munosabatlari erkinlik, sog'lom hududiy raqobat va tengsizlik demaqtir.

13. Ba'zan iqtisodiy geografik tadqiqotlarda, jumladan shaharlar va urbanizatsiya jarayonini o'rganishda biz hanuzgacha "evropacha" qarash va qolipdan uzoqqa keta olmayapmiz. Ma'lumki, O'rta va Markaziy Osiyo madaniyati, shaharlar rivojlanishi o'ziga xos sharqona xususiyatga ega. Bas shunday ekan, kelajakda O'zbekistonda urbanizatsiya ko'rsatkichini, ya'ni shahar aholisi ulushini rivojlangan g'arb mamlakatlaridek 80-90 foiz darajasida bashorat qilish haqiqatdan juda yiroqdir. Ushbu olamshumul jarayonning geografik jihati va xususiyati ham shunda. Ammo bundan O'zbekistonda urbanizatsiya jarayoni mavjud emas, degan xulosaga kelish noto'g'ridir. Aksincha, u mamlakatimizda ham mavjud. Biroq, uning tarixiy, iqtisodiy, geografik va boshqa xususiyatlari o'zgacha, va ayniqsa, Yevropa mamlakatlaridan tubdan farqlanadi. Aynan ana shu regional xususiyatlar, urbanizatsiya jarayonining yurtimizdagi tarixi, ta'rifi va taqdirini, atroflicha yoritish ijtimoiy geografiyaning muhim vazifasidir.

14. Shu bilan birga, iqtisodiy geografiyada ba'zi tushunchalarga odatdagidek faqat salbiy nuqtai nazardan qarash ham adolatdan emas. Biz bu o'rinda avvalambor geosiyosat, geografik determinizm kabi g'oyalarni nazarda tutmoqdamiz. Binobarin, geosiyosatni faqat fashistik, Gitler ruhida, o'zgalar hududiga tahdid ma'nosida bir tomonlama talqin qilish xato. Sababi - har qanday mamlakatning iqtisodiy, demografik, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy siyosati kabi uning geografik siyosati ham bo'lishi muqarrar. Alohida davlatlarga nisbatan qaralganda geosiyosat ularning tashqi, xalqaro siyosati, jahon siyosiy xaritasi va hamjamiyatidagi munosabatlarining majmuidir. Mamlakatning ichki tuzilishiga nisbatan esa regional yoki mintaqaviy siyosat iboralarini qo'llash ma'qul.

Biroq, geografik determinizmda ham hech qanday ayb yo'q. Zero, deterministik qarashsiz hodisa va voqealar orasidagi aloqadorlik, ilmiy dunyoqarashning o'zi bo'lmaydi. Shu bilan birga, faqatgina geografik determinizmgina emas, balki biologik, tarixiy, iqtisodiy va boshqa "determinizm"lar ham mavjud. Asosiy muammo - bunday omil ta'sirini o'z me'yorida aniqlash va baholashdadir. Shu ma'noda uni haddan tashqari bo'rttirish yoki, aksincha, tamomila inkor etish nojoizdir.

15. Geografiyaning, jumladan ijtimoiy geografiyaning yana bir rivojlanish omili uning ichki salohiyatidan, boshqa fanlar bilan uyg'unlashish imkoniyatlaridan to'laroq foydalanishdir. Ushbu fan hali ko'p yangiliklar yaratishga qodir: u demografiya, sotsiologiya, psixologiya, tibbiyot, tarix, etnografiya, huquqshunoslik, siyosatshunoslik va boshqa fanlar bilan hamkorlikda yoki ular qirrasida zamonaviy tadqiqotlar olib borish imkoniyatiga ega. Ammo har qanday sharoitda ham bunday tadqiqotlar "narigi sohilga" o'tib ketmasligi va hududiylik, regionallik xususiyatlariga asoslanishi zarur.

16. Ayrim hollarda geografik tadqiqotlarning kamchiligi uning o'rganish chegaralanmaganligi, komplekslik tamoyilidan to'g'ri foydalana olmaslikdadir.

Aksariyat sharoitda eng pastki qatlam aniq belgilanmaydi, yuqori pog'onalar esa had va hududsiz bo'lib qoladi. Har qanday tadqiqotning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, uning doirasi to'g'ri ajratilishi shart. Masalan, sanoat geografiyasida eng birlamchi bo'g'in yoki elementar obyekt sanoat korxonasi bo'lsa, aholi geografiyasida u aholi manzilgohi hisoblanadi. Ularni yana parchalash esa tizim-tarkib qoidasidan, qo'yilgan maqsaddan chetga olib chiqadi. Xuddi shunday o'rganishning yuqori hududiy bosqichi, tahlil etiladigan masalalar tarkibining to'g'ri belgilanishi geografiyadagi komplekslik tamoyiliga ("daraxt va uning shohlari") ga mos kelishi zarur.

17. Va, nihoyat mavjud tadqiqotlarda geografiya fanidagi asosiy tushunchalarning ko'pchilik uchun ma'qul shaklda foydalanishi maqsadga muvofiq. Binobarin, rayon, landshaft, urbanizatsiya, aglomeratsiya, konurbatsiya, megalapolis, infrastruktura, sistema, kombinatlashtirish, agrosanoat, transport, rekreatsiya, kabi qator tushunchalar aynan ana shu ko'rinishda ishlatilishi to'g'riroq. Zero, ular endi "hech kimniki", xalqaro (hammabop va ommabop) mazmunga ega va bunday tushunchalarni to'g'ridan-to'g'ri o'zbek tiliga o'girish ba'zan ko'zda tutilgan yoki asl ma'noni anglatmaydi.

Shunday qilib, ijtimoiy geografiyaning hozirgi O'zbekistondagi holatiga yuqorida keltirilgan ayrim kamchiliklar yoki nuqsonlar ozmi-ko'pmi tegishli. Ularni bartaraf etish uchun ijtimoiy geografiyani chindan va dildan sevgan kishi, fidoiysi uning asosiy poydevor va ustunlari bo'lmish iqtisodiy rayonlashtirish, hududiy mehnat taqsimoti, hududiy ishlab chiqarish (va noishlab chiqarish) majmua va tizimlari, iqtisodiy geografik o'ringa o'xshash ilmiy g'oya va tushunchalarni chuqur anglashi, kartografiya, geografik taqqoslash, tarixiy, hududiy tizim-tarkib usullaridan uddaburonlik bilan foydalanishi shart. Bularsiz geografiya "umurtqasiz", tanasiz fan bo'lib qolaveradi.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fani shakllanishining uch asosiy manbai, uch tarkibiy qismi haqida szlab bering?
2. Dmitriy Milyutinning Geostrategik taraqqiyot nazariyasining mohiyat va mazmunitushuntiring?
3. Veniamin Petrovich Semenov Tyanshanskiyning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning rivojlanishiga qo'shgan hissasi nimalardan iborat?
4. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya faning predmetiga uch xil yondashuvlar nimalar?
5. Iqtisodiy geografik tadqiqotlardagi ba'zi bir kamchiliklarni sanag?

MAVZUGA DOIR ASOSIY TUSHUNCHALAR

Qayta ishlash sanoati – Materiallar yoki moddalarni kimyoviy, mexanik, fizikaviy, nonotexnologik, biotexnologik jihatdan o'zgartirib yangi mahsulotlar tayyorlovchi kompleks tarmoqlar yig'indisi.

Rayon – ixtisoslashishga ko'ra qo'shni hududlardan o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra ajralib turuvchi taksonomik birlik. Rayon tushunchasini ikki asosiy xususiyati mavjud: *birinchisi* muayan hududning o'ziga xosligi va qo'shni hududlardan farq qilishi; *ikkichisi* hududiy birlik va yaxlitlik xususiyatlarining mavjudligi.

Energiya ishlab chiqarish sikllari - ma'lum xomashyo va energiya (bu yerda energiya keng ma'noga ega) asosida ishlab chiqarishning texnologik jihatdan uzluksiz, hatto uning chiqindilari asosida tashkil etilish shakli.

Autorsing (ingilizcha "tashqi resursdan foydalanish) – ishlab chiqarish jarayonida qiymat zanjirining qismlarini mustaqil kompaniyalarga subpudratchilarga o'tkazish imkonini beradigan tashqi resusrlardan foydalanish.

Siyosiy geografik joylashish deganda, ma'lum bir davlatning siyosiy kuchlarga, harbiy tashkilotlarga, kuchli agressiv davlatlarga nisbatan joylashishi tushuniladi. Siyosiy-geografik joylashishning qulayligi yoki noqulayligi inqiloblar, davlat to'ntarilishlari, urushlar va boshqa jarayonlar tufayli o'zgarib turadi.

Ekstraditsiya – bu davlatlarning jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi xalqaro hamkorligining shakli. Bu jinoyat sodir etishda gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan shaxsni yoki sudlangan jinoyatchini hibisga olish va bir davlatdan boshqasiga (uning iltimosiga binoan) topshirishdan iborat.

Farvater –navigatsiya nuqtai nazardan xavfsiz bo'lgan kema qatnov yo'li yoki kema qatnov yo'lining kartada ko'rsatilishi

Aholi punktlarining joylashuv modellari - aholi turar joylarining hududiy modellari. Aholi joylashuvining quyidagi turlari mavjud: chiziqli, alomeratsion, bir tekis. *Chiziqli*: aholi punktlarining joylashuvi transport magistrallariga bog'liq holda joylashuvi *Aglomeratsion*: yirik shahar atrofida aholi punktlarining to'planishi. *Bir tekis*: aholi punktlari bir tekis taqsimlangan qishloq aholisini tovarlar va xizmatlar ta'minlash markazi bo'lib xizmat qiladi.

Aparteid (Aparteid) - (aparteidda, afrika tilida "aparteid" - **ajralish**) irqiy yoki milliy kamsitishning eng quyi shakli bo'lib, ular irqiy, siyosiy, ijtimoiy – iqtisodiy va fuqarolik huquqlariga qarab hududiy izolyatsiyaga ajratiladi. Aparteid tushunchasi 1910-yillarda kiritilgan. JAR va Janubiy Rodeziyada (1980-yildan Zimbabe)da “**oq bo'lmagan**” aholining irqiy va milliy guruhlarini zabt etishning maxsus guruhlarini belgilash. Aparteid mafkurasi turli milliy va etnik guruhlar o'rtasida irqiy, madaniy va psixologik to'siqlarning yo'qligi haqidagi antisemistik g'oyalarga asoslangan.

9 – MAVZU

GEOGRAFIK DETERMINIZM, POSSIBILIZM, LANDSHAFT VA MINTAQAVIY PARADIGMALAR

Maqsad: *Geografik determinizm, possibilizm va envayromentalizm haqida bilim va ko'nikma berish.*

Tayanch so'z va iboralar: *Biogenetik nazariya, sotsiogenetik nazariya, psixogenetik nazariya, deterministik nazariya xulq-atvor, geografik determinizm, geografik possibilizm, geografik yenvayronmentalizm*



REJA:

1. Inson xulq-atvori hamda ijtimoiy munosabatlar
2. Geografik determinizm, possibilizm va envayromentalizm haqida tushuncha
3. Paradigma o'zi nima?
4. Jordj Perkins Marshning asosiy g'oyalari
5. Vladimir Eduardovich Den g'oyalari
6. F.Rattselning asosiy siyosiy-geografik g'oyalari
7. L.I.Mechnikovning asosiy siyosiy-geografik g'oyalari
8. Richard Xartshorning geografiya muammolari borasidagi qarashlari



Kishilik jamiyati taraqqiyoti davomida inson va uning ongli foyiyati shakllanib, rivojlanib kelmoqda. Mazkur jarayon mobaynida insonning fe'l-atvor, dunyoqarash va tashqi kuchlarga nisbatan munosabati turli omillar asosida tarkib topadi. Yer yuzining xilma-xilligi natijasida inson ijtimoiy-tarixiy va madaniy mavjudot sifatida geografik sharoitda o'zligini teranroq anglashga, shart-sharoitlarga chuqurroq moslashishga intilgan.


Inson – o'zida biologik, shu bilan birgalikda, ijtimoiy va ruhiy xususiyatlarni mujassamlashtirgan ongli mavjudotdir. Uning biologik xususiyatlariga ovqatlanish,

tashqi kuchlardan himoyalanih, nasl qoldirish, adaptatsiya (moslashish) kabilar xos bo'lsa, jamiyatning bir qismi sifatida ijtimoiy xususiyatlari – so'zlashuv va muomala, ong va tafakkur, ishlab chiqarish, boshqarish, o'z-o'zini idora etish, badiiy ijod, xulq-atvor, urf-odat va an'analarga ega ekanligini kiritish mumkin. Jamiyatdagi insonning asosiy jihati uning kishilar orasida o'zini tutishi, xulq-atvori va hatti-harakatlari bilan namoyon bo'ladi.

Inson xulq-atvori hamda ijtimoiy munosabatlarining shakllanishini quyidagi nazariyalar asosida tahlil qilinadi:

- **Biogenetik nazariya:** *Inson xulq-atvori uning ota-onasidan qarindoshlik munosabatlari orqali nasldan naslga o'tishi asosida shakllanadi.*
- **Sotsiogenetik nazariya:** *Inson xulq-atvor va xarakteri uni o'rab turgan ijtimoiy muhit va jamiyat ta'sirida shakllanadi;*
- **Psixogenetik nazariya:** *Inson hatti-xarakatlari uning ruhiy holati orqali mayllar va temperament tarzida shakllanadi.*
- **Deterministik nazariya:** *Insonning tashqi ko'rinishi va tuzilishi, xulq-atvori hamda xususiyatlari tabiiy sharoit va atrof-muhitning ta'siri natijasida shakllanadi va hokazo.*

Insoniyat ijtimoiy hayotida genetik, sotsiologik va psixologik omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq uning taraqqiyoti va yashash tarzi bevosita tabiat kuchlari va tabiiy sharoitning holatiga ham bog'liq (34-rasm) bo'lib, ushbu holat geografik determinizm sifatida e'tirof etiladi.



34-rasm. Inson xulq-atvori va dunyoqarashining shakllanishida tabiat kuchlariga asosiy e'tibor beruvchi g'oyalar

Geografik determinizm (lot. “*ta’sirni aniqlayman*”) orqali tabiiy sharoitning ahamiyati yuqori baholanib, tabiat komponentlarining ta’siri tahlil qilinadi. Hozirgi davrda kishilarning yurish-turishi, faoliyati va xulq-atvori globallashuv bilan mos ravishda ijtimoiy jarayonlar bilan ifodalanayotgan bo’lsa-da, tabiiy muhit ham kishilar xulq-atvorining shakllanishida o’ziga xos o’ringa ega.

Jamiyatning rivojlanishi, urushlar va inqiloblarning sabablari, odamlarning urf-odatlarini, dunyoqarashi o’zining tabiiy kelib chiqish sabablariga ega va, asosan, geografik muhit ta’sirida tarkib topadi. Xususan, hudud tabiatning xususiyatlari kishilarning fikrlashi va faoliyatiga ta’sirini ko’rsatadi. Masalan, M.Sholoxovni mashhur qilgan tinchoqar Don daryosi bo’lsa, Ch.Aytmatov faoliyatida Qirg’iziston tabiati, R.Hamzatov ijodida Dog’iston tog’lari asosiy ilhom manbaasi deyish mumkin yoki Kanadaning shimolidagi faqatgina muzli hududlardan iborat qismlarida istiqomat qiladigan atapaskalar bilan bir vaqtning o’zida to’rtta faslni kuzatish mumkin bo’lgan qadimiy Xitoy aholisining so’z boyligini solishtirish mumkin-mi? Shu bilan birgalikda, tabiiy sharoiti va xususiyatlari deyarli bir xil hududlarning imkoniyatlari ham bir-biriga yaqin bo’ladi. Jumladan, ma’muriy chegaralar sun’iy bo’lib, ular, aynan, ijtimoiy-iqtisodiy voqea-hodisalarning areallariga mos kelavermaydi. Bu borada O’zbekistonning ma’muriy-hududiy tuzilmasida juda ko’p qo’shni tumanlarning bir-biriga o’xshab ketishini yoki biri ikkinchisining yer usti tuzilishi, tabiiy va iqtisodiy landshafti bo’yicha davomiyligini ko’rish mumkin. Chindan ham Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod va Surxondaryoning Boysun, Namanganning Norin va Andijonning Baliqchi, Xorazmning Gurlan va Qoraqalpog’istonning Amudaryo, Samarqandning Paxtachi va Navoiyning Xatirchi, Sirdaryoning Sirdaryo va Toshkentning Chinoz tumanlari va shunga o’xshash qo’shni ma’muriy hududlar umumgeografik vaziyatida (*tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasida*) keskin farqlar yo’q.

Shuningdek, tabiiy muhit bilan inson aloqadorligi haqidagi nazariyalar qatoriga geografik possibilizm va geografik envayronmentalizm kiradi. Ularning birinchisi, inson faoliyatini tabiiy sharoitdan tashqari tarixiy va ijtimoiy jarayonlar bilan bog'lasa, ikkinchisi, inson tuzilishi hamda fe'l-atvorini atrof-muhitning holati va tozaligi bilan bog'lab, ekologik jihatdan yondashadi. Lekin mazkur konsepsiyalarning negizi ham tabiiy sharoit asosida tarkib topadi.

Jumladan, **geografik possibilizm** (ing. *“imkoniyat”*) konsepsiyada, yuqorida keltirilganidek, tarixiy omillarni ham e'tiborga olinadi. Chunonchi, Buyuk Britaniyaning qudratli mamlakatga aylanishiga uning ko'plab hududlarni mustamlaka sifatida bosib olib, u yerlardagi resurslardan o'z xo'jaligida foydalanish hisobiga ishlab chiqarishni yanada taraqqiy ettirgan bo'lsa-da, biroq mustamlakachi darajasiga yetishi uchun mamlakat rivojlanishida qulay geografik o'rin asosiy ahamiyat kasb etgan. Bunday yondashuvni AQShga nisbatan ham qo'llash mumkin, ya'ni uning *“intellektual qutb”* sifatida shakllanishiga, tarixiy jihatdan qaraganda, Yevropa va boshqa mintaqalardan kelgan malakali kadrlarning kontsentratsiyalashuvi katta ta'sir ko'rsatgan, deyish mumkin (*shu jihatdan, yevropaliklarni o'ziga tortgan jihat qulay makon bo'lgan bo'lsa, keyingi rivojlanish tabiiy resurs va qulay geografik o'rin bilan tavsiflanadi va h.k.*). Bu jarayonlarning evolyutsiyasi davomida esa aholining ruhiy barqarorligi oshib, millat ruhi yuqori darajalarga ko'tarilgan. Jumladan, hozirgi davrda AQSh aholisi tarkibida *“men oddiy odamman”*, *“men o'rtacha darajadagi insonman”* deydigani uchratish amrimahol. Chunki davlatda har bir insonga *“o'zgacha olam”* sifatida qaralib, individual iste'dodni shakllantirishga e'tibor beriladi.

Geografik envayronmentalizm (ing. *“atrof-muhit”*) bo'yicha yashash muhitining tozaligi va ekologik barqarorlik inson xulqiga bevosita ta'sir etadi, deyish mumkin. Xususan, bu borada Jan Baptiste Dubotning: *“Ifloslangan havo tarkibidagi zararli moddalar qonga qo'shilishi natijasida organlar funksiyasida*

o'zgarish ro'y beradi va bu kishilarning hatti-harakatlariga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi, agar qon aylanishi buzilsa, fikrlash pasayib, loqaydlik ortadi", degan fikrini keltirib o'tish joiz bo'ladi hamda ushbu nazariya, ma'lum ma'noda, o'z ilmiy-amaliy ahamiyatiga ega hisoblanadi. Aytish mumkinki, ekologik nosog'lom hududda istiqomat qilayotgan insonlarda jizzakilik va agressiv jarayonlarga beriluvchanlik holati ortib boradi.

Ming yillar davomida kishilik jamiyati taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar ko'pchilikni qiziqtirib kelgan. Asosan, sotsiopsixologik talqinga ega yo'nalish tarafdorlari ijtimoiy va psixologik ta'sirga asosiy e'tibor qaratishsa, tabiatshunoslik bilan aloqador fan namoyondalari tabiiy muhitning rolini yuqori baholaydilar (1-jadval).

Inson turmush-tarzining tarkib topishida tabiiy sharoitning roli oddiy haqiqatga o'xshaydi. Xususan, olaylik – kishilarning kiyinishi. M., yevropoid irqiga mansub arablarning oppoq kiyim kiyishi quyosh nuridan himoyalanih bo'lsa, tanani yopib yurish cho'l shamollaridan muhofaza hamdir (*ularning asosi din hisoblansa-da, dinning inson hayotiga muvofiq kelishi shunda ham namoyon bo'ladi va h.k.*) yoki buning aksi sifatida u bilan bir kenglikda Afrikaning jazirama hududlarida yashaydigan negroid irqiga mansub aholining ochiq va yupqa kiyinishi taqqoslansa, ular tanasidan melanin moddasi ko'p ajralganligi bois quyoshdan himoyalanihning tabiiy holatini ko'rish mumkin.

Hududiy mehnat taqsimoti tabiiyki, iqlim xususiyatlari bilan bog'liq. Bu esa Islandiyada choy, Nigeriyada lishaynik yetishtirilmasligi misolida ham yaqqol namoyon bo'ladi.

Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari ham bundan mustasno emas. Mazkur jarayonlar ushbu hudud aholisining dunyoqarashi va fe'l-atvorida o'z ifodasini topadi.

IQTISODIY VA IJTIMOIIY GEOGRAFIYA METODOLOGIYASI

1-jadval

Inson individual shakllanishiga asosiy ta'sir etuvchi tabiiy omillar yondashuvlar

Omil	Tarafdor olimlar		Inson taraqqiyotida asosiy o'rin egallagan omillar haqida fikrlar
	umumiy	xususiy	
ANTIK DAVR (MILODIY V ASRGACHA)			
Iqlim	Gerodot, Gippokrat, Arastu, Strabon, Polibiy, Fales, Aneksimander	Gippokrat	<ul style="list-style-type: none"> odamlar shakli va urf-odatlarini ko'p jihatdan mamlakat tabiatini aks ettiradi; tana tuzilishi, ruhning holati iqlim holatiga bog'liq va odamlar tabiati hudud tabiatiga hamohangdir.
		Arastu	<ul style="list-style-type: none"> iqlimi sovuq bo'lgan mamlakatlarda istiqomat qiluvchi kishilar dovyurak bo'lishadi, ammo ularda xayoliy orzular va ixtirolar qilishga moyillik yo'q. Shuning uchun ham ular boshqa xalqlarga nisbatan ko'proq vaqt ozodlikni saqlab turishadi, biroq o'z qo'shinlariga boshchilik qilish va ularni boshqarish qobiliyatiga ega emas, ular siyosiy rahbarlikka muhtojdirlar. Janubiy xalqlar, aksincha, chuqur o'ylaydigan va qiyin holatlardan chiqib ketishga ustadirlar. Ammo ular g'ayratli emaslar. Shuning uchun ham qullik va tobelik ularga xos «tabiiy holatdir». Oraliq mintaqalarda istiqomat qiluvchilar esa o'zlarida shimol hamda janub xalqlariga xos bo'lgan eng yaxshi xislatlarni jo qilganlar.
		Polibiy	<ul style="list-style-type: none"> barcha xalqlarning tabiiy xususiyatlari muqarrar ravishda iqlimga qarab shakllanadi. Shu sababli, balki xalqlar xarakter, tana tuzilishi va teri rangidagi keskin farqlarni namoyish etishi mumkin.
O'RTA ASRLAR (V ASRDAN XV ASRGACHA)			
Tabiiy sharoit	Beruniy, Ibn Sino, Farobiy, Jurjoniy, Ibn Battuta	Beruniy	<ul style="list-style-type: none"> odam rangi, qiyofasi, tabiati va axloqi turlicha bo'lishi ular yashaydigan tuproq, suv, havo va yerga ham bog'liq; inson ichki va tashqi qiyofasi tabiat ta'sirining natijasidir. Shu bilan birga, uning ichki qiyofasi cheksiz harakatlar oqibatida tubdan o'zgartirishi ham mumkin.
		Ibn Sino	<ul style="list-style-type: none"> issiq o'lkalarda odam tanasining qoramtiriligi, sochlarining jingalakligi, havoda namlikning ko'p bug'lanish natijasida keskin kamayib ketishi inson jismining tez qarishiga olib keladi; pastlikda joylashgan hududlar aholisi doimiy issiqlik va dimlikda yashaydi, bunday o'lkalarda sho'rxok va botqoqliklarning ko'pligi sababli suvlar tarkibi ham salbiy xususiyatlarga ega va hududlar aholisining ruhiyatida jizzakilik, jahldorlik birmuncha yuqoridir.

KAPITALISTIK BOSQICH (XVI ASRDAN XX ASR 17-20 YILLARICHA)			
Iqlim	J.Boden, SH.Monteske, J.Dubot, F.Bekon, U.Templ, B.Fontanel, A.Gumboldt, V.Dahl	Jan Boden	<ul style="list-style-type: none"> • insonning rivojlanishiga geografik muhit xalq xarakteri va ruhiyati orqali ta'sir ko'rsatadi; • mustaqil davlatlarning kuch-qudrati va taraqqiyoti ularni o'rab turgan tabiiy sharoitning ta'siriga bevosita bog'liq. Agar siz tarixni to'g'ri o'rgansangiz, eng buyuk qo'mondonlar shimoldan, san'at, falsafa va matematika janubda tug'ilishini ko'rasiz; • shimol tomon harakat qilsangiz, issiqlik miqdori asta-sekin kamayadi. Janubdagi odamlar quyoshdan ko'proq issiqlikka ega, ammo ichki issiqlik kamroq. SHimoliy aholini ichki issiqlik qo'llab-quvvatlaydi, bu esa janubdagilarga qaraganda kuchliroq va faolroq bo'ladi. Janubi-g'arbliklar ko'proq o'ylashga, shimolliklar esa hunarmandchilik va ixtirolarga, o'rta mintaqa odamlari har xil jamoat ishlariga aralashishga moyil.
		Sharl Monteske	<ul style="list-style-type: none"> • iqlim kuchi barcha hokimiyatlarga qaraganda kuchliroq bo'lib, bu odamlarning fe'l-atvorini, odatlarini va mehrini belgilaydi. • Issiq iqlim odamlari keksa odamlarga o'xshab sust, sovuq iqlim odamlari yosh yigitlar singari jasur bo'ladi; • iqlim sharoitlariga muvofiq aholining turmush-tarzi va yumushlari tarkib topadi.
Havo	J.Dubot, CHarlz Lui, Baron de Bred	Jan Baptiste Dubot	<ul style="list-style-type: none"> • kishilar xulq-atvorining shakllanishida havo asosiy o'rin tutadi. Inson hayoti davomida ruh tana bilan bog'liq hamda ruhimiz va moyilligimiz tabiati qonning xususiyatlari bilan belgilanadi. Qonning sifati, o'z navbatida, biz nafas olayotgan havoga bog'liq. SHuning uchun turli iqlim sharoitida yashaydigan xalqlar o'zlarining ruhi va moyilligi bilan bir-biridan juda farq qiladi; • nima uchun bir vaqtning o'zida bir xil mamlakatlarning aholisi har xil hulq va iqtidorga ega? Gap shundaki, havoning hususiyatlari bir xil emas, ko'p o'zgarishlarga duch keladi. Havoning o'zgarishi natijasida xalqlar axloqining o'zgarishi ro'y beradi; • Italiya va Fransiya aholisining dunyoqarashi ham havoning holatiga mos ravishda bog'liq. Agar Italiyada O'rta dengizning iliq havosi hukmron bo'lsa, Fransiyada ham iliq, ham salqin dengiz havosi ta'sir etadi. Bu esa fransuzlar fikrlashining hududiy farqlarida ko'rinadi; • havoning hududlar bo'yicha xususiyatlari va tozaligiga qarab aholining dunyoqarashiga ma'lum ma'noda baho berish mumkin.

IQTISODIY VA IJTIMOIIY GEOGRAFIYA METODOLOGIYASI

Tuproq	V.Dokuchaev, SH.Monteske, Lyudvig fon Mises	Vasiliy Dokuchaev	<ul style="list-style-type: none"> kishilarning xulq-atvori o'zlari yashaydigan hudud tuprog'ining xususiyatiga bog'liq bo'ladi.
		Sharl Monteske	<ul style="list-style-type: none"> issiq mamlakatlarda odamlar qo'rqqoq, dangasa va ertakkash bo'ladi. Bunga issiq iqlim va unumdor tuproq sababchidir. Chunki ushbu iqlim zonasida omon qolish uchun hayotni xavf ostiga qo'yishning hojati yo'q. Odamlar faqat jazodan qo'rqqani uchun ishlaydi; unumsiz tuproq, aksincha, erkinlikni qo'llab-quvvatlaydi. Yomon tuproq sharoitlari odamlarni jasur, urushga tayyor, o'z erkinliklarini himoya qilishga moyil qiladi. Chunki tuproq bermagan imkoniyatlarni o'zlari izlab topishga harakat qilishadi.
Hudud	K.Xausxofer, T.Maltus, N.Spaykmen,	Karl Xausxofer	<ul style="list-style-type: none"> mamlakatni taraqqiy ettirish uchun "hayotiy makon"ni kengaytirish lozim; davlat kuch-qudratini geosiyosiy ekspansiya (boshqa hududlarni bosib olish)siz ko'tarib bo'lmaydi.
		Fridrix Ratsel	<ul style="list-style-type: none"> geografik makon siyosiy kuch sifatida geosiyosatning asosini tashkil etadi. Davlat qanchalik hududi katta va resurslarga boy bo'lsa, shuncha kuchli bo'ladi.
		Nikolas Spaykmen	<ul style="list-style-type: none"> davlat geosiyosiy kuch-qudrati chegaralar holati va boyliklari bilan ta'minlanadi, millat ruhi esa oshadi.
Suv	M.Lomonosov, L.Mechnikov, A.Mexen	Mixail Lomonosov	<ul style="list-style-type: none"> hududning suvlik bilan o'ralishi dengiz imkoniyatlaridan foydalanishni taqazo qiladi va, bir jihatdan, aholining o'ziga ishonchini ham oshiradi.
		Lev Ilich Mechnikov	<ul style="list-style-type: none"> suv doimiy jamiyat taraqqiyotining hal qiluvchi omil; sivilizatsiyalarning tarkib topishida suv bosh omil bo'lib, xususan, Qadimgi Xitoy, Misr, Mesopotamiya jamiyatlarining o'ziga xos xususiyatlari ularning hududlarida oqib o'tadigan katta daryolarning rivojlanishi bilan belgilanadi. Bu "daryo sivilizatsiyasi" edi. Keyinchalik "O'rta Yer dengizi sivilizatsiyasi" paydo bo'ldi, uning xususiyatlari dengiz kuchlari bilan bog'liq. Amerikaning kashf qilinishi bilan global "okean sivilizatsiyasi" vujudga keldi. suvlik yaqinida tarkib topgan sivilizatsiyalarning o'rni qurg'oqchil hududlarda tarkib topgan madaniyatlardan doimo yuqori bo'lgan.
		Alfred Mexen	<ul style="list-style-type: none"> dengiz kuchlari har doim "kuchlar muvozanati"ning hal qiluvchi kuchi bo'lgan. Jumladan, AQSh dengiz taqdiriga ega.
Landshaft	Sh.Monteske, T.Maltus	Sharl Monteske	<ul style="list-style-type: none"> hududning ko'rinishi insonning fikrlashida aks etadi. Iqlim, tuproq, relyef va hokazolar odamlarning axloqi va moyilligiga ta'sir qiladi; odamlarning turmush-tarzi va qonunlar tabiiy muhitga moslanishi lozim.

IQTISODIY VA IJTIMOYIY GEOGRAFIYA METODOLOGIYASI

SOTSIALISTIK BOSQICH (XX ASR 17-20 YILLARIDAN 90-YILLARGACHA)			
Geografik o'rin	N.Baranskiy, N.Danilevskiy,	Nikolay Baranskiy	<ul style="list-style-type: none"> geografik fatalizm (determinizm) jamiyat va insoniyat taraqqiyotiga geografik o'rin, gidrografiya va o'simliklar, relyef va iqlim ko'rinishida alohida ta'sir ko'rsatadi; geografik o'rin geostrategik mazmun kasb etadi. Napoleon Rossiyaga hujum qilganda "Kievni olsam Rossiyani oyog'idan tortaman, Peterburgni qo'lga kiritsam tomog'idan bo'g'izlayman, Moskvani egallasam yuragini majaqlayman", deb aytganligi barchaga ma'lum.
Iqlim	S.Tolstov, L.SHubaev, S.Baer, S.Tokarev, P.Buato, SH.Paren	Leonid Shubayev	<ul style="list-style-type: none"> odam zoti asosiy irqlarining shakllanishi geografik muhitning turli sharoitlariga moslashish bilan bog'liq bo'lgan va kishilar taraqqiyotining ijtimoiy munosabatlar yaxshi rivojlanmaganligi natijasida biologik qonunlar anchagina kuchli ro'ly o'ynagan bosqichida ro'y bergan. Ekvatorial irqdagi kishilar terisining rangi issiq mintaqada quyosh radiatsiyasi intentsiv bo'lgan sharoitda vujudga keladi va opranizmni ultrabinafsha nurlarning zararli ta'siridan himoya qiladi. Quyosh radiatsiyasi ancha kuchsiz bo'lgan mo'tadil mintaqada organizm uchun zarur bo'lgan oq rangli teri eng yaxshi moslashishdir. Ko'zining mongol irqiga xos qisqligi, aftidan, dashtlarda changdan va quyosh yorug'ligidan himoyalanihga moslashuv bo'lishi mumkin.
		Sergey Tolstov	<ul style="list-style-type: none"> etnoslarning xususiyatlari va asosiy belgilari ular yashaydigan hududning iqlim holatiga muvofiq holda tarkib topadi va rivojlanadi.
HOZIRGI DAVR (XX ASR 90-YILLARIDAN HOZIRGACHA)			
Tabiiy muhit	G.Martin, D.Dennet, A.Soliyev	Genri Martin	<ul style="list-style-type: none"> insonlarning xarakteri yashash muhitining holatiga bog'liq. Agar tabiiy sharoit qulay bo'lsa, u barcha imkoniyatlarini ishlatishga unchalik tirishmaydi. Bordiyu yashash muhiti og'ir bo'lsa, kishilar o'zlaridagi iste'dodni yuzaga chiqaradilar, buni hayotning o'zi talab qiladi.
		Dan Dennet	<ul style="list-style-type: none"> tabiiy muhit insonlarning, hatto, yashash tarzini ham belgilab beradi. Bu binolarning joylashtirilishi, insonlarning kiyinishi va xo'jalik faoliyatida aks etadi.
Suv	A.Soliyev	Abdusami Soliyev	<ul style="list-style-type: none"> demografik sig'im bir-biridan ancha farq qiladi. Bunday holat, asosan, suv resurslarining hududiy shakllanishiga bog'liq bo'lib, u ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning mintaqaviy xususiyatlariga ham ta'sir ko'rsatadi.
Relief	A.Ro'ziev, A.Soliyev	Abdusami Soliyev	<ul style="list-style-type: none"> tog'liklar, odatda, jismonan sog'lom, ixcham, chidamli, chaqqon, tirishqoq, har qanday vaziyatdan ham chiqa oladigan bo'ladi; tog'liklar hamma vaqt shoshilib, tez yurib o'rgangan.

Binobarin, ishlab chiqarish jarayoni faol mintaqalar aholisi serg'ayrat, insonlar bilan kelishimli va tez fikrlaydigan (*masalan, xanlar, nemislar, inglizlar va b.*) bo'lsa, ko'pincha, kam taraqqiy etgan va depressiv hududdagi kishilar og'ir-vazmin, kamgap hamda kamsuqum bo'ladi (*masalan, gottentotlar, tuareglar, kechua, nenetslar kabi*) va hokazo.

Markaziy Osiyo xalqlari hayotiga nazar tashlansa, boshqa mintaqalarga qaraganda tabiiy muhitning o'rni va ahamiyati birmuncha yuqoriligini ko'rish mumkin. Chunki aholining asosiy xo'jalik faoliyati yer va iqlimga ko'p jihatdan bog'liq. M., shamol ko'p esadigan hududlar aholisining xarakteri tabiiy sharoitga moslashgan, ya'ni xarakatchan va biroz shoshqaloq bo'ladi. Bu esa havoning tez almashinishi natijasida qonning harakatlanishi bilan bog'liq. Professor A.Soliyev tog'liklarning chaqqon va nisbatan shoshqaloq bo'lishini ta'kidlab o'tgan. Bu ham, albatta, o'zining tasdig'iga ega. Shuningdek, tekislikdan tog'likka yanada ko'tarilgan sari havo tarkibida kislorod va bosim miqdori kamayib, havoning tiniqligi ortadi. Bunday tabiiy sharoitning mavjudligi insonlarni muloyim, biroz og'ir-bosiq va bo'y-basti ixchamroq bo'lishiga asosiy ta'sir ko'rsatgan. Dasht va adir mintaqasidagi kishilar gavda tuzilishi yirik, shuningdek, mehnatkash, rostgo'y hamda jasur bo'ladi.

Yer va suv resurslari taqchil, aholi zich mintaqalar kishilari yashash uchun kurash jarayonida gap-so'zga usta hamda chiqishimli, tadbirkor, qolaversa, yolg'onga moyilroq bo'ladi.

Paradigma o'zi nima? Paradigma ilmiy muammolarni yechishga doir, ilmiy jamoa tomonidan tan olingan, aniqlangan qonuniyatlarni fikrlab olishga yordamberadigan va shuningdek, ushbu fan sohasini yanada rivojlanishini prognozlashga yordam beradigan g'oyalardir. Fanda “*paradigmalar*”, “*paradigmalar almashinuvi*” tushunchalari Tomas Kun tomonidan kiritilgan.

Zamonaviy iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanlarining mustaqil tarmog'i sifatida va nihoyat XX asrda shakllandi va u g'arb mamlakatlarida inson geografiyasi, ayrimlarida ijtimoiy geografiya nomi bilan ataldi. Yevropa va amerika olimlari fikricha, u ijtimoiy fanlar bilan uzviy bog'liqlikda shakllandi. Bu davrda uning tabiiy geografiya bilan aloqadorligi juda kam sezildi va alohida-alohida ilmiy yo'nalishlar tarzida o'z faoliyatini davom ettirdi.

Jordj Perkins Marshning asosiy g'oyalari «Inson va tabiat, yoki tabiiy geografik sharoitning o'zgarishiga insonning ta'siri» (1864, rus tiliga tarjima 1866) asarida: «ko'p hollarda iqlim inson faoliyati natijasida asta-sekin o'zgarib, yaxshilanmoqda yoki yomonlashmoqda, insonlar ta'sirida Londonning harorati atrofidagi hududlar haroratidan ikki darajaga oshgan; *«o'rmon nafaqat o'tin va yoqilg'i manbai hisoblanadi, balki yillik barglarning to'kilishi va parchalanishi unumdor tuproqning to'planishiga imkon beradi»*, deydi. Jordj Perkins Marsh dunyoda birinchi bo'lib yovvoyi tabiatni asrash bo'yicha o'z g'oyalarini baralla ilgari surgan olim hisoblanadi.


Rossiyada iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning shakllanishi biroz boshqacha edi. Ushbu mamlakatda o'zlarini geograf deb atagan olimlar XIX asrning oxiriga qadar asosan tabiiy geografik tadqiqotlar va hududlarni xaritalash bilan shug'ullanganlar. Iqtisodiy-ijtimoiy geografik xususiyatga ega ilmiy tadqiqotlar ko'pincha statistik ma'lumotlarni to'plash va nashr etish bilan bog'liq bo'lgan. Bundan tashqari ko'plab taniqli geograflar bir vaqtning o'zida ham etnograflar ham statistlar edi (*masalan, Pyotr Petrovich Semyonov-Tyanshanskiy*)

Bu borada fanga **Vladimir Eduardovich Den** (1867 – 1933) aniqlik kiritdi, u 1902 yildan oliy o'quv yurtida aynan o'z nomi bilan iqtisodiy geografiya kursini o'qitishni boshladi (Moskva shahridagi savdo maktabida). Den davridan to 1960-70 yillargacha shu jumladan, O'zbekistonda mazkur fan iqtisodiy va ijtimoiy geografiya deb nomlangan. Bu milliy maktablarning o'ziga xos xususiyatlarida

ham o'z aksini topdi, chunki o'sha davrlargacha qator mamlakatlar geografлари aholini geografik jihatdan o'rganishga kam ahamiyat qaratgan edi. Xuddiki, 1950-yillarda N.N.Baranskiy aytganidek, «ular insonni unitishdi». Muhimi bu davrda N.N.Baranskiyning «rayon maktabi», N.Kolosovskiyning murakkab iqtisodiy geografik jarayonlar borasidagi ilmiy tadqiqotlari yuzaga keldi, bu esa, ularning iqtisodiy geografiya tarafdorlari ekanligidan dalolat berardi.

Bunga 1930-1950 yillarda Nikolay Nikolayevich Kolosovski y tomonidan hududiy ishlab chiqarish komplekslari va energiya ishlab chiqarish sikllari nazariyasini yaratilishi yorqin misoldir. Mazkur konsepsiyalardan milliy iqtisodiy rejalashtirish muammolarini hal qilishda va yirik sanoat korxonalarini maqbul joylashtirishda samarali foydalanish mumkin. Shuningdek, Nikolay Nikolayevich Baranskiy (1881 – 1963) «geografik mehnat taqsimoti», «iqtisodiy geografik o'rin» kabi muhim tushunchalarni asoslab berdi, Iqtisodiy kartografiya, iqtisodiy geografik rayonlashtirish va maktab geografiyasiga asos solgan yirik nazariyotchi olim sifatida e'tirof etildi.

F.Rattselning asosiy siyosiy-geografik g'oyalari. Geosiyosiy ta'limotning eng yorqin ko'rinishi nemis «organistik maktabi»ning shakllanishida namoyon bo'lgan. Asarlarida “geosiyosat” atamasini qo'llagan bo'lmasa ham **Fridrix Rattselni** (1844-1904) geosiyosatning “ota”si deb hisoblash mumkin. Uning ta'limoti geografiyani siyosiy nuqtai nazardan talqin etishga bag'ishlangan bo'lib, ana shu masala tahliliga doir “Siyosiy geografiya”²⁰ asari 1897-yilda nashr etilgan (35-rasm).



35-rasm. “Siyosiy geografiya”.
F.Rattsel

²⁰ Asar nemis tilida “Politische Geographie” deb nomlangan.

F.Rattsel Karlsrue shahridagi Politexnika Universitetini tamomlagan. Bu oliygohda u geologiya, paleontologiya va zoologiya fanlaridan tahsil olgan. O'qishini Xaydelbergda tamomlagan Rattsel, shu yerda (*«ekologiya» atamasini ilk bor qo'llagan*) Ernst Gekel ismli professorga shogirdlik qiladi. Rattselda olamning tadrijiy taraqqiyoti va darvinchilikka asoslangan dunyoqarash shakllanadi, buning natijasida esa unda tabiatshunoslik ilmiga qiziqish yaqqol ifodalangan edi. Rattsel ko'ngillilar qatorida 1870 yildagi Fransiya-Prussiya urushida qatnashadi va dovyurakligi uchun “Temir xoch” unvoniga sazovor bo'ladi. Uning siyosiy dunyoqarashi asta-sekin o'ta millatchilik ruhi bilan yo'g'rila boradi. Natijada 1840 yilda Karl Piters tomonidan tashkil etilgan “Panolmon liga”si nomli millatchi tashkilotga a'zo bo'lib kiradi. U Yevropa va Amerika bo'ylab ko'p sayohat qiladi hamda o'z ilmiy salohiyatini etnologiya sohasida olib borgan tadqiqotlari bilan boyitadi. Bir necha yil Myunxen texnika institutida geografiyadan dars bergan F.Rattsel 1886-yilga kelib Leyptsigdagi xuddi shunomli kafedrada ilmiy faoliyatini davom ettiradi. Umrini siyosiy geografiya muammolarini o'rganishga bag'ishlagan olim 1876-yilda “Xitoyga emigratsiya” mavzusidagi dissertatsiyasini himoya qiladi, 1882 yilda esa Shtutgardda uning “Antropogeografiya” nomli asari bosilib chiqadi. F.Rattsel ijodida xalqlarning tadrijiy taraqqiyoti, demografiyaning geografik omillar bilan bog'liqligi, hudud rel'efining mahalliy aholi madaniy va siyosiy rivojiga ta'siri kabi masalalar atroflicha tahlil etilgan. Geosiyosat borasida ko'plab tadqiqotlarni amalga oshirgan bo'lsa-da, “Siyosiy geografiya” uning eng asosiy asari hisoblanadi.

F.Rattsel mazkur asarida hududning (zamin) birlamchi hamda o'zgarmas omil ekanligi va xalqlarning manfaati o'zlari yashab turgan zamin atrofida namoyon bo'lishini asoslashga harakat qiladi. Uning nazarida hudud va zamin tarixiy taraqqiyotni oldindan belgilab beradi. Bundan esa tadrijiy mazmundagi quyidagi xulosa kelib chiqadi: “davlat tirik borliq”, aniqrog'i, “zaminda ildiz otgan

tana hisoblanadi”. Davlat hududiy relief, o’lcham hamda ularning xalq tomonidan anglanishidan tashkil topadi. Shunday qilib “davlat” kategoriyasida hududning obyektiv geografik belgilari va ularning umummilliy miqyosda subyektiv jihatdan anglanishi siyosatda ifodalangan holda aks etadi. F.Rattsel millatning geografik, demografik va etnomadaniy xususiyatlarini uyg’unlashtira olgan davlatni “me’yordagi davlat” deb hisoblaydi. “Siyosiy geografiya” asarida bu haqda shunday deb yozadi: “Davlatlar o’z taraqqiyotining barcha bosqichlarida zamin bilan uzviy aloqada bo’lgan borliq ekani bois, ular, avvalo, geografik nuqtai-nazardan o’rganilishi zarur. Etnografiya va tarixga oid ilmiy ma’lumotlar davlatning hududiy negizda taraqqiy topishi, u bilan yaqinlashib, birikishi hamda undan quvvat olishini isbotlaydi. Shunday qilib, davlat zamindan boshqariladigan va jonlanadigan hududiy borliq ekan, uni tasvirlash, qiyosiy tadqiq va tahlil etish geografiyaning vazifasidir. Davlat ijtimoiy taraqqiyot jarayonida ro’y beradigan hodisalarning eng yuqori nuqtasiga aylangan holda, ularga singib ketadi”.

F.Rattsel bunday “organistik” yondashuv asosida davlatning hududiy jihatdan kengayishini tirik mavjudotning rivojlanishi, tiriklik jarayoni sifatida talqin etadi. Bu hol zaminning o’ziga nisbatan munosabatida ham namoyon bo’ladi. Jumladan “zamin” miqdoriy xususiyatga ega bo’lgan moddiy kategoriyadan “hayotiy muhit”, “hayotiy makon” tarzidagi yangi sifat darajasiga ko’tariladi va o’ziga xos “geobiomuhit”ga aylanadi. Ana shu mulohazalarga tayangan holda F.Rattsel ikki muhim tushuncha - “makonning mazmuni” va “hayotiy quvvat” atamalarini ilmiy muomalaga kiritadi. Bir-biriga yaqin ushbu atamalar xalqlar hamda geografik tizimlarga xos muhim xususiyatni anglatadi hamda ularning tarixdagi siyosiy ahamiyatini oldindan belgilab beradi.

Geosiyosatning asosiy tamoyillari hisoblangan ushbu tezislar F.Rattselning izdoshlari tomonidan aynan shu asnoda rivojlantirilgan. Bundan tashqari,

davlatning “zaminda ildiz otgan hududiy asosdagi tirik jism” sifatida talqin etilishi geosiyosiy uslubning bosh g’oyasi hamda o’zagi hisoblanadi.

Bunday yondashuv kishilik jamiyatiga tegishli hodisalarnigina emas, balki unga taalluqli bo’lmagan sohalardagi jarayonlarning butun majmuini tahlil qilish imkonini yaratadi. Bu o’rinda tabiat va atrof-muhitning yorqin ifodasi bo’lgan zamin, shu hududdagi kishilar hayotini uzluksiz ta’minlaydigan borliq sifatida talqin etiladi.

Shu ma’noda F.Rattsel, Ferdinand Tennik singari nemis “organistik” sotsiologiya maktabining bevosita vorisi hisoblanadi.

Uning millat va hudud munosabatlariga oid qarashlari “Siyosiy geografiya”dan olingan quyidagi parchada o’z aksini topgan:

“Davlat tirik tana singari Yer yuzasining ma’lum qismiga bog’liq holda shakllanadi va uning mazmun-mohiyati zamin va xalqning xususiyatlari bilan belgilanadi. Bu o’rinda hudud o’lchovi, geografik joylashuv hamda chegaralar eng muhim xususiyatlardan hisoblanadi. Tuproq va o’simliklar turi, sug’orish tizimi va nihoyat Yer yuzasidagi boshqa unsurlar, dastavval, yaqin atrofdagi dengizlar hamda bir qarashda hech qanday siyosiy ahamiyat kasb etmaydigan kimsasiz hududlar bilan munosabatlar keyinchi o’rinlarda turadi. Ushbu xususiyatlarning barchasini ifoda etuvchi majmua – “Das Land”ni, ya’ni mamlakatni tashkil etadi. Biroq “bizning mamlakat” haqida gap ketganda, unga inson tarafidan yaratilgan barcha ne’matlar hamda shu zamin bilan bog’liq barcha tarixiy xotiralar ham qo’shiladi. Ana shu tarzda dastlab sof geografik tUSDagi tushuncha muayyan mamlakat xalqining o’z tarixi bilan ma’naviy-ruhiy aloqasi omiliga aylanadi.

Davlat turg’un zamindagi xalqlar hayotini ifodalagani uchungina emas, balki bu ikki omil bir- birini o’zaro mustahkamlab, to’ldiradigan, bir-biri bilan mushtarak bir butunlikka aylangani uchun yaxlit “organizm”hisoblanadi. O’zlashtirilgan, ayniqsa, tabiiy chegaralar bilan o’ralgan hududlar esa aksincha,

davlatning taraqqiyotini ta'minlaydi. Agar xalq o'z h hududida o'zini tabiiy his qilsa, shu zamindan kelib chiqadigan va unga qaytib singib ketadigan bir xil xususiyatlarni takrorlayveradi”.

Rattselning nazarida davlatga nisbatan tirik tana sifatida munosabatda bo'lish “chegaralarning buzilmasligi” qoidasidan voz kechishni talab etardi. Davlat tirik mavjudot singari tug'iladi, o'sib-ulg'ayadi va vafot etadi. Rattsel ana shu qoidaga tayangan holda davlatning hududiy kengayishi va torayishi tabiiy jarayon ekanini ta'kidlaydi va “*Davlatning hududiy o'sishi to'g'risida qonun*” kitobida uning ichki hayotiy almashinuvi (tsikli) bilan bog'liq. istiloning 7 qonuniyatini ko'rsatib beradi:

1. Davlatning hududiy jihatdan kengayishi jarayoni shu hudud madaniyatining rivojlanishi bilan birgalikda kechadi.

2. Davlatning hududiy kengayishi turli sohalarda, xususan mafkura, ishlab chiqarish, tadbirkorlik faoliyati kabi yo'nalishlarda “tortishuvchi nurlanish”, prozelitizm bilan uyg'un holda ro'y beradi.

3. Davlat ham o'z navbatida muhim siyosiy birliklarni qamrab olgan holda kengayadi.

4. Chegara davlat atrofida joylashgan tana a'zosi sifatida tushuniladi.

5. Davlat o'zining hududiy istilosini amalga oshirib uning taraqqiyoti uchun muhim hisoblangan mintaqalarni, jumladan qirg'oqdagi Yerlar, daryo havzalari, vodiy va barcha boy hududlarni egallashga harakat qiladi.

6. Istiloning boshlang'ich jarayoni albatta tashqaridan ro'y beradi, negaki davlatning hududiy jihatdan kengayishiga sivilizatsiyaning quyi bo'g'ini tomonidan berilgan turtki sabab bo'ladi.

7. Nisbatan zaif va kuchli millatlar o'zaro chatishuvi yoki qo'shilib ketishi bilan bog'liq umumiy tendensiya ulkan hududlarni harakatga keltirib, yanada kengayishiga majbur qiladi.

Pol Vidal de la Blashning siyosiy qarashlari - o'zining "*Fransiya geografiyasining manzaralari*" (1903), "*Sharqiy Fransiya*" (1919) va vafotidan keyin davomchilari tomonidan nashr ettirilgan "*Inson geografiyasining tamoyillari*" (1922) nomli kitoblari bilan fransuz geosiyosat faniga asos solgan geograf **Vidal de la Blash** (1845-1918) fransuz klassik geosiyosat maktabining asoschisi hisoblanadi. U nemis klassik geosiyosatchilarining realistlik geografik muhit nazariyasiga tanqidiy yondashib, inson rivojida lokal atrof muhit va tabiiy landshaftning rolini e'tirof etishga asoslangan "**Possibilizm**" geosiyosiy konsepsiyasini ilgari surdi.

"*Inson – lokal muhitning sadoqatli shogirdidir*" deb yozgan Blash tarix jarayonida davlatlar va jamiyatlarning rivojida yuzaga keladigan farqlar, geografik deterministlar da'vo qilganidek, mamlakatning makoni yoki geografik atrof muhit emas, balki *lokal tabiiy* sharoitga bog'liq, inson atrof muhit yaratgan imkonlar doirasida shakllanadi, dedi. U har bir xalq atrof muhitdan o'z maqsadlari va vazifalariga muvofiq foydalanadi, deb yozdi. Biroq bu, eng avvalo, *mumkin bo'lgan imkoniyatlarga* (fransuzchasiga "possible" – "mumkin" degan ma'noni anglatadi), insonning g'ayrati, sotsiomadaniy kodiga bog'liq. Ko'rinib turibdiki, Rattseldan farqli o'laroq, Pol Vidal de la Blash geografik determinizm g'oyasini rad qilib, geografik va hudud omilini emas, balki inson irodasi va tashabbusini birinchi o'ringa qo'ydi. U inson ham tabiat singari "geografik omil" rolini o'ynashi mumkin, deb yozdi. Uning aytishicha, buning ustiga bu omil tarixiy jarayonlarga ta'sir o'tkazuvchi subyekt rolida maydonga chiqadi.

Bundan ko'rinib turibdiki, Rattsel va undan boshqa nemis nazariyotchilarining qarashlari asosini *Makon kategoriyasi*, davlatning geografik holati, "hudud ehtiyoji", "makon hissi" va hokazo geosiyosiy realizm kategoriyalari tashkil etsa, Blash va u singari fransuz nazariyotchilarining diqqat

e'tiborida asosan *ideal inson omili* va gumanistik, *xalqaro liberal munosabatlar* turgan.

Tadqiqotchilar buni asosan shu bilan izohlaydilarki, mazkur davrda fransuzlar Yevropada ham, jahonda ham o'zlarining "makon masalalarini" ortig'i bilan hal etib bo'lgan va tobora kuchayayotgan "quyosh ostida joy talab qilayotgan" tajovuzkor nemis tahdididan himoyalaniish ular uchun asosiy muammoga aylangan edi. SHuning uchun ham ular "gumanizm" va shu singari "insoniy" nazariyalar pozitsiyasidan so'zlab, jahon jamoatchiligi oldida o'zlarini sulhparvar xalq sifatida namoyish etishga harakat qilgan edi.

XX asrning birinchi yarmida nemis geosiyosatchilariga tanqidiy yondashuv faqat Blash emas, balki aksariyat fransuz olimlari uchun ham xarakterli xususiyat bo'lgan edi. Mazkur davrda bu ularning Yevropada yuzaga kelgan vaziyatga va kelajakda jahon geostrategik tuzilmasiga qarashlari bilan bog'liq edi.

Blashning barcha g'oyalari Fransiyaning tarixi, atrof muhiti va geografik holatining real va kontseptual bazasi asosida shakllandi. Blash "Sharqiy Fransiya" nomli katta asarida Fransiya bilan Germaniya o'rtasidagi geosiyosiy raqobat muammosini – Elzats va Lotaringiya va umuman SHarqiy Fransiya masalasini tahlil qildi. U Birinchi Jahon urushidan keyin yana Fransiya ixtiyoriga o'tgan, aholisi asosan nemis tilida so'zlashadigan bu yerlarni ikki mamlakat orasidagi hamkorlik zonasiga aylantirish g'oyasini ilgari surdi va "bu boy viloyatlarni faqat bir tomonga foyda keltiradigan, bir mamlakatni ikkinchisidan ajratadigan to'siqqa aylantirish kerak emas, balki birgalikda foydalanish yo'li bilan ularni yanada rivojlantirish lozim", deb yozdi. Lekin mazkur modelda Blash o'zi tanqid qilgan nemis olimlari kabi subyektivizmga yo'l qo'yadi, fransuz manfaatlariga ustunlik beradi. Bu uning bu yerlarning Fransiyaqa qarashli ekanini tarixiy va geografik dalillar bilan atroflicha isbotlashida ko'zga yaqqol tashlanadi.

Sivilizatsiyalar rivojida lokal makon kategoriyasi Blash nazariyasining asosiy elementlaridan biridir. Uning fikricha, lokal makon asosini ayrim-ayrim yashash o'choqlari tashkil etadi. Bu o'choqlar kishilarning uncha katta bo'lmagan guruhlaridan iborat bo'lib, insonlarning tabiat bilan o'zaro aloqasi natijasida shakllanadi va insoniyat jamiyatining negizi va ibtidosi rolini o'ynaydi hamda sivilizatsiya elementlarini yaratadi. Bu boshlang'ich doirada – ijtimoiy asosda asta-sekin muayyan “hayot obrazlari” shakllanadi. Inson atrof muhit bilan o'zaro ta'sirga kirishib, o'sadi, rivojlanadi. Olim bunday deb qayd etgan edi: “Geografik o'ziga xoslik unga tabiat tomonidan avvaldan berilgan qandaydir narsa emas, u faqat zahira manbaidir, bu manbada tabiiy energiya uyqu holatida bo'ladi va uni faqat inson uyg'ota oladi”.

Rattselb va boshqa geosiyosatchilardan farqli o'laroq, Blash faqat atrof geografik muhitga e'tibor beribgina qolmadi, balki sivilizatsiyalar taraqqiyoti jarayonida davlatlar, siyosiy tashkilotlar roliga boshqacha nuqtai nazardan yondashdi. U inson bilan muhit orasidagi o'zaro ta'sir naqadar faol bo'lsa, lokal o'choqlar orasidagi kommunikatsiyalar: daryo, ko'l, dengiz, tosh va temir yo'llar va hokazolar shu qadar yaxshi tartibga solinadi, deb hisoblagan. Blash o'z asarlarida kommunikatsiyalar masalasiga ko'p e'tibor berdi va kelajakda tegishli kommunikatsiyalarning kengayishi, bir-birini tugallashi va insonlar o'rtasigi munosabatlarning kuchayishi turli sivilizatsiya o'choqlarining o'zaro ta'sirini kuchaytiradi va yagona jahon davlati barpo etilishi mumkin bo'ladi. Bu davlatda inson o'zini “jahon fuqarosi” sifatida idrok etadi.

Mohiyat e'tibori bilan Pol Vidal de la Blash bo'lg'usi “**Sivilizatsiya geosiyosati**” maktabiga asos solib, avvalo fransuz-nemis, keyinchalik esa umuman Yevropa Birligi geosiyosiy makoni taraqqiyotining yangi tarixiy modelini taklif qildi. Fransuz geosiyosatchisining nazariyasidagi yana bir qiziqarli jihat - oldingi nemis siyosatchilarining qit'a va dengiz davlatlari orasidagi ziddiyatlar “*doimiy va*

abadiy bo'lishi" to'g'risidagi fikrlariga qarshi chiqishdan iboratdir Uning fikricha, bunday ziddiyatlar o'tkinchidir va ular o'zaro yangi, yanada madaniyroq munosabatlarni o'rnatish yo'li bilan asta-sekin barham toptiriladi. Pol Vidal de la Blashning "sivilizatsion birlik" modeli Rattselnikidan unchalik farq qilmaydi. Har ikkala olimning kelgusi "*jahon davlati*" modeli xalqlar va davlatlarni yagona sivilizatsiya tarkibida birlashtirishni ko'zda tutadi, bu davlatda har bir kishi o'zini mazkur ulkan davlatning to'la huquqli fuqarosi deb hisoblaydi. Biroq, kelajakdagi Yevropa birligining ichki boshqaruvi "buyuk davlatlar va xalqlarning" manfaatlari va tartibotiga asoslanadi, deb hisoblagan Rattseldan farqli o'laroq, Blash bunday birlikning mag'ziga inson omilini, har bir kishining real huquqini qo'ydi.

Bundan tashqari, Rattseldan farqli o'laroq, Pol Vidal de la Blash Yevropada yagona birlik "chetga chiqish imkoniyatlari cheklangan, har tomondan o'rab olingan Germaniya kabi mamlakat emas", balki atrofi va kommunikatsiya yo'llari erkin bo'lgan Fransiya yoki Angliya kabi davlatlarning rahbarligi ostida yarata olinishi to'g'risida yozgan edi.

L.I.Mechnikovning asosiy siyosiy-geografik g'oyalari. "Geografik determinizm" nazariyasi: Rus klassik geosiyosatida L.I.Mechnikov (1838-1888) siyosiy geografiyaning asosiy tadqiqotchisi va "geografik determinizm"ning asoschisi bo'ldi. Uning asosiy asari "*Sivilizatsiya va katta daryolar. Hozirgi jamiyatlar rivojining geografik nazariyasi*" vafotidan keyin (1889) nashr etilgan. Bu kitob rus geosiyosatida ilk bor tabiiy-geografik omillarning inson va davlat taraqqiyotiga ta'siri masalasiga bag'ishlangan asardir. Tabiat va gidrosferaning jamiyat va davlat rivojida roli masalasiga to'xtalar ekan, Mechnikov barcha sivilizatsiyalar rivojining asosiy bosqichlari insonning gidrosfera bilan aloqasiga, uni o'z ehtiyojlariga bo'ysundirishi va tabiat ustidan hukmronlik qilishiga bog'liq, deb yozdi. Sivilizatsiyaning asosini daryo, dengiz yoki okean tashkil etadi, degan tushunchasiga muvofiq ravishda Mechnikov insoniyat taraqqiyoti tarixini uch

asosiy davrga bo'ldi. U har bir bosqich insonning gidrosferaning borgan sari yangi vositalari – *oldin daryolar, keyin dengizlarni, nihoyat okeanlardan foydalanishni o'rganishi bilan belgilanadi*, deb hisobladi. Olim jamiyat rivojida hamisha suv, suv hududlari va ular tomonidan yaratiladigan imkoniyatlar hal qiluvchi rol o'ynaydi, deb hisobladi va sayyoraviy sivilizatsiya tarixini suv yo'llaridan foydalanish tarixi bilan bog'ladi. Shu tezisga muvofiq, Mechnikovning sivilizatsiya tasnifida ularning uchta asosiy turi: daryo, dengiz va okean sivilizatsiyalari ajratib ko'rsatilgan. Mechnikov tomonidan ajratib ko'rsatilgan bu sivilizatsiyalar tarixiy taraqqiyotiga ko'ra, o'zgaradi va keyingi darajaga o'tadi. Mechnikovning fikricha, insonlarning daryolardan foydalanishi, daryo sohillarida ovullarning paydo bo'lishi va rivojlanishi ibtidoiy jamiyat davrida yopiq tamaddunning paydo bo'lishiga muvofiq bo'ladi. Keyingi davrda dengiz sivilizatsiyasi tomonidan siqib qo'yilgan bu tamaddun yirik davlatlar va xalqlarni qamrab olgan, keng ishlab chiqarish va savdo munosabatlariga ega bo'lgan yanada yuqoriroq va rivojlangan ijtimoiy tuzilmaga o'z o'rnini bo'shatib beradi. Uning aytishicha, insonlar okeanlardan foydalan boshlagan va ularni o'z ehtiyojlariga moslashtirgan vaqtdan boshlab sivilizatsiyaning eng yuqori bosqichiga qadam qo'yiladi, bu sivilizatsiyaning eng yuksak bosqichi bo'lgan kapitalizmga to'g'ri keladi. Makonni egallash bilan bog'liq masalani ko'rib chiqar ekan, Mechnikov original geosiyosiy nazariyani taklif etdi va insonlar faqat o'z ijtimoiy-siyosiy darajasiga mos bo'lgan makonni egallashlari va foydalanishlari mumkin, degan xulosaga keldi. U daryolarni o'zlashtirish va uning qirg'oqlarida turar joylarni barpo etish uchun insonlar quldorlik va mustabidchilikdan, dengizlarni o'zlashtirish uchun – krepostnoychilikdan foydalanganlar, okeanlarda hukmronlik qilish uchun esa erkin mehnat, tenglik va birdamlik tamoyillaridan foydalanish kerak bo'ladi, deb hisobladi. Olim tabiat ustidan hukmronlik uchun kurashda

insonlarning birdamligi kuchaygan sari ijtimoiy tuzum shakli shunga muvofiq ravishda o'zgargan va sivilizatsiyalar almashgan, deb hisobladi.

Richard Xartshornning geografiya muammolari borasidagi qarashlari. Richard Xarshorn (aniqrog'i Xarshorn) (*inglizcha Richard Hartshorne*; 1899 yil 12-dekabr, Kittaning, Pensilvaniya shtati, 1992 yil 5-noyabr, Madison, Viskonsin) - amerikalik geograf, xulq-atvor geografiyasining asoschisi Pensilvaniya shtatining Kittaning shahrida tug'ilgan. Amerikalik diniy faylasuf Charlz Xarsxornning (1897-2000) ukasi. Priston universitetida o'qigan (1920 yilda tugatgan), Chikago universitetida doktorlik darajasini olgan (1924). Minnesota (1924-1940) va Viskonsin (1940-1970, urush paytida tanaffus bilan) universitetlarida dars bergan. 1949 yilda. AQSh Geograflar Uyushmasining prezidenti etib saylandi. U *xorologiya maktabining* eng yorqin vakillaridan biri bo'lib, u geografiyani yagona fan deb hisoblagan, uning vazifasi "Yer yuzining hududiy tafoutlarini" va faktik materiallarning tahlil qilishni o'rganishdan iborat. U turli hududlardagi aholining urf-odatları va yashash tarzi, ularning aholisini xulq-atvorini o'rganishga alohida ahamiyat berdi. U ularni ma'lum bir hududga xos bo'lgan boshqa tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar bilan o'zaro bog'liq deb hisoblagan. U geografik voqelikdan uzoqligini hisobga olib, analitik usullarni qo'llashga qarshi edi. U siyosiy (saylovchilarning xulq-atvorini aniqlashtirish va hokazo) va madaniy (madaniy landshaftni aniqlaydigan) geografiya nazariyasini shakllantirishga salmoqli hissa qo'shgan. 1950-yillarda Xarttsornning qarashlari hududiy tahlil maktabining vakillari tomonidan tanqid qilindi, xususan Fred Shayfer va Uilyam Bunge.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, insonning tuzilishi va xatti-harakatlari uni o'rab turgan tabiiy muhitga chambarchas bog'liq. Biroq, bu bilan tabiiy sharoit inson xulq-atvorini shakllantiradigan yagona omil, deyish noo'rin

bo'ladi. Albatta, ijtimoiy muhit va genetik xususiyatlar ham inson ijtimoiy hayotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Geografik determinizm, possibilizm va envayromentalizm tushunchasining tariflang.
2. Jordj Perkins Marshning asosiy g'oyalarini, fikrlarini izohlang.
3. Vladimir Eduardovich Den fikrlarini izohlang;
4. F.Rattselning asosiy siyosiy-geografik g'oyalari tahlil qiling.
5. Deterministlar va possibilistlar g'oyalarini izohlang.

MAVZUGA DOIR ASOSIY TUSHUNCHALAR

Xulq (xulq-atvor) - axloqshunoslik tushunchalaridan biri. Insonning fe'l-atvori bilan bog'liq axloqiy hodisa bo'lib, kishi fe'lining axloqiylik doirasida namoyon bo'lishi tushuniladi. Insonning axloqiylik doirasidagi xatti-harakatlaridan tashqari odob va axloqni o'z ichiga oladi. Odob inson haqida yoqimli taassurot uyg'otadigan, lekin oila, jamoa, jamiyat va insoniyat hayotida o'zgarish yasaydigan darajada ahamiyat kasb etmaydigan xatti-harakatlardan iborat bo'lsa, axloq - muayyan jamiyat, zamon, insoniyat tarixi uchun ta'sir eta oladigan turli xatti-harakatlar majmui, insoniy kamolot darajasini belgilovchi ma'naviy hodisa. qamrovlilik jihatidan ana shu ikki hodisa o'rtasidagi xususiyatlarga ega. U odobdan keng, axloqdan tor ma'noga ega bo'lib, axloq singari jamiyat, zamon, tarix miqyosidagi voqelikka ta'sir ko'rsata olmaydi.

Xulq-atvor geografiyasi – insonning ruhiy xususiyatlari, xarakteri va shu kabi holatlarga atrof-muhitning ta'siri hamda uning hududiy jihatlarini o'rganadigan ijtimoiy geografiyaning bir qismi hisoblanadi.

Bixeviorizm – inson xulq-atvorining xilma-xil jihatlarini o'rganuvchi ilmiy qarashlar majmui bo'lib, kishilarning tabiiy va sotsial muhitga moslashuvi, ularning aqli va xatti-harakatlariga muhitning ta'sirini o'rganadi.

Geografik determinizm (lotincha, ta'sir etmoq) – inson hayotida tabiiy sharoitning ahamiyatini bo'rttirib ko'rsatuvchi g'oya.

Geografik possibilizm (inglizcha, “possible”- imkoniyat) – geografik muhit inson faoliyatini cheklaydigan va o'zgartiradigan, ammo tarixiy, sotsial va boshqa sharoitlarning ahamiyatini (geografik determinizmdan farqli ravishda) aniqlaydigan tushuncha.

Envayronmentalizm (inglizcha, “environment” – atrof-muhit, tabiat) inson xulq-atvori va dunyoqarashi atrof-muhitning ekologik holatiga qarab shakllanishi haqidagi g'oya.

Militarizm – bu davlatning harbiy qudratini doimiy ravishda oshirish siyosati va shu bilan birga xalqaro va ichki nizolarni hal qilishda harbiy kuchdan foydalanishga yo'l qo'yilishni asoslashga qaratilgan davlat siyosati

Avtomagistral – ko'p qatorli (har bir yo'nalishi ikki va undan ortiq bo'lakli) yuqori tezlikda haraktlanadigan yo'l, bashqa yo'llar bilan bir xil darajada kesishmaydigan yo'l. Avtomagistral turli mamlakatlarda turli xil nomlarga ega avtomobil yo'li hisoblanadi. Jumladan, Italiyada intersteyt, AQSHda frivey, Buyuk Britaniyada motorvey deb ataladi. Avtomagistral avtomobillarning belgilangan 120-140 km/s. kam bo'lmasligi kerak.

Aholi migratsiyasi - turli sabablarga ko'ra ko'chib o'tish, boshqa joyga ko'chirish, odamlarning yashash joyini doimiy yoki uzoq vaqtga o'zgartirish. Tor ma'noda, aholi migratsiyasi - bu hududiy ko'chishlarning to'liq shakli; ya'ni qishloqning ma'muriy chegaralarini kesib o'tgan odamlar bilan uzoq muddatli harakat yoki qaytarib bo'lmaydigan harakat bilan birga keladigan harakat hisoblanadi. Keng ma'noda aholi migratsiyasi deganda "turli xil harakatlarning ko'p turlari (shu jumladan doimiy yashash joyini o'zgartirmaslik bilan)" ham tushuniladi. Masalan: ishbilarmonlik, dam olish, sayohatlar, mayatnik, mavsumiy sayohatlar.

10 – Mavzu

MIQDORIY INQILOB VA TIZIMLI PARADIGMA

Maqsad: *Miqdoriy inqilob va tizimli paradigma hamda uning hududiy xususiyatlarini yoritib berish.*

Tayanch soʻz va iboralar: *Geografik sintez, “Tog’ yili”, “geografik konveyer”, “geojuftliklar”, tog’lar va tekisliklar, (o’rtada, chetda, kenglik yoki meridian shaklda), baland-pastligi, ta’biy sharoitning inson ruhiy shakllanishidagi ahamiyati, jinoyatchilikka va geokriminogen vaziyatga ta’sir kiluvchi omillar.*



Reja:

1. Iqtisodiy geografik tadqiqotlarda tabiiy geografik omillar yohud geografik sintez haqida
2. Tog’ mintaqasining iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi
3. Jinoyatchilik geografiyasining dolzarb masalalari




Geografiya fanining bir butunligi va, ayni vaqtda, uning ikki qanoti – tabiiy hamda iqtisodiy (aniqrog’i ijtimoiy) geografianing mavjudligi ushbu fanning frontal rivojlanishini ta’minlab beradi. Modomiki, geografianing bosh falsafiy masalasi tabiat va jamiyat o’rtasidagihududiy munosabatlar ekan, tabiatni tabiiy geografiya, jamiyatni esa iqtisodiy emas, keng ko’lamli ijtimoiy geografiya o’rganadi.

Ta’kidlash joizki, dastlabki tabiiy geografik bilimlar ijtimoiy geografiyadan ko’ra oldinroq vujudga kelgan, chunki tabiat jamiyat shakllanishidan avvalroq ham bor edi. Ijtimoiy (iqtisodiy) geografiya fanining vujudga kelishi esa ijtimoiy, so’ngra hududiy mehnat taqsimotining rivojlanishi va shu asosda savdo-sotiq, hunarmandchilik bilan bog’liq bo’lgan. Ehtimol, tabiiy geografianing yuqoridagi genetik xususiyati unda differentsiatsiya jarayonining oldinroq yuzaga kelishiga

olib kelgan. Chunonchi, geologiya va tabiiy geografiya qirrasida geomorfologiya, fizika bilan tabiiy geografiya o'rtasida iqlimshunoslik, meteorologiya kabi fanlar rivojlanib borgan. Keyinchalik tabiiy geografiyaning evolyutsion taraqqiyotida landshaftshunoslik katta ahamiyat kasb etgan va u ushbu fanning markazidan joy olgan. Zero landshaft barcha tabiiy geografik jarayonlarni, ularning natijalarini o'zida mujassamlashtiradi.

Iqtisodiy geografiya fanining, bizningcha, *uch tarixiy manbasi* bor. Ularning eng birinchisi, albatta, *tabiiy geografiya* hisoblanadi. Sababi, iqtisodiy geografiyaning (u keyinchalik, ijtimoiyga aylangan) dastlabki yo'nalishi – qishloq xo'jaligi yoki, hozirgi zamon tili bilan aytganda, agrogeografiya, xususan dehqonchilikning chorvachilikdan ajralib chiqishi va, ayniqsa, sug'orma dehqonchilikning rivojlanishi bevosita tabiiy geografik omillar, ya'ni joyning tuprog'i, harorati, namlik ko'rsatkichlari ta'sirida vujudga kelgan. Xuddi shunday, tabiiy geografik omillar asosida o'rmon xo'jaligi, baliqchilik, tog'-kon sanoati singari iqtisodiyot yo'nalishlari rivojlangan.



36-rasm. “Tyunen xalqalari” modeli asosida shahar atrofida xo'jalik tashkil etish.

- 1) shahar mavzeyi;
- 2) sabzavotchilik va bog'dorchilik;
- 3) donchilik va parrandachilik;
- 4) yaylov chorvachiligi;
- 5) o'rmon xo'jaligi.

Hozirgi iqtisodiy (ijtimoiy) geografiya fanining qolgan ikki genetik manbai sifatida nemis statistikasi va nemis shtandort nazariyalari xizmat qilgan. Statistika, ya'ni dastlabki holatdagi uning mazmuni – davlatshunoslik negizida siyosiy va uning bir yo'nalishi – harbiy geografiya ham shakllangan. Shtandort nazariyasi (I.Tyunen (36-rasm), A.Veber,

V.Kristaller, A.Lyosh va boshqa olimlar g'oyalari) esa bevosita ishlab chiqarish

kuchlarining joylashuvi, uning omillari va qonuniyatlarini o'rganuvchi turdosh fanlar: iqtisodiy geografiya hamda ancha keyin "maydonga chiqqan" mintaqaviy iqtisodiyotning vujudga kelishida nazariy asos hisoblangan.

Shu o'rinda eslatish lozimki, iqtisodiy geografiyaning fanlar tizimidagi o'rni, uning ayni paytda ham tabiiy, ham ijtimoiy fanlar tizimiga mansubligi bu fanning tarixiy rivojlanib borishida o'ziga xos xususiyatlarni kasb etgan. Masalan, iqtisodiy geografiya dastlab statistika, iqtisodiyot tarkibiga kirgan va faqat XX asrning 30 – yillarida u *statistika – tarmoq* yo'nalishidan *rayonlar* yo'nalishiga o'tgan (*uning asoschilari N.N.Baranskiy, S.V.Bernshteyn – Kogon bo'lgan*). Ushbu yo'nalishning haddan tashqari tez rivoj topishi, kichik-kichik hududlar, turli miqyosdagi iqtisodiy rayonlar tavsiflanishiga ham ustuvor ahamiyat berilishi, ayni vaqtda, iqtisodiyot tarmoqlariga e'tiborni ancha susaytirdi. Vaholanki, har qanday iqtisodiy geografik tadqiqot tarmoq va hududiy (rayon) yondashuvlarning o'zaro uyg'unlashuvi, "tarmoq –hudud –tarmoq - hudud" tizimida olib borilishini taqozoetadi va bu haqiqat mazkur fanning metodologik talablaridan biridir. Tarmoq yo'nalishining geograflar tomonidan butunlay unutilishi yoki unga e'tiborning kuchsizlanishi "hudud - tarmoqqa" urg'u berilishining ortida metodologik bo'shliq, vakuum hosil bo'lishiga olib kelgan va bu "egasiz" qolgan joyda qisman hududiy fikrlovchi iqtisodchilar yoki iqtisodiy fikrlashi ustunroq bo'lgan geograflar tomonidan gibrid fan – mintaqaviy iqtisodiyot "yaratilgan". Bu fanlarning vujudga kelishi katta bahs – munozaralarga sabab bo'lgan va oqibatda o'zaro kelishuvga kelingan: mintaqaviy iqtisodiyot-geografiylashgan iqtisodiyot, iqtisodiy geografiya – iqtisodiyotlashgan geografiya sifatida e'tirof etilgan.

Sirasini aytganda, mintaqaviy iqtisodiyotning nazariy asosi iqtisodiy geografiya hisoblanadi. Qolaversa, XX–asrning 60–yillarida "Mintaqaviy fanlar uyushmasining" asoschisi Pensilvaniya universiteti geografiya fakul'tetining dekani U.Ayzard bo'lgan. 1970 – yillarda sobiq Ittifoq Davlat rejalashtirish

qo'mitasining raisi, dastlabki "Mintaqaviy iqtisodiyot" monografiyasining muallifi N.N.Nekrasov esa taniqli iqtisodiy geograf N.N.Kolosovskiyning aspiranti bo'lgan²¹.

Iqtisodiy geografiyaning mintaqaviy iqtisodiyot bilan o'zaro "talashuvi" uning tarixiy ildizi va doimiy yaqin safdoshi bo'lgan tabiiy geografiyadan biroz uzoqlashtirdi. Ba'zi yetakchi iqtisodiy geograflar iqtisodchilar orasida "geograf", o'zlarining geografiya jamoasida esa "iqtisodchi" bo'lib qolishdi. Aslida bunday emas, iqtisodiy geografiya ilm –fan makonida o'ziga munosib, mustaqil ijtimoiy mavqei, nufuziga ega.

Iqtisodiy geografik tadqiqotlarning deyarli barchasi u yoki bu darajada, albatta, tabiiy geografiya ma'lumotlariga tayanadi, ularga iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan baho beriladi. Har qanday geograf o'z tadqiqotida bevosita yoki bilvosita tabiiy geografik omillarga murojaat qiladi. Bu uning eng muhim kasbiy sifati bo'lib, ayni vaqtda ilmiy deterministik dunyoqarashga ham mos keladi. Professor Z.M.Akramov va u yaratgan agrogeografik tadqiqotlar yo'nalishining vakillari R.Hodiyev, T.Egamberdiyev, S.Saidkarimov, M.Yusupov, A.Ro'ziyev, Y.Umarov, Q.Allanov, M.Mahmudova va boshqa olimlarning ilmiy izlanishlarida tabiiy geografik omillar, xususan agroiqlimiy resurslar bevosita ishtirok etgan.

O'zbekistonda bajarilayotgan iqtisodiy geografik tadqiqotlarning aksariyatida joylarning tabiiy geografik xususiyatlari hisobga olinadi. Binobarin, iqtisodiy geografiyaga bu borada e'tiroz bildirish noo'rindir. Jumladan, T.Jumayevning tog' hududlari geografiyasi, Y.Ahmadaliyevning yer resurslaridan foydalanish bo'yicha olib borayotgan tadqiqotlari, Sh.Jumaxonovning daryo-soy havzalarida aholi joylashuv tizimining shakllanishi, Z.Tojiyevaning hududlarning demografik sig'imi haqidagi izlanishlari, N.Komilova va M.Hamroyevlarning

²¹ Darvoqe, Markaziy Osiyo davlatlarida birinchi "Mintaqaviy iqtisodiyot" bakalavr yo'nalishi ham 1998/1999 o'quv yilida ToshDU "Iqtisodiy geografiya" kafedrasida professor A.Soliyev sa'y-harakati, tashabbusi bilan yo'lga qo'yilgan edi

tibbiy geografiya, Z.Rayimjonovning “resurs shaharlar”, T.Shoto’rayev va Sh.Azimovlarning suv omborlari, X.Tursunovning urboekologiya, B.Ziyomuxamedovning rekreatsiya, M.Usmonovning turizm geografiyasi, A.Sattorovning Surxondaryo viloyati qishloq aholi punktlarining joylashuvi, A.Mavlonovning cho’l hududlari shaharlari, P.Qurbonovning Janubiy O’zbekiston mintaqasida urbanizatsiya jarayoni, A.Baratovning irrigatsiya tizimlaridan foydalanishga oid ilmiy ishlari tabiiy geografik omillar bilan singdirilgan. Bunday misollar qatorini yana kengaytirish mumkin. Umumiy xulosa shundan iboratki, iqtisodiy geografik tadqiqotlar tabiiy geografiga “sodiq” holda ish tutadilar. Ammo, aks vaziyat ham shunday-mi? Tabiiy geografik tadqiqotlar ham iqtisodiy geografik xulosa va tavsiyalarga olib keladimi, ularga “chiqadimi”? Fikrimizcha, har doim ham bunday muvozanat, munosabat (paritet), afsuski, uncha kuzatilmaydi.

To’g’ri, tan olish kerak, L.Babushkin, F.Mo’minov, T.Muxtorov, A.Abdullayev, A.Abulqosimov, P.Baratov, Sh.Zokirov, A.Makmatov, A.Soatov, B.Kamolov, F.Hikmatov, I.Nazarov, A.Nizomov, R.Usmonova, X.Toshev kabi tabiiy geograflar va gidrologlarning ilmiy ishlari iqtisodiy geografik mazmunga ham ega. Ayniqsa, A.Rafiqovning meliorativ geografiyasi, H.Vahobovning muhandislik geografiyasi, A.Abulqosimov va uning izdoshlarini antropogen landshaftlar haqidagi tadqiqotlari iqtisodiy geografiyaga ancha yaqin turadi. Inson va ishlab chiqarish ta’sirida tabiiy muhitning o’zgarishi, salbiylashuvi va uning ijtimoiy iqtisodiy oqibatlari geoekologik yo’nalishning vujudga kelishiga sabab bo’ldi.

Bunday avval ta’kidlaganimizdek, amaliy ahamiyati ham eng avvalo shunda. Biroq, nazarimda, ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarni, natijalarni ko’zda tutish barcha tabiiy geografik izlanishlarda ham mavjud emas. Har holda joyning yer usti tuzilishi yoki iqlimi, tuprog’i, gidrogeografiyasi, o’simlik va hayvonot dunyosi o’z-

o'zicha emas, pirovard natijada aholi va uning yashash sharoiti, xo'jalik tarmoqlarining joylanish yoki joylashtirish imkoniyatlari nuqtai nazaridan tavsif, tadqiq va tahlil qilinishi maqsadga muvofiq. Geograf uchun mamlakatimiz iqlimining kontinentalligi yoki uning geosiyosiy o'rni, dengiz va okeanlardan uzoqda joylashuvi, yer usti tuzilishini shunchaki bilish muhim emas, qolaversa, buning uchungina geograf bo'lish ham shart emas. Eng muhimi bunday iqlimiy va boshqa geografik sharoitning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy oqibatlari, ularning mamlakatimiz rivojiga ta'sirini chuqur anglashdir.

Xullas, parokandalikka tushmaslik uchun tabiiy va iqtisodiy (ijtimoiy) geograflar hamjihat, hamnafas va o'zaro mustahkam ittifoqda bo'lmoqlari darkor. Bu ikki fanning bir kishida mujassamlashuvini o'tmishda V.M.Chetirkin, hozirda esa V.Fedorko ilmiy ishlarida ko'rishimiz mumkin. Xususan, uning tabiiy-xo'jalik rayonlashtirish to'g'risidagi ilmiy ishlari tabiiy hamda iqtisodiy-ijtimoiy geografik yondashuvning o'zaro uyg'unlashuvi asosida olib borilmoqda. Shu bilan birga, ta'kidlash joizki, bugungi fanlarning differentsiyalashuvi va integratsiyalashuvi sharoitida tadqiqotchining qaysi bir yo'nalishni ko'proq bilishi, unga ixtisoslashuvi talab etiladi. Zero, sirasini aytganda, "umuman geograf", uning barcha sohalarini birday darajada biladigan shaxsning o'zi ham hozirgi kunda bo'lmasa kerak. Umuman geograf yoki kimyogar yo'q, balki bu fanlarning aniq sohalariga ixtisoslashgan geograf yoki kimyogar bor, xolos.

So'nggi yillarda geografik sintez, bu fanning sintez qudrati haqida ko'p gapiriladi. Ammo har qanday sinez tizim-tarkib va gnosologik nuqtai nazardan analizsiz bo'lmaydi; bir butunlikni bilish uchun avval uni alohida qismlarga ajratib o'rganish va shu asosda umumiy xulosa chiqarish, qonuniyatlarni aniqlash zarur. A.Gumboldtning to'liq geografik fikrlashi ham aynan shunday metodologik yondashuvdan kelib chiqadi. Binobarin, geografiya fanini uning tabiiy va ijtimoiy qismlarisiz talqin va tashfiq qilish haqiqatga ziddir.U holda geografiya fan emas,

oddiy o'quv predmeti bo'lib qoladi. Shuning uchun ham ba'zi Yevropa mamlakatlarida uni umumta'lim maktablar o'quv rejasidan butunlay chiqarib tashlash fikrlari paydo bo'lgan. Geografiyani ham barcha fanlar qatorida ko'rish, ijtimoiy nufuzini ko'tarish uchun uni cheksiz raqam va faktlardan qutqarish, nomenklatur yo'nalishdan voz kechish kerak. Afsuski, geografiyada faktlar ko'p, g'oyalar esa oz; nimagadir o'quvchilar maktabda I.Nyuton, Pifagor yoki Ch.Darvin, K.Linney, Faradey kabi olimlar yaratgan qonuniyatlar, ixtirolarni bilishadi-yu, geografiyada faqat "eng-eng" ko'rsatkichlarni (eng uzun daryo, eng katta orol, eng chuqur joy, eng baland cho'qqi, eng ko'p avtomashinalar yoki ishlab chiqaradigan davlat va h.k. va b.) quruq yodlab olishga majbur qilinadi. Nahotki, bizning fanimizda ham umumta'lim maktablari darajasida biror-bir qonuniyatlar bo'lmasa? Shubhasiz, ular bu fanda ham bor, ammo uning o'qitilishi, darsliklarimizda kamchiliklar bor.

Geografik sintez ichki va tashqi, ko'p qatlamli bo'ladi. Birinchisi ushbu fanning ichki tuzilmasi, ularning o'zaro integratsiyasida, ikkinchisi, boshqa fanlar bilan aloqasida namoyon bo'ladi. Bu ikkilikda, nazarimda, eng avvalo, fanimizning mustahkam va mustaqil bo'lishi uchun uning ichki, gorizantal va vertikal aloqalari rivojlangan bo'lmog'i zarur. Bu xususda xam ikki bosqich bor: birinchisi – tabiiy va ijtimoiy geografik fanlar tarkibidagi alohida fan yoki yo'nalishlarning o'zaro integratsiyasi bo'lsa, ikkinchisi – tabiiy va ijtimoiy geografiyaning o'zaro munosabati nazarda tutiladi. Tabiiy geografiyada ichki differentsiatsiya jarayonlari, fanlarning turlanishi avvalroq boshlangan va hozirgi kunda biroz susaygan. Iqtisodiy geografiyada esa bunday jarayon kechroq boshlanib, bugungi kunda jadal davom etmoqda. An'anaviy iqtisodiy geografiya aholi va aholiga xizmat ko'rsatish sohalari geografiyasi orqali iqtisodiy va sotsial geografiyaga, so'ngra uning ijtimoiy geografiyaga aylanishiga tibbiyot, jinoyatchilik, ta'lim, madaniyat geografiyasi kabi yo'nalishlarning vujudga kelishi

misol bo'la oladi. Bunga iqtisodiy geografiyaning ijtimoiylashuvi, ijtimoiy sohalarning murakkabligi va ko'p qirraligi sabab bo'lmoqda.

Geografik sintezning yuqori yoki ikkinchi darajasi uning tashqi, fanlararo aloqalariga asoslanadi. Bu borada aytish joizki, fanimizning “geografik o'rni” ham o'ziga xos, qulay. Modomiki, qachon va qaerda **hudud** to'g'risida so'z borar ekan, uning egasi albatta geografiya bo'lganidek, bu fan juda ko'p boshqa fanlar bilan aloqa qiladi, faqat ularning hududiy jihatlari bo'lsa, bas. Binobarin, *qator fanlarning o'zlarini egasi bor va, shu bilan birga, ularning umumiy bir egasi bor, u ham bo'lsa geografiya*. Bu fan, falsafiy dunyoqarash nuqtai nazaridan, ko'pchilik fanlarning (biologiya, tuproqshunoslik, tibbiyot, iqtisodiyot, siyosat, demografiya, psixologiya, sotsiologiya va b.) “umumiy maxraji” hisoblanadi. Sababi, har qanday hodisa yoki voqelik ma'lum bir vaqtda (davrda, zamonda) va muayyan bir joyda – makonda sodir bo'ladi. Shuning uchun ham biologiyaga turdosh o'simliklar va hayvonlar geografiyasi yoki geobotanika va zoogeografiya kabi shunga o'xshash boshqa fanlardan “qo'shaloq” yo'nalishlar vujudga kelgan. Geomorfologiya, meteorologiya va iqlimshunoslik, geokologiya, geosiyosat, mintaqaviy iqtisodiyot, nozogeografiya, geopsixologiya, geokriminologiya, urf-odat geografiyasi, toponimika singari fan yoki ilmiy yo'nalishlar ham mavjud va ularning soni tobora ko'payib bormoqda.

Hatto fanimizga nomlanishi juda yaqin bo'lgan geologiyada ham bunday xususiyat yo'q. Masalan, o'simliklar geologiyasi, tuproqlar geologiyasi mavjud emas. U asosan fizika, kimyo singari ayrim fanlar bilan “qo'shma” yo'nalishlar hosil qiladi (geokimyo, geofizika, gidrogeologiya va b.). Garchi har ikki fanning ham o'zagi “geo” bo'lsa-da, geologiyada u asosan *yer*, geografiyada esa **hudud**, **joyni** anglatadi.

Shunday qilib, tabiiy va ijtimoiy geografiyaning teng huquqlik hamkorligi, ularning ichki tuzilmasini jipsligi va mustahkamligi, bir butunligi, umumiy

geografiya fanining “tashqi” aloqalari uning sitez salohiyatini kuchaytiradi, ilmiy va amaliy ahamiyatini, ijtimoiy nufuzini ko’taradi. Ammo negadir, xalq, omma tasavvurida geografiya bu asosan tabiiy geografiya, xarita yoki tog’u-toshlar, cho’lu-biyobonlar bilan shug’ullanadigan oddiy o’quv predmeti sifatida singilib ketgan. Bunday nomuvofiqlikni, jo’shqin tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy harakatlarga boy olam sirlarini biluvchi geografiya fanimizni nohak kamsitishni bartaraf etish geografiya ta’limida jiddiy o’zgarishlarni talab qiladi. Bu borada o’quvchilarda ham tabiiy, ham ijtimoiy-iqtisodiy geografik zamonaviy bilimlarni uyg’unlashtirgan holda shakllantiruvchi darsliklarni yaratish ham shu kunning dolzarb masalasidir

Tog’ mintaqasining iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. Qirg’iziston Respublikasi Prezidenti A.Akaev taklifi va tashabbusi bilan, BMT qarori asosida 2002 yil – “Tog’ yili” deb qabul qilingan. Bunga, eng avvalo, tog’ mintaqalarida vujudga kelgan ekologik vaziyat, ijtimoiy-iqtisodiy, harbiy-siyosiy va boshqa omillar sabab bo’ldi. Tog’ muammolari 1992-yilda Rio-De-Janeyro hamda 2002-yil Yohannesburg (Janubiy Afrika Respublikasi) shahrida bo’lib o’tgan Birlashgan Millatlar tashkilotining Umumjahon sammitida alohida ko’rib chiqildi va tog’ mintaqalarining barqaror rivojlanishi g’oyasi qabul qilindi.



37-rasm. Tog’lar tabiatning go’zal hilqati

Ba’zi ma’lumotlarga qaraganda, tog’lar Yer yuzining 1/4 qismini egallaydi va bu yerda taxminan shuncha dunyo aholisi yashaydi. Jumladan, 500-1000 m. dengiz sathidan balandlikda jahon aholisining 11-12 foizi, 1000-1500 metr balandlikda 4-5, 1500-2000 m oralig’ida 2 va baland tog’ mintaqalariga 1 foizdan

ko'prog'i to'g'ri keladi. Yer sharida asosan tog'li, aralash relyef shakliga ega hamda tekislikdan iborat mamlakatlar bor. Tipik tog'li davlatlarga Peru, Chili, Boliviya, Tojikiston, Qirg'iziston, Armaniston, Butan, Nepal, Norvegiya, Shveysariya, Efiopiya, Keniya va boshqalarni kiritish mumkin.

O'zbekistonda tog'lar mamlakat hududining taxminan 20 foizini egallaydi. Respublikaning 23 "tog'li" qishloq tumanlari uchun 2002-2005 yillarga mo'ljallangan maxsus davlat dasturi ishlab chiqilmoqda. Bu tumanlar ko'proq *Qashqadaryo, Surxondaryo, Jizzax va Namangan viloyatlariga* tegishli bo'lib, ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida qator muammolar vujudga kelgan.

Ma'lumki, "tog'" tushunchasi, odatda, relyef shakli, orografik element ma'nosini bildiradi. Binobarin, u asosan tabiiy geografiyaning obykti sifatida ko'riladi. Vaholanki, tog'lar katta ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy ahamiyatga ega. Shuning uchun ular iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy geografiyaning ham muhim tadqiqot obykti bo'lmog'i lozim.

Tabiiy geografiyada tog'larning iqlim hosil qiluvchi va boshqa xususiyatlari yaxshi o'rganilgan. Ayni vaqtda ular yirik mineral boyliklarga, rekreatsiya va turistik imkoniyatlarga ega (37-rasm). Biroq, bu salohiyatdan foydalanish ko'proq tog'liklar manfaati uchun emas, balki tekislikda yashovchilarga xizmat qiladi. Umuman olganda esa, tog' va tekislik o'rtasida o'ziga xos aloqadorlik, "geografik konveyer" mavjud. Aytish mumkinki, tog' borki, tekislik bor va, aksincha, tekislik borki tog' bor. Ushbu "geojuftliklar" (Alibekov L.A.), nisbiy tushunchalarning mavjudligi dunyoning, insoniyat hayotining butligi, qolaversa, geografiya fanining borligini ta'minlaydi. Chunki, agar yer yuzi faqat bir relyef shaklidan iborat bo'lganda edi, tabiiy geografik va iqtisodiy geografik (hududiy mehnat taqsimoti) jarayonlar ham bo'lmasdi, tabiiy va iqtisodiy rayonlar shakllanmasdi, ularsiz esa geografiyaga ham o'rin yo'q.

O'tgan asrning 20-30 yillarida rus geosiyosatchilari "boquvchi landshaft" g'oyasini oldinga surgan edilar. Darhaqiqat, hozirgi ochiq, erkin iqtisodiyotda biror-bir landshaft turi yoki ma'muriy-hududiy tizim boshqalardan ajralgan, natural xo'jalik ko'rinishida rivojlana olmaydi. Shu bois ham tog' resurslari tekislikda qayta ishlanadi va bu mahsulotlardan tog'liklar ham foydalanadi. Ammo, bunday aylanma harakat, hamkorlik adolatli va ekologik jihatdan o'zaro manfaatli bo'lmog'i lozim.

Geografik jihatdan qaraganda tog'lar nafaqat maydonining nisbatan kichikligi bilan, balki landshaft va xo'jalik tarmoqlarining bir tomonlamaligi yoki cheklanganligi bo'yicha ham farq qiladi. Tog'larda asosan tog'-kon sanoati, rekreatsiya va turizm, yaylov chorvachiligi, terrasa shaklida qisman lalmikor dehqonchilik, bog'dorchilik rivojlanadi. Tekisliklar esa cho'l, o'zlashtirilgan vohalar, o'rmonzorlar va botqoqliklardan iborat. Tekislikda transport tizimi, ko'p tarmoqli qayta ishlash sanoati va dehqonchilik yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Tog' mintaqalarining ijtimoiy (sotsial) geografiyasi yanada o'zgacha. Tog'liklarga xos tanglik, harakatchanlik, mo'ljalli va tejamkor bo'lish, xushyorlik va tadbirkorlik mazkur hududda yashovchilarning hayot tarzi, turmush sharoiti, urf-odati, hulq-atvorini belgilab beradi. Shunga o'xshash mintaqaviy xususiyatlar, bu joylarnish betakror sotsial makonini (muhitini) yuzaga keltiradi. Tog'liklar, odatda, jismonan sog'lom, ixcham, chidamli, chaqqon, tirishqoq, har kandy vaziyatdan ham chiqa oladigan bo'ladi. Ayni vaqtda, tog'lar bu yerda yashovchilarni "yashiradi", yaxshi-yomondan saqlaydi, qo'riqlaydi. Shuning



38-rasm. Boysun – milliy qadriyatlar maskani

uchun bo'lsa kerak, olis tog' qishloqlarida ilgarigi tillar, shevalar, azaliy udumlar saqlanib qolgan. Masalan, Zarafshon daryosining yuqori qismida, hozirgi zamon sivilizatsiyasi madaniyatidan uzoqroq joylashgan qishloqda qadimgi sug'd tili saqlanib qolgan ekan, Surxondaryoning Boysuni (38-rasm), Qurama tog'larida yashovchilar esa o'zlarining qadimgi qo'shiq va raqslari, folklor ansamblari bilan mashhur.

Tog' mintaqalarida arzon ishchi kuchi ko'p, ammo dehqonchilik uchun yaroqli yer oz; infrastruktura tizimining yaxshi rivojlanmaganligi, ishlab chiqarishni hududiy tashkil etish imkoniyatlarining cheklanganligi (bu yerlarda qishloq va kichik shaharlar tor daryo vodiylari bo'ylab tasmasimon cho'zilib yotadi, yoki tog' yonbag'irlariga "yopishib" turadi, iqtisodiyot tarmoqlari ham yoppasiga emas, orolsimon joylashgan), o'ziga xos ijtimoiy va iqtisodiy geografik vaziyatni vujudga keltiradi. Tog' mintaqalari etnik jihatdan ham farq qiladi. Shu bois, Dog'iston ser millat, Tog'li Badaxshon (Pomir) ser elatdir. Ayni vaqtda tog'liklarning jangovorlik xususiyatlarini ham inkor etmaslik kerak. Marhum domlamiz professor Hamidulla Hasanov pushtunlarni jahonda tengi yo'q merganlar deb o'qitgan edilar. Chindan ham, tog' xalqi yoshligidanoq didli, tik tog' qoyalari, tor yo'llarida yurishga odatlanishadi. Tog'liklar hamma vaqt shoshilib, tez yurishga o'rganishgan.

O'zimizning sharq urf-odati bo'yicha tog'lar muqaddas, ularga diniy mazmun ham beriladi. *Qirg'izistondagi Sulaymon tog'i, Arslonbob, Tojikistondagi Qizilmozor-bobo, o'zimizdagi Oqsoqota, Sulton Uvays kabilar qadamjoy*, mahalliy xalqlarning ziyoratgohlari, sajdagohlari hisoblanadi. Tog' suvi zilol, havosi toza, osmoni musaffo, shundoqqina teppangizdagi yorqin yulduzlari charaqlab turadi.

Ammo, ko'pgina jahon mamlakatlarida aynan tog'liklarning yashash darajasi past; bu yerda yuzaga kelgan ijtimoiy tanglik, nochorlik kishilarni nihoyatda tejamkor bo'lishga undaydi, ularni hatto ba'zan jamiyat uchun xavfli

yo'llarga chorlaydi (*giyohvandlik ham asosan tog' mintaqalaridan kelib chiqqan*); oila a'zolarining ko'payishi bilan ularni boqish orasidagi muttanosiblik buziladi, dehqonchilik uchun yaroqli yerlarning tanqisligi aholining mutloq ko'pligini yuzaga keltiradi. Natijada ishsizlik, geokriminogen vaziyatning buzilishi kelib chiqadi, yoshlarning ish qidirib "pastga", tekislikka tushishi esa tog' mintaqalarinig demografik vaziyatini ham o'zgartiradi.

Ayrim davlatlarning chegaralari tog' tizmalari orqali o'tgan. Turli xil siyosiy vaziyatlarda ular mamlakatning "suyangan tog'i", umurtqa pog'onasi, mustahkam qalqoni, himoyachisi bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, hozirgi davrdagi aksariyat mojarolar, millatlararo kelishmovchiliklar aynan tog'li hududlarda kuzatilmoqda (*Bolqon yarim oroli, Afg'oniston, Tog'li Qorabog', Checheniston, Dog'iston, Janubiy Amerikaning ayrim mamlakatlari va h.k.*) Bunday joylar xalqaro terrorizmning ham o'chog'iga aylangan va bu o'choqlar olovi so'ndirilsa ham yana ancha vaqt "tutab" turadi. Yaxshi geosiyosiy vaziyatda esa avvallari mamlakat va mintaqalarni ajratib, to'siq bo'lib turgan tog'lar endigi sharoitda ularni bog'lovchi vazifasini bajarmoqda. Bu borada, ayniqsa "xalqaro" yoki mamlakatlararo tog' tizmalari muhim ahamiyatga ega. Zero, bu joylarda yirik, sho'x va sersuv daryolar shakllanadi, ulardan birgalikda foydalanish esa davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy integratsiya jarayonini rivojlantirishga imkon beradi.

Yaqin o'tmishda o'zimizning tog' hududlarimizda - Toshkent viloyati va Janubiy mintaqalardagi noxush voqealar tog'larni harbiy geografik jihatdan o'rganishning zarurligini ko'rsatib berdi. Chindan ham harbiylarimizning tog' sharoitida o'z vazifalarni ado etishlarida bunday bilimlar juda asqotadi.

Demak, tog'lar ularning mamlakat hududida qanday joylashuvi (*o'rtada, chetda, kenglik yoki meredian shaklda*), baland-pastligi, qari yoki yoshligi katta iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va geografik mazmun kasb etadi. Tog'larning harbiy-strategik ahamiyati ham sir emas, ular o'zlarining geologik xususiyatlariga ko'ra

turli xil ma'dan va mineral suvlarga boy. Shuningdek, mamlakatning orografik holati uning yagona geosiyosiy tizim shaklida rivojlanishiga ta'sir qiladi. Jumladan, Tojikiston va Qirg'iziston respublikalari hududiy-siyosiy tuzilishining o'ziga xosligi ularning janubiy va shimoliy qismlarini baland tog' tizmalari orqali ajralib turishi, bu mintaqalarning iqtisodiy va transport geografik o'rni, tarixiy va ijtimoiy rivojlanishi jihatdan ma'lum darajada farq qilishi bilan tavsiflanadi. Samarqandni Amir Temur davlatining poytaxti qilib olinishida ham qisman uning tog' etagida joylashganligi, harbiy va geostrategik mavqei sabab bo'lgan.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, tog' va tekislik bir juft, o'zaro aloqada; ularning har ikkisini ham ijobiy va salbiy tomonlari mavjud. Ammo, yer yuzida yomon joy yo'q, nodon geograf bor. Binobarin, tog' ham yaxshi, tekislik ham, ularning har ikkisi o'zgacha yaxshi. Geograflar bu rel'ef shakllariga bir xil, ya'ni teng, ularni kamsitmasdan qarashadi, ayni vaqtda ularning har xilligi, turli-tumanligi bu fanning mohiyat, mazmun va maqsadini aks ettiradi.

Ammo negadir tog'larga alohida urg'u beriladi. Masalan, tog' asali, tog' sporti, tog' turizmi, tog' qimizi, tog' kasalligi, tog' shamoli, tog' sanoati, tog' yili, tog' echkisi, tog' yalpizi, tog' dasturi va hokazolar bor-u, biroq ularning tekislikka oid aytilishi yo'q. Aslida olganda, tog' tushunchasi nisbiy; ehtimol nepalliklar uchun tog' bu Everest (Jomolungma) cho'qqisidir, shimoliy Yevropa, Belarusiya xalqi uchun esa oddiy tepalik ham tog'dir (*Yaponiyalik shahar deganda Tokioni tushunar ekan*).

Tog' va tekislik doimo hamkorlikda, tog' oralari soylaridan tekislik foydalanadi, soylarning quyi qismida voha va vohachaaar, ularning sig'imiga mos shahar va xo'jalik tiplari vujudga keladi. Bunga Farg'ona vodiysi yaqqol misol bo'la oladi.

Tog'lar yirik gidroenergetika manbaiga ega, ularda qator suv elektr stantsiyalari qurilgan. Jumladan, *dunyodagi eng yirik Itaypu GESi (quvvati 12*

mln.kvt) Braziliya va Paragvay chegarasida barpo etilgan. Venesuelladagi Guri GESi 10 mln, AQSH ning Gran Kuli GESi 9,7, Rossiyaning Sayan-Shushen GESi 6,3 mln kvt. quvvatga ega. Ularning barchasi tog' hududlarida barpo etilgan. Tog'larning, ajoyib manzarasi, tog' ko'llari, qor va muzliklari, sharsharalari, g'orlari, cho'qqilari, dorivor o'simliklari va boshqalar kishi e'tiborini o'ziga jalb qiladi.

Tog' landshafti yilning 4 faslida o'zgacha go'zal. Uning jozibali va dilkash



39-rasm. Tyanshan tog'lari, Qirg'iziston

ko'rinishi ayniqsa bahor va yoz oylarida kishiga orom, yaxshi kayfiyat, ko'tarinki ruh bag'ishlaydi, ilmiy ijod sohiblari uchun esa yangicha shavqu-zavq, ilhom beradi, fikrni uyg'otadi va charxlaydi (binobarin, "tog'larga boq tog'larga" deb bejiz qo'shiqda aytilmaydi), Dog'iston tog'lari Rasul Hamzatovni,

Qirg'izistonning tog'li hududi Chingiz Aytmatovni dunyoga mashhur etgan edi (39-rasm).

Tog', tog' landshafti, uning tik (vertikal) zonalarini qiyosiy geografik o'rganish buyuk nemis olimi A.Gumboldtning tabiiy geografiyaning asoschisi, Tangritog' esa P.P.Semenovni "Semenov-Tyanshanskiy"ga aylantirdi. Qizig'i shundaki, dunyo avval eniga, so'ngra bo'yiga - balandlik va chuqurlik tomon o'rganila boshlandi, balandlik, ya'ni tog'lardan keyin kishilar koinot sirlari bilan qiziqishdi. Bunday tadqiqotlar xususan Buyuk geografik kashfiyotlardan keyin, dunyoning barcha qismlari ochilgandan so'ng avj oldi.

Tog'liklar tekisliklarni o'zlashtirishda faol qatnashishdi, ammo bu yerda vujudga kelgan ekologik muammolarga ham "sherik" bo'lishdi. Hozirgi kunda

endi ular cho'llarning "sho'rini quritishmoqda". Sobiq sho'rolar davrida tog'larda kichik qishloqlar "istiqbolsiz" hisoblanib, ularning aholisi majburan tekisliklarga, urbanizatsiyalashgan hududlarga ko'chirildi. Ammo ko'p o'tmasdan ular yana tog' hayotini qumsab kindik qonlari to'kilgan joylariga qaytishdi.


Bir vaqtlar tog'lar sivilizatsiya markazi bo'lgan, bunga Markaziy va Janubiy Amerikadagi qadimgi mayya, ink, atsteklar madaniyati, Tibet tibbiyoti va boshqalar dalil bo'lishi mumkin. Qishloq xo'jalik ekinlarining dastlabki o'choqlari ham aynan tropik va subtropik o'lkalaridagi tog' hududlari bo'lgan (*Peru, Meksika, Efiopiya va b.*). Bizningcha, olamshumul (global) miqyosda taraqqiyot, sivilizatsiya deb atalmish madaniyat yana g'arbdan sharqqa, shahardan qishlokda, tekislikdan toqqa ko'chmoqda. Hozirgi avlod ana shunday o'zgarishlar boshlanishida yashamoqda.

Ta'kidlash joizki, tog'larning vertikal (tik) mintaqalari faqat tabiiy geografik mazmunga ega emas; turli xil balandliklarda xo'jalik turlari va ixtisoslashuvi, kishilarning hayot sharoiti va yashash tarzi ham har xil. Bunday umumgeografik qonuniyatlarni marhum professor R.Raximbekov bilan hamkorlikda yoritmoqchi edik, nasib etmadi (ammo ular albatta tadqiq etilishi kerak).

Keyingi yillarda sodir bo'layotgan Yer yuzi iqlimidagi o'zgarishlar, suv toshqinlari kabi tabiiy ofatlar tog'lar nufuzini yanada oshiradi. Biroq, tog'lar, tog'liklar o'zlarining muammolarini o'zlari hal etishga qodir emas, ular bu borada yordamga muhtoj va "muammoli hudud" hisoblanadi. Binobarin, tog'larning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, ekologik holatining yaxshilanishi davlatlarning alohida, maxsus mintaqaviy siyosatida ko'rilishi maqsadga muvofiqdir. Bu xususda avvalgi ilmiy anjumanimizda marhum professor A.Ro'zievning tog' taqdiri, dasturi haqida qayg'urishi, afsuski, uning so'nggi nidosi bo'ldi. Hozirgi kunda tog' mintaqalarini barqaror rivojlantirish, ularni asrab-avaylash, nozik tabiati va xalqiga to'g'ri munosabatda bo'lish nihoyatda zarurdir. Aynan ana

shunday olamshumul muammolar bizning yurtimiz – O‘zbekiston Respublikasi uchun ham dolzarbdir va ularni ilmiy asosda yechishda geograflarning o‘rni yuqori bo‘lmog‘i lozim.

Jinoyatchilik geografiyasining dolzarb masalalari Jinoyatchilik geografiyasi mamlakatimizda hozircha butunlay o‘rganilmagan yangi yo‘nalish



39-rasm. Geokriminogen vaziyatning hududiy xususiyatlari

bo‘lib, uning rivojlanishi iqtisodiy va ijtimoiy geografiya salohiyatini yanada ko‘taradi. Jinoyatchilik geografiyasi (JG) huquqshunoslik va xususan kriminologiya hamda geografiya qirrasidagi fandır. *U sotsial geografiyaning muhim bir qismi sifatida turli mamlakat yoki regionlarda sodir bo‘layotgan jinoyatchilikka ta’sir etuvchi shart-sharoitlar va omillar, kriminogen vaziyatning hududiy xususiyatlaririni o‘rganadi.* Bu yerda hududiy omillar joyning geografik o‘rni,

ijtimoiy-iqtisodiy tizimi va ixtisoslashuvi, geodemografik, etnik, sotsial va ekologik holatlardan kelib chiqadi (39-rasm).

Jinoyatchilik – eng avvalo sotsial hodisadir. Binobarin, uning hududiy jihatlari va qonuniyatlarini tadqiq qilish ijtimoiy geografiyaga, aniqrog‘i sotsial geografiyaga taaluqlidir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, jinoyatchilik muayyan sotsial muhit doirasida yuzaga keladi. Sotsial muhit, sotsium (kishilarning hududiy birligi) esa tabiiy va iqtisodiy muhit ta’siri asosida shakllanadi. Demak, JGni o‘rganish tadqiqotchidan huquqshunoslik, sotsiologiya, psixologiya, demografiya kabi fanlarni ham o‘z maqsadi doirasida bilishi talab etadi.

JGning obyektini ma'lum bir hududda yoki sotsial geografik tizimda mavjud bo'lgan jinoyatlar majmuasidir. *Uning predmeti esa, yuqorida ta'kidlaganimizdek, jinoyatchilikning hududiy tarkibi va tuzilishi, unga ta'sir qiluvchi omil va sharoitlarni tahlil qilish geokriminogen vaziyatning shakllanishi va rivojlanishi qonuniyatlarini aniqlashdan iboratdir.* Ko'rinib turibdiki, bu yerda so'z jinoyatchilik, uning yuzaga kelishi sabab-oqibatlarini to'g'risida bormaydi. Ushbu masalalar bevosita huquqshunoslik va uning tegishli kismida» tadqiqot doirasiga kiradi. JGning asosiy maqsadi esa jinoyat turlarining qayerda, qachon va nima uchun aynan shu joyda sodir bo'layotganini o'rganish bilan tavsiflanadi.

Umuman geografiya u yoki bu ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy xodisaga ta'sir etuvchi omil va sharoitlarini o'rganuvchi voqealarning hududiy jihatlari va tafovutlarini tahlil etuvchi fanidir. Aynan shu ma'noda geografik dunyoqarash, geografik fikrlash va geografik madaniyat ilmiy dunyoqarashning uzviy qismi shaklida namoyon bo'ladi. Madomiki, ma'lum bir voqealarning sababi hududdan, uning tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy tizimidan qidirilar ekan, geografik tahlil ilmiy deterministik yondashuv va keng ma'noda ekologik fikrlashga ham yaqin turadi.

JGning ham *bosh tushunchasi rayon, geokriminogen vaziyat, uning asosiy tamoyillari esa hududiylik va komplekslikdir.* Chunki, ma'lum hudud-joyda sotsial muhitda sodir bo'layotgan jinoyat turlari negizida faqat bir sabab yoki omil emas, balki qator sharoit va omillar majmui yotadi. Shu bilan birga muayyan ijtimoiy-iqtisodiy sharoit o'ziga xos jinoyatchilikning turi va tarkibiga ega. Binobarin, bu yerda ham murakkab borliqqa, shunga muvofiq ravishda kompleks yondashuv zarur.

Jinoyatchilikka va geokriminogen vaziyatga ta'sir qiluvchi omillari quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

❖ **Ijtimoiy-iqtisodiy omillar:** *hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darajasi, shaharlar turi va tizimi, katta-kichikligi, funksional*

tiplari, urbanizatsiya, ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi va mujassamlashuvi, transport markazlari va tugunlari;

❖ **Demografik va demogeografik omillar:** *aholi soni, o'sishi, joylanish xususiyatlari, migratsiyasi, jins va yosh, milliy tarkibi, bandlik darajasi, oila demografiyasi va mustahkamligi;*

❖ **Sotsial va ekologik omillar:** *aholining yashash sharoiti va tarzi (mentaliteti), sotsial muhit va joyning ekologik holati, mahalliy jjamoatchilikning faoliyati, oilaviy munosabatlari, aholi salomatligi va sog'liqni saqlash, ta'lim-tarbiya, sotsial infrastruktura tizimlarining rivojlanganlik darajasi, bo'sh vaqtdan foydalanish va h.k;*

Boshqa turdagi omillar: siyosiy vaziyat, joyning geosiyosiy o'rni, tabiiy ofatlar, diniy ekstremizm, transport vositalarini boshqarish, uy-joy sharoiti va boshqalar.

Yuqoridagi omil va sharoitlarni hisobga olgan holda jinoyatchilikni o'rganish shuni ko'rsatadiki, milliy iqtisodiyotning barqarorlashuvi va yuksalib borishi hamda davlatning so'nggi yillarda mamlakatimizda umumiy kriminogen vaziyat ancha yaxshilanmokda. Hozirgi bu sohadagi siyosati, jinoyatchilikka qarshi kurash va huquk-tartibot ishlari natijasida vaqtda ushbu holat ayniqsa Xorazm, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida nisbatan ijobiy. Shunindek, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Namangan viloyatida ham jinoyatchilik birmuncha ozroq. Ayni paytda, Toshkent shahri va poytaxt viloyatida bu ko'rsatkich sezilarli darajada yuqori. Masalan, 1998 yil ma'lumotlariga qaraganda, mazkur hududlar mamlakat aholisining 18,6 foizini mujassamlashtirgan holda sodir bo'layotgan jinoyatlarning (jinoyat qidiruv yo'nalishi bo'yicha) 37,2 foizini beradi. Aytish joizki, Sirdaryo va Navoiy viloyatlarida ham kriminogen vaziyat uncha yaxshi emas.

Qayd qilingan jami jinoyatlarning to'rtidan uch qismi jinoyat qidiruv yo'nalishi sohasidagi shaxsning hayoti yoki sog'lig'i, jinsiy erkishshgi, ozodligi, sha'ni va qadr-qimmat, mulkiga, jamoat xavfsizligi va tartibiga, transport xarakati va undan foydalanish xavfsizligiga qarshi, giyovandlik moddalari yoki psixotrop moddalari bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat bo'lgan jinoyatlar tashkil etadi.

Toshkent viloyatida jinoyatchilikning nisbatan ko'pligi qator sabablar bilan izoxdash mumkin. Jumladan, poytaxt viloyatida sanoat ancha rivojlangan, urbanizatsiya darajasi yuqori. Bu yerda Chirchiq, Angren, Olmaliq, Bekobod, Ohangaron singari sanoat markazlari mavjud. Shuningdek, yirik Toshkent shahri va uning aglomeratsiyasining ta'sirini ham unutmash lozim. Toshkent viloyati etnik jihatdan rang-barang, bu yerda turli millat vakillari - o'zbeklar bilan bir qatorda rus, qozok, tatar, tojik, koreys va boshqalar yashaydi.

JG nuqtai nazaridan ushbu hodisani viloyat shahar joylari va qishlok tumanlari doirasida o'rganish muhimdir. Odatda, shaharlarning kriminogen vaziyati qishloq joydagiga ko'ra vazminroq. Bu borada shahar va qishloqlarga mos jinoyat turlari mavjud. Masalan, shaharlarda ko'proq xonadonlardan sodir etilgan o'g'irliklar, tovlamichilik, talonchilik, giyovandlik, qasddan badanga og'ir shikast yetkazish jinoyat turlari, qishloqlarda esa oldingi o'rinlarda mol o'g'irligi, odam halokatiga olib kelgan yo'l transport xodisalari, bezorilik, nomusga tegish turadi.

Jinoyatchilikni geografik tadqiq etishda uning turlariga qarab shahar va tumanlarni guruhlash, shuningdek har bir hududiy birlik doirasida jinoyatchilikning tarkibiy tuzilishini tahlil qilish mumkin. Shu asosda shahar va qishloq joylarning bu yo'nalishdagi tiplari aniqlanadi. Ayni paytda turli yiriklikdagi va har xil funksional tipdagi shaharlarga xos bo'lgan turlarini o'rganish, qishloq va shahar joylarga xos bo'lgan kriminogen holatni belgilash ham katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, jinoyat qilgan shaxslarning yosh va jinsiy tarkibi, millati, ma'lumoti va mehnatga munosabati, sudlanganlik miqdori, ijtimoiy ahvoli kabi masalalarni o'rganish ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak. Demak, bu yo'nalishdagi tadqiqotlarning asosiy maqsadi jinoyatchilikning oldini olish va sodir bo'lgan sotsial patologik holatlar sabablarini ham jihatdan ochib berishdan iborat bo'lmog'i lozim.

Ushbu tadqiqotlar natijasida jinoyatchilikning hududiy markaz va areallari, geokriminogen vaziyat aniqlanadi. Chunonchi, maxsus kartalarda aks ettirish esa huquq-tartibot tashkilotlarning faoliyatini yaxshilashga, ijtimoiy sog'lom hayotni yaratishga yordam beradi.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Iqtisodiy geografik tadqiqotlarda tabiiy geografik omillar yohud geografik sintez haqida gapirib bering?
2. Iqtisodiy geografik va tabiiy geografik tadqiqotlarning umumiyliigi va geografik sintez nima?
3. Tog' mintaqasining iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi o'rganish obyekti va predmeti nimalardan iborat?
4. Jinoyatchilik geografiyasining dolzarb masalalarini tushuntiring?
5. Jinoyatchilikka va geokriminogen vaziyatga ta'sir kiluvchi omillari quyidagi guruhlarga ajratish mumkin?

MAVZUGA DOIR ASOSIY TUSHUNCHALAR

Jinoyat – ijtimoiy xavfli qilmish bo'lib, faoliyatning ijtimoiy xavfliligi, aybning avjudligi, jazoga sazovorligi uning asosiy jihatlari hisoblanadi.

Jinoyatchilik – eng avvalo sotsial hodisadir. Binobarin, uning hududiy jihatlari va qonuniyatlarini tadqiq qilish ijtimoiy geografiyaga, aniqrog'i sotsial geografiyaga taaluqlidir. Shunuqta nazardan qaraganda, jinoyatchilik muayyan sotsial muhit doirasida yuzaga keladi. Sotsial muhit, sotsium (kishilarning hududiy birligi) esa tabiiy va iqtisodiy muhit ta'siri asosida shakllanadi. Demak, JGni

o'rganish tadqiqotchidan huquqshunoslik, sotsiologiya, psixologiya, demografiya kabi fanlarni ham o'z maqsadi doirasida bilishi talab etadi.

Kriminologiya (lotincha, “crimen” – jinoyat) – jinoyatlarning vujudga kelish sabablari va ularning yechimi bilan shug'ullanadigan soha.

Jinoyatchilik geografiyasi– jinoyatchilik geografiyasi mamlakatimizda hozircha butunlay o'rganilmagan yangi yo'nalish bo'lib, uning rivojlanishi iqtisodiy va ijtimoiy geografiya salohiyatini yanada ko'taradi. Jinoyatchilik geografiyasi (JG) huquqshunoslik va xususan kriminologiya hamda geografiya qirrasidagi fandır. *U sotsial geografiyaning muhim bir qismi sifatida turli mamlakat yoki regionlarda sodir bo'layotgan jinoyatchilikka ta'sir etuvchi shart-sharoitlar va omillar, kriminogen vaziyatning hududiy xususiyatlarini o'rganadi.*

Korrupsiya – (lotincha, corruptio — “aynish”) — bu mansabdor shaxsning o'z mansabi bo'yicha berilgan huquqlarni shaxsiy boyish maqsadlarida bevosita suiiste'mol qilishidan iborat amaliyot.

Multikulturalizm -Tor ma'noda - muayyan mamlakat yoki mintaqadagi madaniy farqlarni saqlab qolish, uning madaniy va huquqiy xilma-xilligini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, bunday siyosatning nazariy va mafkuraviy asoslarini ta'minlashga qaratilgan siyosat. Keng ma'noda - umuman olganda madaniy xilma-xillikning sinonimi, muayyan mamlakat yoki mintaqadagi ko'p madaniyatli vaziyat; turli madaniyatlarning bir hududiy jamoa ichida, odatda, etnik, til yoki konfessiyali sharoitlarda bir-birlari bilan birga yashashi va o'zaro ta'siri.

Avtonomizm – bu suveren davlat hududining bir qismidan ajralmasdan mustaqillik darajasini qonuniy ravishda rasmiylashtirishni maqsad qilgan siyosiy harakat. U asosan siyosiy partiyalar tomonidan taqdim etiladi (masalan Yangi Flamand ittifoqi, Bask millatchilar partiyasi) Bu ko'rinishlar separatizmning g'ayriinsoniy shakli hisoblanadi.

Dinlar geografiyasi – bu ijtimoiy geografiyaning mustaqil yo'nalishi bo'lib, tarixiy va madaniy geografiyaning tarkibiy qismi sifatida insonning diniy qarashlarini va dinlarning kelib chiqishi, tarqalish jarayonlarining hududiy xususiyatlarini o'rganadigan fan hisoblanadi.

Ekstraditsiya – bu davlatlarning jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi xalqaro hamkorligining shakli. Bu jinoyat sodir etishda gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan shaxsni yoki sudlangan jinoyatchini hibsga olish va bir davlatdan boshqasiga (uning iltimosiga binoan) topshirishdan iborat.

11 – MAVZU

GEOGRAFIYADA XULQ-ATVOR INQILOBI

Maqsad: Xulq – atvor va inson xarakteriga ta'sir etuvchi omillar hamda uning hududiy xususiyatlarini yoritib berish.

Tayanch so'z va iboralar: bixeviorizm, xulq-atvor geografiyasi, intuitsiya, zehn va fe'l-atvor, madaniyat, axloqiy muhit, sotsial makon, ta'biy sharoitning inson ruhiy shakllanishidagi ahamiyati.



REJA:

1. Xulq – atvor geografiyasining o'rganish obyekti va predmeti
2. Inson ongining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar
3. Veniamin Petrovich Semenov Tyanshanskiyning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning rivojlanishiga qo'shgan hissasi
4. Inson xulq – atvori, urf – odatlari, yurish – turishi va ruhiy kechinmalarining hududiy tafovutlari
5. Vaqt va makon geografiyasi
6. Sotsial muammolarni geografik o'rganish. Qashshoqlik geografiyasi.



Insonning mohiyati va jamiyatda tutgan o'rni, o'zini tutishi, ruhiyati fanlar doirasida keng o'rganiladi. Turli ilmiy va diniy taolimlarda bu masalalar turlicha talqin etib kelingan. Shunday bo'lishi tabiiy, chunki inson ijtimoiy-tarixiy va madaniy mavjudot sifatida har bir yangi tarixiy-geografik sharoitda o'zligini teranroq anglashga, yangidan yangi shart-sharoitlarga chuqurroq moslashishga, insoniy mohiyatini ro'yobga chiqarishga intilaveradi.

Suqrotning – *o'zingni angla*, degan hikmatli so'zi ham har bir tarixiy davrda yangicha ahamiyat kasb etadi. Zero, insonda butun olam va jamiyatning mohiyati mujassamlashgan. Ulug' mutasavvuf Abdulxoliq G'ijduvoni insonni «kichik olam» deb hisoblagan. Yuqoridagi fikrlar kengroq mushohada qilinsa, ularning tub

mohiyati insonning xulq-atvori, ruhiyati, yurish-turishi bilan ko'proq aloqador ekanligi ko'zga tashlanadi.

Inson – o'zida biologik, ijtimoiy va ruhiy xususiyatlarni mujassamlashtirgan ongli mavjudotdir. Uning biologik xususiyatlariga ovqatlanish, himoyalanih, o'zidan zurriyot qoldirish, sharoitga moslashish kabilar xos bo'lsa, sotsial xususiyatlariga til, muomala, bilim, ong, mahsulot ishlab chiqarish, taqsimlash, isteomol qilish, boshqarish, o'z-o'zini idora etish, badiiy ijod, axloq, nutq, tafakkur, qadriyatlarni kiritish mumkin.

Inson shu xususiyatlari orqali yaxlit bir tizimni tashkil etadi. U mukammal va murakkab mavjudot sifatida o'z ehtiyojlarini qondiradi va insoniyat davomiyligini taominlaydi. Shu bos, insonga xos bo'lgan biologik xususiyatlarni ijtimoiy xususiyatlardan ustun qo'yish yoki ruhiy xususiyatlarni bo'rttirish uning mohiyatini buzib talqin etishga, bir yoqlamalikka olib keladi.

Insonning ruhiy xususiyatlariga ruhiy kechinmalar, hayratlanish, g'am-tashvish, qayg'u, iztirob chekish, zavqlanish, kayfiyat va boshqalar kiradi. Aynan, ana shu holatlarga atrof-muhitning ta'siri va uning hududiy jihatlari **xulq-atvor geografiyasi** tomonidan o'rganiladi.

Bixeviorizm – inson xulq-atvorining xilma-xil jihatlarni o'rganuvchi ilmiy qarashlar majmui bo'lib, kishilarning tabiiy va sotsial muhitga moslashuvi, ularning aqli va xatti-harakatlariga muhitning ta'sirini o'rganadi. Insonning ruhiy xususiyatlariga ruhiy kechinmalar, hayratlanish, g'am-tashvish, qayg'u, iztirob chekish, zavqlanish, kayfiyat va boshqalar kiradi. Aynan, ana shu holatlarga atrof-muhitning ta'siri va uning hududiy jihatlari **xulq-atvor geografiyasi** tomonidan o'rganiladi.

Ta'kidlash joizki, bu boradagi izlanishlar ancha ilgari buyuk mutaffakkir olimlar asarlarida batafsil yoritib berilgan. Jahon tibbiyotida o'chmas iz qoldirgan mashhur yunon olimi Gippokrat (mil.avv. 460-377-yy.) ham inson ruhiyatida

tashqi muhit ta'sirini alohida uqtirib o'tgan. Gippokrat tabib va sayyoh edi, ya'ni u ko'p sayohat qilar, turli mamlakatlarda bo'lar ekan, u o'sha yerlardagi odamlarning turmush tarzi va urf-odatlarini, davlatlarning iqlimi, suvi, havosi va boshqa tabiiy sharoitlarini inson ruhiyatiga ta'sirini ham o'rgangan. Gippokrat har xil geografik sharoitlarda turlicha odamlar yashashlarini ko'rdi, ularning o'z tana tuzilishlari, yurish-turishi bilan farq qilishlarini aniqladi.

Olim bu haqda *“Havolar, suvlar va joylar”* nomli asarida shunday degan edi: “Odam organizmining tabiatini tashqi muhit belgilaydi. Jamiyat esa o'z qonun-qoidalari bilan odam tabiatini o'zgartirishi mumkin”. Bundan shuni e'tirof etish mumkinki, Gippokrat inson organizmiga ijtimoiy muhitning ta'sirini ham yaxshi anglagan. Jumladan, Beruniy o'zining *“Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”* asarida birinchi bo'lib odam rangi, qiyofasi, tabiati va axloqi turlicha bo'lishini ular yashaydigan tuproq, suv, havo va yerga ham bog'liqligini ta'kidlab, geografik aloqadorlik g'oyasini ilgari suradi. Beruniy fikricha, inson ichki va tashqi qiyofasi tabiat ta'sirining natijasidir. Shu bilan birga, uning ichki qiyofasi cheksiz saoy-harakatlar oqibatida tubdan o'zgartirishi mumkin. Har bir kishi o'z xulq-atvorining sohibi ekanligi olim fikrlarida chuqur mushohada qilingan.

Shuningdek, vatandoshimiz Abu Ali ibn Sino issiq o'lkalar tabiati va ularning inson jismiga ta'siri haqidagi fikrlarni o'z asarlarida ham uchratish mumkin. Chunonchi, u issiq o'lkalarda odam tanasining qoramtirliigi, sochlarining jingalakligi, havoda namlikning ko'p bug'lanishi natijasida keskin kamayib ketishi inson jismining tez qarishiga olib kelishini ta'kidlagan edi. Olim pastlikda joylashgan hududlar aholisining doimiy issiqlik va dimlikda yashashlari, bunday o'lkalarda sho'rxok va botqoqliklarning ko'pligi sababli suvlar tarkibi ham salbiy xususiyatlarga ega ekanligini batafsil yoritib bergan. Bunday hududlar aholisi ruhiyatida jizzakilik, jahldorlik birmuncha yuqoriligini ta'kidlab o'tadi.

V.P.Semyonov-Tyanshanskiy Rossiya antropogeografiyasining eng yirik namoyondasi sifatida geografiya fani – koʻrish, tasavvur qilish, koʻrish xotirasi orqali egallanadigan fan, deb taoriflaydi. Koʻpgina sohalardagi kabi geografiyada “intuitsiya” muhim oʻrin egallaydi. Aynan, intuitionsiya xuddi sanoatdagi singari geografiya fanini aniqlikka yetaklaydi, deya taokidlaydi. Ushbu fikrlar esa xulq-atvor geografiyasining asosiy gʻoyalaridan biridir.

Xulq-atvor geografiyasi bilan bogʻliq tadqiqotlar Rossiyada ilk marta 1940-1950-yillarda olib borilgan va bunda aholi migratsiyasi bilan bogʻliq ilmiy ishlarda mazkur sohaga doir maolumentlarga zarurat tugʻildi. Chunonchi, L.I.Mechnikov insoniyat tarixida turli tabiiy geografik omillar taʼsirini oʻrganib, buyuk daryolar sivilizatsiyasi yoki daryo madaniyati kontsepsiyasni yaratdi. E.F.Zyablovskiy oʻz fikrlarida koʻproq xulq-atvor geografiyasi atamasi oʻrnida urf-odat geografiyasi atamasini qoʻllashni lozim deb bilgan. E.G.Milyukov jinoyatchilik bilan bogʻliq masalalar ham, aynan, xulq-atvor geografiyasi tomonidan oʻrganilishi zarurligini uqtirib oʻtgan. B.B.Rodoman, V.L.Kaganskiy singari olimlar zehn va feol-atvor landshaft muhitiga, ayniqsa, madaniy landshaftlar bilan aloqadorligi borasida oʻz fikr-mulohazalarini bildirdi.

Taʼkidlash joizki, tuproqning turli, hatto, siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy xususiyatlariga oʻz davrida Fridrix fon Rattsel va Vidal de la-Blashlar ham eotibor qaratishgan. *Jumladan, Blash: “Inson – tuproqning ishonchli oʻquvchisidir. Binobarin, uni oʻrganish aholining xarakteri, urf-odati kabi holatlarini aniqlashga yordam beradi”*, degan edi.

XIX asrning oxirlarida Germaniyada F.Rattsel tomonidan antropogeografiyaga asos solindi. Olim gʻoyasining negizida geografik determinizm, yaʼni inson, xalqlarning ruhi va jismiga tabiiy muhitning hal qiluvchi taʼsir etish gʻoyasi yotgan edi. Mazkur gʻoya asosida keyinchalik xulq-atvor geografiyasi shakllandi. F.Rattsel oʻz qarashlarida muhitning ijtimoiy hayotimizga

ta'sirini to'rt turga ajratadi va bunda tabiiy hamda psixologik ta'sirni alohida ta'kidlab o'tdi.

U.Kirk o'z qarashlarida "axloqiy muhit" tushunchasini izohlab o'tadi. Muayyan hududlarda yashayotgan insonlarning madaniyatlilik darajasi ularning nigohlarida nomoyon bo'ladi. Xuddi shunday jinoyatchilar qilmishlari ham ularning ko'z qarashlarida, nigohlarida o'z aksini topishi olim tomonidan e'tirof etilgan.

Shuningdek, u har bir joy aholisi o'z o'lkasiga nisbatan o'zgacha mehr-muhabbat hissini tuyishi, jumladan tog'li hududlar aholisi ko'proq tog'larga sig'inishi, tog'larga hurmat-ehtirom bilan qarashsa, sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi xalqlar ko'proq daryolarni (Nil, Gang va h.) ilohiyashtirishlari haqida o'z ilmiy qarashlarini bildirgan. Chindan ham joylarning inson ruhiyatiga, axloqiy jihatlariga ta'siri katta. Bu esa o'sha joyda yashovchi kishilar orasida jinoyatchilik yoki axloqiy meoyorlar bilan bog'liq nomutanosibliklarni oldini olishga yordam beradi. Binobarin, ayrim manbalarda xulq-atvor geografiyasi *joyning aqliy suratini* anglatuvchi tushuncha sifatida ham qaraladi.

Xulq-atvor geografiyasi borasidagi tadqiqotlarda makon bilan bog'liq ramziy jihatlariga alohida e'tibor qaratiladi. Bunda:

✚ joyning (muhit) muhim ramziy belgilari sifatida: qorli, yomg'irli, shamolli, tumanli, shovqini va boshqa jihatlari muhim o'rin egallaydi;

✚ joy tavsifi mohiyatiga ko'ra: muqaddas joylar, moda markazlari, musiqa madaniyatining markazlari va h.k.

Aytish o'rinliki, xulq-atvor geografiyasi – iqtisodiy va ijtimoiy geografiya borasidagi tadqiqotlarning noanoanaviy jihatlarini o'zida jamlaydi.

Unda hududlar (makon, manzil) quyidagicha talqin etiladi:

➤ **Sotsial makon** – insonni o'rab turgan tabiiy va madaniy muhit bilan munosabatlarini (anglash va xulq-atvor) namoyish qilish xususiyatidan

shakllanadigan makon. Insonlar istiqomat qiladigan hudud – sotsium, jamoa ehtiyoj va zarurlari natijasida shakllanadi.

➤ **Shaxsiy makon** – insonlar tanasi atrofidagi boshqa odamlardan ajratib turuvchi chegaraviy ko'rinmas hudud hisoblanadi.

Xulq-atvor geografiyasidagi insonlar yashash tarzi, yurish-turishi shakllanadigan makonlar, ya'ni hududlar bir necha turlarga ajratiladi:

❖ **asosiy makon** – insonning o'z shaxsiy ehtiyojlarini amalga oshiruvchi, hayotiy faollik darajasi yuqori bo'ladigan, xavfsizlik vazifasini o'tovchi hudud;

❖ **ikkilamchi makon** – sotsial hududlar (guruhlar). Bunda bir xil o'xshash hodisalar ko'zga tashlanadi, hayotiy faollik darajasi ancha past, xulq-atvorida ochiq munosabatlar ko'zga tashlanadi;

❖ **jamoaviy makon** – sotsial huquq va meoyorlar amal qiladigan, yurish-turishda chegaradan chiqmaydigan, istalgan kishi foydalanadigan, vaqtinchalik hudud.

Xulq-atvor geografiyasidagi muhim tushunchalardan biri – **bixeviorizm** tushunchasi bo'lib, u inson xulq-atvorining xilma-xil jihatlarini o'rganuvchi ilmiy qarashlar majmuidir. Shuningdek, u kishilarning tabiiy va sotsial muhitga moslashuvi, ularning aqli va qilmishlariga bunday muhitning ta'sirini o'rganadi. Muhit bilan bixeviorizm birgalikda, xulq-atvor geografiyasi mazmun-mohiyatini tashkil qiladi.

Inson xulq-atvori, urf-odatlari, yurish-turishi va ruhiy



40-rasm. Yoshlar xulqidagi salbiy munosabat

kechinmalari ham hududiy tafovutlarga ega. Chunki, hududlar o'z iqlimi, reliefi,

suv va tuprog'i, iqtisodiy-ijtimoiy jihatlari bilan o'zaro farqlanadi. Ularning barchasi kishilar xulq-atvorining hududiy tomonlarini va uning geografik xususiyatlarini izohlab beradi. Inson xulq-atvori va dunyoqarashiga tabiat ta'siri haqida ko'plab g'oya va qarashlar bor (40-rasm).

2-jadval

Tabiiy sharoit bilan inson xarakterini bog'liqligi haqidagi g'oya mualliflari

Xulq-atvor va dunyoqarash shakllanishini baholovchi g'oyalar		
determinizm	possibilizm	envayronmentalizm
K.Ritter, F.Ratsel, G.Bokl, E.Reklyu, Sh.Monteske, L.Mechnikov, Lao Szi, Konfutsiy, Demokrit, Gippokrat, Platon, Aristotel, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Jan Boden	Videl de la-Blash, Emanuel Marton, Albert Demanjon	Ellen, Cherchill Sempl, Elsvord Xentington,

Inson xulq-atvorining shakllanishining tabiat kuchlari bilan bog'liqligini ko'pchilik olimlar o'rgangan (2-jadval).

Ijtimoiy falsafaga doir fikrlar rivojida o'ziga xos ahamiyatga ega taolimotlardan biri **geografik determinizm** (lotincha, ta'sir etmoq)dir. Ushbu yo'nalish vakillari jamiyatni tahlil qilishda tabiiy muhitning ustivorligiga tayanadilar.

Geografik muhit deganda, tor maonoda o'ziga tabiatning jamiyat hayotiga, avvalambor, ishlab chiqarish jarayoni amalga oshadigan qismini o'zida mujassamlashtirgan muhit tushuniladi.

Ijtimoiy taraqqiyotda jamiyatni o'rab turgan tabiiy borliqning ahamiyati va mohiyatining muhimligi faylasuflar tomonidan allaqachon isbotlab berilgan. Lao Szi yozgan edi: «Inson uchun naomuna yerdir. Yer uchun namuna osmondir.

Osmon uchun namuna yo'ldir». Inson uchun namuna o'z-o'zidan ro'y beruvchi tabiiylik».

Markaziy Osiyolik mutafakkir Beruniy fikrlariga ko'ra, «*Odamlar tuzilishlarining rang, surat, tabiat va axloqda turlicha bo'lishi faqatgina nasablariga bog'liq emas, balki tuproq, suv, havo va yashayotgan joylarning turlicha ekanligiga ham bog'liq. Hatto tillarning turlichaligi ham geografik shartlarga bog'liq*». Jan Boden Ta'kidlashicha, jamiyat inson xohishidan tashqarida, tabiiy ravishda, tabiat qonunlariga bo'ysungan holda shakllanadi va rivojlanadi.

Geografik determinizmning nazariy asosi va bunyodga kelishi fransuz faylasufi Sharl Monteske (1689-1755) nomi bilan bog'liq,. U shunday deb yozgan edi: «*Iqlim hukmronligi barcha hukmronlikdan ustundir*», «*issiq; iqlim xalqlari qariyalardek sust, sovuq qalqlar esa yoshlardek harakatchandir*» va hokazo. Biroq u vaqt o'tishi bilan ijtimoiy omillarning ham ta'siri kuchayishini ham inkor etmagan: «*Yovvoyilarni deyarli har doim tabiat va iqlim boshqaradi, lekin odamlar mehnat va foydali qonunlar yordamida yerni yashash uchun yana ham yashash uchun qulay qilib olganlar*».

Geografik determinizm va boshqa tadqiqodchilar izlanishlarida yanada rivojlantirildi. Masalan, T.G.Bokl (1821-1862)ning Ta'kidlashicha, agar biz qaysi bir fizik detallar insoniyatga eng kuchli ta'sir ko'rsatshini aniqlamoqchi bo'lsak, ularni biz quyidagi to'rt guruhga ajratishimiz qiyin emas, ya'ni: iqlim, ovqat, yer va tabiatning umumiy ko'rinishlari. Tadqiqotchilar taniqli sayohatchi geograflarning asarlari o'sha vaqtdagi rus klassik geosiyosati rivojiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan muhim manbalardan biri bo'lgan, deb hisoblaydilar. Ular orasida taniqli rus geograf olimi va sayohatchisi **A.I.Voeykov**ning "*Tinch okeani Yer kurrasining asosiy dengiz yo'li bo'ladimi?*".

Atoqli sayohatchi, geograf va demograf V.P.Semenov Tyanshanskiyning *“Evropa xalqlarining mustamlaka harakatida Rossiyaning roli”* asarlari rus geosiyosiy maktabigina emas, balki umuman jahon klassik geosiyosatining shakllanishida asos va muhim manba bo’lib xizmat qildi. Ular geosiyosatning markaziy masalalaridan biri – davlatning hududiy rivojlanishi nazariyasini ishlab chiqdilar va Rossiya misolida uning tavsifini berdilar.

Veniamin Petrovich Semenov Tyanshanskiy (1870-1942) mashhur sayyoh, geograf va demograf Petr Petrovich Semenov Tyanshanskiyning o’g’li edi. Siyosiy geografiyaga oid va 1915-yilda chop etilgan *“Rossiyaga tatbiqan qudratli hududiy egalik to’g’risida”* nomli asarida muallif ko’pgina geografik va geosiyosiy masalalarni tadqiq qildi. Bu masalalar XX asr oxirida butun jahonda katta qiziqish uyg’otdi. Uning Rossiyaning tabiiy chegaralari haqidagi mulohazalari o’sha davr geosiyosiy manzarasining muhim jihatlarini aks ettirdi va tavsiflab berdi. Bu yerda insonning o’rinlashish va yashash sharoitlarining torayishi, migratsiya, stixiyali o’rinlashish va favqulodda ko’chishlar, tabiiy chegaralar, Tinch okeanidan tashqari maydonlarda insoniyat rivojining asosiy ko’rsatkichlari va boshqa masalalar bayon etilgan.

Semenov Tyanshanskiy o’z asarida geografik sharhlar berar ekan, ko’p jihatdan nemis geosiyosatchisi Rattselning *“hayotiy makon”* naariyasiga asoslandi. Lekin uning *“zaruriy makon va katta hududlarning shakli haqida”* ilgari surgan tushunchalari olimning original va chuqur o’ylangan, tamomila yangi geosiyosiy kategoriyalari bo’ldi.

Insoniyatning ibtidoiy makoni shart-sharoiti, inson rivojida muzlik davrining ahamiyati muammolarini, Yer yuzidagi uchta o’rta dengiz va okeanga kechuv sistemasi, siyosiy qudratning hudud omili – halqasimon, dengizdan dengizgacha bo’lgan va to’p-to’p shakldagi hududlar va ulardan foydalanishning natijalari va

shu kabi geografik (geosiyosiy) tushunchalarni Semenov Tyanshanskiy jahonda ilk o'laroq sharhlab berdi.

U Yer yuzasining ekvator va shimoliy kenglikning 45-darajasi orasidagi zonani (bu zonada uchta ulkan okean qo'ltig'i joylashgan) alohida ajratib ko'rsatdi va ularni tavsiflab berdi. Geograf olim bu yerda, uchta o'rta dengiz atrofida va ular orasidagi yarim orollar (Hindiston, Kichik Osiyo va Arabiston)da yanada kuchliroq va original sivilizatsiyalar hamda oriy-semit, mo'g'ul-malay, atstek-inklar davlatchiligi shakllandi, deb yozgan edi. Muallifning fikricha, ayni vaqtda boshqa hududlarda yashagan zaif toifalar va irqalar hali hanuz neolit asrida qolgan edilar.

Semenov Tyanshanskiy ayni o'rta dengizlar mintaqasida sivilizatsiya va diniy tizim tezroq shakllangan, deb hisobladi. U kelgusida ayni vaqtda bu uchchala dengizni nazorat qila biladigan davlat jahonda hukmron bo'ladi, deb qayd qilgan.

Semenov Tyanshanskiy, shuningdek, sayyoraviy miqyosda hududlarni geosiyosiy nazorat etishning tarixan shakllangan uchta sistemasini ajratib ko'rsatdi. Uning fikricha, bular quyidagilardir:

Birinchi sistema – halqasimon – o'rta dengizlarda vujudga kelgan va quruqlikdagi davlatlarni – metropoliyalar tarkibida birlashtirgan. Bu sistemada hukmron davlatning quruqlikdagi yerlari halqasimon shaklda bo'lib, ichki dengiz makonini nazorat qilish imkoniga molik edi. U yunonlar, karfagenliklar, venetsiyaliklar va genuyaliklar yashagan hududlarni dengiz halqasi sirasiga kiritdi. XVII asrda shvedlarning va XIX asrda Napoleon I ning bu halqalarni egallashga uringanini muallif ularning jahonda hukmronlikni qo'lga kiritishga intilishi bilan izohlaydi.

Ikkinchi sistema – to'p-to'p shaklli hududlar, ular yevropaliklar tomonidan Buyuk geografik kashfiyotlar davrida barpo etilgan. Bandargohlar, aholi yashash joylari va harbiy bazalar barcha dengizlar va okeanlarda eng muhim strategik yerlarda joylashgan va jiddiy muhofaza etilgan. Oldiniga portugallar, ispanlar,

gollandlar va fransuzlar foydalangan bu sistemani XIX asrda inglizlar yanada rivojlantirdilar. To'p-to'p shakldagi mudofaa sistemasini ular bufer davlatlarning harbiy imkonlari va muhim mudofaa elementlari bilan to'ldirdilar. XX asrda ikkita ulkan davlat SSSR va AQSh uni amalga oshirishga harakat qildi.

Uchinchi sistema – hududlar ustidan geosiyosiy nazorat etishning kontinental sistemasidir. Muallifning aytishicha, agar hukmron davlatning yerlari “dengizdan dengizgacha” uzluksiz davom etgan bo'lsa, u holda kontinental sistema yaratilishi mumkin. Bu sistemani yaratishda ruslar va amerikaliklar eng ko'p muvaffaqiyatga erishdilar. Semenov Tyanshanskiy rus kontinental sistemasining ijobiy va salbiy jihatlari tahlil etar ekan, hududning haddan tashqari uzunligi, uning yaxshi rivojlangan markazga va nisbatan qoloq mustamlakaga ajralganligi mazkur sistemaning asosiy kamchiligidir, deb hisoblagan.

Olimning fikricha, mintaqalarni iqtisodiy jihatdan mamlakat markazinikiday rivojlantirish, aholi zichligini ham o'shanday darajaga ko'tarish mamlakatni barqaror va davomli rivojlantirishning yagona vositasidir. Bu ishni ikkita usul: *birinchidan*, markazni Yekaterinburgga ko'chirish, *ikkinchidan*, Osiyodagi viloyatlarda jadal madaniy-iqtisodiy rivojlantirish anklavlarini barpo etish bilan amalga oshirish mumkin. Olim Ural, Yenisey guberniyasining tog'liq qismi bilan birga Oltoyda, Yettisuv orasi bilan birga tog'li Turkistonda, Boyko'l atrofida ham ana shunday bazalarni bunyod etish zarur, deb hisobladi. Rossiyaning iqtisodiy, ijtimoiy, demografik qiyinchiliklarini hisobga olgan holda, olimlar XXI asr boshida ham Semenov Tyanshanskiyning takliflarini tadqiqotchilar juda yuksak baholamoqdalar. Rossiyada keng hudud sohalarining shakllari haqida ham juda jiddiy fikr yuritgan Semenov Tyanshanskiy “dengizdan-dengizgacha” hudud sistemasining kamchiliklarini, davlat markazi uning geografik markaziga yaqin joylashishi kerakligi, Rossiyaning Osiyo va Yevropa qismlariga bo'linishi

xususiyatlarini, yangi hududlarni o'zlashtirish uchun madaniy-iqtisodiy va harbiy bazalarning roli masalalarini yoritib berdi.

Semenov Tyanshanskiy 1916-yilda chop etilgan *“Insoniyatning Yevrosiyoda yerlashuvi va slavyanlarning tabiati haqida geografik mulohazalar”* asarida shuni qayd qildiki, Yer sathi shakllarining geografik hodisalari bilan astrogeografiya hodisalari orasida o'xshashlik mavjud. Shundan keyin u qiziq fikrni o'rtaga tashlaydi: *“Insoniyatning tadrijiy yaratilishi qabilalarning geografik jihatdan keng hududlarga yoyilishini, xorijiy istilolar bo'lsa ularning davlatlarga ajralishini shart qilib qo'ydi”*.

Geografik makonlarni o'zlashtirishning ikkita turi: o'rnashish (yoyilish) va istilo haqida so'z yuritar ekan, olim istiloga qaraganda o'rnashishga hamisha yerli aholi kamroq qarshilik ko'rsatgan va u samarali bo'lgan, deb yozadi. Agar istilo harakatlari vaqtida xalqning ichki kuchlari ko'pam zaiflashmagan, kelajakda qarshi turish imkoni saqlangan bo'lsa, u holda yerlashish va hududda tadrijiy yoyilish ta'min qilinadi, uzoq umrli va baquvvat davlat yaratiladi, kuch-quvvat zaiflashmaydi, davlat yanada kuchayadi va hududda yashagan yerliklarning madaniyatida teran iz qoldirishga muvaffaq bo'linadi. Agar ichki kuchlar haddan ziyod zaiflashsa, davlat tez orada qulaydi.

Semenov Tyanshanskiyning fikricha, xalqlarning tinch yo'l bilan yerlashishi (yoyilishi) hududda emas, balki inson hayotida, ayniqsa, uning tili, turmush tarzi va mashg'ulotlarida chuqur iz qoldiradi. Geografik muhit xalqlarni tabiat qiyinchiliklariga chidamliroq va chidamsizroq etib taqsimlagan va bir-biridan farqli qilgan. Yerlashish o'troq turmush tarziga o'tish tendensiyasini kuchaytirib, bu bilan ko'chmanchi xalqlar turmushini tubdan o'zgartirib yuborgan va ularni asta-sekin assimilyatsiyalashuvga mahkum etgan.

Semenov Tyanshanskiy oldingi asarlarida aytgan fikrlarini 1928 yilda nashr etilgan *“Rayon va mamlakat”* asarida yanada rivojlantirdi. Tadqiqotchilarning

fikricha, Semenov Тьянь- SHanskiy *Rossiyaning o'sha davrdagi geografik va geosiyosiy makon xarakteristikasining yaxlit global konseptsiyasini yaratdi*. Ammo u tadqiqotini geografik fan tizimidagi bo'shliqni to'ldiruvchi antropogeografiya sifatida taqdim etib, unga jamiyatning hududiy va ma'naviy olamining geografiyasi deb qaragan.

Semenov Tyanshanskiy davlatning shakllanishi jarayonida insonning iqtisodiy faoliyati g'oyat muhimligiga asoslanadigan antropologik qarashni an'anaviy geografik determinizm nazariyasiga tatbiq etdi. Uning fikricha, o'z geosiyosiy ahamiyatiga ko'ra qudratli hudud-mintaqalar tabiiy, geografik, madaniy omillar harakatigagina emas, balki ayni chog'da bu hududda yashaydigan kishilarning iqtisodiy faoliyati natijalariga ham bog'liqdir. U Rossiya tarixiy, statistik, demografik materiallari asosida hududiy-siyosiy qudratning kafolati, negizi bo'lgan mustamlaka bazalari (strategik harbiy bazalar) haqidagi farazni ishlab chiqdi. U shunuchun nazardan kelib chiqib, yerlashish va istilo uchun siyosiy-geografik jihatdan eng foydali yerlarni tanlashni taklif qilgan.

Agar geostrategik g'oyalar Milyutin asarlarida harbiy geografiya va harbiy statistika nuqtai nazaridan yoritilgan, Semenov Tyanshanskiy asarlarida ko'proq mamlakatning hudud va geografik taraqqiyoti masalalari tadqiq etilgan bo'lsa, XX asr boshlaridan Rossiyada butunlay harbiy-strategik va geosiyosiy nazorat konseptsiyasiga asoslangan asarlar paydo bo'la boshladi. Ular orasida **Aleksey Yefimovich Vandanning** (1867-1933) 1912 yilda nashr etilgan "*Bizning vaziyatimiz*" asarini alohida qayd etish joizdir.

Rossiyaning Yevroosiyodagi makon xarakteristikasini hammadan oldin ta'riflab bergan Vandam g'oyat ulkan hududiga qaramay, rus xalqi boshqa xalqlarga qaraganda og'ir iqlim sharoitida, hayot uchun noqulay joyda yashaydi, deb yozgan edi. Keyinchalik bu fikrini yanada rivojlantirgan olim qayd qiladiki, jahon savdo yo'llarining uzoqligi, dahshatli qahraton qish va sovuq iqlim, botqoq

yo'llar Rossiyaning kambag'allikka mahkum etadi va o'z korchalonlik kuch-g'ayratini to'la ishga solishga imkon bermaydi. Bu holatlardan G'arbning muloyim iqlimli xalqlari mutlaqo bexabardir. Rossiyaning issiq dengizlarga chiqish yo'llari bo'lmagani uchun, u o'z mahsulotlarini chet ellarga chiqarib sota olmaydi. Bu esa, o'z navbatida, uning sanoati va tashqi savdosini battar og'irlashtiradi. Shuning uchun ham rus xalqi doimo g'ayriixtiyoriy ravishda "quyosh va issiq suvga" intilgan. Bu rus davlatining hayotiy makon uchun kurashini belgilab bergan.

Mixail Vasilevich Lomonosov (1711-1765) rus klassik geosiyosatining geografik makon konsepsiyasi va Rossiyaning makon xarakteristikasiga salmoqli hissa qo'shgan muhim shaxslardan biri edi. Uning mashhur "SHimol dengizlari bo'ylab turli sayohatlar hamda Sibir okeanidan SHarqiy Hindistonga o'tish yo'lining qisqacha bayoni" (1763) va "SHimoliy Sibir okeanidan sharqqa kechuv yo'llarini axtargan dengiz qo'mondonligi zobitlariga namunaviy qo'llanma" (1765) risolalari chinakam geosiyosiy va geostrategik yo'l xaritalari bo'lgan.

Fridrix Ratsel (1844-1904) «Siyosiy geografiya» nomli nazariyaning asoschisidir. Uning mohiyati shundan iboratki, davlatlar «hayotiy borligini» kengaytirish uchun kurashuvchi tirik biologik organizmlar sifatida talqin etiladi. F.Ratselning fikrini K.Xausxofer va E.Obst (Germaniya), R. Chellen (Shvetsiya), X.Makkinder (Buyuk Britaniya), A.Mexen (AQSH) va boshqalar qo'llab-quvvatlaganlar va rivojlantirganlar. Geosiyosat nazariyasi fashizm mafkurasi bo'lganligi yana bir bor turli nazariyalarning yaratilishida intellektual o'yinlarining xavfli ekanligini isbotlaydi. Bugungi kunda ko'pchilikni tashkil etmagan nazariyotchilar deterministik geosiyosatni to'g'ridan-to'g'ri targ'ib qilmoqdalar.

Shuningdek, insonning shakllanishiga taobat kuchlarining aloqadorligi haqidagi g'oya – **geografik possibilizm** (inglizcha, "possible"– imkoniyat) bo'lib, u geografik muhit inson faoliyatini cheklaydigan va o'zgartiradigan, ammo tarixiy

va boshqa sharoitlarning ahamiyatini (geografik determinizmdan farqli ravishda) aniqlaydigan tushuncha. Ya'ni bunda ham tabiiy sharoitning ahamiyatiga urg'u beriladi, lekin boshqa omillar ham, mos ravishda, tahlil etiladi. M., Vidal de la-Blash inson dunyoqarashining shakllanishiga oilaviy muhit va jamiyat ham asosiy o'rin tutishini ta'kidlagan holda, F.Ratseldan farqli o'laroq, ong taraqqiyotida faqat tabiiy sharoitni yoqlamagan va h.k.

Shuningdek, xulq-atvor shakllanishini baholaydigan geografik g'oyalardan biri **envayronmentalizm** (inglizcha, "environment" – atrof-muhit, tabiat) – ijtimoiy ekologik harakat, XX asrda Yevropa davlatlarida tarqalgan. Envayronmentalizm yoki invayronmentalizm atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan yo'nalish bo'lib, insonlar atrof muhit ta'sirida rivojlanadi, deb baholashadi. Determinizm va possibilizmdan farqli o'laroq, bunda inson atrof-muhitning holatiga qarab shakllanadi, deya e'tirof etiladi. Ya'ni atrof-muhit toza, havosi musaffo va tabiatga chiqindi chiqarilmaydigan joydagi aholining fikrlashi ham unga bog'liq bo'ladi. Atrof-muhit ifloslangan, toza bo'lmagan va gigienik nosog'lom hududdagi aholining onggi past bo'lishi keltiriladi.

Inson xulq-atvori hududlarning tabiiy sharoiti, oilaviy muhit hamda jamiyatning ta'siri natijasida shakllanar ekan, albatta, u hududiy turfa xillikka ega. Mana shu hududiy xususiyatlar xulq-atvor geografiyasining asosiy o'rganish masalasi hisoblanadi. Chunki aholining fikrlashi, dunyoqarashi va xarakteri ushbu hududning sotsial hayotida muhim ahamiyatga ega. Masalan, islom dini tarqalgan hududlarda oila muaddas va ota-onaning o'rni beqiyos hisoblanadi. H.Vamberi keltirganidek, *"30-40 yoshli erkaklar ham ota-onalari oldida hurmat saqlagan holda, ular avval ovqatni boshlab berishini kutib turadilar"*. Shuningdek, bolaga qadriyat sifatida qaralib, oilaning kelajagi sifatida e'zozlanadi. Aytish joizki, ko'plab arab va musulmon mamlakatlarida qariyalar va bolalar uyi ham boshqa sivilizatsiyadagi davlatlarga qaraganda kam hisoblanadi.

Aksincha, xristianlik tarqalgan hududlarda inson manfaatlari eng oliy o'ringa qo'yilib, farzand voyaga yetgandan so'ng ota-ona bilan yashashi uning ixtiyori hisoblanadi. Oilaviy munosabatlar esa ikki jins vakilining xohishiga bog'liq holda, istalgan vaqtda to'xtatilishi mumkin hamda oliy qadriyat sifatida qaralmaydi. Shuningdek, xristianlikka e'tiqod qiluvchi Armeniyani keltirish joiz bo'lib, bu davlatda umuman qariyalar uyi yo'q hisoblanadi. Chunki ularda oilaviy qadriyatlar yuqori. Din jihatdan G'arb mamlakatlarining tarafdori bo'lsa-da, xristianlik tarqalgungacha oilaviy munosabatlar "kavkazchasiga" qat'iylik bilan shakllanib bo'lgan bo'lib, hozirda ham barqarorligicha turibdi. Lekin baribir farzand ko'rishga maylda bunday deyish biroz noo'rin. Zero, bunda Yevropaning "shamoli tegib o'tgan"ligini keltirish mumkin. Shuningdek, G'arb mamlakatlarida demokratiyaning o'ta keng tushunilishi natijasida "ommaviy madaniyat" shakllanib, bu jarayon ham globallashuv natijasida dunyo miqyosida keng tarqalib bormoqda.

Xulq-atvorning shakllanishida qadimiy urf-odat va an'analarning o'rni ham beqiyosdir. Masalan, Yaponiyada imkoniyati bo'la turib harakat qilmaslik va mas'uliyasizlik davlat uchun xiyonat, deb qaraladi va ajdodlar ruhiga xurmasizlik sifatida baholanadi. Shu bois, yapon millati o'zining mehnasevarligi, uyushqoqligi, kasbga bo'lgan sadoqat, vatanga bo'lgan muhabbati tufayli o'z davlatini bugungi kunda ilmiy-



41-rasm. Yaponiya – qat'iy tartib va yuqori madaniyat o'chog'i

texnikalashgan, Osiyoning eng taraqqiy etgan postindustrial mamlakatiga aylantira oldi (41-rasm). Huddi shunday aqidalar asosida qat'iy tartib-intizom orqali

rivojlangan Xitoy, Koreya Respublikasi kabi mamlakatlarni ham keltirish mumkin. Zero, ular sanoat asosida taraqqiy etayotgan bo'lsa-da, aholisining mehnatsevarligi uchun mehnat unumdorligi yuqori bo'lmoqda va h.k.

Aksincha, Afrika va ko'plab Lotin Amerikasi mamlakatlarida aholining rivojlanishga intilishi sust ekanligi sababli resurs salohiyati yetarli bo'lsa-da, (*Arastuning "Siyosat" asaridagi tabiiy sharoit omiliga mos holda*) rivojlanishdan ortda qolmoqda.

Markaziy Osiyo mamlakatlari, xususan, O'zbekistonda ham qadimdan xulq-atvor va oilaviy munosabatlar juda muhim hisoblanadi. "Avesto"da yurtga muhabbat va oilaga sadoqat oliy darajaga ko'tarilgan. Hozirgi kunda ham mamlakatimizda aholining savodxonligi, dunyoqarashi va fikrlashini jahon talablariga mos ravishda, yuqori darajalarga olib chiqish uchun qaratilayotgan imkoniyatlar natijasi o'laroq, aholining ijtimoiy fikrlashi oshib, jahon bo'yicha tinchlik hukm surayotgan oldingi o'rinlardagi mamlakatga aylandi va h.k.

Vaqt va makon geografiyasi usuli ko'pincha xatti-harakatlar usuli bilan bog'liq. Mekansal-vaqtinchalik geografiya alohida tarmoqmi yoki tadqiqot usuli bo'ladimi-yo'qmi farqli fikrlar mavjud. Ikkinchi fikr foydasiga, mekansal-vaqtinchalik koordinatalar jamiyatni tashkil etishning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va boshqa jihatlariga taalluqli ekanligi to'g'risida dalillar keltirilishi mumkin. Biroq, shved geografi Torsten Xoyerstrand va uning Lund universiteti izdoshlari tomonidan taklif qilingan usul shu qadar g'ayrioddiy va o'ziga xoski, u aslida geografik tadqiqotning alohida sohasi sifatida shuhrat qozongan

T.Xegerstrand vaqt va makonni ham manba sifatida, ham faoliyatni cheklovchi parametrlar sifatida ko'rib chiqdi. Harakatni talab qiladigan har qanday xatti-harakatlar fazo-vaqtinchalik prizma tasvirlangan rasmda ko'rsatilgandek, makon va vaqtni bosib o'tib ketadigan odam yoki bir guruh bilan bog'liq. Bu odam qanday qilib a nuqtadan qanday harakat qilishni boshlaganini ko'rsatadigan eng

oddiy misol: u I davrdan oldin uni tark eta olmaydi va II davrga qaytishi kerak. Ushbu davrlar oralig'ida yozilgan prizma uning harakatlanishining mumkin bo'lgan doirasini tavsiflaydi. Yuqoridagi rasm juda soddalashtirilgan: geograflar, siz bilganingizdek, xaritada tasvirlangan er yuzining ikki o'lchovli maydoni bu erda bitta o'qda ko'rsatilgan, ikkinchi o'qi - vaqt o'qi.

Vaqt va makon geografiyasi. Insoniyat jamiyati rivojlanishi bilan, odamlar kun sayin ortib borayotgan masofani bosib o'tish imkoniyati kengayib borayotganini taxmin qilish oson. Ibtidoiy odamlar piyoda sayohat qilishdi, tuyoqli hayvonlarning ba'zi turlari tanovul qilingach, ularda minish imkoniyati paydo bo'ldi. Albatta, siz o'zingizning qabilangizning avtoturargohida kun bo'yi uxlashingiz mumkin edi - bu holda odamning haqiqiy kunlik fazoviy-vaqtincha koordinatlari to'g'ri chiziq shaklida bo'ladi. Biroq, kundalik prizma aniq bir kishining harakatlanish doirasini aniq ko'rsatadi. Agar mamont ovchilari, shubhasiz, o'z g'orlarida dam olmasalar, bir kun o'nlab kilometrlardan ham ko'proq er yuzida yura olmas edilar. Va zamonaviy odam bir kunda samolyot bilan minglab kilometrlarni bosib o'tishi mumkin.

70-yillarda Xagerstrandning qiziqishlari fazoda ba'zi hodisalarning tarqalishini o'rganishdan diffuziya mexanizmlarini, birinchi navbatda, shaxsiy aloqalarning intensivligi va samaradorligini o'rganishga o'tdi. Ushbu yo'nalish unga "vaqt geografiyasi" deb nom berdi. Tadqiqotlar natijalari ma'lum bir muammoni hal qilish uchun ma'lum bir joyda qancha vaqt sarflash kerakligini ko'rsatdi. Bu ish katta amaliy qiziqishni inobatga olgan holda, Hegerstrand Shvetsiyada ijtimoiy institutlarning hududiy tashkil etilishini isloh qilish bo'yicha komissiyalar ishida qatnashdi. Ushbu faoliyat natijalarini ijobiy baholab, u shunga qaramay, ijtimoiy-iqtisodiy voqelikni ma'lum bir "maqbul" darajaga olib chiqishga qarshi edi, chunki bu odamning tashabbusini bostiradi va mahalliy o'ziga xoslikni yo'q qiladi.

Keyingi asarlarida Xagerstrand yirik shaharlar aholisining kunlik harakatlarini o'rganib chiqdi, markaz ichidagi markaziy-periferik farqlarni o'rganib chiqdi.

Fazo-vaqt geografiyasi yo'nalishi bo'yicha Hagerstrand barcha geografiyani sintezlashga harakat qildi. O'zining ilmiy avtobiografiyasida u shunday yozadi: "Men ilgari shug'ullangan mavzuning turli shakllarini bitta konseptsiyada birlashtirishga muvaffaq bo'ldim: aholi punktlari, migratsiya, ijtimoiy aloqalar, tarqalish, hududlarning tuzilishi va texnologiyalarning ta'siri. Bu erda geografiyada "mintaqaviy" yondashuvning maqsadi va shakli va insonning tabiatdagi mavqei haqidagi dastlabki savolimga javob boshlanadi. Hagerstrand ishining asosiy qoidalari quyidagicha umumlashtirilishi mumkin: innovatsiyalarning hududiy tarqalishi ma'lum taqsimot qonunlariga ega va modellashtirilishi mumkin; Innovatsiyalarning diffuziyasi markaziy-periferik munosabatlarning ijtimoiy ta'sirini (birinchi navbatda, migratsiya) hal qiluvchi omil hisoblanadi; Tarqalish tezligi geometrik masofaga emas, balki u amalga oshiriladigan alohida shaharlarning tarjima qilish qobiliyatiga, odamlar o'rtasidagi aloqalar qanchalik kuchli va samarali bo'lishiga bog'liq.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Xulq-atvor geografiyasi yana qanday nomlar bilan ataladi?
2. Doimiy tumanli yoki bulutli o'lkalar tabiati kishilarning xulq-atvoriga va umumiy kayfiyatga qanday ta'sir qiladi, ularning umumiy ruhiyatida qanday o'zgarishlar keltirib chiqarishi mumkin?
3. Xulq-atvor geografiyasi mazmun-mohiyatini nima tashkil qiladi?
4. Sotsial-madaniy landshaftlar tushunchasini izohlab bering?
5. "Shahar muhiti"ning asosiy jihatlari qanday?
6. Aholi orasida yuqori qavatli binolarda yashovchilarda "jinoyatchilik" darajasining yuqoriligini qanday izohlaysiz?
7. Bixeviorizm tushunchasini tushuntirib bering.
8. Xulq-atvor geografiyasini usullarini izohlang.
9. Vaqt va makon geografiyasi usuli izohlang.

MAVZUGA DOIR ASOSIY TUSHUNCHALAR

Migrant - migratsiyada ishtirok etuvchi shaxs; yashash joyini doimiy yoki vaqtincha o'zgartirish maqsadida davlat va ma'muriy chegaralarni kesib o'tish.

Xalqaro (tashqi) muhojir - boshqa davlatdan kelgan xorijiy fuqarolar; ichki migrant - yashash joyini vaqtincha yoki doimiy o'zgartirish maqsadida mamlakat ichidagi ma'muriy-hududiy chegaralarni kesib o'tgan mamlakat aholisi. Migrant deganda, shuningdek, mintaqadan tashqarida tug'ilgan shaxslar yoki mamlakatdan tashqarida tug'ilgan, ammo hozirda ularning hududida istiqomat qilish vaqtidan qat'iy nazar yashaydigan chet el fuqarolari tushuniladi (to'plangan migrant deb ataladi). Migrantlar ixtiyoriy va majburiy bo'lishi mumkin. Migrantlar - majburlangan va boshpana so'ragan migrantlarga bo'linadi; hayot uchun tahdid tufayli o'z mamlakatini tark etgan chet el fuqarolari; o'z hayotlariga tahdid tufayli mamlakat ichida ko'chib kelgan majburiy migrantlar yoki majburiy ko'chirilganlar. Xalqaro Migratsiya Tashkilotining (XMT) 2016 yildagi ma'lumotlariga ko'ra, Yer shari aholisining har ming kishisidan 33 aholisi tug'ilgan mamlakatlardan tashqarida yashagan. Migrantlarni ro'yxatga olish va ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi qonun hujjatlariga, shuningdek, turli mamlakatlarda xalqaro migrantlarni aniqlashga har xil yondashuv tufayli, hozirgi aholi statistikasi turli xil migrantlarni hisobga oladi, bu esa turli mamlakatlardagi migrantlar sonini taqqoslashni qiyinlashtiradi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti 30 yildan ortiq vaqt davomida xalqaro migrantlarga nisbatan turli mamlakatlarning ta'riflarini birlashtirishga harakat qilmoqda.

Majburiy migratsiya - davlat tomonidan majburan amalga oshirilgan ko'p sonli odamlarning ko'chishi. To'g'ridan-to'g'ri (majburiy ko'chirish va deportatsiya) majburlash va bilvosita (ixtiyoriy ravishda majburiy migratsiya) majburlash mavjud. Ikkinchi holatda, davlat odamlarni majburan ko'chirmaydi, lekin mamlakat aholisi tomonidan ko'chib o'tishda individual qaror qabul qilish omillariga ta'sir qiladi. Deportatsiya (majburiy migratsiya) siyosiy qatag'onning bir turi. Deportatsiya qilishning o'ziga xos xususiyati ularning ma'muriy (suddan tashqari) tabiati; deportatsiya alohida migrantlarga emas, balki aholining guruhiga (ijtimoiy yoki etnik) qaratilgan. Majburiy migratsiya siyosiy sabablar qatorida aholining davlat tomonidan boshqarilishi; Iqtisodiy sabablar orasida ish bilan band bo'lmagan mehnat resurslaridan keng miqyosda foydalanish hisoblanadi. Sobiq

SSSRda 1936-51 yillarda ommaviy surgunlar amalga oshirildi: polyaklar, nemislar, koreyslar, karachaylar, bolqarlar, chechenlar, ingushlar, qalmiqlar, qrim tatarlari, yunonlar, mesxitinlar turklari. Sovet fuqarolarining aksariyati xalqaro migratsiyaga majbur bo'ldilar, Ulug' Vatan urushi yillarida Uchinchi reyxda 3,2 milliondan ortiq odam majburiy mehnatga yuborildi. Majburiy migratsiya global miqyosda mintaqalar va mamlakatlar aholisining demografik va etnik tarkibiga ta'sir qiladi.

Gastarbayerlar (tashqi mehnat muxojirlari) – chet elliklar ixtiyoriy ravishda o'z mamlakatidan tashqarida ishlaydigan va yashaydigan fuqarolar. "Mehmon ishchilar" atamasi nemis tilidan olingan bo'lib, so'zma –so'z "mehmon ishchi" degan ma'noni anglatadi. Rossiyada ommaviy axborot vositalari va kundalik hayotda "Gastarbayerlar " atamasi ko'pincha salbiy ma'noda ishlatiladi. Odatda, gastarbayerlar iqtisodiyoti kam rivojlangan va mahalliy mehnat resurslariga nisbatan past malakaga ega bo'lgan mamlakatlardan kelishadi. Keyinchalik ba'zi gastarbayerlar qabul qiluvchi mamlakatlarda doimiy yashash uchun qoladilar va ushbu davlatning yangi fuqarolari bo'ladilar. Bir qator qabul qiluvchi mamlakatlarda gastarbayerlar nafaqat mehnat bozoriga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda, balki demografik, iqtisodiy va ijtimoiy vaziyatni ham o'zgartirmoqda; Bu jarayon eng yirik donor lagerlari - gastarbayerlarning "etkazib beruvchilar"iga tegishli. 2016 yilda gastarbayerlardan eng ko'p pul o'tkazmalari oladigan mamlakatlar (XMT ma'lumotlariga ko'ra): Hindiston, Xitoy, Meksika, Filippin va Fransiya. Pul o'tkazmalarini amalga oshiradigan davlatlar orasida AQSh, Saudiya Arabistoni, Shveytsariya va Rossiya yetakchi o'rinlarda. Rossiyada mehnat muxojirlarining soni 2000 yillarning boshlarida ommaviy hodisaga aylandi; ma'lumotlarga ko'ra ularning soni 12,3 million kishiga yetdi.

Shahar - davlat qonunchiligi tomonidan Shahar toifasiga kiritilgan aholi punkti, ya'ni yuridik maqomga ega bo'lgan Shahar aholi punkti. Shaharlarning keng tarqalishi va hatto Shahar tushunchasining odatiy ishlatilishiga qaramay, dunyo mamalakatlarida "Shahar" tushunchasining tan olingan yagona mezonlari mavjud emas. Shahar maqomini berishda qoida tariqasida quyidagi mezonlar kiritish mumkin:

- Shahar aholisi soni va zichligi, aholining qishloq xo'jaligiga tegishli bo'lmagan tarmoqlarda bandlik ko'rsatkichi;

- Milliy urf odat va an'alariga asoslangan qurilish tizimining rivojlanganlik darajasi;
- Shahar ma'muriy va savdo markazi vazifasini bajarishi va h.

Shahar rayoni – Shahar hududining turli tamoyil va me'zonlar asosida ajratilishi mumkin bo'lgan qismi. Shahar mintaqasi ushbu tizimning har birini asosiy elementi sifatida ma'muriy – hududiy va Shahar bo'linmasining birligi rasmiy maqomiga ega bo'lishi mumkin. Qoida tariqasida, Shahar maydoni ma'muriy hududiy tuzulmasi bo'linmalari sifatida eng katta shaxarning bir qismi sifatida ajratilgan. Ba'zi mamlakatlarda Shahar mikrorayon turar joylari, hamda, Shahar ichidagi munitsipalitetlar kiritiladi. Shahar rayoni yoki mikrorayon turar joylari Shaharni bir yoki bir necha funksiyalarni bajaradigan birligi sifatida planirovka qilinadigan hududiy birligi vazifasini bajaradi. Mikrorayon turar joylarida yashaydigan iqtisodiy faol aholi soni ish joylari soniga nisbatan sezilarli darajada ustunligi bilan ajralib turadi. Shahar rayoni hududidagi mikrorayonlar o'zining bajaradigan vazifalariga ko'ra maxsus rayonlarga ajratilishi mumkin. Ularga sanoat, biznes, servis va boshqa turdagi mikrorayonlarni kiritish mumkin.

Shahar tashkil etuvchi tarmoqlar– asosan boshqa hududlarning extiyojini qondirish uchun maxsulot yoki xizmatlarni sotishga yo'naltirilgan iqtisodiyot tarmoqlari, ya'ni, ularga sanoat, transport, fan, madaniyat, oliy ta'lim muassasalari va boshqalarni o'z ichiga oladi. Ushbu tarmoqlar Shaharlarning ixtisoslashuvi va funktsional tipini, uning rivojlanish salohiyatini belgilaydi.

Shaharga xizmat ko'rsatish sohalari – bu iqtisodiyot tarmoqlari yoki ma'lum bir faoliyat turi bo'lib, Shahar aholisi va unda joylashgan Shaharga xizmat ko'rsatish sohalari obyektlarining extiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan faoliyat (uy-joy kommunal xo'jaligi, Shahar transporti, savdo muassasalari, maktabgacha ta'lim muassasalari, o'rta umumta'lim maktablari, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport, mahalliy boshqaruv organlari)ni kiritish mumkin. Tarmoqlarni Shahar tashkil etuvchi va Shaharga xizmat ko'rsatish sohalariga ajratish odatda shartli hisoblanadi, sababi, ba'zi bir Shaharlar bir vaqtning o'zida shakllantiruvchi va xizmat ko'rsatuvchi funksiyalarni bajarishi mumkin. Umuman olganda, Shaharni shakllantiruvchi tarmoqlar “eksport” uchun ishlaydi va iqtisodiy faol aholini ish bilan ta'minlaydi. Shaharga xizmat ko'rsatish sohalari esa, ishchi va xizmatchilarni kundalik ehtiyojini ta'minlaydi.

12 – MAVZU

IQTISODIY GEOGRAFIYANING NAZARIY- METODOLOGIK ASOSLARI

Maqsad: *Iqtisodiy geografiyaning nazariy-metodologik asoslaririni yoritib berish.*

Tayanch soʻz va iboralar: *Iqtisodiy geografik jarayon, iqtisodiy geografik vaziyat, geografiylik yoki hududiylik koeffitsiyenti, hududiy majmualar, iqtisodiy geografik oʻrin, geodemografik toʻlqinlar, joyning “togʻlilik” koeffitsiyenti, hududiy (yoki geografik) mehnat taqsimoti.*



REJA:

1. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya amaliyotida qoʻllanilayotgan baʼzi tushuncha va qonuniyatlar haqida
2. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya va mintaqaviy iqtisodiyot fanlarining oʻxshashlik va farqli tomonlari
3. Oʻzbekiston mintaqalarining ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishi
4. Oʻzbekistonda iqtisodiy rayonlar nechta va ular nima uchun kerak?



Har bir fan oʻzining asosiy, oʻzak tushuncha va qonuniyatlariga ega. Oʻz navbatida, aynan tushuncha va qonuniyatlar uzluksiz bilim jarayonining umumlashtirilishi, tartibga solinishi asosida ilmga aylanishiga xizmat qiladi. Bilim doirasining kengligi bilan tavsiflansa, ilm uchun esa mushohada va fikr yuritishning mantiqiyliqi, chuqurligi muhimdir. Geografiya fanida, afsuski, bilim, cheksiz raqamlar, nomenkulator koʻrsatkichlarga haddan tashqari eʼtibor beriladi, ammo uning ilmiy jihatlari zaifroq. Shu sababdan geografiyada faktlar koʻp, biroq ular ostida yotgan qonun va qonuniyatlar juda oz.

Umumtaʼlim maktablarida oʻquvchilar kimyo, fizika yoki biologiya fanlaridan qandaydir qonunlarni oʻrganadilar, geografiya esa asosan oddiy oʻkuv predmeti boʻlib qolmoqda. Binobarin, oʻrta va oliy taʼlim tizimida geografiya

fanining o'ziga xos tamoyillari, tushuncha va qonuniyatlariga alohida ahamiyat berish dolzarb masala hisoblanadi. Zero faktlar, bilim unutilishi mumkin, tushuncha esa aslo unutilmaydi, u kishining ongli hayotida abadiy va mustahkamdir.

Geografiya fanining muhim tarkibiy qismi bo'lgan iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining eng asosiy tushunchalari quyidagilar:

- **Hududiy (yoki geografik) mehnat taqsimoti** *mazkur fanning fundamental, asosiy tushunchasi;*
- **Iqtisodiy rayonlashtirish, rayon** - *iqtisodiy geografiyaning bosh, birlamchi tushunchasi;*
- **Hududiy majmualar** *iqtisodiy va umuman geografiya fanining o'ziga xos, iqtisodiy geografiyani aynan "iqtisodiy" qiluvchi tushunchasi;*
- **Iqtisodiy geografik o'rin** *hududiy fikrlash, iqtisodiy geografik bilimning "kalit" tushunchasi.*

Yuqoridagi 4 ta "ustun" tushunchalar iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining mazmun-mohiyatini ifodalab beradi va aynan shu tartibda joylanadi. Chunki, ularning aksariyati mantiqan bir-biriga bog'langan va biri ikkinchisidan kelib chiqadi. Masalan, hududiy mehnat taqsimoti iqtisodiy rayonlar shakllanishining negizini tashkil qiladi, o'z navbatida, iqtisodiy rayon asosini hududiy ishlab chiqarish majmualari ifodalab beradi va h.k.

Muallifning ko'p yillik ilmiy tadqiqotlari va amaliyoti jarayonida yana quyidagi ikkinchi darajali tushuncha, ibora yoki qonuniyatlar aniqlandi:

Iqtisodiy geografik jarayon, fikrimizcha, u amalda hududiy mehnat taqsimotining rivojlanib borishini anglatadi. Yangi yerlarning, qazilma boyliklar yoki boshqa tabiiy resurslarning o'zlashtirilishi, milliy va mintaqaviy iqtisodiyot hududiy tarkibining o'zgarishi va takomillashuvi, diversifikatsiyasi, ularning natijasida yangi magistral yo'l va shaharlarning (markazlarning) vujudga kelishi,

umuman olganda, hududlar “geometrik geografiyasi”, iqtisodiy landshafti yoki kartasining shakllanishi va rivojlanishi ushbu jarayon mohiyatini aks ettiradi.

Iqtisodiy geografik vaziyat hududiy mehnat taqsimoti, iqtisodiy rayonlar turi va tarkibi, mamlakat va boshqa joyning iqtisodiy sig’imi, uning ichki tafovutlari, rayon yoki hududiy majmua hosil qiluvchi asosiy markazlarining mavjudligi va ularning

o’zaro hududiy munosabati orqali belgilanadi.

Masalan, O’zbekistan

Respublikasining iqtisodiy geografik vaziyati, eng

avvalo, uning ishlab chiqarish, demografik va

infratuzilma salohiyatining asosan voha va vodiylarida

hududiy mujassamlashuvi bilan tavsiflanadi.


Mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti yoki sanoat

ishlab chiqarishining asosan Toshkent shahri, Toshkent va Navoiy

viloyatlarida yuqori darajada rivojlantirilganligi (42-rasm), respublika

mintaqalarida iqtisodiy «zichlik» va xo’jalik ixtisoslashuvining turli tumanligi ham ushbu vaziyatni ifodalab beradi.

Geografiylik yoki hududiylik koeffitsiyenti joyning (mamlakat, mintaqa va h.k.) ichki tafovutlari, uning rang - barangligini ko’rsatadi. Odatda, u eng yuqori



42-rasm. O’zbekistonda 2018-2020-yillar bo’yicha YIM shakllantirishda hududlarning ulushi (% hisobida)

va eng past ko'rsatkichlar nisbati orqali belgilanadi va "karra" yoki "marta" so'zlari bilan ifodalanadi. Bunday ko'rsatkichni turli sohalarda va turli hududiy darajada qo'llash mumkin: aholi tabiiy harakati, sug'oriladigan yer (maydon) ulushi, mintaqa yoki qishloq tumanlari eksport salohiyati, transport turining zichligi, aholining kasallanish ko'rsatkichlari va h.k. Geografiylik koeffitsiyent qancha kichik bo'lsa, ichki hududiy tafovutlar oz bo'ladi, va aksincha. Mazkur ko'rsatkichni tahlil qilishda qo'shniçilik holat katta mazmun kasb etadi. Chunki, tabiatda ham, ijtimoiy - iqtisodiy hayotda ham ikki qo'shni joy bir-biridan keskin farq qilmaydi. Shu bois, geografiyadagi chegaralar ko'p hollarda mutloq aniqlikka ega emas va inkorni inkor qonuniga binoan, bir-birida ikki tutash hududning unsurlari, alomatlari uchrab turadi.

Geodemografik to'lqinlar. Ma'lumki, demografik to'lqinlarni fanga taniqli olim B.TS.Urlanis kiritgan va u Ikkinchi jaxon urushi ta'sirida aholi tug'ilish koeffitsiyentining vaqt o'tishi bilan ma'lum yillar oralig'ida pasayishi va bu to'lqinlarning asta-sekin so'nib borishini tushungan edi. Agar demografik jarayonlar, asosan aholining tug'ilish ko'rsatkichidagi o'zgarishlar vaqt va davr, makon va zamon birligida olinsa, u holda o'ziga xos geodemografik to'lqinlar vujudga keladi. Masalan, G'arbiy Yevropada va Yaponiyada boshlangan tug'ilish koeffitsiyentining qisqarib borishi qarama-qarshi geografik yo'nalishda davom etib, Qozog'iston Respublikasining shimol, g'arb va sharqiy qismini ham egalladi va hozirda u bu mamlakatning janubiy qismiga "yetib keldi".

O'zbekistonda ham so'nggi 15-20 yillarda kuzatilayotgan tug'ilish ko'rsatkichining qisman pasayishi asosan Toshkent shahri va Toshkent viloyatida boshlanib, to'lqinsimon boshqa hududlarga tarqaladi va janubiy mintaqalarda - Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida "to'xtaydi". Boshqacha qilib aytganda, to'lqin boshida qayd etilgan holat bir necha yildan so'ng to'lqin oxirida kuzatiladi.

Geodemografik to'liqlar N.D.Kondratyevning "uzun to'liqlar" va T.Xegerstrandning "yangiliklarning diffuzion tarqalishi" g'oyalariga birmuncha hamohangdir.

Joyning "tog'lilik" koeffitsiyenti. Ushbu ko'rsatkich tog' egallagan xududning mintaqa yoki mamlakatning umumiy maydoniga nisbati orqali aniklanadi. Jumladan, O'zbekistonda u taxminan 0,21, Surxondaryo viloyatida 0,70 atrofida (agar bu ko'rsatkich 1,00 ga teng bo'lsa), ko'rilayotgan hudud to'liq tog'lik hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligida foydali yer koeffitsiyenti mamlakat, viloyat, qishloq tumanida qishloq xo'jaligi ekin maydonlarining umumiy yer fondiga nisbatidir. Chunonchi, bu ko'rsatkich Andijon yoki Xorazm viloyatlarida 1,00 ga yaqin (demak, intensiv o'zlashtirilgan), Qoraqalpog'iston Respublikasi yoki Navoiy viloyatida esa u ancha past.

Nozogeografik vaziyat aholi kasallanish ko'rsatkichlaridagi hududiy tafovutlar, turli xududlarning alohida kasalliklarga «ixtisoslashuvi», ularning hududiy tarkibi, nozogeografik o'choq, areal, rayon va markazlarning hududiy munosabati demakdir.

Nozoiqlimiy omillar aholi salomatligiga ta'sir etuvchi asosiy shart-sharoitlar majmuasi hisoblanadi. Ular jumlasiga havo, suv va tuproq kiradi. Tibbiyot sohasi va tibbiyot geografiyasining asoschisi Gippokrat ham inson salomatligini turli joylarning havosi va suvi bilan bog'lagan. Nozoiqlimiy omillar qishloq xo'jaligida agroiqlimiy resurslarga o'xshab ketadi.

Ekologik geografik o'rin ma'lum bir hududning (viloyat, tuman, shahar va b.) o'zidan tashqarida joylashgan ekologik mazmunga ega bo'lgan hududlarga nisbatan o'rnashganligini anglatadi. Masalan, Xorazm viloyatining ekologik yoki geoekologik o'rni uning Amudaryo, Tuyamuyin suv ombori, Orol dengizi va Qizilqum cho'llariga, Surxondaryo viloyatining Uzun tumani esa, Tojikiston

Respublikasining Tegar (Tursunzoda) allyuminiy zavodiga yaqinligi bilan tavsiflanadi.

Geokriminogen vaziyat jinoyatchilikning hududiy tarkibi va darajasi, har xil hududlarda u yoki bu turdagi jinoyat ko'rsatkichlari, asosiy xavfli kriminogen o'chog' yoki markazlarning (bozor, mozor, vokzal va b.) o'zaro hududiy joylashuvi va h.k.

Aholi takror barpo etilishining samaradorlik ko'rsatkichi tug'ilish va o'lim yig'indisining (*tabiiy harakat ko'rsatkichlari aylanmasining*) tabiiy ko'payishga nisbati. Bu ko'rsatkich mutloq raqamlar yoki nisbiy - promilleda ham topilishi mumkin. O'lim ko'rsatkichi qancha past bo'lsa, aholi takror barpo bo'lishi samaradorligi shuncha yuqori, ya'ni 1,00 ga tug'ilganlar soniga yaqin bo'ladi.

Oraliq shaharlar qonuni. Odatda, yirik shahar o'zining bevosita yonida yana boshqa xuddi shunday kattalikdagi shaharning vujudga kelishiga «yo'l qo'ymaydi», to'sqinlik qiladi (xuddi shunday, daraxt ham). Demak, shaharlarning o'z ta'sir zonasi, raqobat muhiti bo'ladi. Ko'pincha ikki yirik shahar ta'sir zonasi susaygan, zaiflashgan yoki tugagan nuqtada yangi shahar vujudga keladi va u raqobatsiz tez rivojlanadi. Masalan, mamlakatimizning qadimiy shaharlari - Samarkand va Buxoro o'rtasida Navoiy shakllanib, qisqa muddatda yirik shaharlar qatoridan joy oldi. Bunday mavqega esa qadimiy G'ijduvon yoki Kattaqo'rg'on erisha olmadi.

Hududiy majmualar. Ma'lumki, hududiy ishlab chiqarish majmualari tushunchasini fanga N.N.Kolosovskiy kiritgan. Tajriba ko'rsatadiki, bunday hududiy birikmalar nafaqat ishlab chiqarishda, balki ijtimoiy sohalarda, jumladan, aholiga xizmat ko'rsatish va tibbiy geografiyada (nozogeografik majmualar), servis sohasida ham ko'p uchraydi. Binobarin, hududiy majmualar umumgeografik tushuncha bo'lib, ular ayni vaqtda majmuali (kompleks) yondoshuvni talab qiladi.

Agroshaharlar. 2009-yilni respublikamizda “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili” deb e’lon qilinishi munosabati bilan 966 ta qishloqlarga birdaniga shaharcha maqomi berildi. Bu yil bahori urbanizatsiya nuqtai nazaridan ham ancha “sernam” keldi va bunday siyosat kelajakda har xil bahs-munozaralarni keltirib chiqaradi. Yangi shaharchalarning ko’pchiligida haqiqiy shahar hosil qiluvchi tarmoqlarning yo’qligi yoki sust rivojlanganligi, ularning bevosita qishloq joylari bilan aloqadorligini inobatga olib, ularni “agroshaharchalar” deb atash to’g’riroq bo’ladi.

Geojuftlar yoki hududlar dialektikasi. O’zbekistonda geojuftlar (geoparalar) tushunchasi professor L.A.Alibekov tomonidan kiritilgan. Umuman olganda esa, bunday geojuftlar real voqelikda juda ko’p va ularsiz butun borliq, taraqqiyot ham mumkin emas. Geojuftlar hududiy tafovut yoki birikmalar majmualarining o’ziga xos ko’rinishi bo’lib, ular biri-birini to’ldiradi, bir-birini taqozo qiladi, fikrimizcha, suv bilan quruqlik, cho’l va voha, shahar va qishloqning o’zaro joylashuvi, “hamkorligi” va hududiy munosabatlari ham geojuftlar sifatida talqin qilinishi mumkin.

Yuqorida iqtisodiy va ijtimoiy geografiya faniga muallif tomonidan kiritilgan yoki aniqlashtirilgan ba’zi tushunchalar (*albatta, amaliyotda tajriba-sinovdan o’tgandan so’ng*) uning ilmiy-uslubiy asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu tushunchalar fan va amaliyotda asosiy geografik tamoyillar, metodologik yondoshuvlardan kelib chiqishi kerak. Ular hududiylik, davriylik, kompleks, sistemali va ekologik yondoshuvlardir. Ayni vaqtda, ayniqsa iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada umumiylikdan xususiylikka, tarmoqdan hududga va yana bu hududdan tarmoqqa o’tish, mantiqiy fikrlash, ketma-ketlikka rioya qilish geografik ong, bilim va tafakkurning, qolaversa, yuksak geografik madaniyatning shakllanishida o’ta muhim hisoblanadi.

Ushbu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlar, eng avvalo, uch holatga yoki asosga ega bo'lishlari talab etiladi. Ular: 1) ilmiy (soha) adabiyotini yaxshi bilish; 2) statistik va boshqa ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va ulardan tegishli xulosalar chiqarish; 3) tadqiqot usullaridan (metodlaridan) o'z o'rnida va samarali foydalanishdan iboratdir. Bu asoslarning qaysi biri bo'lmasa, ilmiy ish mukammallikka erisha olmaydi.

Tabiiyki, har qanday ilmiy tadqiqot ma'lum bir qonuniyat yoki qonuniyatlarni aniqlashi va asoslab berishi shart. Biroq, geografiyada qonuniyatlarni (shuningdek, dissertatsiyalarda ilmiy yangiliklar), muayyan obyektiv geografik sharoit yoki borliqda takrorlanib turadigan sabab -oqibat mushtarakligi aslo ma'muriy birlikka emas, hududlarga tegishlidir.

Ma'muriy tuzilmalarda esa (mamlakat, viloyat, shahar, qishloq tumani) umumiy qonuniyatlarning o'ziga xos ko'rinishi, jihati, aniqrog'i – xususiyatini aniqlash mumkin. Binobarin, geografiya fanida qonuniyatlarni bilan bir qatorda hududiy xususiyatlar ham katta ahamiyatga ega. Bu xususiyatlar, betakrorlik va tipik hodisalarni o'rganish, o'z navbatida, geografik taqqoslash usulidan foydalanishini nazarda tutadi. Unutmaslik kerakki, har qanday joy o'ziga xos xosiyat va xususiyatga ega, geografning maqsadi esa aynan shu joyning xususiyatini, nimaga qodirligi, vazifasi, sig'imi hamda funksiyasini asoslab berishi, bu imkoniyatlardan qay darajada va qanday foydalanish yo'llarini belgilab berishdan iboratdir. Shu mazmunda geograf hudud tabibi, egasi yoki, buxorolik taniqli olim I.K.Nazarov iborasiga ko'ra, hudud faylasufi bo'lmog'i lozim.

Geografik bilim va madaniyat geografiya ilmi o'xshashliklarda noo'xshashlikni va noo'xshashliklarda o'xshashlikni topish, kichikda kattani ko'rishni va kattada kichikni ilg'ashni, haqiqiy tabiatshunos sifatida kuzatuvchanlik, chuqur mushohada qilish va keng mulohaza yuritishni talab qiladi. Geograf uchun regional hudbinlik yotdir; u hamma joyni bir xil (*geografiyada*

yomon joy yo'q, nodon geograf bor) va ayni vaqtda har xil (*ya'ni hududiy tafovut, farqlarni anglagan holda*) ko'ra olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Aynan shu va shunga o'xshash holatlar fanimizning ilmiy nufuzini va amaliy ahamiyatini oshirishga xizmat kiladi.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya va mintaqaviy iqtisodiyot fanlarining o'xshashlik va farqli tomonlari. Har qanday mamlakatning milliy iqtisodiyotini shakllanishida uni tashkil etuvchi mintaqalarining ahamiyati katta. Bozor munosabatlariga o'tish, iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va erkinlashtirish, barqaror rivojlantirishga erishish ko'p jihatdan ana shu mintaqalarning, ya'ni mamlakatning turli ichki qismlarining salohiyat va imkoniyatlariga, faolligiga bog'liq. Shunuqtai nazardan, hozirgi davrda ishlab chiqarishni to'g'ri hududiy tashkil qilish, viloyat va iqtisodiy rayonlarning yer-suv, mineral xom ashyo, yoqilg'i va mehnat resurslaridan samarali foydalanishga muhim e'tibor qaratilmoqda.

Erkin va ochiq iqtisodiyot, uning turli qatlamlarini vujudga keltirish, sog'lom raqobat va investitsiya makonini shakllantirishdek dolzarb masalalarni hududlar xususiyatini hisobga olmasdan hal etib bo'lmaydi. Shuning uchun ham hozirgi davrda O'zbekiston Respublikasining rahbariyati mahalliy hokimiyat (*viloyat, shahar, tuman hokimliklari*) huquq va mas'uliyatlarini kengaytirishga urg'u bermoqda.

Mintaqaviy iqtisodiyot yuqoridagi masalalarning hududiy jihatlarini tadqiq etadi va aynan shunuqtai nazardan u boshqa fanlardan farq qiladi. Uning predmetini qisqa tarzda quyidagicha ta'riflash mumkin: mintaqaviy iqtisodiyot ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish, alohida olingan hududlar yoki hudud (*region, rayon*) ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining omil va qonuniyatlarini o'rganuvchi fandır.

Umuman olganda, mintaqaviy iqtisodiyotning ta'rifi ko'p, ammo ular aksariyat hollarda bir-biridan farq qilmaydi. Masalan, A.G.Granberg bu fanning predmeti sifatida, eng avvalo, mintaqalar iqtisodiyoti yoki alohida olingan mintaqaning boshqa mintaqalar (regionlar) bilan o'zaro aloqadorlikda o'rganishni ko'rsatadi. Qizig'i shundaki, S.V.Bernshteyn-Kogan ham XX asrning 20-yillarida iqtisodiy geografiyani xuddi shunday ta'riflagan edi.

A.G.Granberg kengroq ma'noda mintaqaviy iqtisodiyotni alohida mintaq va mintaqalar iqtisodiy aloqalarini, ishlab chiqarish kuchlari va iqtisodiy hayotning mintaqaviy jihatlarini o'rganuvchi fan, deb hisoblaydi. V.F.Pavlenko bu fanning asosiy predmetini alohida mintaqalar iqtisodiyoti, ularning rivojlanish omillari, qonuniyatlari va muammolari bilan belgilaydi. M.V.Stepanov tahririda chiqqan "Mintaqaviy iqtisodiyot" darsligida bu fanga ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish, mintaqalar rivojlanish xususiyatlari va qonuniyatlari hamda mintaqaviy rivojlanish omillarini o'rganadi, deb ta'rif berilgan.

A.E.Probst mintaqaviy iqtisodiyot predmetini rayon ijtimoiy ishlab chiqarishining hududiy tashkil etilishi, hududiy ishlab chiqarish majmualarining shakllanish va rivojlanishini tadqiq qilinishida ko'radi. E.B.Alaev esa mintaqaviy iqtisodiyot ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish, rayonlar rivojlanishining xususiyat va qonuniyatlarini o'rganishini uning asosiy predmeti sifatida ko'rsatadi.

O'z mohiyatiga ko'ra mintaqaviy iqtisodiyot, umumiy iqtisodiyot va iqtisodiy geografiya fanlari qirrasida yoki ularning oralig'idan joy oladi. U iqtisodiy geografiya bilan birgalikda hudud xo'jaligini o'rganuvchi fanlar turkumini tashkil etadi. Albatta, mintaqaviy iqtisodiyot va iqtisodiy geografiya bir-biriga o'xshash va yaqin; ikkisi uchun ham ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish umumiy tadqiqot obyekti hisoblanadi. Ammo, iqtisodiy geografiya kengroq va, binobarin, umumiyroq, fundamental fan, mintaqaviy iqtisodiyot esa torroq va shuning uchun aniqroq, amaliy fandır. Iqtisodiy geografiya nafaqat

rayonlar (regionlar), balki mamlakatlar, jahon xo'jaligining tizimi va tarkibi bilan ham shug'ullanadi, ularning o'zaro farqlari va xususiyatlarini o'rganadi.

Ko'pchilikning fikricha, iqtisodiy geografiya mintaqaviy iqtisodiyotning nazariy, metodologik asoslaridan biri hisoblanadi. Chunki, bu fanning fundamental tushunchalari: hududiy mehnat taqsimoti, iqtisodiy rayonlashtirish, hududiy ishlab chiqarish majmualari dastavval nazariy jihatdan iqtisodiy geografiya fani doirasida yaratilgan. Hozirgi kunda bu kategoriyalar mintaqaviy iqtisodiyot uchun ham o'zak tushunchalar vazifasini bajarmoqda.

Ta'kidlash joizki, ushbu fanlarning o'zaro munosabati va predmeti juda munozarali va bahslidir. Har holda ularning orasidagi farqdan ko'ra o'xshashliklar ko'proq; mintaqaviy iqtisodiyot geografiyashtirilgan iqtisodiyot bo'lsa, iqtisodiy geografiya iqtisodiyashtirilgan geografiya sifatida e'tirof etiladi.

Mintaqaviy iqtisodiyot fani doirasida quyidagilar tadqiq qilinadi:

- ❖ Hududlar tabiiy sharoiti va boyliklarini tahlil qilish, ularga iqtisodiy baho berish, tabiatdan foydalanish iqtisodiyoti masalalarini o'rganish;
- ❖ Mintaqaviy infratuzilma va ijtimoiy–iqtisodiy omillarni tahlil etish;
- ❖ Ishlab chiqarish kuchlarini to'g'ri hududiy tashkil qilish, ularni davlat tomonidan tartibga solib borish;
- ❖ Mintaqaviy siyosatning ilmiy asoslarini yaratish, iqtisodiy rayonlashtirish;
- ❖ Mintaqalar rivojlanish strategiyasi va konsepsiyasi, mintaqaviy dasturlash va prognozlar ishlab chiqish;
- ❖ Erkin iqtisodiy zonalar, mintaqalar investitsion jozibadorligini aniqlashning ilmiy-amaliy, uslubiy asoslarini yaratish;
- ❖ Shaharlar va shahar aglomeratsiyalari rivojlanishi, urbanizatsiya jarayoni, geoekologik muammolarni o'rganish va h.k.

Mintaqaviy iqtisodiyotning amaliy ahamiyati mintaqaviy siyosat, hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini ilmiy asosda ishlab chiqish va uni mahalliy hokimiyat bilan kelishilgan holda hayotga tadbiiq etishdan iborat. Har qanday davlatning mintaqaviy siyosati mavjud bo'lib, uning tamoyil va yo'nalishlari, maqsad va vazifalari rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda o'zaro farq qiladi. Rivojlangan mamlakatlar mintaqaviy siyosati ko'proq depressiv va muammoli hududlar, poytaxt shaharlar rivojlanishi va urbanizatsiya jarayonini boshqarish va tartibga solish, sotsial va ekologik kabi masalalarni hal qilishga qaratiladi. Rivojlanayotgan davlatlarda esa, ularning milliy iqtisodiyotini shakllantirish va yuksaltirish maqsadida, mintaqalar tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlaridan samarali foydalanish, o'sish qutb va markazlarini, erkin iqtisodiy zonalar, hududiy majmualar va klasterlarni tashkil etish, zamonaviy infratuzilma tizimini yaratish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilgan holda qo'shma korxonalarini qurish va shu asosda mamlakat eksport salohiyatini oshirishga ustuvor ahamiyat beriladi.

Ma'lumki, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish mamlakat milliy iqtisodiyotining umumiy holati, strategik vazifalari bilan belgilanadi. Jumladan, O'zbekistonda o'tish davrining iqtisodiyoti bu davrni mumkin qadar tezroq va beshikast bosib o'tish, bozor iqtisodiyotining mustahkam ishlab chiqarish, huquqiy va ma'naviy asoslarini yaratishni talab qildi. O'tish davrida, eng avvalo, milliy iqtisodiyotning asosiy yo'nalishlari, xususan energetika, don (g'alla) va yo'l mustaqilligini ta'minlashga erishildi.

Ta'kidlash lozimki, hududlar rivojlanishi to'g'ri tartibga solinmasa, boshqarilmasa mintaqalarda erkin raqobat muhiti, ochiq iqtisodiy munosabatlar to'laqonli vujudga kelmaydi. Shunuqtai nazardan ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va hududiy tashkil qilishining davlat tomonidan tartibga solib

borilishi obyektiv qonuniyatdir. Ushbu vazifa asosan davlatning mintaqaviy siyosati orqali amalga oshiriladi.

Mintaqaviy siyosatning zaruriyati bir vaqtning o'zida barcha hududlar iqtisodiyotini bir darajada rivojlantirib bo'lmasligidan kelib chiqadi. Binobarin, mintaqaviy siyosat, eng avvalo, rivojlanishi mumkin va mamlakat uchun muhim bo'lgan ustuvor yo'nalish va tarmoqlarga qaratiladi. Shu mazmunda u mintaqaviy iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi, amaliy (konstruktiv) yo'nalishi hisoblanadi; mintaqaviy siyosat hududlararo ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi vaziyatni dinamik holda maqbullashtirish, muvofiqlashtirish va barqarorlashtirishga harakat qiladi.

Mintaqaviy siyosatning asosiy maqsadi quyidagilar:

- ❖ Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqlarni yumshatish va qisqartirish;
- ❖ Mahalliy tabiiy resurslardan foydalanish asosida mintaqaviy va milliy iqtisodiyotni rivojlantirish;
- ❖ Mintaqalar yordamida mamlakatning eksport salohiyatini ko'tarish, iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlash;
- ❖ Ishlab chiqarish kuchlarini to'g'ri hududiy tashkil etish;
- ❖ Hududlarning ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish, ularning investitsion jozibadorligini oshirish;
- ❖ Joylardagi ijtimoiy va ekologik muammolarni hal qilish;
- ❖ Shahar va qishloq aholi manzilgohlarini rivojlantirish, urbanizatsiya hamda migratsiya jarayonlarini tartibga solish;
- ❖ Aholi bandligi va turmush sharoitini yaxshilash va h.k.

Yuqoridagi maqsadlarga turli yo'llar yordamida erishiladi. Buning uchun avvalambor hududlarning iqtisodiy rivojlanish darajasini mutloq ko'rinishida tenglashtirish g'oyasidan voz kechish talab qilinadi. Shuningdek, mamlakat

iqtisodiyotini erkinlashtirish, ochiq iqtisodiyot yuritish, qulay investitsiya muhitini shakllantirish, mintaqalar investitsion jozibadorligini oshirish asosida xorijiy sarmoyadorlarni jalb qilib, o'zaro manfaatli qo'shma korxonalar qurish, turli yo'nalishdagi erkin iqtisodiy mintaqalarni tashkillashtirish hududlar rivojlanishiga katta turtki beradi.

Mintaqaviy siyosat alohida hududlarni tanlab olish orqali amalga oshiriladi, natijada iqtisodiy landshaft qutbiylashadi, o'sish qutb va markazlari vujudga keladi. Har xil omil va sharoitlarni atroflicha tahlil qilish va rivojlanish imkoniyatlarini baholash yordamida saralab olingan u yoki bu hudud iqtisodiyoti yuksalgandan so'ng navbat mamlakatning boshqa hududlariga o'tadi. Boshqacha qilib aytganda, iqtisodiy rivojlanish ham hududiy tsikllik yoki davriylik, "geografik uzun to'lqinlar" xususiyatiga ega bo'ladi. Shu sababdan, ma'lum muddatda tanlangan hudud ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga urg'u berilishi boshqa hududni kamsitish, imtiyozlarini cheklashni anglatmaydi, chunki keyinchalik bu hududga ham xuddi shunday e'tibor beriladi va ularga ham navbat keladi. Ammo mintaqaviy siyosat hududlarning o'zlarini ham faolligini nazarda tutadi. Shuning uchun mahalliy hokimiyatning bu borada izlanuvchan, tadbirkor bo'lishi talab etiladi.

Mintaqaviy siyosat o'z mohiyatiga ko'ra tashqi siyosatdan (geosiyosatdan) farq qilib, u mamlakatning ichki ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga yo'naltirilgan bo'ladi. Uning darajalari ham har xil. Masalan, mamlakat ichkarisiga nisbatan 2 darajadagi siyosat ajratiladi: davlatning mintaqaviy siyosati, ya'ni mamlakat hokimiyatining turli hududlarga (jumladan, viloyatlarga) nisbatan tutgan siyosati hamda mintaqalarning o'zini siyosati - viloyat hokimiyatining qishloq, tuman va shaharlar rivojlanishiga munosabati. Har qanday sharoitda ham ushbu siyosatni yurgazuvchi yuridik tashkilot respublika va viloyatlar hokimiyati hisoblanadi.

Sobiq Ittifoq davrida O'zbekistonda mintaqaviy siyosat amalda yo'q edi. Ba'zi hududlarning jadalroq rivojlanishi ko'proq "Butunittifoq" manfaatlarini ko'zlab olib borilardi. Mirzacho'l yoki Qarshi dashtlarini o'zlashtirib, paxtachilikni yanada rivojlantirish, Buxoro, Qashqadaryo tabiiy gaz, Navoiy viloyati oltin konlarini qazib olish aynan shu maqsadda bajarilgan. Shu bilan birga ta'kidlash lozimki, mintaqaviy siyosatga tegishli ilmiy tadqiqotlar ilgari ham olib borilgan. Masalan, sobiq Ishlab chiqarish kuchlarini o'rganish bo'yicha Kengash (SOPS) respublika hududlar imkoniyatlarini atroflicha tadqiq qilish, hududiy ishlab chiqarish majmualarini shakllantirish konseptsiyalarini yaratgan. Dastavval Farg'ona vodiysi, so'ngra Buxoro-Navoiy, Angren-Olmaliq, Qashqadaryo, Surxon- Sherobod va Quyi Amudaryo mintaqalari maxsus o'rganilgan.

Hozirgi milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash davrida mintaqaviy siyosatning amaliy ahamiyati yanada kuchaymoqda. Respublika iqtisodiyotini rivojlantirishda Asaka, Samarqand, Jomboy va Hazorasp tumani avtomobilsozlik, Qorovulbozor neftni qayta ishlash korxonasi, Qo'ng'irotda soda va Dehqonobod kaliy, Zafarobod sement zavodlari, Surgil majmuasi, ko'pgina viloyatlarda qurilgan to'qimachilik korxonalarining o'rnini katta. Ularning barchasi O'zbekiston yangi iqtisodiy geografiyasini shakllantirishda, uning geoiqtisodiy makonida o'ziga xos o'sish markazlari hisoblanadi. Uchquduq – Miskin – Nukus, Toshguzar – Boysun – Qumqo'rg'on, qurilayotgan Angren-Pop temir yo'llari, Navoiy industrial - iqtisodiy, Angren hamda Jizzax maxsus industrial zonalari kabilar mamlakatimizda amalga oshirilayotgan mintaqaviy siyosatning amaliy natijasidir.

Respublika rahbariyati, ayniqsa, qishloq joylarga katta e'tibor qaratmoqdaki, bu ham bo'lsa mintaqaviy siyosatning bir ko'rinishidir. Darhaqiqat, modomiki mamlakat iqtisodiyotining asosini qishloq xo'jaligi, aholisining yarmiga yaqini qishloqlarda yashar ekan, bu joylarda jiddiy o'zgarishlarga erishmay turib strategik

vazifalarni hal etib bo'lmaydi. Shuning uchun qishloq joylarga sanoatni olib kirish, qishloq infratuzilmasini, fermer xo'jaliklarini rivojlantirish, mehnat resurslari bandligini va aholi turmush darajasini yaxshilash, ijtimoiy-iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish eng muhim dolzarb muammolardan sanaladi. Shu qatorda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, ishlab chiqarishni maxalliyashtirish kabi Davlat dasturlarining ham mintaqaviy jihatlari mavjud.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda mintaqaviy siyosat turli hududlarda turlicha olib boriladi: ba'zi iqtisodiy rivojlanishi to'xtab qolgan yoki zaiflashgan shaharlar (masalan, Angren, Chirchiq, Namangan, Marg'ilon va b.), depressiv rayonlar xo'jaligini harakatga keltirilishi, aholisi zich agrosanoat rayonlarda (Farg'ona vodiysi) yangi ish o'rinlarini ko'paytirishga katta ahamiyat berilmoqda.

Respublika milliy iqtisodiyoti to'la va mustahkam shakllanib borgan sari uning mintaqaviy siyosati nafaqat viloyatlarga, balki boshqa "muammoli" rayonlarga ham yo'naltiriladi. Jumladan, hozirgi kunda Orolbo'yi mintaqasining ekologik holatini yaxshilash, bu ulkan hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Kelajakda alohida daryo havzalari, voha va vodiylar, tog' yoki cho'l, yirik urbanizatsiyalashgan hududlar, shahar aglomeratsiyalari ham davlat mintaqaviy siyosatining obyekt sifatida ko'rilishi mumkin.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, keyingi yillarda mintaqaviy iqtisodiy tadqiqotlar ancha jonlandi. Bu xususda Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar institutida tegishli ishlar olib borilmoqda. Jumladan, ushbu institut tomonidan iqtisodiy forumlar, Andijon, Surhondaryo, Qashqadaryo, Xorazm viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi va konseptsionalari ishlab chiqilgan.

Biroq, olib borilayotgan tadqiqotlar yetarli emas, bevosita mintaqaviy iqtisodiyot mazmunidagi chop etilayotgan ilmiy ishlar umumiy iqtisodiy

tadqiqotlarning taxminan 25-30 foizini tashkil qiladi, xolos. Bunga maxsus ilmiy tekshirish institutining yo'qligi, mintaqaviy iqtisodiyot bakalavr yo'nalishining respublikamizda mavjud emasligi ham sabab bo'lmoqda. Shu boisdan milliy iqtisodiyot hududiy tarkibining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, respublikamizda mintaqaviy iqtisodiyot ilmiy yo'nalishini ham rivojlantirish katta amaliy ahamiyat kasb etadi.

Biz yuqorida IG va MI ning "egizak" fanlar ekanligi, ularning bir-biriga qondosh va qarindoshligini, ular o'rtasida "Xitoy devori" yo'qligini asoslashga urinib ko'rdik. Biroq, o'xshashlik mutloq bir xillik, yagonalik emas. Mazkur fanlar o'rtasidagi o'xshashliklar va tafovutlar quyidagicha tavsiflanishi mumkin:

1. **MI va IG** ning tadqiqot obyektlari bir – ishlab chiqarishni ma'lum hududda joylanishi. *Lekin, birinchisi uchun eng muhimi ishlab chiqarishning, aniqrog'i ishlab chiqarish tarmoqlarining iqtisodiy jihatdan hududiy joylanishi bo'lsa, ikkinchisi uchun esa ishlab chiqarish kuchlarining hududiy tarkibi va tuzilmasi, hududiy tashkil etilishi ustuvorroq ahamiyatga ega.*

2. **MI** muayyan, alohida rayon yoki hududlarda ishlab chiqarish kuchlarining joylashtirishni iqtisodiyot nuqtai nazaridan tahlil etadi va baholaydi. *IG esa turli mamlakat yoki rayonlarda ishlab chiqarish kuchlarining joylashuv xususiyatlari va hududiy tafovutlarini, ularga ta'sir etuvchi omil hamda sharoitlarni hisobga olgan holda qiyosiy o'rganadi.*

3. **MI** – da tahlil hududdan tarmoqqa, **IG** – da tadqiqot tarmoqdan hududga tomon olib boriladi; *birinchisida hududiy tizimda tarmoq tarkibiga, ikkinchisida tarmoq tizimidan hududiy tarkib yo'nalishiga urg'u beriladi. Shu bilan birga, iqtisodiy geografiyada bu zanjir an'anaviy tarzda uzunroq: tarmoq →*

hudud (rayon) → tarmoq; vaholanki, mintaqaviy iqtisodiyotda u asosan hudud (rayon) → tarmoq shakliga ega²².

4. Tan olish kerak: **MI** – torroq bo'lsada, u chuqurroq va, binobarin, amaliyotga yaqinroq, aniqroq fandır. *Iqtisodiy geografiya tadqiqot predmeti, qamrovining kengligi sababli u ko'proq tasvirlovchi va tavsiflovchi fan, ayrimlar nazarida hatto nohaq ravishda u faqat o'quv predmeti sifatida e'tirof etiladi. Demak, iqtisodiy geograflar uchun iqtisodiy bilimlar va hisob-kitoblarni kuchaytirish, chuqurlashtirish, konstruktiv, ya'ni amaliy yo'nalishlarni rivojlantirish muammolari dolzarbdır. Mintaqaviy iqtisodiyot uchun esa hududiy omillarni, ishlab chiqarish bilan hudud o'rtasidagi munosabatlarni, jumladan, tabiatdan foydalanish iqtisodiyoti, geoekologik va iqtisodiy rayonlashtirish, HICHM muammolarini ham o'rganish talab qilinadi.*

5. **MI** – asosan ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish haqidagi fan, hozirgi zamon iqtisodiy geografiyasi esa bir vaqtning o'zida u ham sotsial geografiyadir yoki rasmiy ravishda iqtisodiy va ijtimoiy geografiyadir. *Binobarin, bu fan iqtisodiy masalalar bilan birga ijtimoiy jabhalarni ham o'rganadi, vaholanki MI asosan iqtisodiyot bilan shug'ullanadi. Ammo bu fan ham ichki jihatdan murakkab bo'lib, u mintaqaviy moliya, infratuzilma, mintaqaviy siyosat masalalarini o'z qamroviga oladi.*

6. Iqtisodiy geografiyada rayonlashtirish g'oyasi muhimdir; mintaqaviy iqtisodiyot ana shu rayonlashtirish jarayonining natijasi – *alohida rayon iqtisodiyoti bilan qiziqadi. IG – da ko'p bosqichli hududiy mehnat taqsimoti va shunga mos ravishda turli darajadagi hududiy bozorlar o'rganiladi, MI – da asosan rayon ichidagi hududiy mehnat taqsimoti va rayon (mintaqa) bozori tahlil etiladi; iqtisodiy geografiya ham ichki, ham rayonlararo iqtisodiy munosabatlar va*

²² В.В.Покшищевский “каерда сўз худуд тўғрисида борар экан, унинг эгаси албатта география бўлади”, деб ёзган эди (1979).

integratsion jarayonlar bilan ko'proq shug'ullanadi. Yuqoridagilar ko'rsatadiki, IG MI-ning nazariy-metodologik asosi hisoblanadi.

7. Har ikkala fan uchun ham ishlab chiqarish kuchlarini oddiy joylashtirishdan ko'ra ularni ma'lum maqsadga qaratilgan hududiy tashkil qilish muhimroq. *Hududiy tashkil qilish esa tartib va tarkib, uyushganlik va boshqaruv demakdir. Ana shu ma'noda turli darajadagi hududiy ishlab chiqarish majmualarini shakllantirish asosida iqtisodiy (va iqtisodiy geografik) samaradorlikni amalga oshirish mumkin. Bu samaradorlikka (uni aglomeratsion samaradorlik ham deb ataydilar) o'zaro hududiy uyg'unlashuv, qo'shnihilik va masofani - transport harajatini qisqartirish, tejamkorlik asosida erishiladi. Shu sababdan har qanday mintaqa xo'jaligi mintaqaviy iqtisodiyot bo'lavermaydi, u mintaqa iqtisodiyotidir; mintaqa iqtisodiyoti oddiy tizim, ishlab chiqarish yig'indisi, mintaqaviy iqtisodiyot esa ishlab chiqarishning hududiy majmua, klaster, murakkab va mukammal tizim sifatida shakllanganligini anglatadi.*

8. Mazkur fanlar uchun tabiiy sharoit va qazilma boyliklarning oddiy joylanishi emas, balki ularning turlanishi va, ayniqsa, hududiy birliklari, birlashmalari o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. *A.A.Mints ta'kidlaganidek, tabiiy resurslarning hududiy birligi ("territorialные sochetaniya prirodnых resursov") qo'shimcha samaradorlikka yoki bizning iboramizda "ikki karra ikki to'rt emas, balki besh" bo'lishiga olib keladi. Iqtisodiy geografik samaradorlikka asosan hududiy majmualar, masofa harajatlarini kamaytirish orqali erishiladi.*

9. Mintaqaviy iqtisodiyot va Iqtisodiy geografiyaning rayon va mamlakatlar tahlilida shaharlar va yo'llar o'sha joy xo'jaligining "qovurg'asi" hisoblanadi. *Ammo IG – da hudud ta'rifidan shaharlarga o'tilsa, mintaqaviy iqtisodiyot va mintaqaviy siyosat shaharlar, urbanizatsiya siyosati bilan chambarchas bog'liq, zero o'sish qutb va markazlari, "rivojlanish o'qlari" va yo'laklari hudud iqtisodiyotini shakllantiradi va jonlantiradi.*

10. Mintaqaviy iqtisodiyot iqtisodiy geografiyaga ko'ra amaliyroq, chunki u mintaqaviy siyosat (hududiy siyosat emas!) bilan uzviy aloqador. *Har qanday mamlakatning demografik, fan-texnika, ijtimoiy-iqtisodiy, tashqi siyosati bo'lganidek uning mintaqaviy siyosati ham mavjud. Bu siyosatning ahamiyati ayniqsa bozor munosabatlariga o'tish sharoitida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishni davlat tomonidan tartibga solish, hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini (tafovutini) mumkin qadar kamaytirish va qisqartirish, ishsizlikning ko'payishini oldini olish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash kabi muammolarni hal etishda kattadir.*

Yuqoridagi MI va IGning ilg'ab bo'lmas darajadagi farqlari ularning birgalikda rivojlanishiga to'sqinlik qilmasligi kerak. Aksincha, bu fanlarning o'zaro hamkorligi mamlakat va mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi va konsepsiyasi, dasturlash va prognozlashtirishda, xususan ilmiy asoslangan mintaqaviy siyosatni ishlab chiqish va uni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi

O'zbekiston mintaqalarining ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishi. Har qanday mamlakatning hududi bu uning tabiiy boyligi, milliy iqtisodiyotining rivojlanishidagi muhim omildir. Binobarin, mavjud hududiy imkoniyatlardan, uning demografik, ekologik va iqtisodiy sig'imi-salohiyatidan to'g'ri va samarali foydalanish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning negizidir. Mustaqil mamlakatning o'z mulkiga, jumladan, yer maydoniga egalik qilishi, eng avvalo, uning hududiy jihatdan to'g'ri tashkil etilishi va boshqaruvini nazarda tutadi. Ushbu muammolarning dolzarbligi va keskinligi davlat hududining ko'lami, geosiyosiy o'rni bilan belgilanadi.

Ma'lumki, har bir mamlakatning rivojlanishi pirovard natijada uning doirasida hududiy mehnat taqsimotini tashkil etilganligi bilan ifodalanadi. Shunouqta nazardan, qaraganda sobiq SHO'ro davrida "umumittifoq" mehnat

taqsimotini o'ta markazlashganligi tufayli alohida respublikalar imkoniyat va ehtiyojlari to'laqonli e'tiborga olinmasdi. Qolaversa, to'rtta sobiq ittifoqdosh respublikalar - O'zbekistan, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston yagona O'rta Osiyo iqtisodiy rayoni sifatida qaralardi va bu rayon hududiy mehnat taqsimotida yaxlit subyekt shaklida o'rin olgan edi. Tabiiyki, bunday sharoitda respublika darajasi va ayniqsa uning ichki hududlari "umumittifoq" mehnat taqsimotida inobatga olinmasdi.

Agar bu masalaga yanada kengroq qaraydigan bo'lsak, ko'pgina sobiq ittifoqdosh respublikalar hududiy mehnat taqsimotida ancha keyingi bosqichlarda o'rin olgandi. Uning birinchi bosqichi - xalqaro yoki mamlakatlararo mehnat taqsimoti bo'lib, bunda alohida davlat sifatida Sobiq Ittifoqgina ishtirok etardi. Ikkinchi bosqich - xalqaro sotsialistik mamlakatlar mehnat taqsimoti, uchinchi - Butunittifoq va to'rtinchisi - yirik iqtisodiy rayon (O'rta Osiyo) ichidagi mehnat taqsimoti bo'lib, u amalda yaxshi rivojlanmagandi va alohida respublika doirasida esa bu jarayon yanada zaif edi.

Demak, hozirga kunda har bir mamlakat ichida hududiy mehnat taqsimotini amalga oshirish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Ushbu muammoni ijobiy hal etish o'z navbatida mamlakat iqtisodiy rayon va mintaqalarining yansh tizimi va to'rini shakllantirishga ilmiy poydevor bo'lib xizmat qiladi. Iqtisodiy rayonlar esa endigi sharoitda ko'p bosqichli tarzda ajratiladi.

Hududiy mehnat taqsimoti mamlakatning turli qismlarini xo'jalikning muayyan tarmoq yoki yo'nalishiga ixtisoslashuvi, bu esa ilmiy asosda ajratilgan iqtisodiy rayonlar to'ri va tizimining shakllanishiga olib keladi. O'z navbatida iqtisodiy rayonlashtirish mamlakatni ichki jihatdan tashkil etish va bosh-qarish, uning mintaqaviy siyosatini ishlab chiqish bilan bir qatorda ma'muriy-hududiy tuzilmani to'g'ri belgilashga va uni takomillashtirishga yordam beradi.

Mamlakatimizning hududi, uning davlat chegaralari daxlsizdir; ayni paytda biz qo'shni davlatlarning hudud va chegaralarining ham daxlsizligini tan olamiz va hurmat qilamiz. Binobarin, har bir mamlakat yagona geosiyosiy tizim sifatida o'zining mustahkam va barqaror ichki tuzilishiga, ma'muriy-hududiy bo'linishiga ega bo'lishi kerak. Bu o'rinda aytish joizki, o'tmishda O'zbekiston hududining ma'muriy viloyatlarga bo'linishi, viloyatlar soni va chegaralari tez-tez o'zgarib turgan. Masalan, bir vaqtlar Namangan va Andijon, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarining birlashtirilganligi ko'pchilikka ma'lum. Ayniqsa, Sirdaryo va Jizzax hamda Navoiy va Buxoro viloyatlarining ajratilishi yoki ularning yana qayta qo'shilishi, buning natijasida Samarqand viloyatining goh kengayib, goh qisqarib turishi mamlakat (respublika) ichki ma'muriy-hududiy tuzilmasining barqarorsizligiga olib kelgandi. Tabiiyki, bunday "geografik o'yinlar" ko'p jihatdan salbiy oqibatlarga sababchi bo'ldi. Xususan, viloyatlar doirasidagi quyi ma'muriy rayonlar qishloq tumanlarining turi va tarkibi o'zgaruvchan bo'lgan.

Hozirgi kunga kelib aytish mumkinki, mustaqil O'zbekiston Respublikasining birinchi darajali ma'muriy birliklari - viloyatlari son jihatdan to'g'ri ajratilgan va ushbu ma'muriy tuzilmalarda hududning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi uchun qulay imkoniyatlar mavjud. Ayni paytda ular ma'muriy-iqtisodiy rayonlar turiga ham mos keladi. Ammo mamlakatimiz hududini ayniqsa uning mustaqillikka erishganidan keyin, iqtisodiy rayonlarga ajratish ancha muammoli va shu bilan birga dolzarb masaladir. Muammoning asosiy sababi eng avvalo respublika ichida hududiy mehnat taqsimotining keng ko'lamda rivojlanmaganligidadir. Bundan tashqari mamlakat hududining tabiiy va iqtisodiy geografik jihatdan o'ziga xos xususiyatlari ham rayonlar turi va tarkibi-ni munozarali qilib qo'yadi. Masalan, Farg'ona iqtisodiy rayonining chegarasi va yaxlitligi hech qanday shubha qoldirmaydi. Chunki, u alohida geografik mintaqada joylashgan. Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni (Qoraqalpog'iston Respublikasi va

Xorazm viloyati) ham bu borada aniqlikka ega. Qolgan iqtisodiy rayonlar tarkibi esa ko'pchilik tomonidan bir xil fikr tug'dirmaydi.

O'ylaymizki, katta iqtisodiy va demografik salohiyatga ega bo'lgan va muhim siyosiy vazifani bajaruvchi respublika poytaxti Toshkent va Toshkent viloyati alohida iqtisodiy rayon maqomiga ajratilishga haqlidir. Shuningdek, asosan yangi yerlarni o'zlashtirish negizida vujudga kelgan Sirdaryo va Jizzax viloyatlarining Mirzacho'l iqtisodiy rayoni sifatida belgilanishi ham uncha munozara tug'dirmaydi. Huddi shunga o'xshash Buxoro va Navoiy viloyatlarida Qizilqum cho'li va uning tabiiy boyliklaridan foydalanish umumlashgan mintaqa tashkil etuvchi muhim omil bo'lib, xizmat qilishi mumkin. Surxon vodiysining nisbatan Hisor tog' tizmalarining etagida, mamlakatimizning janubida joylashganligi ham uni hozircha iqtisodiy rayon sifatida ajratishga sabab bo'ladi.

Demak, yuqorida belgilangan iqtisodiy rayonlar va ularning tarkibi ozmi-ko'pmi obyektiv xususiyatga ega. Ayni vaqtda Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarining bu borada mavqelari aytarlicha aniq emas. Ba'zilar ularni yagona Samarqand-Qarshi iqtisodiy rayon sifatida ajratishsa (bunga ma'lum tarixiy va iqtisodiy asoslar mavjud), boshqalar bu viloyatlarni alohida-alohida rayon shaklida ko'rinishini ma'qullaydilar. Bu yerda ikkinchi fikr, nazarimizda, munozaraliroq tuyiladi. Qashqadaryo viloyatini, uning ancha katta va tabiiy zahiralariga boy bo'lgan hududini mustaqil iqtisodiy rayon darajasida qabul qilish imkoniyatlari yo'q emas. Biroq, bu fikr Samarqand viloyatiga uncha to'g'ri kelmaydi. Sababi - ushbu viloyatning xo'jalik salohiyati yakka holda birinchi darajali iqtisodiy rayon darajasidan pastroq.

Hamma narsaning hakami - vaqt, deganlaridyok, ushbu muammoning yechimi ham hozirgi yangiliklarga bog'liq bo'lib qoldi. Chunonchi, G'uzor-Boysun-Qumqo'rg'on temir yo'lining qurilishi munosabati bilan Qashqadaryo va Surxon vodiysi o'rtasidagi iqtisodiy aloqadorlik ancha rivoj topadi, yaqinlashadi.

Shu bois, ularni birgaliqda Janubiy iqtisodiy rayon shaklida ajratish imkoniyati tug'iladi. Buning uchun Hisor tog'larining ikki yon bag'ridagi turli foydali qazilmalarni va ayniqsa, tuz konlarini yangi temir yo'ning ishga tushirilishi sharofati bilan o'zlashtirilishi bu hududlarning bog'lovchi va umumlashtiruvchi omil sifatida xizmat kiladi.

Shunday qilib Qashqadaryo viloyatining mamlakat iqtisodiy rayonlar tizimidagi o'rni ancha ravshanlashadi. Endi esa muammo sifatida Samarkand viloyati qoladi. Fikrimizcha, Buxoro, Navoiy va Samarkand viloyatlarini birgalikda qadimiy va an'anaviy nom bilan Zarafshon iqtisodiy rayoni tarkibiga kiritilsa katta xatolik bo'lmas. Bunga dalil tarzida tarixiy-geografik asos vazifasini bajaruvchi Zarafshon daryosi, Samarkand va Navoiy, Navoiy va Buxoro viloyatlari o'rtasida katta hududiy tafovut yo'q ekanligi (bu ayniqsa, Nurota, Xatirchi va Qiziltepa tumanlariga tegishli) hamda o'lkaning tabiiy salohiyatining umumiyligi, jumladan, oltin konlarining mavjudligi va boshqa omillarni keltirish kifoya.

Yuqoridagi fikr va mulohazalardan kelib chiqqan holda O'zbekiston hududida quyidagi iqtisodiy rayonlarni ajratish mumkin:

1. **Toshkent iqtisodiy rayoni** - *Toshkent shahri va Toshkent viloyati*;
2. **Mirzacho'l iqtisodiy rayoni** - *Jizzax va Sirdaryo viloyatlari*;
3. **Farg'ona iqtisodiy rayoni** - *Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlari*;
4. **Zarafshon iqtisodiy rayoni** - *Buxoro, Navoiy va Samarqand viloyatlari*;
5. **Janubiy iqtisodiy rayon** - *Surxondaryo va Qashkadaryo viloyatlari*;
6. **Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni** - *Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati*.

O'z navbatida rayonlarning ba'zi birlarini yirikroq iqtisodiy mintaqqa shaklida birlashtirsa ham bo'ladi. Masalan, Toshkent va Mirzacho'l rayonlarini Markaziy, Zarafshon va Janubiy rayonlarni esa Janubiy-G'arbiy iqtisodiy mintaqqa darajasida belgilash mumkin. Qolgan hududiy jihatdan yaqqol ajralib turgan

rayonlarni aynan shu tarkibda iqtisodiy mintaqa sifatida qaralishini tavsiya etamiz (Quyida Amudaryo-Shimoliy-G'arbiy, Farg'ona vodiysi-Sharqiy mintaqa).

Shu bilan birga asosiy iqtisodiy rayonlar o'zlaridan kichikroq bo'lgan ma'muriy rayonlar (viloyatlar) hamda viloyatlar ichidagi tumanlararo hududiy iqtisodiy birliklarga ajratiladi. Chunonchi, Qashqadaryo viloyatida Shahrisabz, Qarshi, Muborak yoki Koson, Surxondaryoda - Termiz va Denov, Namangan viloyatida - Namangan va Chust, Qoraqalpog'istonda Nukus, To'rtko'l - Beruniy, Chimboy, Qo'ng'iroq quyida bosqichdagi iqtisodiy rayonlari shakllanmoqda.

Turli darajadagi iqtisodiy rayonlar o'zlarining geografik o'rni, tabiiy, demografik sharoitlari, ekologik vaziyati va resurs imkoniyatlari bo'yicha birbirlaridan farq qilishadi. Eng muhimi, bu hududlar iqtisodiy yo'nalishlari jihatidan o'xshash emas. Binobarin, ularning har biriga xos va mos rivojlanish yo'nalishlari bo'lmog'i lozim. Bunday tadbir ma'lum maqsadga qaratilgan dastur esa ushbu rayonlarni atroflicha o'rganish va baholash, tahlil qilish asosida ishlab chiqiladi va u mamlakatning maxsus hududiy siyosati doirasida amalga oshiriladi.

Eng avvalo, har bir rayonning hozirgi ahvoli, uning "haroratini" aniqlash lozim. Modomiki, barcha tarmoqlar va barcha hududlarni bir vaktning o'zida birday yuqori darajada rivojlantirish imkoniyatlari mavjud emas ekan, u holda bunday imkoniyat va zaruriyat bor bo'lgan alohida tarmoq yoqi rayonlarga ustuvor ahamiyat beriladi. Tabiiyki, bu yerda hamma rayon va viloyatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini mutloq tenglashtirish to'g'risida gap bo'lishi ham mumkin emas. Demak, bozor munosabatlariga xos raqobat hududlar o'rtasida ham yuzaga keladi. Biroq, bu raqobat sog'lom va erkin bo'ladi hamda davlat tomonidan tartibga solib turiladi.

Mamlakat milliy iqtisodiyoti va qudratini yuksaltirishda barcha viloyatlarning o'ziga xos munosib o'rni va ulushi bor. Masalan, Qoraqalpog'iston Respublikasida Orol bo'yi mintaqasidagi ekologik muammolarini hal etib borish,

mavjud kimyo sanoati xomashyosi va tabiiy gaz zahiralardan to'laroq va samaraliroq foydalanish, aholi yashash sharoitini, uning salomatligini tubdan yaxshilash, ijtimoiy infratuzilma tizimini takomillashtirish, yengil va oziq-ovqat sanoatini jadal rivojlantirishga alohida e'tibor beriladi. Shuningdek, respublikani mamlakatimizning ichki rayonlari bilan bevosita temir yo'l bilan bog'lash ham dolzarb masala hisoblanadi.

Xorazm viloyatida asosiy vazifa mehnat resurslaridan to'la foydalanish, qishloq infratuzilmasi va sanoatini rivojlantirish, ekologiya sohasidagi muammolarni bartaraf etishdan iborat. Ayni paytda uning istiqbol yo'nalishi Qoraqalpog'iston Respublikasi bilan birgalikda mamlakatimizning eng chekkada va Yevropa davlatlariga nisbatan yaqin joylashgan iqtisodiy mintaqasi doirasida olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Buxoro viloyatining yaqin kelajakdagi rivojlanishi eng avvalo Qorovulbozor neftni qayta ishlash majmuasini ishga tushirish bilan belgilanadi. Shu bilan birga bu yerda qishloq xo'jaligi va agrosanoat majmuiga ham katta e'tibor beriladi.

Navoiy viloyatini yuqori darajadagi industrial rivojlanishi saqlanib qolinadi va u yanada jadallashtiriladi. Viloyat hududida hali o'rganilmagan tabiiy zahiralari va ma'danlar ko'p. Ular asosida rangli metallurgiya, kimyo va yoqilg'i sanoati rivojlanib boradi. Shu bilan bdrga bu yerda va xususan viloyat janubida ekologik muammolarni hal etish, yengil va oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish muhim masalalardandir.

Samarqandning qadimiy va hozirgi kundagi «ikkinchi shahar» mavqeini saqlab qolishi davr taqozosidir. Ushbu, shahar va unga bo'ysunuvchi joylarda agrosanoat majmui, rangli metallurgiya, xalqaro turizm va boshqa sohalarga ustuvor jihatdan ahamiyat berilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini mustahkamlashda Qashqadaryo viloyatining alohida o'rni bor. U ayniqsa, yoqilg'i-energetika, kimyo, don, paxta

va boshqa mahsulotlarni yetishtirishda muhim o'rinni egallaydi. Mamlakatimizdagi eng yirik Ko'qdumaloq neft konining o'zlashtirilishi, ulkan Tallimarjon IESining ishga tushirilishi nainki viloyat, balki butun mamlakat iqtisodiy rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Qo'shni Surxon vodiysining yaqin kelajakdagi istiqboli-ko'mir, tuz, rangli metall konlaridan foydalanish, G'uzor-Boysun-Qumqo'rg'on temir yo'lini ishga tushirish, ingichka tolali paxta yetishtirish va uni qayta ishlash bilan belgilanadi. Shu bilan birga viloyatning rivojlanishi uning iqtisodiy va siyosiy geografik mavqeini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Jizzax va Sirdaryo viloyatlarining hozirgi iqtisodiy va ayniqsa sanoat salohiyatlari uncha yuqori emas. Bu borada Jizzax viloyati bir oz bo'lsada resurs imkoniyatlariga ega (rangli va nodir metallar, qurilish materiallari xom ashyosi va h.k). Sirdaryo viloyati esa mamlakatimizda mineral xom ashyoga boy bo'lmagan rayon xisoblanadi. Mavjud imkoniyatlardan kelib chiqqan holda ushbu viloyatlar agrosanoat majmui hamda ularni erkin iqtisodiy mintaqa maqomida rivojlantirish ma'qulroq. Buning uchun ushbu hududning iqtisodiy geografik mavqei - uning



43-rasm. Asaka avtomobil zavodi

Toshkent, Farg'ona va Zarafshon mintaqalari o'rtasida joylashganligi ham qulaylik yaratadi.

Farg'ona iqtisodiy rayoni viloyatlarining rivojlanishi-eng avvalo bu yerdagi mavjud ortiqcha mehnat resurslari va qishloq xo'jalik xomashyosi bilan belgilanadi.

Shuningdek, Asakada ishga tushirilgan "GM-Uzbekistan" avtokorxonasi mintaqa sanoatining tarmoqlari va hududiy tarkibiga katta ahamiyatga ega (43-rasm).

Andijon viloyatida mashinasozlik va yengil sanoat, Farg'onada ko'p tarmokli sanoat majmui - yengil, neft-kimyo qurilish materiallari, oziq-ovqat, Namanganda yengil sanoat ustuvor darajda rivojlanib boradi. Shu bilan birga paxta (ayniqsa "Andijon usuli" asosida), pilla, uzum va meva yetishtirish hamda ular bilan bog'liq agrosanoat majmuini rivojlantirish o'z an'anaviyligini saqlab qoladi.

Toshkent iqtisodiy rayonida Angren-Olmaliq tog'-kon sanoati, rangli va qora metallurgiya, to'qimachilik sanoati tarmoqlari, shahar atrofi xo'jaligi rivojlanishiga asosiy urg'u beriladi. Ayni paytda viloyatda ekologik vaziyatni yaxshilash ham dolzarb masala hisoblanadi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng uning poytaxti Toshkentga bo'lgan munosabat tubdan o'zgarib bormokda. Eng avvalo, bu yerda poytaxt shaharga xos va mos bo'lgan sohalar, xususan uning siyosiy funksiyalariga katta e'tibor beriladi. Modomiki, Toshkent jahon hamjamiyati va geosiyosiy tuzilmasida O'zbekiston nomidan muomila qilar ekan, u ana shu mas'uliyatli va nufuzli bosh vazifaga muvofiq darajada bo'lishi davr talabi. Shu munosabat bilan poytaxtimiz Toshkentda yaqin kelajakda ham obodonlashtirish va shahar qurilishi borasida ulkan ishlar olib boriladi.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasining siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishda uning mustaqilligi va mustahkamligini ichki jihatdan ta'minlovchi hududlar – viloyat va rayonlarning ahamiyati bekiyosdir. Shu bois yuqorida bayon etilgan fikrlardan kelib chiqqan holda mamlakat hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bo'yicha yagona davlat siyosati va maxsus davlat dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiiq qilish muhim va dolzarb masaladir.

O'zbekistonda iqtisodiy rayonlar nechta va ular nima uchun kerak?
Taniqli rus iqtisodiy geografi N.N.Kolosovskiy: "Har bir fanning bosh, birlamchi tushunchasi ayni vaqtda eng murakkab va eng muammoli tushunchadir. Biologiyada bunday tushuncha hujayra, kimyo fanida - atom, tarixda davr,

geografiyada esa rayondir”, deb yozgan edi. Chindan ham shunday, chunki bu o’zak tushunchaning mohiyatini aniqlash va uni to’g’ri qo’llash barcha fanlarning asosiy muammosidir.

Rayon va rayonlashtirish geografiya uchun katta nazariy ahamiyatga molik tushuncha hisoblanadi. Geografiya hamma vaqt hududiy tafovut, hududiy tarkib va hududiy tizimlarni o’rganuvchi fandır. U doimo bir joydan ikkinchi joyning farqi, hududlarning xususiyatini tahlil va tadqiq qilar ekan, ana shu farq qiluvchi hududiy birliklar o’ziga xos rayonlarni tashkil qiladi, sababi - ma’lum bir joy o’zining umumiy xususiyatlariga ko’ra boshqa joy va unga tutash hududlardan farq qiladi.

Rayonlashtirish xususan iqtisodiy geografiya uchun zarurdir. Qolaversa, o’tgan asrning 20–30-yillarida N.N.Baranskiy tomonidan asos solingan iqtisodiy geografiya ham aynan rayonlar yo’nalishida tashkil etilgan. Uning izdoshi va shogirdi Y.G.Saushkin esa iqtisodiy geografiyaning tarixini rayonlashtirish tarixi bilan belgilagan.

Xo’sh, ushbu tushunchaning murakkabligi nimada? Birinchidan, haqiqiy geografik rayonni aslo ma’muriy rayonlar bilan chalkashtirish kerak emas; ikkinchidan, rayonlar o’zining ko’p bosqichlik ierarxiyasiga, xususiyatiga ega va geografiya fanining buyuk fazilati, betakror, jozibali jihati ham aynan hududiy fikrlash, hududiy tahlilning turli miqyosda (masshtabda) olib borilishidadir; uchinchidan, real geografik borliq -rayonni har qanday ko’rinishdagi ma’muriy nohiya yoki tumanlar bilan almashtirish savodsizlik alomatidir; to’rtinchidan, geografik rayonlashtirish turli o’simlik (meva, paxta, uzum va h.k.) navlarini rayonlashtirish mazmunini anglatmaydi; beshinchidan, rayon soni mamlakat hududining katta -kichikligiga emas, ularda hududiy mehnat taqsimotining qay darajada rivojlanganligiga bog’liq; oltinchidan, davlatlarning siyosiy tuzumini o’zgarishi rayonlashtirishga bo’lgan ilmiy dunyoqarashni o’zgartirmaydi, u barcha mamlakatlarga xos tushunchadir va, yettinchidan rayonlar to’ri va tarkibi tarixan

o'zgaruvchan hisoblanadi. O'zbekistonda turli davrlarda iqtisodiy rayonlar turi va tarkibi har xil ajratilgan; ularning soni 6, 7, 8 ta bo'lgan. Qayd etish joizki, hozir ham turli manbalarda bu borada bir xil kelishuv yoki to'xtamga erishilmagan. Masalan, P.Musaev va J.Musaevlarning VIII-sinf darsligida 8 ta, A. Soliev va R.Kurbonniyozovlarning shu sinf uchun tayyorlagan "muqobil" darsligida esa 6 ta rayonlar ajratilgan. Respublikamiz hududini aynan oltita iqtisodiy rayonlarga ajratish A.Soliev tomonidan 1998 yildan beri asoslanib kelinmoqda.

Bunday kelishmovchiliklarning sababi iqtisodiy rayonlarning turli bosqichlik tamoyiliga to'g'ri amal qilmaslikdir. Har bir mamlakat iqtisodiy makoni (milliy iqtisodiy bozor muhiti) asosiy iqtisodiy rayonlardan, ular esa, o'z navbatida ma'muriy iqtisodiy rayonlardan tashkil topadi. Masalan, Farg'ona iqtisodiy rayoni - asosiy iqtisodiy rayon, uning "egasi", bevosita boshqaruvchi rasmiy tashkiloti yo'q. Ayni chog'da mazkur rayon 3 ta ma'muriy iqtisodiy rayonlardan (Andijon, Namangan, Farg'ona viloyatlaridan) tarkib topgan va bu hududlarning har birini boshqaruvchisi, ya'ni hokimiyati mavjud Shu bois, ma'muriy iqtisodiy rayonlar davlatning samarali mintaqaviy iqtisodiy siyosatini amalga oshirishning muhim subyekti sifatida xizmat qiladi.

Yuqorida keltirilgan respublikamizdagi 8 ta iqtisodiy rayonlar to'rida asosiy rayonlar bilan rayonlarning vertikal tizimida ikkinchi pog'onada turuvchi ma'muriy iqtisodiy rayonlar chalkashtirilgan va bir tartibda ko'rilgan. Chunonchi, Toshkent, Mirzacho'l, Quyi Amudaryo kabi murakkab tarkibdagi iqtisodiy rayonlar katorida Samarkand, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari ko'rilgan, vaholanki ularning "vazni", salohiyati va ma'muriy maqomi aslo asosiy iqtisodiy rayonlarga to'g'ri kelmaydi. Ma'muriy iqtisodiy rayonlar o'z navbatida ichki rayon yoki rayonchalarga ("okruglarga") bo'linadi. Ularning ham aksariyat hollarda yagona "egasi" mavjud emas. Bunday guruh, ya'ni uchinchi bosqichdagi iqtisodiy


rayonlar ma'muriy qishloq rayonlari, aniqrog'i - tuman yoki rayonlardan iborat va ularning har birida rasmiy hokimiyatlar mavjud.

Shu bilan birga, ba'zan asosiy iqtisodiy rayonlarni birlashtiruvchi bosh rayon yoki yirik mintaqalar ham ajratilishi mumkin. Jumladan, bizning fikrimizcha, Toshkent va Mirzacho'l iqtisodiy rayonlari Markaziy mintaqani Zarafshon, Buxoro, Navoiy va Samarkand viloyatlari) hamda Janubiy iqtisodiy rayonlar (Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari) Janubi - g'arbiy mintaqani tashkil etadi.

Umuman olganda, rayonlar va ular chegarasini aniqlash ayniqsa anklav va eksklav xarakterga ega bo'lmagan, yaxlit tabiiy geografik birliklardan (masalan, alohida joylashgan, orollar, yarim orollar) tashkil topmagan mamlakatlarda

murakkab muammo sanaladi.

Bunday sharoitda an'anaviy rayonlashtirish prinsiplari va omillari bilan birga rayon hosil qiluvchi markazlarning shakllanganligi ham katta ahamiyatga ega. Nemis olimlari V.Kristaller (44-rasm) va A.Lyoshlar aynan turli daraja - rangdagi markazlarning (aholi manzilgohlarining) ta'sir



44-rasm. V.Kristallerning «markaziy o'rinlar» modeli. 1-eng kichik aholi manzilgohi; 2-mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan markaz; 3-undan yuqori pog'onada turuvchi shahar

doirasi radiusini aniqlash, bozor makoni va muhitini ajratishga e'tibor qaratishgan. A.Lyosh bunday iqtisodiy makon yoki rayonlarni "iqtisodiy landshaftlar" deb atagan. Ta'kidlash joizki, bozor. ya'ni erkin va raqobatli iqtisodiy munosabatlarga o'tish sharoitida iqtisodiy rayonlarning mohiyat-maqсадini aniqlash avvalgi

planlashtirish tashkilotlari (“Gosplan”) barham topgandan so’ng, jiddiy ilmiy va amaliy masala bo’lib qoldi. Binobarin, hozirgi sharoitda iqtisodiy yoki iqtisodiy geografik rayonlar «ishlab chiqarish kuchlarini planli va proporsional joylashtirish va rivojlantirish» uchun emas, balki davlatning mintaqaviy siyosatini amalga tatbiq etishda asqotadi. Qolaversa, har qanday mamlakatning haqiqiy iqtisodiy geografiyasini (“geometriyasi” yoki “basharasini”), ichki iqtisodiy manzarasini faqat iqtisodiy rayonlarni tahlil qilish orqali o’rganish mumkin. Iqtisodiy rayonlar statistik hisob-kitoblarni olib borishda, harbiy okruglarni ajratishda hamda mintaqaviy dasturlash va prognozlashda ham ahamiyatlidir. Kelajakda, balki ayrim davlatlar tajribasidan kelib chiqqan holda, asosiy iqtisodiy rayonlarda ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirish va rivojlantirish bo’yicha qandaydir muvofiqlashtiruvchi mintaqaviy tashkilot (kengash) yoki respublika rahbariyati qaror va ko’rsatmalarining bajarilishini nazorat qiluvchi Prezidentning maxsus vakili ish olib borsa, maqsadga muvofiq bo’lsa kerak.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya amaliyotida qo’llanilayotgan ba’zi tushuncha va qonuniyatlarni tushuntiring?
2. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya va mintaqaviy iqtisodiyot fanlarining o’xshashlik va farqli tomonlari nimalardan iborat?
3. O’zbekiston mintaqalarining ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishidagi farqlar nimalardan iborat?
4. O’zbekistonda iqtisodiy rayonlar nechta va ular nima uchun kerak?

MAVZUGA DOIR ASOSIY TUSHUNCHALAR

Iqtisodiy geografik jarayon - amalda hududiy mehnat taqsimotining rivojlanib borishini anglatadi. Yangi yerlarning, qazilma boyliklar yoki boshqa

tabiiy resurslarning o'zlashtirilishi, milliy va mintaqaviy iqtisodiyot hududiy tarkibining o'zgarishi va takomillashuvi, diversifikatsiyasi, ularning natijasida yangi magistral yo'l va shaharlarning (markazlarning) vujudga kelishi, umuman olganda, hududlar "geometrik geografiyasi", iqtisodiy landshafti yoki kartasining shakllanishi va rivojlanishi ushbu jarayon mohiyatini aks ettiradi.

Iqtisodiy geografik vaziyat - hududiy mehnat taqsimoti, iqtisodiy rayonlar turi va tarkibi, mamlakat va boshqa joyning iqtisodiy sig'imi, uning ichki tafovutlari, rayon yoki hududiy majmua hosil qiluvchi asosiy markazlarining mavjudligi va ularning o'zaro hududiy munosabati orqali belgilanadi. Masalan, O'zbekistan Respublikasining iqtisodiy geografik vaziyati, eng avvalo, uning ishlab chiqarish, demografik va infratuzilma salohiyatining asosan voha va vodiylarida hududiy mujassamlashuvi bilan tavsiflanadi. Mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti yoki sanoat ishlab chiqarishining asosan Toshkent shahri, Toshkent va Navoiy viloyatlarida yuqori darajada rivojlantirilganligi, respublika mintaqalarida iqtisodiy «zichlik» va xo'jalik ixtisoslashuvining turli tumanligi xam ushbu vaziyatni ifodalab beradi.

Geografiylik yoki hududiylik koeffitsiyenti joyning (mamlakat, mintaqqa va h.k.) ichki tafovutlari, uning rang - barangligini ko'rsatadi. Odatda, u eng yuqori va eng past ko'rsatkichlar nisbati orqali belgilanadi va "karra" yoki "marta" so'zlari bilan ifodalanadi. Bunday ko'rsatkichni turli sohalarda va turli hududiy darajada qo'llash mumkin: aholi tabiiy harakati, sug'oriladigan yer (maydon) ulushi, mintaqqa yoki qishlok tumanlari eksport salohiyati, transport turining zichligi, aholining kasallanish ko'rsatkichlari va h.k. Geografiylik koeffitsiyent qancha kichik bo'lsa, ichki hududiy tafovutlar oz bo'ladi, va aksincha. Mazkur ko'rsatkichni tahlil qilishda qo'shnichilik holat katta mazmun kasb etadi. Chunki, tabiatda ham, ijtimoiy - iqtisodiy hayotda ham ikki qo'shni joy bir-biridan keskin farq qilmaydi. Shu bois, geografiyadagi chegaralar ko'p hollarda mutloq aniqlikka

ega emas va inkorni inkor qonuniga binoan, bir-birida ikki tutash hududning unsurlari, alomatlari uchrab turadi.

Geodemografik to'liqlar. Ma'lumki, demografik to'liqlarni fanga taniqli olim B.S.Urlanis kiritgan va u Ikkinchi jaxon urushi ta'sirida aholi tug'ilish koeffitsiyentining vaqt o'tishi bilan ma'lum yillar oralig'ida pasayishi va bu to'liqlarning asta-sekin so'nib borishini tushungan edi. Agar demografik jarayonlar, asosan aholining tug'ilish ko'rsatkichidagi o'zgarishlar vaqt va davr, makon va zamon birligida olinsa, u holda o'ziga xos geodemografik to'liqlar vujudga keladi. Masalan, G'arbiy Yevropada va Yaponiyada boshlangan tug'ilish koeffitsiyentining qisqarib borishi qarama-qarshi geografik yo'nalishda davom etib, Qozog'iston Respublikasining shimol, g'arb va sharqiy qismini ham egalladi va hozirda u bu mamlakatning janubiy qismiga "etib keldi".

O'zbekistonda ham so'nggi 15-20 yillarda kuzatilayotgan tug'ilish ko'rsatkichining qisman pasayishi asosan Toshkent shahri va Toshkent viloyatida boshlanib, to'liqinsimon boshqa hududlarga tarqaladi va janubiy mintaqalarda - Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida "to'xtaydi". Boshqacha qilib aytganda, to'liqin boshida qayd etilgan holat bir necha yildan so'ng to'liqin oxirida kuzatiladi.

Geodemografik to'liqlar N.D.Kondratyevning "uzun to'liqlar" va T.Xegerstrandning "yangiliklarning diffuzion" tarqalishi g'oyalariga birmuncha hamohangdir.

Joyning "tog'lilik" koeffitsiyenti. Ushbu ko'rsatkich tog' egallagan xududning mintaqa yoki mamlakatning umumiy maydoniga nisbati orqali aniklanadi. Jumladan, O'zbekistonda u taxminan 0,21, Surxondaryo viloyatida 0,70 atrofida (agar bu ko'rsatkich 1,00 ga teng bo'lsa), ko'rilayotgan hudud to'liq tog'lik hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligida foydali yer koeffitsiyenti mamlakat, viloyat, qishloq tumanida qishloq xo'jaligi ekin maydonlarining umumiy yer fondiga nisbatidir.

Chunonchi, bu ko'rsatkich Andijon yoki Xorazm viloyatlarida 1,00 ga yaqin (demak, intensiv o'zlashtirilgan), Qoraqalpog'iston Respublikasi yoki Navoiy viloyatida esa u ancha past.

Geokriminogen vaziyat jinoyatchilikning hududiy tarkibi va darajasi, har xil hududlarda u yoki bu turdagi jinoyat ko'rsatkichlari, asosiy xavfli kriminogen o'chog' yoki markazlarning (bozor, mozor, vokzal va b.) o'zaro hududiy joylashuvi va h.k.

Aholi takror barpo etilishining samaradorlik ko'rsatkichi tug'ilish va o'lim yig'indisining (*tabiiy harakat ko'rsatkichlari aylanmasining*) tabiiy ko'payishga nisbati. Bu ko'rsatkich mutloq raqamlar yoki nisbiy - promilleda ham topilishi mumkin. O'lim ko'rsatkichi qancha past bo'lsa, aholi takror barpo bo'lishi samaradorligi shuncha yuqori, ya'ni 1,00 ga tug'ilganlar soniga yaqin bo'ladi.

Oraliq shaharlar qonuni. Odatda, yirik shahar o'zining bevosita yonida yana boshqa xuddi shunday kattalikdagi shaharning vujudga kelishiga «yo'l qo'ymaydi», to'sqinlik qiladi (xuddi shunday, daraxt ham). Demak, shaharlarning o'z ta'sir zonasi, raqobat muhiti bo'ladi. Ko'pincha ikki yirik shahar ta'sir zonasi susaygan, zaiflashgan yoki tugagan nuqtada yangi shahar vujudga keladi va u raqobatsiz tez rivojlanadi. Masalan, mamlakatimizning qadimiy shaharlari - Samarkand va Buxoro o'rtasida Navoiy shakllanib, qisqa muddatda yirik shaharlar qatoridan joy oldi. Bunday mavqega esa qadimiy G'ijduvon yoki Kattaqo'rg'on erisha olmadi.

Hududiy majmualar. Ma'lumki, hududiy ishlab chiqarish majmualari tushunchasini fanga N.N.Kolosovskiy kiritgan. Tajriba ko'rsatadiki, bunday hududiy birikmalar nafaqat ishlab chiqarishda, balki ijtimoiy sohalarda, jumladan, aholiga xizmat ko'rsatish va tibbiy geografiyada (nozogeografik majmualar), servis sohasida ham ko'p uchraydi. Binobarin, hududiy majmualar umumgeografik tushuncha bo'lib, ular ayni vaqtda majmualari (kompleks) yondoshuvni talab qiladi.

13 – MAVZU

TABIAT VA JAMIAT O‘ZARO ALOQADORLIGI BILAN BOGLIQ TADQIQOTLARNING NAZARIY- METODOLOGIK ASOSLARI

Maqsad: *Inson va tabiatning o‘zaro ta‘sirini o‘rganish hamda uning hududiy xususiyatlarini yoritib berish.*

Tayanch so‘z va iboralar: *Tabiat – kishilarning moddiy va ma‘naviy talablarini qondirish manbai, insonning tabiatga ta‘siri, tabiat unsurlari (komponentlari), tabiat boyliklari, ekologik omil, tabiat omili, tabiatni muhofaza qilish.*



REJA:

1. Inson va tabiatning o‘zaro ta‘sirini o‘rganishda geografiyaning o‘rni.
2. “Ekologiya”, “tabiatdan foydalanish”, “ijtimoiy ekologiya”, “inson ekologiyasi”, “geoekologiya” tushunchalarining o‘zaro bog‘liqligi.
3. Barqaror rivojlanish konsepsiyasining geografik tadqiqotlarga ta‘siri.
4. Ishlab chiqarishni hududiy joylashtirishga ekologik omilning ta‘siri.
5. Ortiqcha xarajatlar. Eksternallarning salbiy ta‘siriga qarshi kurash usullari.



Har bir sohaning o‘ziga xos atama va ilmiy tushunchalari mavjud. Shuning uchun ham har bir mutaxassis o‘ziga yoqqan yoki o‘zicha to‘g‘ri deb hisoblagan atama va tushunchalardan foydalana bilishga ma‘suliyat bilan qarashi kerak. Har bir atama va tushuncha ilmiy asoslangan bo‘lishi bilan bir qatorda sodda, tushunarli bo‘lishi zarur.

Quyida amaliyotda qo'llanilayotgan ba'zi ekologik, tabiatdan foydalanish va tabiatni muhofaza qilish sohalariga oid atama, tushunchalarga izoh beriladi.

Tabiat insoniyatning yashashi uchun, uni o'rab turib bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadigan tabiiy sharoit. Tabiat – cho'l, adir, tog', yaylov, o'rmon, dala, tevarak-atrof va shu kabilarning tabiiy sharoiti, manzarasi. **Tabiat** – tabiiyot fanlarining (*fizika, astronomiya, mexanika, kimyo, biologiya, geografiya, geologiya va boshqalar*) o'rganadigan obykti. Tabiat – biror narsaning xususiyatlari va o'ziga xos belgilari. Tabiat insonni fe'li, xulq-atvori, kayfiyati, ruhiy holati, didi va farosati, hatto yaratuvchi, ilohiy kuch hisoblanadi.

Insonni o'rab turuvchi borliq insoniyat mavjudligining zaruriy asosidir. Tabiat barcha ijtimoiy-iqtisodiy bosqichlarda insonlar faoliyatining moddiy asosi bo'lib kelgan. Inson va tabiat bir-biridan ajralmas va o'zaro uzviy bog'liqdir. Chunki tabiat har bir odam va butun jamiyat uchun zaruriy hayot muhiti va moddiy resurslarniig yakkayu-yagona manbaidir. Tabiat va tabiiy resurslar kishilik jamiyati vujudga keladigan va rivojlanadigan asos, kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondiradigan birinchi manbadir. Tabiat va jamiyat, bir-biri bilan bog'liq holda bir butunlikni tashkil etadi. Shu sababli, kishilik jamiyatining o'zi ham, ma'lum ma'noda tabiatning bir qismi bo'lib, atrofni o'rab turuvchi tabiiy muhit bilan modda almashinishida muhim rolb o'ynaydi. Odam, ayni vaqtda, ham biologik, ham ijtimoiy hodisadir. Tabiat insonga boshqa tirik organizmlar qatori ta'sir o'tkazadi. Biroq, insonning tabiatga bo'lgan ta'siri esa, ongli ta'sir bo'lib, ijtimoiy mazmun kasb etadi.

Shunday qilib, inson mehnati tufayli, hayvonlardan farq qilib, tabiiy muhitning biologik nazorati ostidan chiqdi va o'zining elementar fiziologik funksiyalari ehtiyojini katta doirada qondirish imkoniyatini oldi. Mehnat, aql-idrok va ijtimoiy faoliyat insonni evolyutsiyaning eng yuqori darajasiga ko'tardi va uning tabiatga ko'rsatadigan ta'sirining oqilona bo'lishini belgilab berdi.

Tabiat jamiyatga xomashyo, energiya va hatto estetik boyliklar beradi (45-rasm), uni o'zining tashkil topishi, tuzilishi, rivojlanishi qonuniyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar bilan qurollantiradi, ishlab chiqarishga va ijtimoiy jarayonlarning borishiga faol ta'sir ko'rsatadi.



45-rasm. Tabiat – barcha imkoniyatlar manbai

Tabiatda unsurlarni o'zaro nisbati o'zgarsa, joy tabiati va landshafti o'zgarishi mumkin. Masalan: suvga tanqis, cho'lli hududda ba'zi sabablar bilan suv ko'payib

ketsa, yangi botqoqliklar, sho'r yerlar vujudga keladi va joyning mikroiklimi, tuproq-o'simlik qoplami, hayvonot dunyosi, ya'ni tabiati o'zgaradi. Shuning uchun tabiat unsurlariga ta'sir ko'rsatishdan oldin oqibatda paydo bo'ladigan natijalarni oldindan ko'ra olish va bashorat qila bilish kerak.

Tabiatdan foydalanish – tabiat va tabiiy resurslar imkoniyatini hisobga olgan holda, ulardan to'g'ri foydalanishining turli shakllari, jamiyatning moddiy va madaniy talablarini qondirish uchun tabiatdan va uning resurslaridan to'g'ri foydalanish, tabiat qonunlarini hisobga olgan holda kishilik jamiyati manfaatlarini ko'zlab, tabiatni o'zgartirish, kishilik jamiyatini Yerning geografik qobig'iga ta'siri majmuasi va tabiat, tabiiy resurslaridan to'g'ri foydalanish va uni muhofaza qilish to'g'risidagi fandır.

Tabiatdan foydalanishdagi omillar – tabiat boyliklaridan foydalanish jarayoniga ta'sir ko'rsatadigan omillar (abiotik, biotik va antropogen) hamdir. Omillar quyidagi uch guruhga bo'linadi: tabiat boyliklariga ta'sir ko'rsatadigan, ishlab chiqarishga ta'sir (muhit ifloslanishi) ko'rsatadigan, tabiatdan foydalanuvchi insonga ta'sir ko'rsatadigan.

Ekologik omil – tirik organizmlarni turli joylarda moslashishi amalga oshuvchi muhitning jami tabiiy va sun'iy sharoitlaridir. Ekologik omillar kelib chiqishi (genezis) bo'yicha quyidagilarga bo'linadi: koinot, abiotik, biotik, antropogen, biologik va boshqalar.

Tabiat omili – turli tabiiy hodisa va jarayonlarning harakatdagi kuchining ta'siri. Ular ta'siri oqibatida tabiiy, landshaftlar o'zgarishi mumkin.

Tabiatni muhofaza qilish – davlat, xalqaro, jamoat, ilmiy-texnik, ishlab chiqarish, iqtisodiy va ma'muriy tashkilotlar tomonidan tabiatni ilmiy asosda insoniyat manfaatlarini ko'zlab saqlashga, tabiatdan va uning resurslaridan to'g'ri foydalanishga, ongli ravishda o'zgartirishga, uning mahsuldorligini saqlab qolishga va atrof-muhitni iloji boricha



46-rasm. Tabiatni muhofaza qilish kelajak avlod oldidagi burchimiz

tabiiy hamda toza saqlashga qaratilgan tadbirlar majmuasidir (46-rasm). Tabiatni muhofaza qilish asosan quyidagicha olib boriladi:

1) alohida ajratilgan hududlarda tabiat tabiiy holda saqlanadi va ko'paytiriladi;


2) tabiatga ta'sir etib, undan to'g'ri foydalanib madaniy landshaftlar hosil qilinadi.

Tabiatni muhofaza qilishning dastlabki bosqichida yo'qolib borayotgan alohida o'simlik va hayvon turlarining muhofazasi amalga oshirilgan. Insoniyatning ehtiyojlari o'sib, tabiiy resurslardan foydalanish kuchayganidan keyin, tiklanadigan va tiklanmaydigan resurslarni muhofaza qilish va ulardan to'g'ri foydalanish bosqichi vujudga kelgan. XIX asrning o'rtalaridan boshlab

tabiiy resurslar bilan bir qatorda, tabiiy hududiy komplekslar – alohida noyob hududlarni muhofaza qilish bosqichi ajratildi.

Atrof-muhitni hozirgi zamon ekologik muhofazasi bosqichi, insonning tabiatga ta'siri umumsayyoraviy masshtabga yetgan XX asr o'rtalaridan boshlangan. Bu bosqichning asosiy vazifasi ekologik sistemalarni muhofaza qilish, ularning o'z-o'zini tiklash qobiliyatini ta'minlash va biosferadagi muvozanatni saqlashdir. Bunda tabiatdan oqilona foydalanish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Kishilik jamiyati va tabiat bir butundir. Jamiyat rivojlangan sari insonning tabiatga ta'siri ortib boradi (47-rasm). Tabiiy omillar bilan antropogen omillar o'zaro uyg'unlashib tabiiy landshaftlarning o'rniga antropogen landshaftlar vujudga keladi.



47-rasm. Antropogen faollik

O'zgartirilgan tabiiy muhit, landshaftlarga inson aralashib turmasa, ular o'z tabiiy holatiga qaytishga moyil bo'ladi.

Insonning tabiatdan foydalanishi zaruriy ehtiyoj, inson tabiatdan qancha ko'p foydalansa, tabiatda shuncha ko'p o'zgarishlar ro'y beradi. Bunga qator misollar keltirish mumkin.

Tabiatning bir butunligi tabiiy boyliklardan kompleks foydalanish zaruriyatini tug'diradi. Chunki, tabiat unsurlari (iqlim, yer-suv, o'simlik va hayvonot dunyosi, foydali qazilmalar) tabiatning ajralmas tarkibiy qismlaridir.

Tabiiy resurslarning har biri kompleks foydalanishni talab etadi. Masalan: daryodan elektr energiyasi manbai, turli baliq, suv qushlari va boshqa hayvonlarning makoni, qishloq xo'jalik yerlarini sug'orish manbai, transport vositasi, chuchuk suv – manbai, rekreatsiya – turizm obyekti va boshqa sohalarda foydalanish mumkin.

Tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilishda har xil katta kichik hududlar, hatto kichik joyning mahalliy sharoiti, tabiiy boyligining holati hisobga olinadi va bu bilan regionallikka amal qilinadi.

Tabiiy fanlar (*biologiya, geografiya, geologiya, fizika, astronomiya, matematika, kimyo va boshqalar*) ekologiya, tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilish bilan bevosita bog'liqdir. Bunga qator misollar keltirish mumkin. Masalan: tabiiy muhit – qator tabiiy fanlarning ilmiy-tadqiqot predmeti hisoblanadi. Barcha ilmiy va ilmiy-texnologik ishlab chiqarishlar tabiiy fanlarning ilmiy, amaliy xulosalariga tayanish kerak.

Tabiat boylıklaridan to'g'ri foydalanish va uni muhofaza qilish faqatgina tabiiy fanlari o'rganadigan obyekt bo'libgina qolmasdan, ijtimoiy fanlarni ham o'rganadigan asosiy obyektlaridan hisoblanadi. Uning ilmiy, texnologik, iqtisodiy, tabobat, yuridik, madaniy, tarbiyaviy va boshqa qirralari bir butun majmua jarayon bo'lib, aniq ifodalangan fanlararo xarakterga ega.

Tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilishda juda ko'p, xilma-xil jihatlar mavjud: ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-falsafiy, sog'lomlashtirish-gigiena, yuridik, estetik, ta'lim-tarbiyaviy, ilmiy va boshqalar. Yuqoridagi jihatlarini o'nlab fanlar va ularning tarmoqlari o'rganadi.

Hozirgi vaqtda tabiiy boylıklarga ehtiyoj kundan-kunga ortib bormoqda. Shu sababli, har bir yoshda ijtimoiy ongni shakllantirish va taraqqiy ettirish kerak. Ijtimoiy ong shakllari xilma-xilligi, obyektiv olamning – tabiat va jamiyatning boyligi, serqirraligi va turli-tumanligidan kelib chiqadi.

"Tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilish" ishlab chiqarishning geografik joylashishi, uning turli davlatlar va hududlarda rivojlanish sharoiti va xususiyatlarini o'rganadigan ijtimoiy-iqtisodiy geografiya bilan chambarchas bog'liqdir. Ijtimoiy-iqtisodiy geografiyaning asosiy tarmoqlaridan hisoblangan joyning tabiiy boyliklariga xo'jalik nuqtai nazaridan baho berish ham kiradi. Chunki, tabiiy sharoit xo'jalikka, mehnat unumdorligiga, aholi va aholi joylarining tarqalish xususiyatlariga katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun, soha tadqiqotlarida hududning tabiiy boyliklarini iqtisodiy baholash katta ahamiyatga ega.

"Tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilish" kursi "Iqtisodiy nazariya", "Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish", "Milliy iqtisodiyot", "Mintaqaviy iqtisodiyot", "Statistika" va boshqa iqtisodiy fanlar bilan uzviy bog'liqdir. Masalan: ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirishda jumladan, ayrim davlat yoki hududlarda sanoat, qishloq xo'jaligi, transportning taqsimlanishida tabiiy sharoit va resurslarning aholining soni, tarkibi muhim ahamiyat kasb etadi. Ishlab chiqaruvchi kuchlar, o'z navbatida, tabiiy boyliklardan foydalanishga, ijtimoiy mehnat unumdorligiga, ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayoniga ta'sir ko'rsatadi.

Ilmiy-texnika taraqqiyoti mehnat vositalarining takomillashishiga va o'z navbatida muhitga ishlab chiqarish ta'sirining kuchayishiga va uning ifloslanishiga olib kelmoqda. "Demografik portlash", ya'ni yer yuzi aholisi sonining keskin oshishi ham tabiatga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Antropogen ta'sir global ekologik sistema biosferaning faoliyatiga ham jiddiy ta'sir yetkazib, umumsayyoraviy ekologik halokat xavfini keltirib chiqarmoqda.

Tabiatni muhofaza qilishning ilmiy, iqtisodiy, sog'lomlashtirish, tarbiyaviy, estetik maqsadlari adabiyotlarda yetarlicha yoritilgan. Insoniyatning tabiatga, turli bosqichdagi tabiiy majmualarga turlicha ta'siri yuqori darajaga ko'tarilgan vaqtda, ekologik muvozanat buzilishining oldini olish muammosi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Ekologik vaziyatni o'rganish, tabiatdan foydalanish va tabiatni muhofaza qilishni to'g'ri tashkil qilish muhim ahamiyatga ega (48-rasm). Ekologik vaziyatni o'rganish tabiiy muhit holatini kuzatish va to'g'ri boshqarish, ya'ni monitoringni tashkil qilishga bog'liq. Monitoring ba'zi obyekt yoki hodisalarni kuzatishni, ya'ni tabiiy muhitdagi antropogen



48-rasm. Ekologik muvozanatning buzilishi

o'zgarishlarni kuzatishni, baholashni hamda bashorat qilishni o'z ichiga oladi.

Hozirgi kunda xalq xo'jaligining turli jabhalarida, tuman, shahar, viloyatlarning tabiiy muhitga ta'sirini nazorat qilish uchun ekologik pasportlashtirish amalga oshirilmoqda. Ekologik pasport barcha chiqindilar manbalari to'g'risida va ularning ta'sir darajasi haqida ma'lumot beradi.

Tabiatdan foydalanish, tabiatni muhofaza qilish prinsiplari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o'z aksini topdi. Davlat tashkilotlarining bu sohadagi faoliyati ham Konstitutsiyada belgilandi. Har bir davlatda tabiat muhofazasi bo'yicha alohida qonun qabul kilinadi. Tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan qonunlarni buzgan shaxslar ma'muriy, moddiy va jinoiy javobgarlikka tortiladi. Ekologiya va madaniyat tushunchalari uzviy bog'langan. Aholining madaniyat saviyasi qanchalik yuqori bo'lsa, o'sha joyda ekologik sharoit shunchalik qulay, yashash muhiti sof bo'ladi. Har bir mutaxassis, qaysi jabhada faoliyat ko'rsatishidan qat'iy nazar aholining umumiy ekologik madaniyati saviyasini yuksaltirishga o'z hissasini qo'shishi kerak. Milliy madaniy qadriyatlar, urf-odatlarini tiklash ham muhim ahamiyatga ega.

Insoniyatning tabiatga ta'siri XX asrning 50 yillariga kelib yanada kuchaydi. Bu esa o'z navbatida ekologik muammoni vujudga keltirdi.

Ekologik muammo deganda-insonning tabiatga ko'rsatayotgan ta'siri bilan bog'liq holda tabiatning insonga aks ta'siri, ya'ni uning iqtisodiyotda xo'jalik ahamiyatiga molik bo'lgan jarayonlar, tabiiy hodisalar bilan bog'liq (*stihiyali talofotlar, iqlimning o'zgarishi, hayvonlarning yalpi ko'chib ketishi*) va boshqa xodisalar tushuniladi. Ekologik muammolarni 3 guruxga ajratish mumkin.

1. Umumbashariy (*global*).
2. Mintaqaviy (*regional*).
3. Mahalliy (*lokal*).

Umumbashariy (global) muammo- Dunyo bo'yicha kuzatiladigan tabiiy va antropogen xodisalar *umumbashariy ekologik muammo* deyiladi. Masalan: «*Atmosferaning dimiqish*» xodisasi ya'ni SO₂ miqdori ortib borishi yer yuzasining isishiga sababchi bo'lmoqda. «Ozon qatlamining siyraklashishi» atmosferadagi ozonning eng muhim xususiyati uning doimo hosil bo'lib va parchalanib turishidir. Ozon quyosh nurlari ta'sirida kislorod, azot oksidi va boshqa gazlar ishtirokida hosil bo'ladi. Ozon kuchli ultrabinafsha nurlarini yutib qolib yer yuzidagi tirik organizmlarni ximoya qiladi. Ultrabinafsha nurlar miqdorining ortishi tirik organizmlarga salbiy ta'sir qiladi.

Chuchuk suv muammosi. Quruqlikda chuchuk suv va uning biosferadagi roli nihoyatda katta chuchuk suv zahirasi asosan qutblardagi muzliklardadir. jamiyatning rivojlanishi bilan aholining chuchuk suvga bo'lgan talabi ortib bormoqda. Yiliga 3-3,5 ming km³ suv sarflanadi.

Pestitsidlardan foydalanish muammosi. Ushbu zaharli kimyoviy moddalar guruxi begona o'tlar, zararkunanda hashorotlar va boshqa hayvonlar, o'simliklarda kasallikni keltirib chiqaruvchi mikroorganizmlarga qarshi kurashda foydalaniladi. Buning natijasida insonga va atrof-muxitga katta ta'sir ko'rsatilmoqda.

Tirik tabiatdagi o'simlik va hayvon turlari sonining qisqarish muammosi.

Yer yuzidagi hayotni ta'minlashda o'rmonlarning ahamiyati juda katta. Hozirgi vaqtda quruqlikning 30%, ya'ni 3,8 mlrd. gektar yer o'rmonlar bilan qoplangan. O'rmonlarni xo'jalik faoliyati maqsadida ko'plab kesilmoqda. Shuning uchun flora va faunani yo'qolib ketishini oldini olish uchun «Qizil kitob» yaratilgan.

2. Mintaqaviy ekologik muammolar. Yer yuzining muayyan mintaqasi o'ziga xos tabiiy-iqlimiy, ijtimoiy-ekologik, etnografik xususiyatlari uni tabiat bilan inson o'rtasidagi o'zaro aloqa munosabatlari harakterini belgilab beradi. Masalan: Markaziy Osiyodagi mintaqaviy ekologik muammolaridan eng muhimi Orol va Orol bo'yi muammosidir. Suvining sho'rlanishi darajasi 9-10 g/l dan 34-37 g/l gacha ortdi, dengiz satxining o'rtacha pasayishi 80-110 sm. Bu esa o'z navbatida juda katta ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda.

3.Lokal (mahalliy) ekologik muammolar muayyan olingan xududlardagi muammolar hisoblanadi. M: yirik xududiy ishlab chiqarish majmuasidagi, agrosanoat majmuasidagi muammolarni olish mumkin.

Insonning atrof muhitga ta'siri va tabiatni muhofaza qilishning zarurligi quyidagilardan iborat:

1. Hayot jarayonlari qonuniyatlarini o'rganish shunindek, insonning tabiatga va biosferaga bo'lgan ta'sirini tadqiq etish.

2. Biologik resurslardan oqilona foydalanishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish, inson faoliyati natijasida o'zgargan tabiatdagi o'zgarishlarni oldindan bilib olish va biosferada kuzatilayotgan jarayonlarni boshqarish va nihoyat insonning yashash muhitini saqlash.

3. Populyatsiyalar sonini boshqarish.

4. Zararkunandalarga qarshi kurash uchun kimyoviy moddalarni qo'llashni, minimum darajada foydalanishni, ta'minlash chora-tadbirlarini ishlab chiqish.

5. Muayyan turdagi landshaftlarni u yoki bu tarkibiy qismlarining xususiyatlarini o'rganishda ekologik indikatsiyadan foydalanish, shuningdek tabiiy muxitni ifloslanganligini aniqlashda indikatsiyani keng qo'llash.

6. Buzilgan va izdan chiqqan tabiiy tizimlarni qayta tiklash, qishloq ho'jaligi tarkibidan chiqib ketgan yerlarni rekultivatsiyalash, yaylovlarni tiklash, tuproq unumdorligini oshirish, suv xavzalarini mahsuldorligini va boshqarishni qayta tiklash.

7. Ovchilikni ho'jalik shakliga o'tkazish.

8. Ekologik vaziyatni yaxshilash chora-tadbirlarini ishlab chiqish (*tozalik oyligi*).

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi – *bir me'yorda(stabil) rivojlangan davlatlar va butun dunyo hamjamiyatining xususiyat, mohiyat va tarkibiy qarashlar tizimidir,*

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi ishlab chiqarish va iste'mol qilish, aholining o'sishi va ijtimoiy himoyasi o'rtasidagi muvozanatni rivojlangan va rivojlanish yo'lida turgan barcha davlatlarda saqlashni hisobga oladi. Chunki Yer sayyorasidagi atrof-muhit holati ularning birgalikdagi harakat majmuasidir. Ekologik muammolarning yechimi biron bir davlat (masalan, AQSH) yoki biron bir davlatlar (*masalan, "katta sakkizlik"*) faoliyatiga bevosita bog'liq emas ekanligini biz yuqorida aytib o'tgan edik. Bu o'rinda yana bir bor Orol va Orolbo'yi muammosiga to'xtalib o'tishga to'g'ri keladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning BMT Bosh Assambleyasi 48, 50 va 55 sessiyalaridagi ma'ruzasida aytib o'tilganidek, ushbu muammo nafaqat O'rta Osiyo davlatlarining, balki butun dunyo hamjamiyatining «chuqur tabiiy dardidir», chunki Orol inqirozi kurrai zaminda ekologik xavfsizlikni keskinlatadi va shuning uchun ham global xarakterga ega. Prezident barcha davlat rahbarlarini, mahalliy va xalqaro tashkilotlarni Orol muammosini hal qilishga yordam berishga chaqirdi va

aks olda ekologik inqiroz oqibatini oldini olish mumkin emasligini, ta'kidlab o'tdi.

BMTning Rio-de-Janeyrodagi konferentsiyasida qabul qilingan «*Atrof muhit muhofazasi va rivojlanishga doir deklaratsiya*»da «*Inson haqida g'amxo'rlik–barqaror rivojlanish faoliyatini ta'minlashning markaziy bo'g'inidir. Odamlar sog'lom yashash va tabiat bilan uyg'unlashish orqali unumli mehnat qilish huquqiga egadirlar*», -deb aytilgan edi.

Yangi barqaror rivojlanish konsepsiyasida inson va tabiatning garmonik rivojlanishi uchun quyidagi asosiy qoidalar nazarda tutilgan:

-davlatlarning tabiiy resurslardan foydalanishdagi suveren huquqi boshqa, milliy yurisdiksiyasi kirmaydigan davlatlar va mintaqalarning atrof muhitiga zarar qilmasligi kerak. Mazkur qoida 1945 yilda qabul qilingan BMTning Nizomiga to'la muvofiq keladi;

- davlatlar yoki alohida bir transkontinental kompaniyalarning rivojlanish huquqi hozirgi va kelajak avlodlarning atrof-muhit muhofazasi sohasidagi ehtiyojlarini adekvat darajada qondirishi lozim;

- barqaror rivojlanishda atrof-muhit muhofazasi taraqqiyot jarayonining bir qismi hisoblaniladi va undan ajralgan tarzda muhokama qilinmasligi kerak;

- rivojlanayotgan va o'tish davri iqtisodiyotida turgan davlatlarda ekologik muammolarni birlamchi masalalar turkumiga kirgizish lozim, shuning uchun ham ularda tabiiy resurslarni kontservatsiya qiluvchi(saqlovchi) xo'jalik tarmoqlarini rivojlantirmoq zarur;

- davlatlar Yer ekotizimlarini saqlash, muhofaza qilish hamda uning tozaligi va butunligini tiklash maqsadida global miqyosdagi sherikchilik ruhida hamkorlik qilishlari lozim;

- har bir davlat atrof-muhit holati uchun javobgardir;

- rivojlangan mamlakatlar xalqaro doirada barqaror rivojlanishni ta'minlashda mas'uldirlar, mazkur davlatlar jamoasi Yer sayyorasining muhitiga

yetgazgan zararini ulardagi texnologik va moliyaviy resurslardan kelib chiqqan holdagi javobgarligini tan olmoqlari lozim;

- tabiiy resurslardan foydalanishi mo''tadil-lashtirish maqsadida davlatlar o'z demografik siyosatlarini muvofiqlashtirishlari zarur;

- tabiiy xom ashyoni ishlab chiqarish, qazib olish va qayta ishlash ilmiy jihatdan asoslangan bo'lishi va ushbu jarayonlarda ilg'or texnologiyalarni qo'llash lozim;

- ekologik muammolarni barcha manfaatdor fuqarolar ishtirokida va turli darajada: milliy miqyosda-har bir fuqaro atrof-muhitga tegishli bo'lgan ma'lumotlardan erkin foydalanish huquqiga ega bo'lishlari; davlatlar esa bunday masalalarni hal etishda keng ma'lumotlar berish yo'lini rivojlantirishlari va qo'llab-quvvatlashlari zarur; ekologik zararlarni qoplashda sud orqali himoyalaniish vositalarini qo'llash va ma'muriyat ishilarini ularda ko'rib chiqishni ta'minlash;

- davlatlar atrof-muhit muhofazasiga doir qonun hujjatlariga, ekologik qat'iy o'rnatilgan me'yorlarga (standartlarga) ega bo'lmoqlari lozim, xo'jalik faoliyatining maqsadi va ustuvorligi atrof muhitni muhofaza qilish vazifalariga muvofiq kelishi kerak;

- davlatlar maqbul va ochiq xalqaro ekologik tizimni tashkil qilishda hamkorlik qilishlari kerak, bu esa atrof-muhit holatiga doir muammolarni yanada ham samarali hal qilishga olib kelishi lozim;

- savdo siyosati sohasida atrof muhitni muhofaza qilish maqsadida ko'rilayotgan choralar ixtiyoriy yoki asossiz ravishda diskriminatsiya qilish yoki xalqaro savdoning yashirin cheklash vositasi bo'lmasligi lozim;

- atrof-muhit muhofazasiga yo'naltirilgan chegaralararo yoki global ekologik muammolarning yechish yo'llari xalqaro konsensus (murosaga)ga asoslangan bo'lishi kerak;

- milliy qonunlar davlatlarda ham, ularning tashqarisida ham tabiiy muhitga

yetkazilgan zararni qoplashni hisobga olmog'i lozim;

- davlatlar atrof tabiiy muhitga zarar yetkazuvchi moddalarning harakatlanishi va tashilishining oldini olish uchun samarali ravishda hamkorlik qilishlari kerak;

- davlat hokimiyati va boshqaruv organlari ekologik harajatlarni ifloslanish bilan bog'liq bo'lgan ekologik vositalardan foydalanishni baynalminallashtirish orqali rejalashtirishlari lozim;

- ekologik oqibatlarini baholash vakolatli milliy organlar tomonidan tasdiqlanishi kerak;

- davlatlar, halqaro miqyosda yordam berish maqsadida, atrof-muhitga zarar yetkazuvchi har qanday ofat yoki boshqa favqulodda vaziyat haqida darhol o'zga mamlakatga axborot yetkazishlari kerak;

- ayollar atrof-muhit unsurlaridan oqilona foydalanish va barqaror rivojlanishda hayotiy muhim rol o'ynaydilar, shuning uchun ham ularning turli ekologik tadbirlarda har tomonlama ishtiroklarini ta'minlash zarur;

- davlatlar yoshlarning bunyodkorlik qobiliyatlarini, istiqbolli maqsadlarini va jasurliklarini ekologik muammolarni hal etishga jalb qilmog'i kerak;

- davlatlar atrof-muhitga bo'lgan an'anaviy munosabatlarini tan olishlari kerak, mahalliy aholi va uning jamoalarining tarixiy tajribasini ishlatmog'i lozim;

- davlatlar urushlarni (qurolli to'qnashuvlarni), ekotizim-larning bir butunligining parchalanishini oldini oluvchi xalqaro huquqiy me'yorlarni hurmat qilmog'i kerak ;

- tinchlik, rivojlanish va atrof-muhitni muhofaza qilish o'zaro bog'langan va ajralmasdir;

- davlatlar ekologiya sohasidagi nizolarni va masalalarni tinch yo'l bilan tegishli vositalar yordamida BMT Nizomiga muvofiq ravishda hal qilmog'i kerak;

- davlatlar, xalqlarni barqaror rivojlanishi uchun, ekologik talablarni

bajarishda yaxshi niyat va sherikchilik ruhida hamkorlik qilishga majburdir.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi, yuqorida keltirilgan atrof-muhitni muhofaza qilishga oid prinsip-qoidalar tufayli, xalqaro huquq talablariga to'la javob beradi, u jamiyat va tabiat uyg'unligini oshiradi. Ushbu ekologik prinsip-qoidalarga rioya qilish, shubhasiz, xalqaro hamjamiyatning hamkorligiga va bir maromda rivojlanishiga xizmat qiladi.

XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab ilmiy-texnik taraqqiyot keskin ravishda rivojlana bordi. Bu esa, o'z navbatida, Yer sayyorasidagi 70% dan ortiq barcha tabiiy ekologik tizimlar buzilib ketishiga sabab bo'ldi. Yer kishilik jamiyatining hayotiy faoliyati chiqindilarini qayta ishlash qobiliyatiga ega bo'lsa ham, biosferaga ta'sir qilish darajasi hozirdanoq mumkin bo'lgan kattaliklardan bir necha barobar oshib ketgan. Bundan tashqari, kishilar atrof-muhitga, uning tarkibida bo'lmagan va qayta ishlashga yaroqsiz bo'lgan ming tonnalab sun'iy moddalarni tashlab chiqarmoqda. Atrof-muhitni «boshqaruvchisi» va «qayta ishlovchisi» bo'lgan tirik organizmlar mazkur funksiyani bajarishga qodir bo'lmay qoldi. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, 30-50 yillardan so'ng tiklanmaydigan jarayonlar boshlanadi va ular XXI – XXII asrlar oralig'ida global ekologik falokatga olib kelishi mumkin. Alohida xavotirli vaziyat Yevropa qit'asida yuzaga keladi. Chunki G'arbiy Yevropa o'zining tabiiy resurslarini asosan tamom qildi va o'zgalarnikidan foydalanishga o'tdi.

BMT ma'lumotlari bo'yicha har yili Dunyo okeaniga 30 mlrd tonna neft mahsulotlari, 50 ming t pestitsidlar va 5 ming t simob tashlanadi. Aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash va oqava suvlarni tozalash muammolari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Sanoatda juda ko'p miqdorda suv ishlatiladi. Masalan, 1 tonna po'latni eritish uchun 200 m³, 1 tonna qog'oz ishlab chiqarish uchun 100 m³, 1 tonna sintetik ipak tayyorlash uchun esa 2500 dan 5000 m³ gacha suv sarf qilinadi.

BMT ma'lumoti bo'yicha dunyo aholisining 1/4 qismi toza ichimlik suvdan foydalanish imkoniyatiga ega emas, qolgan 1/3 qismi esa sifatsiz suvdan foydalanishga majbur. Butun dunyo bo'yicha oqava suvlarning faqat 10%i oldindan tozalanadi. Janubiy Amerika va Afrika davlatlarida esa bu ko'rsatkich faqat 2%, xolos. Bularning barchasi yer osti suvlari holatida aks etmoqda.

Yoqilg'ining yonishi natijasida har yili atmosferaga 20 mlrd tonna atrofida karbonat angidrid gazi tashlanmoqda. Gazlarning atmosferadagi miqdori sekin-asta ko'payib bormoqda, oxirgi 100 yil ichida bu ko'rsatkich 10% dan oshdi. Karbonat angidrid gazi kosmik fazoga issiqlikning tarqalishiga to'sqinlik qilmoqda, bu esa Yer harorati isib ketishiga olib kelmoqda. Iqlimshunoslarning ma'lumotlari bo'yicha XXI asrning o'rtalariga borib u 2-5⁰ gradusni tashkil etishi mumkin. Gazlarning atmosferaga chiqarilishi ultrabinafsha nurlardan Yerning asosiy himoyachisi bo'lgan ozon qatlamining 9 foizi yo'q qildi. «Ozon tuynigi» ning umumiy maydoni AQSH hududiga teng bo'lgan maydonni ishg'ol qildi.

Avtomobil transporti, elektrostantsiyalar, qora va rangli metallurgiya korxonalari, neft va gazni qayta ishlash, kimyo va o'rmon sanoatlari atmosfera havosini sezilarli darajada iflos qilmoqda. Atmosfera havosidagi zararli moddalarning katta qismi avtomobillardan chiqqan gazlar hisobiga to'g'ri kelib, ularning roli muntazam ravishda oshib bormoqda

Ekologik muammolarning miqyosi haqidagi tassavvurlarga ega bo'lgan holda, uni keltirib chiqargan asosiy sababchilaridan bo'lmish - iqtisodiy yuksalish darajasiga murojaat qilamiz. Iqtisodiy yuksalish va ekologik xavfsizlik o'rtasidagi ziddiyat yaqqol ko'zga tashlanadi. Tadqiqotchilarning aksariyati ekologik muammolarni iqtisodiy sabablar bilan bog'lashga urunmoqdalar va bunda «jon» bor, albatta.

Barqaror rivojlanishning ekologik-ijtimoiy jihatlari. Barqaror rivojlanishning uchta asosiy jihatlari mavjud iqtisodiy o'sish, ijtimoiy tenglikni

ta'minlash va atrof-muhit muhofazasi. Ularni bir-biridan ajratish yoki alohida baholash mumkin emas, chunki ular o'zaro uzviy bog'langan va bir-biridan kelib chiqadi. Har bir mamlakat, har bir xalqaro huquq subyekti barqaror rivojlanish muammolarini o'zining siyosiy, tarixiy, madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yechadi. Ammo ushbu uch tarkibiy qismning ilmiy asoslanganligi, ularning o'zaro tenglashtirilganligi va integratsiyalanganligi muhimdir.

Statistikada umumiy son yoki imperik yagona ko'rsatkich olish uchun ikki yoki ko'p omilli tahlil o'tkaziladi. Barqaror rivojlanish modeli yoki statistik ko'rsatkichni olish modelini yaratish murakkab masaladir. Shuning uchun ham biz uning ikki omilli sifat tahlilini berishga harakat qilamiz. Atrof-muhitga kambag'allik, qashshoqlik, aholining o'sish dinamikasi va uning faolligi yoki bilim darajasi, iste'mol tuzilmasi, aholi zichligi kabi ijtimoiy ko'rsatkichlar ta'sir etishi sababli barqaror rivojlanishning *ijtimoiy jihatlarini* ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Qashshoqlik ham milliy, ham xalqaro xarakterga ega bo'lishi mumkin. Mazkur muammoning universal yechimi yo'q, u muayyan mamlakatga xos ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy va siyosiy sharoitlarga bog'liq (49-rasm). Shu bilan birga, xalqaro miqyosda ushbu muammo yechimi borasidagi jarayonlar doimo amalga oshiriladi. Biroq, har bir davlatning qashshoqlikni tag-



49-rasm. Afrikadagi qashshoq aholi

tomiri bilan yo'qotishga o'zining xohishi, irodasi, kuchi va intilishi bo'lmas ekan, hech bir tashqi omil uni bartaraf etishga qodir emas.

Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish uchun insonlar manfaatini nazarda tutmoq muhim ahamiyatga ega. Buning boisi insonlar faolligi ishlab chiqarishni kengaytirishga olib boradi. Aks holda, u qashshoqlik muammosi yechimi nuqtai nazaridan ham, ekologiya sohasida uzoq hukm suradigan ijobiy natijalarga erishish nuqtai nazaridan ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Keng qamrovli resurslardan ekstensiv foydalanish hisobiga ishlab chiqarishni kuchaytirish ertami, kechmi mehnat unumdorligining pasayishiga olib keladi, bu esa o'z navbatida qashshoqlik masalasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. SHuning uchun ham barqaror rivojlanishning asosiy shartlaridan biri - qashshoqlikka qarshi kurashishning aniq bir strategiyasini ishlab chiqishdan iborat.

BMTning atrof muhit komissiyasi tavsiyalariga ko'ra rivojlanayotgan mamlakatlarning ijtimoiy va ekologik muammolarini samarali hal etish strategiyasi o'ziga tabiiy resurslar, keng qamrovli resurslarga asoslangan ishlab chiqarish va insonlar bilan bog'liq jihatlarni qamrab olgan bo'lishi kerak. SHu bilan birga, u demografik ko'rsatkichlar, ya'ni tibbiy xizmat ko'rsatish, maorif va ta'lim, xotin-qizlar huquqi, yoshlarning tutgan o'rni, mahalliy xalqlar ahvoli, mahalliy jamoalar, jamiyatni demokratlashtirishda aholining ishtiroki, mukammal boshqaruv kabilarni ham o'zida mujassamlashtirishi lozim. Ushbu omillar o'sib borayotgan aholining turmush ta'minotini ifodalaydi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun barqaror rivojlanish normalari tegishli ijtimoiy va ekologik muammolarni hal qilish bo'yicha quyidagi tavsiyalarni beradi:

- ✚ yashash uchun zarur mablag' topishning barqaror asoslarini yaratish;
- ✚ adekvat hajmda mablag' bilan ta'minlashga qaratilgan siyosat va strategiyani amalga oshirish;
- ✚ tabiiy resurslardan foydalanish bo'yicha mahalliy nazoratni kuchaytirish;
- ✚ nodavlat tashkilotlari va mahalliy boshqaruv organlarini davlat boshqaruviga keng miqyosda jalb qilish;

- ✚ yashash darajasi past bo'lgan tumanlarni rivojlantirish, qashshoqlik muammolari keskinligini kamaytirish, ish bilan ta'minlash va foyda olish imkoniyatini oshirish strategiyasi va dasturlarini ishlab chiqish;
- ✚ insoniy «kapital» rivojini asosan qishloq joylarda yo'lga qo'yish, shuningdek, ijtimoiy muhtoj aholi tabaqalarini byudjet mablag'lari hisobidan ta'minlash rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirish.

Barqaror rivojlanishning me'yoriy hujjatlarida ko'proq e'tiborni energetika va transportga qaratish ko'zda tutiladi. Barqaror rivojlanish konsepsiyasiga binoan mamlakatlarning, ayniqsa, resurslarni qazib olish bilan bog'liq iste'mol tuzilmasini o'zgartirish uchun aholi talabi, asosiy ehtiyojini qondirish tuzilmasini o'zgartirish, chegaralangan darajada resurslardan ishlab chiqarish jarayonida foydalanishni tashkil qilish va keraksiz sarf-xarajatni keskin kamaytirish strategiyasini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

O'tish iqtisodiyotida turgan har bir mamlakat o'zining ijtimoiy va ekologik xususiyatlaridan kelib chiqqan, o'z xalqining hayot tarzi va atrof-muhit muhofazasi bilan bog'liq muammolarni, shu jumladan, quyidagilarni hal etmog'i kerak:

- ❖ o'z kuchini xalqning kambag'al qatlamlari iste'molining oqilona tuzilmasini shakllantirishga yo'naltirish;
- ❖ xalqaro tashkilotlar bilan kelishgan holda ishlab chiqarish sohalari va iste'mol bo'yicha ma'lumotlar bazasini yaratish va uning imkoniyatlarini kuchaytirish tadbirlarini ko'rish, shu bilan birga, mazkur sohani tahlil qilish usullarini ishlab chiqish;
- ❖ ishlab chiqarish va iste'mol, iqtisodiy o'sish va demografik omil kabi ko'rsatkichlarning atrof-muhit holati bilan bog'liqligini, texnologik kashfiyotlarga mavjud texnologiyalar moslashuvi va boshqalarni aniqlash darkor.

BMTning barqaror rivojlanish bo'yicha komissiya kotibiyati ta'rifiga ko'ra,

iste'mol tuzilmasini o'zgartirish bilan bog'liq barcha tadbirlar qashshoqlik bilan kurashishga qaraganda ko'p sarf harajat talab etmaydi. Shuning uchun ham har bir mamlakat o'zining ichki moddiy imkoniyatidan kelib chiqib ish yuritmog'i kerak.

Nooqilona iste'mol tuzilmasini o'zgartirishga qaratilgan milliy siyosat va strategiyalarni ishlab chiqishda xalqaro tashkilotlar rivojlanayotgan mamlakatlarga uslubiy va ekologik ko'maklashadi. Ko'rsatiladigan yordam miqdori har bir mamlakatning aniq strategiyasi va dasturiga bog'liq. Iste'molni o'zgartirish milliy dasturlarida quyidagi masalalar o'z yechimini topmog'i lozim:

- ❖ tinch-totuvlikda (*ayniqsa, alohida muhofazalanadigan tabiiy hududlarda*) yashash imkoniyatini yaratish bo'yicha ish o'rinlarini tashkil etish;
- ❖ tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof muhit muhofazasiga keng ommani, jumladan, mahallalarni keng jalb qilish;
- ❖ qashshoqlik muammolarini tabiatdan ekstensiv foydalanishsiz hal etish;
- ❖ ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan ayollar, bolalar, qishloq aholisi va kambag'al fuqarolarni moddiy qo'llab-quvatlash uchun byudjetdan alohida mablag' ajratish.

Iste'mol tuzilmasini o'zgartirish bilan bog'liq tadbirlarning haqqoniyligi rivojlanayotgan mamlakatlardagi ekologik muammolarning keskinligi bilan belgilanadi.

Inson sog'lig'ini mustahkamlash va muhofaza qilish. Aholi salomatligining buzilishi, kambag'allik va demografik keskinlik bilan birga, barcha mamlakatlarda atrof muhitning sanitar holati yomonlashishi bilan bog'liq jiddiy muammolarga olib kelmoqda. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi bo'yicha amalga oshiriladigan tadbirlar insonlarning sog'lig'ini yaxshilash borasidagi asosiy ehtiyojlarini ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Chunki ular atrof-muhit muhofazasi, ta'lim masalalari, uy-joylar qurish, jamoa ishlarini tashkil etish va turli jamoa

guruhlari (*shu jumladan, tadbirkorlik, ta'lim muassasalari, diniy va fuqaroviy tashkilotlar*) faoliyati bilan chambarchas bog'langan. Asosiy e'tibor profilaktika, davolash va inson sog'lig'ini yaxshilashning terapevtik usullari bilan bog'liq dasturlarga qaratiladi. Buning uchun aholi salomatligini mustahkamlash va himoya qilish bo'yicha (davlat organlarining, NNT va mahalliy jamoalar bilan birgalikda) dasturlarini ishlab chiqish lozim. Ushbu faoliyat BMT qoshida Jahon Sog'liqni Saqlash (JSS) kabi xalqaro tashkilotlar bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi, albatta. Bunday dasturlar o'z ichiga quyidagi masalalarni qamrab olishi zarur:

- ✚ birlamchi tibbiy-sanitar xizmat (*ayniqsa, ekologik holati tang bo'lgan tumanlarda*) ko'rsatishga doir ehtiyojlarni qondirish;
- ✚ atrof tabiiy muhit ifloslanishi tufayli vujudga kelgan yuqumli kasalliklarga qarshi kurash;
- ✚ ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamini muhofaza qilish;
- ✚ antropogen o'zgargan shahar joylari va aholi shaxobchalari, qishloq joylari, sanoat tegaralariga xos bo'lgan sog'liqni saqlash muammolarini hal etish;
- ✚ ifloslanish va atrof-muhitga xavfli ta'sir ko'rsatilishi bilan bog'liq bo'lgan sog'liqni yo'qotish ehtimolini kamaytirish.
- ✚ Mamlakatlarga, ularning milliy hukumatlariga, mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlariga BR konsepsiyada xalqaro tashkilotlar hamkorligida quyidagi vazifalarni bajarishni tavsiya etadi:
- ✚ amaliy faoliyatga qodir, ilmiy asoslangan, ekologiya nuqtai-nazaridan maqbul ichimlik suvi, sifatli oziq-ovqat mahsulotlari va sanitariya xizmatini bajaradigan birlamchi tibbiy-sanitar xizmati tizimini ishlab chiqish va borini mustahkamlash;
- ✚ sog'liqni saqlash va tabiatni muhofaza qilish bo'limlari hamda mahalla ko'rinishidagi mahalliy jamoalar o'rtasidagi uzviy aloqa va hamkorlikni ta'minlovchi mexanizmlardan foydalanish va ularni mustahkamlashga

- ko'mak berish;
- + atrof-muhit holatini nazarda tutgan holda qurilish va tibbiy-sanitar xizmatning samarali tizimini ishlab chiqish va yaratish;
- + ekologik tangli ma'muriy birliklarda ijtimoiy xizmat ko'rsatishning umumiy hajmini kengaytirish;
- + yuzaga kelgan ekologik vaziyat bilan bog'liq ravishda aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish strategiyasi va mablag' bilan ta'minlash yo'llarini ishlab chiqish;
- + ta'lim litseylari, maktablar, axborotlar almashinishi, ekologik sanitariya uchun kadrlar tayyorlashda texnik yordam ko'rsatadigan sanitarlarni tayyorlashga ko'maklashish;
- + himoyasiz aholi qatlamlarining (*nogironlar, nafaqaxo'rlar, bolalar*) tabiiy potentsialini sog'lomlashtirish tizimiga keng miqyosda jalb qilish;
- + atrof-muhitning sanitar holatini yaxshilashga mahalliy jamoa(mahalla)larni keng jalb etish mexanizmini joriy etish;
- + atrof-muhitning sanitar holati va boshqa sohalarda ilmiy tadqiqotlarni keng miqyosda o'tkazish.

Yuqorida bayon qilingan dasturiy amallarni tatbiq etish uchun barcha davlatlar 1993-2000 yillar oralig'ida rejalashtirilgan 40 mlrd o'rniga 15 mlrd AQSH dollarini sarf qilishgan, xolos. Mazkur masalada xalqaro yordam ham rivojlanayotgan mamlakatlarning aniq dasturi va strategiyalariga juda bog'liq. Aholi yashash joylarida, xususan, shahar suv ta'minoti va kanalizatsiyasining sanitar-epidemiologik holati buzilishidan ogoh qilish(oldini olish)da Jahon banki va uning xalqaro assotsiatsiya (MAR) orqali xalqaro yordamni kuchaytirish va uning hajmini oshirish belgilangan. PROONning texnik hamkorligida aholi yashash joylarini sog'lomlashtirish uchun sarf qiladigan har bir dollari davlat va xususiy sektor orqali 120-130 AQSH dollari sarf bo'lishiga olib keladi. PROONning turlicha yordam ko'rsatish sohalari orasida bu eng yuqori ko'rsatgich

hisoblanadi.

Aholi yashash joylarini barqaror rivojlantirish maqsadida shaharlarda atrof-muhit muhofazasiga doir quyidagi dasturlarni amalga oshirish ko'zda tutiladi:

- tabiiy obyektlardan kundalik yotog'i sifatida foydalanmasliklari uchun kishilarni zarur istiqomat joylari bilan ta'minlash;

- ekologik munosabatlarning boshqarilishini takomil-lashtirish;

- yashil o'simliklar maydoni bo'yicha sanitar normaga ko'ra har bir kishiga 25 m² dan kam bo'lmagan shahar yer fondini rejalashtirish va ta'minlash;

- suv ta'minoti, sanitariya, kanalizatsiya chiqtlari va ayniqsa, kundalik maishiy chiqindilarni joylashtirish, utellashtirish va qayta ishlashga doir kompleks infratuzilmasini yaratish;

- tabiiy ofatlar ko'p kuzatiladigan va tabiiy texnogen xarakterdagi o'zgarishlar bo'ladigan hududlarda aholi yashash joylarini rejalashtirish va boshqarish;

- loyihalash, qurish va foydalanishga topshirish bosqichlarini ekologik ekspertizadan o'tkazish, qurilish sektori faoliyatining barqaror ishlashini ta'minlash va boshqalar.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasiga binoan shaharlarning ekologik muammolarini hal etish uchun 1993-2000 yillarda 70 mlrd AQSH dollaridan ko'p mablag' sarflangan bo'lib, uning 15 foizidan ortig'ini universal xalqaro jamg'armalarning subsidiyalari yoki imtiyozli kreditlari tashkil etgan.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi amalga oshirilishida xalqaro, davlat, va mahalliy boshqaruv masalalariga alohida o'rin ajratilgan. Bunday dasturlar atrof-muhit holatining siyosat, rejalashtirish va boshqarish masalalarida hisobga olish uchun yo'nalgan bo'lishi zarur. Samarador huquqiy va me'yoriy asoslari yaratilishini hisobga olish, iqtisodiy mexanizmlar, bozor iqtisodiyoti va boshqa turdagi rag'batlantirishdan samarali foydalanishga qaratilishi, ekologik va iqtisodiy

omillarni hisobga oladigan kompleks tizimning yaratilishi bilan belgilanadi. Siyosat, rejalashtirish va boshqarish darajalarida atrof muhit holatini hisobga olish deganda har bir kishi, jamiyat va hamjamiyatlarning ekologik manfaatlarini nazarda tutishi tushuniladi.

Har bir mamlakatning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, «XXI asr kun tartibi»da atrof-muhit muhofazasi bo'yicha quyidagi tadbirlar tavsiya etiladi:

- ✚ iqtisodiy, sektorli va ekologik siyosat, strategiya va atrof-muhit holatini hisobga olishning ilg'or rejalarini ta'minlash masalalarini sharhlash (tahlil etish);
- ✚ atrof-muhit holatini to'la hisobga olish maqsadida qaror qabul qilish jarayonlarining barcha tashkiliy tuzilmalarini mustahkamlash;
- ✚ jismoniy shaxs, guruh va tashkilotlarni barcha holatlarda bir qarorga kelishlari maqsadidagi xizmat qiladigan mexanizmlarni ishlab chiqish va takomillashtirish;
- ✚ atrof-muhit holatini hisobga oladigan ichki chora-tadbirlarni ishlab chiqish.
- ✚ Samarali huquqiy va me'yoriy asoslarni atrof-muhit muhofazasi maqsadida barqaror rivojlanish konsepsiyasi quyidagilarni rivojlanayotgan mamlakatlar uchun tavsiya etadi:
 - ✚ ekologik qonunchilik me'yorlari va qoidalariga oid axborotlarni keng yoyish;
 - ✚ qayta tiklashga oid me'yorlarni rag'batlantirish, shuningdek, ekologik qonunbuzarlarni jazolash, yetkazilgan zararlarni qoplash shart-sharoiti, usullari va mexanizmlarni yaratish;
- ✚ ekologik muammolarning globallik xarakterini inobatga olgan tarzda barqaror rivojlana olmaydigan mamlakatlarga yordam ko'rsatish;
- ✚ milliy, mintaqaviy va mahalliy darajada zarur ekologik dastur va tadbirlar ishlab chiqishni rag'batlantirish.

Iqtisodiy mexanizmlar, bozor iqtisodiyotiga xos va boshqa rag'batlantirishning samaradorligini ta'minlash atrof-muhit muhofazasiga yo'naltirilgan bo'lishi bilan birga, «ifloslaydigan to'laydi» yoki «tabiiy resurslardan foydalanuvchi to'laydi» tamoyillariga asoslanadi. Bu kabi dasturlarni amalda joriy etishni ta'minlash uchun har bir rivojlanayotgan mamlakat, o'z sharoitidan kelib chiqib, uchta eng muhim vazifaning bajarilishiga erishmog'i zarur:

- ❖ atrof-muhit muhofazasida ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar tomonidan qaror qabul qilish jarayonida, shuningdek, atrof-muhitga munosabat borasida, «tekin mahsulot» ma'nosida sarf-xarajatlarni hisobga olishni ta'minlash va bu xarajatlarni jamiyatning boshqa tabaqasi, o'zga mamlakat yoki kelajak avlodga yuklashga qaratilgan fikrlarning o'zgarishini hisobga olishi;
- ❖ iqtisodiy faoliyatda ekologik xarajat(chiqim)larni to'la hisobga olmoq, boshqacha qilib aytganda, narx-navo belgilashda yetishmovchilik yoki resursning to'la qiymatidan kelib chiqib atrof -muhitga yetkaziladigan zararning oldini olish;
- ❖ barqaror rivojlanish uchun ekologik siyosat yurgizishda bozor iqtisodiyoti tamoyillarini qo'llash.

Ekologik va iqtisodiy omillarni kompleks hisobga olish tizimini barpo qilish deganda, odatda, barqaror rivojlanishning maqsadi va vazifalari yechimini topishda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash va xatti-harakatlarni birlashtirish, milliy hisob raqamlar tizimini mustahkamlash, ma'lumot va axborotlarni yig'ish samarasini oshirish va baholash mexanizmini bunyod etish, o'zaro texnik hamkorlikni kuchaytirish kabilar nazarda tutiladi. Ko'rsatilgan maqsadlarga erishishda rivojlanayotgan mamlakatlarga xalqaro hamjamiyatdan ko'rsatiladigan yordamning umumiy miqdori 2 mlrd AQSH dollarini tashkil qiladi.

O'zbekiston Respublikasining barqaror rivojlanish bo'yicha milliy xarakteratlar, ustuvorlar va mo'ljallar.

Respublikamiz mustaqillikka erishgan dastlabki davrdayok davlatimizda ekologik muammolarning oldini olish va ushbu masala yuzasidan konuniy ta'sir chorasini belgilash maqsadida yetarli darajada hukukiy hujjatlar majmuasi yaratildi. Konstitutsiyaning tegishli moddalarida fukarolar atrof-tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishlari belgilab ko'yilgan. SHundan kelib chiqib 1992 yil 9 dekabrda "**Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida**"gi hamda ekologik muammolarning oldini olishga karatilgan, yer, suv, o'rmon, yer osti boyliklari hakida kodekslar, shuningdek, atmosfera havosini, yer usti va osti suvlari, to'prok, o'simlik va hayvonot olamini muhofaza etish bo'yicha ko'plab konunlar va hukumat karorlari kabul qilingan. Tegishli tashkilot va korxonalariga aniq topshiriqlar berilgan hamda atrof-muhit va tuprok, yer-osti, suv, o'rmon, mineral resurslar, havo baseynidan oqilona foydalanish bo'yicha tadbirlar tavsiya etilgan.

Ekologik sohada huquqiy hujjatlar yaratilishi bilan bir qatorda ushbu sohada nazorat ishlarini olib boruvchi O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tashkil qilindi, Ayni paytda ushbu qo'mitaning viloyatlarda qo'mitalari, tuman va shaharlarda tabiatni muhofaza qilish inspektsiyalari faoliyat olib bormokda. Bundan tashkari ekologik jihatdan og'ir bo'lgan Orolbo'yi va boshqa hududlarga beg'araz xayriya yordami ko'rsatuvchi "EKOSAN" xalqaro tashkiloti hamda mazkur soha bilan bog'lik faoliyatga ixtisoslashgan ko'plab tashkilotlar faoliyat ko'rsatmokda. Bu mamlakatimizda ekologik muammolarning oldini olishga davlat siyosati darajasida e'tibordir. Hozirgi kunda ekologiya atamasi ham tabiat to'g'risidagi, tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni o'rganuvchi fanlar majmuasiga kiritilgan. Ayni paytda respublikamizdagi umumiy o'rta ta'lim maktablarida, kasb-xunar kollejarida, oliy o'kuv yurtlarida alohida fan sifatida o'qitilmokda. Bundan asosiy maksad insonlarni ekologik ofatdan kutqarish

hamda atrof-tabiiy muhit bilan kerakli va madaniy munosabatlarni yosh avlodga o'rgatish hamda ularning ekologik madaniyatini yuksaltirishga erishishdan iborat.

Prezident I.A.Karimov "ekologik muammo - yer yuzining hamma burchagida ham dolzarb, fakat uning keskinlik darajasi dunyoning turli mamlakatlarida turlicha" ekanligini ta'kidlab, ushbu masalaga "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va tarakkiyot kafolatlari" asarida alohida e'tibor karatgan. Ushbu kitobda Prezident ushbu masalani muhimligini kuyidagicha belgilaydi: "Milliy xavfsizlikka karshi yashirin taxdidlarni ko'rib chiqar ekanmiz, ekologik xavfsizlik va atrof muhitni muhofaza qilish muammosi alohida e'tiborga molikdir". Ekologik xavfsizlik va atrof muhitni himoyalash va mavjud tabiiy muhitni sof holatda saklab, kelajak avlodlarga yetkazishga karatilgan barcha sa'y-harakatlar davlatimiz milliy xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

1994 yildan boshlab, O'zbekiston Respublikasi atrof-muhit bo'yicha xalqaro axborot tizimida mustaqil ishtirokchidir. Bunda asosiy vazifa Davlat ilmiy-texnika axboroti fondiga yuklatilgan. Milliy ajratilgan markaz (MAM) faoliyati uning tashkil etilganidan boshlab, respublikamizdagi tashkilotlar orasida Infoterra tizimlarini tashkil qilish, axborotlarning milliy manbalari tarmog'ini yaratish, respublikamiz va chet elektron axborot iste'molchilarining so'rov-ehtiyojlarini kondirishga yo'naltirilgan.

1995 yildan boshlab, O'zbekiston Respublikasida (MAM tomonidan) Tabiatni muhofaza etish faoliyatining alohida yo'nalishdari bo'yicha ma'lumotlarning mahalliy (lokal) bazasini shakllantirishga kirishildi. Masalan, "Qurilish industriyasi korxonalarida ekologik himoya", "O'simliklarni himoya qilish", "Oqova suvlarni tozalash texnologiyasi", "Orolning ekologik muammolari", "Tuproqning zaharli ximikatlar bilan ifloslanishi muammosi" kabi yo'nalishlarni alohida aytib o'tish mumkin.

Hozirgi vaktida respublikamizda " Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiat resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha 2005 yilgacha mo'ljallangan Davlat dasturi" ishlab chiqildi. "Tabiat muhofazasi va O'zbekiston Respublikasi barqaror tarakkiyotining ekologik ta'minlash bo'yicha harakat Milliy rejasi", "O'zbekiston Respublikasi atrof-muhiti gigienasi bo'yicha harakat Milliy rejasi", Biologik xilma-xillikni saklash bo'yicha harakat rejasi va milliy strategiya ishlab chiqilmokda.

Bu hujjatlarda atrof muhit himoyasi siyosati maksadlari ifodalangan, strategiyaning asosiy prinsiplari va yo'nalishlari belgilangan.

I.A.Karimovning "O'zbekiston buyuk kelajak sari" asarida ekologik xavfsizlikni kuchaytirishning hozirgi asosiy yo'nalishlari ko'rsatib o'tilgan. Unda, xususan, quyidagilar ta'kidlanib o'tiladi:

1. Tegishli texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish. Qishlok, o'rmon va boshqa xo'jalik tarmoklaridagi tabiiy jarayonlarning keskin buzilishiga olib keladigan barcha zaharli kimyoviy moddalarni ko'llash ustidan kattik nazorat o'rnatish. Havo va suv muhitini insonning hayotiy faoliyati uchun zararli yoki salbiy ta'sir etadigan moddalar bilan ifloslanishini to'xtatish.

2. Qayta tiklanmaydigan zaxiralarni qat'iy mezon asosida iste'mol qilgan holda tabiiy zaxiralarning hamma turlaridan oqilona foydalanish.

3. Katta-katta hududlarda tabiiy sharoitlarni tabiiy zaxiralardan samarali va kompleks foydalanishni ta'minlaydigan darajada anik maksadga karatilgan, ilmiy asoslanilgan tarzda o'zgartirish (daryolr oqimini tartibga solish hamda suvlarni bir havzadan ikkinchisiga tashlash, yerning namini kochirish, suv chiqarish tadbirlarini va boshqalarni amalga oshirish) lozim.

4. Jonli tabiatning butun tabiiy genofondini madaniy ekinlar va hayvonlarning yangi turlarini ko'paytirish hisobiga boshlang'ich baza sifatida saqlab kolish kerak.

5. Shaharsozlik va tumanlarni rejalashtirishning ilmiy asoslanilgan, hozirgi zamon urbanizatsiyasining barcha salbiy oqibatlarini bartaraf etadigan tizimni joriy etish yo'li bilan shaharlarda va boshqa aholi punktlarida aholining yashashi uchun kulay sharoit yaratish zarur.

6. Ekologik kulfatlar chegara bilmasligini nazarda tutgan holda jahon jamoatchiligi e'tiborini mintakaning ekologik muammolariga karatish lozim.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Ekologiya fani qachon vujudga kelgan va nimani o'rganadi?
2. Ekologiya va tabiatdan foydalanishga oid dastlabki tushuncha va ma'lumotlar bergan O'rta Osiyolik olimlardan kimlarni bilasiz?
3. Ekologiya qanday qismlarga bo'linadi?
4. Ijtimoiy ekologiya nimani o'rganadi?
5. Moslashuv (adaptatsiya), abiotik, biotik, ekotizim, biogeotsenoz, biotsenoz tushunchalariga ta'rif bering.
6. Insoniyatni tabiatdan noto'g'ri foydalanishi qanday salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin?
7. Tabiatni muhofaza qilish deganda nimani tushunasiz?
8. Tabiatni muhofaza qilishning asosiy vazifalari va yo'nalishlari nimalardan iborat?

MAVZUGA DOIR ASOSIY TUSHUNCHALAR

Sanitar-taksik monitoring-atrof muhit sifat holatini asosan tabiiy resurslarni zararli ingredientlar bilan ifloslanish darajasini kuzatadi. Bu jarayonlarni odam, hayvonot va o'simlik dunyosiga ta'sirini hamda shovqun, allergen, chang, patogen, mikroorganizmlar, noxish hidlar qurimini aniqlaydi.

Tabiat boyliklari - tabiatda kishilik jamiyatining yashashi va o'z xo'jaligida foydalanadigan tabiatdagi barcha kimyoviy elementlar va energiya manbalari. Tabiat boyliklariga quyosh, Yerning ichki energiyasi, suv va uning energiyasi, foydali qazilmalar, tuproq-o'simlik qoplami, hayvonot dunyosi, tabiatning noyob joylari va boshqalar. Tabiat boyliklari real va potentsial boyliklarga bo'linadi.

Tabiatdan foydalanish - tabiat va tabiiy resurslar imkoniyatini hisobga olgan holda ulardan to'g'ri foydalanishining turli shakllari. Tabiatdan foydalanish - jamiyatning moddiy va ma'naviy talablarini qondirish uchun tabiatdan va uning resurslardan to'g'ri foydalanish.

Tabiiy resurslar-jamiyatning moddiy, ilmiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchun ishlab chiqarishda foydalanilayotgan yoki foydalanish mumkin bo'lgan tabiiy obyektlar, jarayonlar.

Tabiiy komponentlar - tabiatni hosil qiluvchi tarkibiy qismlari. Jumladan: tog' jinslari, relyef, havo, yer usti va yer osti suvlari, tuproq va o'simliklar qoplami, hayvonot dunyosi va boshqalar.

Fotosintez – yorug'lik energiyasi yordamida organik moddalar sintezini amalga oshiruvchi oksidlanish-qaytarilish reaksiyasi

Ekologik imperativ- tabiat qonunlariga bo'ysunish talabi

Ekologik inqiroz- ekologik sistema, tabiat kompleksidagi muvozanat xolatining qayta tiklasa bo'ladigan o'zgarishlar

Ekologik omil – tirik organizmning moslashish xarakteriga javob beradigan tashqi muhitning har qanday elementi. Uning abiotik, biotik va antropogen turlari ajratiladi

Ekosistema – organizmlar va ularning yashash muhitidan iborat tabiiy yoki sun'iy antropogen majmui; undagi tirik va notirik ekologik tarkibiy qismlar birlari bilan chambarchas bog'langan

O'lik modda – V.I.Vernadskiy ta'limoti bo'yicha, uning hosil bo'lish jarayonda tirik modda ishtirok etmaydi.

14 – MAVZU

TIBBIYOT GEOGRAFIYASINING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI

Maqsad: Tibbiyot geografiyasining fanlar tizimida tutgan o'ri hamda uning hududiy xususiyatlarini yoritib berish.

Tayanch so'z va iboralar: *bixeviorizm, xulq-atvor geografiyasi, intuitsiya, zehn va fe'l-atvor, madaniyat, axloqiy muhit, sotsial makon, ta'biy sharoitning inson ruhiy shakllanishidagi ahamiyati.*



REJA:

1. Tibbiyot geografiyasining fanlar tizimida tutgan o'ri
2. Tibbiyot geografiyasining tadqiqot obyekti va predmeti
3. Tibbiyot geografiyasining rivojlanish bosqichlari
4. Tibbiyot geografiyasida qo'llanuvchi tadqiqot usullar
5. Nozogeografiya



Insoniyat taraqqiyoti asrlar davomida turli xil fanlar va ularning yutuqlari asosida shakllanib, rivoj topib kelgan. Shu nuqtai nazardan fanlar tizimida geografiya fani ham o'z mavqeiga ega va uning rivojida ko'plab yangi-yangi tadqiqot va izlanishlar bo'lishi tabiiy. Xususan, keyingi yillarda mustaqil respublikamizda an'anaviy iqtisodiy geografiyaning sotsiallasuvi va uning keng ma'nodagi ijtimoiy geografiya faniga aylanishi yuz bermoqdaki, bu albatta, ijobiy jarayondir.

So'nggi yillarda zamonaviy geografiya fanlari tizimida ijtimoiy sohalarga e'tibor kuchaymoqda. Jumladan, hozirgi zamon fan va texnika faoliyatining tabiiy muhitga ta'sirini faollashuvi natijasida vujudga kelgan noxush ekologik vaziyat kishilar salomatlik holatidagi salbiy oqibatlarni keltirib chiqarmoqda. Bu esa, o'z navbatida ijtimoiy geografiyaning o'ziga xos sohalaridan biri bo'lgan, aniqrog'i,

kasalliklar va salomatlik, aholining kasallanish va salomatlik darajasi hamda ularning hududiy xususiyatlarini o'rganuvchi **tibbiyot geografiyasi** oldiga yangidan-yangi muammolarni qo'yimoqda¹. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, tibbiyot geografiyasi ijtimoiy geografiyaning kam o'rganilgan sohalaridan biri hisoblanadi. Mazkur fan, tibbiyot hamda geografiya fanlari qirrasida o'ziga xos «ko'prik» vazifasini o'taydi. Shu bois, uning boshqa ijtimoiy geografik tarmoqlardan farqlanuvchi o'ziga xos xususiyati tabiat bilan chambarchas bog'langanligidir. Biroq, bunday holat inson salomatlik holati jarayonida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning etakchi ahamiyatini sira tushirmaydi.




50-rasm. Nozogeografiyaning asosiy kategoriyalari

Tibbiyot geografiyasi (nozogeografiya) - *inson salomatligi va turli xil kasalliklarning vujudga kelishiga ta'sir etuvchi omil va sharoitlar, ularning mamlakat hamda rayonlarda tarqalish qonuniyatlari va xususiyatlarini o'rganadi.* Nazariy jihatdan tibbiyot geografiyasi tibbiyot va geografiya fanlarining tegishli

¹ "Tibbiyot geografiyasi" atamasi italyan shifokori Bernardino Ramatssini (1633-1714) tomonidan fanga kiritilgan.

qismlariga asoslanadi. U uch tarkibiy qismdan iborat bo'lgan keng mazmundagi ijtimoiy geografiyaning sotsial blokidan bevosita o'rin oladi.

Ayni paytda tibbiyot geografiyasi bilan aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish geografiyasi o'rtasida qisman farq mavjud. Masalan, agar tibbiyot geografiyasi kasalliklarning tarqalishi, uning omil va sabablarini, shuningdek, inson salomatligi bilan bog'liq hududiy qonuniyatlarni o'rgansa, aholiga xizmat ko'rsatish geografiyasi esa tibbiy muassasalarning (*kasalxona, poliklinika, dorixona va x.k.*) joylanish masalalari bilan shug'ullanadi. Shunuqta nazardan aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish aholiga xizmat ko'rsatish sohalari (*tibbiyot, ta'lim, savdo, moliya va h.k.*) yoki servis geografiyasiga kiradi. Aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish geografiyasida aholi va aholi manzilgohlarining zichligi, ularning katta-kichikligi, aholining tabiiy harakati kabi masalalar e'tiborga olinadi. Xuddi shu ma'noda aholiga xizmat ko'rsatish geografiyasi sotsial-iqtisodiy geografiyaga mos tushsa, tibbiyot geografiyasi esa bevosita sotsial geografiya tarkibiga kiradi.



Tibbiyot geografiyasida kasalliklarning hududiy xususiyatlarida, albatta, *turmush-tarzi, yer yuzasining ekologik va tabiiy sharoiti hamda insonlar bilan munosabatlar* ham inobatga olinadi.

51-rasm. Tibbiyot geografiyasida e'tiborga olinadigan asosiy jihatlar

Yana shuni alohida ta'kidlash lozimki, tibbiyot geografiyasi kasalliklarni davolamaydi, aniqlamaydi, ushbu fanning bosh vazifasi kasalliklarning vujudga keltiruvchi tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy omillarning hududiy jihatlarini tahlil etish hamda baholashdan iboratdir (51-rasm). Bu sharoit tabiiy yoki ijtimoiy muhit

ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Demak, tibbiyot geografiyasi kishilarning tashqi muhit bilan o‘zaro aloqadorligini ham o‘rganadi. Shu ma‘noda u ekologiyaga, ayniqsa uning ijtimoiy yo‘nalishiga juda yaqin turadi. Eslatish lozimki, aynan ijtimoiy ekologiyaga oid ilmiy tadqiqot ishlari rivojida A.Nig‘matov singari vatanimiz olimlarining xizmatlari ham katta.

Tibbiyot geografiyasining predmeti murakkab, ko‘p qirralidir. Chunonchi, tibbiyot geografiyasi hozirda geografik patologiya, tabiiy geografiya, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, demografiya, biogeografiya, mamlakatshunoslik, iqlimshunoslik, landshaftshunoslik, tuproqshunoslik, salomatlik ekologiyasi, gelmintogeografiya va boshqa geografik fanlar bilan chambarchas bog‘langan¹. Ushbu sohalar orasida ayniqsa geografik patologiya o‘z obyekt va predmetiga ko‘ra tibbiyot geografiyasiga juda yaqin turadi. Geografik patologiya tirik organizmlarning geografik omillar bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan patologik holatlarini o‘rganuvchi tibbiy-biologik fandır. Geografik patologiyaning predmeti bu patologik jarayonlar va ularning holati, shuningdek, kasalliklar majmuasi hisoblanadi. Mazkur soha rivojida A.P.Zilber, E.N.Pavlovskiy, K.I.Skryabinlarning xizmatlari katta. Shu o‘rinda ta‘kidlash joizki, mazkur fan ko‘proq kasalliklarni keltirib chiqaruvchi patologik holatlar va ta‘sirlarning geografik jihatlarini o‘rganadi. U o‘z o‘rnida qator maxsus tibbiyot fanlari bilan bog‘liq. Xususan, ular orasida epidemiologiya, nozoekologiya, parazitologiya, tibbiyot statistikasi, gigiena, sotsial gigiena kabilar alohida o‘rin egallaydi².

¹ Salomatlik ekologiyasi (sanoekologiya) – tashqi muhit omillarining aholi salomatlik darajasiga ta‘siri bilan bog‘liq qonuniyatlarni aniqlaydi; Gelminogeografiya – nozogeografiya hamda gelminologiyaning alohida yo‘nalishi bo‘lib, turli xil gelmintlar va ular tufayli yuzaga keluvchi kasalliklar, ularning tarqalishini o‘rganadi. (B.B.Proxorov, 1999).

² Nozoekologiya (kasalliklar ekologiyasi) - aholi orasida uchraydigan kasalliklar va ularning tabiiy o‘choqlari, ularning kelib chiqish sabab va tarqalish qonuniyatlarini o‘rganadi. Mazkur fan ob‘yektida epidemiologiya ob‘yektidan farqli ravishda nafaqat zooantroponozlar, antropozlar, endemik kasalliklar, shuningdek, onkologik va yurak, qon-tomir hamda boshqa patologiyalarni ham o‘z ichiga oladi; Gigiena (yunoncha-sog‘lom) - kishilar sog‘lig‘iga turmush va mehnat sharoitlari ta‘sirini o‘rganadi hamda kasalliklarni oldini olish, yashash uchun eng qulay sharoit yaratish, sog‘liqni saqlash va uzaytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqadi; Sotsial gigiena - atrof muhit,

Eslatish lozimki, tibbiyot geografiyasi borasidagi tadqiqotlar XIX asrning o'rtalaridan boshlab tez rivojlana boshladi. Bunda xorijiy va sobiq Ittifoq olimlarining xizmatlari sezilarli bo'ldi. Mazkur fanning predmeti, avvalambor, inson salomatligi, kasalliklar va ularning tarqalish masalalarini ko'proq tadqiq qilish bilan belgilangan bo'lsa, hozirgi kunda u yanada mukammallashib, joyning tabiiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini hisobga olgan holda inson salomatligiga tegishli hududiy qonuniyatlarni ilmiy tadqiq etish bilan belgilanadi.

Tibbiyot geografiyasining obykti masalasi ko'pchilik olimlarni qiziqtirib kelayotgan muammolardan biridir. Bu haqdagi bilimlarni bir necha guruhlariga ajratish orqali anglashimiz mumkin. Masalan, E.A.Rayx fikricha (1989,30-37 b.), zamonaviy tibbiyot geografiyasining obykti haqidagi fikrlar uch bosqichga bo'linadi:

Birinchi, dastlabki bosqichda fanning 20-30 yillaridagi holati, rivojlanganlik darajasiga mos ravishda, uning obykti insonga (aholiga) va uning salomatligini belgilovchi potologik jarayonlarga qaratilgan.

40-50 yillarda esa tibbiyot geografiyasining obykti nafaqat insonga, balki inson va tabiat o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikka asoslangan. Bu hol D.K.Zabolotniy, N.L.Gayskiy, E.N.Pavlovskiy kabi olimlar ishlarida yaqqol namoyon bo'ladi.

Navbatdagi bosqich asosan 50-60 yillar oralig'ini o'z ichiga oladi. Bunda fanning o'rganish obykti nafaqat inson va tabiatga, balki umuman uning tashqi yashash muhiti, ya'ni, tabiiy, xo'jalik, sotsial sharoitlarga ham qaratilgan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, tibbiyot geografiyasining obykti 70-80 yillarga kelib biroz bo'lsada o'z ko'lamini kengaytirdi, bunda fanning obykti yuqoridagi

uy-joy, maishiy xizmat, mehnat shart-sharoitlarining inson salomatligiga ta'sirini o'rganuvchi tibbiyotning muhim tarmog'idir. Shuningdek, mazkur soha sotsial-iqtisodiy omillarning inson salomatligiga ijobiy va salbiy ta'sirini ham o'rganadi; Tibbiyot statistikasi - aholining kasallanishi, o'lim va nogironligi to'g'risidagi jamlangan turkum ma'lumotlar haqidagi fan sohasi. Tibbiyot statistikasi inson ekologiyasi va tibbiyot geografiyasi uchun muhim axborot manbai bo'lib xizmat qiladi (Proxorov B.B, 1999).

bosqichlarni to'ldirgan holda ancha mukamallashdi. Endilikda tibbiyot geografiyasining obyekti nafaqat inson va tabiat yoki inson va tashqi yashash muhitiga emas, balki ularning o'zaro aloqadorligi va boshqaruvni ham o'z ichiga qamrab oldi.

Darhaqiqat, tibbiyot geografiyasining obyekti davrlar o'tishi bilan yanada kengayib, murakkablashib boraveradi. Chunki, uning rivojiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tobora yangilanib, o'zgarib bormoqda. Shunga muvofiq holda tibbiyot geografiyasi haqidagi fikrlar ham takomillashib borgan. Yuqoridagi bosqichlar tahlili shuni ko'rsatadiki, dastlab biz o'rganayotgan fanning obyekti va predmeti tor bo'lib, u asosan patologik jarayonlar bilan cheklangan, xolos. Binobarin, bu sharoitda hali uning geografik jihatlari deyarli yo'q edi.

Ikkinchi bosqichda fanning o'rganish doirasi kengayib, u umuman geografiya fanining bosh falsafiy masalasi bo'lmish inson va tabiat o'rtasidagi aloqadorlikgacha ko'tariladi. Bu esa, shubhasiz, uning geografik mazmunini boyitishdan darak beradi. Keyingi bosqich esa tibbiyot geografiyasi to'g'risidagi qarashlarimizning yanada kengayganligini ko'rsatadi; inson salomatligining barcha tashqi muhit (*tabiiy va notabiiy*) omillari bilan aloqadorligiga asoslanadi. Bunday hol ayni paytda geografiya fanining tarkibiy jihatdan murakkablashuvi va rivojlanib borishiga ham mos keladi. Biz bu erda hozirgi zamon tor ma'nodagi sotsial geografiya fanining vujudga kelishini nazarda tutmoqdamiz.

Shu bilan birga tibbiyot geografiyasining predmeti haqidagi fikrlarni ko'pgina xorijiy olimlar asarlarida ham uchratishimiz mumkin. Jumladan, E.Ikavits (1885): «Tibbiyot geografiyasining predmeti er sharining turli xalq va mamlakatlari orasida salomatlik va xastaliklar, hayot va o'limning aks etishidir», deb yozgan edi (*Shoshin A.A., 1962*). Boshqacha qilib aytganda, olim tibbiyot geografiyasining predmeti sifatida inson salomatlik holatini va kasalliklarning tarqalishini yer sharining turli hududlarida o'rganishni ta'kidlab o'tadi.

Tibbiyot geografiyasi bilan bog‘liq masalalar sobiq Ittifoq olimlari tomonidan ham o‘rganilgan. Masalan, tibbiyot geografiyasining fan to‘g‘risidagi ta‘rifini D.K.Zabolotniy quyidagicha ifodalaydi: «Tibbiyot geografiyasi tibbiyotning muayyan tarmog‘i sifatida yer sharidagi turli kasalliklarning tarqalish qonuniyatlarini o‘rganuvchi fan» (*Zabolotniy D.K., 1929*), E.I.Ignatev esa «Tibbiyot geografiyasi - geografik muhitning inson jismiga ta‘sirini o‘rganuvchi geografiyaning bir sohasidir», deb ko‘rsatadi (*Ignatev E.I., 1962*).

A.V.Chaklin mazkur fanga qisqacha tarzda: «Tibbiyot geografiyasi - bu salomatlik va kasalliklar geografiyasini o‘rganuvchi fandır», deb ta‘rif beradi (*Chaklin A.V., 1986.*).

Tibbiyot geografiyasining alohida fan darajasidagi rivojlanishida xorijlik Girsh¹, Finke, Fuks, Boje Garne singari olimlar xizmatlarini ham alohida ko‘rsatish joiz.

Avzug (Girsh) Xirsh – nemis vrach-epidemiologi va tibbiyot tarixchisi, Berlin universiteti professori. 1856 yilda u o‘zining geografik patologiya borasidagi ilk maqolasini yozdi. U 1861, 1862 va 1884 yillarda uch jildni tashkil etgan «Geografik patologiya» nomli asarini yaratdi. Shu o‘rinda aytish lozimki, tibbiyot geografiyasinihg fan sifatida shakllanishi aynan shu olim nomi bilan chambarchas bogliq.

Tibbiyot geografiyasining tadqiqot obyekti va predmeti. Ta‘kidlash kerakki, tibbiyot geografiyasi fan sifatida turli olimlar tomonidan turlicha yondashuvlarga sabab bo‘lmoqda. Bunda ayrimlar, jumladan, D.K.Zabolotniy tibbiyot geografiyasini tibbiyotning bir sohasi maqomida qarasa, aksincha E.N.Pavlovskiy, E.I.Ignatev, E.L.Rayx va boshqalar uning ko‘proq geografiyaga tegishli ekanligini e‘tirof etishadi. Tibbiyot geografiyasining nazariy masalalarini

¹ Tibbiyot geografiyasining fan maqomida o‘rganish g‘oyasi faqatgina XIX asrning oxirida, aniqrog‘i - Тиббунёр 1884 yilda nemis olimi Girsh tomonidan tavsiya etilgan edi (Chaklin A.B., 1986, B. 14.).

yoritishda A.V.Chaklin ning xizmatlari kata. U mazkur fanga oid qator asarlar yaratgan. Olim rak kasalligi tarqalishining geografik xususiyatlarini o'rganan, o'z tadqiqotlari davomida turli xil xalqlarda har xil o'smalar paydo bo'lishining sirlarini izlashda u ko'plab ekspeditsiyalarda qatnashgan, dunyoning 70 dan ortiq mamlakatlariga tashrif buyurgan.

Ayni vaqtda, ba'zi olimlar tibbiyot geografiyasiga mustaqil, alohida fan darajasida qaraydilar. Ular mazkur fanni garchi tibbiyot va geografiya fanlari oralig'ida yuzaga kelganligini tan olsalarda, lekin uni o'ziga xos mustaqil fan maqomida talqin qiladilar. Bunday olimlar qatoriga A.A.Shoshin, A.V.Chaklin va boshqalarni kiritish mumkin. Shuningdek, ayrim olimlar tibbiyot geografiyasini fan sifatida o'ziga xos yo'nalishlarga ega bo'lgan chegaraviy fan deb ham qarashga moyilliklari bor. Masalan, A.P.Avsinning fikricha, tibbiyot geografiyasi murakkab fan tizimi bo'lib, u qator tabiiy va ijtimoiy fanlardan iborat, deb ta'kidlansa (*Avsin A.P., 1972*), A.G.Voronov uni bioximiya, biofizika, biogeografiya fanlari singari chegaraviy fan shaklida ta'riflaydi (*Voronov A.G., 1981.*).

A.M.Trofimov va M.D.Sharigin fikrlariga ko'ra tibbiyot geografiyasi sotsial ekologiya, tibbiyot va aholi geografiyasi bilan juda yaqin aloqada. U turli xil patologik o'zgarishlarning geografik jihatlarini tabiiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy muhitning aholi kasalliklariga ta'siri va bu kasalliklarning hududiy areallarini o'rganadi (*Trofimov A.M., Sharigin M.D., 2007, B.16*).

Bizning fikrimizcha, tibbiyot geografiyasi chindan ham fanlar qirrasida yuzaga kelgan chegaraviy yo'nalish bo'lsada, uni geografiya fanlari tizimi aniqrog'i ijtimoiy-iqtisodiy geografiya fani doirasida ko'rishni ma'qul ko'ramiz²³. Chunki, yer yuzida kasalliklarning vujudga kelishi va tarqalishida hududiy tafovutlar mavjud ekan, mazkur fan asosini geografik omillar tashkil etadi.

²³ Umuman olganda, ko'pgina fanlar aynan shunday "qirraviy" xususiyatga ega, chunki olam, butun ob'yektiv borliqning o'zi yaxlit tizimlar va uni o'rganish bu birlikni sun'iy ravishda alohida qismlari bo'lib tahlil va tadqiq qilishni talab etadi.

Aholi salomatlik holatining yuzaga kelishida, kasalliklar va ularning kelib chiqishi hamda tarqalishida, uzoq umr ko'rishida hududiy omillar, tabiiy va ijtimoiy muhit muhim ahamiyatga ega. Yana shuni alohida qayd etish lozimki, bugungi kunda jahonda ijtimoiy omillarning ta'siri tobora ortib bormoqda. Buning oqibatida kishilar orasida «sivilizatsiya kasalliklari» salmog'i sezilarli tarzda ortib bormoqda va bu hol ham kasalliklar tarqalishi va ularni keltirib chiqaruvchi sabablarni ijtimoiy geografiya tarkibida tadqiq etishni taqozo etadi.

Ba'zi olimlar (*Voronin V.V., Sharigin M.D., 2006*) fikricha ham tibbiyot geografiyasi siyosiy yoki xulq-atvor geografiyasi singari ijtimoiy geografiyaning alohida tarmog'i hisoblanadi. Mazkur chizma ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, haqiqatdan ham tibbiyot geografiyasi ijtimoiy geografiyaning tarkibiy qismidir. Zero, inson salomatligi va kasallanish jarayonlariga ijtimoiy muhit omillari ta'sir ko'rsatar ekan, bu masala albatta ijtimoiy geografik fanlar qatoriga kiruvchi tibbiyot geografiyasi tomonidan o'rganiladi desak, xato bo'lmaydi. Qolaversa, aholining salomatligi, uning kasallanishi borgan sari tabiiy omillardan ko'ra ijtimoiy-iqtisodiy omillarga bog'liq bo'lib bormoqda.

Sobiq Ittifoq davrida tibbiyot geografiyasi fani bir necha yo'nalishlarni o'z ichiga qamrab olgan. Bular¹: kasalliklar geografiyasi ya'ni nozogeografiya; tibbiyot landshaftshunosligi; tibbiyot mamlakatshunosligi; tibbiyot kartografiyasi; tabiiy va sotsial-iqtisodiy omillarni tibbiy geografik jihatdan baholash (Byakov P.V, Veselov E.I.,1989). Hozirgi vaqtda ushbu tarkibiy qism yanada kengayib, bir necha yangi yo'nalishlarni ham o'z ichiga qamrab oladi (*tibbiyot kosmografiyasi, geografik patologiya va b.*).

Tibbiyot geografiyasining asosiy tadqiqot va ilmiy yo'nalishlari borasida A.A.Shoshin (1962) quyidagilarni ta'kidlab o'tadi:

¹ Shoshin A.A.(1962) fikricha tibbiyot geografiyasi mana shu «to'rt kit»ning ustida turadi.

- ❖ kasalliklarning vujudga kelishi va tarqalishida, aholi salomatligini belgilashda unga ta'sir ko'rsatuvchi tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy omillarning barcha elementlarini tibbiy geografik baholash;
- ❖ aholi salomatlik holatiga ta'sir ko'rsatuvchi tabiiy majmualarni o'rganish;
- ❖ iqtisodiy rayonlashtirishning mavjud birliklarida (xalq xo'jalik majmualari, ma'muriy-hududiy birliklarda) inson kasalliklarining yuzaga kelishiga sabab bo'luvchi va aholi salomatlik holatiga o'z ta'sirini ko'rsatuvchi tabiiy, iqtisodiy va tibbiy sanitar sharoitlarni aniqlash;
- ❖ hududlarning kelajakdagi tibbiy geografik holatini mavjud ko'rsatkichlar asosida bashorat qilish;
- ❖ tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy omillarning alohida elementlarini ijobiy yoki salbiy ta'sir kuchini tasvirlab beruvchi maxsus tibbiy-geografik kartalar tuzish.

Tibbiyot geografiyasi ayrim manbalarda inson ekologiyasi nomi bilan yuritiladi. Lekin, ushbu sohalar bir-biriga juda yaqin bo'lishiga qaramay, ular orasida o'zaro farq mavjud. Inson ekologiyasi bu fanlararo ilmiy yo'nalishdir. U odamlarning atrof-muhit bilan o'zaro aloqa ta'siri qonuniyatlarini, buning natijasida aholining o'sishini, muayyan maqsadga yo'naltirilgan boshqaruv muammolarini, aholi salomatligini saqlash, Homo sapiens turini takomillashtirish muammolarini tadqiq etadi (*Kaznacheev V.P., 1983, c. 79*). Tibbiyot geografiyasi esa asosan inson salomatligi va uning kasalliklari, ushbu kasalliklarni vujudga keltiruvchi sabab va qonuniyatlarni o'rganadi. Demak, tibbiyot geografiyasi inson ekologiyasi va hatto uning keng ma'nodagi talqinidan ham o'zgacharoq tushuncha hisoblanadi (*Komilova N.Q., Soliyev A.S., 2005*).

Tibbiyot geografiyasining obykti masalasi ko'pchilik olimlarni qiziqtirib kelayotgan muammolardan biridir. Bu haqdagi bilimlarni bir necha guruhlariga ajratish orqali anglashimiz mumkin. Masalan, E.L.Rayx fikricha (1989, 30-37 b.),

zamonaviy tibbiyot geografiyasining obykti haqidagi fikrlar uch bosqichga bo'linadi:

- ✚ Birinchi, dastlabki bosqichda fanning 1920-1930 yillaridagi holati, rivojlanganlik darajasiga mos ravishda, uning obykti insonga (aholiga) va uning salomatligini belgilovchi patologik jarayonlarga qaratilgan.
- ✚ 1940-1950 yillarda esa tibbiyot geografiyasining obykti nafaqat insonga, balki inson va tabiat o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikka asoslangan. Bu hol D.K.Zabolotniy, N.L.Gayskiy, E.N.Pavlovskiy kabi olimlar ishlarida yaqqol namoyon bo'ladi.
- ✚ Navbatdagi bosqich asosan 1950-1960 yillar oralig'ini o'z ichiga oladi. Bunda fanning o'rganish obykti nafaqat inson va tabiatga, balki umuman uning tashqi yashash muhiti, ya'ni tabiiy, xo'jalik, sotsial sharoitlarga ham qaratilgan.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tibbiyot geografiyasining obykti 1970-1980 yillarga kelib biroz bo'lsada o'z ko'lamini kengaytirdi, bunda fanning obykti yuqoridagi bosqichlarni to'ldirgan holda ancha mukammallashdi. Endilikda tibbiyot geografiyasining obykti faqatgina inson va tabiat yoki inson va tashqi yashash muhiti bilan cheklanmaydi, balki u ularning o'zaro ichki aloqadorligi va boshqaruvni ham o'z ichiga qamrab oldi. Darhaqiqat, tibbiyot geografiyasining obykti davrlar o'tishi bilan yanada kengayib, murakkablashib boraveradi. Chunki, uning rivojiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tobora yangilanib, o'zgarib bormoqda. Shunga muvofiq holda tibbiyot geografiyasi haqidagi fikrlar ham takomillashib borgan. Yuqoridagi bosqichlar tahlili shuni ko'rsatadiki, dastlab biz o'rganayotgan fanning obykti va predmeti tor bo'lib, u asosan patologik jarayonlar bilan cheklangan, xolos. Binobarin, bu sharoitda hali uning geografik jihatlari deyarli yo'q edi.

Ikkinchi bosqichda fanning o'rganish doirasi kengayib, u umuman geografiya fanining bosh falsafiy masalasi bo'lmish inson va tabiat o'rtasidagi aloqadorlikgacha ko'tariladi. Bu esa, shubhasiz, uning geografik mazmunini boyitishdan darak beradi. Keyingi bosqich esa tibbiyot geografiyasi to'g'risidagi qarashlarimizning yanada kengayganligini ko'rsatadi; inson salomatligining barcha tashqi muhit (*tabiiy va notabiiy*) omillari bilan aloqadorligiga asoslanadi. Bunday hol ayni paytda geografiya fanining tarkibiy jihatdan murakkablashuvi va rivojlanib borishiga ham mos keladi. Biz bu erda nisbatan tor ma'nodagi sotsial geografiya fanining vujudga kelishini nazarda tutmoqdamiz.

Tibbiyot geografiyasi predmeti va obykti haqidagi bilimlarning o'zgarib borishi, umuman olganda, ekologiya to'g'risidagi dunyoqarashning o'zgarib borishiga aynan o'xshab ketadi. Chindan ham ekologiya (*uning asoschisi nemis olimi Gekkel*) dastlab biologik, aniqrog'i hayvonlar organizmini patologik holatini belgilovchi fan sifatida talqin qilingan edi. Keyinchalik u tabiat, ya'ni atrof-muhit, ijtimoiy muhit bilan birgalikda, o'zaro aloqadorlikda qaraladigan bo'ldi. Boshqacha qilib aytganda, sof biologik (tabiiy) mazmundagi ekologiya asta-sekin ijtimoiylashib, o'z doirasini kengaytirib bordi. Xuddi shunday o'zgarish inson ekologiyasida ham yuz berdi.

Ma'lumki, «inson ekologiyasi» tushunchasi dastavval amerikalik olimlar, jumladan, chikagolik vrach Xerlen Berrouz tomonidan taklif etilgan bo'lib, u asosan inson organizmining o'zaro aloqadorligini anglatadi. Shundan so'ng bu fikr mazmun va mohiyatan kengayib bordi va hatto inson ekologiyasi o'sha davrda G'arbiy Yevropada inson geografiyasiga muvofiq darajada e'tirof etildi (*Soliyev A.S., 1995*). Umuman olganda, esa ushbu sohadagi munozaralar hozirgacha o'z yechimini to'laligicha topgani yo'q va bu borada yangi-yangi izlanishlar amalga oshishi, tabiiy. Hozirgi vaqtda O'zbekiston va boshqa xorijiy mamlakatlarning tibbiy geografik jihatdan o'rganishda muayyan hududlarda aholi salomatligiga doir

prognozlar ishlab chiqish, kasalliklar va ularning tarqalishini o'zida aks ettiruvchi kartalar yaratish, tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy omillarning aholi salomatligiga ta'sirini tahlil va tashhis qilish kabi masalalarga e'tibor berish talab etiladi. Shu munosabat bilan tibbiyot geografiyasining asosiy vazifalari qatoriga eng avvalo tabiiy sharoitlar majmuining aholi salomatligiga ta'sir qonuniyatlarini o'rganish, yuqumli va yuqumli bo'lmagan kasalliklarning vujudga kelishi hamda tarqalishida tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy omillar, ularning rolini aniqlash kiradi. Shu bilan birga yer yuzasining muayyan tabiiy majmualarida, turli hududlarda (*mamlakat, mintaqa, materik, tog' va tekislik, daryo havzalarining yuqori va quyi qismi, cho'l va voha*) alohida kasalliklarning geografik tarqalish qonuniyatlarini o'rganish kabi masalalar ham ushbu fan doirasida muhim o'ringa ega.

Boshqa fanlar singari tibbiyot geografiyasi ham o'z tadqiqotlarida muayyan usullarga tayangan holda ish olib boradi. Jumladan, tabiiy geografik tavsif, kartografik tahlil, dala va statsionar tadqiqotlar, rayonlashtirish, sotsial-demografik mazmundagi anketa so'rovlarini qo'llash ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlarni olib borishda katta ahamiyatga ega. Yuqoridagilar qatorida ba'zi bir umumiy usullardan ham keng foydalaniladi. Chunonchi, tizim-tarkib, statistik, matematik modellashtirish, tarixiy, taqqoslash usullari bu borada samarali natijalar beradi. Zamonaviy tibbiy geografik tadqiqotlar aholining salomatlik holati va uni geografik omillar bilan o'zaro aloqasi, bog'liqligi, oqibatlari va ularni bartaraf etish yo'llarini aniqlash bilan belgilanadi. Bunda ayniqsa ijtimoiy-iqtisodiy omillarning hal qiluvchi rolini e'tiborga olmasdan bo'lmaydi.

Tibbiyot geografiyasida ham an'anaviy rayonlashtirish usulining ahamiyati katta. Tibbiy geografik rayonlashtirish majmuaviy tibbiy geografik tadqiqotlarning muhim natijasidir.

Insoniyat tarixi ko'plab ming yilliklarni o'z ichiga qamrab olgan. Zero, uning ilk bosqichlaridayoq sog'liqni saqlash va muhofaza qilishning dastlabki

g'oyalari vujudga keldi. Qadimgi Misr, Xitoy, O'rta Osiyo va Gretsiyada eramizdan avvalgi bir necha ming yillar ilgari tashqi muhitning inson organizmiga ta'siri xususida bir qancha asarlar yozildi. *Keyinchalik geografiya va tibbiyot sohalari orasida ularni bog'lovchi yangi fan sohasi–inson salomatligi va kasalliklari geografiyasi ya'ni tibbiyot geografiyasi shakllandi.*

Tibbiyot geografiyasi tarixiga nazar tashlar ekanmiz, uning ildizlari olis o'tmish sari bizni yetaklaydi. Shu bois fan tarixini chuqurroq anglash maqsadida uni bir necha qismlarga bo'lib o'rganishni o'rinli deb topdik.

Dastlabki bosqich antik davr bo'lib, bu vaqtda yozilgan asarlar ham aynan mazkur davrga mos holatdadir. Shu o'rinda eslatmoq joizki, tibbiyot geografiyasining ilk asoslari eramizdan avvalgi ming yilliklarda yozilgan manbalarga borib taqaladi.

Qadimgi Hindistonda yaratilgan ilk tibbiyotga oid asar bu «**Ayur Veda**»lar (*Hayotni bilish*) hisoblanadi. Unda kasallikni keltirib chiqaruvchi asosiy manbalar birinchi o'rinda iqlim va ob-havoning o'zgarishi, insonlarning yashash joyi, og'ir jismoniy mehnat, ovqat rejimining buzilishi deb ko'rsatilgan (*Qodirov A.A., 1993*).

Abu Rayhon Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» nomli asarida «Avesto» va undagi tabobat hamda sog'liqni saqlash tadbirlariga oid ko'plab ma'lumotlar ko'rsatib o'tilgan (*O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2002*). Ushbu muqaddas kitobda inson o'z salomatligini qanday asrashligi, gigiena, ruhiy va tana pokligi haqida fikrlar berilgan. Shu bilan birga, asarda yer, havo va suv e'zozlanib, kasalliklarning tarqalishi hamda ularni oldini olishga doir nodir fikrlar ham bitilgan.

Tibbiy geografik bilimlarning shakllanishida qadimgi yunon olimlarining o'rni katta. Jumladan, Gomerning «Iliada» dostonida ikki afsonaviy Yunon tabiblari haqida fikr yuritilgan. Korneliy Sels o'zining tibbiyot to'g'risidagi asarida «qadimgi tibbiyotni uch qismga ajratgan edi: biri-hayot tarzi bilan davolaydi;

ikkinchisi dori-darmon bilan; uchinchisi esa jarrohlik yo‘li bilan», degan edi (Chaklin A.V., 1977).

Jahon tibbiyotida o‘chmas iz qoldirgan mashhur yunon olimi Gippokrat (er.av. 460-377) ham inson salomatligini belgilashda tashqi muhit ta‘sirini alohida ta‘kidlab o‘tgan. Gippokrat tabib va sayyoh edi, ya‘ni u ko‘p sayohat qilar, turli mamlakatlarda bo‘lar ekan, u o‘sha yerlardagi odamlarning turmush tarzi va urf-odatlari, davlatlarning iqlimi, suvi, havosi va boshqa tabiiy sharoitlarini inson kasalliklariga ta‘sirini o‘rganar edi. Gippokrat har xil geografik zonalarda turlicha odamlar yashashlarini ko‘rdi, ularning o‘z tana tuzilishlari, xarakter xususiyatlari bilan farq qilishlarini aniqladi (Qodirov A.A., 1993).

Olim bu haqda shunday degan edi: «Odam organizmining tabiatini tashqi muhit belgilaydi. Jamiyat esa o‘z qonun-qoidalari bilan odam tabiatini o‘zgartirishi mumkin». Bundan shuni ta‘kidlash mumkinki, Gippokrat inson organizmiga ijtimoiy muhitning ta‘sirini ham yaxshi anglagan.

Gippokrat tomonidan «Gippokrat to‘plami», «Havolar, suvlar va joylar», «Tibbiy qasam», «Epidemiyalar», «Qonun» singari ko‘plab asarlar yozilgan.

Ayniqsa olimning «Havolar, suvlar va joylar» nomli kitobi tibbiyot geografiyasiga oid dastlabki asar bo‘lib, u eramizdan avvalgi 424 yilda yaratilgan (Proxorov B.B., 1999, s. 146).

Tibbiy geografik bilimlar rivojining ilk davrida aynan shu soha nomi bilan atalgan asarlar, ilmiy mulohazalar mavjud bo‘lmasada, biroq ular o‘z mazmun-mohiyati bilan tibbiy geografik bilimlarning ilk na‘munalaridir. Shu o‘rinda ta‘kidlash joizki, Gippokrat, nafaqat tibbiyotning, qolaversa, tibbiyot geografiyasining ham asoschisidir. Chunki, olim tomonidan yaratilgan asarlar bu sohadagi dastlabki, shu bilan birga nihoyatda muhim manbalar sanaladi.

Tibbiyot geografiyasi tarixining ikkinchi bosqichi eramizning I-XV asrlarini o‘z ichiga oladi. Bu davrda O‘rta Osiyo hududida yashab o‘tgan ko‘pgina faylasuf olimlar asarlarida tibbiyot geografiyasiga oid bilimlar keng yoritilgan.

Abu Ali ibn Sino kasalliklarning kelib chiqish sabablarini aniqlashda va davolashda tashqi sharoitning (*iqlim, ob-havo, turar-joy, ovqatlanish va x.k.*) ta‘siriga alohida e‘tibor qaratgan edi. U ba‘zi kasalliklarni davolash uchun iqlimni o‘zgartirish zarurligini, dengizlarda sayohat qilish, musaffo havoli joylarga borishni tavsiya qilgan (*Abu Ali ibn Sino, 1994*). O‘rta Osiyo hududida yashab ijod qilgan mashhur tabiblar, jumladan, Abu Bakr Ar-Roziy asarlarida kishilarda uchraydigan kasalliklarning aksariyat qismi uning yashash joyi bilan bog‘liqligi qayd etilgan. U hatto kasalxonalar qurilishida joyning iqlimi, joylashgan o‘rni kabi jihatlarga e‘tibor berish zarurligini ta‘kidlagan (*Abu Bakr Ar-Roziy, 1994*).

Sharofuddin Ayloqiy, Najibuddin Samarqandiy, Ismoil Jurjoniy, Sulton Ali Xurosoniy, Mansur Ibn Mahmud, singari olimlar asarlarida ham shunga o‘xshash tibbiy geografik ma‘lumotlarni uchratish mumkin. Jumladan, bunday fikrlar vatandoshimiz Abu Rayhon Beruniy tomonidan ham ilgari surilgan edi. Uning yozishicha, «Odamlar tuzilishlarining rangi, surati, tabiat va axloqda turlicha bo‘lishi faqatgina nasablarining turlichaligidan emas, balki tuproq, suv, havo va yerning, kishilar yashaydigan joylarning turlichaligidan hamdir» (*Abu Rayhon Beruniy, 1993*).

Tibbiyot geografiyasi rivojining navbatdagi bosqichi XV asrdan to XX asrning boshlarigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga qamrab oladi. Bu davrda tibbiy geografik tadqiqotlar ayniqsa Rossiya, Germaniya, Fransiya va AQShda yaxshi yo‘lga qo‘yildi. Bunday tadqiqot ishlari Rossiyada XVIII asrdayoq vujudga kelgan edi. Ushbu ishlar Pyotr I farmoni bilan mineral suvlar, dorivor o‘simliklar va foydali hamda zaharli hayvonlar to‘g‘risida ma‘lumotlarni to‘plashga qaratilgan. Ilk tibbiy geografik axborotlar rus olimlari V.N.Tatishev, V.V.Lomonosov,

S.P.Krashennikov ishlarida yoritib berilgan. Ular iqlim, o'simliklar, tub aholining urf-odatlarini, mazkur davrda o'lkada keng tarqalgan kasalliklar haqida ma'lumotlar to'pladi.

Tibbiy geografik bilimlarning shakllanishida harbiy vrach P.Z.Kondoidi (1710-1760) ning xizmatlari katta. U ko'plab harbiy sayohatlarda bo'lib, askarlarni salomatlik holati turli joylarda har xil bo'lishini, hududlarning tabiiy shart-sharoitlarini ularning hayotiy faoliyatlariga ta'sirini aniqladi, hududlarni topografik jihatdan baholadi. Bu davrda Rossiya va Eron o'rtasidagi muhim savdo yo'lida joylashgan «Kizlyar» qal'asida kasallanish va o'lim nihoyatda ortib borayotgan edi. Kondoidi ushbu qal'ada vujudga kelgan kasalliklar sabablari instruksiyasini ishlab chiqdi va bu tibbiyot geografiyasi tarixidagi birinchi yozma dastur edi. Bundan ancha keyinroq «Kizlyar» qal'asiga kelgan vrach V.Y.Gevitt ushbu instruksiyani batafsil o'rganib chiqdi. Askarlarning sotsial shart-sharoitlari, xizmat va yashash tarzi haqida zaruriy ma'lumotlarni qo'lga kiritdi va Kondoidini birinchi tibbiy-topograf sifatida e'tirof etdi (Byakov P., Veselov E., 1989, S. 18-19).

Dastlabki tibbiy geografik ishlardan biri 1792-1795 yillarda yozilgan Finkenning «*Опыт общей медико-практической географии*» nomli asaridir (Byakov P., Veselov E., 1989, S. 24-26). Xuddi shu yili (1792 yil) tibbiyot geografiyasi xususidagi yana bir asar Finkenning «*Обобщение всеобщей медико-практической географии*» nomli asari chop etildi. Har ikkala asarlarda ham tibbiyot geografiyasi inson jismiga joyning ta'sirini o'rganuvchi fan sifatida qaraladi (Chaklin A.V., 1977.). Demak, bu yerda ham o'ziga xos deterministik yondashuv bor.

XIX asrda jahonda aholi kasalliklarini ifodalovchi bir qancha atlaslar yaratildi. 1856 yilda ingliz tilida nashr etilgan Sonstonning maxsus atlasida jahonda keng tarqalgan kasalliklarning dastlabki xaritalari chop etildi. Shuningdek,

1880-yilda Lombardo tamonidan nashr qilingan atlasda ham iqlim ta'sirida kasalliklarning taqsimlanish xaritalari namoyish etildi.

1856-yilda nemis epidemiologi va gigienisti Girsh o'zining geografik patologiya borasidagi maqolasini yozdi. U 1861, 1862 va 1884-yillarda uch jildni tashkil etgan «Geografik patologiya» nomli asarini yaratdi. Shu o'rinda aytish lozimki, tibbiyot geografiasining fan sifatida shakllanishi, ushbu iboraning ishlatilishi ham aynan shu olim nomi bilan chambarchas bog'liq.

XVIII asr oxiri XIX asrda tibbiy geografik tadqiqotlardan bosh maqsad jahon miqyosida keng tarqalgan o'lat, vabo singari epidemiyalarga qarshi chora-tadbirlar ishlab chiqishdan iborat bo'ldi. Bu davrda tibbiyot geografiasini katta yutuqlarga erishdi. Masalan, rus harbiy vrachlari M.Mudrov, R.Chetirkin, I.Enegolm kabilar turli geografik zonalardagi harbiy xizmatchilar va ular organizmlariga ta'sir etuvchi omillarni o'rgandi. 1845-yilda Rossiya Geografiya jamiyati tarkibida ikki mashhur tibbiyot olimlari: V.I.Dal va K.M.Ber faoliyat ko'rsatdilar. 1830-1845-yillarda tibbiyot-jarrohlik akademiyalarida tibbiyot geografiasini o'rgatila boshlandi. Asr oxiriga kelib tibbiyot geografiasini tibbiyot va geografiyadan ajralib chiqqan alohida mustaqil fan sifatida shakllandi. Ushbu fanning nazariy masalalarini yoritishda S.P.Lovsov, E. X.Ikavits va N.I.Toropov singari olimlarning xizmatlari katta bo'ldi (*Shoshin A.A., 1964*).

XX asr boshlarida tibbiy tadqiqot ishlari sezilarli tarzda o'zgardi. Chunki, bakteriologiya, gigiena, statistika sohalarining yuzaga kelishi mazkur soha taraqqiyotida ham tub burilish yasadi. Amerikalik olimlar Layt (1944), keyinchalik Mey (1950), yapon olimlaridan Masako (1956), meksikalik olim Saens de Iya Kalsada (1956) singari olimlar fan rivojiga o'z ulushlarini qo'shdilar. Shuningdek, jahon tibbiyot geografiasining nazariy va amaliy masalalarining yoritilishida chet el olimlaridan Ratsel, Stemp, Bojyo-Garne va boshqa ko'pgina olimlarning xizmatlari ham katta bo'ldi (*Proxorov B.B., 2002*).

1950-1960-yillarda jahonning ko'pgina mamlakatlarida tibbiyot geografiyasining asosiy tarmoqlaridan biri bo'lgan **nozogeografiya** ya'ni kasalliklar geografiyasi borasida bir qancha ishlar amalga oshirildi. Chunonchi, 1954 yilda Vashingtonda bo'lib o'tgan Geografiya jamiyati Xalqaro anjumani saraton kasalligi, uning kelib chiqish sabablari va geografiyasiga bag'ishlandi (*Chaklin A.V., 1989. B. 121-125*). 1963-yilda Milanda bo'lib o'tgan Xalqaro anjumanda leykoz kasalligi, 1966-yilda esa infarkt-miokard kasalligining yer sharining ko'plab mamlakatlarida ko'payib borayotganligi sabablari muhokama etildi. Xullas, Xalqaro Geografiya Ittifoqining Patologiya bo'limi ushbu yillarda bir qancha kasalliklarning kelib chiqish sabablari va halqaro miqyosdagi holatini o'rganib, aniq fikrlar berdi.

Rossiyada ham bu davrda katta ishlar amalga oshirildi. 1954-yil sobiq Ittifoq Geografiya jamiyati qoshida tibbiyot geografiyasi komissiyasi tashkil topdi. Akademik E.N.Pavlovskiy taklifi bilan uning tarkibiga ko'plab iqlimshunoslar, shifokorlar, tuproqshunoslar, kurortolog va boshqa mutaxassislar jalb qilindi (1957 yildan boshlab shu komissiya qoshida «Meditinskaya geografiya» referativ jurnali chiqarila boshlagan). Keyinchalik u (1963) tibbiyot geografiyasi bo'limiga aylandi va uni 23 yil mobaynida taniqli rus tibbiy geografi A.A.Shoshin boshqardi.

Ko'pgina olimlar (*G.A.Popov, E.N.Pavlovskiy, A.V.Chaklin, E.N.Rijikov*) bu vaqtda ayrim kasalliklarning geografik tarqalishini aniqlasalar, ba'zilar (*E.I.Ignatev, V.P.Byakov, V.A.Nikonov*) tabiiy zonalar va landshaftlar, ularning inson salomatligiga ta'sirini o'rgandilar, yana ayrimlari esa (*A.A.Shoshin, A.A.Keller, B.V.Vershinskiy*) tibbiyot kartografiyasi ustida ish olib bordilar. 1959-yilda mazkur komissiya bir qancha ilmiy to'plamlar nashr etdi.

1960-1970-yillarda sobiq Ittifoqda tibbiyot geografiyasi sohasida bir necha ilmiy markazlar tadqiqotlar olib bordi. Bular orasida ayniqsa:

- ❖ **Geografiya jamiyatining Moskva filiali** (*A.D.Lebedev, V.Y.Podolyan, A.P.Avsin, A.G.Voronov, E.L.Rayx, A.V.Chaklin va boshq*);
- ❖ **Tomsk ilmiy markazi** (*bu erda mashhur iqlimshunos V.I.Rusanov boshchiligida tadqiqotlar olib borildi*);
- ❖ **Irkutskda esa E.I.Ignatev boshchiligida B.B.Proxorov, B.V.Vershinskiy, S.P.Buslov singari yirik tibbiy geograflar faoliyat ko'rsatdilar.**

1962-yilda A.A.Keller tibbiy geografik rayonlashtirishning asosiy tamoyillarini ishlab chiqdi va mazkur tamoyillar asosida bir qancha mintaqalar tibbiy geografik jihatdan rayonlashtirildi. Jumladan, B.B.Proxorov tomonidan BAM (*Baykal-Amur magistrali*) ning ta'sir mintaqasi 29 tibbiy geografik rayonga ajratildi (*Proxorov B.B., 1979*).

Tibbiyot geografiyasining rivojida V.N.Beklemishevning xizmatlari katta bo'ldi. Uning ishlari bezgak kasalligining epidemiologik o'choqlarini aniqlashga qaratilgan edi. Olim kasallik qo'zg'atuvchilarning areallarini aniqlab, fanga yangi «psevdo» o'choq, ya'ni soxta o'choq tushunchasini kiritdi (*Proxorov B.B., 1999*).

1980-1983-yillarda V.Y.Podolyan, V.P.Byakov, A.A.Keller va boshqalar tomonidan tibbiyot geografiyasining usul va ilmiy yo'nalishlari ustida tadqiqotlar olib borishdi. Ular tibbiyot geografiyasining epidemiologiya, parazitologiya, geografik patologiya, gigiena, ekologiya, iqlimshunoslik, landshaftshunoslik va aholi geografiyasi singari fan sohalari bilan uzviy aloqadorligini alohida ta'kidlab o'tdi. Shuningdek, sobiq Ittifoqning ko'pgina universitetlarida, jumladan, Qozog'istonda N.I.Kereev, Qirg'izistonda B.I.Xo'jamberdiev singari olimlar tibbiyot geografiyasi bo'yicha tadqiqotlar olib borgan.

1990-yildan keyingi davrda jahonning ko'plab mamlakatlarida xalqaro miqyosda kun sayin ortib borayotgan kasalliklar (*saraton, layma, parranda grippi, shizofreniya, o'tkir pnevmoniya*) ustida faoliyat olib borilmoqda. Bu borada ayniqsa Rossiya tibbiy geograflari (*B.B.Proxorov, A.G.Vishnevskiy, S.A.Kurolap,*

A.S.Martinov, V.S.Tikunov) ishlari tahsinga loyiq. Afsuski, bugungi kunda O‘zbekistonda tibbiyot geografiyasi sohasida olib borilayotgan tadqiqotlar ko‘lamini keng deb bo‘lmaydi. Shunday bo‘lsada, hozirgi vaqtda mazkur sohani rivojlantirish borasida mahalliy olimlarimiz ham izlanishlar olib bormoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi qoshidagi Salomatlikni tiklash va fizioterapiya ilmiy tekshirish institutining kurort resurslarini o‘rganish va himoya qilish bo‘limi xodimlari olib borayotgan tadqiqotlar bunga yaqqol misoldir.

Tibbiyot geografiyasiga yaqin sohada, inson salomatligi bilan bog‘liq masalalarni aniqlashda va hal etishda Respublika Sog‘liqni saqlash vazirligi qoshida faoliyat olib borayotgan «Salomatlik va tibbiy statistika,» instituti xodimlarining ham xizmatlari salmoqli. Ayni paytda tibbiyot geografiyasining muhim tarmoqlaridan biri bo‘lgan tibbiy geografik xaritalashtirish sohasida Sh.M.Muhiddinovning olib borgan tadqiqotlari ham tahsinga loyiq. Shu bilan birga, aynan tibbiyot geografiyasi doirasida bo‘lmasada, bevosita mazkur fan yo‘nalishiga yaqin, ya’ni aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish borasida M.I.Nazarov tomonidan ham tadqiqot ishi olib borilgan. Shuningdek, N.Q.Komilova tomonidan 1999-yilda “Buxoro viloyatining nozogeografik vaziyati (*aholi kasallanishining hududiy jihatlari*)” mavzusida nomzodlik, 2012-yilda “O‘zbekiston tibbiy geografik sharoitining hududiy tahlili va aholi salomatligi muammolari” mavzusida doktorlik dissertatsiyasi A.S.Soliyev ilmiy maslahatchiligida himoya qilgan. Ammo, shunga o‘xshash ilmiy ishlar respublikamiz miqyosida anchagina bo‘lsada, mamlakatimiz hududini tibbiy geografik jihatdan o‘rganilganlik darajasi boshqa mamlakat va mintaqalarga nisbatan orqada. Shu sababli mazkur fan

tarmogʻini yanada rivojlantirish, ushbu yoʻnalishda ilmiy tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiqdir¹.

Maʼlumki, nozogeografiya yoki inson kasalliklari geografiyasi tibbiyot geografiyasining asosiy tarkibiy qismlaridan biri boʻlib, u yer sharida tarqalgan kasalliklar, ularni vujudga keltiruvchi sabab va qonuniyatlarni oʻrganadi. Tibbiyot geografiyasi vujudga kelgan vaqtdanoq nozogeografiya ushbu fanning asosiy yoʻnalishlaridan biri sifatida shakllandi². Bu boradagi ilmiy izlanishlar XVIII asrdan boshlangan. Olib borilgan tadqiqotlarning asosiy qismi insonlarda uchraydigan ayrim kasalliklarga, xususan yuqumli–parazitar kasalliklarga qaratilgan. Ushbu tadqiqotlar XVIII asr boshlarida tibbiyot geografiyasining alohida bir yoʻnalishi sifatida yuzaga keldi. Shuningdek, bu boradagi tadqiqotlarni olib borishda, yaʼni kasalliklarni geografik tarqalish xususiyatlarini aniqlashda tibbiyotning boshqa sohalari (*epidemiologiya, parazitologiya*) bilan ham ilmiy hamkorlik qilish zarurligi sezilib qoldi.

Davrlar oʻtishi bilan kasalliklarning vujudga kelishi va tarqalish sabablarini aniqlashda maxsus nazariy va amaliy tadqiqotlar amalga oshirildi. Masalan, sobiq Ittifoq davrida mazkur tadqiqotlar parazitologiya, landshaft epidemiologiyasi va boshqa ilmiy yoʻnalishlar doirasida amalga oshirildi. Bu borada asosiy izlanishlar E.N.Pavlovskiy, K.N.Skryabin, G.Y.Zmeyev, V.Y.Podolyan kabilar tomonidan olib borildi Xorijda inson kasalliklari geografiyasi maxsus ilmiy ishlarda (J.Mey,

¹ Soʻnggi yillarda ushbu mavzu bilan bogʻliq ilmiy tadqiqotlar koʻlami biroz kengaydi. Masalan, X.T.Tursunov oʻzining nomzodlik dissertatsiyasida (1994-y.) Toshkent shahri ekologiyasi muammolari doirasida aholining kasallanishi masalalarini oʻrgangan. Shuningdek, I.R.Turdimambetov (2005-y.) tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar ham aynan aholi salomatligining geografik jihatlariga bagʻishlangan.

² Nozogeografiya (yunoncha nosos–kasallik va geografiya) - qadimda va hozirgi vaqtda kishilarda uchraydigan kasalliklarning tarqalish geografiyasini oʻrganuvchi tibbiyot geografiyasining bir qismi. Uning asosiy masalasi nozoareallar, ularning tuzilishi va dinamikasi, shuningdek, kasalliklarning vujudga keltiruvchi sharoitni oʻrganishdir (Proxorov B.B.,1999). Dastavval tibbiyot geografiyasi tibbiyot landshaftshunosligi, tibbiyot mamlakatshunosligi, nozogeografiya, tibbiyot kartografiyasi singari bir qancha yoʻnalishlarni oʻz ichiga olgan (Shoshin A.A, 1962).

1950; 1954), inson kasalliklarining tarqalishi to'g'risidagi karta hamda atlaslarda ham o'z aksini topgan.

Inson kasalliklari geografiyasi masalalarini hal etishda XVIII Xalqaro Geografiya kongressining tibbiyot geografiyasi seksiyasi muhim o'rin tutdi. Ushbu kongress 1956-yil avgust oyida Rio-de-Janeyro shahrida bo'lib o'tdi. Kongressda Xalqaro patologik geografiya jamiyati «kasalliklar va geografik muhit o'rtasidagi aloqadorlik»ni o'rganish g'oyasini ilgari surdi. Rak kasalligining geografik tarqalishini o'rganish bilan halqaro rakka qarshi Ittifoq shug'ullandi.

Sobiq Ittifoq davrida ham tibbiyot geografiyasiga oid tadqiqotlar olib borishga katta e'tibor qaratildi. Bunga 1962-yilda Leningrad (hozirgi Sankt-Peterburg) shahrida o'tkazilgan tibbiyot geografiyasining holati va kelajagi to'g'risidagi ilmiy anjuman ham misol bo'la oladi. Ikkinchi anjuman (konferensiya) ham shu shaharda 1965-yilda o'tkazilgan bo'lib, u aholi salomatligi va geografik muhit masalalariga bag'ishlangan edi. Uchinchi anjuman (*Leningrad, 1968 y.*) bevosita inson kasalliklari geografiyasi, to'rtinchisida (1973 y.) tibbiy geografik kadastr muammolari muhokama etilgan.

Navbatdagi ilmiy anjuman Rossiyaning Kirishi shahrida 1979-yilda o'tkazildi va u tibbiy geografik rayonlashtirish hamda uni prognoz qilishga bag'ishlangan edi. 1983-yildagi yig'ilishda esa tibbiyot geografiyasining nazariy asoslari bilan bog'liq muammolar ko'rib chiqilgan edi.

Xullas, insonlarda uchraydigan turli kasalliklar, ularning vujudga kelishi va tarqalishi sabablari ko'pchilik mamlakatlarda o'rganila boshlandi. Xavfli o'sma, yurak, qon-tomir, gripp, poliometit, oshqozon-ichak infeksiyalari shular jumlasidandir.

Aytish o'rinliki, nozogeografiyaning asosiy masalasi insonlarda uchraydigan kasalliklar tarqalishining umumiy geografik qonuniyatlarini aniqlash, alohida kasalliklar nozokompleks va nozoareallari, ularning dinamikasini tadqiq etishdan

iborat. Shunday ekan, nozogeografiya o'z tadqiqot obyektiga ega bo'lgan tibbiyot geografiyasining alohida yo'nalishidir. U ayrim kasalliklarning o'tmishda va turli davrlardagi holati bilan ham shug'ullanadi. Chunki, kasalliklar geografiyasi evolyusiyasi, ba'zi kasalliklarning umuman yo'qolib ketishi, aksincha, ayrimlarining keng hududlar bo'ylab tarqalib ketishi bunday izlanishlarning muhim nazariy ahamiyat kasb etishini anglatadi.

Nozogeografiya. Kishilik jamiyati shakllanishining dastlabki davrlaridan boshlab insoniyatni u yoki bu kasallik bilan kasallanish holatlari qiynab keladi. Hatto bunday xastaliklarning ayrimlari ming-minglab kishilarni yostig'ini quritgani, yuzlab aholi punktlarning (*qishloq, ovullar*) butunlay yo'qolib ketishiga sabab bo'lgani ko'pchilikka ma'lum. Ayniqsa ayrim yuqumli kasalliklar (o'lat, chechak, vabo, bezgak) butun bir mintaqalarda asrlar davomida aholining ko'plab qirilib ketishiga olib kelgan. Shunday kasalliklardan biri o'lat bo'lib, u er. av. 430-425 yillarda «Fukid o'lati» nomi bilan ko'pchilikka tanish bo'lgan. Eramizning 251-266 yillarida «Antoniana» yoki «Galen» o'lati nomlari bilan atalib, katta maydonlarda tarqalgan. Keyinchalik (er.av. 531-580 y.y.) Konstantinopol, Misr, Suriya, Kichik Osiyo va Afrikaning ba'zi hududlarida mazkur kasallik epidemiyasi mislsiz qurbonlar keltirdi. Eramizning XIV-asrida Yevropaning ko'pgina mamlakatlarida o'lat yana paydo bo'ldi. U «Qora o'lim» nomi bilan 60 yil davomida 24 mln. kishini hayotdan olib ketdi. O'lat kasalligining eng yirik o'choqlaridan biri O'rta Osiyo hududi bo'lib, «Buyuk ipak yo'li» orqali kasallik Rossiya hududlariga tarqalib ketdi. Faqatgina 1894-yil A.Iversen o'lat qo'zg'atuvchisini kashf etgani va 1896-yilda V.M.Xavkin tomonidan o'latga qarshi vaksina yaratilganidan so'ng mazkur kasallikka barham berildi. Hozirgi kunda ham Hindiston aholisi ushbu vaksina bilan emlanib turiladi (*Большая медицинская энциклопедия, 2006, -С. 762-764.*).

Yana shunday kasalliklardan biri chechak bo'lib, qadimgi hind va xitoy yozma manbalarida u haqda ma'lumotlar berilgan. Yevropada bu kasallik sharqqa nisbatan ancha kech kirib keldi. O'rta asrlarda chechak ayniqsa Yevropaning g'arbiy qismiga tarqalib ulgurgan edi; 1707-yilda birgina Islandiya aholisining 2/3 qismi mazkur xastalik tufayli qirilib ketgan edi. 1796-yil Jenner tomonidan unga qarshi maxsus emlash vositasi ishlab chiqilgandan keyingina mazkur kasallik ancha kamaydi (*Большая медицинская энциклопедия*, 2006, -С. 403-407.).

Ma'lumotlarga ko'ra, 1967-yil 2 mln. dan ortiq kishi chechak bilan kasallangan. Biroq, 1980-yilga kelib Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti yer yuzida chechak kasalligi batamom tugatilganini e'lon qildi. Hozirgi kunda chechak qo'zg'atuvchilari faqatgina uch laboratoriyada (*AQSh, Rossiya, JAR*) saqlangan, xalos.

Insoniyat tarixida ko'plab qurbonlar keltirgan kasalliklardan yana biri *vabo hisoblanadi. U dastlab (1816-y.) Hindistonda* (Gang daryosi vodiysida) paydo bo'lgan; bu erda turmush sharoiti og'ir bo'lgani uchun aholining bir qismi boshqa davlatlarga ko'chib keta boshlaydi. Natijada, vabo Yevropaga, keyinchalik butun dunyoga, chunonchi Birma (1819-y.), Yava va Barneo orollari, Xitoy (1820-y.), Eron (1821-y.), Yaponiya hamda Rossiyaga (1822-y.) tarqaldi.

1823-1925 yillarda Rossiyada vabo epidemiyasi 55 marta qayd qilingan. Bu kasallik Turkiston o'lkasiga Afg'oniston va Erondan o'tgan. Vabo vibrioni 1883-yil Kox va 1906-yil Gotshlix tomonidan topilgan. Hozirgi vaqtda vabo kasalligi jahonda deyarli uchramaydi.

Xullas, qachonlardir tarixda o'lat, chechak, vabo singari o'ta mudhish kasalliklar keng tarqalgan bo'lsa, davrlar o'tishi bilan ular batamom yo'qolib, o'rnini yangidan yangi kasalliklar egallamoqda. Ushbu kasalliklarning Yer sharida tarqalishi, keltirib chiqaruvchi sharoit va qonuniyatlar esa nozogeografiya tomonidan o'rganiladi.

Hozirgi vaqtda nozogeografiya tibbiyot geografiyasining muhim yoʻnalishi sifatida qator masalalar bilan shugʻullanadi. Jumladan, u:

- ❖ inson kasalliklar geografiyasining nazariy-uslubiy asoslarini oʻrganadi;
- ❖ inson kasalliklarining vujudga kelishi va geografik tarqalishida tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy omillar taʼsirini baholaydi;
- ❖ ayrim kasalliklar geografiyasi qonuniyatlarini tahlil qiladi va tegishli (tematik) nozogeografik kartalar tuzadi;
- ❖ nozogeografiya insonlarda uchraydigan turli kasalliklarning hududiy majmua va nozoareallarini tadqiq etadi, rayonlashtiradi;
- ❖ nozogeografik vaziyatni baholash asosida uni yaxshilashning asosiy yoʻnalishlarini prognoz qiladi va x.k.

Tahlillar koʻrsatadiki, nozogeografiya sohasidagi tadqiqotlar dastavval insonlarda uchraydigan yuqumli kasalliklarga qaratilgan. Sobiq Ittifoqda mazkur tadqiqotlarning asosiy qismi tabiiy-oʻchoqlar, transmissiv kasalliklar va gelmintozlar ustida olib borilgan. Bu borada xususan yirik olim, akademik E.N.Pavlovskiyning xizmatlari katta boʻlgan. U muayyan tabiiy landshaftlarda uchraydigan, ularga xos va mos boʻlgan kasalliklar «oʻchogʻi» haqidagi ilmiy taʼlimotni yaratgan (*Pavlovskiy E.N., 1964*). Yuqumli kasalliklarning tabiiy oʻchoqlari toʻgʻrisidagi E.N.Pavlovskiyning taʼlimoti muayyan tabiiy sharoitda parazitlarni oʻzida saqlovchi issiq qonli hayvonlar hamda boʻgʻimoyoqli tarqatuvchilar va ularni insonlar yuqtiradigan kasalliklarning hududiy birligiga asoslanadi.

Soʻnggi yillarda ushbu yoʻnalishdagi tadqiqot ishlari nafaqat yuqumli kasalliklar toʻgʻrisida, balki yuqumli boʻlmagan kasalliklar ustida ham amalga oshirilmokda. Nozogeografiya sohasidagi olib borilgan amaliy tadqiqotlar natijasida insonlarda uchraydigan barcha turdagi kasalliklarni uch guruhga ajratish mumkin:

1. Yuqumli va parazitlar kasalliklar;
2. Yuqumli bo'lmagan tabiiy-endemik kasalliklar¹;
3. Boshqa yuqumli bo'lmagan kasalliklar va zaharlanishlar.

Umuman olganda, turli xil kasalliklar yirik kasalliklar guruhini tashkil etadi. Ularning vujudga kelishida tabiiy yoki ijtimoiy-iqtisodiy omillar asosiy rol o'ynaydi.

Insonlarda kasalliklar qachonki tashqi muhit omillari bilan organizm o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik, muvozanat buzilgandagina kelib chiqadi. Binobarin, bunga sabab bo'luvchi endogen yoki ekzogen omillar ta'sirini o'rganish katta amaliy ahamiyat kasb etadi. Asab va ruhiy buzilishlar, infeksiya va intoksikatsiyalar, modda almashinuvidagi buzilishlar irsiy yoki ayrim a'zolar rivojlanishidagi nuqsonlar va boshqalar endogen omillar tarkibiga kiradi. Ekzogen omillar esa ijtimoiy-maishiy omillar, mehnat sharoitlaridagi noqulayliklar, yuqori va past harorat singari holatlar shular jumlasiga kiradi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, insonlarda uchraydigan kasalliklar o'z xususiyatlariga ko'ra bir necha guruhlarga ajratiladi. Ular orasida nafas olish, yurak, qon-tomir a'zolari, ovqat hazm qilish tizimi bilan bog'liq kasalliklar eng katta guruhlarni tashkil etadi.

Ma'lumki, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya hamda umuman geografiya fanida hududiy majmualar (komplekslar) muhim o'rin tutadi. Bu fan uchun kompleks yondoshuv, turli xil hududiy tizim, hududiy tarkib va hududiy majmualarni aniqlash katta metodologik ahamiyatga ega. Shunuqtai nazardan inson kasalliklari geografiyasi - nozogeografiyada ham bunday majmualarni o'rganish talab etiladi.

¹ Mazkur joydagi aholi o'rtasida doim uchrab turadigan kasalliklar endemik kasalliklar deb ataladi (Volovskaya L.M., 1977).

Nozogeografik majmualar yoki nozogeografik komplekslar ma'lum tabiiy geografik va ijtimoiy-iqtisodiy, sotsial muhitda (makonda), ularning ta'siri ostida vujudga keladigan turli xil kasalliklarning hududiy birikmasi, birligidir. Boshqacha qilib aytganda, ma'lum landshaft-ekologik va ijtimoiy muhit negizida vujudga keladigan asosiy kasallik va u bilan bog'liq yoki uning ta'sirida paydo bo'ladigan kasalliklar birligi kasalliklarning hududiy majmui deyiladi. Ushbu nazariy g'oya Chikagolik tibbiyot olimlarining inson ekologiyasi hamda iqtisodiy-ijtimoiy geografiyada yaratilgan hududiy majmualar va energiya ishlab chiqarish sikllari g'oyalariga asoslanadi.

Kasalliklarning hududiy majmualari bu nozogeografik rayon emas, balki uning asosidir. Chunki har qanday nozogeografik rayonda kasalliklarning hududiy majmuidan tashqari alohida uchraydigan boshqa kasalliklar ham mavjud bo'ladi. Patologik jarayonlarga hududlarning landshaft-ekologik va ijtimoiy geografik omillari o'z ta'sirini ko'rsatar ekan, ularni o'rganish nazariy jihatdan muhim ahamiyat hisoblanadi. Demak, aytish mumkinki, kasalliklarning hududiy majmuasi metodologik jihatdan nozogeografik rayonlarni tahlil qilish va ayni vaqtda prognozlash usuli hisoblanadi. Bunday komplekslar, odatda, tabiiy geografik va iqtisodiy landshaftlar bilan muayyan sotsiogeografik muhit bilan bog'liq bo'ladi. Shu bilan birga kasalliklarning majmua shaklida vujudga kelishida biogeotsenozlarning roli ham katta. Nozogeokomplekslarni o'rganishda avvalo ularni yuzaga keltiruvchi holatning bir-biriga bevosita yoki bilvosita ta'sirini anglash lozim. Bunday sotsial geografik majmualar bir butun tizim bo'lib, uning bir qismini o'zgarishi ikkinchi qismini ham keskin o'zgartirib yuboradi. Shu bois, nozogeokomplekslarni o'rganish jarayoni katta amaliy va nazariy tadqiqotlar talab etadi. Masalan, endemik buqoq nozogeomajmuasi inson jismida suv va oziq-ovqat mahsulotlari tarkibida yod taqchilligi oqibatida yuzaga keladi. Oziq-ovqatlarni yod moddasi bilan boyitish mazkur kasallikka qarshi himoya maqsadiga qaratilgan.

Nozogeomajmualar haqida soʻz yuritar ekanmiz aytish oʻrinliki, tashqi muhit va organizm oʻrtasidagi oʻzaro aloqadorlik oddiy yoki toʻgʻridan-toʻgʻri, baʼzida esa uch va undan ortiq omillarga bogʻliq boʻladi. Bunday hududiy majmualarda koʻplab transmissiv va parazitar kasalliklarni (leyshmanioz, bezgak va b.) uchratishimiz mumkin.

Nozogeomajmualarda oʻzgarishlarni yuzaga kelishi uchun eng kam 20-30 yil vaqt kerak boʻladi. Davrlar oʻtishi bilan ayrim turdagi kasalliklar kamayib, baʼzilarining esa yangi xil shakllari yuzaga keladi. Jumladan, soʻnggi yillarda sil kasalligini oʻlimga sabab boʻluvchi turlari yoʻqolib ketmoqda. Yuqumli ichak infeksiyalari, ayniqsa amyobioz va lyamblioz singari kasallik turlari esa sezilarli tarzda ortib bormoqda.

Nozomajmualarni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. **Iqlim bilan bogʻliq nozomajmualar** - bunda ularning shakllanishiga va rivojlanishiga havo harorati va namligi, atmosfera bosimi va boshqalarning taʼsiri birlamchi boʻladi.
2. **Gidrogen nozomajmualar** - yer usti suv manbalari, jumladan, kanallar,
3. botqoqliklar, daryo yoki koʻllarning kasalliklarning vujudga kelishi va tarqalishida etakchi omil ekanligi eʼtirof etiladi (bezgak, vabo va b.).
4. **Gidrogeogen nozomajmualarga** yer osti suvlarining kasalliklar keltirib chiqaruvchi taʼsiri asosiy oʻrin tutadi, masalan, buyrak, ayirish tizimi kasalliklari, moddalar almashinuvining buzilishi tufayli yuzaga keluvchi xastaliklar.
5. **Ximogen nozomajmualar** -landshaftlarning geokimyoviy tarkibi, jumladan, baʼzi mikroelementlarning etishmovchiligi yoki ortiqchaligi bilan bogʻliq tarzda u yoki bu kasalliklarning shakllanishi (endemik buqoq, urolitioz va b.).

6. **Biogen nozomajmualar** - *tirik organizmlarning (viruslar, bakteriyalar va boshqa mikroorganizmlar; hashoratlar, kemiruvchilar va b.) kasalliklar keltirib chiqaruvchi manba ekanligi va ular tufayli shakllanuvchi kasalliklar majmuasi.*
7. **Sotsial-iqtisodiy nozomajmualar** - *asosan sanoat yoki transport tugunlarida, demografik bosim yuqori hududlarda ko'zga tashlanadi. Bunday nozomajmualarda yurak, qon-tomir, asab tizimi, xavfli o'sma kasalliklari ko'proq uchraydi.*

Tabiiy nozogeografik nozomajmualarni tuzilishiga ko'ra ikki turga ajratish o'rinli. Bular: nozotsiklik va hududiy tuzilmalar. Hududiy tuzilmalar o'z navbatida yana ikkiga bo'linadi (*zonal hamda areal ko'rinishida*).

Kasalliklarni keltirib chiqaruvchi sabab va qonuniyatlarni aniqlashda ularning nozoareallarini o'rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Kasalliklarning muayyan hududda tarqalishi ularning areallari hisoblanadi. Kasalliklar areali yoki «o'chog'i» atamasi esa, yuqorida ta'kidlaganimizdek, dastlab rus olimi E.N.Pavlovskiy ishlarida yoritib berilgan edi. Aynan ana shu areallar nozogeografik tadqiqotlarning asosiy obyekti bo'lishi lozim.

Inson kasalliklarining tarqalishini o'rganishda shuning guvohi bo'lish mumkinki, ayrim kasalliklar er sharining barcha qismlarida, ba'zilari esa muayyan chegara bo'ylab yoki aniq bir hududda tarqalgan bo'ladi. Nozogeografiyada keng qamrovli, katta hududlarni egallovchi kasalliklar evrixor kasalliklar (*grekcha «evris» keng, «xoros» qobiq, hudud*) deyiladi. Chegaralangan areallardagina tarqalgan kasalliklar mahalliy yoki «stenoxor» (*grekcha «stenos» tor, «xoros» qobiq, hudud*) kasalliklar deyiladi. Eslatish joizki, yuqumli kasalliklarning deyarli barchasi uchun lokal (mahalliy) turdagi areallar xosdir. Yuqumli bo'lmagan kasalliklarning ko'pchiligi esa evrixor kasalliklar hisoblanadi.

Nozoareallar turlarining taqsimlanishi va ularning dinamikasidagi qonuniyatlarni o'rganish aholi kasallanishining jadallashuvida u yoki bu nozoarealning tutgan o'rnini aniqlashda nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Nozoareallarni ikki asosiy turkumga, ya'ni yoppasiga yoki tarqoq nozoareallarga ajratish mumkin.

O'z navbatida, tarqoq areallar nozogeografik o'choq doirasida va to'g'ri chiziq bo'ylab tarqaluvchi turlarga bo'linadi. Ushbu areallar yoyiq areallar ham deyiladi, ya'ni bunday areallarda kasalliklar bir butun hudud miqyosida yoppasiga tarqalgan bo'ladi. Mazkur kasalliklar muayyan hududdagi tipik tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoit mahsuli hisoblanadi.

Yoyiq areallarga xos kasalliklarga ko'pgina tabiiy o'choq va yuqumli kasalliklar, shuningdek, turli xil tabiiy omillar ta'sirida inson organizmida yuzaga kelgan nozologik shakllarni kiritish mumkin. Ba'zi bir kasalliklar o'zining geografik xususiyatiga ko'ra hududlarning ayrim qismlarida to'g'ri chiziq shaklida tarqaladi. Masalan, daryo yoki ko'l sohillarida, er usti aloqa yo'llari yo'nalishida tarqalgan kasalliklar shular jumlasidandir.

Tarqoq areallar alohida chegaralangan hududlar doirasida uchraydigan inson kasalliklari uchun xos bo'lib, bunga jumladan, endemik buqoq kasalligi kiradi. Umuman, nozogeografiyada «o'choq» atamasi ko'p ishlatiladi. «O'choq» deyilganda yuqumli kasallik ro'y berishi mumkin bo'lgan yoki kasallik ro'y berib bo'lgan joylar tushiniladi va ular tabiiy geografik (alohida landshaft turlarida) yoki ijtimoiy geografik muhitda (*aholi zich joylashgan*) vujudga keladi.

L.I.Gromashevskiy fikricha, yuqumli kasallik o'chog'i deb infeksiya manbai turgan joy bilan uning atrofidagi hududning mazkur aniq vaziyatda ushbu manba tomonidan infeksiya tarqala oladigan qismi tushiniladi. Kasalliklarning bu o'choqdan tarqalishi esa ijtimoiy geografiyada shved olimi T.Xegerstrand tomonidan yaratilgan «yangiliklarning diffuzion tarqalishi» g'oyasini ham eslatadi.

Tabiiy jarayonlar infeksiya yuqishida muhim rol o'ynaydi. Chunonchi, ochiq suv havzalari oqar suvlar bilan ko'proq ifloslanadi va yilning sovuq paytida suv orqali tarqaladigan qorin tifi epidemiyasining tarqalishiga sabab bo'ladi (*Volovskaya M.L., 1977*). Qishda kishilarning ko'p vaqtni bino ichida o'tkazishi yilning shu faslida nafas yo'llari infeksiyasining yuqishiga olib kelsa, shaxsiy gigiena qoidalariga rioya qilmay turib issiq kiyimga o'ranib yurishi toshmal va qaytalama tif tarqatuvchilari-bitlarning ko'payishini chaqiradi.

Epidemik jarayonning o'tishiga tabiiy omillardan ko'ra ijtimoiy omillar ko'proq ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy omil deyilganda aholi turmushining barcha shart-sharoitlari: turar joylar, ularda yashovchi kishilarning soni (zichligi), kanalizatsiya, maishiy inshootlarning holati, aholining moddiy farovonligi, ovqatining tarkibi, sanitariya madaniyatining darajasi, migratsiya jarayonlari, aholining mehnat turi va sharoitlari, sog'liqni saqlash tizimining ahvoli va boshqalar tushiniladi.

Bundan tashqari, tibbiy geografik tadqiqotlarda hududlarning nozogeografik vaziyat nuqtai nazaridan tahlil etish ham chuqur ma'no kasb etadi. Bizning fikrimizcha, nozogeografik holat yoki vaziyat, eng avvalo, ma'lum bir joy yoki hududda aholining o'lim darajasi, jumladan bolalarning o'lim ko'rsatkichi, o'rtacha umr ko'rish va umumiy kasallanish darajasi, ayrim guruh kasalliklar o'choqlari yoki areallarining mavjudligi bilan tavsiflanadi. Nozogeografik vaziyat juda nozik hududiy tizim sifatida, turli tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'sirida o'ta o'zgaruvchan bo'ladi. Bunda ayniqsa yuqumli kasalliklarning tarqalishiga ekologik holatning ifloslanishi kabi omillar katta ta'sir ko'rsatadi (*Soliyev A., Komilova N., 2000*).

Nozogeografik vaziyat, o'z navbatida, demografik va ekologik holat bilan chambarchas bog'liq. U ushbu hudud yoki mamlakatning umumiy ijtimoiy holati, aholining yashash darajasini ham belgilab beradi. Shunuqtai nazardan

nozogeografik vaziyatni aniqlash va baholash sotsial geografik tadqiqotlarda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tibbiy geografik rayonlashtirishda dastavval nozogeografik o'chog'lar va areallar aniqlanadi. Binobarin, tibbiy geografik rayonlashtirishning asosiy toksonomik birliklari nozogeografik o'choq, nozogeografik areal va rayonlardan tarkib topadi.

Nozogeografik o'choq -u yoki bu kasallikning vujudga kelgan (vujudga keltirgan) joyidir. Tabiiy geografik nuqtai nazardan uni E.N.Pavlovskiyning yuqumli-parazitar kasalliklarning tabiiy o'choqlari xususidagi g'oyasiga mos keladi. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada esa ular ma'lum aholi manzilgohi, sanoat korxonasi va markazlari bo'lishi mumkin.

Nozogeografik areal muayyan kasallikning bevosita tarqalishi yoki shu kasallik mavjud bo'lgan hudud hisoblanib, u nozogeografik rayon asosini tashkil etadi. Epidemiologik jihatdan yondashilganda bu jarayon geografik diffuziya qonuniyatlariga o'xshab ketadi. Umuman olganda esa nozogeografik areallar faqatgina yuqumli kasalliklarga taalluqli bo'lmasdan, u barcha kasalliklarning hududiy tarkibini ham anglatadi.

Tibbiy geografik tadqiqotlar natijasida tematik kartalar majmuasini yaratsa bo'ladi. Bunday kartalar Rossiya Federatsiyasi Fanlar Akademiyasining Geografiya institutida, O'zR FA Geografiya bo'limida tuzilgan. Aholi joylashuvini uning salomatligi nuqtai nazardan rayonlashtirishda ajratilgan hududlar bir-biridan turli xil kasalliklarning tarqalish xususiyatlari bilan o'zaro farqlanadi. Shu jihatdan qaralganda, tibbiyot geografiyasining nazariy va uslubiy asosi sifatida ijtimoiy geografiyaning muhim sohasi aholi geografiyasi xizmat qiladi. Bundan tashqari, u sanoat va qishloq xo'jalik geografiyasi, tabiiy geografiyaning ko'pgina yo'nalishlari, ayniqsa landshaftshunoslik bilan ham chambarchas bog'liq. Demak,

tibbiyot geografiyasidagi ilmiy tadqiqotlar o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra to'liq ma'nodagi kompleks tadqiqotlar hisoblanadi.

Tibbiyot geografiyasini o'rganishda, boshqa geografik tadqiqotlarda bo'lganidek, majmuaviy, ya'ni kompleks yondashuv ham katta ahamiyat kasb etadi. Bunda ikki xil ma'no nazarda tutiladi: birinchidan tadqiqot obyektini kompleks, atroflicha, o'zaro aloqadorlikda o'rganish bo'lsa, ikkinchidan, tadqiqot jarayonida uni sintez qilish asosida obyektiv borliqda mavjud bo'ladigan hududiy majmualarni aniqlashdan iboratdir. Bu ayniqsa aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish sohasiga ko'proq taalluqlidir.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Tibbiyot geografiyasi fanining shakllanish bosqichlarini izohlang?
2. Korneliy Sels o'zining tibbiyot to'g'risidagi asarida qanday fikrni ilgari surgan?
3. Abu Bakr Ar-Roziyning tibbiy geografik qarashlarini izohlang?
4. Geografik patologiya nomli asar muallifi kim?
5. Nozogeografiya" tushunchasiga ta'rif bering?
6. E.N.Pavlovskiyning nozogeografiya faniga qo'shgan asosiy xizmati niada?
7. Nozogeografik majmualar yoki nozogeografik komplekslar, hamda nozogeografik areallarga ta'rif bering?
8. Evrixor hamda stenoxor kasalliklarga misollar keltiring?
9. Nozogeografik vaziyatga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni izohlang?

MAVZUGA DOIR ASOSIY TUSHUNCHALAR

Tibbiyot geografiyasi – inson salomatligi va turli kasalliklarning vujudga kelishiga ta'sir etuvchi omil va sharoitlar, ularning mamlakat hamda rayonlarda tarqalish qonuniyatlari va xususiyatlarini o'rganadigan fan. U tibbiyot va geografiya o'rtasida vujudga kelgan qirraviy soha hisoblanadi.

Nozogeografiya (yunoncha, nosos – “kasallik”, ya'ni inson kasalliklari geografiyasi) – tibbiyot geografiyasining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, u yer sharida tarqalgan kasalliklar, ularni vujudga keltiruvchi sabab va qonuniyatlarni o'rganadi.

Nozogeografik o'choq – u yoki bu kasallikning vujudga kelgan (vujudga keltirgan) joyi bo'lib, u tabiiy geografik nuqtai nazardan yuqumli-parazitar kasalliklarning tabiiy o'choqlari, iqtisodiy-ijtimoiy geografiyada esa ma'lum aholi punkti, sanoat korxonasi va markazlari bo'lishi mumkin.

Nozogeografik areal – muayyan kasallikning bevosita tarqalishi yoki shu kasallik mavjud bo'lgan hudud hisoblanib, u nozogeografik rayon asosini tshkil qiladi.

Nozogeografik majmualar – ma'lum tabiiy geografik va ijtimoiy-iqtisodiy, sotsial makonda, ularning ta'siri ostida vujudga keladigan turli xil kasalliklarning hududiy uyg'unligi va birligi.

Nozogeografik vaziyat aholi kasallanish ko'rsatkichlaridagi hududiy tafovutlar, turli xududlarning alohida kasalliklarga «ixtisoslashuvi», ularning hududiy tarkibi, nozogeografik o'choq, areal, rayon va markazlarning hududiy munosabati demakdir.

Nozoiqlimiy omillar aholi salomatligiga ta'sir etuvchi asosiy shart-sharoitlar majmuasi hisoblanadi. Ular jumlasiga havo, suv va tuproq kiradi. Tibbiyot sohasi va tibbiyot geografiyasining asoschisi Gippokrat ham inson salomatligini turli joylarning havosi va suvi bilan bog'lagan. Nozoiqlimiy omillar qishloq xo'jaligida agroiklimiy resurslarga o'xshab ketadi.

Ekologik geografik o'rin ma'lum bir hududning (viloyat, tuman, shahar va b.) o'zidan tashqarida joylashgan ekologik mazmunga ega bo'lgan hududlarga nisbatan o'rnashganligini anglatadi. Masalan, Xorazm viloyatining ekologik yoki geoekologik o'rni uning Amudaryo, Tuyamuyin suv ombori, Orol dengizi va Qizilqum cho'llariga, Surxondaryo viloyatining Uzun tumani esa, Tojikiston Respublikasining Tegar (Tursunzoda) allyuminiy zavodiga yaqinligi bilan tavsiflanadi.

Tibbiyot kartografiyasi – kasalliklarning tarqalish areallarini kartaga tushurish, hududlar bo'yicha ularning xususiyatlarini xaritada aks ettirish bilan shug'ullanadigan soha.

Kasbiy xastalik – nomaqbul sharoitda mehnat qilish va kasbiy faoliyatning zararliligi oqibatidagina yoki, asosan, shular ta'sirida paydo bo'ladigan xastalik.

Tog' kasalligi – yuqoriga ko'tarilgan sari kislorodning kamayishi, tabiiy sharoitning o'garishi bilan bog'liq kasalliklar.

Dengiz kasalligi – asosan, ilk bor dengizga chiqqan kishilarda kuzatiladigan, ko'ngil aynish va holsizlanish sifatida namoyon bo'ladigan jarayon.

15 – MAVZU

IJTIMOYIY GEOGRAFIYADA PROGNOZLASHTIRISH

Maqsad: *Ijtimoiy geografiyada prognozlashtirish hamda uning hududiy xususiyatlarini yoritib berish.*

Tayanch soʻz va iboralar: *Geografik bashoratlashtirish, bashoratlashtirish jarayoni, bashorat obyektining tabiati, bashoratlashtirish obyektining murakkabligi, aniqlik darajasi, vaqt mobaynida rivojlanish xarakteri, axborot bilan taʼminlanish darajasi, geodemografik toʻlqinlar.*



REJA:

1. Geografik prognoz haqida tushuncha
2. Geografik prognoz koʻlami, turi va usullari
3. Ijtimoiy geografiyada prognoz
4. Geodemografik toʻlqinlar va aholi sonini prognozlash



Geografik bashoratlashtirish keng maʼnoda muhitning, iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning muammolar majmuasini hal qilishda foydalaniladi, ayniksa kelajak rejasining reja oldi ishlamasini tayorlashda, sayyoramizni tabiiy muhitini inson taʼsirida global oʻzgarishlarini asoslashda, turli regionlarda geoekologik munosabatlarning keskinlashuvini oldindan koʻra bilishda va boshqa koʻpgina muammolarning kelib chiqishini bashorat qilishda keng foydalaniladi. Lekin barcha muamolarni orasida hozirgi zamon geografiyasi uchun muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega boʻlganligini ajratib olish va ular ustida bashoratlantirish ishlarini amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Eng zaruriy muamolarni ma'lum bir mezonlarga asoslangan holda amalga oshirish bilan ajratish mumkin, masalan muammoning hozirgi ijtimoiy xayot va ilmiy-texnik talablariga qanchalik zarurligi, muammoning uzoq muddatlarga kadar o'z dolzarblik ahamiyatini yo'qotmasligi, inson hayoti uchun naqadar amaliy ahamiyatga ega bo'lishligi, xalq xo'jaligining barkaror tarakiy qilishligiga ta'siri kabilardir. Bular orasida umuminsoniy ahamiyatga ega bo'lgan global muammolar birinchi o'rinda tezroq bashoratlashtirilib, tegishli bashoratli natijalariga ega bo'lish muhim ahamiyatga ega. Zero, Yer shari miqyosida yuz berishi mumkin bo'lgan nomaqul hodisalar barcha insoniyat hayoti uchun naqadar xavfli bo'lganligi tufayli ularni tez muddatlarga bashorat qilib, yuz berishi mumkin bo'lgan keskin xalokatli vaziyatini oldini oladigan chora-tadbirlarni belgilab olish va ularni amalga oshirish shu kunning dolzarb muammosidir.

Yer yuzasining turli regionlarida ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik vaziyatning borgan sari keskinlashib borayotganligi ularning ilmiy jihatdan chuqur asoslangan bashoratlarni ishlab chiqishini taqozo qilmoqda. Oldindan insonning tabiiy muhitga ko'rsatayotgan keng miqyosidagi ta'sirini ko'ra bilish va uning qanchalik foydali yoki zararli xarakterda bo'lishligini to'g'ri ajratib olish mintaqalarda optimal ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik muozanatni saqlab qolishga imkon beradi. Binobarin, regional muammolar bashoratini ishlab chiqish xuddi lokal (mahalliy) muamolarni oldindan bashorat qilish kabi inson xayoti uchun zarurdir.

Mukammal ishlab chiqilgan bashoratli ishlamlar jarayonida tadqiqotchi mantiqiy fikrlashish asosida o'sha tabiiy kopleks miqyosida kelajakda yuz berishi mumkin bo'lgan turli tabiiy geografik va iqtisodiy geografik o'zgarishlar ustida chuqur ilmiy izlanishlar olib borar ekan u hali xaqiqatga ro'y bermagan miqdoriy va sifatiiy ma'lumotlar to'playdi, ko'p omilli jarayonlarning xajmi va harakat makoni, tadrijiy o'zgarishi kabilar ustida ish olib boradi. Balki bu voqealik va hodisa hamda jarayonlar 5, 10 yoki 20 yildan so'ng yuz berishi ehtimol

qilinayotgan tabiiy kompleksdagi o'zgarishlar ustida tadqiqot qilar ekan, u nazariy bilimlarga nihoyatda boy, o'xshatish, solishtirish, sistemali tahlil, matematik ish metodlarini chuqur va har taraflama egallagan bo'lishi lozim.

Bashoratashtirishning maqsadi va obykti. Bashoratashtirish jarayoni uni maqsadi va tadqiqot obyektini aniqlash bilan boshlanadi, chunki aynan ular bashorat turi, mazmuni, tadqiqot usullari, uning vaqtli va hududiy ko'rsatkichlarini aniqlaydi. Tadqiqot obykti turlicha bo'lishi mumkin: chunonchi, tabiiy jarayon, hodisa, ekologik vaziyat, landshaftlarni o'zgarishi, atrof - muhitni ifloslanishi va b. Hozirgi vaqtda bosh eng dolzarb maqsad bu istikbolda tabiiy muhitni o'zgarishini oldindan ko'ra olish va unda insonni yashash sharoitlari aniqlash. Bunda nafaqat ayrim komponentlarning holatini bashoratashtirmay, balkim bir butun geografik muhit, uning tabiati va xo'jaligini ham o'zgarishlarini bashoratashtirish lozim. Bashorat obyektini tanlashda quyidagi belgilarga amal qilish lozim:

1. **Bashorat obyektining tabiati.** Geografik bashorat ma'lum hududga bog'liq bo'ladi.

2. **Bashoratashtirish obyektining murakkabligi.** Ko'p hollarda bashoratashtirish obykti murakkab va juda murakkab darajalarda bo'ladi, ya'ni geotizimlarni sturuktulari-dinamik holati tez o'zgaruvchanligi bilan ajralib turadi.

3. **Aniqlik darajasi:** ba'zan tasodifiy hodisalar kamrok ro'y beradi, ularni hisobga olmasa ham bo'ladi ba'zi hollarda tasodifiy hodisalar katta mavkega ega; ba'zan ikkala holat ham baravariga kuzatiladi. Umuman olganda geografik bashoratashtirishda ikki holni ham e'tiborga olish darkor.

4. **Vaqt mobaynida rivojlanish xarakteri:** uzoq obyektlarda voqealikning o'zgarishi belgilangan vaqtda bir ko'tarilib, bir pasayib o'zgaradi; tsiklii obektlarda vaqtni davrli funksiyasida o'zgarish tsikl tarzda ro'y beradi .

5. **Axborot bilan ta'minlanish darajasi:** voqealikka o'tgan davrlarda o'zgarishi to'g'risida ma'lumotlarni yetarli bo'lishi bashorat natijasini real bo'lishiga imkon beradi.

Bashoratlash tirishning asosiy operatsiya birliklari.

Bashoratlash tirishning barcha obyektlari vaqt va makonda o'zgaruvchan. Shuning uchun ham u vaqt va makonda o'zgaruvchan, ular bosh operatsiya birliklari hisoblanadi. Ko'p hollarda quyidagi vaqt birliklari amalda qo'llaniladi: sutkalik - 1 sutkagacha, operativ - 1 oy, qisqa muddatli - 1 oydan 1 yilgacha, o'rtacha muddatli - 1 yildan 5 yilgacha, uzoq muddatli - 5 yildan 15 yilgacha, juda uzoq muddatli - 15 yildan ziyod mo'ljallangan. Geografik bashoratlash tirishda ko'pincha voqealikka sodir bo'lishini aniq vaqti aniqlanmay, balki bashoratli yo'nalish oldindan asoslaniladi.

Bashoratning variantligi. Yirik xo'jalik loyihalarining atrof- muhitga ta'siri bashoratlari odatda ko'p variantli bo'lishi mumkin, ishlab chiqarishga qabul qilishda ulardan faqat 5- 6 tasi tanlab olinadi, so'ngida esa, faqat bittasi qoldiriladi. Lekin u ham amalga oshirish jarayonida koorrektirovka qilib boriladi.

Bashoratni ishonchligi, prognostik xatolik kamroq bo'lgan variant tanlanadi, tabiiy muhitni saqlashini taminlaydigan, texnogen ta'sir bilan me'yorda nisbatda bo'ladigan bashorat maqsadga muvofiq. Tanlanadigan variantning iqtisodiy samaradorligi yuqori bo'lishi kerak.

Bashoratlarni tasniflashi. Passiv va faol, bashoratlarga bo'lish ko'proq qo'llaniladi. Bashorat ob'ektiga ta'sir etmaydigan, lekin uning asosida qaror qabul qilinishi passiv bashorat bo'ladi, ob- havo, quyoshdagi o'zgarishi va b. Bashorat ob'ektiga ta'sir etuvchi va buni natijasida bashorat ko'rsatkichlariga nisbatan ularni o'zgarishiga olib keluvchi tadbirlar majmuasi faol bashorat bo'la oladi.

Bashorat ma'lumotlaridan foydalanishi yoki belgilanishiga qarab ikkiga bo'linadi. Maxsus xizmat tashkilotlarining muntazam bashoratlari ma'lum

foydalanuvchilar uchun mo'ljallanmagan, sutkalik ob- havo, va maxsus foydalangiladigan bashoratlar aviatsiya uchun tumanni kalinligi, balandligi, bo'lutlarning turi, kalinligi to'g'risidagi ma'lumotlar juda ham zarur. bashoratlarnilarni hududiy miqiyosiga qarab nuqtali. intervalli bir necha imkoniy vaziyatlarni sodir bo'lishi bashoratlarga bo'linadi.

Bashoratashtirishning bosqichlari. Bashoratashtirish jarayoni ikki qismdan iborat dastlabki va asosiy. Har bir bosqichni vazifasi mavjud, ular ma'lum natija bilan tugaydi.

Dastlabki bosqichda bashorat uchun vazifa tayinlanadi, tadqiqot beriladi. Bashorat tartibi, tashkiliy ishlar, axborotlar manbai va boshqalar beriladi.

Asosiy bosqichning retrospektiv kichik bosqichida obe'ktning rivojlanishi tarixi o'sha vaqtlarda obe'ktning belgileri va parametrlar, struktura birliklari tadqiq qilinadi. Uchinchi kichik bosqichda bashoratni maqsadi va tadqiqot usullari aniqlanadi, ishchi dasturi tuziladi. To'rtinchi kichik bosqichda variantlar tanlanadi, bittasi qoldiriladi, u asosida bashorat tayyorlanadi.

Bashoratashtirishning xatoliklari. Xatoliklar muntazam va nomuntazam bo'ladi. Muntazam xatoliklarga noto'g'ri ma'lumotlarni ishlatilishi sabab bo'ladi. Muntazam bo'lmagan xatoliklarga noto'g'ri ma'lumotlarni ishlatilishi sabab bo'ladi. Muntazam bo'lmagan xatoliklarga portlashlar keskin tushishlar, tasodifiy hodisalar sabab bo'ladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish va prognozlash vazifalarning turli tumanligi prognozni qurish metodlari va har xil sistemalarini qo'llanilishini talab qiladi. Har bir prognoz kerakli informatsiyaning olinishi, ishonchliligi, asoslanganligi, baholanganligi, qayta ishlanishi natijasida paydo bo'ladi. Prognoz ishlab chiqarish uchun qanday ma'lumotlarni olishni informatsiya tashuvchining tanloviga, uni olish usullariga, tahlil qilinayotgan obyekt rivojlanishini baholovchi mahsus hisob kitoblarga bog'liq. Amaliyotda

prognozlarni ishlab chiqarishni 130 xil metodlari mavjud. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni prognozlashda shartli ravishda metodlarini 3 xil muhim guruhlarga bo'lish mumkin:

1. **Ekstrapolyatsiya metodi.**
2. **Prognozlashning ekspert baholash metodi.**
3. **Modellashtirish metodi.**

Ekstrapolyatsiya metodining mohiyati shundaki, tahlil qilinayotgan obyektning o'tgan zamonda alohida parametrlarini analiz qilishda hamda o'zgarishlarni keltirib chiqaradigan omillarni tadqiq qilishda jarayonlarni kelajakda shakllantirish yo'llari va rivojlantirish qonuniyatlari haqida xulosa qilish mumkin. Bu metodda prognozlashda 2 turdagi vazifalarni ajratish maqsadga muvofiqdir: a) dinamik va b) statik analiz vazifalari.

Dinamik vazifada bosh va yagona rivojlanish omili bo'lib vaqt omili hisoblanadi. Bunda prognoz qilinayotgan parametr vaqt davomidagi o'zgarishlarni ko'rsatuvchi vaqt qatorlarini ko'rsatuvchi vaqt qatorlarini analiz qilish asosida tuziladi. Masalan, mehnat resurslarining quvvati, oqimi, potentsialining vaqt davomidagi o'zgarishlari analiz qilinadi.

Prognozlashning dinamik vazifasi prognozlash jarayonini rivojlanishi evolyutsion jarayonlarni bo'lishini, asosiy parametrlarni bir tomonlama o'zgarishini talqin qiladi. Bu holatda obyekt parametrlarini o'zgarishini prognozlashda kelajakda uning rivojlanishi retrospektiv amaliyot bilan quriladi.

Prognozlashda ko'proq quyidagi turdagi funksiyalardan foydalaniladi:


$$\check{y}_t = b_0 + b_1 t$$

\check{y}_t - prognozlantirilayotgan parametr; t - prognoz qilinayotgan davrdagi yil; b_0 va b_1 - approksimatsiyalashtiriladigan funksiyaning hisobli koeffitsiyenti. Prognozlashda ko'pincha chiziqli, eksponentsial, darajali, logorifmik va boshqa funksiyalar qo'llaniladi.

Prognoz qilinayotgan obyekt (parametr) rivojlanishini analitik qo'llanganda vaqt omili mustaqil o'zgaruvchan sifatida ko'rilsa, parametrlarning qiymati esa bu o'zgaruvchanning funksiyasi sifatida qaraladi. Ammo mehnat resurslarining holati va prognoz qilinayotgan parametrlardagi o'zgarishlarga qanday omillar, yo'nalishlarga va rivojlanishga nimalar ta'sir qilganligiga bog'liq. Parametrning vaqtdagi o'zgarishi ko'pgina omillarning faoliyati natijasi sifatida ko'riladi.

Spuning uchun ham prognoz jarayonida prognozlashtirilayotgan parametrlar uning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarga bog'liligini tadqiq qilish zarur. Omillar bo'yicha parametrlarni statistik prognozlashtirish ekstropolyatsiya deyiladi. U korrelyatsion va regression analiz usullari asosida amalga oshiriladi.

Tendensiya ekstropolyatsiyasi prognozlashtirilayotgan obyektlarning o'tgan va kelajakda shartlarning, funksiyalarning va ta'sir qilish prinsiplarini bir biriga o'xshashligini ko'rish mumkin. Jadal o'zgaruvchan jarayonlarda prognoz qilish



52-rasm. Egiluvchan egri chiziqlar oilasi asosida qurilishi

uchun o'zgaruvchan ekstapolyatsiyaning egiluvchan egri chiziq metodi qo'llaniladi. Bu metodning mazmuni shundaki, unda bita funktsional yo'nalishda obyektning turli avlodi uchun xarakterli bo'lib, berilgan ma'lumotlar bo'yicha prognozlashtirilayotgan

parametr o'zgarishlarini umumiy tendensiyasini aks ettiradi.

Egiluvchan egri chiziq bo'yicha prognozlashda u yoki bu davrga ekstropolyatsiya nuqtalari yoki parametrning interval qiymati keltiriladi (52-rasm).

Tendensiya - ekstropolyatsiyasi prognozlashni miqdoriy metodlariga kiradi. Sifat ko'rsatgichlarini prognozlashda, shuningdek statistik modellashtirib

bo'lmaydigan obyektlarni prognozlashning ekspert baholash metodidan foydalaniladi. Ekspert metodining mohiyati shundaki, malakali mutahassislarning beradigan bahosi asosida mehnat resurslarining shakllanishi yoki rivojlanishi, ustuvor yo'nalishlari haqida hulosasi qilinadi. Ekspertlar bilan ishning shakliga qarab ekspertizaning individual va kollektiv metodlari farqlanadi.

Ekspertizaning individual metodi xar bir ekspert bilan personal ish olib boradi va boshqa fikrlar bilan maslahatlashib ekspert hulosasi beriladi.

Ijtimoiy geografiyada prognoz Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada prognozlashda asosan ijtimoiy-iqtisodiy muhitning rivojlanishi va o'zgarishi haqida ma'lumotlar olish va to'plash jarayoni tushiniladi.

Professor A. Soliyev fikricha har qanday bilim singari iqtisodiy geografik bilim ham *uch asosiy ismdan* tashkil topgan. Bu ham bo'lsa tahlil (analiz), tashxis (diagnoz) va bashorat (prognoz)dir. Afsuski, hozirgi iqtisodiy geografiya ko'proq fakt va raqamlarni yodlab olish, miqdoriy ko'rsatkichlar yoki nomenklatur masalalar to'g'risida ma'lumot beradi, xolos, hodisa va voqeliklar o'rtasidagi sabab-oqibat aloqadorligi, qonuniy bog'lanishlar esa e'tibordan chetda qoladi.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada asosiy prognozlar aholi bo'g'langan holda amalga oshiriladi. Chunki, aholi jamiyatining *asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi hamda iste'molchisi hisoblanadi*. Shuni hisobga olgan holda, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rejalashtirish maqsadida aholining keyingi o'sish dinamikasini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Aholining o'sish dinamikasi bilan ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishi, ularni hududlar va yosh bo'yicha joylanishini aniqlash, shu ishchi kuchlariga yarasha ish joylarini hozirlash, texnika, texnologiyalarini sotib olish bilan birga iste'molchi sifatida uy-joy va madaniy-maishiy obyektlar qurilishi, oziq-ovqat va boshqa kundalik ehtiyojlari ishlab chiqarish hajmlarini rejalashtirishda aholining aniq soni asos bo'lib xizmat qiladi.

Aholining ko'pgina demografik xususiyatlarini e'tibordan chetda qoldirmagan holatda, aniqroq bashorat ko'rsatkichiga ega bo'lishda demografik jarayonlar (nikoh, ajralish, nikohda turish muddati, tug'ilish va o'lim darajasi, migratsiya –keldi va ketdi hamda tezligi) va hududda kechayotgan tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik hamda siyosiy vaziyat va boshqalarni e'tiborga olish maqsadga muvofiqdir. *Shularni inobatga olgan holda, aholi sonini prognoz qilish quyidagi formula bilan ifodalanadi:*

$$S_{\varphi} = S_0 \left(1 + \frac{Tk}{1000}\right)^{\eta}$$

Bu yerda, S_{φ} = aholining istiqbol (bashorat qilinayotgan) yildagi soni;

S_0 = aholining boshlang'ich, ya'ni hisob boshlangan davrdagi soni;

T_{\uparrow} = tabiiy o'sish koeffitsiyenti;

η = prognoz muddati.

Masala. Tojikiston aholisi 2017-yil 1-yanvar bo'yicha, 8.7 mln kishiga yetdi. Aholining bashorat qilinayotgan yildagi (davrda) tabiiy o'sish koeffitsiyenti (2016-yil yakunlari bo'yicha) 25 promilleni tashkil etsa, mamlakat aholi soni 2030-yil qancha kishiga yetishi mumkin?

Yechish. Aholi sonini oldindan bashorat qilish 75-80 % aniq javobga yaqin bo'ladi. Lekin hamma vaqt ham, aynan, to'g'ri kelmaydi. Shunday bo'lsa-da, kelajak holatini baholash uchun quyidagidek hisob-kitoblar amalga oshiriladi:

- joriy davrdagi aholi soni (S_0) – 8,7 mln kishi;
- tabiiy o'sish koeffitsiyenti (T_{\uparrow}) – 25 ‰;
- prognoz muddati (η) – 13 yil;

hisob-kitob bajariladi:

$$S_{\varphi} = S_0 \left(1 + \frac{Tk}{1000}\right)^{\eta} = 8\,700\,000 \left(1 + \frac{25}{1000}\right)^{13} = 12\,006\,000 \text{ kishi}$$

✦ hisoblashlar arifmetik ketma-ketlik asosida amalga oshiriladi:

$$1) 25 : 1\ 000 = 0,025$$

$$3) 1,025^{13} \approx 1,38$$

$$2) 0,025 + 1 = 1,025$$

$$4) 8\ 700\ 000 \cdot 1,38 = 12\ 006\ 000$$

Javob: 2030-yilda Tojikiston aholisi 12 mln 6 ming kishiga yetishi mumkin.

Geodemografik to'liqlar va aholi sonini prognozlash. Demografik vaziyat, axolining takror barpo etilishi va uning migratsiyasi ayni vaqtda turli mintaq va mamlakatlarda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Jumladan, aholining tabiiy harakati, ya'ni uning tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlari makon va zamon miqyosida o'zgarib turadi va ushbu murakkab jarayon qator omillar ta'sirida sodir bo'ladi. Iqtisodiyot va demografik vaziyatning o'zgarib turishi revolyutsion va evolyutsion tarzda amalga oshib boradi. Chunonchi, ishlab chiqarishda yangi texnologiyalarning joriy etilishi (*masalan, bug' mashinasining ixtiro etilishi, qora metallurgiyada yoqilgi sifatida kokslanuvchi ko'mirdan foydalanish, transport va elektr energetika tizimida muhim innovatsion yangiliklar va h.k.*) iqtisodiyotda chinakam revolyutsion o'zgarishlarga olib keladi. Demografik jarayonlarda ham shunga o'xshash inqilobiy tub o'zgarishlar, demografik revolyutsiya yoki demografik portlashlar yuz bergan va bunday hodisalar asosan o'tgan asrning 60-70 yillarida Afrika va Osiyo mamlakatlarida sodir bo'lgan.

Ikki revolyutsion o'zgarish oraliq'ida rivojlanish evolyutsion tarzda amalga oshib boradi va bir necha o'n yilliklarni o'z ichiga oladigan bu davrni, odatda, "o'tish davri", deb atashadi. Evolyutsion o'zgarishlarning revolyutsion vaziyatga olib kelishi va undan so'ng yana evolyutsion tarzda rivojlanishi dialektikaning, miqdor o'zgarishlarning sifat o'zgarishlarga o'tish qonuni asosida ro'y beradi.

Shunday qilib, oraliq yoki o'tish davridagi rivojlanish xususiyatlari o'ziga xos to'liqlarni eslatadi. Bunday to'liqlar iqtisodiyot va demografiya fanlarida vaqt (zamon) nuqtai nazaridan o'rganilgan. Masalan, rus iqtisodchisi

N.D.Kondratyev XX asrning 30-yillarida iqtisodiy rivojlanishga oid o'zining "uzun to'lqinlar" g'oyasini yaratgan. Taniqli rus demografi B.S.Urlanis esa Ikkinchi jahon urushi ta'sirida aholining tabiiy harakatidagi uzoq yillar davomida kuzatiladigan, asta-sekin so'nib boruvchi demografik to'lqinlar to'g'risida fikr bildirgan. Ushbu g'oyaga binoan, urush davridagi demografik vaziyat, ya'ni tug'ilish ko'rsatkichlarining keskin kamayib ketishi vaqti-vaqti bilan, o'sha davrda paydo bo'lgan avlod va ularning farzandlari oila qurish va bola ko'rish yoshiga yetganlarida ma'lum darajada takrorlanib turadi va bu holat borgan sari susayib boradi.

Ko'rinib turibdiki, bunday "to'lqinlar" asosan tarix nuqtai nazaridan, boshqacha qilib aytganda, vaqt davomida tadqiq va talqin qilingan. Vaholanki, ularning geografik (hududiy) jihatlari ham yo'q emas, zero har qanday hodisa, voqelik muayyan zamon va makonda sodir bo'ladi. Binobarin, shu o'rinda *geografik to'lqinlar* to'g'risida ham so'z yuritish mumkin. Bunday o'zgarishlarning hududlar miqyosida kengayib borishi shved olimi T. Xegerstrand tomonidan yaratilgan "yangiliklarning diffuzion tarqalishi" g'oyasiga ham o'xshab ketadi. Ta'kidlash joizki, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik rivojlanishda o'tish davrlari, eng avvalo, shu sohalarning ichki rivojlanish qonuniyatlari bilan bog'liq holda, ba'zan keskin "to'ntarishsiz", birdaniga emas, balki bosqichma-bosqich sodir bo'ladi va yangi vaziyatga o'tish birmuncha sillik kechadi. Chunonchi, sanoat rivojlanishi bosqichini ortda qoldirgan (*postindustrial*) davlatlarda urbanizatsiya jarayoni huddi shunday tarzda yangi, sifat jihatdan boshqacha holatga o'tadi. Iqtisodiyotda hozirgi bozor munosabatlarga o'tish va shunga mos ravishda demografik o'tish davri ham asta-sekinlik bilan amalga oshadi.

Iqtisodiy va demografik rivojlanish o'ziga xos tsikllar yoki alohida bosqichlar ko'rinishida kechadi. Ammo bu sohalarda o'tish davrlari aynan bir vaqtda boshlanib, bir vaqtning o'zida tugamaydi; demografik o'tish davri

birmuncha kechroq boshlanib, nisbatan uzoqroq muddatda davom etadi. Bu davr aholi takror barpo bo'lish shakllarining (*keng, oddiy va tor*) o'zgarishi bilan belgilanadi.

Demografik rivojlanishda quyidagi bosqichlarni ajratishimiz mumkin:

I bosqich. Bunda tug'ilish ham, o'lim ko'rsatkichlari ham yuqori bo'ladi, aholining katta aylanma harakati kichik hajmdagi tabiiy ko'payish bilan tavsiflanadi va uning o'rtacha umr ko'rishi ancha qisqa davrni o'z ichiga oladi;

II bosqichda tug'ilishga nisbatan o'lim ko'rsatkichlari tezroq qisqarib boradi, tabiiy ko'payish ko'tariladi;

III bosqich tug'ilishning ayrim mamlakatlar va, eng avvalo, yirik sanoatlashgan markazlarda tushib borishi, o'lim ko'rsatkichlarining ham qisqarishi bilan ajralib turadi ammo o'lim tug'ilishga qaraganda sekinroq pasayib boradi);

IV bosqichda tug'ilish mamlakatning boshqa shaharlarida ham kamayib boradi, shahar va qishloq joylar o'rtasidagi bu boradagi tafovut qisqaradi, o'lim ancha past ko'rsatkichlarga ega bo'ladi;

V bosqich. Tug'ilishning past darajasi mamlakatning barcha hududlarida kuzatiladi, umumiy o'lim koeffitsiyenti esa nisbatan past ko'rsatkichlarda (5-6 %) barqarorlashadi, tabiiy ko'payish ancha kisqaradi;

VI bosqichda tug'ilish darajasida jiddiy o'zgarishlar yuz bermaydi, u past holatda saqlanadi, biroq, aholi demografik tarkibining "qarib" borishi sababli, umumiy o'lim ko'rsatkichi tug'ilishdan ustun bo'lib, demografik vaziyatda depopulyatsiya, ya'ni aholining mutloq kamayib borishi yuzaga keladi.

Yuqoridagi demografik rivojlanish bosqichlari dunyoning barcha mamlakatlarida bir vaqtning o'zida emas, ya'ni asinxron ko'rinishda sodir bo'ladi va bu bosqichlarni hamma davlatlar albatta bosib o'tishlari shart emas. Ayni paytda, hatto bir mamlakat doirasida turli xil bosqichlarning mavjudligi, demografik vaziyatning "aralash" xususiyatga ega bo'lishi ham kuzatiladi.

Qolaversa, ayrim davlatlar o'zlarining maxsus demografik siyosatida ushbu vaziyatning keskinlashuvini oldini olish chora- tadbirlarini amalga oshiradi. SHu bois, demografik rivojlanishning VI bosqichi barcha mamlakatlarda (jumladan, O'zbekistonda ham) bo'lmasligi mumkin. Bu bosqichga o'tgan mamlakatlarda esa mavjud demografik vaziyatni yaxshilash siyosati olib borilmoqda.

Demografik vaziyatning vaqt davomida bunday o'zgarishi aholining takror barpo bo'lish samaradorligida ham o'z aksini topadi. Ushbu ko'rsatkich aholi tabiiy harakati aylanmasining, ya'ni tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlari yig'indisining tabiiy ko'payishga nisbati bilan aniqlanadi (indeks 0,00-1,00 doirasida o'zgarib turadi). Bunda tabiiy ko'payishning aynan bir xildagi miqdori turli darajadagi tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlari natijasida yuzaga kelishi mumkin. Masalan, tug'ilish, har ming kishiga hisoblanganda, 5 %, o'lim 35 % va ushbu ko'rsatkichlar, yuqoridagilarga mos ravishda, 15 va 5 promilleni tashkil etganda ham bir xil natijaga, ya'ni tabiiy ko'payishning 10 % - ni hosil qiladi. Albatta, aholi tabiiy harakatining ikkinchi shakli iqtisodiy va aholi salomatligi nuqtai nazaridan maqbul hisoblanadi. Chunki, birinchi holatda aholining takror barpo bo'lish samaradorlik koeffitsiyenti 0,12 ga, ikkinchisida esa 0,50 ga teng bo'ladi.

Demografik jarayonlarning hududlar miqyosida o'zgarib borishi o'ziga xos geodemografik to'lqinlarni hosil qiladi. Masalan, tug'ilish ko'rsatkichlarining yaqin o'tmishdagi pasayish jarayoni G'arbiy va Markaziy Yevropada boshlanib, dunyoning barcha qismlariga tarqalgan, avval Janubiy va SHarqiy Yevropada, so'ngra u Amerika, Osiyo va Afrika mamlakatlarida davom etgan. Ushbu geodemografik yangilikning geografik tarqalish "tezligi" murakkab omillar ta'sirida turlicha bo'lgan.


O'tgan asrning o'rtalarida Osiyo va Afrika mamlakatlarida tug'ilish 40-45 %, o'lim esa 22-24 % atrofida bo'lgan. Tahminan shu davrda Yevropada mazkur ko'rsatkichlar 18-20 va 9-10 promilleni tashkil etgan. Alohida davlatlar darajasida

qaraydigan bo'lsak, 1960-yillarda Myanmada (Birmada) tug'ilish 45,4, o'lim 18,6 va tabiiy ko'payish 26,8 ‰, Hindistonda, yuqoridagilar, mos holda, 41,7; 22,0 va 9,7 ‰, Xitoyda - 38,0; 12,8 va 25,2 ‰, Fransiyada esa 18,0; 11,2 va 6,8 ‰ ga teng bo'lgan. O'zbekistonda tug'ilish har ming aholiga nisbatan 1895 yilda 46,9, 1900-1910 yillarda o'rtacha 45,1, 1920 yilda 44,8, 1940 yilda 30,6, 1960 yilda 33,5 kishini tashkil qilgan.

Tug'ilish ko'rsatkichlarining Yevrosiyoda geodemografik to'lqinlar shaklida tarqalishi, yuqorida ta'kidlaganimizdek, G'arbiy va Markaziy Yevropada boshlanib, janubiy va sharqiy yo'nalishda davom etgan. Hozirgi vaqtda ushbu ko'rsatkichning eng past darajasi Boltiqbo'yi mamlakatlari, Belarus va Rossiyada kuzatilmoqda. Mazkur davlatlarda depopulyatsiya jarayoni katta ko'rsatkichlarga ega.

Qayd etish lozimki, tug'ilish koeffitsiyentining pastligi va o'limning unga nisbatan yuqoriligi tufayli vujudga kelgan aholi tabiiy harakatining salbiy tus olishi so'nggi yillarda Rossiyadan asta-sekin Qozog'iston Respublikasiga tarqalish alomatlari kuzatilmoqda.

Demografik vaziyatning Qozog'istonda bunday geografik o'zgarib borishi



53-rasm. O'zbekiston aholisining 2100-yilgacha o'sish dinamik prognozi

uning shimoliy, g'arbiy, markaziy va sharqiy qismlarida ko'zga tashlanadi. Binobarin, hozirgi kunda mazkur mamlakatning demografik rivojlanishi, asosan, bizga

qo'shni bo'lgan uning janubiy mintaqasi, xususan Janubiy Qozog'iston viloyatiga ko'proq bog'liq bo'lmoqda. Mamlakatning shimoliy va g'arbiy qismlarida regressiv aholi ko'payishi kuzatilmoqda.

Markaziy Osiyodagi eng aholisi ko'p O'zbekistonda aholi XXI asrning o'rtalarigacha muttasil o'sib boradi. Sekin-asta globallashuvning ta'siri o'laroq, aholi o'sish darajasi biroz pasayishi kuzatiladi. Aholi ko'payishining ilmiy prognoziga ko'ra, O'zbekiston aholisi 2070-yildan boshlab kamayishni boshlaydi (53-rasm), ya'ni oilada farzandlar soni 1-2 tani tashkil etadi, xolos. Bu esa o'ziga xos noxush demografik vaziyatlarni keltirib chiqaradi.

O'zbekistonda kuzatilayotgan tug'ilish koeffitsiyentining qisqarib borishi markazda boshlanib, janubi-g'arb va sharq yo'nalishida tarqalib bormoqda. Albatta, respublikamizda ro'y berayotgan bunday geodemografik to'lqin aniq va uzluksiz "izodema" ko'rinishida emas. Aholi tug'ilish koeffitsiyentining qisqarish jarayoni Toshkent shahri va Toshkent viloyatidan boshlanib, janubiy hududlarda, ya'ni Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida "tugaydi" yoki to'xtaydi. Bu borada Xorazm, Jizzax, Buxoro, Namangan va Andijon viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi o'rtacha mavqelarga yaqin turadi.

Shuningdek, tug'ilishning noan'anaviy holatda ancha past ko'rsatkichlari sanoatlashgan shahar va shaharchalarda va Samarqand va Buxoroi Sharifda ham o'ziga xos "pasayish markazlari" sifatida qayd etilmoqda.

Shunday qilib, demografik jarayonlar vaqt va hudud, zamon va makon darajasida to'lqinsimon, bosqichma-bosqich o'zgarib boradi. Bunday hodisalarni aholi geografiyasi va geodemografiya nuqtai nazaridan o'rganish aholi tabiiy harakati va o'sishini bashoratlash imkonini beradi.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Geografik prognoz haqida tushuncha bering.
2. Geografik prognoz ko'lami, turi va usullarini izohlang.
3. Ijtimoiy geografiyada prognozlar haqida tushuncha, ularning tasnifini izohlang.
4. Geodemografik to'lqinlar va aholi sonini prognozlashni tushuntiring.

MAVZUGA DOIR ASOSIY TUSHUNCHALAR

Prognoz – prognoz yunoncha soʻzidan olingan boʻlib, oldindan koʻra bilish, bashorat etish maʼnolarini anglatib, kelajakni ilmiy usullar orqali istiqbollash tushuniladi. Bu istiqboldagi voqea, hodisalarning ilmiy modeli hisoblanadi, yaʼni kelajakda obyektning ehtimoliy holati haqida yoki bu holatga erishishning muddatlari va alternativ yoʻllari haqida ilmiy asoslangan fikrlar, mulohazalar. Geyoteza bilan taqqoslaganda u aniqligi yuqori boʻlgan, nafaqat miqdor balki, sifat tavsiflariga ega.

Prognozlash – prognozni ishlab chiqish, yaʼni maʼlum bir jarayonning rivojlanish aniq kelajagini maxsus ilmiy tadqiq etishdir. Prognozlashtirish prognozni ishlab chiqish jarayoni. Prognozning axborot bazasi boʻlib hisobotlar (aholining tabiiy va mexanik harakatlarining joriy hisoboti) va maxsus tashkil etilgan statistik kuzatuvlar (aholini roʻyxatdan oʻtkazishlar, maxsus tanlama ijtimoiy-demografik tadqiqotlar, aholining turli roʻyxat va kartotekalari) hisoblanadi.

Gipoteza – bu sodir boʻlishi mumkin boʻlgan yoki sodir boʻlmaydigan u yoki bu holatni rivojlanishi haqidagi farazlar. Gipoteza darajasida qoida boʻyicha tadqiq etilayotgan obyektning rivojlanishi haqidagi miqdor tavsiflari, umumiy qonuniyatlari beriladi.

Reja – tadqiq etilayotgan holatni, obyektning aniq qism voqelikni koʻra bilish va oldiga qoʻygan maqsadni aniq qoʻyishni nazarda tutadi. Prognoz va reja oʻrtasidagi farqlari:

- 1) reja direktiv xarakterga ega boʻlsa, prognoz – esa tavsiya etuvchi;
- 2) rejani ishlab chiqishda doim prognoz ishlabchiqilishini talab etadi.

3) prognoz ko'p variantli, reja esa unday emas. Prognoz va reja ishlab chiqilgandan keyin bir qator aniq chora-tadbirlar, davriboshlanadi. Ko'pincha bu jarayon dasturni ishlab chiqish shaklida amalga oshiriladi.

Dastur – bu maqsadlari va vazifalari aniq shakllangan, bajarilish muddati bo'yicha, moliyalashtirish manbalari va aniq bajaruvchilar kelishilgan xujjat hisoblanadi.

Prognostika – bu prognoz ishlab chiqish qonuniyatlari haqidagi ilm. U istalgan tabiat obyektni rivojlanishini prognozlash metodlarini qurish tamoyillarini o'rganadi. Uning predmetiga prognoz tuzish tamoyillari va prognozlash metodlarini qurishni ishlab chiqish bilan bog'liq bo'lgan barcha savollar kiradi.

Anketalashtirish (intervyu olish, so'rovnomalar) – prognoz tavsifidagi subyektiv baholashlarni tartibga solish, obyektlashtirish maqsadida aholi, ekspertlar orasida so'rovnoma o'tkazish. Ayniqsa ekspert baholashlari katta ahamiyat kasb etadi. Prognozlash amaliyotida aholi o'rtasidagi so'rovnomalar o'tkazish hozirgi kunda nisbatan kam amalga oshiriladi.

Ekstrapolyatsiya va interpolyatsiya qilish (jarayonning ikkita ma'lum bo'lgan muddatlari o'rtasidagi oraliq qiymatni aniqlash) – kelajakda prognozni oldini olish (prognoz ishlanmalarining retrospektiya va prospektiyasi) va prognozning avvalgi muddatlarini asoslash davomiyligida bashorat qilinayotgan hodisani ko'rsatkichlarini rivojlanishining dinamik qatorlarini shakllantirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар Стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли Фармони. 2017 йил 7 февраль.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2909-сонли Қарори. 2017 йил 20 апрель.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 16 октябрдаги “2017-2021 йилларда қишлоқ жойларда янгиланган наъмунавий лойиҳалар бўйича арзон уй-жойлар қуриш дастури тўғрисида”ги Қарори. <http://www.uzavtoyul.uz/uz/post/2017-2021-yillarda-qishloq-joylarda-yangilangan-namunaviy-loyihalar-bo-yicha-arzon-uy-joylar-qurish-dasturi-to-g-risida.html>
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда амалга оширилаётган кенг камровли ислохотларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-3775-сонли Қарори. 2018 йил 5 июнь.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Обод қишлоқ” дастурини 2018 йилда амалга ошириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 62 (7020) сонли Қарори. // Халқ сўзи газетаси, 2018 йил 30 март.
6. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2009 йил 13 мартдаги “Ўзбекистон Республикаси аҳоли пунктларининг маъмурий-худудий тузилишини такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 68-сонли Қарори. <http://lex.uz/docs/1486944>
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Профessional таълим тизимини янада такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-5812-сонли Фармони 2019 йил 06 сентябрь.
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий ўқув юртидан кейинги таълим тизимини янада такомиллаштириш тўғрисида”ги ПФ-4958-сонли Фармони. 2017 йил 16 февраль.
9. “Урбанизация жараёнларини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони <http://www.uza.uz/oz/documents/urbanizatsiya-zharayenlarini-tubdan-takomillashtirish-chora-a-11-01-2019>
10. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2019 йил 5 январдаги “Ўзбекистон Республикасида туризмни жадал ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-5611-сон Фармони.

<http://uza.uz/oz/documents/turizm-tarmo-ini-zhadal-rivozhlantirishga-oid-chora-tadbirlar-05-01-2019>

11. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2017 йил 16 августдаги “2018-2019 йилларда туризм соҳасини ривожлантириш бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарори.
<http://googleweblight.com/i?u=http://www.mf.uz/uz/novosti-uzbekistana/2018-2019-yillarda-turizm-sohasini-rivojlantirish-bo-yicha-birinchi-navbatdagi-chora-tadbirlar-to-grisida.html&hl=uz-Uz&grqid>

12. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2017 йил 22 декабрь.
<http://uza.uz/oz/documents/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyevning-oliy-22-12-2017>

13. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2018 йил 28 декабрь.
<https://www.xabar.uz/siyosat/prezident-shavkat-mirziyoyevning-oliy-majlisga-murojaatnomasi>

14. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил яқунлари ва 2017 йил истиқболларига бағишланган мажлисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг нутқи. // Халқ сўзи газетаси. 2017 йил 16 январь, №11.

15. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2016. - 56 б.

16. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Т.: Ўзбекистон, 2017. - 48 б

17. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – Б. 488.

18. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони. <http://www.lex.uz>

19. Rachel Pain. Introducing Social Geographies. Routledge. UK/ 2001. Online-ISBN: 10/0340720069 publish-ISBN: 13/978-0340720066.

20. Susan Smith, Rachel Pain, Sallie Marston, Jon Paul Jones. The Sage Handbook of Social geographies. – London, 2010. – P. 614.

21. Schiller A., Brssington G. Operational Oceanography and determenism in the 21st Century. “Springer Science”, 2011. DOI: 10.1007/978-94-007-0332-2-25.

22. Bo'riyeva M.R., Tojiyeva Z.N., Aholi geografiyasi. O'quv qo'llanma. –Т.: Universitet, 2000. – В. 147.
23. Агацци Э. Моральное измерение науки и техники. – М., 1998.
24. Алексеев А.И. География сельской местности. – М., 1989.
25. Алексейчева, Е.Ю. Экономическая география и регионалистика: Учебник для бакалавров / Е.Ю.Алексейчева, Д.А.Еделев. – М., 2016. – Стр. 376.
26. Али Ҳасанов. Геосиёсат. – Тошкент: Tamaddun, 2016. – Б. 538.
27. Антонов А.Н. Преемственность и возникновение нового знания в науке. – М., Изд-во МГУ. 1985. – Стр 171.
28. Бернар Дж. Наука в истории общества. – М., 1956. – Б. 18.
29. Борисов В.А. Демография. Учебник для вузов. – М., 1999.
30. Бутлеров А.М. Сочинения. – М., 1953. Том I. – Стр 640.
31. Вавилова, Е.В. Экономическая география и регионалистика: Учебное пособие / Е.В. Вавилова. - М.: КноРус, 2012. – Стр. 224.
32. Вернадский В.И. Проблема биохимии. – М., 1988. – Б. 252.
33. Вяльцев А.Н. Открытие элементарных частиц. М.: 1984. -С 272
34. Гейзенберг В. Физика и философия. Часть и целое. -М.: 1989.-С.85
35. Гладких В.И. Преступность крупного города: общая характеристика, тенденции развития. - М.: Глобус, 1995.
36. Голубчик М.М. и др. История географии [Учебное пособие]. – Смоленск,1998.
37. Социально-экономическая география: понятия и термины. Словарь-справочник [Гл.ред.: Горкин А.]. – Смоленск: Ойкумена, 2013. - Стр. 328.
38. Жабборов И. Жаҳон халқлари этнографияси. –Т.: Ўқитувчи, 1984. – Б. 280.
39. Жумаханов Ш.З., Тошпўлатов А.М. Инсон хулқ-атворининг худудий хусусиятларига табиий шароитнинг таъсири: географик детерминизм, поссибилизм ва энвайронментализм// Ўзбекистон Республикаси География Жамияти X съезди материаллари.-Тошкент: 2019. –Б.54-61. . www.uzgeo.uz
40. Xaydarov F., Xalilova N. Umumiy psixologiya [Darslik]. –Т.:TDPU, 2010. – В. 247.
41. Komilova N.Q., Jumaxanov Sh.Z., Mirzaaxmedov X.S., Toshpo'latov A.M. Sotsial va madaniy geografiya [Darslik]. – Т.: “Shafolat Nur Fayz”, 2020. – В. 256. ISBN: 978-9943-6306-9-7
42. Jumaxanov Sh.Z., Toshpo'latov A.M. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya: Masalalar to'plami [Uslubiy qo'llanma]. – Namangan: “Namangan”, 2019. – В. 156
43. Капра Ф. Дао физики. СПб. «Орис», - Стр. 304.

44. Комилова Н.К. Тиббиёт географиясининг назарий ва амалий масалалари. -Т.: “Шарқ”, 2016. – Б. 264.
45. Максаковский В.П. Историческая география мира.-М., Экопрос,1999.
46. Назаров М., Тожиева З. Ижтимоий география. -Т.: Университет, 2003.
47. Ницше Ф. По ту сторону добра и зла // Ницше Ф. Сочинение в 2-т. М.: Мысль. 1990. –Стр. 256.
48. Поросенков Ю.В., Поросенкова Н.И. История и методология географии. - Воронеж, 1991.
49. Саушкин Ю.Г “История и методология географической науки” – М.: МГУ, 1972.
50. Soliyev A.S., Komilova N.K., Yanchuk S.L., Jumaxanov Sh.Z, Rajabov F.T. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya. Darslik. Университет.2019. – Б. 554.
51. Soliyev A.S., Komilova N.Q., Yanchuk S.L., Jumaxanov Sh.Z., Rajabov F.T. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya [Darslik], 2019. – В. 512.
52. Солиев А., Бўриева М., Назаров М., ва б. Қишлоқ жойлар демографияси. – Т.: “Университет”, 2005.
53. Солиев А.С Ўзбекистон географияси // Ўзбекистон иқтисодий ва ижтимоий географияси. –Т.: Университет. 2014. – Б. 404.
54. Солиев А.С. Иқтисодий география: назария, методика ва амалиёти [Матн]: танланган асарлар / А.Солиев; масъул муҳаррир: О.Б.Ота-Мирзаев. Тошкент: Камалка, 2013. 184 б.
55. Солиев А.С. Танланган асарлар. Избранные труды. –Т.; MUMTOZ SO’Z. 2018. – Б. 367.
56. Убайдуллаева Р.А., Ата-Мирзаев О.Б., Умарова Н.О. Ўзбекистон демографик жараёнлари ва аҳоли бандлиги (илмий-ўқув кўлланма). – Т., 2006.
57. Холтон Дж. Что такое антинаука // Вопросы философии. 1992. №2.
58. Чистобаев А.И., Шарыгин М.Д. Экономическая и социальная география. Новый этап. –Л.: “Наука”, 1990.
59. Швырев В.С. Научное познание как деятельность. – М., 1984. – Б. 12.
60. Шубаев Л. Умумий Ер билими. –Т.: Ўқитувчи, 1975. – Б. 386.
61. Янчук С.Л. Экономическая и социальная география. Учебное пособие. – Т.: Ijod-Press, 2019.
62. <http://www.lex.uz> – Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси.
63. <http://www.stat.uz> (O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi)
64. <http://demography.narod.ru>.
65. <http://www.demoscope.com>

MUNDARIJA

KIRISH		3
1	Fanlar tizimida ijtimoiy (iqtisodiy va ijtimoiy) geografiya	5
2	Fanning tadqiqot obyekti va predmeti muammosi	31
3	Mantiq va fanlar metodologiyasi	50
4	Geografiyada falsafiy maktablar	81
5	“Fan metodologiyasi” va “ilmiy tadqiqotlar metodikasi” tushunchalari o‘rtasidagi farq	102
6	Ilmiy tushuntirishning induktiv va deduktiv yo‘li	147
7	Geografiya fanining vujudga kelishi	189
8	XVIII – XIX asrlarda geografik tadqiqot metodlari va vazifalarining o‘zgarishi	233
9	Geografik determinizm, possibilizm, landshaft va mintaqaviy paradigmalarda	254
10	Miqdoriy inqilob va tizimli paradigma	278
11	Geografiyada xulq-atvor inqilobi	300
12	Iqtisodiy geografiyaning nazariy-metodologik asoslari	322
13	Tabiat va jamiyat o‘zaro aloqadorligi bilan bog‘liq tadqiqotlarning nazariy-metodologik asoslari	357
14	Tibbiyot geografiyasining nazariy va uslubiy asoslari	387
15	Ijtimoiy geografiyada prognozlashtirish	422
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR		439

Komilova Nilufar Qarshibayevna
Jumaxanov Shavkatjon Zairjanovich

IQTISODIY VA IJTIMOIIY
GEOGRAFIYA METODOLOGIYASI

(darslik)

Mas’ul muharrir: Ahmadaliyev Y.
Texnik muharrir: Toshpo’latov A.
Kompyuter operatori: Toshpo’latov A.

© O’ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

2021 – yil 31-may sanasida bosishga ruxsat etildi.
Bichimi 60×80, 1/16. Hajmi 27,7 b.t. Ofset bosma usulida bosildi.
Times New Roman garniturası. Adadi: 500 nusxa.

